O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“GLOBALLASHUV SHAROITIDA O‘ZBEK TILI NUFUZINI OSHIRISHNING NAZARIY VA AMALIY MASALALARIGA YANGICHA YONDASHUV: MUAMMO, YECHIM, ISTIQBOLLAR” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN

MATERIALLAR TO‘PLAMI

12.10.2022.
Navoiy shahri

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI TASHKILIY QO‘MITASI

B.Sobirov	Navoiy davlat pedagogika instituti rektori, texnika fanlari doktori, professor
	A’zolar:
I.Nasriddinov	Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori
X.Qurbonov	Navoiy davlat pedagogika instituti yoshlar bilan ishlash bo‘yicha prorektori
S.Xudoyberdiyev	Navoiy davlat pedagogika instituti moliya va iqtisodiy ishlar bo‘yicha prorektori
N.Murodova	Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori
R.Yusubova	Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori, dotsent
N.Yarashova	Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi, f.f.f.d.
G.Norova	Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi, f.f.f.d.
J.Yo‘ldoshev	Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi
B.Toshnazarov	Viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i
F.Raximov	Navoiy davlat pedagogika instituti ATM TB bo‘limi boshlig‘i
M.Norqobilov	Navoiy davlat pedagogika instituti bosmaxona xodimi

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANNING TAHRIR HAY’ATI

N.Murodova	Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori
R.Yusubova	Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori, dotsent
N.Yarashova	Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi, f.f.f.d.
R.Sharopova	Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi, f.f.f.d.

Maqola va tezislarning ilmiy saviyasi, ma’lumotlarning haqqoniyligiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

SO‘ZBOSHI

Bugun globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy-madaniy manfaatlarini ta’minlash, bu borada avvalo, o‘z madaniyatini, qadimiy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor vazifa sifatida ahamiyat qaratmoqda. O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgandan so‘ng o‘tgan 33 yil davomida hukumatimiz tomonidan ham o‘zbek tilini har tomonlama takomillashtirish, mavqeyini mustahkamlash, uning jahon tillari darajasidagi nufuzini ko‘tarishga katta e’tibor qaratilib, ko‘plab samarali ishlar amalga oshirildi. Shu ma’noda, Muhtaram Prezidentimizning 2019-yil 21-oktabrdagi o‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligini keng nishonlash to‘g‘risidagi 5850-son qarorida “xalqimizning ko‘p asrlik madaniy, ilmiy-ma’rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo‘lgan o‘zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biri” ekanligi ta’kidlab o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmoniga ilova qilingan “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”da uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, ta’lim tashkilotlarida davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish, davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish, davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta’minlash, davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, mamlakatimizda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar tillarini rivojlantirish maqsadida keng va teng imkoniyatlar hamda ularga davlat tilini o‘rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish kabi davlat tilini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan.

Shu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz uch yilligiga bag‘ishlangan ushbu ilmiy-amaliy anjumanga yuzga yaqin materiallar taqdim etilgan bo‘lib, maqolalarda o‘zbek tilining xususiyatlari xalq og‘zaki ijodi namunalari, yozma adabiyot tili misolida, shuningdek, tarixiylik, qolaversa, lingvomadaniy, lingvopragmatik, psixolingvistik, lingvopoetik aspektlarda ochib berilgan.

Ishonamizki, ushbu maqolalar tilshunoslik sohasi bilan shug‘ullanayotgan ilm ahlini befarq qoldirmaydi.

Tashkiliy qo‘mita

TIL – MILLAT MA’NAVIYATI TIMSOLI

Assalomu alaykum, muhtaram mehmonlar, ilmiy anjuman ishtirokchilari! O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 33 yilligi munosabati bilan o‘tkazilayotgan “Globallashuv sharoitida o‘zbek tili nufuzini oshirishning nazariy va amaliy masalalariga yangicha yondashuv: muammo, yechim, istiqbollar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumaniga xush kelibsiz!

Til – millatning asosiy belgilaridan, davlat mustaqilligining asosiy ramzlaridan biri bo‘lib, til mavjud ekan, millat mangu yashaydi; tilning tirikligi, aytish mumkinki, millatning, xalqning mavjudligidir. Demakki, o‘zbek tilining tirikligi – o‘zbek millatining mavjudligi, davlat tili esa o‘zbek davlatchiligining borligidan dalolatdir. Til – boy tariximiz, hayotbaxsh qadriyatlarimiz, din-u diyonatimiz, ma’naviyatimiz, xalqimizga xos dunyoqarashni ko‘rsatuvchi ko‘zgu, ajdodlar merosini avlodlarga yetkazuvchi vositadir. Shu sabab 1989-yil 21-oktabr – “Davlat tili haqida”gi qonun qabul qilingan kun har yili boshqa bayramlar qatori Navoiy davlat pedagogika institutida ham yuqori ko‘tarinkilik bilan nishonlanib kelinmoqda. Bu qutlug‘ kun barchangizga muborak bo‘lsin, deyman.

O‘zbek tilimiz dunyoning eng qadimiy va boy tillaridan biri hisoblanadi. Bu tilning keng imkoniyatlari qadimgi toshbitiklarda, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarlarida, Ahmad Yassaviy hikmatlarida, Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy”, “Xamsa” asarlarida, Boburning “Boburnoma” asarida, Boborahim Mashrab, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira kabi mumtoz shoirlarimiz va asrimiz adiblari ijodida madh etib kelinmoqda.

“Davlat tili haqida”gi qonun o‘zbek tilining taraqqiysi, erkin rivojlanishi, davlat va jamoat organlarida asosiy ish yuritish tiliga aylanishi va tilimiz muhofazasi yo‘lida qilingan huquqiy harakat bo‘lib, tilimizni davlat tili maqomi bilan mustahkamladi. Bu qonun o‘zbek xalqi milliy ongining taraqqiysida, mamlakat mustaqilligi mustahkamlanishida, madaniy merosimiz hamda ma’naviyatimizning tiklanishida muhim rol o‘ynadi. Mustaqil O‘zbekistonning Konstitutsiyasida va davlat tili to‘g‘risidagi qonunning yangi tahririda til masalasi bugungi kun talabi darajasida o‘z aksini topdi. Konstitutsiyamizning 4-moddasida davlat tili to‘g‘risidagi qoidalar: “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”, degan zalvorli jumlalarda mustahkamlandi. Mazkur qoida 1995-yil 25-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Davlat tili haqida”gi qonunining yangi tahririda mufassal yoritib berildi.

Demakki, o‘zbek tilining rivoji va ravnaqi uchun davlatimiz tomonidan barcha imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratilgan. O‘zbekiston Respublikasida “Davlat tili haqida”gi qonunning barcha moddalari to‘liq amalga kiritildi.

Tilning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi xalq hisoblansa ham, uning taraqqiyotida olimlarimizning, shoir va yozuvchilarimizning, davlat va jamoat arboblarining, huquqshunoslarimizning, pedagoglar va matbuot xodimlarining, kino, teatr san’ati ustalari va nashriyot xodimlarining hamda jurnalistlarning xizmatlarini qayd qilish lozim. Ayniqsa, mustaqillik davrida tilshunos olimlarimiz, shoir-yozuvchilarimiz va jurnalistlarimizning xizmatlari katta bo‘ldi. Ularning samarali mehnatlari tufayli tilshunoslikning ko‘pgina yo‘nalishlari bo‘yicha qat’iy me’yorlar belgilandi, ona tilimiz rivojiga oid yangi qoidalar va qarorlar inobatga olingan holda til birliklarining yozuv va muomala jarayonidagi namunaviy variantlari tavsiya etildi, til tizimidagi ko‘pgina munozarali masalalar o‘zining nazariy asosiga qo‘yildi.

Bugun o‘tkazilayotgan “Globallashuv sharoitida o‘zbek tili nufuzini oshirishning nazariy va amaliy masalalariga yangicha yondashuv: muammo, yechim, istiqbollar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanida ham respublikamizning yetakchi olimlari tilshunoslikning dolzarb masalalari va muammolarining yechimlari, ona tilimizning kelgusi istiqbolli rejalari xususida o‘z fikr-mulohazalari bilan ishtirok etadilar.

Ruxsatingiz bilan bugungi ilmiy-amaliy anjumanni ochiq deb e’lon qilaman.

Bahodir Boypulatovich Sobirov
Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

ЛИНГВИСТИК ГЕОГРАФИЯ: ЛИНГВИСТИК АТЛАСЛАРНИНГ ЯРАТИЛИШИ

Нигора МУРОДОВА,
НавДПИ Ўзбек тилшунослиги кафедраси профессори, ф.ф.д.

Лингвистик география тилшуносликнинг бир бўлими бўлиб, у маълум территорияда тарқалган тил ҳодисалари (товушлар, граматик формалар, сўзлар)ни аниқлайди, территориал тил хусусиятларини халқ тарихи, тил тарихи билан алоқадор ҳолда қиёслаб, лингвистик хариталарини яратиш билан шуғулланади.

Лингвистик география ҳам диалектларни ҳудудий тарқалишини лингвогеографик усулда ўрганади. Унинг энг асосий ҳусусиятларидан бири маълум тил ҳодисаларининг ўрни ва тарқалиш чегараси хариталар, атлас воситасида аниқ белгилаб берилади. Карта ҳам атлас ҳам лингвистик географиянинг ифода воситаси бўлиб, унинг асосий мақсади тилнинг тараққиёт қонуниятлари ва йўлларини, маълум бир диалектларни пайдо бўлиши ва ҳозир истеъмолда қўлланиш сабабларини, диалект ҳусусиятларининг адабий тил билан ўзаро алоқаси масалаларини ёритиб беришдан иборат. Муайян ҳудуднинг маълум бир лингвистик хусусиятларининг хариталари яратилиб, тўплами асосида атласлар юзага келади.

Лингвистик география XIX асрнинг ўрталарида диалектологик кузатишлар ривожланган, диалектологлар диалектлар ва уларнинг ҳусусиятлари тўғрисида етарли фактик материаллар тўплаган жойларда пайдо бўлди. Айрим тил ҳодисаларининг ҳудудий бир-бирига мос келмаслик ҳолатларининг кузатилиши лингвистик географиянинг майдонга келишига асос бўлди. Бу билан боғлиқ диалектал чегараларнинг мавжуд эмаслиги ҳақидаги тасаввур вужудга келди. Ана шунинг натижасида П.Мейер, Парис каби олимлар умуман диалектлар мавжуд эмас деган хулоса чиқардилар. Бу хулоса эътирозларга сабаб бўлди.

Лингвистик география XIX аср охири ва XX аср бошларида Францияда Ж.Жильерон ва Германияда Б.Мартин, В.Мицкалар томонидан лингвистик атласларнинг яратилиши билан ривожланган.

Лингвистик хариталаштириш дастлаб, этнографик хариталаш тарзида бўлган, шунинг учун ҳам илк лингвистик хариталар “этнолингвистик хариталар даражасида” тузилганлиги қайд этилган. (Сухачев, 1974, 33).

М.А.Бородина таъкидлаганидек, “Лисоний география фақат тилнинг ички таркиби билангина боғлиқ эмас, у баъзан тадқиқотчини мамлакат халқлари, савдо йўллари ва айрим аҳоли пунктлари тарихи билан боғлиқ тилнинг ташқи тарихи юзасидан ҳам кутилмаган натижаларга йўлиқтиради”[1]. Шунинг учун шева воқелигининг тарқалиш чегараси тадқиқ этилаётган ҳудудни айрим маъмурий бирликларга қадимий бўлиниши, у ёки бу жойларда деҳқончилик, чорвачилик тарқалиш зонаси, шунингдек, аҳолининг турли даврларда кўчиши, унинг ҳудудлараро алоқаси кабилар билан белгиланиши мумкин.

XX аср бошларида тиллар билан боғлиқ ҳудудий масалаларни ўрганувчи йўналиш ареал лингвистика эмас, лингвистик география йўналишида машҳур эди.

[1] Бородина М.А. Проблемы лингвистической географии. – М.-Л., 1966. – 8-с.

Бу масала диалектолог олим А.Шерматовнинг “Лингвистик география нима” рисоласида кенг ёритиб берилган.

Туркий тиллар, жумладан, ўзбек тилининг таснифлари ҳам ҳудудий ва географик тарқалиш тушунчалари билан узвий боғлиқ бўлади. Жумладан, туркий тилларнинг илк таснифини берган Маҳмуд Кошғарий туркий халқлар ва шеваларининг тарқалиш ҳудудларини “Румдан Чингача” шаклда географик чегараларини кўрсатади.

Лингвистик география, диалектология, ареал лингвистика тилшунослик фани айни бир соҳасининг турлича номланиши эмас, балки тилнинг турли томонларини турли хил усуллар билан ўрганувчи соҳадир.

Лингвистик география юзасидан олиб борилган биринчи тажрибалар тилни бу янги метод орқали ўрганиш қанчалик натижали эканини кўрсатди. Лингвистик география муаммолари назарий ривожланишининг бошланиши М.Бартоли илмий асарлари билан боғлиқ. Унинг неолингвистик (реал) таъли- моти тил узлуксизлиги жиҳатидан Ж.Жилъерон,Г.Шухардт, Ж.Шмидт, А.Шлейхернинг қарашларига тўғри келади. М.Бартолининг ареал назарияси бир томондан, экстралингвистик омилларнинг ўрнини баҳолаб, қиёсий тарихий тилшунослик асосларини қайта кўриб чиқса, иккинчи томондан лингвистик географияга чуқур назариялар киритганлиги тилшуносликнинг ривожланишида ўрни борлигини кўрсатади. Бу билан олим лингвогеографик тадқиқотларда макон тушунчасининг талқин этилишига ўз ҳиссасини қўшди. XIX-XX асрда тилшуносликдаги бу янги йўналишнинг ривожида жуда катта таъсир кўрсатган Европа лингвогеографларининг алоҳида ўрни бор. Лингвистик географиянинг асосчилари: Францияда Жан Жилерон, Германияда Георг Венкер, Ф.Вреде, П.Мейерлар, Рус тилшунослигида И.ИСрезневский, А.И.Соболевский, А.А.Шахматов кабилардир. Уларнинг илмий асарлари туфайли лингвистик география соҳасига тил ҳодисасининг ҳудудий тарқалишини кўрсатувчи лингвистик картага туширилган белги “изогласса” (изофонема-фонетик белги, изоморфема-морфологик белги, изолексика-лексик белги) тушунчаси киритилди. Бу даврда рус, беларус, украин, болгар, молдаван тилларининг диалектологик атласлари, “Карпат диалектологик атласи” нашр этилди.

Шуни айтиш мумкинки, лингвистик география диалектология материалларига таянади. Аммо лингвогеография кенг ҳудудга эга бўлиши ва бир вақтда кўплаб фактларни қамраб олиши умумлаштириш ҳажмининг кенглиги билан тасвирий ва таҳлилий хусусиятга эга бўлган диалектологиядан ажралиб туради. Буни тилнинг барча ҳодисаларини тарқалиши бўйича мавжуд хариталарда кузатиш мумкин Лингвогеографияни ўрганиш объекти маълум бир ҳудудда тарқалган изоглоссалар йиғиндиси ёки ландшафти орқали белгиланади. Лингвистик географиянинг пайдо бўлиши ва ривожланиши тилдаги дилектал фарқланишларни карталаштириш ва диалектологик атласлар яратиш билан боғлиқдир. Бундай атласлар хилма-хил бўлиши мумкин: айрим ҳудудни акс эттирувчи атласлар, турли системага мансуб бўлган тилларнинг тарқалишини акс эттирувчи ва бошқалар.

Лингвистик географиянинг шаклланиши ва ривожланишида кўплаб олимларнинг жаҳон тилшунослигида, туркийшунослик ва ўзбек тилшунослигида қатор илмий тадқиқот ишлари амалга оширилди. Жумладан, Р.И.Аванесов, В.М.Жирмуниский, В.А.Ларин, Ф.П.Филин, М.А.Бородина, Н.З.Гаджиева, М.М.Шералиев, Н.В.Бурганов, Г.Б.Бакирова, Н.А.Баскаков, Л.А.Покровская, Е.В.Севертян, В.Решетов, Ш.Шоабдураҳмонов, А.Шерматовларнинг лингвистик географияга, лингвистик атлас тузиш муаммоларига бағишланган қатор асарлари майдонга келди.

Лингвистик атлас. Лингвистик атлас - маълум бир ҳудуд шевавий ўхшаш ва фарқларни ўзида акс эттирувчи хариталар мажмуасидир. Лингвистик атлас юзлаб, ҳатто минглаб хариталарни ўз ичига олади. Бунинг сабаби лингвистик атласнинг ҳар бир харитаси алоҳида бир изоглосса асосида тузилади. Диалектология шевавий фарқларни қайд қилади ва тавсифлайди. Ареал лингвистика ҳодисаларни харитада кўрсатади. Шунинг учун хариталаштириш ареалогик тадқиқотларнинг ҳам усули, ҳам натижасидир. Маълум бир минтақа (давлат, тил) лингвистик атласини тузиш ареал лингвистиканинг сўнгги мақсадидир.

Маълумки, илк марта Маҳмуд Қошғарий туркий халқлар яшайдиган ҳудудлардаги уруғ-қабила тилларининг ҳудудий тарқалиши бўйича материаллар тўплади ва уларни қиёсий таҳлил қилиб, харитада уларнинг яшаш худудини кўрсатиб берди. Маҳмуд Қошғарий бу тиллардаги ҳар бир кичик фарқларни ҳам аниқлаш учун қилганлигини таъкидлайди. Бу асарда айрим шаҳар ва қишлоқлар аҳолисининг этник таркиби, ижтимоий тузумига оид қисқача таърифлар, этнотопонимикаси ва айрим қабила ҳамда уруғларнинг жойлашиши тўғрисида ноёб маълумотлар келтирилган .

Жаҳон тилшунослигида энг яхши диалектологик атлас XX асрнинг бошларида тузилган Жан Жильерон, Эдмонларнинг 12 жилдли “Француз тили атласи” (1902–1912). Шунингдек, Венккер, Вреде томонидан тузилган немис тили атласи (1876–1926), Марбургдаги немис диалектологияси Марказий институти нашр этган “Немис лексикологик атласи”ни ҳам келтириш мумкин. Рус тили диалектологик атласи Москва ФА рус тили институтида Р.И.Аванесов, Б.А.Ларин бошчилигида 1951 йилда “Москва шарқидаги Марказий областлар рус халқи шевалари атласи”, 1952 йилда “Шимоли-ғарбий областлар рус халқ шевалари атласи”тузиб чиқилди.

Диалектолог олим А.Шерматов таъкидлаганларидек, лингвистик атлас натижасида айтилган хулосалар ундаги алоҳида карталар даражасидан ва уларнинг ўзаро боғланишидан келиб чиқади. Лингвистик атлас ўзида маълум тилнинг ҳамма аспекти бўйича материал мавжуд бўлиши билан шу тилнинг назарий ва амалий фонетикаси, грамматикаси ва лексикологияси тараққиётини чуқур ўрганиш учун имконият яратади.

Лисоний хариталарда белгиланган тил ҳодисалари тарқалган ҳудудларни тадқиқ этиш лисоний ҳодисаларнинг тарихини белгилайди, тилларнинг ўзаро таъсирини очиб беради, уларнинг тараққиётини даврлаштириш имконига эга бўлишга кўмаклашади. Шунинг учун ҳам халқ шеваларини лисоний жуғрофий усулда ўрганиш тил тараққиётининг янги-янги қирраларини очиб беришига имкон яратади. Бунга эришиш учун тил ҳодисалари тарқалган ҳудудни тадқиқ этиш катта ёрдам беради. Шева ҳудудларининг моҳияти эса, уларни белгиловчи шева чизиқларига мос келади. Шева чизиқлари ҳар хил кўринишга эга бўлади. Шева чизиқларини бирлаштирувчи кўринишлар ажратиб кўрсатилган ҳудудларнинг хусусиятлари бўйича таққослашга асосланади. Шунинг учун тадқиқ этилаётган ҳудуд учун хос бўлган, хариталарда акс этган объекти маълум диалектал таснифотга таянади.

Лингвистик атласлар тузиш ишига маълум бир тил ёки минтақа шеваларининг ҳудудий минтақавий тавсифи якунлангандан кейингина киришиш мумкин. Чунки шундан кейингина маълум бир тил шеваларнинг ёки тиллар оиласи ё гуруҳидан у ёки бу тилнинг бир-биридан фарқ қилишига хизмат қиладиган энг асосий фонетик, фонологик, лексик, морфологик, синтактик, деривацион ўхшашлик ва фарқлар аниқланади. Ҳар бир ўхшашлик ва фарқнинг (инновациянинг) қайси ҳудудларда,

қайси шеваларда қўлланилиши аниқ тавсифланади. Шундан кейингина ареалогик тадқиқотларга ва лингвистик (диалектологик) харитачиликка киришиш мумкин.

Ареал лингвистика ҳодисаларни харитада кўрсатади. Шунинг учун хариталаштириш ареалогик тадқиқотларнинг ҳам усули, ҳам натижасидир. Маълум бир минтақа (давлат, тил) лингвистик атласини тузиш ареал лингвистиканинг сўнгги мақсадидир. Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, бундай атлас географик атласга ўхшаб бир турдаги харитадан иборат бўлмайди. Юқорида таъкидланганидек, лингвистик атлас юзлаб, ҳатто минглаб хариталарни ўз ичига олади.

Лингвистик харитада маълум бир умумий минтақа мана шу юзлаб ёки минглаб хариталарда айнан такрорланади. Чунончи, дарсликка илова қилинган 3-иловага эътибор қилинг. Бу иловада Навоий вилоятида уруғ-қабила, миллат ойконимлари (яшаш жойлари) 208 нуқтаси кўрсатилган. Фақат Навоий вилояти ўзбек шеваларининг лексик хусусиятларига бағишланган Н.Муродованинг докторлик диссертациясида 100 та харита илова этилган ва 4-100 -хариталарда мана шу 3-иловада кўрсатилган минтақа айнан такрорланади. 3-харитани илова этилаётган 5-харита билан қиёсласангиз бунга амин бўлишингиз мумкин. Бунинг сабаби шундаки, лингвистик атласнинг ҳар бир харитаси алоҳида бир изогласса асосида тузилади. Ареал тадқиқ ва умумлаштириш учун қанча кўп тадқиқ ва тавсиф бирликлари олинган бўлса , хариталар сони шунча кўп ва лингвистик атлас шунча мукаммал бўлади.

Лисоний хариталарда белгиланган лисоний бирликларнинг тарқалиш ҳудудини тадқиқ этиш, тилларнинг ўзаро алоқасини очиб беришга, тил ҳодисаларининг тарихини, уларнинг тараққиёт босқичларини белгилашга ёрдам беради. Лисоний жуғрофик вазифаларни ҳал этиш танланган лисоний материалнинг қадимийлигига боғлиқ. Масалан, шева лексикасининг мавзуи гуруҳлари объектни текшириш учун муҳим манба ҳисобланади, чунки унинг кўпчилик таркибий қисмлари қадимийдир. Шу боис ҳам улар қадимий ҳудудий лексик оппозицияларнинг пайдо бўлишига имкон яратиши, табиий.

Дарҳақиқат, “ҳудудларнинг ўзаро алоқаси лисоний нуқтаи назардан анчайин динамик ҳисобланади, бу лисоний ҳодисаларнинг талқини, йўналишини аниқлаш имконини беради. Бу ўзаро алоқалар муқобил шакллар, сўзларнинг кириб келиши, кучлироқ лисоний мақомлар, яъни адабий тил ва шева, шева ва ҳудуд шевалари кабиларнинг ўзаро алоқасида намоён бўлади”[1].

Бугунги кунда ўзбек шевалари ҳудудини лисоний-жуғрофик тадқиқ этиш қатор долзарб муаммоларни ҳал этишга ёрдам беради. Шеваларнинг ташқи чегарасини, ички таснифини тадқиқ этиш, таҳлил этилаётган шеваларнинг умумўзбек диалектал микроҳудуд тизимидаги ўрнини белгилаш ана шу муаммолардан энг муҳими ҳисобланади.

Ўзбек шеваларининг ареал тарқалишини ўрганиш учун Ўзбекистон ҳудудининг барча ҳудудларида илмий изланишлар олиб бориш лозим. Чунки ўзбек шевалари тарқалган ҳудудларда ўзбек шевалари ареал йўналишда ўрганилмаган. Шу боис ҳам “Ўзбек шеваларининг лингвистик атласи” яратилмаган. Бундай харита ўзбек тилшунослигида, албатта, яратилиш зарурлиги давр талабидир. Чунки “Лингво-жуғрофий харита материаллари ўзбек шеваларининг мавжуд таснифларини тўлдириш, мукаммаллаштиришга, уларга аниқлик киритишга ёрдам беради. Шунингдек, ўзбек шеваларининг пайдо бўлишида қатнашган туркий ва туркий

[1] Взаимодействие лингвистических ареалов. – Л.: Наука, Ленинградское отделение, 1980. – 244 с.

бўлмаган этник гуруҳларнинг ўзаро алоқалари натижасида рўй берган жуда мураккаб этнолингвистик тараққиёт жараёнини ҳам белгилаб беради”[1].

Ўзбек шеваларини ареал ўрганиш ва уларнинг лингвистик хариталарини яратиш шеваларнинг тарқалиш ўринлари, тилнинг тараққиёт қонуниятлари ва йўлларини аниқлашга ёрдам беради. Шунингдек, “Ўзбек шеваларининг диалектологик атласи”ни яратилиши учун асос бўлади. Албатта, бунинг учун ўзбек шеваларини ареал ўрганиш бўйича ҳали жуда катта илмий тадқиқот ишлари амалга оширилиши лозим.Шунингдек, хаританинг лисоний материаллари тадқиқ этилаётган ҳудуддаги ўзбек шевалари тизимининг ташқи диалектал чегараси ва ўзбек тилининг бошқа диалектал зонаси билан алоқасини аниқлаш имконини беради.

Лингвистик атласнинг аҳамиятли томони шундаки, биринчидан, у маълум минтақанинг, жумладан, Ўзбекистонимизнинг лисоний манзарасини ёрқин акс еттиради.Иккинчидан, адабий тил меъёрларини тўғри белгилашда муҳим манба бўлиб хизмат қилади.Учинчидан, адабий тил хазинасини ўзбек халқи ҳаёти ва турмуш тарзи билан узвий боғлиқ бўлган минглаб воқеанинг ҳодисалари номларини адабий тилга олиб кириш, шу билан адабий тил луғат бойлигини кескин оширишга манба бўлади. Чунончи, Навоий вилоят шеваларида оёқ кийимсиз деган сўз ўрнида пойич диалектал лесемаси мавжуд. Адабий тилда шу нарсани аниқ ифодалайдиган сўз йўқ. Ёки Сурхондарё, Қашқадарё шеваларида вояга етган эркак итни атовчи арлон сўзи мавжуд. Бу каби сўзларни кўплаб келтириш мумкин. Ўзбек адабий тилида учрамайдиган сўзлар тавсифий- ҳудудий диалектологик ишларда ҳар бир шева бўйича қайд этилган. Лекин бу қайдлар диссертацияларнинг иловаларида, мақолаларда қолиб кетди. Лингвистик атлас шундай сўз ва ҳодисаларни системалаштирган, улардан қай бири қай даражада тарқалган, қайсилари умуммиллий бойлик даражасида халққа етказиш маъқул эканлиги ҳақида аниқ ахборот берадиган манба бўларди. Лингвистик атлас тил таълимини тўғри йўлга қўйишда, шевавий фарқ ва хатоларнинг олдини олишда, умумиллий меъёрий адабий тилни кенг оммалаштиришда ҳам ижобий таъсир кўрсатади.

Ўзбек шеваларини ареал ўрганиш ва уларнинг лингвистик хариталарини яратиш шеваларнинг тарқалиш ўринлари, тилнинг тараққиёт қонуниятлари ва йўлларини аниқлашга ёрдам беради. Шунингдек, “Ўзбек шеваларининг диалектологик атласи”ни яратилиши учун асос бўлади.Албатта, бунинг учун ўзбек шеваларини ареал ўрганиш бўйича ҳали жуда катта илмий тадқиқот ишлари амалга оширилиши лозим.

ЎЗБЕК ТИЛИ ЛЕКСИКАСИ ТАРАҚҚИЁТИДА ДИНАМИК ОМИЛ

Маҳмуд РАВШАНОВ,
Навоий давлат кончилик ва технологиялар университети профессори в/б, ф.ф.д.
Илҳом ЭРГАШЕВ,
Навоий давлат кончилик ва технологиялар университети Ўзбек ва чет тиллар кафедраси мудири, доцент

Аннотация. Ўзбек тили лексикаси тараққиёти тараққиёти икки омилга боғлиқ: динамик ва статик тараққиёт омиллари. Мазкур мақолада ўзбек тили Лексик бирликлари динамикасининг энг фаол қатламлари ҳақида маълумот ва тавсифлар берилди. Жумладан, атоқли отлар семантикаси, сўз ўзлаштириш ва ҳозирги шароитдаги фаол қатлам лексикаси бўйича.

[1] Решетов В.В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Т., 1978. – 195 б.

Таянч сўзлар: лексик бирликлар, фаол қатлам, сўз динамикаси..

Ўзбек тили лексикаси **динамик** тараққиётида атоқли отлар тизими ва ундаги номинация жараёнлари турдош отларга қараганда жуда фаол иштирок этади. Мазкур мақоладаги лексик бирликлар таҳлилида асосий эътиборни статик хусусиятга эга лексик бирликларга нисбатан динамик хусусиятга эга лексик бирликлар таҳлили ва тавсифи етакчи ўринда бўлади. Таҳлилимиз жарёнида аниқланадики, лексик тараққиёт динамикаси кўп омилларга боғлиқдир Демак, атоқли отларнинг динамик хусусияти қуйидаги таснифимиздааниқ йўналиш ва қайдлар билан тавсифланади.

Атоқли отлар:

Ўзбек тилида атоқли отларнинг деярли барча типлари мавжуд ва улар тилда ўзига хос мураккаб номинатив(номловчи) тизимни ташкил этади:

Антропонимлар (исм, лақаб, фамилия, отчество, патрономик номлар);

Топонимлар (қуруқликдаги табиий-географик объектлар, сувликдаги табиий географик объектлар, инсон томонидан яратилган объектларниинг номлари);

Зоонимлар (ҳайвон ва бошҳа хил мавжудотларга берилган лақаб номлар);

Астропонимлар (юлдузлар, сайёралар ва улардаги космик объектлар, жисмларга, ҳодисаларга берилган махсус номлар);

Теонимия (диний-мистик тушунчалар, афсонавий мавжудотлар, худолар, пайғамбар, авлиёлар, «муқаддас» қадамжойларга берилган махсус номлар);

Фитономия (фитонимлар — ўсимликларга берилган атоқли отлар);

Хремотонимлар (жонсиз предметлар — қуроллар, қимматбоҳо буюмлар, мусиқий асбобларнинг атоқли отлари);

Хрононимлар (муайян тарихий даврлар, алоҳида тарихий кунлар, воқеаларнинг атоқли отлари);

Документонимлар (тарихий ҳужжатлар, қонунлар, актлар ва бошқаларнинг атоқли отлари);

Фалеронимлар (махсус мукофотлар, совғалар — орденлар, медаллар, нишонлар, ёрлиқлар ва бошқаларнинг атоқли отлари);

Шундай қилиб, ўзбек тилининг луғат таркиби қуйидаги лексиқ гуруҳлардан ташкил топган:

1. Умумистеъмолдаги сўзлар;
2. Махсус лексика: терминология ва профессионализмлар.
3. Диалектал лсксика— диалектизмлар;
4. Ижтимоий жаргонларга оид сўзлар;
5. Атоқли отлар тизими.

Ўзбек тили луғат таркибининг келтирилган лексик группалари ўзаро муносабатда. Улар ўртасида ички, мураккаб алоқа мавжуд. Буни схемада шартли равишда шундай кўрсатиш мумкин. Ўзбек тилининг луғат таркиби ундаги турли-туман сўзларнинг оддий йиғиндиси, инвентаридан иборат эмас. Луғат таркиби *ўзгариш, ривожланиш, бойиш* ва *эскириш* хусусиятларига эгадир. Тил луғат таркибида эскиришга қараганда янгиланиш ва бойиб бориш кучли бўлади. Шу туфайли тилнинг луғат таркиби тарихий-ижтимоий эҳтиёжлар, жамият ҳаёти эҳтиёжларига кўра ўзгариб, бойиб боради. Тил луғат таркибидаги потенционал имконият,луғат таркибининг истеъмолдаги воситаларига нисбатан миқдор жиҳатдан устун туради. Луғат таркибидаги бундай хусусият ундаги сўз бойлигидан нутқий жараёнда танлаб, бемалол ва эркин фойдаланиш имконини туғдиради[1.21-87].

Тил луғат таркибидаги мавжуд воситалардан конкрет нутқий жараёнда, нутқий услубларда эркин, таилагаи ҳолда фойдаланиш ўша нутқий шаклнинг лексик меъёрларини белгилайди, шаклланти-ради.

Тил луғат таркиби имкониятларидан фойдаланиш хусусиятларига кўра *ўзбек тилининг яшаш формалари* (адабий тил, диалект ва шевалар, профессионал нутқ) ўзаро, адабий тилнинг *услубий кўринишлари* (илмий-техника тили, илмий-оммабоп тил, адабий сўзлашув тили, бадмий адабиёт тили, расмий услуб, эпистоляр услуб ва б.) ўзаро фарқлаиади. Одатда, тилнинг луғат таркибидагн сўзлар нутқнипг ижтимоий ва функционал услубий кўринишларига мослашган бўлади. Маълум услубга мослашган, сингишган сўзлар типи ўша услубнинг *лексик меъёрларини* характерлайди. Мана шу нуқтаи назардан ўзбек тилининг луғат таркиби мураккаб жараёнлар, ундаги кўп сонли сўзларнинг турли-туман муносабатларидан иборатдир:

а) ўзаро алоқадор бўлган лексик бирликлар йиғиндисидан;

б) ички боғлиқлик кучига таянувчи лексемаларнинг ўзаро мувофиқ келувчи муносабатларидан иборатдир. Ўзбек тилининг луғат таркиби ҳаракатда ва доимо ўсишда(динамик хусусият). Луғат таркибининг ҳаракати(динамикаси) қуйидагиларда кўринади:

1) ҳозирги ўзбек тилидан ўтмишда ишлатилган бир қатор эскирган сўзларнинг чиққанлигида;

2) аввал фаол бўлган бир қатор сўзларнинг нофаол қатламга ўтишида;

3) аввал нофаол бўлган баъзи лексемаларнинг ҳозирда фаоллашганида;

4) бир қатор эски сўзларнинг янги сўзлар билан алмашганида;

5) ҳозирги ўзбек тилида янги сўзларнинг ясалишида;

6) бошқа тиллардан сўзлар ўзлаштирилишида;

7) қўшма сўзлар ва турғун бирикмаларни ҳосил қилишнинг фаоллашганида;

8) тилда янги сўз ясаш моделларининг пайдо бўлганида;

9) баъзи сўзлар маънссининг кенгайганида;

10) аксинча баъзи сўзлар маъносининг торайганида;

11) бир қатор сўзларнинг эски маъносини йўқотиб, янги маънода қўллана бошлашида;

12) умумистеъмол, оддий услуб сўзларининг китобий, илмий маънога эга бўлиб, терминлашувида;

13) атоқли от янги типлариниг пайдо бўлганлигида кўринади. Ўзбек тили луғат таркибининг ҳаракати ундаги силжишлар, ўзгариш ва ривожланиш, пировардида луғат таркибининг бойиши ҳозирги глобаллашув даврида юзага келган бир қатор *экстралингвистик омиллар* билан боғлиқдир. Бундай омилларнинг энг муҳимлари қуйидагилар:

1) ижтимоий ҳаёт ўзгарди — Янги Ўзбекистонда жамият ҳар томонлама янгиланмоқда;

2) ўзбекларда янгича ижтимоий дунёқараш пайдо бўлди ва шаклланди;

3) ўзбек тилидан фойдаланувчи жамоанинг ижтимоий табиати ўзгарди;

4) учинчи ренесанс даври маданият, даври турмуш тарзи, янгича оилавий ва маиший муносабатлар юзага келди;

5) учинчи ренесанс даври ижтимоий соҳага оид фанлар ва унинг замонавий миллий тармоқлари пайдо бўлди, ривожланди;

6) республикада янги, замонавий саноат ва қишлоқ хўжалиги(кластер тизими) юзага келди;

7) учинчи ренесанс даври санъат, адабиёт, миллий матбуот ривождопди;

8) ўзбек тили радио, телевидениеда, тарғибот ва тушунтириш ишларида қўлланадиган бўлди;

9) кейинги даврдаги, халыаро алоыалар ривожланган пайтда ўзбек тилига бошқа тиллардан кўп сонли илмий-техникавий, бадиий адабиётлар, турли ахборотлар ва ҳужжатлар таржима қилинди;

10) учинчи ренесансда ўзбек тилида кўп сонли китоблар, дарслик ва қўлланмалар нашр этила бошлади;

11) ўзбек адабий тилида кўп сонли мдтбуот ходимлари, радио, телевидение, нашриёт муҳаррирлари, олимлар иш олиб борди ва иш олиб бормоқда;

12) ўзбек тили лексикаси динамикасига замонавий рекламалар, модалар ва кишиларнинг шахсий майллари таъсир этди;

13) ўзбек тилида берилувчи оммавий информация ҳажми ниҳоятда ўсди ва ривож топди, жумладан, спорт, маданият ва бошқа эҳтиёжлар.

Келтирилган экстралингвистик омиллар ўзбек тилининг лексик тизимига катта таъсир кўрсатди. Бу таъсирнинг конкрет ва аниқ натижалари ўзбек тили лексикасининг учинчи ренесанс даври ривожида, айниқса, ёрқин кўринди. **Экстралингвистик омил** таъсирида ўзбек адабий тили лексик меъёрлари янги ижтимоий-сиёсий ва услубий талабларга кўра, шунингдек, ўзбек адабий тили ижтимоий вазифаси ва мавқеининг ниҳоятда кенгайиши туфайли қайта шаклланди, ўз имкониятларини шароитга мос равишда қайта қурди, мослади. Янги ижтимоий шароит тақозосида ўзбек тили коммуникатив вазифасининг ниҳоятда кенгайиши ўзбек тили луғат таркиби мазмуний динамикаси олдига улкан талаблар қўйди. Натижада ўзбек тили луғат таркибининг янги номинатив асосида билан бойитиш эҳтиёжлари юзага келди. Ҳозирги глобаллашув даврида ўзбек тили лексикасини бундай бойиши(динамикаси) қуйидаги усуллар билан амалга оширилди:

1. Ўзбек тилининг ўз *ички ресурсларидан* фойдаланиш(маъно кўчиш ва сўз ясалиши);

2. *Ташқи ресурслардан* фойдаланиш(асосан сўз ўзлаштириш).

Ўзбек тилининг ўз *ички ресурслари* асосида ўзбек тилининг луғат таркиби қуйидагича бойитилди:

а) адабий тилга ўзбек диалект ва шеваларидан зарур сўзларнинг кириб келиши;

б) эски ўзбек тили, жумладан, ўзбек классик адабиёти тили лексик бойликларидан барча интерпретацион воситалардан ўринли фойдаланишомиллари;

в) анъанавий лексик қатламлар динамикасини ички ва ташқи ресурслар ҳисобига фаоллаштириш;

г) ўзбек тилининг ўз сўзларидан янги сўз ва терминлар ясаш;

д) сўз ясашни фаоллаштириш, бу лингвистик жараёнда айрим аффикслар ва моделлар вазифасини кенгайтириш;

е) сўзларнинг синтактик усулда ясалишини кучайтириш. Бунда ўз ички тил ресурсларидан, шунингдек, ўз тил ва ўзга тил материаллари қўшилмасидан кенг фойдаланилди;

ё) сўзларни янги-янги кўчма маънода қўллаш (айниқса, метафорик ва метонимик жараёнлар);

з) калькалаш усулида сўз ясаш қолипларини фаол тилга жорий этишда ва б.

Демак, тил луғат таркибидаги ўзгаришлар — унда эскирган ҳодисаларнинг юзага келиши, янги лисоний динамик (ўсиш)ҳодисаларининг пайдо бўлиши қонуний жараёндир. Луғат таркибидаги ўзгаришлар, ундаги янгиланишлар турли даврларда маълум меъёрда юз беради. Адабиётлар

1. Батманов И. А. Язык енисейских памятников древнетюркских письменностей. Фрунзе, 1959.

3 Айдаров Г. Язык орхонского памятника Бильге-Кагана. Алма-Ата, 1966.

4 Айдаров Г. Язык орхонских памятников древнетюркских письменностей VIII века. Алма-Ата, 1971.

5 ДТС.— Древнетюркские диалекты и их отражение в современных языках. Фрунзе, 1971.

ЎЗЛАШМА ҚАТЛАМ ЛЕКСИК БИРЛИКЛАРИ ДИНАМИКАСИДА ТАРИХИЙЛИК ТАМОЙИЛЛАРИ

Маҳмуд РАВШАНОВ,
Навоий давлат кончилик ва технологиялар университети профессори в/б, ф.ф.д.
Фазлиддин НАЖМИДДИНОВ,
НавДПИ доценти

Аннотация. Ўзбек тилининг тарихий тараққиёти кўп асрлик даврларга бориб тақалади. Ўзбек тили лекси к қатламини диахрон планда ўрганишга илгари кам эътибор қаратилди. Илгари фақат тилларнинг фонетик ва грамматик қурилишига эътибор қаратилар эди. Кейинги даврда ўзбек тили лексик бирликлари динамикасининг ҳам динамик, ҳам статик йўналрлиги лексика соҳасини тадқиқи мукаммаллашди. Тилнинг энг фаол бирлиги, унинг лексик тараққийси жуда муҳим ҳисобланади.

Таянч сўзлар: лексик бирликлар, диахрон, синхрон, диахрон сўз ўзлаштириш.

Ўзбек тили луғат таркибининг бойишида ички манба имкониятлари муҳим ресурслардир. Ҳозирги ўзбек тили луғат таркибининги тахминан ярмини туркий сўзлар ташкил қилади. Шунга қарамасвдан, дунёдаги ҳеч бир тил ҳам фақат ўз ички ресурсларигагина таяниб иш кўрмаганидек, ўзбск тили учуп ҳам фақат ўз сўзлари ўз қатлам бойлиги ва имкониятларигина кифоя қилмайди. Тарихан ўзбек тили луғат таркибининг бойиши ва такомиллашувида *ташқи манба* (ресурс) ҳам муҳим роль ўйнади. Умуман, ҳар қандай тил соф ҳолда яшай олмайди. Турли тилларнинг турли тарихий шароитларда ўзаро маълум муносабатда бўлиши қонуний ҳолдир. Бундай муносабат алоқада бўлгаи тиллар ривожида, айниқса унинг, луғат таркибида маълум изларни қолдириши мумкин[1.19-81]. Шу сабабли ҳам дунёдаги барча тиллар луғат таркибидаги, жумладан, ўзбек тилининг луғат таркибидаги ўзгаришлар учун умумий бўлган икки қонуиият кузатилади: 1) эскини янги билан алмаштириш;

2) бошқа тиллардан сўз қабул қилиш. Демак, ўзбек тилининг луғат таркиби ўз тараққиётида икки манбага таянади: а) *ички ресурс;* б) *ташқи ресурс.* rаби.

Диахрон планда бир тилдан бошқа тилга сўзларнинг кириши ва сингиши шунчаки оддий, механик жараён эмас, балки мураккаб лингивистик ва ижтимоий-тарихий шароитлар билан боғлиқ қонуниятдир. Тилдан «тилга сўз ўзлашиши учун аввало реал шароит лозим бўлади. Бундай шароит *тиллар*

ҳамкорлиги, яъни *тиллар контактидир.* Ўзбек тилининг бошқа тиллар билан контакти Ҳозирги ўзбек тили тарихан мураккаб ривожланиш ва шаклланиш босқичларини бошидан кечирганх[2.49-112]. Ўзбек тили уруғ ва қабила тиллари, халқ тили, миллий тил ва ренесанс даври миллат тили даврларида бир қатор қардош тиллар, шунингдек, чет тиллар билан алоқада бўлган.

Туркий уруғ ва қабилалар тили жуда қадимий даврларда Ўрта Осиёда азалдан яшаб келган «эроний тиллар» билан алоқада бўлган. Ўрта Осиёда, жумладан ҳозирги Ўзбекистон ҳудудидада яшовчи халқ эроний тиллар группасига кирувчи маҳаллий тил лаҳжаларида гаплашган. Бу эроний уруғ-қабилалар, халқлар — сўғдлар, саклар, массагетлар, бактриялилар, папфияилап, пари-канийлар, хоразмийлар ва бошқаларнинг тили бўлган. Шунинг-дек қадимий Бактрия подшолигида грек(юнон) тилидан, шунингдек, грек(юнон) тилининг ҳам фаол иштироки мавжуд [3.12-19].

Тарихий топонимлар аслида сўғдча эканини кўрсатилган. Ўрта Осиё, жумладан, ҳозирги Ўзбекистон ҳудудидада эроний тил характерига эга бўлган *қадимий хоразм тили* ҳам мавжуд. зди. Бу тил билан ўша давр маҳаллий туркий тиллар орасида маълум алоқа бўлган. Туркий уруғ-қабила тилларининг, кейинчалик ўзбек халқи тилининг эроний тиллар билан алоқаси уч даврий хусусият билак - характерланади:

1. Туркий уруғ, қабила тилларининг қадимий эроний қабила ва уруғ тиллари билан алоқаси ва қўшилиши (қадимий даврларда).
2. Ўзбек тилининг форс-тожик адабий тили (IX—X, XI—XV асрлар) билан алоқаси.
3. Ўзбек тилининг маҳаллий тожик шевалари ва тожик халқ тили билан алоқаси (қадимдан то ҳозиргача). Қадимий эроний тиллар, тожик халқ тили, тожик адабий тили: ва тожик халқ шевалари билан ўзбек тилининг тарихий алоқалари ўзбек тилига эроний ва тожик тилидан кўпгина сўзларнинг кириб келишига. асос бўлди.

Ўзбек тили қадимий туркий қабила ва уруғ тиллари даврида *олтой-мўғул тиллари* билаи ҳам алоқада бўлган. Ўзбек тилининг мўғул тили билан алоқаси қадимий даврларда, қадимий олтой тиллари билан муносабатларда ва XIII асрда мўғулларнинг Ўрта Осиёни истило қилиниши даврларида юз берди. Ҳозирги ўзбек тили лексикасида учровчи бир қатор асли мўғулча сўзлар ёки турк ва мўғул тиллари учун умумий бўлган лексик қатлам шу адоқалар натижасидир. А. Навоий асарлар ёзган адабий тилда, умумтуркий ва маҳаллий шева элементларидан ташқари, қадимий уйғур, туркман, озарбайжон, араб, форс-тожик сўзлари кўп учрайди. Чунончи қадимий уйғур тили элементларидан *цамуғ (барча, ҳамма), ариғ (тоза, соф), осиғ (фойда, наф), ўғон (худо), укуш (кўп), уксук (камлик, озлик), қаю (қайси), битик (хат, ёзув)* сўзларини кўрсатиш мумкин. А. Навоий асарлари тилида туркий лексиканинг ўғуз гуруҳи, яъни *ғарбий тил элементлари* ҳам учрайди. Эски ўзбек тили лексикасидаги ўғузча элементлар «оқими» («огузская струя») уч хил мураккаб манба натижасидир: 1) эски ўзбек тили лексик тизимига сингиб кетган, унга диалектал компонент бўлиб кирган ўғуз диалект ва шеваларининг маҳсули; 2) ўша даврдаги маҳаллий; ўғуз шеваларининг адабий тилга таъсири; 3) ўзбек тилига ўша давр туркман ва классик озарбайжон тилининг таъсири. Шундай қилиб, ўзбек тили ўтмишда, қардош уйғур, озарбайжон, туркман тиллари билан алоқада бўлган ва улардан таъсирланган. Ўзбек тили ўтмишда бир қатор қардош бўлмаган, бошқа системадаги тиллар билап ҳам контактда бўлган. Бундай

тиллар: форс-тожик ва араб тилларидир. Шунингдек, ўзбек тили ўз ривожининг миллий тил ва миллат тили этапида *бошқа тиллар билан* алоқада ва ҳамкорликда бўлди ва бу ҳол давом этмоқда.

Ўзбек тилининг хорижий тиллар билан алоқаси турли даража ва сифатий кўринишларга эгадир. Ўзбек тили контактда бўлган баъзи тиллар ўзбек тили лексикасида унчалик сезиларли из қолдирмади. Жумладан, хитой, ҳинд, қадимги грек(юнон) тилларидан ўзбек тилига саноқли сўзларгина кирган.

Бундай контакт собиқ совет даврида ҳам давом этганди. Мана шундай контакт туфайли Ўзбекистоннинг кўпгина туманларида ўзбек ва қирғиз тилида, ўзбек ва қозоқ тилида, туркман ва ўзбек тилида, татар ва ўзбек тилида, қорақалпоқ ва ўзбек тилида параллел гаплаша олувчи икки тилли аҳоли мавжуд. Бундай *диглоссия,* яъни генетик жиҳатдан алоқадор бўлган икки қардош тилда гаплашиш Ўзбекистонда яшовчи аҳоли орасида қадимдан мавжуддир. Албатта, бу экстралингвистик жараён тарихий-лингвистик тамойиллар талабларига мос келади ва улардаги тартиб-қоидаларга бўйинсунади.

Алишер Навоий даврида *ўзбек-тожик икки тиллилиги* кенг тарқалган ҳодиса эди. Бу даврда икки тилда ижод қилган *зуллисонайн* шоирлар анчагина бўлган. Адабий ижод соҳасидаги икки тиллилик анъаналари Навоийдан кейинги шоирлар Махмур, Гулханий, Фазлий, Нодиралар ижодида ҳам давом этди. Ўрта Осиёда араблар ҳукмронлиги даврида *ўзбек-араб тиллари алоқаси* юзага келди. Бу даврда араб тили давлат ва дин тили, фан ва расмий ёзишмалар тили сифатида кенг тарқалди. Ўзбек тилига араб тилидан сўз олиш, асосан, *ўзбек-араб билингвизми* даврида (VII—IX асрлар) кучли бўлди. Кейинги даврларда ўзбек тилига янги сўзлар сезиларли даражада қабул қилинмади, балки ўзбек тилига кирган кўпгина арабча элементлардан бир қисмининг эскириши ва ўзбек тилидан чиқиш жараёни юз берди. Алишер Навоий тилида ишлатилган кўпгина араб сўзлари XIX аср ўзбек тилида, шунингдек, ҳозирги ўзбек адабий тилида учрамайди. Араб тилининг ўзидан бевосита сўз олиш XI асрлардаёқ деярли тўхтаган эди. Аммо турли даврларда арабча ёзма манбаларда, шунингдек эски ўзбек тили ёзма ёдгорликларида сақланган арабча сўз гуруҳлари у ёки бу даврларда фаоллашиб турди. Масалан, XX аср бошларида ва 20-йиллар ўзбек тилида илмий терминлар сифатида фаоллашган арабча сўзлар ана шу кейинги манбалардан олинган эди. Ўзбек халқининг ҳозирги глобаллашув давридаги ҳаётида *янги билингвизм —ва кўп тиллилиги* юзага келди.

Демак, бу экстралингвистик жараёрлар ўзбек-инглиз икки тиллилиги ўзбек тили тарихидаги ўзбек-араб, ўзбек-тожик икки тиллилигидан янги сифатий белгилари бйлан фарқланади. Хорижий тилларнинг ўзбек тилига фан ва маданият тили, таълим ва маърифат тили, жаҳон халқларининг ўзаро ҳамкорлиги, халқаро ва дунё тилларининг ўзаро таъсири ҳам ўзбек адабий тилининг халқаро даражада мавқеини кенгайтиради.

АДАБИЁТЛАР

1. Батманов И. А. Язык енисейских памятников древнетюркских письменностей. Фрунзе, 1959.

2. Айдаров Г. Язык орхонского памятника Бильге-Кагана. Алма-Ата, 1966.

3. Айдаров Г. Язык орхонских памятников древнетюркских письменностей VIII века. Алма-Ата, 1971.

4. ДТС.— Древнетюркские диалекты и их отражение в современных языках. Фрунзе, 1971.

HOZIRGI VA TARIXIY SO‘Z YASALISH USULLARI VA ULARNING MUNOSABATI

Akmal TURSUNOV,
Navoiy davlat konchilik va texnolgiyalar universiteti O‘zbek va chet tillar kafedrasi dotsenti

So‘z yasalish sohasining bir qancha umumiy hodisalari, tushunchalari mavjud. O‘zbek tilshunosligida bunday umumiy tushunchalar aniq belgilanmagan. Ma’lum bo‘lgan ayrim umumiy hodisalarning talqinida ham har xilliklar bor. Rus tiliga oid ishlarda so‘z yasalishining umumiy tushunchalari asosan aniq belgilangan va bular yuzasidan deyarli bir fikrga kelingan. O‘zbek tili so‘z yasalishining umumiy tushunchalarini belgilash va bayon etishda ana shu ishlardagi fikrlarga asoslanadi[1].

So‘z yasalishining ana shunday tushunchalaridan biri so‘z yasash usullari tushunchasidir. So‘z yasalishi, qanday usul bilan bo‘lsa ham, yangi so‘z (leksema) hosil bo‘lishi ekanligi yuqorida aytildi. Bunda ikki hodisani farqlash kerak bo‘ladi:

1) tilda umuman yangi so‘zning hosil bo‘lishi;

2) tilga xos ma’lum (qat’iylashgan) usul asosida shu til materiallari bilan yangi so‘z yasash (yangi so‘z hosil qilish).

Tilda, jumladan, o‘zbek tilida yangi so‘z yasalishining xilma-xil usullari borligi ma’lum. Lekin bu usullarning miqdori va turlarini belgilashda, shuningdek, ularni nomlash masalasida hanuz yagona bir fikrga kelingan emas.

O‘zbek tiliga oid, shuningdek, boshqa turkiy tillarga oid adabiyotlarda so‘z yasalishining ikkidan to yettigacha bo‘lgan turi ko‘rsatiladi. So‘z yasalishining asosiy usullari deb ko‘pchilik tomonida tan olinayotgan va lingvistik adabiyotlarda qayd etilayotgan usullar quyidagilardir:

1) semantik (yoki leksik-semantik) usul; 2) fonetik usul; 3) sintaktik-leksik usul; 4) affiksatsiya usuli; 5) kompozitsiya usuli; 6) abbreviatsiya usuli.

Semantik (leksik-semantik) usul bilan so‘z yasalishi deganda so‘z shaklining leksik ma’no kasb etishi natijasida yangi so‘z (leksema) ga aylanishi bilan yangi so‘z hosil bo‘lishi, ko‘p ma’noli so‘zning ma’nolari o‘rtasidagi bog‘lanishning (semantik aloqaning yo‘qolishi natijasida) yangi leksema hosil bo‘lishi tushuniladi. Masalan, boshda (o‘rin-payt kelishigi formasidagi otning ravishga ko‘chishi bilan yuzaga kelgan so‘z), kechasi (egalik shaklidagi otning ravishga ko‘chishidan hosil bo‘lgan so‘z), kelishgan (yigit), arzimagan (narsa) sifatdosh shaklidagi fe’lning sifatga ko‘chishi bilan yuzaga kelgan so‘zlar kun (quyosh, planeta) kun (sutkaning yorug‘ qismi, kunduz) va boshqalar.

So‘zda fonetik (tovush) o‘zgarishi natijasida yangi fonetik usul bilan so‘z yasalishi deganda, odatda, ikki hodisa nazarda tutiladi. So‘z hosil bo‘lishi: ***ko‘r-ko‘z, bo‘r-bo‘z*** **kabi**[2]. Urg‘uning o‘rnini o‘zgartirish yo‘li bilan yangi-yangi (hozir), endi-endi hozirgina) kabi.

Haqiqatdan ham, tilda shunday so‘zlar bor. Lekin bu tipdagi so‘zlar juda oz miqdorda bo‘lishidan tashqari so‘z yasalishida sistema hosil qila olmaydi. Ayub G‘ulomovning ko‘rsatishicha, ***tun-kun, aka-uka*** kabilar ham fonetik usul bilan so‘z yasalish hodisasidir. Sintaktik-leksik usul bilan so‘z yasalishi deganda so‘z birikmasining so‘z (leksema)ga aylanishi tushuniladi.

Til taraqqiyoti jarayonida ma’lum turdagi so‘z birikmasi yagona leksik ma’no kasb etishi natijasida sintaktik birlikdan leksik birlikka aylanadi - qo‘shma so‘z yuzaga keladi

[1] Қаранг: А.Хожиев Сўз ясаш усуллари // Ўзбек тили ва адабиёт журнали, 1975. 4-сон. 43-48-б.
[2] Қаранг: “Ўзбек тили грамматикаси” I-том. Морфология Тошкент 1975. 25-б.

Masalan, ***mingboshi, jo‘xoripoya, tokqaychi*** kabi qo‘shma so‘zlar shu yo‘l bilan yuzaga kelgan, qo‘shma so‘zlar deb qaraladi. So‘z hosil bo‘lishining bu usuli leksikalizatsiya usuli deb ham yuritiladi. Affikslar vositasida so‘z hosil qilinishi affiksatsiya usuli bilan so‘z yasalishi deyiladi: polizchi, gulchi, ishchi kabi. Mustaqil leksik ma’no ifodalay oladigan birdan ortiq leksemani qo‘shish bilan so‘z yasalishi kompozitsiya usuli bilan so‘z yasalishi deyiladi va bu usul bilan qo‘shma so‘zlar hosil qilinadi: ***tuyaqush, mingoyoq, atirgul, oybolta, olib kelmoq, sotib olmoq*** kabi.

Ko‘rib o‘tilgan besh xil so‘z yasalishi usullaridan uchtasining semantik, fonetik va sintaktik-leksik deb atalishi til hodisasiga ko‘radir. Keyingi ikki usulning atalishi esa, so‘z yasalishi materialiga ko‘ra. So‘z yasalishi usullarini nomlashda bir xil yo‘l tutishni, ya’ni qanday til hodisasi (fonetik, morfologik kabi hodisa) asosida yasalishini nazarda tutish ma’qulligini hisobga olib, ayrim ishlarda affiksatsiya va kompozitsiya usuli bilan so‘z yasalishi morfologik usuli bilan so‘z yasalishi deb qaraladi (har ikki usul birlashtirilib, shunday nom bilan ataladi).

Shunday ekan, so‘z yasovchi affikslarni morfologiya bilan bog‘lab, ular yordamida so‘z yasalish usulini morfologik usul deb atash yetarli asosga ega bo‘lmaydi. Bu usulni so‘z yasalishining affiksatsiya usuli deb atash esa hodisaning mohiyatiga to‘la mos keladi.

So‘z yasalishining asosiy tushunchalaridan biri so‘z yasash usullari masalasidir. A.G‘.G‘ulomov o‘z izlanishlarida bu masalaga katta e’tibor bergan. U “O‘zbek tilida so‘zning ichki tuzilishidagi o‘zgarishlar orqali so‘z yasash” maqolasida (1947) so‘z yasashning sakkiz usulini ko‘rsatadi: affiksatsiya, kompozitsiya, omonimizatsiya, aksentuatsiya, abbreviatsiya, reduplikatsiya, so‘zning ichki tuzilishidagi o‘zgarishlar orqali so‘z yasash, bir so‘z turkumining boshqasiga o‘tishi[1].

Kitobda ko‘rsatilishicha, “So‘z yasashning bundan boshqa yo‘llari ham bor: 1. Leksik yo‘l bilan yasash - biror so‘zning bir turkumdan boshqa turkumga ko‘chishi. Masalan, Turdi, Tursun kabi otlar fe’lning otga ko‘chuvi orqali yasalgan. 2. Fonetik yo‘l bilan yasash - urg‘uni ko‘chirish orqali bir so‘zdan yangi so‘z hosil qilish. Masalan: ***yangi (новый) - yangi (hozirgina).*** Qisqartma so‘zlarning hosil bo‘lishi qo‘shma so‘zlarning hosil bo‘lishi doirasiga kiritilgan. Reduplikatsiya (so‘zlarning takrorlanishi, qo‘shaloqlanishi, so‘z takrori) ham keng ma’noda juft so‘zlarga kiradi.

Bu tip yoki so‘z yasash yo‘llari qaytadan guruhlanib, ikki umumiy turga ajratilgan: 1. Grammatik so‘z yasash: affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya (boshqa turkumga ko‘chirish - kategorial ko‘chish yo‘li bilan yasash). 2. Leksik-semantik so‘z yasash (ma’no o‘zgarishi orqali yangi so‘zning hosil bo‘lishi). 3. Fonetik so‘z yasash (fonetik vositalar, har xil fonetik o‘zgarishlar yordami bilan yasash).

A.G‘.G‘ulomov kalkalash (qisma-qism, morfemalar bo‘yicha tarjima qilish: ledokol - muzyorar, rastvor - eritma, udareniye - urg‘u) ham so‘z yasashning bir yo‘li ekanligini ta’kidlaydi. Bu kitobda juft so‘zlar (ota-ona, qovun-tarvuz), shuningdek, reduplikatsiya, so‘z takrori yo‘li bilan hosil qilingan so‘zlarni (ququ: qush kabi) qo‘shma so‘z termini o‘z ichiga olishi maxsus ta’kidlangan va bu usullar so‘z yasash usullari doirasiga kiritilgan. Juft so‘zlar va reduplikatsiya yo‘li bilan yasalgan so‘zlar qo‘shma so‘zning boshqa turlaridan ancha keskin farqlanishi ham aytib o‘tilgan.[2]

So‘z yasash usullari tilning lug‘at tarkibini boyitadigan muhim vositalardan biri sanaladi.

A.G‘.G‘ulomov tilshunosligimizda shu kungacha e’tibor berilmay kelinayotgan muhim bir masalaga-co‘z yasash usullarining o‘zaro munosabati, kelib chiqishi, taraqqiyotini va raqobati masalasiga alohida to‘xtalib o‘tgan.

[1] Гулямов А.Г. Словообразование путем внутренних изменений слова в узбекском языке. – В кн.: А. Ғуломов.
[2] Ўзбек тили грамматикаси, II жилдлик, I жилд, Тошкент, 1975. 21-,22-,25-,32-б.

A.G‘.G‘ulomov 1953 yilda e’lon qilingan “O‘zbek tili morfologiyasiga kirish” asarida “So‘z yasalishi” alohida bo‘lim sifatida berilgan. “Qo‘shma so‘zlar” mavzusi ham alohida o‘rin olgan. Qo‘shma so‘zga dastlab ta’rif berilgan: “Qo‘shma so‘zlar bir necha o‘zakning birikib, bir butunlik tashkil qilishidan tug‘iladi. Qo‘shma so‘zning tarkibidagi elementlarning semantik va grammatik jihatdan birikishi natijasidan butun kompleks bir so‘z holiga kelgan bo‘ladi”[1].

xx asrning 40-50 yillarida rus-slavyan, roman-german tilshunosligida so‘z yasalishi, leksikologiya (xususan, leksikografiya, frazeologiya), grammatika masalalarida yasama so‘z va uning hosil bo‘lish usullari, qo‘shma so‘zning so‘z birikmasi va turg‘un iboralardan farqi, o‘xshash tomonlari bo‘yicha V.M.Jirmunskiy, V.G.Admoni, O.S.Axmanova, V.A.Desnitskaya, M.D.Stepanova, V.N.YArseva kabi olimlarning kitob va maqolalari e’lon qilindi.

A.G‘.G‘ulomov o‘zining ko‘p yillik ilmiy izlanishlari va fan yutuqlari asosida qo‘shma so‘zning mohiyati bo‘yicha original konsepsiya yaratgan olimdir. Bu konsepsiya tilshunosligimizning keyingi rivoji uchun asos, poydevor vazifasini bajardi.

ADABIYOTLAR

1.G‘ulomov A.G‘ va boshq.O‘zbek tili morfem lug‘ati.Toshkent,“O‘qituvchi,”1977, 462 b.
2. G‘ulomov A.G‘. Morfologiya (kirish). O‘zbek tili grammatikasi, II- tomlik, I-tom, Toshkent, 1975.25b.
3. G‘ulomov A.G‘. Sifat haqida mulohazalar (ikkinchi maqola)// “O‘zbek tilida so‘z yasalishi” to‘plami, Toshkent, 1979.
4. G‘ulomov A.G‘. So‘z yasalishi// O‘zbek tili grammatikasi, I-tom, Toshkent, 1975. 21-22-25-32b.
5.G‘ulomov A.G‘. O‘zbek tili morfologiyasiga kirish. Ayyub G‘ulomovning ilmiy merosi (2 kitob). O‘zMU, Toshkent, 2006. 20b.

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA BOLALAR NUTQINI O‘RGANISHNING NAZARIY MUAMMOLARI

Nafisa MUSAYEVA,
NavDPI Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi

Ma’lumki, bolalar til tizimi dastlab kattalar til tizimidan miqdor, sifat jihatdan keskin farqlansa-da, keyinchalik yaqinlashib boradi. Tilning bu murakkab yo‘li tafsilotlarini o‘rganish ontolingvistika deb atalgan fanning vazifasi etib belgilangan.

Bolalar nutqi tilshunosligi − ontolingvistika o‘tgan asrning oxirgi choragida antropotsentrik yo‘nalishda tadqiq etila boshlangan yosh ilmiy fanlar turkumiga kiradi. Ontolingvistika bolaning tilni o‘zlashtirish jarayoni, nutqiy faoliyatini tadqiq etishi bilan boshqa lingvistik yo‘nalishlardan ajralib turadi.

Garchi isbot talab etilmaydigan haqiqat bo‘lsa-da, bolalar nutqi tilshunosligi yoki ontolingvistika alohida maqomga ega fan sifatida o‘z qimmati va ahamiyatini isbotlash bosqichida turibdi. Zero, inson nutqining rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganish nafaqat ilmiy-amaliy, balki milliy ahamiyatga ega muhim dolzarb masala sanaladi. Nutq orqali inson nafaqat muloqot qilish, atrofdagi olamni bilish, shaxsiyatini shakllantirish va namoyon etish uchun keng imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Bugungi kunda bolalarni kattalar olamiga tayyorlash, ularni eng samarali tarzda ijtimoiylashtirish, lingvistik shaxs bo‘lish yo‘llarini ochib berish va izchil rivojlantirish zamonaviy antorpotsentrik tilshunoslikning

[1] Қаранг: Ғуломов А.Ғ. Ўзбек тили морфологиясига кириш.- Айюб Ғуломовнинг илмий мероси (2-китоб). ЎзМУ, Тошкент, 2006. 20-б.

muhim vazifalaridan sanaladi. Shunga koʻra har bir ota-ona, tarbiyachi, oʻqituvchi, psixolog, logoped, shifokor, xullas, bolaning rivojlanishiga mas'ul har bir shaxs bola kommunikativ qobiliyatining shakllanish jarayoni toʻgʻrisidagi bilimga ega boʻlishi lozim. Ular mazkur qobiliyatning toʻlaqonli rivojini ta'minlashi va nutq evolyusiyasiga nima halaqit berishi, buzishi mumkinligini bilishlari maqsadga muvofiq. Bu bilimlar oʻsib kelayotgan yosh avlodni kelajakdagi katta muammolardan qutqarishi mumkin. Shuningdek, ontolingvistika turli yoshdagi til egalari oʻrtasidagi koʻprik vazifasini bajaradi, jamiyatda katta va yosh avlod oʻrtasidagi turli muammolarni hal qilishga amaliy yordam beradi.

Ontolingvistika termini S.N.Seytlin tomonidan taklif qilingan boʻlib, bugungi kunda tilshunoslikning muayyan bir fan tarmogʻi sifatida oʻz mavqeiga ega. Mazkur yoʻnalishga qiziqish XX asrning 60-70-yillarida sezilarli darajada rivojlandi. Olib borilgan tadqiqotlarda bolalar nutqi tilshunosligi kattalar nutqi tilshunosligining muayyan bir qismi hamda mustaqil oʻz oʻrniga ega boʻlgan til hodisasi sifatida qarashlar paydo boʻldi. Jumladan, S.N.Seytlin bolalar nutqida til hodisalarini ikki aspektda tadqiq etish mumkinligini qayd etadi:

1) kattalar tilining belgilangan til tizimi nuqtai nazaridan yondashuv, bu − bola tilining birliklari va kategoriyalarini kattalar tili bilan taqqoslashga asoslansa;

2) bolaning til tizimi nuqtai nazaridan yondashuv, bunda oʻz birliklari va tuzilishiga ega boʻlgan, ma'lum darajada muhim ob'ekt sifatida qaralgan.[1]

Albatta, bolalar nutqiga oid bu ikki nuqtai nazar oʻzaro butkul farqlanmaydi, aksincha bir-birini toʻldiradi. Zero, bolaning nutqi kattalar nutqini idrok etish, nusxalashtirish, oʻzlashtirish orqali, ya'ni "kattalar" tilining an'anasi bilan shakllanadi, rivojlanadi.

Aytish mumkinki, ontolingvistika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning eng kuchli tomoni jiddiy nazariy tayanch boʻlgan "kattalar" nutqi bilan bogʻliq holda ishlab chiqilganligi boʻldi.

Zero, tilshunoslarning kattalar nutqi boʻyicha morfologiya, sintaksis, leksikologiya, soʻz shakllanishi sohasidagi adabiy til materiallari ustida olib borilgan fundamental tadqiqotlari XX asrning soʻnggi oʻn yilliklarida bola nutqini oʻrganishda muvaffaqiyatli foydalanish mumkin boʻlgan ishonchli nazariy manbani yaratdi. Shunga koʻra ushbu yondashuvni "vertikal" deb atash taklif etildi, chunki u bolaning "yuqoridan", "kattalar" tilining an'anasi bilan shakllangan koʻrinishi sifatida baholandi.

Biroq ontolingvistika bolaning nutqiy qobiliyatini: uning kelib chiqishi, shakllanishi va keyingi rivojlanishi, shu jumladan, yoshga bogʻliq oʻzgarishlarni oʻrganishi bilan kattalar nutqi lingvistikasidan farqlanuvchi oʻziga xos bir fan yoʻnalishi hamdir. Bu L.S.Vigotskiy, A.R.Luriya, A.N.Gvozdev, Seytlinlarning tadqiqotlarida ham oʻz isbotini topdi.[2]

Hatto K.I.Chukovskiy oʻzining «От двух до пяти» asarida "Bolalar nutqi ba'zan biznikidan toʻgʻriroqdir", deya ta'riflaydi.[3] S.N.Seytlin esa bu ta'rifga qoʻshimcha qilib "Toʻgʻri deganda − bola tilining til ichki qonuniyatlari bilan muvofiqligi tushunilsa ba'zan

[1] Цейтлин С. Н. Направления и аспекты изучения детской речи // Детская речь как предмет лингвистического исследования. – СПб., 2004.-С.275.

[2] Лурия А.Р., Юдович Ф.Я. Речь и развитие психических процессов ребенка: Экспериментальное исследование. – М., 1956.; Гвоздев А.Н. Формирование у ребенка грамматического строя русского языка. Часть первая / Под ред. проф.С.И. Абакумова. – Изд-во Академии пед. наук РСФСР. М., 1949. – 268 с.; Цейтлин С.Н. Язык и ребенок: Лингвистика детской речи: Учеб. пособ. для студ. вузов. М.: Гуманит. изд. центр «Владос», 2000. – 240 с.

[3] Чуковский К.И. От двух до пяти. – М., 1955.

emas, har doim to‘g‘ri. Negaki bolalar til mantiqqa qat’iy amal qilmasligiga aybdor emas”, deydi.

Bizningcha, bolalar nutqi tabiiyligi bilan kattalar nutqidan alohidalik kasb etadi.

Ko‘rinadiki, bolalar nutqini o‘rganish ikki yo‘nalishda: kattalar nutqining bir bo‘lagi va mustaqil fan ob’ekti sifatida olib borilgan. Birinchi yo‘nalish kattalarning til tizimi pozitsiyasidan yondashishni talab etadi va bunda kattalar nutqi bilan taqqoslashga imkon beradi. Ikkinchi yo‘nalish bola nutqidagi muayyan lisoniy hodisalarni kuzatish va tahlil qilish imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, bolalar nutqi materiallari juda aniq va uning shakllanishi, rivojlanishi va o‘ziga xosligida har qanday lingvistik hodisani kuzatish zarurati unga alohida yondashuvni talab qildi. Shunga ko‘ra Seytlin bolalar nutqini o‘rganishga "vertikal" yondashuv bir tomonlama yondashuv ekanligini, uni shartli ravishda "gorizontal" deb ataladigan boshqa ko‘rinishini taklif etadi. Bunda bolalar nutqiga ma’lum darajada avtonom bo‘lgan, ayni paytda bola erishgan bilim, rivojlanish darajasini aks ettiruvchi va uning kommunikativ ehtiyojlarini qondira oladigan maxsus bolalar tili tizimi sifatida qaraladi.

Bizningcha, har ikki yondashuv – «vertikal» va «gorizontal» – bir-birini to‘ldiruvchi munosabatda, ularning integrativ munosabatigina bu hayratlanarli va jozibador nutqni to‘laqonli o‘rganish imkonini beradi.

V.B.Kasevich «Har qanday holatda ham til va nutq faoliyatini ontolingvistikasiz to‘liq tavsiflash mumkin emas”ligini ta’kidlaydi[1] va o‘zining A.I.Gersen nomidagi RDPUda o‘tkazilgan anjumandagi maqolasini “Ontolingvistika − tilshunoslikning markaziy bo‘limi sifatida” deb nomlaydi.

Darhaqiqat, ontolingvistika amaldagi tilning qay tarzda ayni tuzilishga kelganligini tushuntirishda asos vazifasini bajaradi.

Bolalar nutqini tadqiq etish dastlab bolalar psixologiyasida nutqning rivojlanishini intensiv o‘rganishdan boshlangan bo‘lsa, lingvistik nuqtai nazardan psixolingvistikada “og‘zaki muloqotning o‘ziga xos vositalaridan foydalanilgan nutq faoliyati”[2] sifatida tadqiq etilgan.

O.T.Mitrofanova bolalar nutqini o‘rganishda quyidagi mashhur va samarali ilmiy nazariyalarga e’tibor qaratish muhimligini qayd etadi:

1. Taqlid nazariyasi. Uzoq vaqt davomida, bola kattalar nutqini tinglash va takrorlash, eshitgan narsasini doimiy mashq qilish natijasida gapirishni o‘rganadi, deb sanalgan.

Biroq A.M.Shaxnarovich, bu psixologiya va insonning rivojlanishi haqidagi boshqa fanlar nuqtai nazaridan belgilanganini ta’kidlab, “Bolaning, biz hatto gumon ham qilmagan, ulkan intellektual salohiyati nisbatan yaqinda kashf qilindi. Tilni o‘zlashtirishning taqlid nazariyasi bolaning faolligini yetarlicha baholamaydi, bunda bola go‘yoki tayyor nutq namunalarini kattalardan qabul qiluvchi va ijro etuvchi rolini bajarib qoladi”, deydi[3].

[1] Касевич В.Б. СОССЮР. КОРПУС. ЩЕРБА. ОНТОЛИНГВИСТИКА. Известия РГПУ им. А. И. Герцена, 2018. № 189. –С.8. (7-12 с.)

[2] Лингвистический энциклопедический словарь // Научн.-ред. совет изд-ва «Сов. энцикл.», Ин-т языкознания АН СССР / Гл.ред. В.Н. Ярцева. – М.: Сов. энциклопедия, 1990. –С.131. (– 682 с.)

[3] Негневицкая Е.И., Шахнарович А.М. Язык и дети. – М.: Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1981. – С.16. (– 111 с.)

N.Sayidrahimova esa ushbu nazariyani *o‘rgatish nazariyasi* nomi ostida o‘rganib, “kuzatish va o‘zgalar nutqiga taqlid nutqiy mahsulot uchun juda muhim, biroq odatiy taqlid tilni o‘zlashtirishda asosiy vosita bo‘la olmaydi”, deydi.[1]

2. Nutq stimullari va javob reaksiyalari nazariyasi (L.Blimfuld). Bola ba’zi tovushlarni chiqaradi va ularni takrorlaydi. Bu nutq ko‘nikmalarining paydo bo‘lishiga olib keladi. Bu nazariya G‘arb psixologiyasining bixeviorizm yo‘nalishi asosida rivojlandi.

3. Ontogenezning tilni o‘zlashtirish modeli. P.P.Blonskiy so‘zni o‘zlashtirish jarayonining 4 bosqichini ko‘rsatadi: 1) so‘zdan so‘ng so‘z o‘zlashtiriladi; 2) harakatdan so‘ng so‘z o‘zlashtiriladi; 3) so‘zdan so‘ng ish-harakat keladi; 4) so‘z harakatni almashtiradi.

Blonskiy konsepsiyasi tilning belgilar tizimi tabiatiga va bolada tilning bu tabiati rivojlanishiga asoslanadi.

4. Bola tafakkurining bosqichli rivojlanish nazariyasi. (J.Piaje). Ushbu nazariyaga tayangan olimlar Jan Piaje tomonidan taklif qilingan davrlashtirishga asoslanadi: 1) rivojlanishning sensomotor bosqichi; 2) faoliyatdan oldingi; 3) aniq faoliyat bosqichi; 4) faoliyatning shakllanish bosqichi.

R.M.Frumkina Jan Piaje nazariyasini tafakkurni rivojlantirish modellaridan biri sifatida baholaydi va Piaje tomonidan ajratilgan tilni o‘zlashtirish bosqichlari bolalar nutqini emas, balki uning aqliy rivojlanish bosqichlarini ko‘rsatishini ta’kidlaydi.[2]

Darhaqiqat, nutq va intellekt shu qadar chambarchas bog‘liqki, ularni o‘rganishda har doim aniq bir chegara qo‘yib bo‘lmaydi.

5. Noam Xomskiyning tug‘ma bilimlar nazariyasi (ayrim tadqiqotlarda nativistik nazariya nomi bilan berilgan[3]). Mazkur nazariyaga ko‘ra bolada til o‘rganishga tug‘ma moyillik mavjud, inson miyasi tilning ichki tamoyillarni o‘z ichiga olgan tuzilishga ega. Olimning fikricha, har bir bolada barcha tillar uchun universal va yagona ichki grammatika mavjud. Insonning nutqiy qobiliyati dastlab uning aqlli shaxs sifatida tug‘ilishi bilan bog‘liq.

6. Til qobiliyatini rivojlantirishning faoliyat nazariyasi. (L.S.Vigotskiy, A.R.Luriya, A.N.Leontev, A.A.Leontev). L.V.Sherba til hodisalarining eng muhim tomonlarini aniqladi: 1)nutqiy faoliyat; 2) til tizimi (grammatika va lug‘atlarda ifodalangan); 3) til materiali (matnlar).

Olimning fikricha, nutq bu insonning nutqiy psixofiziologik mexanizmining faoliyati tufayli amalga oshadigan jarayondir (Olim bu mexanizmni *nutqni tashkil etish* deb ataydi)[4].

Shuni ta’kidlash kerakki, ko‘pchilikning hatto ota-onalarning fikricha, bolalar kattalar aytganini takrorlashadi (garchi bu qarash eskirgan bo‘lsa-da). Ular bolalarning kattalar harakatini, uning tovushlari, bo‘g‘inlari, fonetik so‘zlarni va so‘z birikmalarini takrorlashi bolalar amaliyoti: harakati, o‘yini, qandaydir bir kichik ish yoki biror narsani o‘rganish jarayoni bilan bog‘liqligini hisobga olmaydilar. Ushbu amaliy mashg‘ulotlar nutqni to‘ldiradi va ongli tarzda anglab borishini ta’minlaydi. Bola eshitganini takrorlaydi va ayni damda o‘z nutqini yaratishda zarur bo‘ladigan til bazasi uchun zaxira yaratadi.

---

[1] Сайидирахимова Н.С. Мактабгача ёшдаги ўзбек болалар нутқининг лингвистик хусусиятлари. Филология фан.номз.... дисс-я. – Фарғона, 2004.

[2] Фрумкина Р.М. Психолингвистика: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Изд.центр «Академия», 2007. – С.135. (320 с.)

[3] Сайидирахимова Н.С. Мактабгача ёшдаги ўзбек болалар нутқининг лингвистик хусусиятлари. Филология фан.номз.... дисс-я. – Фарғона, 2004.

[4] Митрофанова О.В. Текстообразование детской речи в современном русском языке. Дисс.канд.филол.наук. – Тамбов, 2015.

Ko‘rinadiki, bolalar nutqiy faoliyati, ularning tilni o‘zlashtirish jarayoni to‘g‘risidagi nazariy qarashlarning xilma-xilligidan ham anglash mumkinki, boshqa yosh fanlar kabi ontolingvistika oldida ham yechimini kutayotgan masalalar talaygina. Bolalar nutqiy faoliyatini faqat bolalar mutaxassisi tushuntirishi mumkin. Biroq bolalar bilan uzoq vaqt muloqot qilish imkoniga ega bo‘lgan har bir kishi ularni tinglash, eslab qolish, audioyozuvlarga yozib olish orqali ontolingvistika xazinasini boyitishga o‘z hissasini qo‘shishi mumkin.

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ПРОСТРАНСТВО ТЕКСТА

Диана ШАРАПОВА,
Преподаватель, кафедры русского языка и литературы НавГПИ

Проблема, связанная с языковым выражением двух важнейших категорий человеческого существования-времени и пространства, привлекает внимание филологов уже долгое время. К проблеме художественного пространства в литературоведении обращались такие исследователи как Лотман Ю.М., Топоров В.Н., Бахтин М.М. и другие исследователи.

Лотман показывает нам, что художественное пространство - это система представлений об окружающей действительности, о себе, о своих отношениях с этой действительностью определённого автора, т.е. каким образом он выражает свои пространственные представления. Это художественная среда, в которой находятся персонажи произведения и совершается действие [2].

Бахтин утверждал, что в литературе существует двоякая сообразность мира и человека: 1) мир изображён снаружи, как окружение героя; 2) мир представляется изнутри как психо-духовная сфера, включающая в себя намерения, мысли и чувства [1].

В художественном тексте различаются пространство того, кто повествует, т.е. рассказчика и пространство персонажей.

Их взаимная связь делает художественное пространство всего произведения многомерным, крупным и лишенным похожести друг на друга, при этом господствующим в создании основных, конструктивных признаков текста и его внутренней организации остается пространство повествователя, подвижность образ видимого которого позволяет объединить различные виды описания и изображения.

Художественное пространство используется в литературе в наборе постоянных образов. Это в первую очередь это образ пути (дороги), который предполагает движение как по горизонтали, так и по вертикали и выделяет такие же значимые пространственные точки и топографические объекты, как порог и дверь.

Семантику предела имеет и образ порога. Лестница - образ, олицетворяющий связь «верха» и «низа», в литературе он отражает внутреннее развитие человека, его движение к истине или отступления от нее, связывает внешнее и внутреннее пространства. Мост - образная параллель связующего средства, способа соединения различных миров, начал, пространств. В качестве примера можно привести «Поэму Конца» Цветаевой, где образ моста (в бесконечность) означает пограничное пространство между жизнью и смертью, который все дальше отдаляет лирическую героиню как от бывшего возлюбленного, так и от самой жизни. Все эти перечисленные образы, образно отображают жизнь человека, её переломные моменты и кризисные ситуации, его искания на грани «своего» и «чужого» миров, олицетворяют передвижение, указывают на его цель и символизируют возможность выбора; в свою очередь, они широко используются в поэзии и в

прозе.

Воспроизводящееся автором художественное пространство может быть открытым и закрытым (замкнутым). В качестве образца можно привести следующие примеры открытого пространства. Это может быть противоположный берег моря, поляна, лужайка, сад, парк, озеро, площадка. Если говорить о замкнутом пространстве, то для наглядности можно привести такие примеры как, комната, дом, город. Замкнутое пространство наделяется такими признаками, как «родной», «теплый», «безопасный», а открытое характеризуется, как «чужой», «враждебный», «холодный» [3].

В прозе и поэзии образ стены связан с замкнутым, ограниченным пространством. Бывает, что очень часто пространство оказывается непреодолимым, его граница представляется «глухой стеной», неподвластной даже всемогущему «логосу» как в стихотворении Цветаевой «Заочность»: ...Словесного чванства / Последняя карта сдана. / Пространство, пространство / Ты нынче – глухая стена! В творчестве М.Цветаевой образ глухой стены почти всегда обозначает уныние, покинутость, боль, печаль и невозможность контакта и общения.

Также пространство может быть расширяющееся и сужающееся по отношению к персонажу произведения или определённому описываемому объекту. Расширение пространства может мотивироваться постепенным расширением опыта героя, познанием им внешнего мира.

По степени обобщенности пространственных характеристик различаются конкретное пространство и пространство абстрактное. Абстрактное или по-другому «всеобщее» пространство не имеет явной выраженной характеристики, и оно не оказывает существенного влияния на суть конфликта, поведение персонажей. Конкретное пространство же наоборот, оно активно влияет на суть изображаемого.

В качестве примера можно привести такую таблицу.

Выделенные типы художественного пространства литературного произведения не отрицают, а чаще всего взаимодействуют, проникают и дополняют друг друга. Художественное пространство в литературном произведении - одна из форм эстетической реальности, в которой размещаются фигуры и выполняется действие. В то же время художественное пространство определяется субъективно, что определяет его уникальность и оригинальность.

ЛИТЕРАТУРА

1. Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе. // М. Бахтин. Вопросы литературы и эстетики. - М. Художественная литература, 1975. - С. 234-407.
2. Топоров В.М. Пространство и текст// Текст: семантика и структура. М., 1983.
3. Лихачёв Д.С. Внутренний мир художественного произведения // Вопросы литературы, 1998. №8.

ЎЗБЕК ТИЛШУНОСЛИГИ ВА ЗАМОНАВИЙ ЖАМИЯТДА АХБОРОТ ХАВФСИЗЛИГИ

Жавлон САМАНДАРОВ,
Тошкент давлат педагогика университети докторанти

Малумки, талим тизимини ислоҳ қилишнинг муҳим йўналишларидан бири ахборот коммуникация технологиялари билан ўқув жараёнини тизимли интеграциялаш ҳисобланади. Бунда ўқув жараёнини ташкил этиш ва унинг мазмунини тубдан янгилаш, ахборот-коммуникация технологиялари муҳитида ўқитувчининг педагогик фаолияти ва талабанинг таълим олиш жараёнини ташкил этиш стратегик масала сифатида намоён бўлади. Ахборот технологиялари асрида яшар эканмиз, ҳар соҳада техникалардан фойдаланиш замон талаби ҳисобланади.

Ахборот сўзининг кенг маъносида "жонли ва жонсиз дунёда содир бўлаётган фактлар, жараёнлар, ҳодисалар ҳақидаги маълумотлар, акс эттирилган хилма-хиллик ҳақидаги маълумотлар". Ушбу тоифани олимлар кўпинча қонунчиликка эмас, балки фалсафага киритишган. Ахборот тушунчаси қандай тоифадаги тушунча бўлишидан қатъий назар, у аллақачон фанда муҳим ўринни эгаллайди ва у сиз замонавий фаолиятни тасаввур қилиш мумкин эмас.

Ахборот қонунчилиги соҳасидаги олимларнинг нуқтаи назарларини кўриб чиқишни давом эттирар эканмиз, шуни таъкидлаймизки, ахборот муносабатларининг шаклланиши ва ахборот олиш ҳуқуқининг шаклланишини белгиловчи биринчи омили деб улар ахборот жараёнларини автоматлаштириш воситалари - электрон ҳисоблаш машиналарини (ЭҲМ) қўллашни ҳисоблайдилар. И.Л.Бачилонинг фикрига кўра, ЭҲМларни қўллаш натижасида ишлаб чиқаришнинг янги сохаси– ахборот индустрияси пайдо бўлди. Бу дастлабки маълумотни (рўйхатга олиш, йиғиш, сақлаш, қайта ишлаш ва ҳ.к.), уни бирлаштириш ва янги маҳсулотни яратиш (ишлаб чиқариш) каби турли хил операцияларда иштирок этувчи тузилмаларни ажратишни таъминлади. Бу янги тармоқ одамлар ўртасидаги муносабатларнинг мустақил объекти мақомини олди.

Барча фан соҳаларида бўлганидек тилшуносликда ҳам ахборотни замонавий ёндашувлар асосида алмашиш тез орада оммалашди.Бу ривожланиш фан соҳасини кенг тармоқда тарқалишни таминлади. Аммо шу кенг тармоқда тарқалган малумотларимизни хавфсизлигини таминлаш ҳозирги глобаллашув замонида асосий масалага айланиб қолмоқда.

Демак интернет тармоғида ишлар эканмиз керакли ҳужжатларимизни,муҳим малумотларимизни хавсизлигини таминлаш энг муҳим масала, шундай экан бизга янги фан соҳасидаги билимлар керак бўлади.

XIX асрнинг 2-ярми ва XX аср бошлари телекоммуникация, компьютер техникаси ва дастурий таъминот ҳамда маълумотларни шифрлашнинг жадал ривожланганлиги билан ажралиб турган. Ихчам, кучли ва арзон ҳисоблаш ускуналарининг пайдо бўлиши электрон маълумотларни қайта ишлашни кичик бизнес ва уй фойдаланувчилари учун қулай қилди. Компьютерларнинг Интернетга

уланиши осонлашди, бу эса электрон бизнеснинг жадал ривожланишига олиб келди. Буларнинг барчаси кибержиноятларнинг кучайиши ва халқаро терроризмнинг кўплаб ҳолатлари билан биргаликда компьютерлар ва улар сақлайдиган, қайта ишланадиган ва узатадиган маълумотларни ҳимоя қилишнинг яхшироқ усулларига эҳтиёж туғдирди. Бунинг натижасида “Компьютер хавфсизлиги” ва “Ахборот хавфсизлиги техникаси” каби илмий фанлар ҳамда ахборот тизимларининг хавфсизлиги ва ишончлилигини таъминлашнинг умумий мақсадларини кўзлаган кўплаб профессионал ташкилотлар пайдо бўлди. Юқоридаги фикрлардан келиб чиқиб такидлашимиз лозимки информатика фанининг бир қисми сифатида XX асрда пайдо бўлган “Ахборот хавфсизлиги” фани ҳозирги кунда энг керакли бўлиб нафақат информатика фани ўқитувчилари балки ҳар қандай соҳа вакиллари учун зарурий фан сифатида эканлиги исботланмоқда. Ахборот хавфсизлигининг марказида ахборотни ҳимоя қилиш фаолияти— унинг махфийлиги, мавжудлиги ва яхлитлигини таъминлаш, шунингдек, танқидий вазиятда ҳар қандай муросага йўл қўймаслик масаласи ётади. Шундай экан бу фанни тўлиқ мукаммал ўрганиш бўлажак ўқитувчилари учун айрим методларни кўриб чиқамиз.

Шу ўринда ўйлаб кўрадиган бўлсак бу фан бизга нимага керак, нима учун инсоният бу фан соҳасига эҳтиёж сезди. Инсоният учун нима фойдаси бор эди. Каби саволларга ҳар бир электрон соҳаси билан ишлайдиган жамият аъзосига ахборот хавфсизлиги муҳим фан сифатида ўргатилиши зарур.

АДАБИЁТЛАР

1. Мирзеёв Ш. М. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг 5та устивор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегиясини “Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили”да амалга оширишга оид Давлат дастурини ўрганиш бўйича, Илмий – услубий Рисола. –Т.: “Маънавият ”2017 й. 195- б.

2. Анисимова Н.С. Теоретические основи и методология исползования мультимедийних технологий в обучение. Дисс.канд. пед. наук. -Санкт-Петербург, 2002. - 330 с.

3. Электрон таълим ресурслари.

IJODKOR IDIOSTILINI O‘RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Sarvinoz NURMANOVA,
NavDPI I kurs tayanch doktoranti

Hozirgi kunda muallif va badiiy asar uslubi, adabiy muhit va poetik uslub, poetik timsol va ijodiy individuallik kabi ilmiy muammolar nadqiqi masalasi dolzarb masalalardan biri.

Qadimgi davr ijodkorlarining uslubga doir qarashlari o‘rta asrlarga kelib yangi qirralarda ochila bordi. Biroq uslub notiqlik san’ati sifatida o‘z mavqeini bir necha asrlar saqlab qoldi. Yevropada, aynan Fransiya ritorikasida XVIII asrda “individual uslub” so‘zi yangray boshladi. Mashhur so‘zshunos P.Giro ushbu atamani dunyoni ekzistensiatistik va essensialistik ko‘rish orqali real hayotga tadbiq etdi. U uslubni mana endi san’atning bir jihati yoki davrning bir ko‘rinishi sifatida emas, balki inson dunyoqarashining bir ozuqasi sifatida ishlata boshladi [1, 100-bet].

Adabiy matnning badiiy-poetik asar sifatida shakllanishini til materialisiz tasavvur qilish mutlaqo mumkin emas. Uning muallifi bo‘lgan ijodkor esa bu noyob materialdan foydalanishda o‘ziga xos yo‘ldan borishi ham ijod jarayonidagi tabiiy bir holdir. Har bir shoir va yozuvchining faoliyati va tilga bo‘lgan munosabati esa individualdir. Binobarin,

lisoniy vositalarning bir ijodkor asarlari matnidagi qo‘llanilishi boshqa bir ijodkor manerasiga hech qachon to‘g‘ri kelmaydi. Uning bu faoliyatini poetik individuallik tizimida o‘rganish nafaqat shoir va yozuvchining ijod uslubi, balki ona tili rivojiga qo‘shgan hissasi ham muayyan xulosalarga kelish imkonini beradi.

Italyan tilshunosi Banedetto Krochening fikricha, estetik kategoriyalar individual bo‘lganidek, badiiy asar tili bilan bog‘liq lingvistik kategoriyalar ham individuallik kasb etadi. Chunki badiiy asar individual shaxs (yozuvchi, shoir yoki dramaturg)ning o‘z nutqiy faoliyat mahsulidir. Badiiy asarda til o‘zining insonlar orasida aloqa quroli vazifasini to‘la saqlagan holda o‘zinig ekspressiv funksiyasini namoyon etadi. Badiiy til umumxalq tili va adabiy til bilan o‘zaro munosabatda bo‘lsa-da, farqli tomonlarga ham ega [2, 4- bet].

Rus tilshunosligida muallif idiostili bilan bog‘liq dastlabki izlanishlar XX asrning 50-60 yillaridan boshlangan, idiostil haqidagi dastlabki ma’lumotlarni V.V.Vinogradovning tadqiqotlarida – uning mashhur yozuvchilar uslubi masalalariga bag‘ishlangan ishlarida uchratamiz [3,320-bet].

O‘zbek tilshunosligida muallif idiostilini o‘rganishga qaratilgan ilk tadqiqot ishi sifatida S.Umirovaning dissertatsiyasini ko‘rsatish mumkin [4, 48-bet]. U o‘z dissertatsiyasida idiostilni poetik individuallik atamasi ostida tadqiq etadi va “ijodkorning individual mahorati sabab, matnda qo‘llanilgan har bir til materiali poetik birlikka va faqat shu ijodkor uslubiga xos bo‘lgan individual vositaga aylanishi mumkin. Lingvopoetik tadqiqotlar umumfilologik tadqiqotlarning o‘ziga xos cho‘qqisi hisoblanadi va uning uchun insoniy tuyg‘ularning yuksak ifodasi bo‘lgan tilning oliy maqomdagi imkoniyatlari kuzatish ob’ekti sifatida olinadi”, deb ta’kidlaydi. Mazkur masalani o‘rganish hozirgi tilshunoslik uchun juda dolzarb ekanligini alohida ko‘rsatib o‘tadi. Dissertatsiya muallifining maqsadi shoir U.Azimning poetik indvidiualligini yoritish bo‘lgani uchun ham, idiostil masalasiga chuqur kirib bormagan. Bu hodisani U.Azim she’riyati misolida yoritgan. Shunday bo‘lsa-da mazkur dissertatsiya idiostil masalasining dolzarbligi qayd etilgan ish sifatida ahamiyatlidir. Idiostil tushunchasining shakllanishi bir paytning o‘zida til shaxsi (nutq egasi) tushunchasining shakllanishiga olib keladi. “Til doirasidan tashqariga chiqmasdan, uning ijodkoriga e’tibor qaratmay turib, tilning asosiy tashuvchisi – inson omili bilan hisoblashmay til va uning tabiati haqida aniq xulosalarga kelib bo‘lmaydi”, - deb yozadi Sh.Balli [5, 27-bet].

Til badiiy “adabiyotning birinchi elementi”, obraz yaratishdagi asosiy quroli sanaladi. Badiiy asarda muallif nutqi va bayonchi nutqi o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Personajlar nutqini tipiklashtirish va individuallashtirishning badiiy asarda o‘ziga xos mezonlari va tamoyillari mavjud. Arxaizm, neologizm, dialektizm kabi vositalar, omonim, sinonim, antonim va paronim singari so‘zning shakl hamda ma’no munosabatiga ko‘ra turlari badiiy asarlarda muhim uslubiy funksiyalarga egadir [2,4-bet] .

Badiiy asar tili turli usullarda o‘rganilib, bu borada ko‘plab ilmiy tadqiqotlar yaratilgan bo‘lsa-da, mavzu bugungi kunda ham o‘zining dolzarblik va yangilik bo‘yog‘ini yo‘qotgan emas.Toki badiiy asarlar yaratilaverar ekan, ularning tilini va ijodkor poetik mahoratini tadqiq etish davom etaveradi. Nega deganda, yozuvchining individual uslubi, avvalo, uning tilida aks etadi. Bu haqida mashhur rus yozuvchisi K.Fedinning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinlidir: “Yozuvchining mahorati haqidagi gapni tildan boshlash kerak. Til hamma vaqt asarning asosiy materiali bo‘lib qoladi. Badiiy adabiyot bu- til san`atidir [4, 3-bet].

Har bir davrning o‘z g‘oyalari bo‘lganidek, shu g‘oyalarga muvofiq shakllari ham yuzaga keladi. Shu bois bugungi murakkab mushohadali jarayonda ijodkorning o‘ziga xos uslubi va unda muallif dunyoqarashini nazariy va tarixiy-konkret muammo sifatida qayta tushunib yetish ehtiyoji yanada ortyapti. Zamonaviy o‘zbek nazmi ko‘z o‘ngimizda yangi-

yangi poetik qirralari bilan boʻy koʻrsatib, jahon adabiyotining tarkibiy qismiga aylanmoqda. Eng muhimi, shoir yaratayotgan qahramonning ruhiy olami, uning rang-barang qirralari salmoqdorlik kasb etib, asar mazmunini ochishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonni shu asosda koʻzdan kechirish ushbu yoʻnalishdagi izlanishlarni toʻldiradi**.** Shoir va uning oʻziga xos uslubi, u yaratgan lirik qahramon tabiatida kechayotgan oʻzgarishlar, inson ruhiy olamini anglash, qayta mushohada qilish, olamni poetik idrok etish kabi masalalar talqini bugungi kunda yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Har qanday asarning asosida ijodkor dunyoqarashi, didi, xarakter yoʻnalishi, uni shakllantirgan biografik omillar, ruhiy-psixologik holati, xullas, shaxsiyatini shakllantirgan omillar turadi. Unda kundalik turmushi, shaxsiy hayotida uchrab turadigan voqelik va uning in'ikosi aks etishi ayon haqiqat. Ma'lumki, ijodkor uslubining shakllanishi ichki va tashqi faktorlarga aloqador. Bu jarayonda uning biografiyasi ham katta ahamiyatga ega. Asosan, u yashayotgan ijtimoiy voqelik va unga boʻlgan munosabat ijodkor uslubini koʻrsatishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan Sirojiddin Sayyid hayoti va ijodiga e'tibor qaratilsa, unda shoirning aynan vatan konsepti mavzusidagi bitiklari, salaflari zamondoshlari nazmini takrorlamaydi. Uning "Bugʻdoyzorlarim", "Ulugʻroq ish bormi elning tinchidan", "Toshkent oqshomiga", "Vatan", "Vatanni oʻrganish", "Vatan yodi", "Onamning kalishlari", "Vatan ozoda boʻlsin", "Bir sogʻinch", "Vatanni anglash", "Dehqon madhiyasi" she`rlari shular jumlasidandir. Shoirning zohiran quvonchli holatning goʻzal poetik ifodasi berilgandek koʻringan misralari zamirida ham elning, yurtning gʻamida yashayotgan koʻngil iztiroblari qalqib turadi. "Ayvonlari nurga talosh, kayvonisi oy-u quyosh" boʻlgan Vatan haqida "koʻzida yosh, yuzida yosh" bilan yozishning sababi shunda. Shoir "Jon-u dilim" nomli she`rida Vatan konseptini "gullagan zaldori", "jiyda", "sunbul-u rayhon iforli gul qasiyda", "rishtayi jon", "nuri diyda" leksemalari orqali ifodalab poetik individuallikni yuzaga keltirgan.

Demak, adabiy asar matni asosida ijodkorning hayotiy xulosalari, xarakteri, ijtimoiy voqelikka munosabati, oʻz "lirik men"ini kashf qila olishi, poetik timsol yaratishi, badiiy tasvir vositalarini qoʻllashdagi oʻziga xos mahorati kabi xususiyatlari mujassam boʻladi. Shuningdek, badiiy asar matnida muallifning umumiy qonuniyat va tamoyillarga amal qilmasligi, ba'zan grammatik qoidalardan chetlashishi kuzatiladi. Bu asar muallifining idiostilini ifodalaydi.

ADABIYOTLAR

1. «Античные теории языка и стиля». Под общей редакцией О. М. Фрейденберг, М.—Л., Огиз, 1963; «Очерки истории римской литературной критики», М., Изд-во АН СССР, 1963. М. Л. Гаспаров. «Посланиуа к Пизоуам о науке поэзии» Горация (стр. 100—108). «Историуа эстетики. Памятники мировой эстетической мысли», т. I, М., Изд-во Академии художеств СССР, 1963, раздел «Античност». «Историуа эстетики», т. I, раздел «Средние века».
2. Yoʻldoshev B., Qurbonov T. Badiiy asar tili va uslubi. – Samarqand, 2006.
3. Виноградов В. В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – М.: 1963. – С. 320.
4. Umirova S, Oʻzbek she`riytida lingvistik vositalar va poetic individuallik (Usmon Azim she`riyati misolida). Filol.fan.falsafa doktori (Phd) diss. – Sam., 2019.
5. Балли Ш. Французскауа стилистика. 2-е изд., стереотипное. — М.: Эдиториал УРСС, 2001. — С. 392 — ISBN 5-8360-0407-2.

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKNING YANGI YO‘NALISHLARI: PSIXOLINGVISTIKA

Feruza NAMOZOVA,
NavDPI 2-bosqich magistranti

Lingvistika yoki tilshunoslik fani o‘ziga xos murakkab ijtimoiy hodisa bo‘lgan aloqa qurolini – tilni sistema sifatida – bir butun obyekt sifatida tadqiq va tahlil qiladi. Ayni jarayonda u turli ko‘rinishlarda, shakllarda kuzatiladi. Bu ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan tilning mohiyatidan, uni turli tomondan o‘rganish, tekshirish lozimligidan va bu ilmiylik nuqtayi nazaridan mutlaqo to‘g‘ri ekanligidan kelib chiqadi.

Tilshunoslik nihoyatda qudratli ma’naviyat belgisi, millat boyligi bo‘lgan tilni o‘rganuvchi sohadir. Jamiyatda ilm-fan, madanyat, san’at muttasil rivojlanadi, albatta, Lingvistika ham bundan xoli emas. Keyingi yillarda zamonaviy o‘zbek tilshunosligiga ham psixolingvistika, etnopsixolingvistika, biolingvistika, neyrolingvistika, sotsiolingvistika, matematik lingvistika, kompyuter lingvistikasi, kognitiv lingvistika, pragmalingvistika, lingvokulturologiya kabi yangi terminlar va yo‘nalishlar kirib keldi. Yuqorida sanab o‘tilgan har bir yo‘nalishlar ustida jiddiy ilmiy izlanishlar olib borlilmoqda. Ularning natijasi o‘laroq qator ilmy ishlar yozildi, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar yaratildi.

Psixolingvistika tilshunoslikning yangi yo‘nalishlarida biri hisoblanadi. Til nutqiy faoliyatda yuzaga chiqqani tufayli nutqiy faoliyat tilshunoslikda ham psixologiya fanida ham tekshirish obyekti sanaladi. Tilshunoslik va psixologiya fanlarining ushbu kesishish nuqtasi mazkur fanlar oralig‘ida psixolingvistika (yoki lingvopsixologiya) yo‘nalishining yuzaga kelishiga olib kelgan.

Psixolingvistika psixologiya va lingvistika fanlarining umumlashmasi (sintezi) sifatida nutq jarayonini mazmun nuqtayi nazaridan, kommunikativ ahamiyati, nutq aktining muayyan ijtimoiy-amaliy maqsadga yo‘naltirilganligi, shunga muvofiqligi jihatidan o‘rganadi. U nutqdagi – fikr ifodalashdagi shakl va mazmun birligiga alohida e’tibor beradi. Psixolingvistika lisoniy imkoniyatlar asosida nutqiy birliklarni hosil qilish va qabul qilish, nutq jarayoni (fikr almashtirish-ifodalash va anglash)da ruhiy holatlarga, bunda sharoit (situatsiya), o‘xshashlik (analogiya), farqlash (differensiatsiya), ta’sirchanlik, so‘zlovchi va tinglovchi ruhiy holati masalalariga alohida e’tibor beradi.

“Psixolingvistika” termini E.R.Daybold ta’kidicha, “inson tili va verbal xulqning muayyan aspektlariga nazariy va eksperimental yondashuvlarning ayrim aralashmasini anglatadi”[1]. Ilk marta "Psixolingvistika" atamasi amerikalik psixolog J.R.Kantor tomonidan 1936-yilda “Grammatikaning obyektiv psixologiyasi” asarida qo‘llangan bo‘lib, keyinchalik tilshunoslar e’tiboriga tushishi va keng ko‘lamda qo‘llanilishi 1946-yilda uning shogirdi N.G. Pronko “Til va psixolingvistika” nomli maqolasini chop etgandan so‘ng ommalashgan. Tilshunoslikda ilmiy foydalanishga kirib kelishi 1953-yilda ro‘y bergan. Biroq psixolingvistika yo‘nalishining ildizlari XIX asrda qiyosiy-tarixiy tilshunoslik negizida vujudga kelgan psixologizm oqimiga borib taqaladi. Ma’lumki, psixolingvistikaning asoschisi nemis tilshunos olim G.Shteyntal (1823-1899) hisoblanadi. Uning eng muhim asarlari sifatida «Tillarni tasnif etish va ularning taraqqiyot qonuniyatlarining maqsadi» deb nomlangan bo‘lib, 1850-yilda yozilgan. Undan keyin 1851-yilda yozgan «Tillarning kelib chiqishi», 1855-yilda yozilgan «Grammatika, logika

[1] T. Bushuy, Sh.Safarov "Til qurilishi: taxlili metodlari va metodologiyasi" Toshkent: O‘zbeiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "FAN" nashriyoti 2007. 5b. 274 bet.

va psixologiya», 1860-yilda yozgan «Muhim tipdagi tillarning tuzilishi xarakteristikasi» asarlarini sanab o‘tish lozim[1].

Shuni alohida ta’kidlamoq joizki, lingvistik biologizmning o‘ziga xos xususiyatlari Shleyxer ta’limotida o‘z ifodasini topgan bo‘lsa, logik grammatizm Bekker ta’limotida jonlantirilgan. Shteytal esa o‘z ijodiy o‘qishlarida bu jaryonni individning xatti-harakati va xalq psixologiyasi taraqqiyotiga tayanib o‘rgangan. Tilshunoslik faqat individning psixologik xarakteri bilan chegaralanmaydi, balki uning nutqini o‘rganadi, ayni zamonda xalqning psixologiyasini, uning tilini ham o‘rganadi[2]. Kuzatishlardan ko‘rinadiki, psixolingvistika bir xalq misolida rivojlangan emas. Uning rivojlanishida nemis, rus, amerikalik, yaponiyalik olimlar yaratgan maktablarning o‘rni beqiyos.

L.S.Vigotskiy – rus psixolingvistikasining asoschilaridan biri. Psixolingvistikaning nazariy va metodologik asoslarini yaratilishida asrning yetuk olimlaridan bo‘lgan Lev Semenovich Vigotskiyning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. L.S.Vigotskiy A.N.Leontev, A.R.Luriya, A.N.Sokolov, P.Ya.Galperin, D.B.Elkonin, LJ.Bojovich, A.V.Zaporojes va h.k. olimlar faoliyat olib borgan rus psixolingvistika maktabining asoschisi hisoblanadi. Mazkur maktabning an’analari A.V.Petrovskiy, V.V.Davidov, N.l.Jinkin, V.P.Zinchenko, A.A.Leontev kabi olimlar tomonidan davom ettirilgan. L.S.Vigotskiy va uning maktabi nafaqat rus, balki jahon psixologiyasi va pedagogikasining taraqqiyotiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan.

Rus tilshunosligida mazkur soha rivojiga katta hissa qo‘shgan A.A.Zalevskaya psixolingvistikaning vazifasi haqida yozar ekan, «tilning amal qilishini psixik fenomen sifatida tavsiflash va tushuntirish» ushbu sohaning asosiy maqsadi bo‘lishi kerakligini ta’kidlagan edi[3]. Psixolingvistikaga doir ko‘plab tadqiqotlar yaratgan rus tilshunosi va psixologi V.P.Belyanin matning psixolingvistik xususiyatlari yoritilgan «Psixologik diagnostika asoslari (модели мира в литературе)» nomli kitobida matnga lingvistik va psixologik yondashuv haqidagi o‘z konsepsiyasini yaratgan. V.P.Belyaninning fikriga ko‘ra, nutq ortida nafaqat til tizimi, balki psixologiya ham turadi. Shuningdek har xil matn ortida turli shaxslar psixologiyasi turadi. Olimning ta’kidlashicha, badiiy matn tuzilishi aksentuallashgan ong tuzilishiga muvofiqdir[4].

Sohada olib borilgan izlanishlar, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, psixolingvistikaning o‘rganish obyektiga quyidagilar kiradi:

- nutq faoliyatining vujudga kelish mexanizmini o‘rganish;
- bolalar nutqining shakllanish jarayonini o‘rganish;
- muayyan nutqiy vaziyatlarda so‘zlovchi bilan tinglovchi o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish;
- nutqning axborot tashish funksiyasini o‘rganish va boshqarish.

Psixolingvistika bir qator amaliy masalalar , ya’ni ona tili, ayniqsa, xorijiy tilni o‘rgatish; maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy tarbiyasi va logopediya masalalari; miyadagi nutqiy markazlar kasalliklari klinikasi; nutqiy ta’sir ko‘rsatish muammolari (xususan ommaviy axborot vositalari faoliyatida va targ‘ibot ishlarida); sud psixologiyasi va kriminalistika (masalan, kishilarni ularning nutq xususiyatiga qarab tanib olish, aniqlash); mashina tarjimasi hamda nutqiy axborotni EHMga kiritish muammolari va boshqalarni nazariy jihatdan tushuntirish zarurati tufayli o‘tgan asrning 60-yillarida paydo bo‘lgan.O‘zbekistonda ushbu sohada bir qancha ishlar bajarilgan bo‘lsa-da, haqiqiy

[1] A.Primov, X.Qodirova “Tilshunoslikning dolzarb muammolari” o‘quv-uslubiy qo‘llanma.
[2] A.Primov, X.Qodirova “Tilshunoslikning dolzarb muammolari” o‘quv-uslubiy qo‘llanma.
[3] Залевская А.А. Введение в психолингвистику: Учебник для студентов высших учебных заведений. – М.: Российский гос. гуманит. ун-т, 1999. – С. 25.
[4] Xudayberganova D.S.”O`zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini”monografiyasi. –T, 015.

ma’nodagi psixolingvistik tadqiqotlar endigina boshlanmoqda. Sh.Usmonova “Psixolingvistika”, A.Primov, X.Qodirovalarning “Tilshunoslikning dolzarb muammolari” o‘quv-uslubiy qo‘llanmalari shu sohaning rivojlanishi uchun qo‘yilgan dastlabki qadamlardir. Xudoyberganova Durdona Sidiqovnaning “O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini” doktorlik dissertatsiyasining uchinchi bo‘limi «Matn psixolingvistik yondashuvlar talqinida» deb nomlangan va shu o‘rinda badiiy matnning psixolingvistik tahliliga keng o‘rin berilgan. Iroda Azimova 2008-yilda “O‘zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Bugungi kunda tilshunos olimlar ko‘pgina badiiy asarlarning psixolingvistik xususiyatlarini o‘rganib, tahlil qilib fanga ma’lum qilmoqdalar.

Xullas, lingvistika fani umumiylik sifatida, qayd etilganidek, turlicha xususiyliklari, sohalari orqali til sistemasini butun mohiyati, murakkabligi bilan, kommunikativ cheksiz imkoniyatlari bilan tadqiq qiladi. U ayni jarayonda qator fanlar bilan o‘zaro aloqada, hamkorlikda ish olib boradi, til va jamiyat, til va tarix, til va taraqqiyot, til va tafakkur, til va nutq kabi o‘ta dolzarb va o‘ta murakkab masalalarning yoritilishida faol ishtirok etadi

Lingvistika fani jamiyat taraqqiyotining, gullab-yashnashining eng muhim, eng asosiy, tengi yo‘q mezonlaridan biri til – aloqa quroli ekanligini tasdiqlash va isbotlash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, u ta’lim oluvchiga ona tili imkoniyatlarini – ayni bir fikrni, narsa-hodisani yuzlab usullar bilan ifodalash yo‘llarini yetkazish bilan unda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga, ona tilida fikrlash va ona tili qurilishining o‘ziga xosligi, boshqa tillardan tubdan farq qilishi, olamni «o‘zicha» aks ettirishni singdirish bilan milliy ong, milliy dunyoqarash, milliy g‘urur va mafkurani shakllantirishda mustahkam poydevor vazifasini o‘taydi.

BOBURNING LINGVISTIK QARASHLARI

Ro‘zimorodova Oqila SHOMURZAYEVNA,
Samarqand viloyati Paxtachi tumani prezident ta’lim muassasalari tasarrufidagi ixtisoslashtirilgan maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Zahiriddin Muhammad Bobur tarixda shoh, davlat arbobi, ajoyib shoir, muarrix, geograf, etnograf, adabiyotshunos, islomshunos, harbshunos, musiqashunos sifatida nom qoldirgan. Bobur o‘zining lirik shoirligi va XVI asr prozasining namunasi bo‘lgan «Boburnoma» asari bilan o‘zbek adabiyoti va tili tarixida o‘chmas iz qoldirgan so‘z san’atkoridir. U tilshunoslikka oid maxsus asar yozmagan bo‘lsa-da, biroq u o‘zining qomusiy asari bo‘lgan “Boburnoma” da tilshunoslikka doir bir qator qimmatli fikrlarni bayon qiladi.

U nutq madaniyatiga, nutqning sodda, ravon, tushunarli bo‘lishiga alohida ahamiyat berdi. O‘z ijodiy faoliyati davomida bunga amal qildi va boshqalarni ham bunga da’vat etdi.

Boburning nutq madaniyatiga alohida ahamiyat berishi bejiz emas edi. Chunki antik davrda ham, arab xalifaligida ham nutq madaniyatiga har qanday ziyoli kishining, ayniqsa, davlab arbobining egallashi kerak bo‘lgan eng muhim san’at turi sifatida qaralar, faqat shunday san’atni egallagan kishigina mohir davlat boshqaruvchisi bo‘lishi mumkin, deb hisoblanar edi.

Boburning o‘zi ham jangda tahlikaga tushgan askarlarni bir necha bor jangovar va ta’sirchan nutqi orqali dadillashtirgan, g‘alabaga ishonch ruhini uyg‘otgan va shu tufayli muvaffaqiyat qozongan.

Shuning uchun u o‘z farzandlarining ham bu san’atni egallashini eng muhim vazifa deb bilgan. Faqat og‘zaki nutqnigina emas, balki yozma nutqning ham sodda, ravon va savodli bo‘lishiga erishish har bir ziyolining vazifasi hisoblangan.

Boburning o‘g‘li Humoyunga yozgan maktubi fikrimizning dalilidir: «Xatingni xud tashvish bilan o‘qusa bo‘ladur, vale asru mug‘lakdur (juda chalkashdir). Nasri muammo hech kishi ko‘rgan emas. Imlong yomon emas, agarchi xili rost emas. Iltifotni to bilan bitibsen, qulunjni yo bila bitibsen. Xatingni xud har tavr qilib o‘qusa bo‘ladur, vale bu mug‘laq alfozingdin (chilkash so‘zlar) maqsad tamom mahum bo‘lmaydur (tushunmaydi). G‘olibo xat bitarda kohilliging (bo‘shliging) ham ushbu jihattindir. Takalluf (hashamat, bezak) qilay deysan, ul jihatdin mug‘laq bo‘ladur, mundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz (til) bila biti. Ham senga tashvish ozroq bo‘lur va ham o‘qig‘uvchig‘a» (BN-65).

Boburning sodda uslub va til bilan yozishni talab qilishi va bunga o‘zining amal qilishi buyuk voqeadir. Badiiy uslubning soddaligi Bobur asarlarining o‘quvchiga tez anglashilarli bo‘lishiga, badiiy tasvir vositalarining ommabop bo‘lishiga olib keldi.

Masalan,

Tushumda chun quyoshdek orazingni ko‘rdim otrudin, Tilarmen to qiyomat ochmag‘aymen ko‘zni uyqudin.

Bobur lirikasida ham arabcha-forscha so‘zlar qo‘llangan. Masalan, «Ne hush bo‘lg‘ayki» matlali g‘azalda 63 ta so‘z qatnashgan bo‘lib, undan 5 tasi kishi nomlari, 35 ta turkiy, 23 ta arabcha-forscha so‘zlardir. Ayrim g‘azallarida bu nisbat yana ham ortib borishi, qo‘llangan arabcha-forscha so‘zlar ham shu davr, shuningdek, hozirgi davr o‘quvchilariga tushunarlidir.

Bobur tilining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, ifodaning ixchamligi, soddaligi va ravonligidir. Buning uchun u so‘zlarni tanlab ishlatishga, oz so‘z bilan ko‘proq fikrni bayon etishga harakat qildi. O‘zbek tilining so‘z boyligidan ijodiy foydalanib, undagi sinonim, omonim va antonim so‘zlardan keng va o‘rinli foydalandi.

«Boburnoma» leksikasi ham juda boy. Unda hayvonot olami, tabiat hodisalari, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid ko‘plab leksik elementlarni uchratish mumkin.

Bobur o‘z asarida bir qancha so‘zlarning etimologiyasi haqida ham fikr yuritadi. Masalan, *Savolak parbat* (Himalay tog‘i) etimologiyasi haqida shunday yozadi: “Bu tog‘ni Hind eli Savolak parbat derlar. Hind tili bila «Savo” – rub (chorak), “lak” – yuz ming, “parbat” – tog‘, ya’ni rub’ va yuz ming tog‘kim, yuz yigirma besh ming tog‘ bo‘lg‘ay» (BN-343). “Ho‘jand bila Kandibodom orasida bir dasht tushubtur, Hodarveshg‘a mavsumdur. ... Derlarkim, bir necha darvesh bu bodiyada tund yelga yo‘luqub, bir-birini topolmay, “Ho, darvesh”, “Ho, darvesh”, dey-dey halok bo‘lubturlar, andin bu bodiyani Hodarvesh derlar”.

Shuningdek, *Konibodom, Shahrisabz, Qarshi, Kashmir, Konigil, Masjidi mukatta’* singari joy nomlarining ham nomlanish sabablari haqida ma’lumot beriladi.

Asarda laqab va taxalluslarning etimologiyasi haqida ham so‘z boradi. Bobur “Boburnoma”da so‘zlarni ma’lum mazmuniy maydonga birlashtirgan holda izohlaydi va tezaurus lug‘at tuzadi. Mazmuniy maydon nazariyasi asosida tuzilgan tezaurus lug‘ati 1852-yilda Yevropada ingliz tilshunosi I.M.Roje tomonidan yaratilgan. Shuning uchun ham Yevropa tilshunoslari tezaurus lug‘at tuzishning asoschisi qilib I.M.Roje ko‘rsatadilar. Biroq bundan uch asr oldin Bobur “Boburnoma” asari orqali tezaurus lug‘at tuzishning ajoyib namunasini ko‘rsatdi.

Bobur Hindiston voqealari haqida fikr yuritar ekan, Hindistonning hayvon, parranda, o‘simlik nomlari, fasl nomlari, o‘lchov nomlarini batafsil izohlaydi. O‘rni bilan boshqa tillarda ularning qanday nomlanishi haqida chog‘ishtirma ma’lumot ham beradi.

Yuqoridagi fikrlardan anglash mumkinki, Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zbek tilining sayqallanishida, badiiy, publisistik, rasmiy va ilmiy uslublarining shakllanishida katta iz qoldirgan ulkan so‘z san’atkori bo‘lishi bilan birga, tilshunoslikning grafika, onomastika, etimologiya, leksikografiya sohalarining rivojiga munosib hissa qo‘shgan tilshunos olim hamdir.

СОПОСТАВЛЕНИЕ В ПОСЛОВИЦАХ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА (НА ПРИМЕРЕ БЕССОЮЗНЫХ СЛОЖНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ)

П.У.БАКИРОВ,
доктор филологических наук, профессор
(Термезский государственный университет)

В пословицах узбекского языка значительную массу составляют паремии в форме бессоюзных сложных предложений. Данные показатели вполне соответствуют жанровой природе пословиц как кратких и в то же время емких изречений.

С семантической точки зрения в бессоюзных сложных предложениях языков выявляются сходные взаимоотношения между предикативными частями.

1. Сопоставление: *Ёлғончи – қаллоп, ўғри – аллоп* (Лжец – жулик, вор – торговец); *Эр вазири – хотин, рўзғор оғири – ўтин* (Министр мужа – жена, тяжесть хозяйства – дрова); *Сувнинг иши – ўпирмоқ, ўтнинг иши – куйдурмоқ* (Дело воды – промывать, дело огня – сжигать); *Сўзнинг ёмони – санчиқ, дарднинг ёмони қуянчиқ* (Плохое слово – головная боль, плохая болезнь – эпилепсия).

2. Сопоставление с антонимией (противопоставление): *Душмандан қўрққан – ёвга дўст, элни суйган – эрга дўст* (Испугавшийся врага – врагу друг, посвятивший жизнь народу – мужчине друг); *Бойнинг сўзи – бой, йўқнинг сўзи – лой* (Слова бая – бай, слово бедняка – грязь); *Илм – ёруғлик, жаьолат – зулмат* (Ученье – свет, невежество – тьма); *Борлик – ярашиш, йўқлик – уришиш* (Богатство – мир, бедность – ссора); *Борнинг юзи – ёруғ, йўқнинг юзи – чориқ* (Лицо богатого – свет, лицо бедного – чарык); *Қарилик даври – қишдай, ёшлик даври – ёздай* (Время старости – словно зима, время молодости – словно лето); *Яхшининг иши – атир, ёмоннинг иши – захар* (Дело хорошего человека – духи, дело плохого – отрава); *Яхшининг иши жаннат ёмоннинг иши – касофат* (Дело хорошего человека – рай, дело плохого – беда); *Аччиқ – душман, ақл – дўст* (Гнев – враг, ум–друг); *Билимли – олим, билимсиз – золим* (Знающий – ученый, не знающий – угнетатель); *Илмли уй – чароғон, илмсиз уй – зимистон* (Дом с наукой – яркий свет, дом без науки – кромешная тьма); *Яхши хотин – уй бўстони, ёмон хотин – зимистони* (Хорошая жена – домашний сад, плохая жена – кромешная тьма); *Яхши бола – отага қувват, ёмон бола – отага уқубат* (Хороший ребенок – сила отца, плохой ребенок – мученье отца); *Яхши бола – суюк, ёмон бола – куюк* (Хороший ребенок – счастье, плохой ребенок – горе); *Яхши дўст – жон озиғи, ёмон дўст – бош қозиғи* (Хороший друг – души отрада, плохой друг – кол на голове); *Сувсиз ер – мозор, сувли ер – гулзор* (Безводная земля – кладбище, орошенная земля – цветник); *Яхши сўз – жон озиғи, ёмон сўз – бош қозиғи* (Хорошее слово – отрада души, плохое слово – кол на голове).

3. Сопоставление-сравнение: *Сув – деҳқоннинг қони, ер – унинг жони* (Вода – кровь крестьянина, земля – его душа); *Таваккал – нор, андиша – мода* (Риск – верблюд, осмотрительность – самка птицы); *Хотин – бўйин, эр – бош* (Жена – шея, муж – голова); *Хотин – уйнинг гули, бола – дилнинг гули* (Жена – цветок дома, ребенок – цветок сердца); *Халқ – тош, амалдор – сув, сув кета берар, тош қола берар* (Народ – камень, чиновник – вода, вода уйдет, камень останется); *Арпанинг ич қобиғи – ин, тиш қобиғи – тиш* (Внутренняя оболочка ячменя – гнездо, наружная оболочка –

внешность); *Одам – гавҳар, қўли – гул* (Человек – драгоценность, руки – цветок); *Сув – зар, сувчи – заргар* (Вода – золото, поливальщик – ювелир); *Эр – авра, хотин – астар* (Муж – лицевая сторона, жена – подкладка); *Бола – лой, она – кулол* (Ребенок – глина, мать – гончар); *Сўз – кумуш, жим ўтириш – олтин* (Слово – серебро, молчание – золото); *Сўзнинг онаси – қулоқ, сувнинг онаси – булоқ* (Мать слова – ухо, мать воды – родник).

4. Сопоставление с отрицанием: *Бақа гўшт эмас, амалдор дўст эмас (*Лягушка – не мясо, чиновник – не друг*).*

5. Пояснение: *Ўлим – ҳаёт душмани, қайтиб келмас пушмони* (Смерть – враг жизни, она не возвращает раскаяния).

6. Оценка: *Ўқиш – билим ўчоғи, билим – умр булоғи* (Учение – очаг знания, знание – источник жизни); *Илм – ақл булоғи, ақл – яшаш чироғи* (Наука – источник ума, ум – светильник жизни); *Илм – дилнинг чироғи, мактаб – илм чорбоғи* (Наука – светильник сердца, школа – сад жизни); *Бола – баҳона, дийдор ғанимат* (Ребенок – предлог, цель – свидание); *Болам – болим, болам боласи – жоним* (Мой ребенок – мед, ребенок моего ребенка – душа); *Нон – авлиё, ош машойих* (Хлеб – чудотворец, пища – духовный наставник); *Сувсиз ер – етим, молсиз эр – етим* (Безводная земля – сирота, мужчина без имущества – сирота).

7. Сопоставление с оценкой: *Илм – хазина, билим – дафина* (Наука – казна, знание – сокровище); *Илм – эгарланган от, билганга – дўст, билмаганга – ёт* (Наука – оседланная лошадь, знающему – друг, незнающему – посторонний); *Илм ўлчови – ақл, зеҳн ўлчови – нақл* (Мера науки – ум, мера разума – афоризм); *Хотин – уй безакчиси, эр – уй кўмакчиси* (Жена – украшение дома, муж – помощник дома); *Яхши хотин – уй зийнати, ёмон хотин – тўй зийнати* (Хорошая жена – украшение дома, плохая жена – украшение свадьбы); *Яхши хотин – уй эгаси, ёмон хотин – йўл эгаси* (Хорошая жена – хозяйка дома, плохая жена – хозяйка дороги); *Яхши хотин – умр боли, ёмон хотин – жон заволи* (Хорошая жена – мед жизни, плохая жена – убыток для человека); *Сўз кўрки – мақол, гузар кўрки – баққол* (Украшение речи – пословица, украшение рынка – бакалейщик); *Сўз кўрки – мақол, эр кўрки – соқол* (Украшение речи – пословица, украшение мужчины – борода).

8. Оценка с антонимией: *Болали хотин – гул хотин, боласиз хотин тул – хотин* (Жена с ребенком – цветущая жена, жена без ребенка – вдова); *Болали уй – бозор, боласиз уй – мозор* (Дом с детьми – базар, дом без детей – кладбище); *Болали уй – хандон, боласиз уй – зиндон* (Дом с детьми – веселье, дом без детей – темница).

9. Тождество и отрицательное тождество: *Ҳақ – куч, куч – ҳақ* (Правда – сила, сила – правда); *Бойлик бойлик эмас, бирлик – бойлик* (Богатство – не богатство, единство – богатство); *Бозорим бозор эмас, овулим – бозор* (Мой базар – не базар, мой аул – базар).

10. Одновременность или последовательность событий: *Анжом – уй зийнати, сўз – инсон зийнати* (Обстановка – украшение дома, слово – украшение человека); *Соғлик – умрнинг гарови, уйқу – умрнинг дармони* (Здоровье – залог жизни, сон – сила жизни);

11. Логическое следование: *Дўст кенгаши – ҳаракат, ҳаракатга – баракат* (Совет друга – движение, в движении – благо); *Муҳаббат – бир сўз, мазмуни – дунё* (Любовь – одно слово, его смысл – целый мир).

Как видно среди узбекских пословиц в форме бессоюзных сложных предложений с семантической точки зрения выявляются различные взаимоотношения между предикативными частями.

INTERTEKSTUAL TAHLIL METODI VA MUALLIF INDIVIDUALLIGI

Rano YUSUBOVA,
NavDPI, filologiya fanlari doktori, dotsent

Filologiyaning uzluksiz taraqqiy etib borishi, turli paradigmalarning vujudga kelishi natijasida fanda yangi sohalarning yuzaga kelishi va kengayishi, tabiiy, fanning mukammal o‘z tadqiq metodlari majmuasiga egaligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijasining samarali bo‘lishida o‘rganilayotgan obyektga aniq nuqtai nazar asosida yondashish, buning uchun metodni to‘g‘ri tanlash va qo‘llash zarur.

Lingvopoetika soha sifatida shakllangunga qadar badiiy asarni filologik tadqiq qilish an’anaviy metodlarda amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlar kuzatilganda, ayrim olimlar matnning forma qismini o‘rganishni, ayrimlar mazmun qismini o‘rganishni vazifa sifatida belgilab olganlarki, bu tematik tahlillarga ko‘proq e’tibor qaratilganligini ko‘rsatadi, natijada tadqiqot obyekti bo‘lgan badiiy matnni shakl va mazmun birligida kompleks o‘rganish vazifalar doirasiga kiritilmasdan qolgan. Lingvopoetika ana shu vazifalarning yechimi o‘laroq ham yuzaga kelgan. Rus tilshunosi A.A.Lipgart badiiy matnni lingvopoetik tadqiq etish yo‘nalishi matnning g‘oyaviy-badiiy mazmunini ta’minlash va estetik effekt yaratishda lingvistik birliklarning qiyosiy ahamiyati va stilictik vazifalarini aniqlashga yo‘naltirilganligini ta’kidlagan[24].

Dastavval tilshunoslarning badiiy matnni tahlil qilishning turli metod va tahlil usullarini ishlab chiqishlari asosida ikkita asosiy yondashuvni kuzatish mumkin: lingvistik va adabiyotshunoslik. Lingvistik metod uchun tadqiqotning boshlang‘ich nuqtasi tildir, matn esa til qonuniyatlarining faollik ko‘rsatishi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi. Adabiyotshunoslik metodi boshlang‘ich nuqta sifatida matnni (badiiy asarni) tanlaydi, til esa tahlil qilish uchun yordamchi materialdir. Ushbu ikki tahlil usulining birlashuvi, kesishuvi lingvopoetikaning vujudga kelishiga zamin yaratdi. Natijada adabiy til imkoniyatlarini, tilning amaliy xususiyatlarini, badiiyat masalalarining tub ildizini to‘laroq ko‘rsatib berish zarurati tug‘ildi.

O‘tgan asrning 50-yillarida dunyo fanining filologiya, sistemologiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik sohalarida metodologik yo‘nalishlar shakllandi[25], nafaqat ilmiy tadqiqot faoliyati, hatto insonga xos hech bir faoliyat metodologiyasiz bo‘lishi mumkin emas. Lingvopoetik tadqiqotlarni ilmiy va amaliy jihatdan birmuncha obyektiv ravishda amalga oshirish uchun tilshunoslikda mavjud bo‘lgan an’anaviy, sistem-struktur, antropotsentrik tahlil metodlaridan o‘rni bilan foydalanish taqozo etiladi.

Badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilish metodologiyasini ishlab chiqishda muhim o‘rinni uning mazmunini belgilovchi tamoyillar egallashi lozim, bunda badiiy matnning badiiy-estetik spesifikasini hisobga olish, ya’ni ularni g‘oyaviy mazmun-obraz-til uchligida tekshirish, adabiy til va individual yaratilmalarni farqlash va izohlash. Intertekstual tahlil metodi kabilar aynan matn mazmuniy persepsiyasi asosidagi metod sanaladi.

Intertekstual tahlil metodi. Metod matnlararo aloqani, matndagi intertekstual birliklarni *(allyuziya, pretsedent birlik, iqtibos, reminitsensiya, epigraf, sarlavha*) aniqlash, ularning mazmuniy persepsiyaga ta’siri masalasini o‘rganish, badiiy matn mazmuniy idrokiga intertekstual birliklarning ta’sirini belgilashni tahlil qilishga mo‘ljallangan. Metod badiiy asarlarni o‘rganishi nuqtai nazaridan filologik metodga tegishli.

---

[24] Липгарт А.А. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика (на материале англ. лит. 16 – 20 вв.): Дисс. ... д-ра филол.наук: [в 2 т.]. – М., 1996. – С. 23.

[25] Новая философская энциклопедия. 2-том. - М.: Мысль, 2010. - С. 554.

Intertekstuallik - matn ichida boshqa matnning uning mazmuniga aloqador holda to‘liq yoki qisman keltirilishi[26] bo‘lib, ilk marotaba tilshunoslikka intertekstuallik terminini 1967-yilda poststrukturalizm nazariyotchisi Yu.Kristeva olib kirgan. Badiiy matndagi intertekstuallik tamoyili dunyo tilshunosligida atroflicha o‘rganilganligi bois badiiy matnga intertektual tahlil metodi asosida ko‘rib chiqiladi. Natijada badiiy matnga olib kirilgan "begona" matnning estetik signallari aniqlanadi, manba matni bilan g‘oyaviy-badiiy aloqadorligi tahlil qilinadi, o‘zga matn transformatsiyasining funksiyalari tahlilga tortiladi. Ushbu tahlil metodidan foydalanuvchi oldida filologik bilimlar bilan bir qatorda, madaniyatshunoslik, psixologiya, mantiq kabi ilmlardan ham xabardorlik talab qilinadi.

Intertekstual tahlil metodining maqsadi badiiy asar yaratuvchisining intermatnni qo‘llash pozitsiyasini aniqlash bilan shug‘ullanishdir. I.P.Smirnov, intertekstual tahlil metodini operatsional emas, balki ontologik maqomga ega metod sifatida tushunish kerak, deb tushuntiradi va izohlashicha, ontologiya ayni paytda tahlil qilinayotgan matnda intertekstni matn sifatini belgilovchi sifatida qabul qilishni emas, balki matnni yaratish jarayoni mahsuli sifatida tashkil etilishini nazarda tutadi[27].

Masalan, intertektuallikning bir ko‘rinishi bo‘lgan *reminissensiya*[28] (lot. reminiscentia- xotirlash, eslash) hodisasi badiiy asarda boshqa san’at turlariga mansub asarlarning yodga solinishi, izohlanishi, muhokama etilishi, mulohazalar bildirilishi bilan qo‘llaniladi. Reminissensiya hodisasi intertekstuallikning bir turi sifatida o‘zi bir qancha guruhlarga bo‘linib ketadi. Lekin hammasida mohiyat bitta, maqsad yagona: berilgan matn parchasi, pretsedent nomlar yoki matn eslanishi orqali kitobxon xotirasida avvaldan mavjud bo‘lgan matnni qayta tiklash va bu orqali o‘z matnining g‘oyaviy-estetik qiymatini oshirishdir. Bu jarayonda intertekst sifatida kelgan matn parchasi yoki nomi lingvistik belgi sifatida matn va o‘quvchini o‘zaro bog‘laydi. H.Olimjonning “Ofeliyaning o‘limi” she’ri Shekspirning “Gamlet” hamda U.Azimning «*Otello*» she’ri Shekspirning shu nomdagi dramatik asari voqealarini yodga soladi. Har ikkala she’rda ham kitobxon ko‘z o‘ngida Shekspir asarlari voqealari qayta jonlantiriladi va mualliflarning badiiy qarashlari bilan xulosalanadi.

Asardagi sitatalar, she’riy misralar (jumladan, muxammas, nazira), obrazlar (masalan, talmeh san’ati), g‘oyaviy-tematik va emotsional motivlar (masalan, A.S.Pushkinning «Kuz» va A.Oripovning «Kuz xayollari» she’rlari) ham reminissensiya hisoblanadi[29].

1986-yilda Anvar Muqimov tomonidan yozilgan “Qo‘qon shamoli” hikoyasi va A’zam O‘ktamning “Qo‘qon shamoli” she’ri shu nomdagi tabiat hodisasiga ishora qiladi. O‘rta Osiyodagi kuchli shamollardan biri bo‘lgan, yilning to‘rt faslida ham esadigan, Farg‘ona vodiysining Farg‘ona yo‘lagi orqali vodiy tomon harakatlanadigan, Qo‘qon vodiy viloyatlari ichida birinchilardan bo‘lib, kuchli shamolni “qarshi oluvchi” shahar bo‘lganligi uchun “Qo‘qon shamoli” nomi bilan ataluvchi tabiat hodisasi vodiylik ijodkorlar uchun badiiy olamning milliy konturiga aylangan. A’zam O‘ktamda ham (*U tinmaydi to‘rt faslda ham*), A.Muqimovda ham (*Qo‘qon shamoli qishda qutirib ketadi. Tomlarda, daraxtlarda, simyog‘ochlarda uvillaydi, o‘kiradi, chiyillaydi*) shamol holatiga aniq chizgilar berilib,

[26] Смирнов И.П. Порождение интертекста. Элементы интертекстуального анализа с примерами из творчества Б. Пастернака Текст. / И.П. Смирнов. 2-е изд. - СПб, 1995. – С.189.

[27] Smirnov I.P. O‘sha joyda. – B.6.

[28] Qarang: Xotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1979. -B.271.; Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. -T.:2008 134-135-bb.

[29]Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati.- T., Akademnashr, 2013. – B. 249.

badiiy sintezlanadi; *Bu tabiat qarg‘ishi emas, shamol bunga kelgan ataylab. Aytgan: nimjon bo‘lar bolalar, o‘stirsangiz ortiq avaylab* (A.O‘ktam). Bugunga kelib o‘zbek asosotsiatsiyasida *Qo‘qon shamoli* stimul so‘zi Amir Umarxon va Nodira hayoti aks ettirilgan “Qo‘qon shamoli” badiiy filmi assotsiatini tiklaydi.

Bunday usulda badiiy matn yaratish ham intertekstuallikning bir ko‘rinishi bo‘lib, bunda muallif va kitobxonga tanish bo‘lgan nafaqat biror bir badiiy asar, balki badiiy bo‘lmagan biror matn yoki biror tarixiy voqea, hodisa, xotirga tushadi, yodga olinadi. Tahlillar natijasida aytish mumkinki, intertekst bir matndan ikkinchi matnga kiritilgan implitsit transformatsiya bo‘lib, asosiy matn bilan birgalikda bir g‘oyaviy-badiiy maqsadga bo‘ysunadi.

Lingvopoetik tahlil metodlarining metodikasi to‘liq ishlab chiqildi, degan xulosaga ham nisbiy qarash kerak, negaki har bir badiiy matn – individual nutqiy tuzilma, individual kognitiv makon yaratilmasi (V.Krasnix ta’biri bilan aytganda, “individual kognitiv makon” tushunchasini har bir til sohibi, har qanday so‘zlovchi kognitiv makoniga tegishli bo‘lgan bilim va tasavvurlar majmuasining tarkiblashtirilishi, u yoki bu sotsiumga tegishli bo‘lgan barcha shaxslar ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan bilim va tasavvurlarning tarkiblashtirilishidir[30]). Shunday ekan, lingvopoetikada tahlil metodlarining yana yangi ko‘rinishlari vujudga kelishi shubhasiz, deyish mumkin.

NAVOIY VILOYATI ONOMASTIK BIRLIKLARINING TARKIBI VA TAHLILIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

O‘rolboy ORIPOV,
NavDPI O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.n.
Saboat XUDJANAZAROVA,
NavDPI Fakultetlararo chet tillar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ma’lumki, onomastika tilshunoslikning har qanday atoqli otlarini, ularning paydo bo‘lish va o‘zgarish tarixini o‘rganuvchi bo‘limdir. O‘zbek nomshunosligi bo‘yicha olib borilgan keng ko‘lamli tadqiqotlar o‘zbek onomastikasi sohasini bir qator monografiyalar, izohli lug‘atlar, ko‘p sonli ilmiy maqolalar, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari bilan boyitgan. Mazkur maqolada o‘zbek tili onomastikasi, jumladan antroponimikasining rivojlanish istiqbollari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: antroponimlar, atoqli ot, toponimiya, oykonimlar, antropotoponim, etnotoponim, kosmotoponim, topotoponim, gidrotoponim

O‘zbek tilshunosligining keyingi yillarda jadal rivojlangan sohalaridan biri o‘zbek nomshunosligidir. Buning o‘ziga xos sabablari bor. Birinchidan, atoqli otlar o‘zbek tili leksikasining eng boy tarmoqlaridan biridir. Mana shu boy lug‘aviy material 60-yillargacha juda kam tadqiq qilingan edi. Ikkinchidan, atoqli otlar paydo bo‘lishi, mohiyati va vazifalariga ko‘ra xalq ma’naviyati, mafkurasi, madaniyati bilan zich bog‘langan lug‘aviy qatlamdir. Chunki joy nomlarida o‘zbek xalqining o‘tmish tarixi, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlari; etnografik, diniy tasavvurlari o‘z ifodasini topgandir. Mana shu ma’noda toponimiya xalqning madaniy, ma’naviy, lisoniy merosidir. Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «Ma’naviyat o‘z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi. Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak.

[30] Красных В.В. Понятие концептосферы.- М.: Изд-во МГУ, 2003.- С 61.

Xotirasiz barkamol kishi boʻlmaganidek, oʻz tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham boʻlmaydi»[1], - degan fikrlari oʻlkamiz toponimiyasini tadqiq qilish uchun ham tegishlidir.

Atoqli otlarning materiallarini toʻplash va oʻrganish nafaqat tilshunoslik uchun, balki tarix, etnografiya, geografiya, madaniyat tarixi va boshqa bir qator fanlar uchun ham qimmatli materiallar beradi. Uchinchidan, atoqli otlar oʻz maʼnosi va motivatsiyasi, kommunikativ vazifasi, baʼzi morfologik, derivatsion xususiyatlariga koʻra turdosh leksikadan farqlanadi. Atoqli otlarning oʻziga xos baʼzi lisoniy tomonlari borki, ular umumadabiy til va dialektal muhit, adabiy norma va regional (mintaqaviy) mezon doirasida hal qilishni talab qiladi. Atoqli otlarning imloviy xususiyatlari ham mana shu masala doirasiga kiradi va boshqalar.

Atoqli otlar bilan bogʻliq boʻlgan qayd qilingan lisoniy muammolarni oʻrganish tilshunoslik uchun nihoyatda dolzarbligi shubhasiz. Keyingi yillarda oʻzbek tilshunosligi nomshunoslik sohasida anchagina jiddiy ilmiy yutuqlarni qoʻlga kiritdi. Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand viloyatlari, Fargʻona vodiysi hududi toponimiyasi boʻyicha monografik tadqiqotlar yaratildi, ularning turli hajmdagi izohli lugʻatlari tuzildi. Mana shu davrda Oʻzbekiston toponimiyasi boʻyicha koʻplab ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar ham eʼlon qilindi. Guliston (1987), Qarshi (1989), Urganch (1991), Toshkent (1994), Navoiy (1993, 1998) shaharlarida Oʻzbekiston toponimiyasining dolzarb muammolarini muhokama qilgan ilmiy konferensiyalar boʻlib oʻtdi. Ularning materiallari eʼlon qilindi. Ammo shunga qaramasdan, Oʻzbekiston hududi toponimiyasini tadqiq qilishda baʼzi yetishmovchilik va nuqsonlar mavjud. **Birinchidan**, koʻpgina tadqiqotlarda tadqiq obʼekti qilib ulkan hudud toponimiyasi olinadi. Natijada bu holat oʻsha hudud toponimiyasini yetarlicha va chuqur tahlil qilishga imkon bermaydi. **Ikkinchidan**, koʻpgina tadqiqotlarda, asosan, makrotoponimiya materiallari oʻrganilgan, mikrotoponimiya materiallariga yetarli eʼtibor qilinmagan. **Uchinchidan**, mavjud ishlarning koʻpchiligida, asosan oykonimlar tahlil qilinadi, atoqli otlarning boshqa tiplariga yetarli eʼtibor qilinmaydi. Buning sababi oykonomik materialni toʻplashning nisbatan osonligi boʻlsa kerak.

Qayd qilingan nuqsonlarni bartaraf qilish uchun endilikda kichikroq, torroq hududlar toponimiyasini atroflicha, sinchiklab toʻplash va tahlil qilishga oʻtish maqsadga muvofiqdir. Oʻzbek toponimiyasida mana shunday yoʻsinda bajarilgan ishlar mavjud. Chunonchi, T.Rahmatov[2], J.Latipov[3], X.Xolmoʻminovning[4] ishlari.

Bir tip atoqli otning boshqa tip atoqli ot vazifasiga oʻtishi tilda keng tarqalgan hodisadir. Bunday holda atoqli ot oʻziga asos boʻlgan apellyativ negizdan yanada uzoqlashadi, baʼzi hollarda maʼnosiga koʻra umuman daxldor boʻlmay qoladi. Masalan, Abdushukur> Shukur> Shukurquduq toponimida Abdushukur // Shukur shaxsni anglatsa, Shukurquduq suv obʼektini anglatmoqda. Birinchisi inson tushunchasi va ikkinchi gidronimik obʼekt tushunchasi bilan bogʻliq. Demak, Shukurquduq toponimi oʻzining dastlabki apellyativ negizi – Abdushukurdan ham maʼno, ham vazifa, ham shakl jihatdan uzoqlashgan. Atoqli otlar tizimida atoqli otlarning oʻzaro bir-biriga oʻtishi keng tarqalgan boʻlib, bu xususiyat turli koʻrinishga egadir. Yangidan yasalayotgan toponimga qanday atoqli ot toponegizlik vazifasini oʻtayotganligiga koʻra, yangi nom quyidagicha ataladi:

1. Toponimga kishining ismi, familiyasi, laqabi, taxallusi asos boʻlsa – antropotoponim; 2. Toponimga urugʻ, qabila, xalq, millat nomi yoki oʻsha etnik guruhlarning jamoaviy laqabi asos boʻlsa – etnotoponim;

3. Toponimga kosmik obʼektlar (Oy, Quyosh, Sayyora, Yulduz va b.) nomi asos boʻlsa – kosmotoponim;

4. Toponimga toponimlar (joy nomlari) asos boʻlsa - topotoponim;

5. Toponimga suv ob’ektlarining nomi (gidronimlar) asos bo‘lsa-gidrotoponim deb yuritiladi.

Quyida qayd qilingan nomlarning Navoiy toponimiyasida uchraydigan ko‘rinishlarini tahlil qilishga o‘tamiz.

Joylarni kishilarning ismi, laqabi va familiyasi bilan, ba’zi hollarda taxallusi bilan atash juda qadimiy tarixga egadir. Bunday rusumning qachon paydo bo‘lganligi haqida nomshunoslar turlicha fikrlar bildirishadi. Taniqli nomshunos V.A. Nikonov bu jarayon feodalizm davrida, yerga egalikning kuchayganligi bilan izohlaydi[5]. Ammo ba’zi tadqiqotchilar antroponimiyaning toponimiyaga o‘tishini qadimiy hodisa deb biladi: “Antroponimika va toponimika sohalari tarixan bir-biri bilan bog‘liqdir. Chunki bir qator antroponimlar toponimlar asosida paydo bo‘lgan, ko‘pgina toponimlar esa kishilarning ismlaridan yasalgandir. Tadqiqotchilar to‘g‘ri ta’kidlaganlaridek, antroponimlardan yasalgan toponimlar til lug‘at tarkibining qadimiy qatlamlaridan biridir»”[6].

Biz ham antroponimiyaning toponimiyaga o‘tishi ancha qadimiy hodisa degan fikrga qo‘shilamiz. Chunki Navoiy toponimiyasida eramizdan avval yashab o‘tgan Iskandar Zulqarnayn nomi bilan ataluvchi korizlar, ariqlar mavjud: Zulqaynar korizi, Zulqaynar (qishloq) kabi.

Antroponimlar asosida yasalgan toponimlar antrotoponegiz, antroponimik negiz deb yuritiladi. Antropotoponimlarning sermahsul jarayon ekanini bu masalaga oid maxsus tadqiqotlar ham tasdiqlaydi[7]. S.Qorayev shunday yozadi: “Dastlabki ma’lumotlarga qaraganda, hozirda Respublikaning 3 dan 8 foizgacha bo‘lgan aholi yashaydigan joylari nomi shaxs nomidan yasalgan[8].

Antropotoponimlar to‘rt xil sababga ko‘ra paydo bo‘lishi mumkin: 1) Ob’ekt uni bunyod etgan, uning yuzaga kelishi uchun sababchi bo‘lgan shaxs nomi bilan ataladi;

2) Ob’ekt unga egalik qiluvchi kishi nomi bilan ataladi;

3) Biror shaxs ideallashtiriladi yoki ilohiylashtiriladi hamda ma’lum ob’ektlar uning nomi bilan atala boshlanadi;

4) Shaxs nomi rasmiy ko‘rsatma va qaror asosida biror joyga beriladi (memorial toponimlar). Ayniqsa, keyingi holat sho‘rolar davrida nihoyatda avj olgan va davlatning toponimik siyosatining tarkibiy qismiga aylangan edi[9].

Navoiy toponimiyasida anchagina antropotoponimlar mavjud va bu hudud toponimiyasining salmoqli qismini tashkil qiladi, ular miqdoran 160 dan oshadi.

Navoiy toponimiyasida quyidagi antroponimik toponegizlar mavjud:

1. Shaxsning ismi: Xo‘jamurod, Oltibek, Qosimboy, Saidbek, Tojiboy, O‘tamurod, Nurtoy, Toshnazar, Ochilbobo, Bozorboy, Rahmonqul. Ko‘p holda shaxs ismi asos bo‘lgan toponim ma’lum aniqlagichlar bilan birga keladi: Yusufquduq, Jumansoy, Hakimcho‘qqi, Fozilmon tog‘i, Razzoq bulog‘i, Boymatkoriz, Turob arig‘i kabi.

Ba’zan kishi ismi obod komponenti bilan birikib toponim hosil qiladi: Yo‘ldoshobod, Sattorobod kabi. Cho‘ponobod, Xo‘jaobod, Sultonobod tipli toponimlar zamirida ham aslida antroponim yotadi.

2. Kishining laqabi yoki ismi va laqabidan yasalgan toponimlar: Korizchi, Bozorlaylak qudug‘i, Eshonbuva qiri, Oqsoqolota g‘ori, Sayidota, Ko‘salar, Zarkokillar, Gadoylar, Ulug‘lar, Qoramulla qoyasi, Tirikbobo darasi, Niyozoqsoqol korizi, Zangiota bulog‘i.

3. Kishining ismi va familiyasidan yasalgan toponimlar. Bunday nomlar asosan sho‘rolar davrida keng udum bo‘ldi va ko‘proq ko‘chalar, guzarlar, maydonlar, xiyobonlar kishining ismi va familiyasi bilan ataldi: Sobir Rahimov (k), Toshim Bozorov (k), Had’ya Yusupova (k), Ochil Qodirov(k.).

Ushbu guruhga shartli ravishda ba’zi tarixiy shaxslar nomi bilan yuritiluvchi toponimlarni ham kiritish mumkin: Alisher Navoiy, Amir Temur, Ibn Sino, Abu Muslim, Al-Buxoriy kabi ko‘chalar va mahallalar nomi.

4. Faqat taxalluslardan yasalgan toponimlar kam. Ba’zan joy va ob’ektlar Navoiy ko‘chasi, Furqat ko‘chasi kabi yuritilganida nomning toponegizini taxalluslar tashkil qiladi.

Navoiy toponimiyasidagi antrotoponimlarning aksariyati tabiiy-tarixiy nomlar bo‘lib, asrlar davomida bu hudud toponimiyasi tizimiga singib qolgan. Ammo yangi davr – XX asrda yasalgan ba’zi antropotoponimlar, ayniqsa, ism va familiya modelidagi nomlarning sun’iyligi, toponimik tizimga yetarli ravishda singmayotganligi sezilib turadi. Bu yuqoridagi masala va muammolar bo‘yicha keying ilmiy tadqiqot ishlarimizda albatta fikr yuritamiz degan umitdamiz.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiklol va tarakkiyot yo‘li. - Toshkent: O‘zbekiston, 1992. - 71-bet.
2. Raxmatov T. Toponimiya goroda Samarkanda i yego okrestnostey // Aftoref. diss. ... kand. filol. nauk. – M., 1973
3. Latipov Dj. Toponimiya goroda Margilana i yego okrestnostey. // Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. – Tashkent, 1975
4. Xolmo‘minov X. Mikrotoponimiya Baysunskogo regiona i yego okrestnostey // Avtoref. diss. kand. filol. nauk. – Tashkent, 1993
5. Nikonov V.A. Vvedeniye v toponimiku. – M., 1965. - S-30
6. Gorbachevich K.S. Russkiye geograficheskiye nazvaniya. – M. L. 1965. - S. 52.
7. Sattarov G.F. Antropotonimiya Tatarskoy ASSR. - Avtoref. diss. ... d-ra filol. nauk. – Kazan, 1975. – S.19.
8. Karayev S. Opit izucheniya toponimiki Uzbekistana // - Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk.. – T., 1969. - S.20.
9. Begmatov E. Joy nomlari – ma’naviyat ko‘zgusi – Toshkent: Ma’naviyat, 1998. - 13-17-betlar.

FONETIK HODISALARNING TIL FONETIK SISTEMASINI O‘RGANISHDAGI O‘RNI

Furqat NURMANOV,
NavDPI O‘zbek tilshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi, f.f.n.

Har bir hodisaning o‘z tarixi bo‘lganidek, tildagi fonetik o‘zgarish hodisalarining ham o‘z o‘rganilish tarixi bor. Maktab darsliklari, oliy o‘quv yurtlari talabalari, umuman, til fonetikasi tadqiqotlarida fonetik hodisalari asosan uch turga bo‘lib tasniflanadi. Fonetik hodisa og‘zaki nutq hosilasi bo‘lib, nutqda ixchamlilikni ta’minlaydi.

Tilning fonetik sistemasini fonetik qonuniyatlarini o‘rganishda fonetik hodisalar alohida o‘rin tutadi. O‘zbek tili turkiy tillar sistemasida o‘ziga xos fonetik qurilishi bilan ajralib turadi. O‘zbek tilida so‘z tarkibidagi tovushlarning o‘rni tovushning pozitsiyasi hisoblanadi. Og‘zaki nutq so‘z va so‘z birikmalarining tovush sostavini qisqartirishga, nutq organlarining ishini maksimal darajada yengillashtirishga intiladi. Talaffuzning sodda va yengil bo‘lishi bir qancha usullarga – unli va undosh tovushlarning har xil kombinator va pozitsion o‘zgarishlariga bog‘liq. Bu o‘zgarish so‘z formalarining tortilishi (qisqarishi)ga va assimilyatsiya hodisalarining vujudga kelishiga sabab bo‘ladi[31].

[31] Решетов В.В.,Шоабдураҳмонов Ш.Ўзбек диалектолтгияси.Тошкент,Ўқитувчи.1978.122-б

Fonetik hodisalar qadimgi turkiy, eski turkiy va eski o‘zbek tili yozma manbalarida unli tovushlarning birinchi bo‘g‘inda moslashish holatida uchraydi: ular olmoshi anlar (Tf,45-b)// unlar (Tf, 24-b); alar (Nav., MQ,19-b) shaklida. Shuningdek, qadimgi turkiy, eski turkiy yozma manbalarida orqa qator a, u, ү, ы unlilari urg‘u, prosodik, grammatik zaruratlar orqali turkiy so‘zlarning boshida, oxirgi holatlarida tushish hodisasiga uchragan: og‘lы (To‘n, 44) –o‘g‘li; tulum (MK, 1, 221) > tulmun (MK, 1, 192) - qurolini; achыl > achlur (Tf, 87 a) – ochiladi kabi.

Undosh tovushlar tizimida ham moslashish (t//b: yetmek (MK, 1,129)// yebmak (MK, 1, 126) - non.), metateza (g//d: bug‘day (MK, III, 258) - budg‘ay (MK, III, 258) - bug‘doy.), geminatsiya (k>kk: Eki (MK, 1, \5\)>ekki (MK, 1, 191)- ikki;), tovush tushishi (k>o: ellik (MK, 1, 160) > elli (Tf, 99 a) - ellik.), proteza (x:amir (MK,I,136) > xamir (MK ,I,136)- amir), assimilyatsiya (l>ll: allыma (Nav., HA, 97); allымda (Sakk, 55), allыda (Ogah., 19)), tortilish (ma: bursumaq (MK,III, 423) >borsuq (MK,SH, 423) - bo‘rsiq;) kabi hodisalar uchraydi. Demak, og‘zaki nutq jarayonida ko‘pgina tovushlar turli xil o‘zgarishlarga uchrashi mumkin. Bu o‘zgarishlarning bir qismi yozma adabiy tilga ham o‘tadi.

Nutq jarayonida yuzaga keladigan turli o‘zgarishlar so‘zning lug‘aviy ma’nosiga ta’sir etmaydi, ya’ni yangi lug‘aviy ma’no ifodalovchi butunlay yangi, boshqa birlikka aylantirib yubormaydi. Bu o‘zgarishlar faqat so‘zning shakliy tomoniga ta’sir qiladi, xolos. O‘tgan asrning o‘rtalarida bunday o‘zgarishlar dastlab tilshunos olim A.G‘ulomov tomonidan o‘rganilgan edi[32].

Nutk tovushlarining o‘zgarishi deyarli ikki holatda deb ko‘rsatiladi. Adabiyotlarda qayd etilishicha uni 1) pozitsion holatga ko‘ra, 2) kombinator holatga ko‘ra, deb tiplarga ajratiladi[33]. O‘zbek tilidagi barcha nutq tovushi o‘zgarishlari mana shu pozitsion va kombinatorlikka ko‘ra kechadi.

So‘z tarkibidagi fonetik o‘zgarishlar, asosan, tovushlarning o‘zaro bir-biriga ta’siri natijasida yuz beradi. So‘zlarni talaffuz qilish jarayonida unlilar, jarangli va jarangsiz undoshlar ma’lum fonetik qonuniyat asosida bir-biriga o‘xshashlik yoki noo‘xshashlik tomon o‘zgaradi, natijada kombinator va pozitsion tovush o‘zgarishlari vujudga keladi.

So‘z tarkibida yuz beradigan fonetik o‘zgarishlarga singarmonizm, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza, tovush tushishi, tovush qo‘shilishi, tovush o‘zgarishi kabilar kiradi[34].

Umuman, o‘zbek adabiy tilidagi fonetik hodisalar turli yillarda “o‘zbek tili grammatikasi” umumiy sarlavhasi ostida nashr etilgan darslik va qo‘llanmalarda ma’lum darajada o‘z aksini topgan.

Fitrat o‘zbek tili fonologik tizimidagi fonemalar nutq jarayonida bir qancha variantlar orqali namoyon bo‘lishini, nutq jarayonida turli xil fonetik o‘zgarishlar ro‘y berishini ko‘rsatib beradi. “Sarf”da “tovush o‘zgarishlari” sarlavhasi ostida fonetik hodisalarning bayon qilinishi o‘sha davr tilshunosligi uchun katta voqea edi.

Fitrat quyidagi fonetik sharoitlarda tovush o‘zgarishlari ro‘y berishini kursatadi:

---

[32] Гулямов А. О сопутствуюших явлениях при аффиксации в узбекском языке, “Научные труды ТашГУ”, вып. 211, Ташкент, 1963. – С. 45-95.

[33]Решетов В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. 135-6.; Абдуллаев Ф. А. Фонетика харезмских говоров. -С. 102; Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. 3-н. 67-68-66.; Турсунов У, Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 2-н. 89-6.; Жамолхонов Ҳ,. Ўзбек тилининг назарий фонетикаси. 151-6.

[34]Турсунов У.,Мухторов А.,Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили.Тошкент,1992.29-б.

1) *o‘g‘ul, o‘run, ko‘ngul, buyur* singari ikki bo‘g‘inli so‘zlarga qo‘shimchalar qo‘shilib kelganda, ikkinchi bo‘g‘indagi tor unlining tushib qolishi bayon qilinadi. Masalan, *o‘g‘lim,o‘rni, buyruq* kabi;

2) asos qismi “p”, “t”, “ch”, “x”, “k”, “s”, “sh” kabi jarangsiz undosh bilan tugagan so‘zlarga “d”, “g‘”, “g” singari jarangli undosh bilan boshlanuvchi qo‘shimchalar qo‘shilsa, qo‘shimchadagi jarangli undoshlarning jarangsizlanishi aytiladi. Masalan, *toshtim, ochtim, ekti; boqqa, ochkuchi, oskuchi; eshitkan,ichkan,teshkan* kabi. Lekin yozuvda jarangli holda yozilishi ta’kidlanadi;

3) “q”, “g‘” undoshlari bilan tugagan *so‘z* asosiga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi qo‘shilganda “g‘” undoshining “q” ga aylanishi ko‘rsatiladi: *tog‘— toqqa, bog‘— boqqa* kabi;

4) “q”, “k” kabi jarangsiz undosh bilan tugagan ikki bo‘g‘inli so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda, ikki unli o‘rtasida qolgan “q”, “k” undoshlarining jaranglilashishi ta’kidlanadi: *tuproq— tuprog‘im,oyoq— oyog‘im, tilak— tilagim* kabi;

5) *nima* so‘zining qisqaroq shakli *ne* so‘ziga *uchun, etmak* ko‘makchi so‘zlari qo‘shilganda ko‘makchi so‘zlar boshidagi unlining tushib qolishi aytiladi: *ne uchun — nechun, ne etay — netay* kabi.

Fitrat ko‘rsatib bergan yuqoridagi fonetik hodisalar hozirgi kunga qadar ham darslikdan-darslikka ko‘chib yuribdi.

Yozma nutq bilan og‘zaki nutq o‘rtasida katta farq bor. Yozma nutq muayyan imlo qoidalari bo‘ysundirilgan, ammo jonli nutq qanday bo‘lsa, shundayligicha yozilmaydi. Har qanday badiiy asarni ijrochilik san’ati asari tarzida ifodalash jarayonida imlo qoidalari talaffuz qoidalariga mos kelavermaydi. Jonli nutqda so‘z va so‘z birikmalaridagi tovushlar tarkibini soddalashtirishga, qisqaroq talaffuz qilishga intilish kuchli bo‘ladi.

Shuning uchun yozma nutqni jonli nutqqa aylantirib ifodalashda nutq tovushlarini to‘liq shakllantirish emas, balki ayrimlarini kuchsizroq talaffuz etish, jarangli va jarangsiz undosh tovushlar talaffuzidagi o‘xshash yoki noo‘xshashlik, ayrim so‘zlarda tovush tushishi yoxud tovush orttirilishi kabi fonetik o‘zgarishlarga e’tibor berish lozim. O‘zbek adabiy tilida ana shunday muhim fonetik o‘zgarishlarni bilish to‘g‘ri talaffuz qoidalariiing tarkibiy qismi hisoblanadi.

NUROTA ETNOTOPONIMLARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

O‘ralboy ORIPOV,
NavDPI O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.n.
Salohiddin AXMEDOV,
NavDPI O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Nomlar, xususan, joy nomlari, urug‘-qabila nomlari bilan bog‘liq ma’lumotlarni o‘rganish, tahlil qilish bilan insonlar qadim zamonlardan buyon shug‘ullanib kelganlar. Ushbu maqolada Nurota tumani hududiga tegishli bo‘lgan etnotoponimlarning yuzaga kelishiga doir ayrim fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: toponim**,** toponimiya, toponimika, etimologiya etnotoponim, etnonim, etnooykonim, va b.

Etnik nomlar – etnonimlarga urug‘, qabila, elat, xalq, millatlarning nomlari kiradi. Turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tilida etnonimlardan yasalgan toponimlar keng tarqalgan

va bunday nomlar “Etnik belgilar asosida yasalgan toponimlar”, “Etnotoponimlar” deb yuritilmoqda.

Nurota tumani hududidagi etnotoponimlarni tahlil qilishdan oldin bitta masalaga, ya’ni etnonimlarning atoqli ot sistemasiga munosabati muammosiga qisqacha to‘xtab o‘tishga to‘g‘ri keladi. Chunki biz o‘z ishimizda etnonimlarni atoqli otlar guruhida talqin qilmoqdamiz, ammo bu masalada nomshunoslikda turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh tadqiqotchilar etnonimlarni atoqli ot deb hisoblashadi. Chunonchi V.A.Nikonovning yozishicha, etnonimlarning atoqli ot ekani yoki atoqli ot emasligini hal qilish ushbu nomlar haqidagi nazariyaga yetarli ravishda aniqlik kiritish bilan bog‘liqdir[35]. A.V. Superanskaya etnonimlarni “Onomastika doirasiga kirmaydigan lug‘aviy birliklar kategoriyasiga mansub”, - deb biladi[36]. Ushbu masala o‘zbek nomshunosligida ham hal etilmagan.

O‘zbekcha matnlarda etnonimlarning goh bosh, goh kichik harflar bilan yozilayotganligi ham bu masalada ikkilanish mavjudligidan darak beradi. Umuman, ushbu muammo alohida tekshirishlarni talab qiladi. Ammo bitta masala aniqki, etnonimlar toponegizlar orasida yetakchi o‘rin egallaydi.

Turkiy, jumladan, o‘zbek etnonimlari to‘g‘risida tarixchilar, etnograflarning asarlarida juda ko‘p ma’lumotlar mavjud. O‘zbek etnonimiyasini tadqiq qilish ishiga keyingi yillarda X.D.Doniyorov[37] va S.S.Gubayevalar[38] katta hissa qo‘shdi.

Professor T.Nafasov Qashqadaryo viloyati hududidan 400 ta etnotoponimlarni to‘plaganini[39], T.Rahmatov Samarqand va uning atroflari hududida 200ga yaqin etnotoponimlar mavjudligini yozishgan edi[40]. S.Qorayev O‘zbekiston hududidagi aholi istiqomat qiluvchi joy nomlarining 10 dan 30 foizi etnotoponim ekanini aytgan[41]. S.S.Gubayevaning fikricha esa, Farg‘ona vodiysida bu miqdor ba’zi joylarda 30-50 foizgacha, ayrim hududlarda esa 10-11 foizni tashkil qiladi[42].

O‘zbek toponimiyasi bo‘yicha yoqlangan ishlarning barchasida o‘rganilayotgan hududda uchraydigan etnotoponimlar tahlil qilingan.

O‘zbek toponimikasida etnotoponimlar maxsus tadqiq qilingan ishlar ham yuzaga keldi. Biz bu o‘rinda A.Otajonovaning Xorazm etnotoponimlariga[43], A.Turobovning Samarqand viloyati etnooykonimlariga[44] bag‘ishlangan ishlarini ko‘zda tutmoqdamiz. Har ikkala tadqiqotda o‘rganilayotgan hudud toponimiyasidagi etnonimik negizlar asosida yasalgan nomlar atroflicha tahlil qilingan.

O‘zbekistonning turli hududlarga mansub etnonimlar tahlili shuni ko‘rsatganki, toponimlarning bu tipi yuzaga kelishiga ko‘ra ikki belgisi bilan ajralib turadi:

1. Etnonimlar ko‘proq aholi istiqomat qiluvchi hududlarda uchraydi.

2. Etnotoponim ko‘chmanchi aholi yashagan yoki ularning avlodlari yashayotgan joylarda uchraydi.

---

[35] Nikonov V.A. Etnonimiya // Etnonimы. – Moskva: Nauka, 1970. – S. 5.
[36] Superanskaya A.V. Obshaya teoriya imeni sobstvennogo. - S.205.
[37] Doniyorov X. O‘zbek xalkining shajara va shevalari. – Toshkent: Fan, 1968.
[38] Gubayeva S.S. Etnonimы v toponimii Ferganskoy dolinы. – Avtoref. diss. ... kand. filol. Nauk. – M., 1973.
[39] Nafasov T. Toponimы Kashkadarinskoy oblasti. - Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. - Tashkent, 1968. - 11-bet.
[40] Raxmatov T. Toponimiya goroda Samarkanda i yego okrestnostey. - Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. - Moskva, 1973. - S. 21.
[41] Korayev S. Opыt izucheniya toponimii Uzbekistana. - Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. - Tashkent, 1969. - S.8.
[42] Gubayeva S.S. Avtoreferat. - S.9.
[43] Otajonova A.J. Xorazm etnotoponimlari va ularning lugaviy asoslari - Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. – Tashkent, 1997. O‘sha muallif. Xorazm etnotoponimlari – Toshkent: Fan, 1997.
[44] Turobov A.I. Samarqand viloyati etnonim va etnooykonimlarining tahlili. - Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. – Toshkent, 1999.

Biz Nurota tumani hududidan to‘plagan etnotoponimlar miqdori 80 tadan oshadi. Bu biz to‘plagan umumiy materialning 4 foizini tashkil qiladi.

Etnotoponimlarni ularning etnonimik negiziga ko‘ra (toponegiziga) ikkiga bo‘lish mumkin:

1) Negizida xalq, elat yoki millat nomi yotgan etnotoponimlar: Arab (q.), Qozoqovul, Turkmanlar (q), Turkmanariq kabi.

2) Negizida urug‘, qabila va ularning mayda shaxobchalari nomi yotgan etnotoponimlar: Qovchin (qq), Qiyot (qq), Bolg‘ali (qq.), Bahrinto‘p (qq.), Qo‘shtamg‘ali (qq.), Kerayit arig‘i kabi.

Toponimning etnotoponim ekanini, ya’ni nom negizida etnik leksika yotganini aniqlash ba’zan qiyinchilik tug‘diradi. Mana shunday hollarda toponimning tarkibidagi ba’zi ko‘rsatkichlarga e’tibor berish lozim bo‘ladi. Odatda tarkibida quyidagi belgilar uchrasa, toponim etnonimdan yasalgan bo‘ladi.

1) Nom tarkibida to‘p (to‘b), to‘pi (to‘bi) so‘zlari uchraydi. Bu so‘zlar aslida etnonimik indikatorlardir. X.Doniyorov shodmonto‘pi, shodito‘pi, yashig‘to‘pi, qozoqto‘pi kabi etnonimlarni qayd etgan[45]. S.Gubayeva tarkibida to‘p, to‘plar so‘zlari mavjud nomlar etnotoponim degan xulosaga kelgan va Kaltato‘pi, Xolmonto‘p, Eshboyto‘p, Urto‘p, Taqchito‘p, Shayitto‘p kabi nomlarni dalil sifatida keltirgan edi[46]. Nurota toponimiyasida ham tarkibida ushbu komponent bor bo‘lgan toponimlar mavjud: Bahrinto‘p (qq.), Erganakto‘p (qq.), Eshonto‘p (qq.) kabi.

2) Oxirida -li, -di, -ti (lahjaviy) qo‘shimchalari mavjud ba’zi toponimlar etnotoponimlardir: Jilontamg‘ali, Kovushli, Taroqli, Qo‘shtamg‘ali, Qoziyoqli, Bolg‘ali, Tug‘ali, Keshtali (Kashtali), Cho‘michli, Choriqli, Qaychili, Chiroqli, Ilonli, Sarkali va b.

3) Oxirida -chi qo‘shimchasi mavjud ba’zi nomlar etnotoponimlardir: Polvonchi (qq.), Tuyachi, Tuyachitepa, Cho‘pchi (qq.), Korizchi kabi.

4) Tarkibida -lar qo‘shimchasi kelgan nomlar etnotoponimlardir. X.Doniyorov beklar, boylar, yortilar, kallalar, parchalar, xo‘jalar, qirqlar, qoralar, qullar kabi etnonimlar borligini qayd etgan[47]. S.Gubayeva -lar affiksli Pillakashlar, Arablar, Xastalar tipli nomlarni etnotoponim deb hisoblaydi[48]. S.Qorayev fikricha esa, -lar, -on, -obod so‘zli nomlar etnotoponimlarga kiradi[49]. Nurota toponimiyasida -lar qo‘shimchasini olgan quyidagi nomlar mavjud: Minglar, Cho‘rilar, Ko‘salar, Zarkokillar, Gadoylar, Ulug‘lar, Garruklar, Arablar (aq.), Kulollar va b.

5) Tarkibida -on, -yon qo‘shimchalari mavjud nomlar etnotoponimlar hisoblanadi. Ko‘plik tushunchasini ifoda etuvchi ushbu tojikcha affikslar o‘zbekcha -lar qo‘shimchasiga to‘g‘ri keladi. Ushbu qo‘shimchalar O‘zbekiston hududidagi tojikcha toponimlar tarkibida uchraydi. Chunonchi, Nurota hududida Uyron toponimi uchraydi. Ammo ushbu model Nurota hududi uchun xarakterli emas.

6) Oxiri -i qo‘shimchasi bilan tugovchi ba’zi nomlarni ham etnotoponimlarga kiritish mumkin: Ajinabegi, Urganji kabi. Ushbu model ham Nurota toponimiyasida siyrak uchraydi.

Etnotoponimlarning ma’nosini talqin etish borasida ancha munozarali tomonlar bor. Ba’zi ishlarda etnotoponimning (toponimning) ma’no va etimologiyasi deb, uning negizida yotgan etnonimning ma’no va etimologiyasi talqin qilinadi. Bunga qo‘shilish qiyin. Aslida

[45] Doniyorov X. Keltirilgan ish. -63-bet.
[46] Gubayeva S.S. Keltirilgan avtoreferat. - 12-bet.
[47] Doniyorov X. Keltirilgan ish. - 82-bet.
[48] Gubayeva S.S. Avtoreferat. - 12-bet.
[49] Korayev S. Avtoreferat. - 23-bet.

etnotoponimlarning ma’nosi soddadir, ya’ni har qanday etnotoponim o‘zi mansub bo‘lgan hududda o‘tmishda etnonimda ifodalangan etnik guruh yashagani yoki ularning avlodi hozirda yashayotgani haqida darak beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yuqoridagi muammolarni hal qilish, etnonim va etnotoponimlarning o‘ziga xos qonuniyatlarini har tomonlama tahlil va talqin qilish galdagi vazifalarimizdan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Nikonov V.A. Etnonimiya // Etnonimы. – Moskva: Nauka, 1970. – S. 5.
2. Superanskaya A.V. Obshaya teoriya imeni sobstvennogo. - S.205.
3. Doniyorov X. O‘zbek xalkining shajara va shevalari. – Toshkent: Fan, 1968.
4. Gubayeva S.S. Etnonimы v toponimii Ferganskoy dolinы. – Avtoref. diss. ... kand. filol. Nauk. – M., 1973.
5. Nafasov T. Toponimы Kashkadarinskoy oblasti. - Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. - Tashkent, 1968. - 11-bet.
6. Raxmatov T. Toponimiya goroda Samarkanda i yego okrestnostey. - Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. - Moskva, 1973. - S. 21.
7. Qorayev S. Opыt izucheniya toponimii Uzbekistana. - Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. - Tashkent, 1969. - S.8.
8. Gubayeva S.S. Avtoreferat. - S.9.
9. Otajonova A.J. Xorazm etnotoponimlari va ularning lugaviy asoslari - Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. – Tashkent, 1997. O‘sha muallif. Xorazm etnotoponimlari – Toshkent: Fan, 1997.
10. Turobov A.I. Samarkand viloyati etnonim va etnooykonimlarining taxlili. - Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. – Toshkent, 1999.
11. Doniyorov X. Keltirilgan ish. -63-bet.
12. Gubayeva S.S. Keltirilgan avtoreferat. - 12-bet.
13. Doniyorov X. Keltirilgan ish. - 82-bet.
14. Gubayeva S.S. Avtoreferat. - 12-bet
15. Qorayev S. Avtoreferat. - 23-bet.

NUROTA TUMANIDAGI AYRIM ETNONIMLARINING MA’NO XUSUSIYATLARI

O‘ralboy ORIPOV,
NavDPI O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.n.
Salohiddin AXMEDOV,
NavDPI O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Navoiy viloyati Nurota tumanining ayrim toponimlari, ya’ni joy nomlari etimologik jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, joy nomlarining atalishida etnonimlarning o‘rni katta ekanligi misollar yordamida ifodalab berilgan.

Kalit so‘zlar: toponim, etnotoponim, etnonim, etimologiya, etymon va b.

Har qanday etnonimning o‘z ma’nosi bor. Ba’zi bir etnonimlar juda qadimiy so‘zlar bo‘lganidan ma’nosini tushunish qiyin. Odatda xalqlar, millatlar, shuningdek qabilalar, yirik urug‘laming nomlari qadimiy bo‘ladi. Masalan, o‘zbek, qirg‘iz, qozoq kabi millat nomlari,

qo‘ng‘irot, mitan, qangli, qipchoq, uyshun, qorluq, xalaj kabi urug‘-qabila nomlari haqida bir qancha fikrlar bildirilgan, lekin bu etnonimlarning etimologiyalari ilmiy asosda uzil-kesil hal qilingan emas. O‘zbek — «o‘ziga bek», qirg‘iz — «qirq qiz», qozoq — «qochoq», mitan «mo‘ytan» (seijun), qangli — «qanqli» (aravali), qorluq — «qorliq» (qorda qolgan), xalaj — «qol och» (och qolgan), qalmoq — «chetda qolgan» (islom diniga kirmay qolgan) degan ma’noni bildiradi deyish g‘ayri-ilmiy, asossiz izohdir. Etnonimlar tarix taqozosi bilan vujudga kelgan bo‘lib, ma’lumot tashiydi. Etnonimlarni o‘rganish juda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Shu bilan birga bir qatorda ko‘pgina etnonimlarning kelib chiqishi, etimologiyasi hamon ma’lum emas. Masalan, «o‘zbek» so‘zining kelib chiqishi to‘g‘risida turli fikrlar bor. Ko‘pchilik olimlar ko‘chmanchi o‘zbeklar Oltin O‘rda xoni O‘zbekxon (1312-1340) ismi bilan atalgan deyishadi. Holbuki, O‘zbekxon Oltin O‘rda (Ko‘k O‘rda)da xonlikka ko‘tarilgan, o‘zbek atamasi esa Oq O‘rdada paydo bo‘lgan. Ya’ni XIV-XV asrlarda Eron hamda O‘rta Osiyo tarixchilari Oq O‘rdaning barcha turk-mo‘g‘ul qabilalarini o‘zbeklar deb atashgan. Bundan tashqari, O‘zbek ismi O‘zbekxondan oldin bitilgan asarlarda ham uchraydi. Demak, *o‘zbek* etnonimi O‘zbekxon ismidan kelib chiqqan, degan fikr to‘g‘ri emas. Bu so‘z «o‘zi bek» degan ma’noni bildiradi, deyish ham ilmiy dalil emas. O‘zbek o‘z (uz) qabilasi nomi bilan bog‘liq degan fikr ham isbottalab. Umuman, hozircha «o‘zbek» so‘zining etimologiyasi ham aniq emas. Boshqa ko‘pgina turkiy xalqlar kabi o‘zbek xalqi ham qabila, urug‘lardan tarkib topgan. Akademik V.V.Bartold so‘zlariga qaraganda, dastlab 32 o‘zbek unig‘i bo‘lgan. Lekin XVI asrdayoq farg‘onalik Mulla Sayfiddin Axsikandiy «Majmuat — tavorix» asarida 92 o‘zbek urug‘i (elatiya) ni tilga olgan. XIX asrning 60-yillarida bitilgan «Tuhfatittavorixi xoniy» qo‘lyozmasida ham (muallifi farg‘onalik Mulla Avaz Muhammad Attor) o‘zbek urug‘larini 92 ta deb ko‘rsatilgan. N.Xanikov o‘zining «Buxoro xonligi tasviri» kitobida (1843-yil) «Nasabnomai o‘zbekiya»ga asoslanib, 97 o‘zbek urug‘ining ro‘yxatini keltirgan. O‘zbek urug‘lari nomlari (etnonimlar)ning o‘ziga xos kelib chiqish tarixi bor. Jonivorlar, xususan, uy hayvonlari nomi bilan atalgan etnonimlar ham eng qadimiy sanaladi. Ular majusiylar davrida paydo bo‘lgan. Urug‘larning muqaddas hayvonlari (totem-ongon) bo‘lib, kishilar o‘zlarini shu hayvondan tarqalgan, deb hisoblaganlar. Masalan, *jilondi* (ilonli), *jilontamg‘ali* (ilontamg‘ali), *qulon, oqbura, qorabura,* (bura, buvra, bug‘ra — bichilmagan erkak tuya), *qarg‘a, shag‘al* (shaqal — chiyabo‘ri), *echki, ho‘kiz* etnonimlari shular jamlasidandir. Hayvon nomlari bilan atalgan etnonimlar ba’zan shu urug‘ ajdodining laqabi ham bo‘lishi mumkin. Ko‘pgina etnonimlar urug‘-aymoq tamg‘asi nomi bilan atalgan. Ya’ni har bir urug‘ning o‘z tamg‘asi bo‘lgan. Masalan, mollarini, otlarini boshqalarnikidan farq qilish uchun tamg‘alab qo‘yishgan. *Bolg‘ali, kosovli, qaychili, taroqli, cho‘michli, qirg‘ili* kabi urug‘larning tamg‘alari shaklan ana shu uy-ro‘zg‘or asboblariga o‘xshash bo‘lgan o‘zbek etnonimlarini semantik *jihatdan* bir necha guruhga bo‘lish mumkin. Chunonchi, biron kasb-hunar nomi bilan yuritiladigan etnonimlar: *qirsadoq* (sadoq — o‘qdon), *iyarchi* (egarchi — egarsoz), *gilambofli* — (gilam to‘quvchi), *sayot* — (sayyod — ovchi), *tulkichi, zargarlik, mirishkor, po‘latchi* va boshqalar. O‘zbek urug‘larining o‘ziga xos etimologiyasi bor. Quyida ularning ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz. Shuni aytish kerakki, etnonimlar etimologiyasi haqida keltirilgan fikrlar turli manbalarga suyanib yozilgan. Binobarin, uzil-kesil variantlar emas, chunki har qanday etimologiya ham nisbiydir.

Arg‘in, arg‘un — o‘zbek, qozoq, boshqirdlar tarkibida uchraydigan urug‘. Bu urug‘

O‘rta Osiyoda qadimdan yashab kelgan va Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida qayd qilingan *argu* qabilasining davomi bo‘lishi kerak. “Boburnoma”da, o‘zbek urug‘larining dastlabki yozma shajarasi — Mulla Sayfiddin Axsikandiyning “Majmuat-tavorix” asarida urug‘ ***arg‘un*** shaklida qayd qilingan. Bu etnonim mo‘g‘ulcha ***arg‘in*** (o‘zagi arg‘ — “duragay”) so‘zidan kelib chiqqan. Arg‘in (argun) so‘zi qirg‘iz tilida ham ana shu ma’noni anglatadi.

Respublikamizning Asaka, Qibray, Zangiota, Nurota, Navbahor, Qorako‘l, Denov tumanlarida ***Arg‘in*** qishloqlari bor.

Baraq — o‘zbeklarning qatag‘on, qo‘ng‘irot, turkman qabilalari tarkibidagi urug‘. Qozoqlaming jaloyir, jetiruv, alimuli qabilalari, turkmanlaming go‘klen, yo‘mut qabilalari, qirg‘izlarning adigine, sayaq qabilalari tarkibida ham *baraq* urug‘i qayd qilingan.

Nurota, Xatirchi tumanlarida ***Baraq,*** Ishtixon tumanida ***Baraqqishloq*** qishloqlari bor.

Bel — ko‘pgina turkiy tillarda «past tog‘», «tog‘ tizmasining pasaygan joyi», «dovon» ma’nolarida joy nomlari tarkibida uchraydi.

Aslida *bel* (turkiy), *dovon* (mo‘g‘ulcha), *aqba* (arabcha), *ko‘tal* (forscha-tojikcha), *oshuv* (turkiy) atamalari ma’nodosh bo‘lib, «tog‘dan oshib o‘tiladigan qulay yo‘l» ma’nosini anglatadi.

Burqut — turklashgan mo‘g‘ul urug‘laridan biri. Burqutlaming bir qismi XIII—XVI asrlarda Movarounnahrga kelib o‘rnashgan. Asosan Zarafshon vohasida (hozirgi Payariq, Narpay, G‘ijduvon tumanlarida), qisman Mirzacho‘lda (Jizzax sh. atroflarida) joylashgan. Xatirchi tumanida ***Burqutsoy*** degan soy, Paxtachi, Vobkent, Payariq, Nurota, Xatirchi, Kattaqo‘rg‘on tumanlarida ***Burqut*** degan qishloqlar bor. Turkmanlaming aksari (ersari) qabilasi tarkibida *burgut* urug‘i qayd qilingan. Qozoqlar tarkibida *burqut,* qirg‘izlarning *sayaq* qabilasi tarkibida *burkutcha, saribag‘ish* qabilasi tarkibida esa *burquchi* urug‘i bor.

Guzar — tog‘ yo‘li, daryodan kechib o‘tiladigan joy (kechik), ko‘cha, Samarqand va Buxoro, Navoiy (Nurota tumanida) viloyatlarida «mahalla», boshqa joylarda shahar-qishloqning «gavjum qismi» (tojikcha guzashtan «o‘tmoq», «kesib o‘tmoq», «kechib o‘tmoq» fe’lidan), O‘zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Eron va Afg‘onistonda mustaqil holda yoki boshqa so‘zlar bilan birga toponimlar hosil qilgan.

Darxon — o‘rta asrlarda majburiyatlardan, oliq-soliqlardan ozod kishiga berilgan unvon. Geografik nomlar tarkibida ko‘p uchraydi. Masalan, Samarqand viloyati Ishtixon tumanida ***Boshdarxon, Jo‘rabaydarxon, Ozoddarxon, Naymandarxon, Po‘latdarxon, Qirq- darxon,*** Dehqonobod, O‘rta Chirchiq, Qibray, Quyi Chirchiq, Nurota, Andijon, Yakkabog‘, Koson tumanlarida ***Darxon*** degan qishloqlar bo‘lgan. Toshkentda Bo‘zsuvning bir tarmog‘i ***Darxonariq*** deyiladi. Mo‘g‘ulshunos T.D.Nominxanov «Darxon» so‘zini mo‘g‘ulcha («majburiyatlardan ozod temirchi») deb izohlaydi. Toshkent shahri atroflarida *darxan* degan qozoq urug‘i ham bo‘lgan, qirg‘izlarda *darqan* urug‘i qayd qilingan. *Darxon* degan ism ham bor. Tarixiy manbalarda, chunonchi, Navoiy, Mirxond asarlarida *tarxon* shaklida qayd qilingan.

Firdavsiyning «Shohnoma»sida Turkiston podshosi lashkarboshisining ismi Tarxon bo‘lgan. Tarxon unvoniga sazovor bo‘lganlar xohlagan narsasini qila oladigan, butunlay mustaqil, harbiy xizmatdan ozod kishilar bo‘lgan. Tarxonlar har qanday jinoyat qilsa ham, to‘qqiz avlodigacha afv etilgan.

Tarxonlik XV asrda ayniqsa avj olgan va feodallarga keng imtiyoz berishning bir vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Temuriylar davrida tarxonlar qo‘lida yirik yerlar va katta hokimiyat bo‘lgan. Ba’zi bir obro‘li tarxonlar katta-katta hududlarga (Miyonkol, Toshkent, Buxoro) hokimlik qilganlar va deyarli butunlay mustaqil ish ko‘rgan.

Tarxonlik O‘rta Osiyoda keyingi asrlarda ham saqlanib qolgan edi. Ba’zan ayrim

kishilargagina emas, balki butun bir qabilaga, qavmga, butun bir shahar aholisiga tarxonlik huquqi berilgan. Chunonchi, Shoh Murodxon Buxoro shahri aholisi orasida katta obroʻ qozonish uchun shahar xalqini oliq-soliqlardan butunlay ozod qilgan va tarxon yorligʻi bergan.

Zarafshon vodiysida Tarxon, Tarxonon, Tarxononbolo, Tarxononpoyon, Tarxonsayot kabi ariq hamda qishloqlar uchraydi. *Tarxon* degan oʻzbek urugʻi ham bor.

Dasht — dala, ***tekislik,*** toshloq choʻl, suvsiz choʻl, keng yassi maydon (Qoraqum choʻli ***Dashti*** Xorazm deb atalgan). Bundan tashqari Nurota tumanidagi Qoraqum qishlogʻ va uning atrof hududlari ham Nurota tumanining dasht-choʻl hududiga kiradi. Oʻrta Osiyo,Kavkaz, Afgʻoniston (Dashti Marso, Dashti Ziyorat choʻllari) va Eronda (Dashti Kavir, Dashti Lut choʻllari) bir qancha joy nomlari hosil qilgan. Oʻzbekistonda ***Dashtakibolo, Dashtisoʻxta*** (Samarqand tumani), ***Dashtigʻoz*** (Boysun tumani), ***Dashtmahalla*** (Izboskan) kabi toponimlar bor.

Janubda Sirdaryoning quyi oqimi, sharqda Balxash koʻli va gʻarbda Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha boʻlgan ulkan hudud XI—XVI asrlarda ***Dashti Qipchoq*** deb atalgan.

Doʻrman (doʻrmon) — XVI—XVIII asrlarda Dashtiqipchoqdan kelgan oʻzbek qabilalaridan birining nomi. Doʻrmonlar Zarafshon vodiysida, Surxondaryo va Toshkent vohalarida, qisman Xorazmda va Navoiy viloyati hududlarida ham yashagan. Qabila *qoʻyli, uchurugʻ, koʻkchelak, sakson, noʻgʻoy, gurdak, oytamgʻali* kabi urugʻlarga boʻlingan. Qiziltepa, Nurota, karmana Samarqand, Narpay, Romitan, Asaka, Kitob, Kasbi, Qamashi, Qibray, Jomboy, Qorakoʻl, Ishtixon, Jondor tumanlarida ***Doʻrman, Doʻrmoncha, Doʻrmonon*** qishloqlari bor.

Jaloyir (Jalair) — oʻzbek, qozoq, qirgʻiz va qoraqalpoqlar tarkibiga kirgan turk-moʻgʻul qabilasi. Oʻzbek jaloyirlar Toshkent, Buxoro vohalarida, Nurota togʻlari etaklarida, Jizzax, Kattaqoʻrgʻon, Qorakoʻl tumanlarida, Xorazmda yashagan va ikkita katta — *qaychili* va *bolgʻali* hamda boshqa mayda urugʻlarga (qargʻali, boshqird, qoraabdal, qorakoʻli, qorachopon, chuvuldoq, jastaban) boʻlingan. Zomin, Kattaqoʻrgʻon, Narpay, Xatirchi, Jarqoʻrgʻon, Shoʻrchi, Zangiota, Qibray, Quva tumanlarida ***Jaloyir,*** Rishton tumanida ***Jaloyirchek*** qishloqlari bor.

Kerayit — 92 bovli oʻzbek qavmlari orasida tilga olingan qabila. Qozoqlar, qirgʻizlar tarkibida ham uchraydi (*kerey* shakli ham qayd qilingan).

Turli manbalarda *kerayit* soʻzi «qora qoʻy», «qora odam» yoki «qargʻa» deb izohlangan. Etnonim oxiridagi «t» harfi koʻplik affiksi.

Navbahor, Nurota, Koson, Ishtixon, Gʻuzor, Oqqoʻrgʻon tumanlarida ***Kerayit*** qishloqlari, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Nukus tumanida ***Kereyit*** ovuli bor.

Koriz — yerosti suvlarini yer yuzasiga chiqarish uchun qazilgan murakkab inshoot, yer ostida qazilgan ariq, yopiq kanal. Koriz qazishda koʻplab quduqlar lahm (tunnel) bilan birlashtiriladi. Korizdan chiqqan tuproqni olib tashlash va keyinchalik korizni tozalash maqsadida har 7—10 metrda quduq qaziladi. Korizlaming uzunligi bir necha yuz metrdan bir necha kilometrgacha boʻlgan. Korizlar Turkmanistonning Kopetdogʻ togʻlari etaklarida, Oʻzbekistonda asosan Nurota togʻlari etaklarida, Ozarbayjon, Afgʻoniston, Eron, Xitoy, Afrika (Sahroi Kabir) uchraydi. Koriz ba’zi joylarda *koxrez, kariz, qanat* (arabcha, koʻpligi qanavot) ham deyiladi.

Nurota, Xatirchi, Forish, Qoʻshrabot tumanlarida ***Koriz, Korizgoh, Qorizbuloq, Koriziston,*** Xatirchi tumanida ***Korizarab, Korizqiyot*** degan qishloqlar bor. Zarafshon boʻyida (Panjakent shahri) yaqinida ***Toʻqsonkoriz*** degan ariq boʻlgan. Samarqand shahrining oltita darvozasidan biri ***Korizgoh*** deb atalgan.

Langar — joy nomlari tarkibida uchraydigan koʻp maʼnoli atama:
1) kema langari; 2) langar choʻp (darboz tayogʻi); 3) soat kafgiri;
4) ibodatxona; 5) mashhur kishilarning qabri, mozor; 6) karvonsaroy; 7) bekat; 8) kambagʻal, yetim-yesirlarga ovqat ulashiladigan joy, gʻaribxona. Langar soʻzi «Boburnoma»da qabr, ibodatxona maʼnosida uchraydi. Langar degan oʻzbek urugʻi ham bor.

Mozor — qabriston, goʻr, qabr (mozoriston, mozorot ham deyiladi). Musulmon mamlakatlarida koʻplab toponimlar hosil qilgan. Oʻzbekistonda Mozor qishloq, Mozor , Mozorbuva, Mozorkoʻcha, Mozortagi, Mozorboshi, Qoraramozor kabi toponimlar uchraydi. Arabcha *zara* «ziyorat qilmoq», «borib yoʻqlab turmoq», *mo~* old qoʻshimcha «oʻrin», «joy» maʼnosini bildiradi. Nurota tumanidan sharqqa qarab ketishda (Qizilcha, hamda Haydarkoʻlga tomon ketishda) alohida Mozor nomi bilan ataluvchi qishloq ham bor. Mahalliy aholi qabristonlarni oʻz shevasida *goʻr (goʻriston)* va *mozor (mozoriston)* shakllarida ishlatadi. Shu bois ham Nurota tumanining choʻl va dasht hududlarida: *"Bozoring bilan mozoring yaqin boʻlsin",*- degan naql bor.

Nayman — yirik qabila uyushmasi. Koʻplab turkiy xalqlarning tarkibiga kirgan. XIX asming 70-yillarida oʻzbek-naymanlar Zarafshon vodiysida, Fargʻona vodiysi va Xorazmda shuningdek qisman Navoiy viloyatining ayrim tumanlarida yashaganlar.

Oʻzbek-naymanlar XIX asming oxirida 3 ta yirik urugʻga boʻlingan: *qoʻshtamgʻali, sadirbek* va *uvoxtamgʻali*. Bulardan tashqari oʻzbek- naymanlarning toponimlar shaklida qayd qilingan koʻpdan koʻp urugʻlari boʻlgan: agʻran, ayronchi, badir, biya, bagʻanali, boltali, boʻqalay, burunsov, jagʻalbayli, jastavon (jeztovon), jilonni (ilonli), jumaloqbosh, oltiota, oltioʻgʻil, oqtoʻnli, poʻlatchi, sagizuruv (sakkiz urugʻ), sarinayman, toʻrtuul (toʻrt oʻgʻil), toʻrttamgʻali, urguch, ukrash, changali, choʻmichli, qargʻali, qozoyoqli (gʻozoyoqli), qora- nayman, qoragadoy, qorasira (qorasiyroq), qiltamgʻali, qoʻltamgʻali va boshqalar.

Etnograf N.A.Aristov *nayman* soʻzi Sibirdagi Nayma daryosi nomidan olingan degan edi. Koʻpgina olimlar flkrlariga koʻra naymanlar asli turkiy qabila boʻlib, *nayman* soʻzining maʼnosi «sakkiz» demakdir: sakkiz oʻgʻizlarni moʻgʻullar oʻz tiliga moslab *nayman* deb ataganlar.

Nayman etnonimi toponimlar shaklida boshqa turkiy xalqli respublikalarda ham uchraydi.

Nur — yorugʻlik, shuʼla, ziyo, yogʻdu. Prof. E.M. Murzayev aytganidek, bu arabcha soʻz aslida geografik atama emas, lekin Oʻrta va Markaziy Osiyo, Yaqin va Oʻrta Sharqning geografik nomenklaturasida mavjud. Masalan, Nurota toponimi asli ***Nuri Buxoro*** boʻlgan, chunki Samarqand yaqinida ***Nuri Miyonkol*** degan joy bor edi.

Oʻzbekistonda ***Nurafshon, Nuriston, Nurchilar*** kabi toponimlar keyingi davrlarda elektr tarmoqlarining rivojlanishi bilan paydo boʻlgan.

Ob — suv, daryo, soy. Joy nomlari tarkibida *op, ov, ou* shakllarida ham uchraydi. Yagʻnob tilida *ov* — «suv», tojik va yagob tillarida *oba* — «sel», «toshqin togʻ suvi», urdu tilida *ab* — «toshqin», Kopetdogʻda «issiq buloq suvi»; fors tilida *obdara* «tor dengiz qoʻltigʻi», Tojikistonda «suv toʻlib qolgan dara», «tabiiy suv ombori» maʼnolarini bildiradi. Shuningdek, mazkur soʻzdan toponimlar tarkibida uchraydigan bir qancha qoʻshimchalar yasalgan. Masalan, *obod* «oʻzlashtirilgan suvli hudud», *obikor* — «sugʻorma dehqonchilik», *biyobon* — «suvsiz choʻl», *obiravon* — «oqar suv», *obi rahmat* — «rahmat yogʻiruvchi suv» (qor-yomgʻir suvi), *ob raha* — «suv yoʻli», «ariq», *duoba* — «ikki suv qoʻshilgan joy»; Xorazmcha «ariq» maʼnodagi *yop* soʻzi ham asli *ob* soʻzidan kelib chiqqan. Shuningdek, Nurota shahri boʻylab chashma suvi oqadi. Ushbu suvning harakatiga qarab Nurota shahrining ichida ham "Obichappa", "Obirasta" va "Obihayot" kabi ariqlar ham

mavjud.

Shu atamadan va uning talaffuz shakllaridan tarkib topgan toponimlar Osiyo qit'asining deyarli hamma hududlarida: Tojikiston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston, G'arbiy Xitoy, Eronda, Afg'onistonda, Hindistonda, Sibirda, hatto Rossiyaning Yevropa qismida ham ko'plab uchraydi.

Rabot. Bu so'zga «O'zbek tilining izohli lug'atida (1981) quyidagicha izoh berilgan: 1) mustahkamlangan qo'rg'onlarda soq- chilar turadigan joy yoki istehkom qo'rg'on; 2) savdo yo'llaridagi mustahkamlangan manzil, karvonsaroy; 3) shahardan chetroqdagi turar joy.

Bu atama haqida mutaxassislar turlicha fikr bildirgan. Jumladan, akademik V.V. Bartoldning ma'lumotlariga qaraganda, musulmon dunyosi kabi Turkistonda ham diniy urush — g'azovot uchun devor va g'ovlardan tashqari ***ribotlar*** (to'g'ri talaffuzi shunday) yoki ***rabotlar*** qurilganlar. Buni Turkistondagi ***rabod*** so'zi bilan adashtirmaslik kerak, deydi akademik. ***Rabot*** so'zining ma'nosi "ot bog'lanadigan joy" demak, ***Rabot*** muqaddas, ya'ni diniy urush uchun kurashadigan g'oziylar uchun mo'ljallab qurilgan. G'oziylar rabotda dushmanlar bilan yuzma-yuz yashab, ularning hiyla-nayranglarini, hujumlarini daf qilib turganlar. Rabotlar (rabotlar) otliq askarlar dastalari uchun kazarma rolini bajargan. Rabot so'zi Navoiy viloyati Karmana tumani hududida bir necha nomlar tarkibida uchraydi. Jumladan, "Toshrabot", "Qumrabot", "Malikrabot" shakllarida uchraydi.

Bundan tashqari, O'rta Osiyoda ***rabod*** yoki ***rabaz*** atamasi ham bo'lgan. Tarixchi A.A. Semenovning gaplariga qaraganda, shaharga tutash mahallalar ***rabaz*** deb yuritilgan.

Shunday qilib, dastlab ***rabaz*** deganda ichki shaharni emas, balki shahar atrofidagi devor hamda shaharga tutash qishloq-mahallalar tushunilgan.

Keyinchalik bu ikki atama bir-biriga qo'shilib, ham ***karvonsaroy, ham rabot*** yoki ***rabod*** deb ataladigan bo'ldi, Buning sababi shu ediki, deb yozadi V.V.Bartold, istilochilar qurgan rabotlar bu yerda oldindan mavjud bo'lgan g'aribxonalar va ibodatxonalarga juda o'xshab ketar edi. Shuning uchun ham bunday tayyor binolar rabotlarga moslashtirilgan. Buning ustiga rabot qurish ham masjid solish kabi savob ish hisoblangan. Bu so'zlaming yaqinlashishini shundan bilsa ham bo'ladiki, Buxoro yaqinida yashab o'tgan Juybor shayxlari (xo'jalari)ning arxivlarida (XV—XVI asrlar) bu atamalar bir-biridan deyarli farq qilmagan: ***rabaz*** — og'ilxona, hovli joy, ***rabot —*** qo'rg'on, qo'ra.

A.R.Muhammadjonov ***rabot-ravot*** so'zini sug'dcha deb hisoblaydi: ro(x) — yo'l, ***bat*** (bata, vata) — manzil, mazgil. U Buyuk ipak yo'li bo'ylab qurilgan ko'pdan ko'p bekatlar ana shu atama bilan atalgan deb hisoblaydi.

Rabot — (ravot, rabod) so'zidan tarkib topgan toponimlar, aksari oykonimlar O'zbekistonda 200 dan ortadi va ularning deyarli hammasi Zarafshon vodiysida (Buxoro viloyatida 100 ga yaqin, Samarqand viloyatida 60, Navoiy viloyatida 20).

Bundan tashqari, yag'nobshunos olim A.L.Xromov «yaylov sifatida foydalaniladigan sero't adir joy» ma'nosida ***ravad*** (ravod) so'zi borligini aytadi va uni qadimgi eroniy ***ravati,*** yagnobcha ***rovut,*** xorazmcha ***rwyn*** («yer», «joy») so'zlari bilan bog'laydi,

Sardoba — suv kam joylarda suvning bug'lanib ketishiga va ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik uchun qurilgan gumbazli hovuz. Sardoba ustiga qurilgan gumbazi uchun ba'zan ***Gumbaz*** deb ham atalgan. Sardobalar qadimda dashtlardagi chorva mollarini va savdo karvonlarini suv bilan ta'minlashda katta ahamiyatiga ega bo'lgan. Qarshi cho'lida 29 ta, Mirzacho'lda 3 ta, Toshkent bilan Farg'ona o'rtasidagi qadimgi savdo yo'lida 3 ta, Cho'limalikda (Karmana yaqinida) 1 ta sardoba bo'lgan.

Paxtachi, Guliston, Oqoltin tumanlarida ***Sardoba*** degan qishloqlar bor.

Forscha-tojikcha ***sardoba*** "sovuq suv" degani.

Soy — suv oqadigan pastlik, suv yo‘li, vodiy. Kichik daryo ma’nosini ham anglatadi. Turkiy xalqlar yashaydigan barcha hududlarda bir-biriga yaqin ma’nolarda ishlatiladi va sanoqsiz toponimlar hosil qilgan. Andijon viloyatida eski o‘zanlardan foydalanib ochilgan kanal ***soy*** deyiladi: Andijonsoy, Shahrixonsoy. ***Say*** atamasi «kichik daryo» ma’nosida rus tiliga ham kirgan. Jumladan, tarixiy manbalarga nazar solar ekanmiz Nurota tumanidan sharqqa(kunchiqarga) qarab ketishda Yangiobod (asli Boshkoriz bo‘lgan), Yangibino, Xayrabod, Oqqula, Burliboy, Jarma, Oltmishto‘rt, Soykechar, Qorqum, Yangiturmush, Urganji, Bog‘ojot, Jo‘sh, Qo‘rg‘on qishloqlari aslida daryoning joyi bo‘lgan. Ushbu daryoning joyi hozir ham soy so‘zi bilan bog‘liq joy nomlari saqlanib qolgan (Soykechar, Kattasoy, Kichiksoy, Maydonsoy). Shu boisdan bo‘lsa kerak Boshkorizdan Jo‘shgacha bo‘lgan hudud oralig‘ida 364 ta koriz ham bo‘lgan.

Usmonli turklar, ozarbayjon tillarida va Eronda ***chay*** (daryo) shaklida talaffuz etiladi.

Ozarbayjonda ***chaylag‘*** (quruq o‘zan), ***chaybosar*** (qayir), ***chayog‘zi*** (daryoning etagi), ***chayg‘o‘lu*** (daryo tarmog‘i) shakllarida uchraydi.

Tilshunos O.T.Molchanova ***soy (say)*** turkiy, ***choy (chay)*** esa forsiy talaffuz shakli deb hisoblaydi.

Tama (*joy nomi va urug‘ sifatida)*— o‘zbek urug‘i. Tamalar **mesit** va **jobu** (yobu) urug‘lari bilan ***uchurug‘*** birlashmasini tashkil etgan. Qozoq, qirg‘iz, quramalar tarkibida ham ***tama*** urug‘i bo‘lgan. Nurota, Xonqa, Ellikqal’a, Narpay, Quyi Chirchiq, Amudaryo tumanlarida ***Tama,*** Xatirchi tumanida ***Tamabahrin,*** Bo‘ka tumanida ***Tamaovul*** qishloqlari qayd qilingan.

Temirqovuq — «temir darvoza», yo‘l o‘tgan daraning tor qismi. Qadimiy turk tilida ***Temirqopuq,*** tojikcha ***Darbandi Ohanin,*** arabcha ***Bobil hadid.*** Surxondaryo viloyatidagi ***Buzg‘alaxona*** (Qohlug‘), Jizzax yaqinidagi ***llono‘tti*** daralari ham ***Temirqopug‘*** deb atalgan, Nurota tumanida ***Temirqovuq*** qishlog‘i bor.

Tutak — Sug‘dda harbiy lavozim. VIII asrda oliy hokim, ya’ni ***ixshiddan*** keyingi harbiy tashkilot boshlig‘i, harbiy vazir. Qarshi, Nurota, Sariosiyo, Forish, Yakkabog‘ tumanlarida ***Tutak,*** o‘sha Yakkabog‘ tumanida ***Tutaktepa*** qishloqlari qayd qilingan.

Urganji — topoetnonim, ya’ni joy nomi bilan atalgan qavm. Urganjilar Xorazm poytaxti Urganchni Chingizxon yer bilan yakson qilib tashlagandan keyin Buxoro tomonga kelib o‘rnashib qolgan hunarmandlarning avlodlari. Boshqa bir ma’lumotlarga ko‘ra XVII asr oxirlarida Urganchdan ketib Buxoro va boshqa yerlarga o‘rnashgan o‘zbeklar. Turkmanlarda ham ***urgenji*** (***urgenchli)*** etnonimi bor. Samarqand, Buxoro, Navoiy, Andijon, Namangan viloyatlarida ***Urganji*** (Urganjilar, Urganjiyon, Urganjixona) qishloqlari anchagina uchraydi.

Chambil — dostonlarda afsonaviy yurt nomi. ***Chambil*** degan etnonim ham bor. Qo‘ng‘irot qabilasining qanjig‘ali va qo‘shtamg‘ali urug‘larining bir bo‘limi ***chambil*** deb atalgan. Xovos, Denov, Ishtixon, Norin tumanlarida ***Chambil,*** *Nurota tumanining Jarma va Burliboy qishloqlarining Qoratog‘ tomonida Chambil nomli cho‘ponlar otari, yaylovi ham mavjud, qolaversa,* Bulung‘ur tumanida ***Chambiltepa*** qishloqlari ana shu etnonimdan nom olgan.

Cho‘michli — etnonim. Qo‘ng‘irot qabilasi vaxtamg‘ali bo‘limining bir urug‘i ***cho‘michli*** deb atalgan (tamg‘asi cho‘mich shaklida bo‘lgan — urug‘ning to‘liq nomi ***cho‘mich tamg‘ali).*** Paxtachi, Narpay, Nurota, Payariq, G‘uzor, G‘allaorol tumanlarida ***Cho‘michli*** qishloqlari hamda urug‘lari qayd qilingan.

Yaylov — chorva mollari o‘tlaydigan keng maydon, o‘tloq. Yaylov (jaylau, jaylov) umumturkiy so‘z. Jay-ey qadimgi turk tilida yoz-yaz deb bahorni aytishgan, ***yaylag‘ —*** «yozloq», «yozda ko‘chib chiqib yashaydigan keng yaylov», turkmanchada ***yayla*** yoki

yaylag — «yozgi yaylov», «yozda o‘tovlar tikilgan joy», Qrimda ***yayla —*** «tog‘ yaylovi», «yassi tog‘» ozarbayjonlarda, usmonli turklarda ham ***(yayla, yaylag, eylag)*** «yassi tog‘», yozloq. Eronda ***yayloq, yaylo*** «yozloq», «yozgi qishloq», «yozda ko‘chib chiqiladigan joy» (yoz-yaz deb bahorni aytishgan).

Tojikistonda ***ayloq, yayloq*** va ***devlox*** bir ma’no — «tog‘ yaylovi»ni bildiradi. Qirg‘izston, Oltoy va Kavkazda 2000 metrdan balandda joylashgan tog‘ yaylovlari, mahalliy aholi bilan birga rus adabiyotida ham ***jeylav, djaylau*** deyiladi. Navoiy viloyatining cho‘l hududlarida, jumadan: Tomdi, Uchquduq, Konimex, Boymurod, Yangig‘ozg‘on, Nurota, “Nurora” sabxozi, “Qizilcha” sabxozi, “O‘zbekiston” shirkat xo‘jaliklarida keng, bepoyon yaylovlar mavjud bo‘lib, bu joylarda asosan cho‘ponlar naslchilik davlat xo‘jaliklarining mollarini boqishadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda yaylov so‘zi mollarni yoymoq (shevada *jaymoq* so‘zi bilan ham etimologik jihatdan aloqador bo‘lishi mumkin. Agar-da so‘zning tarkibiga, etimologiyasiga nazar soladigan bo‘lsak ushbu so‘z aslida *yoymoq* fe`liga tarixiy jihatdan qarasak *–la+v* shaklida, hozirgi nuqtayi nazardan qarasak *lov* shaklida hosil bo‘lgan. Ya’ni, *joy (jay)+la=jayla(mollarning barchasini shu yerga jayla)+v*=xalq tilida *jaylov* shaklida uchraydi. Sinxron nuqtayi nazardan tahlil qilsak, yoy (yay)+lov shaklida hosil bo‘lgan. Bu so‘zning ***aylaq-ayloq*** shakli shevalarda va tarixiy yodgorliklarda saqlanib qolgan. So‘z boshida keladigan ***j-y*** tovushining tushib qolishi turkiy tillar uchun xarakterli: ***jagach — yagach — agach-og‘och, yenju*** — inju «marvarid», ***jo‘par — yipar - ipor*** (mushk).

Toshkent viloyatidagi Ohangaron vodiysi shu yerda o‘rta asrlarda mavjud bo‘lgan davlat ***Iloq*** deb atalgan. Ba’zi bir adabiyotlarda bu nom ***Ayloq*** deb yozilgan. Alif va yoy harflari birikmasini ***ay*** yoki **i** deb ham o‘qish mumkinligini hisobga olib bu tarixiy o‘lkaning nomi ***Iloq*** bo‘lganligiga ishonch bildirish mumkin.

Qozon — ovqat pishiriladigan quyma idish. Toponimiyada relyef shakli — ulkan to‘garak soylik. Prof.E.M. Murzayev qozon so‘zi Dunay daryosi hamda Bolqon yarim orolidan Yenisey daryosigacha bo‘lgan ulkan hududda ko‘plab toponimlar hosil qilgan, deydi. Masalan, Turkmanistonda ***Qozonjiq,*** Ozarbayjonda ***Qozonbuloq,*** Bolgariyada ***Qozonlik*** (Kazanlik), Tataristonda ***Qozon*** va O‘zbekistonda ham **Qozon** (Nurota va Navbahor tumanlaridagi Qirqqozon) va b. Bu toponimlarning etimologiyasi har xil bo‘lishi mumkin: relyef shakli, urug‘ nomi (qozon yoki qoz etnonim), nihoyat qozon so‘zining bevosita ma’nosi. To‘p (zambarak)ning bir turi ham qozon deyilgan.

Quduq — suv olish uchun qazilgan tor chuqurlik. Turkiy xalqlardan tashqari Volgabo‘yi, Qrim, Shimoliy Kavkazdagi rus shevalarida (Sharqiy Sibirgacha), Ukrainaning janubida ham iste’molda. Tojik tili shevalarida ***quduq*** deganda buloq ham tushuniladi. Turkmanistonda quduqning bir necha turi bor, ko‘milib ketgan quduq ***guduk,*** quduq esa ***guyi,*** usmoni turklarda ***kuyuk*** deyiladi. Ba’zi bir turkiy tillarda buloqni ham ***quduq*** deyishadi. O‘zbekistonda ***Quduq, Quduqli, Quduqcha, Qo‘shquduq, Uchquduq*** kabi yuzlab toponimlar bor.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak, toponimlarning (joy nomlarining) ma’naviy me`ros va milliy qadriyat manbayi ekanligi bejiz emas. Joy nomlarini tahlil qilar ekanmiz, har bir joy nomida xalq qarashlari, ilmiy asoslar, qolaversa, rivoyat va afsonalarga asoslanganligining guvohi bo‘lamiz. Biz yuqorida faqat Nurota tumaniga qarashli bo‘lgan ayrim etnonimlarning ma’no xususiyatlari to‘g‘risida o‘z fikr va mulohazalarimizni bildirdik. Nafaqat bitta tumandagi, balki viloyatimizning barcha hududlari tarixini, etimologiyasini tahlil qilish har birimizning muqaddas burchimiz ekanligini unutmasligimiz kerak.

ADABIYOTLAR

1. Suyun Qorayev. Toponimika. Toshkent, 2006.
2. Herman Vamberi. Buxor yoxud Movarounnahr tarixi. Toshkent -1990
3. Suyundiq Mustafo Nurotoiy. Nurota ziyoratgohlari. Toshkent. -2015
4. Shayx Abul Hasan Nuriy. Nur Ota. Toshkent. Tamaddun-2013
5. Baxtinur Berdiyev.Navoiy viloyatining tarixiy manzilgohlari. Toshkent. Muharrir -2008
6. Boboqul Mirzayev, Karimtosh Ahmatqulov. Nurota tarixidan lavhalar. Toshkent -1997
7. Baxtiyor Omon. Boburning bolaligi. Toshkent - 2002
8. Bozorboy O‘rinboyev. Asrlardek barhayot nomlar. Samarqand, 2003

УСМОН АЗИМ ШЕЪРИЯТИДА СИНТАКТИК ТАКРОР

Орзибони ЮСУПОВА,
Шароф Рашидов номидаги СамДУ доценти, ф.ф.н.

Бадиий матнларда оддий товушлардан тортиб, сўзлар, сўз бирикмалари, гаплар, мураккаб синтактик бутунликларгача бўлган ораликдаги тил бирликлари такрорланади. Бу такрорланишлар матнда муҳим лингвостилистик ва лингвопоэтик аҳамият касб этгани боис унга ифоданинг махсус усули – синтактик-стилистик фигура сифатида қаралади. Унинг лингвостилистик ва лингвопоэтик аҳамияти, биринчи навбатда, асосий маънодан ташқари қўшимча маъно ифодалаш, ўқувчи ёки тингловчига муайян бадиий-эстетик таъсир ўтказиш билан боғлиқ. Ижодкорлар ифодани таъсирли қилиш мақсадидан келиб чиқиб, ушбу усулга фаол мурожаат қилишади.

«Бадиий услубда такрорнинг вазифаси, қўлланиш доираси жиддий равишда кенгайиб боради, – дейди С.Каримов. – Чунки бадиий услубда такрорнинг вазифаси фақатгина маълум нарса-ҳодисани ёки ҳолатни ажратиб, таъкидлаб кўрсатиш билангина чегараланмайди. Бадиий асарда барча услубий воситаларда бўлгани каби такрорнинг зиммасига ҳам тил бирликларига эмоционал бўёқ, алоҳида оҳанг, жозиба бериш вазифаси юкланади. Агар имконият бўлса, шу вазифаларни амалга ошириш билан бир қаторда, муаллифнинг ёки асар қаҳрамонининг воқеликка субъектив муносабатини ҳам бера олиши керак» [2. –Б.55-56].

Уларнинг бадиий матн таркибида, хусусан, шеърий асарларда ўринлашуви, яъни композицияси ҳам турличадир. Бу композицион ранг-баранглиқнинг матн бадиий-эстетик шаклланишига таъсири масаласини Усмон Азим шеърияти мисолида кўриб ўтамиз.

Бадиий матнда такрорланаётган содда гапларнинг ифода мазмунининг матн эстетик самарадорлигига у ёки бу даражада таъсири борлиги маълум бўлади. Масалан, У.Азимнинг «Чавандоз улоқдан қайтди пиёда» шеърида кўпкарида оти қоқилиб ўлган чавандознинг уйига қайтган пайтдаги руҳий ҳолати чизгиларини дарак гап шаклидаги *чавандоз хўрсинди/хўрсинар* жумласи атрофига жамулжам қилинади: бўлган воқеани хўрсиниб эслайди, уни хотинига айтар экан, оғир уҳ тортади, аммо кўз ёшини хотинига кўрсатишни истамай, юзини четга буради, олам кўзига қоронғи кўринади, оти хаёлидан кетмайди, кўпкарида от чопиб оладиган лаззатдан энди маҳрум бўлганлигини ҳис қилади. Тонг отгунча шу аҳволда ўтиради, юлдузлар эса тобора камайиб бормоқда. Шундай бир тушкун ҳолатида хотини

… «Ҳеч хафа бўлманг,
Сизга от оламиз уй-жойни сотиб...» дейди.

Матнда уч марта такрорланган *чавандоз хўрсинди/хўрсинар* гапи эр кишининг руҳий ҳолатини қанчалик таъсирли ифодалашга хизмат қилган бўлса, ақлли хотиннинг берган жавоби ҳам ана шу даражада эстетик самарадорлик касб этган. Ижодкор услубида қўл келган қаршилантириш усулида такрор лингвопоэтик вазифани бажара олганлиги билан бадиий қимматга эга бўлган.

«Инсонни тушуниш керак» шеърида даъват характеридаги *Инсонни тушуниш керак* гапи эса асар композициясини ушлаб турувчи ўқ ҳисобланади. Шоир шу тезисни илгари сурди. Энди ўқувчида *кимни ва нима учун тушуниш керак,* деган савол пайдо бўлади. Шоир бу саволга жавоб беради: сизни зор қилиб юрган, бепарво қарайдиган, жоду кўзлари билан тушингизга кирадиган, мағрурлик ва ҳаё туфайли балки сиздан юлдузларчалик узоқда бўлган инсонни тушунишга ҳаракат қилинг; журъатли бўлинг, ширин сўз топинг, шабада, нур, осмон, қуёш, ер бўлинг, унинг орзуси ва қайғуси бўлинг. Балки ўшанда у ҳам сизни тушунар, «севаман», деган сўзни айтар, – дейди шоир.

Шоир яна шу гапни такрорлайди: *Инсонни тушуниш керак.* Аммо навбатдаги қаҳрамон бутунлай бошқа одам. У қалтироқ қўллари билан чўнтагини ковлаётган, ягона сўмини ҳам ичкиликка сарфлаётган ароқхўр. Аммо уни ҳам тушунишга ҳаракат қилинг, дўстим денг, зора ароқдан яқин дўст кўрмаган юрак адашган йўлидан қайтса.

Инсонни тушуниш керак!
Ўқ янгради. Энди Маяковский ҳам йўқ...
...Ердаги худолик жонига тегиб,
Маузерни қўлга олгани маҳал,
Кутгандир:
Нажоткор бир кимса келиб,
Улкан шон-шуҳратнинг соясигамас,
Биродарлик учун «қалайсан», деса.

Лирик қаҳрамон буюк шоирни ҳеч ким тушунмаганлигидан, унинг қалб ярасига малҳам бўлолмаганлигидан афсусланади.

Инсонни тушуниш керак! Бир, икки, уч, тўрт такрорлагандан кейин шоир *Кечирасизлар, орзумнинг қаноти узунроқ. Бундай бўлмайди...* дейди ва тушунмас одамлар ҳали кўплигини эсга олади, такрорлашни тўхтади. *Тушуниш* ва *тушунмаслик* тушунчаларини зидлантириб, ифодада кескин бурилиш ясайди ва қуйидаги хулосани беради:

Бироқ менга туюлади:
Жами душманларим,
Севмаганларим –
Мен тушунмаган дўстларим.

Аввал (…), давомида (!) белгилари билан берилган *Инсонни тушуниш керак* гапи ҳар сафар биридан иккинчисига қараб ўсиб, оҳанги кўтарилиб боради ва шеър охирида бирданига пасайиш содир бўлади. Шоир айтмоқчи бўлган асосий фикрини – *Мени ҳам тушуниш керак, тушунмаганлар эса менинг дўстларим эмас,* – деган гапини хотиржам тарзда ифода қилади. Шоир ўзини тушуниш кераклигини даъво қилмайди, унга даъват ҳам этмайди, биз уни ичдан ҳис қиламиз. Матнда *тушуниш* ва *тушунмаслик*нинг қаршилантирилиши ва бунда содда гап такрорининг иштироки матнга бадиий қувват беради.

«Бойсун қирларида бир ўзим кездим» шеъри айнан шу мисра билан бошланади ва ниҳоясига етади.

Бойсун қирларида бир ўзим кездим,

Куз эди. Даралар туманни қучган.
Аввал эшитгандим. У маҳал сездим,
Менинг бир дўстимнинг чироғи ўчган.

Оламдан ўтган дўстини ёд олган лирик қаҳрамон ёнида яқин бир кишисининг йўқлигини юракдан ҳис қилади, изтироб чекади. Куз, дараларни туман қоплаган, осмон ола булутли, тошларнинг ҳам у билан гаплашгиси келмайди. Бир пайтлар дўсти билан қўшиқ айтмоқчи бўлганини эслаб, куйлай бошлайди. Унда ўз дардию дўстининг ғами мужассам. Тун бостириб келавергани сайин куйлаш ҳам қийинлашади. Бугун иккимиз учун куйладим, эртага, индинга, ундан кейин нима бўлади? дейди шоир.

……
Бойсун қирларида бир ўзим кездим…

Шеър бошида айтилган мисранинг асар охирида ҳам келтирилиши шоир қалбида кечаётган маҳзун руҳий изтиробларнинг ҳамон давом этаётганига ишорадир.

«Ҳаёт қўшиғи» шеъри 30 мисрадан иборат ва унинг дастлабки 5 қатори шеър якунида айнан такрорланган:

Боғ қўйнида икки дарахт
Бир бирига интизор.
Сен - бир дарахт,
Мен - бир дарахт,
Куйиб-куйиб ўтдик, ёр.

Лирик қаҳрамон умр фаслларидан самарали фойдаланмаганига афсус чекади. Аммо энди надоматнинг фойдаси йўқ. Энди у дарахтга ўхшаб ерда томир отган, ерга боғланган. Унинг севгилиси қисмати ҳам шундай бўлган – у ҳам гўё дарахтга айланган, тақдирини ўзгартиришга кучи етмайди. Ошиқларга нима қолаяпти – тақдирга тан бериб яшаш. Мисраларнинг бу тарзда айнан такрорланиши ана шунга ишорадир.

24 мисрадан иборат «Алпомиш хусусида шоир дўстимга махфий хат» шеъри
Арпали чўлида Алпомиш ухлар.
Уни уйғотмайман,
деб бошланади ва шундан сўнг савол қўяди:
Уйғонса, нима иш буюрамиз унга,
Хуршид Даврон?

Шеър таркибида уч марта такрорланган ушбу бандга шунчаки тасвирий восита деб қараш тўғри бўлмайди. У ижодкор тафаккурини ҳаракатга келтирувчи двигател вазифасини ўтайди, қалб дардини айтиб олишга қулай шароит яратиб беради. Хўш, Алпомиш уйғонса нима иш қилади? Писта сотадими, пахта терадими, имонни сотмоқликни ёки мукофот олмоқликнинг йўлларини, пиво ичишни, кўчирмачилик қилишни ўрганадими, аёлларнинг қилмишини кўриб қандай чидайди? Мана шу сўроқларни бериш жараёнида юқоридаги мисра такрорланаверади. Бу билан шоир тажоҳили орифона санъатини ҳам қўллайди. Билиб-билмасликка олиб дўстидан сўрайверади. Кўнглида тугиб қўйган гапларини жавоб тарзида айтаверади. Мана шу маънода матндаги такрор усули ўзининг кўпчилик матнларда бажарадиган одатдаги тасвирийлик доирасидан чиқиб, икки лафзий санъатни ўзида мужассам қилган кучли лингвопоэтик воситага айланади.

У.Азимнинг Элбек бахши циклида яратган ва «Бахшиёна» китобига киритилган шеърларидаги такрорлар шоир асарлари поэтик синтаксис намуналарининг гултожи деб айта оламиз: *(Элбек бахшининг шогирди) Эломон яна кўп айтди, эмраниб туриб*

хўб айтди, жўшиб айтди, шоир-да, баъзан қўшиб айтди. Шунда Элбек бахши: «Ў, болам! Ў, шоирликда мен етмаган нолам, бахши бўлиб тўлиқиб қолибсан, илҳом деганига йўлиқиб қолибсан, энди сенга охирги насиҳатим шудир», деб кўксида қўзғалган елга соқоли пириллаб, овози чақмоқдай гуриллаб, бир сўз деб турган экан:
Устозим деганинг шеърфуруш чиқса,
Суйганим деганинг эрфуруш чиқса,
Подшоҳим деганинг элфуруш чиқса, –
Чидагин, болам-а, чидагин,
Дардларинг танингга жойлансин.
Чидагин, болам-а, чидагин,
Оҳларинг қўшиққа айлансин!
Чин қолиб, ёлғонлар топса марҳамат,
Яхшимас, ёмонлар топса марҳамат,
Алдамчи замонлар топса марҳамат
Чидагин, болам-а чидагин,
Дардларинг танингга жойлансин.
Чидагин, болам-а чидагин,
Оҳларинг қўшиққа айлансин!

7 қаторлик ҳар бир парчада такрорланаётган кейинги 3 қаторни олиб ташлаш мумкинми? Мумкин. Аммо бу ўринда ифода жиддий зарар кўради. Биргина *Чидагин, болам-а, чидагин* мисрасининг такрорланиши кейинги уч қатор зиммасида турган тасвирдаги эмоционал-экспрессивлик, ифодадаги изтироб юкини кўтара олмайди.

Мана шу тарзда У.Азимнинг «Рашк, ғийбатнинг тўлқинларида…», «Она, келганингизда…», «″Ҳа″ – осон», «Бўлиниб бораяпман минг бир бўлакка…», «Бу тош ғариб эди…», «Нодраматик баллада ёки беғам марш», «Тегирмон тоши мисоли…», «Осмон узилиб тушди…», «Боғ ичинда бир дарахт…», «Шамоллар оқиб ётар…», «Фарҳод ва Ширин», «Лайли ва Мажнун», «Девор ёхуд Садди Искандарий», «Боғим кетган – қолган кўнглим ёбони…», «Гўрўғли» сингари ўнлаб шеърларида асар композицияси ва мазмун ифодасида муҳим ўрин тутадиган содда гап шаклидаги синтактик такрорнинг турли хил намуналари учрайди ва улар қуйидаги вазифаларни бажаради: 1. Агар шеърий бўлакларнинг бошида ва охирида такрор усули қўлланса, уларнинг биринчисида асосий ғоя тезис сифатида берилади ва давомида ана шу доирадаги лирик кечинмалар баён қилиниб, охирида яна энг муҳим деб қаралган фикр таъкидланади. Бу билан ҳам шеър руҳи, ҳам ўқувчи ёки тингловчи кайфияти бир маромда ушлаб турилади. 2. Бошқа бир ҳолатда ҳар бир шеърий бўлакнинг бошидаги мисра такрорланади, давомида эса унга шарҳ берилади. 3.Ҳар бир шеърий бўлакнинг охирида такрор усулининг қўлланилиши билан мисрадаги фикрнинг муҳим ва хулосавий эканлигига ишора қилинади, асарга ўзига хос оҳанг ва тугаллик бағишлайди. Ундан олдинги мисралар унинг изоҳи тарзида келади. 4. Шеърий матннинг ўртасида келган такрорлар эса бандлараро занжир вазифасини ўтайди, ифода тизгинини ўз қўлида ушлаб туради, муаллифнинг ифодада чалғимаслигига кўмаклашади. У ўзидан кейинги фикрни олдингиси билан боғлайди, олдинги жумлада очилмай турган фикрнинг кейинги жумлаларда очила боришига шароит яратиб беради.

Хуллас, Усмон Азим шеъриятида синтактик такрор нафақат бадиий матн қисмларини ўзаро боғлаб туришга хизмат қилади, балки билдирилаётган мулоҳазани ишончли шарҳлайди, риторикани кучайтиради Айнан ана шу риторика туфайли

такрор усули таъсирчанлик воситасига айланади, онгда фикр ва ҳиссиёт ҳақида чуқур таассурот қолдиради.

АДАБИЁТЛАР

1.Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. – Самарқанд: Зарафшон, 1992.

2. Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд: СамДУ, 1994.

3.Мамажонов А. Такрор ва унинг синтактик-стилистик функцияси // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1986. –№ 6. –Б.59-61.

4.Шомақсудов А.,Расулов И.,Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983.

5. Шофқоров А. Миртемир шеъриятида такрорнинг маъновий-услубий хусусиятлари: филол.фан.номз....дисс. – Тошкент, 2012.

ТЕРМИНОЛОГИК ЛУҒАТЛАР ТИПОЛОГИЯСИГА ОИД

Раъно ШАРОПОВА,
ф.ф.ф.д. (PhD), Навоий давлат педагогика институти

Аннотация. Мақолада замонавий терминографиянинг бугунги кундаги асосий муаммолари, терминологик луғатлар таснифи ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: терминологик луғатлар, терминография, соҳа луғатлари типологияси, ўқув мақсадлари, терминологик тизим.

Маълумки, терминологик луғатлар илм-фаннинг ривожланиши ва оммалашувида муҳим ўрин эгаллаб, илмий, ижтимоий, педагогик вазифаларни бажаради: ўқувчига маълумот беради, фан юзасидан билим доирасини кенгайтиради; уларда фанга оид билимлар тўпланади, тартибга солинади, меъёрий тусга киради. Шу туфайли барча тилларда бўлганидек, ўзбек тилида ҳам кўплаб терминологик луғатлар нашр этилган, этилмоқда.

Мустақиллик йилларида ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ҳаёт, фан ва техника, ишлаб чиқариш, маънавий-маърифий соҳалардаги кескин ўзгаришлар туфайли янги-янги воқелик ва тушунчаларнинг пайдо бўлиши, янги фанлар ва касб-корларнинг шаклланиши ўзбек тилида янги терминларнинг пайдо бўлиши, ўзлаштирилиши, қатор лексемалар янги терминологик маънолар касб этишига сабаб бўлди. Шу жараёнда янги терминологияларни шакллантириш, мавжудларини қайта кўриб чиқиш ҳамда тартибга солиш, кўпгина соҳаларнинг терминологик луғатларини яратиш ёхуд янгилаш заруриятини юзага келтирди. Бу даврда фан ва соҳалар бўйича қатор типдаги терминологик луғатлар яратилди. Ҳозирги даврда, айниқса, тор соҳавий луғатларни яратишга аҳамият берилиши эътиборга лойиқ. Айниқса, ҳозирга қадар техника, тиббиёт, қишлоқ хўжалиги, физика, химия, биология, география, тилшуносликнинг турли соҳаларига оид луғатлар яратилди. Шунингдек, ҳозирги кунга қадар яратилган терминологик луғатлар ҳажман ўртача ва қисқача бўлиб, кўпроқ ўқув мақсадлари учун хизмат қилган.

Ўзбек терминографияси тарихида ҳозирги кунгача илм-фан ва техниканинг 50 дан ортиқ турли соҳа ва тармоқлари бўйича 250дан ортиқ терминологик луғат яратилди [Мадвалиев, 2008: 59]. Бироқ ҳозирги кунда мамлакатимизда беш юздан ортиқ ишлаб чиқариш, фан ва техника соҳаларининг эҳтиёжига хизмат қилиши зарур бўлган соҳавий терминологик луғатлар яратиш масаласи кўндаланг турибди. Бугун

республикамизнинг халқаро майдондаги нуфузи, обрў-эътибори ортиб бораётган бир даврда ижтимоий-сиёсий, дипломатик, иқтисодий, илмий-техникавий соҳаларда ахборот алмашинув эҳтиёжининг ортиши билан бир қаторда, ёшларнинг замонавий илм-фан сирларини эгаллаб, замон талабларига мос етук мутахассис кадрлар бўлиб етишишида турли типдаги терминологик луғатлар, айниқса, таржима терминологик луғатларни яратиш долзарб аҳамият касб этади.

Лексикографлар замонавий терминографиянинг бугунги кундаги асосий муаммолари сифатида қуйидагиларни кўрсатадилар:

- терминологик луғатлар яратишнинг методологик тамойилларини ишлаб чиқиш;
- махсус луғатларнинг илмий асосланган типологиясини яратиш;
- терминологик луғатларнинг асосий параметрларини аниқлаш;
- лексиканинг турли махсус қатламларини таърифлаш учун луғатларнинг инвариант проектларини ишлаб чиқиш;
- терминографик ишларга махсус талабларни ишлаб чиқиш;
- луғатларнинг макро ва микроструктураларини тадқиқ этиш;
- терминологик сўзлик танлови йўллари таҳлили;
- терминларни таърифлашнинг асосий усулларини ишлаб чиқиш;
- терминологик луғатлар яратишда компьютерлаштиришни қўллаш [Дубичинский, 1998:90].

Дарҳақиқат, соҳалар тили луғатлари типологиясини кузатиш бу тип луғатларнинг тараққиёти ҳамда терминологик бирликлар тавсифидаги ўзгаришларни намоён этишга ёрдам беради. Лексикография соҳасида нафақат турли луғатларни, балки соҳавий луғатларни илмий асосланган типологияси ва таснифини яратиш асосий масалалардан бири бўлгани боис жаҳон лексикографиясида бунга алоҳида эътибор қаратиб келинмоқда.

Ҳозиргача яратилган терминологик луғатлар қамрови, мақсад ва вазифаси, тавсиф усулига кўра турли-тумандир. Терминшунос З.И.Комарова ва В.М.Лейчик таснифларига эътибор қаратамиз.

З.И.Комарова терминологик луғатларни 11 хусусияти асосида тасниф этади:

– намоён этилган тиллар сонига кўра (бир тилли, икки тилли, кўп тилли);

–асосий вазифасига кўра (изоҳли, таржима, систем);

–тақдим этилган соҳа ёки фан соҳалари бўйича (умумий, соҳавий, тор соҳавий, кўп соҳавий);

–махсус вазифасига кўра (тушунчавий, частотали, чаппа, ўқув);

–терминларнинг мавжудлиги ва семантизацияси принципига кўра (энциклопедик, изоҳли, изоҳлаш мақсад қилинмаган ва б.);

–сўзлик ҳажмига кўра (мукаммал, ўртача, қисқача);

–мўлжалланишига кўра (маълумот цензи мутахассислари учун, илмий ходимларга, амалиётчиларга, талабаларга, коллежларга, ўқувчиларга ва б.);

–кенг мўлжалланишига кўра (инсонга мўлжалланган луғатлар, компютерга йўналтирилган луғатлар);

–терминларнинг жойлаштирилишига кўра (алифбо тартибидаги, алифбо-уяли, пермутацион, идеографик, чаппа частотали, иерархик);

–узуснинг меъёрийлигига кўра (меъёрий, стандартлаштирилган);

терминнинг замонавийлиги бўйича (янги, қўлланишдаги, тарихий) [Комарова, 1991: 74–75].

В.М.Лейчик эса терминологик луғатларни 6 дифференциал белгиси асосида таснифини келтиради:

– мавзувий қамрови бўйича (кўп соҳавий; соҳавий (мавзуий); тор соҳавий);

–луғат мақоласининг чап қисми (бош сўз)нинг мазмунига кўра (терминлар луғати; терминэлементлар луғати);

–луғат мақоласининг ўнг қисмининг мазмунига кўра (таржима; изоҳли; справочник луғатлар; терминлар рўйхатлари (глоссарийлар) (идеографик ва дескриптор луғатлар);

–сўзликни тартиблаш усулига кўра (алифбо тартибидаги луғатлар; алифбо тартибида бўлмаган (мавзувий) (уяли, алифбо-уяли);

–луғатнинг мақсад ва вазифасига кўра (қўлланишдаги терминлар (узус) луғатлари (рўйхатловчи, ҳисобга олувчи); меъёрловчи (меъёрий, меъёрга солмайдиган); илмий-оммабоп луғатлар; ўқув луғатлари; ахборот берувчи луғатлар (ахборот қидирув тезауруслар, классификаторлар, рубрикаторлар); тартибга солувчи луғатлар (терминтизим луғатлари, частота луғатлари, чаппа луғатлар);

–тилларни қамраш даражасига кўра (бир тилли; икки тилли; кўп тилли);

–янгилик даражасига кўра (янги терминлар луғатлари) [Лейчик, 2006: 206].

Ўзбек тилшунослигида эса терминологик луғатларнинг 3 турли эканлиги қайд этилади:

1. Икки тилли атама луғатлари
2. Кўп тилли атама луғатлари
3. Изоҳли ёки ярим изоҳли атама луғатлари [Ўзбек тили атамашунослиги, 1990: 23].

Мазкур тасниф ўзбек тилида яратилган терминологик луғатларнинг барчасини уларнинг фарқли белгилари бўйича қамраб олган деб бўлмайди. Ҳозирга қадар турли илмий-техникавий ва фан соҳаларига оид тузилган терминологик луғатлардаги луғат бирликларининг қамрови, мақсад ва вазифаси, тавсиф усули турличалигига кўра кенгроқ таснифлашни тақозо этади.

Ҳозиргача ўзбек тилида терминологик луғатлар қуйидаги кўринишларда яратилганлигини кузатиш мумкин:

<table>
<tr><td colspan="6">Терминлар берилган тиллар миқдорига кўра</td></tr>
<tr><td colspan="2">бир тилли</td><td colspan="2">икки тилли</td><td colspan="2">кўп тилли</td></tr>
<tr><td>изоҳли</td><td>сўзлик</td><td>изоҳли</td><td>изоҳсиз</td><td>изоҳли</td><td>изоҳсиз</td></tr>
<tr><td colspan="6">Терминларнинг жойлаштирилишига кўра</td></tr>
<tr><td colspan="2">алифбо тартибли</td><td colspan="2">аралаш (алифбо-уяли)</td><td colspan="2">идеографик</td></tr>
<tr><td colspan="6">Тақдим этилган соҳа ёки фан соҳалари бўйича</td></tr>
<tr><td colspan="3">соҳавий</td><td colspan="2">тор соҳавий</td><td>кўп соҳавий</td></tr>
<tr><td colspan="6">Мақсад ва вазифасига кўра</td></tr>
<tr><td>меъёрий</td><td>ўқув</td><td>маълумот берувчи</td><td colspan="2">рўйхатлаштирувчи (инвентаризацион)</td><td>иллюстратив</td></tr>
<tr><td colspan="6">Тавсифлаш усулига кўра</td></tr>
<tr><td colspan="2">изоҳли</td><td colspan="2">энциклопедик</td><td>аралаш (қисқа изоҳ ва энциклопедик тавсиф)</td><td>изоҳли таржима</td></tr>
</table>

Сўзлик ҳажмига кўра		
мукаммал	ўртача	қисқача
Танланган бирликлар характерига кўра		
термин луғатлари	терминэлементлар луғатлари	номенклатур бирликлар луғатлари
Луғатнинг шакли		
қоғоз луғатлар	электрон луғатлар	
Терминнинг меъёрийлигига кўра		
норматив (меъёрий)	тавсиявий	
Терминнинг замонавийлиги бўйича		
қўлланишдаги	янги	тарихий

Ҳозиргача нашр этилган терминологик луғатларнинг кўпчилиги изоҳли-таржима, таржима-энциклопедик, алфавит-уяли тарзида аралаш (комплекс) луғат хусусиятини намоён этиши, асосан ўқув мақсадларига хизмат қилишини таъкидламоқ жоиз. Айниқса, аксарият луғатлар талабалар учун мўлжалланган бўлиб, турли олий ўқув юрти мутахассис ўқитувчилари томонидан яратилган.

Луғат қанчалик мукаммал бўлса, шу фанни ўзлаштириш шунчалик осонлашади, чунки луғат ўз фанининг калитидир. Шу билан бирга, терминологик тизимлар ва шу тизимлар терминологик луғатларининг мукаммал бўлиши кўп жиҳатдан турли соҳа мутахассисларининг тилшунослар билан илмий ҳамкорлигига боғлиқдир.

АДАБИЁТЛАР

1. Дубичинский В.В. Теоретическая и практическая лексикография. Вена –Харьков 1998.
2. Комарова З.И. Семантическая структура специального слова и ее лексикографическое описание. Свердловск : Изд-во Урал. ун-та, 1991.
3. Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. М.: КомКнига, 2006.
4. Мадвалиев А. Термин – терминологик луғат – изоҳли луғат // Ўзбек тили ва адабиёти. − Тошкент, 2008. − № 6.
5. Ўзбек тили атамашунослиги. Ахборот 3 ва 4-чиқиш. Тошкент, Фан, 1990. 23-бет.

МИНЕРАЛОГИЯ ТЕРМИНЛАРИДА ОМОНИМИЯ

Эрназарова Гулноза МУРОДОВНА,
Навоий давлат педагогика институти Ўзбек тилшунослиги кафедраси катта ўқитувчиси, ф.ф.ф.д (PhD)

Аннотация*: Мазкур мақолада ўзбек тили минералогия терминларининг бошқа соҳаларда қўлланувчи терминлар билан шаклан тенг келиши натижасида соҳавий омонимиянинг юзага келиши мисоллар асосида ёритиб берилган*

Калит сўзлар*: терминологик тизим, минералогия терминлари, лексик-семантик гуруҳ, омонимия, соҳалараро омонимлик, дефиниция, ўзлашма терминлар.*

Минералогия терминлари бошқа соҳаларда қўлланувчи терминлар билан шаклан тенг келиши натижасида соҳавий омонимия юзага келади.

Терминологик тизимларда соҳалараро омонимлик кўп кузатилади. Омоним терминлар икки ёки ундан ортиқ терминологик соҳаларда турли тушунчалар номини англатади. Иккиламчи номлаш турли терминологик тизимда турли дефинициядга эга

терминларнинг шаклланишига олиб келар экан, баъзан бундай номлаш бир-биридан узоқ соҳаларда ҳам намоён бўлиши мумкин[50]. Масалан, минералогия ва кимё терминологияси қиёсланганда уларда шаклан бир хил бўлган қуйидаги терминлар аниқланди:

кимё соҳасида *олтин* (Aurum), Аи – Менделеев даврий системасининг I гуруҳига мансуб кимёвий элемент; минералогияда эса *олтин* – минерал;

кимёда *темир* (лот. Ferrum), Fe–Менделеев даврий системасининг VIII гуруҳига мансуб кимёвий элемент, минералогияда эса *темир* – минерал, Fe билан Ni нинг аралашмаси.

Соҳалараро омонимлик минералогия ва ботаникада қўлланиладиган терминларда ҳам юзага келган:

минерологияда *олмос* I [*m.* + *а* – қимматбаҳо тош <*юн. adamas* – бузилмас, мустаҳкам] шаффоф, ялтироқ соф углероддан иборат ўта қаттиқ, қимматбаҳо тошни англатади (тарашлаб, маълум шаклга келтирилгани “бриллиант” деб аталади); ботаникада эса *олмос* II Заҳарли, сариқ гулли ёввойи ўт, олмос ўт[51];

минерологияда *зумрад* I [*ф.* < *юн.* smaragdos –сабзаранг тош] 1 Олий сифатли, оч яшил тусли қимматбаҳо тошни билдиради; ботаникада *зумрад* II кечпишар ширин қалампир навидир[52].

Минерология ва анатомия соҳаларидаги омоним терминлар:

минерологияда *дендрит* I – Бирор бир минералнинг тўлиқ ривожланган, дарахтсимон тармоқланган кристалларни англатади; анатомияда эса *дендрит* II [*юн.*dendron– дарахт] нерв ҳужайрасининг дарахтсимон тармоқланган ўсимтасидир, у бошқа нерв ҳужайраларидан нерв турткиларини қабул қилиб олади[53].

Бундай омонимлик минералогия ва медицина терминологиясида ҳам учрайди.

Медицинада буйракнинг, энг аввало, буйрак тугунчаларининг яллиғланишини *нефрит* I [*юн. nephros– буйрак*] термини билан ифодаланади. Минералогияда эса *нефрит* термини “яшил ёки оқ рангли тиғиз кристалл минерал” (нефритнинг майда тошлари буйрак шаклида бўлганлигидан ушбу минерал шундай аталган) маъносини ифодалайди.

Минералогия соҳасида оқ, кулранг ёки сарғиш рангли минерал, кальций сульфат (пиширилиб, кукун ҳолига келтирилган *гипс* қурилиш материали сифатида ишлатилади) *гипс* [*юн.* gypsos – бўр, оҳак] термини билан аталади; медицинада *гипс* чиққан, синган аъзони қимирламайдиган қилиб, тахтакачлаб қўйиш учун шу материалдан қўйилган боғлама маъносида қўлланилади[54].

Медицинада *мумиё* I [*а*] физиологик функцияларни кучайтирадиган мураккаб биологик табиий маҳсулот; қояларнинг ёриқларидан сизиб чиқадиган смоласимон модда (Шарқ табобатида асосан синган суякларнинг битишини тезлатиш, меъда яраси ва ташқи нерв фалажини даволаш учун тавсия этилади)ни англатади; минералогияда *мумиё* II [*а*] сувсиз темир оксидидан иборат, кўпинча қизғиш-қўнғир рангли минерал бўёқни билдиради[55].

---

[50]Шаропова Р. Ўзбек тили ижтимоий-сиёсий терминларининг семантик-структур хусусиятлари ва лексикографик талқини. Филол. фан. бўйича фалс. док. (PhD) дисс. ... автореф. – Қарши, 2019. – Б. 17.

[51]Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 665.

[52] Ўша манба. – Б. 165.

[53]Ўша манба. – Б. 597 .

[54]Ўша манба. – Б. 504 .

[55]Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси“ Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 237.

Минерология терминларининг бошқа терминлар билан омонимлиги уларнинг ўзлашмалар билан шаклан тенг келиб қолишида ҳам кузатилади. Масалан, *минерал* I [*фр.* mineral < *лот*. minera – руда, қазилма кон] ер қобиғи таркибида учрайдиган табиий кимёвий бирикма ёки элемент ҳисобланади. *Минерал* II [*русча минералный*] сифат бўлиб, "табиий кимёвий бирикма ёки элементларга оид, шундай элемент ёки бирикмалардан иборат бўлган, таркибида шундай элемент ёки бирикмалар бор" маъносини англатади. *Минерал тузлар. Минерал ўғит. Минерал сув ва ҳ.к*[56].

Сир I [*а.– махфий нарса, яширин иш ёки гап; қалб, кўнгил*] 1 Ўзгалардан махфий тутилган ёки ўзгаларга номаълум бўлган бирор иш, гап, нарса ва б. *Ҳарбий сир. Юракдаги сир. Сир сақламоқ.*

Сир II 1 Ялтироқ минерал ёки мойбўёқ. *Унинг (мачитнинг) баланд ва сири кўчиб кетган эски устунли айвонида уч-туртта намозхон ўтиришибди.* П.Турсун Ўқитувчи.

Сир III [*р. Сырой– ҳўл, нам; хом, пишмаган*] айн. пишлоқ. *Аёл сумкасидан сир ва колбаса олиб (Олимжон ва Манзурани) меҳмон қилди.*

А. Мираҳмедов Кулган чечаклар[57].

Юқоридаги мисолларда *сир* арабча, ўзбекча ва русча сўзларнинг шаклан тенг келиши натижасида ҳосил бўлиши кузатилади.

Туз I *ким.* Молекулалари таркибига кислота қолдиғи билан боғланган металл атомлари кирган мураккаб моддалар. *Туз организининг тузилиши учун, унда модда алмашинишининг тўғри бориши учун зарурдир.*

Н.Исмоилов, Касалларни парвариш қилиш. *Тупроқ шўрланиши жараёнида кўпроқ хлор ва сулфат тузлари тўпланади.* "Фан ва турмуш".

Туз II 1 Текис ер, кенг текислик. *Туганмас конимиздир тоғ билан туз.* Ҳабибий. *Йўл юрамиз қумлоқ, сувсиз тузларга..* "Ҳасанхон".

2 Фойдаланилмай ётган ер, бўз ер, қўриқ. *На қилт этган бир шамол, На уйғоқдир дала, туз. Шуҳрат.*

Туз III (р) *карт.* 1 Ўйин турига қараб энг катта ёки бир очко (бир хол) қийматга эга бўладиган карта. *Кузир туз. Ғиштин туз. Валетни туз билан босмоқ.* 2 (эгалик аффикси билан) кўчма Бирор нарсанинг энг сараси, энг юқори даражалиси, олий мақомлиси. *Аёллар орасида суҳбатнинг "туз"и қурилиш эди.* Ойбек, О.в. шабадалар. *Мен айтмоқчиманки, тўртала тузнинг ҳаммаси ўзингизда.* А. Мухтор, Туғилиш[58].

Юқоридаги мисолларда ўз қатламга мансуб *туз* минералогия термини ўз қатламга ва русча ўзлашма қатламга мансуб сўзлар билан шаклан тенг келиши натижасида омонимия юзага келади.

Минерология терминларининг бошқа терминлар билан омонимлиги муайян бир тилдан ўзлашган сўзлар орасида ҳам кузатилади. Масалан, *рух* I [*ф.* – тўра, рух] шахмат ўйинида тахтанинг икки четки катакларда жойлашадиган ва тикка ҳамда ёнлама йўналишда истаганча юра оладиган сипоҳ; тўра ҳисобланади. *Шаҳ ёнин фарзин киби кажлар мақом этмиш не тонг, Ростравлар арсадин гар тутсалар рухдек қироқ.* Навоий. *Рух* II [*ф.* – юз, бет; ёноқ] эск. поэт. "кишининг юзи, рухсор" маъносини англатади. *Лабларинг остидаги холингдан айлансун қулинг, Лоладек гул-гул рухи олингдин айлансун қулинг.* Фурқат. ***Рух*** III [*ф.* – рух; қалай, бронза, сариқ мис] эса Менделеев даврий системасининг II гуруҳига мансуб кимёвий элемент; оч зангори

[56]Ўша манба. – Б. 596.
[57] Ўша манба. – Б. 520.
[58] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4- жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 179.

рангли, кумуш каби ялтироқ металлни билдиради. *Рух купороси. Рух қотишмалари*[59] каби. Тилимизга форс тилидан ўзлашган юқоридаги дастлабки мисолда *рух* шахмат донаси, иккинчи мисолда инсоннинг юзи, охирги мисолда эса *қалай*, *бронза*, яъни минерал модда маъносини ифодалаган.

Ёқут арабча ўзлашма минералогия терминининг туркий миллатга мансуб халқ номи билан шаклан тенг келиши натижасида омонимия ҳодисаси рўй бериши кузатилади. Масалан, ***ёқут*** I [*а.* – турли рангли қимматбаҳо тош] 1 *от* Турли рангда товланадиган тиниқ қимматбаҳо минерал. *Аниқ, тож гарчи ёқут, гарчи зардур, Халойиқ бошига битган зарардур.* Уйғун ва И.Султон, Алишер Навоий.

ёқут II [<якут] халқ номи; шу халққа мансуб киши. Ёқут тили. Ёқут адабиёти[60].

Терминларнинг нутқда кўчма маъноларда қўлланиши натижасида ҳам омонимия ҳодисаси рўй бериши кузатилади. Масалан:

Сим I [*ф.* – металл чивиқ, ип; кумуш] 1.Ип, чилвир, чивиқ кўринишдаги узун металл буюм. *Пўлат сим. Мис сим. Йўғон сим. Ингичка сим. Сим тўр. Сим ғов.* [*Ҳожар:*] *Нима? Оғзингизни ёпинг! Молхонага сим билан тортиб қўяман, остонадан ўлиги чиқади.* Хамза. Паранжи сирлари. ***Сим*** **II** кт. айн. **сийм** *Хазинанинг сийму зарга эҳтиёжи не даражада!* Ойбек, Навоий[61].

Юқоридаги биринчи мисолда *сим* сўзи чивиқ, ип ва кумуш маъноларини англатган, чунки бу каби ашёлар кумушдан ясалган. Бунда алоқадорлик, яъни метонимия асосида маъно кўчиши рўй берган ва кейинчалик маънолар ўртасида боғлиқлик йўқолиб, сийм минералогия терминининг фонетик варианти *сим* сўзи билан омонимлик ҳолати юзага келиши кузатилади.

Хром **I** [юн. chroma – ранг, бўёқ] 1Менделеев даврий системасининг VI гуруҳига мансуб кимёвий элемент (минерал); зангори – кумуш тусли, қийин эрийдиган қаттиқ металл (кўпгина қотишмаларнинг зарурий компоненти). Хром кислотаси. Хром Ер пўстинингмасса жиҳатидан 0,035% ини ташкил этади. ***Хром*** **II** Хром тузлари билан ишлов бериб тайёрланган юмшоқ, юзаси тўрсимон нақшли, ялтироқ юпқа тери. [Баширжон] “Қизил этик ҳозир мода эмас, – деб ўйлади. –Қора хромдан тиктириш керак”. Н.Аминов, Қаҳқаҳа[62]. Юқоридаги мисолларда ҳам омонимия ҳодисаси кўп маъноли сўзнинг алоқадорлик, боғлиқлик маънолари ўртасида ўзилиш натижасида юзага келган. Дастлабки мисол *хром* минерали маъносида қўлланган бўлса, кейинги мисол *хром* минерали билан ишлов берилган тери маъносида қўлланган.

Хуллас, минералогия терминлари бошқа соҳаларда қўлланувчи терминлар билан шаклан тенг келиши каби омилларга кўра шаклий ва маъновий муносабатларни – омонимияни намоён этади.

[59]Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси“ Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б. 399.

[60] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1- жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси“ Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 56.

[61]Ўша манба. – Б. 505.

[62] Ўша манба. – Б. 418.

ЛИНГВОМАЪНАВИЯТШУНОСЛИК ВА УНИНГ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Фаррух ЮЛДАШЕВ,
НавДПИ Ўзбек тилшунослиги кафедраси, ф.ф.ф.д.

Ҳар бир шахснинг маънавий юксалишида миллат тилининг аҳамияти беқиёс. Зотан, маънавиятда миллатнинг ақлий салоҳияти, инсонларнинг маънавий фазилатлари, халқнинг дунёқараши акс этади. Албатта, бу салоҳият, дунёқараш, фазилат асрлар давомида шаклланиб, тараққий этиб миллатнинг диний ва дунёвий тажрибасини ўзида жамлайди.

Миллий қарашлар ва миллий турмуш тарзимиз ҳақидаги фаолиятимиз мустақиллик йиллари ўқув адабиётларида, қомус ва луғатларида, умуман, ижтимоий ҳаётда қайта ёритила бошлади. Бироқ бу жуда кўп ҳолларда, назарий жиҳатдан "гуркураб", амалиётда унинг тадбиқига кўп эътибор қаратилмади, яъни фаол ижтимоийлашмади.

Бугунги глобаллашув даврида маънавият масаласи ҳар қачонгидан ҳам зарур. Зеро шиддат билан ўзгараётган замонда инсонпарварлик, меҳр-оқибат, адолат тушунчалари инсонийликнинг юксак муносабатларни сақлаб қолишга, "инсон" тушунчасини асраб қолишга бош омил бўлиб хизмат қилади. Шундай экан биз, аввало, "маънавият" тушунчасини илмий томондан аниқ ва холис ёритишни мақсад қилиб олишимиз даркор. Бунинг учун тилшунослик олдида қуйидаги вазифалар турибди. Бу борада тилимиз Лингвомаънавиятшунослик бўлимига эҳтиёж сезади.

Лингвомаънавиятшунослик йўналишининг бош мақсади – юксак маънавиятли шахс тарбиясига хизмат қиладиган илмий-амалий механизм учун муайян лингвистик таъминотни вужудга келтириш. Бугунги кунда маънавий-маърифий фаолиятимизда кутилган натижаларга эришилмаётганининг сабабларидан бири ҳам ушбу махсус лингвистик базанинг шакллантирилмаганидир[63]. Бунга сабаб:

биринчидан, маънавиятга оид тадқиқотлар жуда тор соҳаларни (фалсафа ва маънавиятшунослик фанларидагина) қамраб олди ва фан хусусиятидан келиб чиқиб ёритилди. Ҳатто, маънавият мавзуси билан бевосита боғлиқ бўлган тилшуносликка оид тадқиқотларга умуман эътибор қаратилмади, натижада маънавиятни такомиллаштирадиган тизим яратилмади. Зотан, маънавият тилшуносликка энг яқин соҳадир.

иккинчидан, иқтисод, сиёсат ва бошқа йўналишдаги тизимли бошқарувлар тараққиёти қаторида маънавият лингвистик таҳлили тизимига айланмади. Бу эса маънавиятнинг меъёрий характерларини билмасликка олиб кела бошлади. Аслида, маънавият барча соҳа тараққиётининг "ҳомий"си бўлиши зарур эди.

учинчидан, маънавият масаласи ихтисослашиб, бир томондан таҳлиллар гирдобида қолиб кетди. Маънавий-маърифий амалиёт эса фақат "қоғозлар" уммонига чўкди.

Бугунги кунда ушбу йўналишнинг муаммоларини, "маънавият" категориясининг тил тизимидаги ўрнини аниқламасдан туриб маънавий-маърифий ишларни яхлит тизим сифатида идрок этиш мумкин эмас. Шу боисдан бугунги кунда тилшунослигимизда лингвомаънавиятшунослик йўналишида бу борада дастлабки қадамлар қўйилмоқда.

---

[63] Менглиев Б.Р. Тил бағридаги маънавият: лингвомаънавиятшунослик ва унинг истиқболлари ҳақида // "Маърифат" газетаси, 2018 йил,25- апрель,33-сон.

Дастлабки тадқиқотлар натижасида тадқиқотчи Фаррух Юлдашев томонидан “Ўзбек тилининг “маънавият” лексик-семантик категорияси “эътиқод” маъновий гуруҳи атов бирликлари тизими”[64] мавзусидаги диссертациясини оммага ҳавола этди. Бунинг натижасида ёш авлод онгида миллий эътиқодни юксалтиришга хизмат қиладиган “эътиқод” умумий маъноли сўзларнинг таянч лингвистик базаси шакллантирилди.

Тадқиқотчи Тожиева Гулбаҳор томонидан “Ўзбек тили маънавий-маърифий лексикасининг мустақиллик йилларидаги тараққиёти («миллий ғоя» атов бирликлари тизими)[65]” мавзусидаги диссертациясини амалга оширди. Ўзбек миллий тафаккури учун миллий ғоя илмий нуқтаи назардан маълум маънода янги реал ва объектив воқелик бўлиб, уларнинг кўпчилиги ўзбек лисоний онгидан янги тушунча бўлиб кириб келди.

Лингвомаънавиятшунослик йўналишида тадқиқотчимиз Аҳмедова Меҳринигор томонидан илк бора ўзбек ва инглиз тили мисолида “Ўзбек тилидаги “маънавият” ва инглиз тилидаги “spirituality” умумий семали атов бирликлари типологияси”[66] мавзусидаги диссертацияси қиёсий ўрганилди. Бу мавзу орқали ўзбек ва инглиз миллий лисоний тасвирида “маънавият” тушунчасига ёндашиш ҳолатини шарҳланди, ўзбек ва инглиз тилидаги “маънавият” умумий маъноли атов бирликларининг ўзаро таржимаси ҳамда лексикографик талқини муаммоларини ўрганилди, ўзбек ва инглиз тилидаги “маънавият” умумий маъноли бирликларининг таржима луғати яратилди. Бу илмий изланишлар ушбу йўналишни тўла очишга етарли манба эмас, бироқ ушбу концепсиянинг моҳиятини очишга ҳизмат қилади. Лингвомаънавиятшунослик бўлими олдига ҳали қилинадиган ишлар бир талай. Шундай экан биз, аввало, “маънавият” тушунчасини лингвистик томондан аниқ ва холис ёритишни мақсад қилиб олишимиз даркор. Бунинг учун тилшунослик олдида қуйидаги вазифалар турибди.

1. Маънавиятни тилшунослик фани билан узвий равишда ўрганиш ва тил ва маънавият муштараклиги муаммосининг тилшуносликда ечиладиган хусусий ва умумий масалаларини лингвистик йўналишда тизимли ҳал этиш.

2. “Маънавият” категориясининг моҳияти, тузилиши, таркибий қисмлари ва элементлари, улар орасидаги муносабатларни аниқлаш, “маънавият” категориясига тегишли сўз, ибора, мақолларнинг миллий маънавиятимизга оид лисоний маънолари ёритиш.

3. “Маънавият” категориясига оид сўзларни луғатларда бериш муаммоси, луғатлардаги сўзларни изоҳлаш, такомиллаштириш муаммолари, маънавиятга тегишли луғатларини ва қомусларини тузиш масалалари, ушбу категориянинг ўзбек тилининг миллий корпусларда жойлаштириш масалалари турибди.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, Лингвомаънавиятшунослик соф миллий йўналиш, яъни унинг бошқа тилда кўринишлари, айнан муқобили йўқ. Бу бўлим тақлиддан ҳоли бўлган маънавият феномени ҳисобланади.

---

[64] Юлдашев Ф. Ўзбек тилининг “маънавият” лексик-семантик категорияси “эътиқод” маъновий гуруҳи атов бирликлари тизими”: Филол. фан. бўйича фалс. .докт.(PhD)... дисс. автореф. – Термиз, 2021. – 17 б.

[65] Тожиева Г. Ўзбек тили маънавий-маърифий лексикасининг мустақиллик йиллардаги тараққиёти (“миллий ғоя” атов бирликлари): Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD)... дисс. автореф. – Самарқанд, 2017. – 7-8 б.

[66] М.Ахмедова. “Ўзбек тилидаги “маънавият” ва инглиз тилидаги “spirituality” умумий семали атов бирликлари типологияси”: Филол. фан. бўйича фалс. .докт.(PhD)... дисс. автореф. – Бухоро, 2019. – 7 б.

NUTQI BUZILGAN BOLALARDA KOGNITIV FUNKSIYALARNI RIVOJLANTIRUVCHI OMILLAR

Nasiba YARASHOVA,
NavDPI instituti doktoranti, f.f.f.d. (PhD)

Nutq faoliyati inson ongining barcha jihatlari bilan chambarchas bog‘liq. Nutq inson aqliy rivojlanishining kuchli omili, uni shaxs sifatida shakllantiradi. Nutqning ta’siri ostida ong va o‘z-o‘zini anglash, qarashlar, e’tiqodlar, intellektual, axloqiy va estetik his-tuyg‘ular shakllanadi. Nutq yordamida barcha psixologik jarayonlar boshqariladi.

Tushuncha inson aqliy faoliyatining eng yuqori darajasi, ijtimoiy va ma’naviy mavjudot sifatida uning obyektiv qonunlarini bilish bilan dunyoga bo‘lgan munosabatdir. Ong esa bilim bilan hayot o‘rtasidagi ko‘prikdir.

Nutqi buzilgan ko‘plab bolalar uchun bilim jarayonlarining yetarli darajada emasligi, hissiy va nutq ma’lumotlarini qabul qilish hamda qayta ishlashning buzilishi, sekinlashishi xarakterlidir.

E.M.Mastyukovaning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, nutqi buzilgan bolalarning klinik va psixologik-pedagogik tekshiruvi kamdan-kam hollarda nutq nuqsoni va aqliy qobiliyatining pastligi tufayli, umuman olganda, kognitiv faoliyatning xarakterli buzilishlarini aniqlamaydi. Bolaning barcha aqliy jarayonlari – xotira, e’tibor, tasavvur, fikrlash, maqsadli xatti-harakatlar nutqning bevosita ishtiroki bilan rivojlanadi (L.Vigotskiy, A.R.Luriya, A.Zaporojes va boshqalar).

Nutqni bola aqliy rivojlanishining boshqa tomonlari bilan bog‘lash prinsipi 1936-yil R.E.Levine tomonidan ilgari surilgan. U asosiy nutq nuqsoni tabiatiga bog‘liq bo‘lgan ikkinchi darajali kechikish sifatida nutq buzilishlarida kognitiv faoliyatni rivojlantirishda sapmalarni ko‘rib chiqdi. Bu nuqtai nazar ko‘plab mahalliy tadqiqotchilarning asarlarida aks ettirilgan (Vlasov 1972, V.Lubovskiy 1975, L.S.Tsvetkova 1985, I.T.Vlasenko 1990 va boshqalar).

Nutqi buzilgan holda nutq va kognitiv jarayonlarning rivojlanmaganligi o‘rtasidagi munosabatni baholashda yana bir yondashuv E.Mastyukovaga tegishli bo‘lib, u bu masalani turli xil shakllar bilan ajralib turishi kerak, deb hisoblaydi. Ularning har biri Markaziy asab tizimining organik va funksional yetishmovchiligining zo‘ravonligi va joylashuviga bog‘liq bo‘lgan bilim sohasining shakllanmaganligi bilan mos kelishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalar aqliy rivojlanishining turli jihatlariga e’tibor uning kelajakdagi ta’lim faoliyati bilan bog‘liq. Nutq kam rivojlangan jamoalardagi bolada barcha aqliy jarayonlarning rivojlanishining sifatli o‘ziga xosligi bor. E.Mastyukova o‘z tadqiqotlarida “rasmiy ravishda saqlanib qolgan aql-zakovatga ega bo‘lgan ko‘plab bolalarda ta’lim qiyinchiliklari, aqliy rivojlanishning notekis bo‘lmagan noqulayligi bor. Maktabgacha tarbiyachilar ruhiy funksiyalarni rivojlantirish bilan nutq buzilishlarining yaqin aloqalarini kuzatadilar.

E’tibor – inson ongini muayyan obyektlarga yo‘naltirish, markazlashtirish. Ko‘pgina mualliflar bolalarda kam qarshilik, e’tibor miqdori, uni taqsimlashning cheklangan imkoniyatlari (P.E.Levin, T.B.Filicheva, G.V.Chirkina, A.V.Yastrebov) xususida batafsil to‘xtalib o‘tishgan. Shuni ta’kidlash kerakki, R.E.Levin nutqning umumiy rivojlanmaganligi sabablaridan biri sifatida e’tiborning buzilishini aytib o‘tadi. O‘zboshimchalik bilan e’tiborning past darajasi ularning faoliyat tuzilmasini buzmasligi yoki sezilarli darajada buzilishiga olib keladi. Ushbu qoidabuzarliklar quyidagicha ifodalanadi:

- bolalar faoliyat jarayonida tezda charchashadi, samaradorlik, tezlik tez tushadi;

- maktabgacha tarbiyachilar o‘z harakatlarini rejalashtirishda, turli vazifalarni hal qilishda yo‘l va vositalarni topishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, ish davomida xato qilishadi (xatolar tabiati va ularning vaqt taqsimoti normadan sifat jihatidan farq qiladi);

- bolalar uchun nutq va amaliy harakatlar o‘rtasidagi e’tiborni taqsimlash qiyin, ba’zan mumkin bo‘lmagan vazifadir;

- faoliyatni nazorat qilishning barcha turlari (proaktiv, joriy va keyingi) ko‘pincha shakllanmagan yoki sezilarli darajada buzilgan.

Nutqning kam rivojlanishidagi bolalarda o‘zboshimchalik bilan e’tiborning xususiyatlari chalg‘ituvchi tabiatda aniq namoyon bo‘ladi. Misol uchun, agar faoliyat jarayonida nutqni rivojlantirish normasi bo‘lgan bolalar uchun eksperimentatorga yo‘naltirilgan tendensiya xarakterli bo‘lsa, bolalar eksperiment markaziga qarashadi va uning reaksiyasini to‘g‘ri yoki yo‘qligini aniqlashga harakat qilishadi.

Xotira - o‘tgan tajribani aks ettirish yoki biror narsani muhrlash, saqlash va ko‘paytirish. Xotira-maktabgacha yoshdagi bolalar uchun muhim bo‘lgan yetakchi aqliy jarayonlardan biri bo‘lib, intellektual rivojlanish uchun olingan ma’lumotlarning izlarini saqlab qolishdir. P.P.Blonskiyning fikriga ko‘ra, bolalar birinchi marta eslab, keyin eslab qolgan materiallarni tahlil qilishadi, ya’ni bu yoshda xotira fikrlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Nutqi buzilgan bolalarda nisbatan xavfsiz semantik, mantiqiy xotira bilan eshitish xotirasi va xotirlash samaradorligi an’anaviy gapiradigan bolalarga nisbatan sezilarli darajada kamayadi. Bolalar ko‘pincha murakkab ko‘rsatmalarni unutishadi (uch yoki to‘rt bosqichli, ba’zi elementlarini pastga tushiradilar va tavsiya etilgan vazifalar ketma-ketligini o‘zgartiradilar. Nutqi buzilgan bolalarda og‘zaki ogohlantirishlarni eslab qolish nutq patologiyasisiz bolalarga qaraganda ancha yomonroqdir. Nutqi buzilgan barcha bolalarda idrokning buzilishi kuzatiladi:

- idrokning yaxlitligini buzish;

- hissiy standartlar bilan bog‘liq qiyinchiliklar;

- tananing o‘z sxemasi idrokini buzish;

- vaqtinchalik-mekansal yo‘nalishlarni buzish.

Ko‘pgina mualliflarning fikriga ko‘ra, e’tiborning noaniqligi maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’limdan voz kechishiga olib keladigan sabablar qatorida birinchi o‘rinlardan biri hisoblanadi.

Tasavvurning rivojlanishini kuzatish bu funksiyaning nutqning rivojlanishiga bog‘liqligini aniqladi. Nutqning rivojlanishidagi kechikish tasavvurning rivojlanishini kechiktiradi. Bolalarda tasavvurning o‘ziga xos xususiyatlari haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Tasavvurning samarali faoliyati darajasida ushbu toifadagi bolalar odatdagidek rivojlanayotgan tengdoshlardan orqada bo‘ladi:

- tasavvur jarayonlarining tez kamayishi;

- markalardan foydalanish, monotonlik;

- ishga kirish uchun juda ko‘p vaqt talab etiladi, ish jarayonida pauzalar davomiyligining ortishi kuzatiladi;

- faoliyatning kamayishi.

Natijada, nutqning kam rivojlanishi (kambag‘al lug‘at, so‘zlashuv nutqining shakllanmaganligi, ko‘plab agrammatizmlar va boshqalar) ijodiy tasavvurni rivojlantirishda kechikish bilan birga bolalarning so‘zlashuviga jiddiy to‘siqdir.

Fikrlash - bu tilning (nutqning) majburiy ishtiroki bilan tahlil qilish va sintez jarayonida haqiqatning umumlashtirilgan va bilvosita aks ettirilishining eng yuqori ruhiy jarayonidir. Nutq va fikrlashning bevosita aloqasi (nutqning fikrlash funksiyasi) o‘rnatilgan.

Nutq nafaqat fikrlash bilan, balki umuman ong bilan ham bog‘liq. Fikrlash operatsiyalarini o‘zlashtirishning to‘liq shartlari bilan bolalar og‘zaki va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda orqada qoladilar. Taqqoslash, tahlil qilish, sintez operatsiyalarini o‘rganish qiyin. Ko‘pgina bolalar fikrlashning qat’iyligi bilan ajralib turadi. Nutqi kam rivojlangan bolalarda olib borilgan tadqiqotlar va fikrlash natijalari bilimdagi kamchiliklardan va ko‘pincha o‘z-o‘zini tashkil etishning buzilishidan ta’sirlanadi. (V.A.Kovshikov, A.Elkin) ular atrofdagi haqiqat, obyektlarning xususiyatlari haqida yetarli darajada ma’lumotga ega emaslar, muqaddas hodisalarning sabablarini aniqlashda qiyinchiliklar mavjud. Eksperimental tadqiqotlar (T.D.Barmenkova) mantiqiy operatsiyalarni shakllantirish darajasida og‘zaki nutqi rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalar odatda rivojlanayotgan tengdoshlaridan ancha orqada qolayotganligini tasdiqlaydi. Tadqiqotlar natijasida muallif og‘zaki nutqi rivojlanmagan to‘rtta guruhni mantiqiy operatsiyalarni shakllantirish darajasiga qarab ajratishga muvaffaq bo‘ldi.

1-guruhga mansub bolalarda:

- oddiy nutqni rivojlantirishga ega bo‘lgan bolalar ko‘rsatkichlariga mos keladigan og‘zaki bo‘lmagan va og‘zaki mantiqiy operatsiyalarni shakllantirishning juda yuqori darajasi;
- kognitiv faoliyatning yuqori darajasi;
- bolalarning maqsadli faoliyati barqaror va rejalashtirilgan.

2-guruhga mansub bolalarda:

- mantiqiy operatsiyalarni yosh normasidan past darajada shakllantirish darajasi;
- nutq faoliyati kamayadi, bolalar og‘zaki ko‘rsatmalar olishda qiyinchiliklarga duch kelishadi;
- qisqa muddatli xotiraning cheklangan miqdori bor, og‘zaki ketma-ketlikni saqlab bo‘lmaydi.

3-guruhga aloqador bolalarda:

- og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan vazifalarni bajarishda maqsadli faoliyat buzilgan;
- ular diqqat yetishmasligi bilan ajralib turadi;
- kognitiv faoliyatning past darajasi;
- atrof-muhit haqidagi fikrlarning past hajmi;
- sabab-ta’sir munosabatlarini o‘rnatishda qiyinchiliklar.

Biroq, agar nutq terapevtiga yordam berilsa, bolalar mavhum tushunchalarni o‘rganish uchun potensial imkoniyatlarga ega bo‘ladi.

4-guruhga kirgan maktabgacha tarbiyachilar uchun:

- mantiqiy operatsiyalarning kam rivojlanganligi bilan ajralib turadi, bolalarning mantiqiy faoliyati o‘ta beqarorlik, rejalashtirishning yo‘qligi bilan ajralib turadi;
- kognitiv faoliyat past;
- vazifalarni to‘g‘ri bajarish ustidan nazorat yo‘q

Biz inson ruhining eng yuqori funksiyasi bilan shug‘ullanmoqdamiz. Boshqacha aytganda. Nutqni shakllantirish orqali biz ongni shakllantiramiz. Bu shuni ko‘rsatadiki, aqliy rivojlanishning aniq baholanishi mumkin emas. Har bir bola noyobdir va ularning har biri yosh mezonlari doirasida aqliy rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatiga ega. Agar har bir bolaga katta e’tibor berilsa, tuzatish ishlari har doim ijobiy natija beradi.

СОМАТИК ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАРНИНГ УСЛУБИЙ ИМКОНИЯТЛАРИ (“ҚЎЛ” КОМПОНЕНТЛИ ИБОРАЛАР МИСОЛИДА)

Рашидова Умида МАНСУРОВНА,
доцент, филология фанлари бўйича фалсафа доктори,
Самарқанд давлат университети,

Ўзбек тилшунослигида ибораларнинг услубий функцияларини ўрганиш соҳасида муайян ютуқларга эришилди. Бу жиҳатдан И.Қўчқортоев, А.Абдуназаров, Ҳ.Қаҳҳорова, А.Э.Маматов, Б.Йўлдошевларнинг тадқиқотлари диққатга сазовордир. Шунингдек, бадиий асар тили ва услубини тадқиқ этишга бағишланган айрим ишларда ҳам йўл-йўлакай тилнинг бошқа тасвирий воситалари қатори ибораларнинг услубий имкониятлари ҳақида фикр юритилган. Фразеологизмларнинг нутқда қўлланиш усулларини илк бор тизим сифатида ўрганган И.В.Дубинский ҳам «фразеологизмларнинг нутқда қўлланиш усулларини янада аниқроқ, системалироқ таснифини ишлаб чиқиш» зарурлигини таъкидлаган эди[3, Б.17].

Фразеологизмларнинг одатдаги, умумтил қўлланишида унинг шакли ҳам, мазмуни ҳам ўзгармайди. Лекин таниқли ёзувчилар, публицистлар, чинакам сўз усталари фразеологик бирлик (ФБ)ларни ижодий қўллаб, уни «ёшартирадилар», шу асосда ФБнинг услубий самарадорлигини, таъсирчанлик даражасини оширадилар. Ана шундай ҳолларда ФБларнинг услубий имкониятлари бир неча баравар ортади. Акад.Г.Абдураҳмонов таъкидлаганидек, «маълум сўз ёки иборани у ёки бу ўринда ишлатишнинг мувофиқлигини амалда, матнда улуғ ёзувчининг юксак диди пайқай олади» [1, Б.29].

Тилдаги ФБларнинг тараққий этиши ва бойиши, тилнинг бошқа бирликларида бўлганидек фақат фразеологик неологизмларнинг пайдо бўлиши билан эмас, балки мавжуд ибораларнинг семантик, грамматик ва функционал жиҳатдан янгиланиши асосида ҳам содир бўлади. Шунинг учун ФБларнинг ўзгариши, трансформацияси ва шу билан боғлиқ масалалар назарий фразеологияда ҳамда прагматик, стилистик тадқиқотларда муҳим аҳамият касб этади. Проф. Б.Йўлдошев ФБларда юз берадиган барча ўзгаришларни қуйидагича иккига ажратиб ўрганиш мақсадга мувофиқ деб билади: а) ФБларнинг ижодий структур-семантик ўзгаришлари; б) ФБларнинг ижодий-семантик ўзгаришлари [4, Б.125.].

Қуйида биз ўзбек тилидаги айрим соматик ФБларнинг ижодий структур-семантик ўзгартириш усуллари ҳақида сўз юритамиз.

ФБ компонент таркибидаги ўзгариш маълум даражада унинг маъносига ҳам таъсир кўрсатади: бундай ҳолатда ФБ ўз маъносини ўзгартиради ёки қўшимча маъно жилоларига эга бўлади. Бундай ўзгаришлар қаторига ФБ компонентини алмаштириш, ФБни оддий қўлланишдаги сўз билан кенгайтириш, эркин қўлланишдаги сўзни ФБнинг қисми билан бириктириш, ФБнинг образли асосидан фойдаланиш каби бир қатор усуллар киради. Бундай усуллардан ўринли ва мақсадга мувофиқ ҳолда фойдаланиш ФБларнинг матн таркибидаги прагматик имкониятларини кенгайтиришга хизмат қилади.

Масалан, ФБ таркибини алмаштириш маълум нутқий вазият талаби билан рўй беради. Айниқса, турли тарихий даврларга хос сўз-компонентларнинг ибора таркибида ўрин алмашинуви тарихий давр руҳини бериш, персонажлар нутқини индивидуаллаштириш учун муҳим восита бўлиб хизмат қилади. Масалан, эски ўзбек адабий тилида *илик*|| *илки*|| *илги* сўзи *қўл* маъносини ифодалаган[2, Б.26]. Шу билан боғлиқ ҳолда тарихий асарларда *қўлидан иш келмайди, қўлга тушиб қолмоқ, қўлига*

бориб тегмоқ сингари ФБлар персонажлар нутқида қўлланганда *қўл* лексемаси ўзининг тарихий маънодоши *илик|| илки|| илги* сўзи билан алмашинуви ўзини ҳар жиҳатдан оқлайди: - *Хонқулибек, - деб товушини пасайтириб гапира бошлади, беклар бўлмаса подшоҳларнинг* ***илкидан ҳеч иш келмайдир****. Сизга менинг маслаҳатим – Андижонда кўп турманг.* ***Иликка тушиб қолурсиз*** *(П.Қодиров, Юлдузли тунлар); Худодин илтижо қилурменким, бу хат сизнинг* ***илкинглизга бориб етсун****. Биз борғунча пойтахт* ***иликдан чиқмаслиги*** *лозим эди (П.Қодиров, Авлодлар довони)*.

Маълумки, иборалар таркибида ўзлашма сўзлар, ўзбекча сўзларнинг бошқа тиллардаги маънодошлари ҳам қўлланади. Ёзувчи Н.Норқобилов *қўли узун* ибораси таркибидаги *қўл* сўзини унинг форс-тожикча маънодоши *даст* сўзи билан алмаштириб, *дасти узун* иборасини шакллантиради ва уни «Тоғдаги ёлғиз одам» қиссасида бош қаҳрамонлардан бири Ҳамидқул оқсоқолнинг характер-хусусиятини очиб беришда қўллайди: *...Ё ўша кезлари* ***дасти узунлигидан*** *ҳаволаниб, унча мунча одамни менсимай, босар-тусарини билмай қолгани сабабли, худди эркак зоти қуриб қолгандай, қандайдир бир ожизанинг олдида тили қисиқ, боши эгик ҳолда юришини хоҳладимикан? (Н.Норқобилов, Тоғдаги ёлғиз одам).*

Масалан, *беш қўл баравар эмас* ибораси таркибидаги *қўл* сўзи *панжа* сўзи билан ўрин алмашса, ибора семантикасида оғзаки сўзлашув услуби томон силжиш юзага келади. *Панжа* сўзи форсча сўз бўлиб, унинг ёрдамида тилимизда қуйидаги иборалар шаклланган: *панжа орасидан қарамоқ, беш панжадай билмоқ, беш панжадай аён, беш панжасини оғзига тиқмоқ* каби. *Беш панжа баравар эмас* ибораси қўлланилиш жиҳатдан *беш қўл баравар эмас*га қараганда анча нофаол. Э.Аъзамнинг "Жаннат ўзи қайдадир" драматик достонида бу ибора Жийдалий образи нутқида унинг тожик миллатига мансублигини кўрсатиш мақсадида келтирилган: - *Домулло, сиз ҳали янгамулломизга ҳамма тенг бўлмоғи лозим, дегандай гап қилдинглиз-а? Қандоқасига тенг бўлсин, ахир? Мана,* ***беш панжа баробар эмас-ку****! (Э.Аъзам. Жаннат ўзи қайдадир).*

Ёки шоира Ойдин Ҳожиева *қўли боғлиқ* ибораси таркибидаги *боғлиқ* сўзини унинг форс-тожикча синоними *баста* сўзи билан алмаштириб *қўли баста* иборасини шакллантиради:

Торгина гузарлар, пастқам расталар
Ғала-ғовур бозор, кетмас хаёлдан:
Қорин ташвишида ***қўли басталар***
Чиқиб келаверар ҳар бир саволдан.

(О.Ҳожиева. Истиқлол тарихнинг имтиҳонидир)

ФБни оддий қўлланишдаги сўз билан кенгайтиришда ибора таркибига у билан семантик ва грамматик муносабатга киришадиган компонент қўшилади. Бунда, албатта, иборанинг анъанавий структураси кенгаяди, иборанинг ўзида семантик силжиш рўй беради ҳамда унинг матндаги экспрессив бўёғи ортади. Масалан, адабий тилдаги *қўли очиқ* ибораси сахий кишиларга нисбатан ишлатилиб, ижобий баҳо оттенкасини билдиради: *-Албатта, бошқа одамнинг ерини ҳам экаверасиз-ку, аммо домладай* <u>*очиқ қўлли*</u> *одамни ё топамиз, ё йўқ (А. Қаххор. Сароб)*

Муҳаммад Али томонидан мазкур фразема таркиби "шу қадар" сўзи ҳисобига кенгайтирилади, натижада фразема маъносида салбий баҳо томон силжиш рўй берганини кщриш мумкин:

Амирим!- дебдида тўннинг ичидан
Яланғоч кўкрагини кўрсатибди у. -

Қўлимнииг шу қадар очиқлигидан
Сиз кўрган аҳволга тушиб қолдим-ку!(М. Али, Қадимги қўшиқлар)

Мақоламиз давомида ФБларни ижодий-семантик ўзгартириш усуллари ҳақида фикр юритамиз. ФБларни ижодий-семантик ўзгартириш усулари унинг шаклини сақлаб, маъно ўзгаришларига учраган ҳолда ижодий равишда қўллашга асосланган. Кўпгина ФБлар эркин бирикмаларнинг маъносини ўзгартириш орқали юзага келади. Эркин бирикмани ибора сифатида қўллашни мантиқий жиҳатдан асослашда нутқий вазият етакчи аҳамият касб этади. ФБларни семантик ўзгаришлар билан қўллашнинг самарадор усуллари ФБ ички формасининг актуализацияси билан боғлиқ, яъни ФБга асос бўлган эркин бирикма маъноси ибора таркибида яна қайта жонлантирилади. Бундай ҳолларда сўз ўйинлари, аския - пайровлар юзага келади. ФБларни матнда ижодий-семантик ўзгартириш усуллари қаторига ФБни ўзига хос бўлмаган маънода қўллаш, ФБ таркибини сифатлаш ёрдамида кенгайтириш, ФБни диалогик нутқ таркибида қайта тушуниш, ФБни комик жиҳатдан шарҳлаш, ФБ ёрдамида семантик параллелизм ҳосил қилиш, ФБнинг образли асосидан метафорик матн ҳосил қилиш, ФБни эркин бирикмага зид маънода қўллаш, ФБлар ёрдамида антитезалар ҳосил қилиш сингари бир қатор усулларни киритиш мумкин.

Масалан, ФБни матнда унинг зиддоши билан бирга қўллаш антитеза усулини ҳосил қилади. Икки зид маъноли ибораларни бир гап таркибида ўзаро қарама-қарши қўйиш ҳодисаси кам учрайди. Ш.Раҳматуллаевнинг фикрича, тилимизда антоним ибораларнинг сони кам ва улар барча фразеологик бирликларнинг икки фоизига хос ҳодиса [6, Б.208]. Гап таркибида антоним ФБлар орқали фикр баён этилса, контекстнинг таъсирчанлиги ошади. Масалан, ***Қўл баланд келганда*** *суюниб, хотиржамликка берилмаслик,* ***паст келганда*** *эса кўнгилни чўктирмаслик керак (М. Исмоилий. Фарғона тонг отгунча).*

Ибораларнинг усубий имкониятларига уларнинг маънони ихчамлаштириш (лаконизациялаш) хусусияти ҳам киради. Масалан, адабий тилда *ортиқ даражада имкониятга эга* кишиларга нисбатан *қўли узун* ибораси ишлатилади. Бу ибора ҳам тилимизда нутқни ихчамлаштириш билан бир қаторда бадиий асарни образли ифодалаш вазифасини ҳам бажаради: *Мирзо Ёдгор бизнинг* ***қўлимизни шундай узун қилган эдики****, юртнинг бир қизини эмас, осмондан худонинг ойи, юлдузини узиб олишга ҳам етар эди (Ойбек, Навоий).*

Қўлидан кўп иш келмайдиган, чекланган имкониятга эга шахсларни ихчамгина қилиб *қўли калта, қўли қисқа* иборалари орқали тавсифлаймиз. Э.Аъзам "Аралашқўрғон" ҳикоясида *чекланган имконият* маъносини ифодаловчи *камхарж қўл* иборасини яратади: *Энди маълум бўлишича,* ***камхарж қўлга*** *ул-бул бериб албатта, каттакон ҳовлисини қўриқлашни, анови жағинг тинмагур лаънатига ҳам овқат-повқат ташлаб туришини мусофирга топшириб қўйди (Э.Аъзам. Аралашқўрғон).*

Фразеологизмларнинг маълум қисми бирор воқеа-ҳодисани номлаш билан бирга уларга салбий ёки ижобий баҳо оттенкасини ҳам беради. Масалан, *қўли эгри, кўзига чўп солмоқ, қош қўяман деб кўз чиқармоқ, кўргани кўзи йўқ, қўл кўтармоқ (урмоқ маъносида)* каби иборалар салбий баҳолаш вазифасини бажарса, *очиқ қўл, кўзининг оқу қораси, қўли гул, кўз қорачиғи, қўли баланд, қўли ширин, юраги тоза, кўнгли оқ, қўли юқори, кўз тегмасин* (*кўз тегмоқ*нинг бўлишсиз шакли) иборалари таркибида ижобийлик баҳоси кўриниб турибди.

Қўл кўтармоқ иборасининг шаклдош экани маълум. Унинг бир маъноси "овоз бермоқ" ижобий, *урмоқ* маъносида қўлланувчи кўринишида эса салбий муносабат

ифодаловчи сема мавжуд: Масалан, *«Ҳой, даюс, кимга **қўл кўтаряпсан?**» деганича Лочинга ташланди. Маржоной ўғлини қўйиб юбориб, унинг йўлини тўсди (О.Ёқубов. Муқаддас); «Нилу! Жонгинамиз Нилу! Қалайсан, тузукмисан? Врачлар тузук дейишди. Хафа бўлма, Нилу! Сендай пок, сендай меҳрибон қизга **қўл кўтарган** безори ўз жазосини тортажак! Тезроқ тузалиб чиқ. Сени қаттиқ ўпиб, дўстларинг» (О.Ёқубов. Биллур қандиллар).*

Умуман, баҳолаш хусусиятига эга ФБлар бадиий матнларда фаол характерловчи воситалардан саналади. Улар ёрдамида турли воқеа-ҳодисаларга, предметларга бўлган лирик қаҳрамоннинг турлича муносабати ифодаланади, бир асар қаҳрамони иккинчисини ана шундай иборалар ёрдамида тавсифлайди: *Мирвалига жудаям илакишаверма. **Қўли очиқ, дали гули** бўлгани билан юртга маъқул келмайдиган қилиқлари кўпдир (С.Аҳмад. Жимжитлик); —Шундоқ, болам. **Қўли эгри.** Ҳаром одам (С.Аҳмад. Жимжитлик);*

Хулоса ўрнида таъкидлаш жоизки, ФБларнинг услубий жиҳатдан қўлланишига оид фикр-мулоҳазалар шундан далолат берадики, ўзбек тилида ФБларнинг ўзгаришга учраш имкониятлари жиҳатдан бир хил мавқега эга эмас. ФБнинг янгиланиш, сўз ўйини учун асос бўлиш имконияти билан семантик типи ўртасида муайян боғланиш бор. Бу жиҳатдан қараганда ички шаклининг жозибадорлиги билан ажралиб турувчи ФБларнинг имконияти бир мунча кенгроқ. Бундай ФБлар эркин бирикмаларни қайта тушуниш асосида ҳосил бўлгани учун ижодий семантик ёки структур-семантик ўзгаришларга анча мойилроқ бўлади. Ўзбек тилида ФБларнинг ана шундай прагматик имкониятларини тадқиқ этиш матн фразеологияси соҳасини янгидан янги илмий-назарий хулосалар билан бойитади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Абдураҳмонов Ғ. Ҳозирги замон ўзбек тилининг адабий услуби ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1992. № 5-6. –Б. 29.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 томлик. Т. I. –Тошкент: Фан, 1983. –Б.26 б.
3. Дубинский И.В. Приёмы использования фразеологических единиц в речи. АКД.– Баку. 1964. –С. 17.
4. Йўлдошев Б., Рашидова У. Ўзбек тилининг фразеологик стилистикаси. –Тошкент: Наврўз, 2016. –Б.125.
5. Одилов Ё. Ўзбек тилида лексик ва фразеологик энантиосемия. –Тошкент: Тафаккур, 2015. –Б.238.
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. –Тошкент: Фан, 1966.–Б.208.
7. Сафаров Ш. Семантика. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013. –Б.252.

БАДИИЙ МАТНДА ИЖТИМОИЙ ДЕЙКСИСГА ИШОРА ҚИЛУВЧИ ЛЕКСИК БИРЛИКЛАР

Х.Қ.ЙЎЛДАШЕВА,
Қарши давлат университети Ўзбек тилшунослиги кафедраси доценти

Бадиий матнда ижтимоий дейксис коммуникантлар нутқи орқали рўёбга чиқади. Лексик бирликларнинг дейктик хусусияти бадиий матнда ўзига хос тарзда намоён бўлади. Айниқса, ижтимоий дейксиснинг юзага келишида диалектал сўзлар, қон-қариндошликни ифодаловчи бирликлар, касб-ҳунар, соҳа билан боғлиқ сўзлар

ажралиб туради. Мулоқот иштирокчиларининг нутқида бундай сўзларнинг қўлланиши уларнинг қандай соҳа вакили, қайси диалект эгаси эканлиги каби ижтимоий ҳолатига ишора қилади[67].

Маълумки, манбаларда диалектал лексика, касб-ҳунар терминлари қўлланилиш доираси чегараланган лексика сифатида келтирилади. Диалектал лексика маълум бир ҳудудда яшовчи кишилар нутқига хос бирлик бўлиб, бадиий матнда маҳаллий колоритни акс эттириш, шунингдек, асар қаҳрамонлари нутқини реал бериш мақсадида фойдаланилади[68]. Диалектизмлар нутқ эгасининг қайси диалект эгаси эканлиги ижтимоий ҳолатига ишора қилади.

Жонивор оғир мўраб юбориб, ётиб қолди: дир-дир титрайди.

*— Вой, **инакни** ўлдирдингиз-е, бешафқат! — деб йиғлаб юборди хотини.*

Омон миқ этмай районга тушиб кетди. (Ш. Холмирзаев “Омон овчининг ўлими”)

Кўриб турибсиз, содда йигит экан. Менга ёқиб қолди. Ҳозир ҳам шу фикрдаман: унақанги содда, покиза йигитлар кам учрайди. Биз ҳам энди ўзимизча яшаб, уни-буни кўрдик, ҳар хил одам билан танишдик-да!

*— **Янга** нима иш қиладилар? — дедим.*

Ишонинг-ишонманг, оғзимга тикилиб қолди. Кейин қўрқибгина, мўлтирабгина:

— Қанақа янга, ака? — деди.

— Янга-да! — дедим. — Бирга келган йўлдошингиз! (Ш.Холмирзаев “Қумрилар”)

Юқорида келтирилган мисол ёзувчи Ш.Холмирзаев асарларидан олинган бўлиб, сўзловчи нутқида *инак, янга* лексемалари қўлланган бўлиб, нутқ эгасининг Сурхондарё диалектига тегишли эканлигига ишора қилинган. Адиб асардаги воқелаларни айнан Сурхондарё билан боғлиқ ҳолда тасвирлаган ва ўша жой шевасидан унумли фойдаланган.

*Ҳомид: — Жуда яхши экан. Бўлмаса томиға **шоти** етармикин? Жаннат опа: — Қих, жуда баланд.*

Мутал: — Баланд бўлса, зарари йўқ, осони уйнинг тегидан тешамиз, қўямиз! (А.Қодирий “Ўткан кунлар”)

Келтирилган матнда шоти сўзи қўлланган бўлиб, нутқ эгасининг Фарғона диалектига хослигидан далолат беради.

– ***Кеннойи**, қалай ўтирибсизлар? – жиддий сўради Муқаддас.* (У.Назаров “Чаён йили”)

Юқорида қўлланган *кеннойи* сўзи адресантнинг Тошкент шевасидан эканлигига ишора қиляпти.

Шундай диалектал сўзлар борки, улар адабий тилда ҳам, бадиий асар тилида ҳам учрамайди, уларни фақат муайян шева вакилларигина қўллайдилар ва тушунадилар. Масалан, мўғжа – куртак (Самарқанд, Бухоро, Қашқадарё), межана - данак (Хоразм)ва б.қ.[69]

Ижтимоий дейксис қариндошлик атамалари орқали ҳам ифодаланади. Тадқиқотчи М.Нарзиева қариндошлик терминларини икки гуруҳга ажратади:

а) қон-қариндошлик отлари: *ака, амма, амаки, бобо, буви, жиян, невара, она, опа, ота, сингил, тоға, ука, хола, чевара, эвара, ўғил, қиз;*

[67] Давлатова Р. Ўзбек тилининг дейктик бирликлари: Филол. фан. док. (DSc) ...дисс. – Тошкент, 2020.–Б 104

[68] Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2009. –B.112.

[69] Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б..17.

б) никоҳ қариндошлиги отлари: *божа, келин, куёв, овсин, почча, хотин, эр, янга, қайин, қуда, қайлиқ, ўгай*[70].

Р.Давлатованинг таъкидлашича, кишилар исмига қариндошликни билдирувчи отларнинг қўшиб айтилишида субъектнинг нутқ эгаси билан қариндошлик муносабатида эканлигига ишора қилинади[71].

- «Қора амма», тангангизни ўйнасам майлими? - Вой танга сендан айлансин! Дадам елкамга секин туртди. - Неча марта айтганман: «Қора амма» эмас, ***амма*** *дегин, тентак!* (Ў.Ҳошимов “Икки эшик ораси”)

Ўзбек мулоқот маданиятида кишилар исмига қариндошликни билдирувчи отларнинг қўшиб айтилиши, нафақат қариндошлик муносабатида эканлигига ишора қилади, балки бегона суҳбатдошнинг ёш, жинс, мавқе каби ижтимоий ҳолатларига ҳам ишора қилиши мумкин.

Арава пештахасига ўтириб оиган Олимжон бақириб-чақириб отни ниқтайди. Дам ўтмай, «дррр» деб тўхтатади. Арқон тортиб йўлни кесиб чиққан йигит-яланглар шовқин солади: - Кўрманани ташлаб кетмайсизми, ***хола?****! Ойим ҳарсиллаб нафас олганча қоронғида тугунчани титкилайди. - Кўрмана сендан айлансин, болам! - деб бирига чорси, бирига одми дўппи улашади. Арава ғийқиллаб яна йўлга тушади.* (Ў.Ҳошимов “Икки эшик ораси”)

Юқорида келтирилган парчада хола қариндошлик термини бегонага нисбатан қўлланилган. Англашиладики, адресатнинг ёши катта аёл киши эканлигига ишора қилган.

Касб-ҳунар, соҳани ифодаловчи лексик бирликлар ҳам нутқ эгасининг қайси касб-ҳунар ёки соҳа вакили эканлигига ишора қилади. Масалан, Ғ.Ғуломнинг “Шум бола” асаридан олинган қуйидаги парчада савдогар нутқи келтирилган бўлиб, нутқида газлама турлари билан бир қаторда сотувчиларга хос сўз ва ибораларнинг қўлланилиши билан газлама сотувчи эканлигига ишора сезилиб турибди.

Ҳуснибий бир хуржуннинг икки кўзи тўла лахтак, қўлида газчўп: Поплин дейсизми, хушвоқ дейсизми, чидаганга чиқарган дейсизми, бурга чит дейсизми, роҳатбадан дейсизми, мадиполом дейсизми, сурп, тик, шайтон тери дейсизми, кеп қолинг харидор! – деб бозорни бошига кўтариб, бақириб юрар эди. (Ғ.Ғулом “Шум бола”)

Хуллас, ижтимоий дейксисда шахсларнинг ижтимоий ҳолатига ишора қилувчи бирликлар турли-туман бўлиб, лексик бирликлар алоҳида аҳамият касб этади. Бадиий матнда ижтимоий дейксисга ишора қилувчи лексик бирликлар ўзига хос тарза ифодаланади. Уларни таҳлил қилиш бадиий матннинг социопрагматик тадқиқини очиб беради.

СЎЗ ЎЗЛАШТИРИШ ВА УНИНГ ТАДРИЖИЙ ТАРАҚҚИЁТИ

Шукуров Отабек УЛАШЕВИЧ,
Қарши давлат университети докторанти, филология фанлари номзоди, доцент

Сўнгги йиллардаги глобаллашув шароити, бошқа соҳалар каби, тил феноменига ҳам ўзининг сезиларли таъсирини ўтказа бошлади. Бу жараёнда тилнинг хавфсизлиги,

[70] Нарзиева М.Ж. Ўзбек тилида шахсни ёш жиҳатидан тавсифловчи отларнинг маъно таркиби: Филол.фан. номз... дисс. – Самарқанд, 1992. –Б. 49.
[71] Давлатова Р. Ўзбек тилининг дейктик бирликлари: Филол. фан. док. (DSc) ...дисс. – Тошкент, 2020.–Б 104

ривожланиш тенденциялари ва рақобатбардошлигини таъминлаш мақсадида тилшунослар томонидан бажариладиган вазифалар белгилаб олинди.

Сунъий интеллект, Интернет бошқарувида етакчилик қилаётган ва шу орқали ўз инновациялари номларини реципиент тилларга мунтазам равишда сингдириб бораётган нуфузли тилларнинг таъсири қисқа вақт ичида катта ҳажмдаги ўзлашмалар кўламини ҳосил қилди. Бундай конъюнктура учун тилларнинг ўзаро алоқаси, ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар, савдо-сотиқ, маданий алоқа, миграция, урбанизация, фан-техниканинг ривожланиши, Интернет дискурси, рақамли медиа ва ижтимоий тармоқ кабилар кучли таъсир воситалар ҳисобланади. Айни пайтда бундай омиллар лексикасига жиддий таъсир ўтказувчи аҳамиятга эга.

Жаҳон тилшунослигида ўзлашма сўзларнинг ўрганилиши И.А.Бодуэн де Куртене, В.Бетц, У.Вайнрайх, Л.П.Ефремов, Н.С.Авилова, Э.Хауген, Б.Н.Забавников, Э.А.Райст, В.В.Виноградов, Г.Г.Тимофеева, К.Люциньский каби тилшуносларнинг ишлари билан боғлиқ. Ўзлашмалар ҳақидаги дастлабки фикрлар узоқ даврларга бориб тақалади. Жумладан, Платоннинг “Кратил ёки исмларнинг тўғрилиги ҳақида”[72]ги диалогда ҳам сўз ўзлаштириш ҳақида маълумотлар мавжуд.

Рус тилида эса бу мавзу тарихи ҳақида тугал фикр-мулоҳазаларни Л.П.Ефремовнинг номзодлик диссертациясида учратиш мумкин. У ўзлаштиришнинг асосий белгиларини таҳлил қилган, сўз ўзлаштириш ва калькалаш ҳодисаларини фарқлашга уринган тадқиқотчи ҳисобланади[73]. 60-йиллар тадқиқотларида *“сўз ўзлаштириш”, “ўзлашма”* терминларининг ишлатилиши ўзига хос паллага кирди. Бу билан боғлиқ масалалар Л.П.Крисин[74], А.В.Шчерба[75]нинг илмий тадқиқотларида ҳам таҳлилга торилган. Айнан *ўзлашма (заимствование)* термини В.М.Аристованинг ишида нафақат “ўзга тилдан ўтган сўзни кўрсатиши, балки қабул қилувчи тилга тўла маънода ўзлашган сўз”[76] сифатида эътироф этилди.

Турли олимларнинг ўзлашмалар мавзусида олиб борилган узоқ йиллик тадқиқотлари А.Казкенованинг “Ўзлашма сўз онтологияси” номли монографиясида жамланиб ўрганилди. Унда сўз ўзлаштириш назариясининг ривожланиш тарихи илк давр (XIX аср – XX аср бошлари), биринчи босқич (XX асрнинг 20-йилларидан 60-йилларигача), иккинчи босқич (XX асрнинг 60-йиллари охири – XX аср бошлари)[77]ларга ажратиб таҳлил этилган.

Туркий тилшуносликда ҳам ўзлашма сўзларнинг ўрганилиши узоқ тарихга эга. Жумладан, Маҳмуд Кошғарий “...тилда мавжуд сўзлар ўрнида бошқа тил сўзини қўллашни зарарли деб ҳисоблайди”[78]. “Шажараи тарокима” асарида эса “...биздин бурун туркий тарих айтқанлар. Арабий лафзларини ... ва форсийни ҳам қўшуб турурлар, ... ўзларининг ҳунарларин ва устодликларини халқға маълум қилмақ учун[79]”, дея таъкидланади.

---

[72] Античные теории языка и стиля (антология текстов) / Под ред. О.М. Фрейденберг. – СПб.: Алетейа, 1996. – – С. 49.

[73] Ефремов Л. П. Сущность лексического заимствования и основные признаки освоения заимствованных слов: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Алма-Ата: 1959. –С. 18.

[74] Крысин Л.П. Иноязычные слова в современном русском языке. – М., 1968. –С. 39

[75] Щерба Л.В. О понятии смешения языков // Избранные работы по языкознанию и фонетике. Т. 1. – Л., 1958. – С. 44

[76] Аристова В.М. О лексических заимствованиях из английского языка в русский язык в XVII-XVIII вв //Высшая школа. – 1978. –С. 58.

[77] Казкенова А. К. Онтология заимствованного слова. Москва. – Флинта, 2013. –С. 9

[78] Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – Б. 36.

[79] Баҳодирхон А. Шажарайи тарокима (Нашрга тайёрловчи Қ.Маҳмудов). – Тошкент: Чўлпон, 1995. – 48 б.

XX аср бошларида ижтимоий ҳаётдаги ўзгаришлар ўлароқ сўз ўзлаштириш жараёни жадаллашди ва тилга эътиборли жадид зиёлилар эса бунга ўз вақтида фаол муносабат бўлди. Элбек томонидан матбуотда 550 та туркий сўз ўз муқобиллари билан бирга эълон қилинди[80]. Бундан кўзланган мақсад араб, форс ва рус тилларидан кириб келган ўзлашма сўз, терминларга адекват ўзбекча муқобил топиш эди[81]. А.Фитрат ҳам бошқа тиллардан сўз олиш услубнинг софлигига зарар беришини эътироф этди[82]. Мавзу ҳақидаги янгича илмий қарашлар яратилган ўқув адабиётларида ҳам акс этиб борди. Ўзбек тилида неологизмларни илмий планда ўрганиш асосан XX асрнинг 60-йилларидан бошланди. Кейинги даврларда мавзу билан алоқадор мақола, диссертациялар кўзга ташланса-да, ўзбек тилшунослигида бевосита неологизмлар масаласини тадқиқ этишга бағишланган махсус илмий тадқиқот иши яратилмади.

Ўтган асрнинг 40-йилларига келиб ўзлашма сўзлар масаласи ўзбек тилшунослигининг ўзига хос илмий муаммоси сифатида тадқиқ этила бошланди. Бу масала арабча, форс-тожикча, русча ва бошқа тиллар кесимида Ф.Абдуллаев, Т.И.Раҳмонов Б.Эшонқулов, Ж.Ҳамдамов И.Асфандиёров, Э.Бегматов, А.Ҳожиев, Р.Жомонов каби олимларнинг ишларида тадрижий равишда тадқиқ этилди, ўрганилди. Ўзлашма сўзлар илк бор О.Усмоновнинг “Қисқача интернационал сўзлар луғати” (1959), кейинчалик О.Усмонов, Р.Дониёровлар ҳаммуаллифлигидаги “Ўзбек тилидаги русча-интернационал ўзлаштирма сўзлар изоҳли луғати” (1965) сифатида жамланиб шакллантирилди.

Э.Бегматовнинг “Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари”, ҳаммуаллифликда ёзилган “Ўзбек тили лексикологияси”, А.Ҳожиевнинг “Совет даврида ўзбек адабий тилининг тараққиёти”, М.Миртожиевнинг “Ўзбек тили лексикологиси ва лексикографияси”, А.Мадвалиевнинг “Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари” асарларида ўзлашма сўзлар бевосита тадқиқ этилди. Шу билан биргаликда, Д.Ҳасанова, А.Тўрахожаева, У.Қўзиев, Ш.Жўраев, А.Худойкулов, Н.Исакова, Э.Давлятова, С.Рузметов кабиларнинг тадқиқотлари бевосита ва билвосита мустақиллик даври ўзлашмалари тадқиқига бағишлангани билан аҳамиятли ҳисобланади. Истиқлолдан сўнг европа тилларидан тўғридан-тўғри сўз олиш жараёни жадаллашди. Бу ўзлашмалар кўпроқ инглизча сўзлар мисолида намоён бўляпти.

Ўзбек тили лексикаси генетик манбаларига кўра ўз ва ўзлашма қатлам сўзларидан иборат. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”даги жами сўзликлар сони 32549 та бўлиб, ўз қатлам 20437, ўзлашма қатлам эса 12112 лексемадан иборат. Луғатда 29 манба тил бирликлари асосида шаклланган ўзлаштирмалар лексикага тўғридан-тўғри ёки восита тил орқали ўзлашган. Шунингдек, лексикада ўзлашмаларнинг тиллар кесимидаги ҳиссаси ҳам ўзаро фарқли кўриниш касб этган. Тилнинг захира бойлигида форсча, арабча, лотинча, юнонча, французча, русча, инглизча, немисча, итальянча сўзларнинг миқдори каттароқ бўлса, голландча, испанча, мўғулча, польякча, ҳиндча, японча, хитойча, туркча, украинча, финча, шведча, малайяча, исландча, чехча, яҳудийча, грузинча, венгерча, норвегча, руминча сўзлар нисбати эса анчайин паст.

---

[80] Бобомуродова Ш. Ўзбек тилшунослиги ривожида Элбекнинг роли: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент: 2002. –Б. 15.

[81] Бобомуродова Ш. Ўзбек тилшунослиги ривожида Элбекнинг роли: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент: 2002. –Б. 15.

[82] Фитрат А. Танланган асарлар. V жилдли. IV жилд: дарслик ва ўқув қўлланмалари, илмий мақола ва тадқиқотлар – Тошкент: Маънавият, 2006. **–Б. 47.**

“Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да 3549 та форсча, 3473 та арабча сўз изоҳланган. Форсча сўзларнинг ўзбек тили луғат бойлигига кириб келиши арабча сўзларга қараганда қадимийроқ бўлиб, кўпчилиги халқ турмуш-тарзи билан боғлиқ кундалик мулоқот сўзларига айланиб улгурган. Арабча ўзлашмаларнинг салмоқли қисми таълим-тарбия ва маданий-маърифий мазмундаги бирликлардир. Лексикадаги арабча сўзларнинг бошқаларидан фарқли хусусияти уларда барқарорлашган “алгоритмик” тузилишнинг мавжудлигидир. Айниқса, бундай ўзлашмаларнинг кўпроқ уч ундошлилилиги ҳисобга олинса, муайян қолиплар мунтазамлигида арабча асосдош ўзлашмалар ассоциацияси пайдо бўлади. Бу эса лексикографияда **арабча генетик асосли ўзлашма сўзлар** луғатини тузиш мумкинлигини асослайди.

Э.Бегматов ўзбек тилининг сўз ясаш жараёнида иштирок этувчи арабча-форсча сўзларни шартли равишда ички ресурс сифатида баҳолаш керак, деб ҳисоблайди. Академик А.Ҳожиев собиқ совет даври ўзбек тили тараққиётида лексиканинг истиқболи семантик калькалаш орқали янги сўз ҳосил қилиниши билан алоҳида боғлиқ бўлди, деб қарайди ва уни тилнинг ички имкониятлари асосида бойитиш йўли[83] сифатида идрок этади. Э.Бегматов ўзбек тили лексикасининг *ўз база, ўзга база, калькалаш базаси* каби уч луғавий базага таянишини, шунга кўра ўзбек тили луғат бойлигидаги сўзларни ўз қатлам сўзлар, ўзлашма қатлам сўзлар ва лексик калькалар каби секторга бўлиш ўринлилигини ёзади[84]. Кейинги давр манбаларида ҳам айнан шундай ёндашув оммалашгани кузатилади.

Ҳозирги ўзбек тилининг катта ҳажмдаги имло луғатига 85000 сўз киритилган. Лексикадаги сўзлар миқдорининг аниқ чегараси бу миқдор билан белгиланмайди. Яна луғатга шакллантирилиши зарур бўлган янги ўзлашмалар, соҳа терминлари, шунингдек, маърифий-ирфоний, бадиий услубга хос кўплаб бирликлар ҳам мавжуд. Шуларни ҳисобга олганда ўзбек тили лексикасининг умумий миқдори катта рақамларни ташкил этиши тахмин қилинади.

20-асрнинг охирларидан бошлаб нафақат ўзбек тилига, балки собиқ иттифоқ таркибидаги туркий тилларга сўз ўзлаштиришда рус тилининг воситачилик роли пассивлашиб, тўғридан-тўғри сўз ўзлаштириш жараёни фаоллашди[85]. Шунга мувофиқ глобаллашув шароитидаги виртуал макон таъсирида инглизча сўзлар билан “тўйинган” Интернет феномени мотивловчи омил вазифасини бажаряпти.

ЛИСОНИЙ РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ – ОЛАМНИНГ БАДИИЙ МАНЗАРАСИНИНГ АОСИЙ МЕХНИЗМИ СИФАТИДА

Динара ИСЛАМОВА,
Шароф Рашидов номидаги СамДУ ўқитувчиси, (PhD)

Кейинги йилларда лингвокогнитив ва лингвокультурологик изланишлар миқдори ва сифати ошгани туфайли лисоний ва нутқий бирликларнинг репрезентацияси хусусидаги тадқиқотлар сони ҳам ошиб бормоқда[7. 91]. Академик луғатлардаги маъносига қараганда «репрезентация» - объектив борлиқнинг ўрнини босадиган фигура, тасвир ёки ғояни билдиради. Бошқача айтганда, «репрезентация» кўриниб-билиниб турган феномен ва у яширин ва билинмаган нарсаларнинг ўрнини

[83] Ҳожиев А. Совет даврида ўзбек адабий тилининг тараққиёти. III жилдли. III жилд. Сўз ясалиши ва лексика. – Тошкент: Фан, 1988. –Б. 139.
[84] Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари, –Тошкент: Фан, 1985. –Б. 103.
[85] Мирзоева Г. Английские заимствования в тюркских языках. Науковий журнал “Молодий вчений”. Херсон. №12 (88) 2020. –С. 71. https://doi.org/10.32839/2304-5809/2020-12-88-15

босади. Яни, репрезентация бу – идеал ва моддий материя, субъект ва объектлар, сўзлар ва нарсалар ўртасидаги чегарада мавжуд бўлган, уларни ажратиб турадиган ва ўзаро бирлаштирадиган ноаниқ, иккиланган ва парадоксал ҳодисадир. Шу сабабли у бадиий асар муаллифи ва қаҳрамонинг тафаккури ва хатти-ҳаракатлари тасвирининг «моддийлашиши» деб қабул қилиш мумкин. Шунингдек, репрезентация асарда лисоний бирликлар орқали моддийлашадиган хаёл, фантазия, туш, символ ва белги сифатида тез-тез қаршимизга чиқади. Булар ҳаётий ва маданий анъана ва тажрибага асосланадиган муаллифнинг чегара билмас хаёлоти орқали қаҳрамонлар, воқеалар, ҳодисалар, психологик драматизмлар шаклида асарда ўз аксини топади. Бадиий адабиётда лисоний бирлик ва воситалар орқали ҳаёт манзараларининг репрезантация қилиниши натижасида «худди кўзгу эффектини беради, унда ҳаққоний ва хаёлий нарсалар ўртасидаги чегара йўқолади. Айни пайтда бу икки майдон ўртасидаги бир-бирига қарамлиликнинг йўқлиги ҳам тасдиғини топган»[5].

Тил, лисон ва нутқнинг инсоннинг билиш жараёнидаги, шу жумладан, бадиий ижод ва дунёнинг бадиий инъикосини санъат ва адабиёт ёрдамида яратишдаги фундаментал ролини чуқур англаш туфайли кейинги ўн йилликларда тилнинг бу яратувчилик ва билиш жараёнидаги воситачилик хусусияти нафақат когнитив тилшунослик, балки фалсафа, психология, мантиқ фанлари томонидан ўрганила бошланди. Бу антропоцентрик ёндашув бадиий асар тилини текшириш ва оламнинг бадиий манзарасида тил бирликларининг репрезентацияси масаласини тадқиқ этишда ҳам устивор бўлиши лозим. Тилнинг антропоцентриклиги фақат нутқий жараёнга восита тайёрлаб бериш билан чегараланмаганлиги, балки у тафаккур жараёни, тарзи ва фаолияти билан чамбарчас боғлиқлиги маълум.

Тилнинг ментал (тафаккурий) фаолиятлар билан яқин алоқаси лисоний ва тафаккурий тузилмалар орасида ўзаро яқин муносабатлари мавжудлигини тақозо қилади. Бу эса билиш субъектини когнитив жиҳатдан ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятларини тушунтириб беришга, шу билан бирга инсон ҳаёти давомида ўзлаштирган барча интеллектуал тажриба жойлашган, шунингдек, концептуал тизимнинг маънолари ва тушунчалари шаклида тўпланган таассуротлар, ҳислар, тасаввурлар ва тасвирларни жамлаган ва акс эттирган мия марказларига чуқур кириб боришга имкон беради[3. 560].

Шу тариқа лисоний ва тафаккурий тузилмалар занжири шаклланган, «билиш объектининг ташкилий тузилишининг асосий когнитив функцияларини қуйидагича тасвирлаб бериш мумкин:

- эмпирик билимлар → кузатувчи;
- концептуал тушуниш → концептуал тушуниш;
- иккиламчи тушуниш → тушуниш (изоҳловчи ва баҳолаш субъекти)[4. 223].

Бу занжирдаги эмпирик билимлар натижасида шаклланган бирламчи концептлар маъносини актуализация қилувчилар янада конкрет (аниқ) маъноларга эга сўзлардир. Бундай сўзлар ўзларининг предметлик тушунчаси билан дунёнинг тузилиши ҳақидаги мажбурий ва анъанавий (туб) тушунчаларни англатадилар. Бундай лисоний бирликларга яққол намуна сифатида Е.С.Кубрякова сўз туркумларини кўрсатади. Сўз туркумлари шакл, маъно, семантика, функция, ишора каби ноёб белгилар тўпламига эга эканлиги ҳамда уларнинг ҳар бир аъзосида ва туркумнинг ўзида категориал маъноларнинг сезиларли даражада намоён бўлиши бу тил универсалиясининг барча олам тасвирлари каби ОБМнинг асосида туришини кўрсатади. Олима дунёдаги барча тилларда сўз туркумлари а) улар дунёни қандай акс эттириши; б) маълум бир сўз туркуми дискурс ва нутқий фаолиятга хизмат

қилишини, яъни коммуникация жараёнида қайси кўринишда иштирок этиши жиҳатидан бир-биридан айтарли фарқ қилмаслиги ҳам бу ҳолнинг исботи деб қарайди[3. 560].

ОБМнинг шаклланиш ва амалда бўлиш майдони бадиий матндир. Бадиий матндаги образлар, концептлар, тасвирлар лисоний материалнинг оламнинг бадиий манзарасини шакллантиришдаги воситалар бўлиб хизмат қилади, яъни, 1. Матн асосан борлиқ ва унинг хусусиятлари, улардаги ижтимоий-сиёсий, илмий-дидактик ва бошқа техникавий масалаларни акс эттирувчи вербал имконияти (ахборот бериш ва ахборот олиш) эга бўлган масалаларни ўзида мужассамлаштиради. 2. Воқелик билан матн ўртасида акс эттириш жараёни ётади. Бу жараён ўзида логик ва эмоционал (матн турига қараб) воқеликнинг асосий интерпретациясини беради. Муаллифнинг дунёқараши матнда акс этади. Бу эса матннинг ғоявий йўналишини белгилайди. Матннинг услубий коннотатив мазмуни муаллифнинг дунёни ҳис этиш жараènидаги инъикос ҳисобланиб, мантиқий ва эмоционал доминантни ташкил этади [8. 12]. Демак, бадиий матн лисоний воситаларнинг эстетик тизимини ўзида ифодалайди ҳамда у яхлитлик ва тузилишининг оптималлиги билан ажралиб туради. Ҳар бир матн такрорланмас, оригинал бир когнитив ва лингвомаданий тузилма бўлиб, у ўзи яратилган тилнинг энг нозик маъно қирраларигача очиб беради, сўзлар, ўрамлар, урғу, оҳанг ва бошқа воситаларни ўз ичига олган тилнинг барча тасвирий воситаларини қамраб олади[1. 27].

Жумладан, адабий матнда қаҳрамонларнинг ҳис-туйғуларини ифодалаш учун ижодкорларнинг лисоний репрезентацияни ифодалаш усулларига мурожаат қилайлик. Маълумки, бадиий матндаги эмоционал концептларни ифодалаш:

1) инсоннинг турли ҳис-туйғуларини номлаш орқали ифодалайдиган концептлар: *Войдод!- ваҳимадан титраган кампирнинг бўғзидан бу калима зўрға чиқди* (Чўлпон. «Кеча ва кундуз») (қўрқув туйғуси *войдод* сўзи билан ифодаланмоқда).

2) инсоннинг ҳис-туйғу ва эмоциясини тасвирлаш орқали: *Мингбоши бир оқарди, бир қизарди, жаҳлдан сонларини чимчилай бошлади* (Чўлпон. «Кеча ва кундуз»). (жаҳл ва ғазаб туйғуси *бир оқарди, бир қизарди, сонларини чимчилай бошлади* сўзлари орқали ифодаланмоқда*).*

3) эмотив воситалар ёрдамида: *Ўзи хотинталоқ!-деб юборди мингбоши.* (Чўлпон. «Кеча ва кундуз»). (нафрат туйғуси *хотинталоқ* вульгаризми билан ифодаланмоқда).

Кўринадики, бадиий матнда асарнинг сюжети, ғояси, мантиғи, қаҳрамонларнинг характери ва уларнинг нутқини индивидуаллаштиришга хизмат қиладиган воситалар ҳар доим мавжуд ва уларни лисоний репрезентация қилишнинг ҳам имкониятлари, воқелантириш шакллари ҳам кўп. Шу сабабли М.М.Бахтиннинг бадиий матнга берган таърифида баён қилинганидек, «матн гуманитар фанларнинг ва умуман олганда гуманитар-филологик тафаккурнинг асосида туради. Матн бу фанлар ва уларга хос тафаккурдан келиб чиқадиган ҳақиқий воқеликдир. Матн йўқ ерда тадқиқот ва тафаккур объекти ҳам йўқ»[2. 300].

Бадиий матн ва у билан алоқадор равишда ОБМнинг энг асосий хусусиятларидан бири – коммуникативлигидир. У санъат ва адабиёт асари сифатида матн ахборотни узатиш ва қабул қилиш билан бирга ёзувчи (айтувчи)нинг бадиий-эстетик ҳамда лингвопрагматик интенциясини ифодалайди. Бадиий-прагматик интенция матндан англашиладиган хабар, бадиийлаштириш, тасвир, эмотивлик каби инсон фаолияти билан боғлиқ маълумотлар мажмуасидан иборат бўлади. Матннинг

коммуникативлиги муайян бадиий-эстетик информацияни бир шахсдан иккинчисига, ижодкордан ўқувчига, индивиддан оммага узатишдаги мукаммаллигида кўринади.

Бадиий адабиёт тили адабий тилнинг ўзига хос кўринишига ва хусусиятларига эга бўлган шакллардан биридир. Бадиий адабиёт тили ҳам тил тараққиётининг умумий қонуниятларига буйсунади. Бошқача қилиб айтганда, адабий тил каби омма учун алоқа воситаси бўлишдек хусусиятга эгадир. Бадиий адабиёт тилининг ўзига хослиги ва мураккаб йўналиши шундаки, у тилнинг адабий бўлмаган хилма-хил кўринишларини, қатламларини ҳам кенг равишда ўзига сингдириб олиб, умумхалққа намойиш этади. Шунингдек, ҳар бир бадиий адабиётда маълум бир адабий тилнинг турли-туман услублари кенг кўлланиши мумкин. Бадиий асар тили ўзининг бадиий эстетик сифати билан адабий тил ва жонли сўзлашув тилининг барча кўринишларини қамраб олади [6. 10].

Воқеликни бадиий идрок этиш ва уни ифодалашнинг асосий воситаси бадиий услуб ҳисобланади. Бадиий услуб инсоннинг феъл-атворини, унинг ички дунёсини, руҳий ҳолатларини, табиатдаги турли воқеа - ҳодисаларни тугал, бутун мураккаблиги билан ифодалаш имкониятини ўзида мужассам қилганлиги билан ҳам диққатга сазовордир. Бадиий нутқ услубининг энг характерли хусусияти тасвирийлик ва эмоционаллик ҳисобланади. Агар илмий услуб умумлашган тушунчаларни қатъий қолипга солинган, махсус терминлар ва формулалар билан англатса, бадиий услуб ўз заҳирасидаги сўзлар ёрдамида инсон қалби ва табиатининг энг нозик нуқталаригача тасвирлаш имкониятига эга. Бадиий услубда муаллиф асарнинг эстетик таъсирини кучайтириш мақсадида тилнинг тасвирий воситаларидан унумли ва ижодий фойдаланади, шунингдек, ўзи ҳам янги сўз ва ифода шаклларини яратади. Шунинг учун ҳам бу услубда ёзувчилар мавжуд сўзларни ишлатиш билангина чегараланиб қолишмайди. Маҳоратли ёзувчилар учун мавжуд тилдаги сўз заҳираси ҳар доим чекланган имконият ҳисобланади. Ўзлари янгидан-янги индивидуал сўз ва иборалар ижод қилиш пайида бўлишади. Бадиий нуткда тил бетакрор қиёфа, феъл-атвор, воқеликка мос манзара яратишга, юксак образлиликни намоён қилишга хизмат қилади. Бошқа услуб материаллари бадиий нуткда муаллиф мақсадига биноан эркин ҳолда ишлатилиши мумкин.

АДАБИЁТЛАР

1. Апресян Ю.Д. Избранные труды [Текст] / Ю. Д. Апресян. – Т., 1: Лексическая семантика: Синонимические средства языка. – М.: Языки русской культуры: Восточная литература, 1995. – С. 27.

2. Бахтин М.М. Проблема текста в лингвистике, филологии и других гуманитарных науках. Опыт философского анализа. // Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М., 1986. – С. 300.

3. Кубрякова Е.С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. - М.: Языки славянской культуры, 2004. - 560 с.

4. Магировская О.В. Репрезентация субъекта познания в языке: монография / Магировская О.В. Федеральное агентство по образованию. Рос. акад. наук., Учреждение Рос. акад. наук Ин-т языкознания РАН; ГОУВПО «Тамб. гос. ун-т им. Державина Г.Р. – М.; Тамбов: Издательский дом ТГУ им. Державина Г.Р., 2008. – 223 с.

5. Пискунова С.И. Репрезентация как тема и эстетический принцип творчества М. Де Сервантеса // Новый филологический вестник. 2014. -№2 (29). URL:

https://cyberleninka.ru/article/n/reprezentatsiya-kak-tema-i-esteticheskiy-printsip-tvorchestva-m-de-servantesa (дата обращения: 30.05.2020).
6. Қурбонов Т. Бадиий асар тили ва услуби масалалари. Ихтисослик (танланма) фанидан маърузалар матни. – Самарқанд, 2006. – Б. 10.
7. Сафаров Ш.С. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор нашриёти, 2006. – 91 б.;
8. Шодиев И.М. Ўзбек тилида матннинг типологик тадқиқи. Филол. фан…фалсафа д-ри (PhD) дисс. автореф. – Самарканд, 2020. – 12 б.

EVFEMIK MA’NODOSHLIK QATORIDA DARAJALANISH

Sirojiddin TURDIMURODOV,
TerDU v.b. dots., f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Maqolada til birliklari munosabatida aks etuvchi evfemik ma’nodosh leksemalar qatorida darajalanish ya’ni graduonimik munosabatlar mavjudligi misollar asosida ko‘rsatib o‘tilgan. Bu esa o‘zbek tilidagi evfemik sinonimlarning yangi qirralari mavjudligidan dalolat beradi.

Kalit so‘zlar: evfemizm, evfemik graduonimiya, evfemik ma’nodosh leksemalar, aynanlik, farqlilik, sinonimik qator.

O‘zbek tili evfemizmlari tadqiqi yuzasidan ma’lum ishlar amalga oshirilganligiga qaramasdan evfemik graduonimiya hodisasi tilga olinmay kelinayotgan aniq voqelik hisoblanadi. E’tibor berilsa, leksemalarga xos aynanlik ularning zidlanishi uchun asos bo‘lgan belgi – farqlilikka tomon o‘sib boradi. Qo‘llanilishi noo‘rin bo‘lgan so‘zlarning o‘rnida qo‘llaniluvchi evfemik ma’noli ma’nodosh leksemalar ham nutqda yumshoq qo‘llanilishi nuqtayi nazaridan ma’lum farqliliklarga ega. Masalan, biron bir kishining sog‘ligida salbiy tomonga o‘zgarish bo‘lganligini anglatuvchi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytish noqulay bo‘lgan **kasal** leksemasi o‘rnida biroz yumshoq tarzda qo‘llaniladigan ***bemor/betob → mazasi yo‘q → tobi qochmoq/sog‘ligi yaxshi emas*** kabi evfemik birliklar qatorida graduonimik darajalanishni anglash qiyin emas. Ushbu evfemik sinonim qatorda kasallik mazmunining leksemalarda oshib borish holati salbiy holatga tomon kuchayib borayotganligini ko‘rish mumkin.

Bu o‘rinda sinonimik qatorda paradigma a’zolariga xos bo‘lgan umumiy ma’no, ya’ni aynanlik bilan bir vaqtda, ularni bir-biridan farqlab turuvchi hamda ziddiyatga asos bo‘luvchi farqliliklarning ham mavjud bo‘lishini e’tirof etish lozim.

O.Bozorov bu haqda fikr yuritar ekan, farqlilik aynanlik doirasidagi nozik o‘zgarishlarning bevosita kuchayib, rivojlanib borishi natijasida predmetning nisbiy o‘zgachalik xususiyatlarini kasb eta borish holati ekanligini, u bir tomondan, aynanlik holati, ikkinchi tomondan, zidlik (boshqachalik, boshqa narsalarga aylanib bo‘lganlik ko‘rinishi bilan bog‘liq bo‘lgan oraliq shakllanish ekanligini ta’kidlab, bunga tildagi sinonimiya, polisemiya hodisalari bilan bog‘liq bo‘lgan til birliklari misol bo‘la olishini ko‘rsatadi[86].

Demak, evfemik ma’nodosh leksemalar orasidagi farqlilik mavjudligi ziddiyatga yo‘l ochuvchi, uni yuzaga keltiruvchi belgi bo‘la oladi va bu belgi graduonimiyani yuzaga keltirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu leksemalardagi farqlilik aynanlik zamirida yuzaga kelar ekan, bu ikki jihat doimiy muhim munosabatlar asosida paydo bo‘ladi. Mana

[86] Бозоров О. Кўрсатилган асар. – 31 б.

shunday farqlilik aynanlikdan sifat o‘zgarishlari natijasi o‘laroq o‘sib chiqar ekan, bu jarayonda yangi bir mohiyatning yuzaga kelishi sodir bo‘ladi.

Evfemik ma’noli leksemalar munosabatidagi o‘zaro farqlanish tamoyili, ayniqsa, quyidagi birliklarda yorqin ko‘zga tashlanadi. Bu esa evfemik sinonim qatorlarda ham darajalanish jarayoni mavjudligini ko‘rsatib turibdi. Bunday graduonimik qatorlardagi evfemik sinonimlardan o‘rinli foydalanishda tilimizning o‘ziga xos xususiyatlarini yanada yaqqol his etishimiz mumkin. Ularni nutqimizda qo‘llash nutqiy vaziyatga nisbatan evfemik darajalanuvchi har bir birlikni o‘z mazmuniga mos tarzda tog‘ri ishlatish lozimligiga olib keladi.

Bunda leksik birliklar anglatgan ma’noda belgi yoki holatning darajalanishi yuzaga keladi. Buning natijasida evfemik ma’nodosh qatorning boshlang‘ich a’zolari va keying ma’nodosh variantlari o‘rtasida belgi darajasiga ko‘ra mazmun kuchayishi yuzaga kelishini anglash mumkin. Bu esa evfemik graduonim leksemalarda farqlilik xususiyatidan darak beradi. Jumladan, Жумладан, ***boshqorong‘u bo‘lmoq*** **va** ***og‘iroyoq*** leksemalarida aks etgan **boshqorong‘u bo‘lmoq** belgisining kuchli darajadagi farqi bu leksemalarning daraja belgisiga ko‘ra ziddiyatga kirishuvini anglatadi. Xuddi shunday, **boshi ochiq → *beva* → *tul*** sinonimik qatorida **boshi ochiq** va **tul** leksemasining ta’sirida yuzaga kelgan darajalanish oqibatida **boshi ochiq** va **tul** leksemalari munosabatida ziddiyat yuzaga kelganligini kuzatishimiz mumkin. Anglashiladiki, nafaqat antonimik munosabatdagi qatorlarda, balki evfemik sinonimik qatorlarda ham (ayniqsa, belgining miqdoriy farqlanishini anglatuvchi sinonimlar qatorida) oraliq holatlarning yuzaga kelishi bu tipdagi leksemalar munosabatida evfemik graduonimiyaning shakllanishiga olib keladi.

O‘zbek tilshunosligida bu masalalar tahliliga O.Bozorov[87], Sh.Orifjonova[88], N.Shirinova[89], J.Jumaboyeva[90], G‘.Rahmonov[91] kabi tilshunoslarimizning tadqiqotlari amalga oshirilganligini qayd etish mumkin. Yuqoridagi va shu kabi amalga oshirilgan ishlar natijasi o‘laroq o‘zbek tilshunosligida leksik sath birliklarining semantik munosabatida kuzatiluvchi belgining darajalanishi masalasiga doir nazariy konsepsiya ma’lum darajada shakllandi. Uning keyingi qirralari hisoblangan evfemik ma’nodosh leksemalar qatorida darajalanish hodisasi nutqiy madaniyat jarayonida so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabatlarni yanada takomillashtirishga bevosita xizmat qiluvchi omil hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. – Тошкент: Фан, 1999. – 29 б.
2. Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия. Филол.фан.ном. ...дис. – Тошкент, 1994. –104-109 б.
3. Ширинова. Н. Ўзбек тилида предметлик ва белги-хусусият маъноларини фарқлаш воситалари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009, – 10-11 б.
4. Джумабаева Ж. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик градуонимия. – Т.: Мумтоз сўз, 2014. –18 б.
5. Раҳмонов Ғ. Ўзбек тилида луғавий синонимия ва градуонимиянинг ўзаро муносабати. ф.ф.ф.д. ... дисс. – Фарғона, 2019, – 21-б.

[87] Бозоров О. Кўрсатилган асар. – 71-73 б.

[88] Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия. Филол.фан.ном....дис. – Тошкент, 1994. –104-109 б.

[89] Ширинова. Н. Ўзбек тилида предметлик ва белги-хусусият маъноларини фарқлаш воситалари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009, – 10-11 б.

[90] Джумабаева Ж. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик градуонимия. – Т.: Мумтоз сўз, 2014. –18 б.

[91] Раҳмонов Ғ.Ўзбек тилида луғавий синонимия ва градуонимиянинг ўзаро муносабати. ф.ф.ф.д. ... дисс. – Фарғона, 2019, – 21-б.

REKLAMA MATNLARIDA DEYKTIK BIRLIKLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mamirova Dilnoza SHIRINBOYEVNA,
Samarqand davlat chet tillar instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD.

Annotatsiya

Ushbu maqolada adresant-adresat munosabati va ularning munosabatida deyksisning o‘rni haqida ayrim mulohazalar keltirilgan. Bu mulohazalar reklama matnlari doirasida yoritishga harakat qilindi (manbaa O‘zbekiston telekanallaridagi reklamalar).

Kalit so‘zlar: *adresant, adresat, deyksis, deyktik iboralar, segment qurilma.*

Sotsiolingvistik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, nutq kommunikantlarining millati, jinsi, yoshi, ijtimoiy belgilariga qarab ixtisoslashadi. Bulardan tashqari, so‘zlovchi va tinglovchi orasidagi aloqaning kontakt-distantligiga ko‘ra ham ixtisoslashadi.

Ma’lumki, har qanday muloqotda so‘zlovchi va tinglovchi zaruriy uzv, ya’ni tarkibiy qismlar sifatida, albatta, ishtirok etadi. Bunda so‘zlovchi – adresant-kommunikator deb, adresantning nutqi qaratilgan shaxs – tinglovchi adresat-kommunikant deb yuritiladi va bular muloqotda bevosita ishtirok etuvchilardir[1;41-42]. Shu ma’noda aytishimiz mumkinki, reklamada adresat – reklama matni bilan tanishuvchi shaxs, o‘quvchi. Retsipient termini ham aynan shu ma’noda qo‘llaniladi. Adresant – reklama matnini tayyorlovchi va tarqatuvchi sub`ekt.

Mashhur reklamachi D. Ogilvi adresantlarga murojaat qilib, shunday degan edi: **“Agar siz odamlarni biror narsaga ishontirish yoki xarid qilishga ko‘ndirmoqchi bo‘lsangiz, ularning tilida gapirishingiz kerak bo‘ladi”[2;28]**.

Haqiqatan ham, reklamada sotishning uddasidan chiqish uchun adresant ma’lum stilistik eshitish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Bilamizki, yozuvchi o‘ziga xos yagona va betakror uslubiga ega bo‘lish huquqiga ega. Adresant esa bunday huquqqa ega emas. U faqat qaysi kasb to‘g‘ri kelsa, tadbirkorlikmi, dehqonmi, shifokormi, uy bekasimi va shunga o‘xshash shaxslar tilini bilishi shart. Bu haqda mashhur, dunyo tanigan shaxslardan biri Rezerford shunday degan edi:

“Agar siz farroshingizga nima bilan shug‘ullanayotganingizni tushuntira olmasangiz – siz hech narsaga arzimaydigan mutaxassissiz”. Demak, siz qilayotgan ishni hamma tushunishi uchun o‘rtamiyonalashtiring, sohtalikdan qoching [3; 47].

Reklama tarixi shuni ko‘rsatadiki, yaxshi sotuvchilardan yaxshi kopireyterlar chiqadi. Hammasi juda oddiy – yaxshi sotuvchi o‘qishda ham, praktikada, ya’ni amaliyotda ham mijoz fikrini o‘qiy oladi, unga nima kerakligini o‘rganadi, xaridor tilida gapirishni biladi. Bu borada adresantga notiqlik san`ati yordam beradi. U xaridorga mahsulot haqidagi tushunchalarga ishora qiluvchi birliklardan unumli foydalanadi. Bu birliklardan biri tilshunoslikda “deyktik iboralar” deb ataladi.

«Deyksis» so‘zining asl yunoncha ma’nosi «ko‘rsatish», «ishora» bo‘lib, ilmiy qo‘llanishda lison vositasida «voqyelikka ishora, ko‘rsatish» mazmunini olgan. Ko‘rsatish, ishora vazifasini ado etuvchi birliklarni *deyktik ibora* deb atashadi»[4;154]. «Deyktik iboralar kommunikativ hodisa-uzatilayotgan axborotning ma’lum qismlarini alohida ta’kidlash, aniqlashtirish uchun xizmat qiladi»[4;154].

Til tizimi markazida deyksis voqyelikni ekstralingvistik (pragmatik aspektda) va lingvistik (ifodaning aniq lisoniy vositasi) omillar asosida koʻrsatuvchi hodisa sifatida turadi [5;8]. Shunga koʻra deyksisni yuzaga chiqaruvchi vositalarni ikki turga boʻlish mumkin: lingvistik va ekstralingvistik vositalar. Buni misollar orqali koʻrib chiqamiz: *Koʻpchilikka deraza harid qilishda hyech qanday maslahat va tavsiya berilmaydi, ularga faqat hammasi yaxshi boʻlishini aytishadi xolos. Eh imzo bilan hammasi boshqacha! Oʻrnatishdan oldin maslahat, professional oʻlchov va montaj, shuningdek sifat kafolati. Imzo – oqilona tanlov.*

Ooo yoʻq, shamollash. Homilado yoki yosh bolalar uchun qanday davolanishni tanlash kerak? Nazaferon – yaqinlaringizni himoya qiling.

Ushbu misoldagi reklama matni lingvistik jihatdan kerakli soʻzlar tanlanib, toʻgʻri tuzilgan boʻlsa-da, gapda ekstralingvistik vosita sifatida *eh* his-hayajon undovi ishlatilayapti. Bu esa ushbu mahsulotni xarid qilmagan xaridorga ham afsus va imzoni olganda hammasi yaxshi boʻlishi mumkinligini bildirib turibdi.

Ikkinchi misoldagi *o* undovi norozilik kayfiyatini koʻrsatish uchun kiritilgan boʻlib, bu jarayonni toʻgʻirlash uchun *Nazaferon* – unga havola tarzida deyktik birlik sifati *yaqinlaringizni himoya qiling* jumlasi kiritilgan.

Deyksis haqida monografik tadqiqot olib borgan N.A.Srebryanskaya, deyksis ishora qilar ekan, haqli ravishda nimaga ishora qiladi, degan savol tugʻiladi deydi hamda ushbu savolga javob tariqasida Ch.Filmorning «deyksis – bu soʻzlovchi shaxsi va adresatga, fikr aytilayotgan makon va zamonga ishora» degan fikrini keltiradi»[5;8].

Masalan, biror marta foydalanib koʻrmagan mahsulotga nisbatan «Bu nima?» savoli bilan adresantga murojaat qilinganda, deyktik ibora («bu») vositasida shu muhitda mavjud boʻlgan narsa- predmetga ishoradir.

Segment qurilmali gaplarda deyksis har doim tinglovchiga – adresatga yoki soʻzlovchi nazarda tutgan predmet, voqyelikka ishora qiladi.

Segment qurilmalarga xos boʻlgan asosiy xususiyat u bilan aloqalangan gap tarkibida kishilik hamda koʻrsatish olmoshlarining kelishi boʻlib, asosiy gap tarkibidagi deyksis turli predmet, shaxs, hodisalarga ishora qilishi mumkin:

Qarang anavilar fantaga c vitaminini qoʻshishibdi, Gapirganning hojati yoʻq, natijasini koʻring. Ta'miga gap yoʻq, tinch oʻtirgan yoʻq, kun boʻyi gʻayrat qaynoq, xush kayfiyat ta'mi bu, quvonch va zavq ta'mi bu, olamga shoʻngʻi, ilhomni zabt et,c vitaminli yangi fanta. Doʻstlar biz c vitamini bilan butun kuch-gʻayratga toʻldik, lazzati zoʻr, birga shodonlashaylik. Keling fanta ochaylik.

Bu reklama misolida *Qarang anavilar fantaga c vitaminini qoʻshishibdi* jumlasi aytilgandan keyin, adresantda anavilar kimlar?, fanta ichimligiga qoʻshilsa nima boʻlibdi? kabi savollar tugʻilishi tabiiy. Shuning uchun adresat bu mahsulotga *c* vitami qoʻshilganda nima boʻlish holatini she'riy tarzda tinglovchiga yetkazib beradi. Maqsad esa tinglovchini xaridorga aylantirish.

*Professor Sh.Safarov "Pragmalingvistika" kitobining VII-bobini "*Deyksis va nutqiy muloqot matni yoxud matnda mazmunning ifoda topishi" deb nomlagan boʻlib, unda quyidagilarni keltiradi:

“Muloqot faoliyati uchun makon va zamon hodisalarining muhimligini unutmaslik kerak. Har bir voqyea ma’lum makon va zamonda kechadi hamda u yoki bu hodisa haqidagi axborotni qabul qilayotgan tinglovchi uning qachon, qayerda sodir bo‘lganligini bilishga intiladi. Bundan tashqari, axborotning to‘liq idroki uchun, har qanday faoliyat ma’lum shaxs (shaxslar) tomonidan bajarilishi sababli, ushbu faoliyat amalining subyekti haqidagi ma’lumot ham talab qilinadi. Demak, «qachon» va «qayerda» savollari «kim» savolining hamrohligida nutqiy tuzilma mundarijasini belgilaydi. Ideal lisoniy faoliyat nutqiy tuzilmalar tarkibida aynan shu savollarga javob beruvchi birliklarning to‘liq tartibda mavjud bo‘lishini taqozo etadi”[4;164].

Reklama matnlariga e’tibor beradigan bo‘lsak, haqiqatdan ham agar matn to‘liq bo‘lmasa, tinglovchiga bir ko‘rish yoki eshitishda ma’lum bo‘lmaydi. Masalan, quyidagi reklamada:

Uy manzilingizni yoki ish joyingizni so‘rashganida, masalan, shaxsiy ofisingizni, shaxsiy klinikangizning, yoki do‘koningiz qayerdaligini so‘rashganida siz endi o‘z manzilingizni aytishingiz shart emas. Endi manzilingizni so‘raganlarga beradigan javobingiz aniq deyiladi va ko‘rsatkich barmoq bilan eng baland bino ko‘rsatiladi. Buni bilish uchun tinglovchi binoni qanday qurilganligini va qayerlardan ham ko‘rish mumkinligini bilishi kerak bo‘ladi. Albatta, bu reklamani biz ma’lum ijtimoiy qatlamga mos deyishimiz mumkin. Chunki iqtisodchi adresant - tinglovchilarga tezkor ta’sir o‘tkazish uchun, muloqot strategiyasini saqlagan holda, uning ijrosini ta’minlovchi turli vositalardan foydalanishga harakat qiladi, lisoniy faoliyat amallari shakllarini o‘zgartirib turadi. Xohlasa imo-ishoralar bilan yoki so‘zlar bilan ifodalashi mumkin, ammo reklama matni butun ommaga qaratilar ekan u aniq, o‘ziga jalb qiladigan va tushunarli matnlardan iborat bo‘lishi lozim. Lekin keyingi vaqtlarda ataylab odamlarni o‘ylashga majbur qiladigan va shu bilan mahsulotni nomini tinglovchining tilida ancha vaqt saqlab turishga qaratilgan reklamalar ham borligini bilamiz. Chunki insonlarning ko‘pchiligi tushunmagan narsasini bilishga qiziqadi. Deyktik iboralar anna shu tushunilmagan jihatlarni ochishga yordam beradi.

Deyksis tilda o‘ziga xos semantik maydon hosil qilib, uning markazida nutq ijodkori, ya’ni so‘zlovchining o‘zi turadi. «Deyksis so‘zlovchining nutq faoliyati jarayonida ma’lum makonda joylashganligini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan gapirganda, deyksis diskurs darajasida o‘rganilishi kerak hamda «havolaning maxsus holati» sifatida e’tirof etilishi mumkin»[6;17]. Tadqiqotchining bu fikrlarining isboti sifatida biz quyidagi reklama matnini keltirishimiz mumkin:

Ovqatlanish paytidagi quvonch hissi undan keyingi og‘irlik, noqulaylik, qorinning dam bo‘lishi sababli yo‘qoladi. Bundan qanday xolos bo‘lish mumkin. Kreonni qo‘llab ko‘ring kreon yuzlab fermentli minimikrosferalardan iborat bo‘lib, ular atigi 15 daqiqada ta’sir ko‘rsata boshlaydi va hazm qilishni yaxshilaydi. Kreon hazm qilish muammolarining tezkor davosi.

Bu reklamada *Ovqatlanish paytidagi quvonch hissi undan keyingi og‘irlik, noqulaylik, qorinning dam bo‘lishi sababli yo‘qoladi. Bundan qanday xolos bo‘lish mumkin-segment bo‘lak,* havola, ya’ni deytik birlik sifatida *Kreonni qo‘llab ko‘ring kreon*

yuzlab fermentli minimikrosferalardan iborat bo‘lib, ular atigi 15 daqiqada ta’sir ko‘rsata boshlaydi va hazm qilishni yaxshilaydi. Kreon hazm qilish muammolarining tezkor davosi kabilarni olish mumkin. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, deyksislar fikrni oydinlashtirish va amalga oshirish jarayonida faol munosabatlarda bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Aliqulov Z., Boymirzayeva S. Sotsiolingvistika. – Samarqand: SamDU, 2010. 41-42-b.
2. Огилви Д. Тайны рекламного двора. 2009. -145 с. www.koob.ru.
3. Розенталь Д.Э., Кохтев Н.Н. Язык рекламных текстов. – Москва, 1981. – 104 с.
4. Сафаров. Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б .154
5. Сребрянская Н.А.Дейксис и его проекции в художественном тексте. – Воронеж, 2005. – С. 8
6. Шерматов А.А. Инглиз илмий – техник матнида дейксиснинг ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 2008. – 155 б.

ҚИЗИЛТЕПА ТУМАНИ ТОПОНИМЛАРИНИНГ АРЕАЛ ВА ТАРИХИЙ ТАҲЛИЛИ ТАВСИФИ

Н.Ў.ҒАНИЕВ,
Навоий давлат кончилик ва технологиялар университети
Ўзбек ва чет тиллар кафедраси доц.в.б.

Жаҳон тилшунослигида жой номларини ифодаловчи макро ва микротопонимлар миллий, тарихий, ижтимоий-сиёсий ва маданий-маърифий нуқтаи назардан алоҳида аҳамиятга эга. Жумладан, муайян ҳудуднинг махсус тўпланмаган, кам ўрганилган топонимик бирликларини йиғиш, уларнинг лексик-семантик хусусиятлари, номинатив, коммуникатив, услубий вазифаларини аниқлаш эса бугунги глобаллашув жараёнида дунё халқлари ўртасида ўзаро ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, маънавий-маърифий, маданий алоқалар, туристик муносабатларда амалий аҳамият касб этади. Зеро, «Тарихий меросни асраб-авайлаш, ўрганиш ва авлодларга қолдириш, давлатимиз сиёсатининг энг муҳим устувор йўналишларидан биридир»[92].

Мамлакатимизда «Бугунги глобаллашув даврида ҳар бир халқ, ҳар қайси мустақил давлат ўз миллий манфаатларини таъминлаш, бу борада аввало ўз маданиятини, азалий қадриятларини, она тилини асраб-авайлаш ва ривожлантириш масаласига устувор аҳамият қаратиши табиий»[93] бўлган ҳозирги бир шароитда ўзбек ономастикаси соҳасини илмий назарий ва амалий йўналишларда жиддий ривожлантиришни ҳам талаб этади. Шу каби талаб ва эҳтиёжлар натижасида ўзбек тилшунослигида халқ тарихи, қадрияти, анъана ва урф-одатларини ўзида тўлиқ ифодаловчи лисоний бирликлар – топонимларни муайян ҳудуд мисолида лингвистик тадқиқ этиш долзарб вазифалардан бири ҳисобланади. Бу эса уларнинг маънавий мерос, миллий маданий бойлик ва кўҳна тарихий ёдгорликлар мажмуининг алоҳида муҳим бир элементлигини кўрсатади.

Зеро, «Биз ўз олдимизга мамлакатимизда Учинчи Ренессанс пойдеворини барпо этишдек улуғ мақсадни қўйган эканмиз, бунинг учун янги Хоразмийлар, Берунийлар, Ибн Синолар, Улуғбеклар, Навоий ва Бобурларни тарбиялаб берадиган муҳит ва

[92]Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. I жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 29

[93]Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5850-сон Фармони. Манба: http://lex.uz/docs/4561730

шароитларни яратишимиз керак. Бунда, аввало, таълим ва тарбияни ривожлантириш, соғлом турмуш тарзини қарор топтириш, илм-фан ва инновацияларни тараққий эттириш миллий ғоямизнинг асосий устунлари бўлиб хизмат қилиши лозим»[94].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сонли «Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги фармонида: «...илмий асосланган янги сўз ва терминларни истеъмолга киритиш, замонавий терминларнинг ўзбекона муқобилларини яратиш ва бир хилда қўлланишини таъминлаш, географик ва бошқа топонимик объектларга қонун ҳужжатларига мувофиқ ном берилиши борасидаги фаолиятни мониторинг қилиш ва мувофиқлаштириш»[95] юзасидан вазифаларнинг белгилаб берилиши, Қизилтепа тумани микротопонимларининг тадқиқи юзасидан илмий тадқиқотларни янада чуқурлаштириш зарурати мавжудлигини кўрсатади.

Туман топонимикасининг характерли хусусиятларидан яна бири, яъни турли миллат, халқ, элат, қабила ва уруғ номи билан аталган этнотопонимларнинг кенг тарқалганлигидир. Қизилтепа туман ҳудудида ўзбек-туркий уруғлари билан биргаликда қирғиз, қозоқ каби халқлар ҳамда тожик халқига мансуб этник гуруҳлар яшаб келади. Шу сабабдан ҳам этник гуруҳлар номларига оид сўз ўша жойда қўлланган топонимларда ҳам ўз ифодасини топган: Қозоқовул, Тожикқишлоқ, Тожикмаҳалла, Тожикон ва бошқалар.

Қизилтепа тумани ономастикасида ўз қатламга мансуб сўзлар билан аталган топонимлар асосий ва муҳим ўринни эгаллайди. Масалан, Ўртачўл, Чўпонота кабилар.

Туман топонимлари мавзуий жиҳатдан қуйидаги гуруҳлар, яъни:

1. Жойнинг рельеф хусусиятини ифодаловчи топонимлар.
2. Гидрографик топонимлар.
3. Айрим ўсимлик, дарахт номлари билан аталган топонимлар.
4. Касб-ҳунарни ифодаловчи топонимлар.
5. Ранг-тус билдирувчи топонимлар.
6. Ҳажм, шакл, масофа, юза, ўлчов, ўрин маъносини билдирувчи топонимлар.
7. Сонни, микдорни ифодаловчи топонимлар.
8. Уруғ, қабила номлари асосида юзага келган топонимлар асосида тасниф қилинди.

Мамлакатимиз топонимиясида генетик жиҳатдан бошқа тилларга мансуб бўлган сўзлардан таркиб топган топонимлар бирмунча кўп учрайди. Ана шундай ўзга тил сўзлари асосида яратилган ўзлашма қатламга форс-тожик тили, араб тили, рус тили лексикасига алоқадор сўзлар воситаларида ясалган топонимлар киради.

Тадқиқ этилган туман ҳудудида **форсча-тожик тилига оид** топонимлар анчагина қисмни ташкил этади». Бу табиий ҳолдир, чунки бу икки халқ қадим замонлардан бери ёнма-ён яшаб, ўзаро иқтисодий, сиёсий, маданий алоқада бўлиб келганлар. Бундай муносабатлар икки халқ тарқалган ҳудуднинг жой номлари тизимида ҳам ўз аксини топган.

Қизилтепа туманининг этнотопонимлари унинг қадимги давридан токи XX асрнинг 10-йилларигача тарихий манба ва адабиётларда атрофлича ёритилган. Айниқса, бу катта даврни ёритишда, ўрта асрда мамлакатимизда ёзилган тарихий асарларда жуда кўп этнотопонимларни учратиш мумкин. Жумладан, Наршахийнинг «Тарихи Бухоро» асарида келтирилган этнотопономик маълумотларни тарихий ҳамда

[94]Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига Мурожаатномаси. Тошкент.: 2020. Lex/uz.

[95]Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сонли «Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги фармони // www.lex.uz

тилшунослик фанлараро қиёслаш методи асосида илмий назарий ва амалий жиҳатдан таҳлил қилиш мақсадга мувофиқ бўлар эди. Қизилтепа ва унинг атрофидаги туманларда, аниқроғи, Ғиждувон, Вобкент, Шофиркон туманларида ҳозирги адабий тилда ишлатиладиган *«дала»* сўзининг ўрнига *«ёвон»* сўзи XX асрнинг 90 йилларигача маҳаллий шевада кенг ишлатилар эди. Юқорида кўрсатилган ҳудудларда аҳолининг турмуш тарзининг қисми бўлган ҳовлисидаги нон ёпиладиган ҳозир *«тандирхона»* деб аталадиган жой номи шевада *«танўрхона»* ёки қисқа қилиб, *«танўр»* (танўрга нон ёпдим) деб аталган. Тилимизда бундай азалдан ишлатиб келинадиган сўзлар жуда кўп, лекин ҳозирги ёш авлод бу сўзларни деярли билмайди.

Тадқиқ этилган ҳудуд халқи асосан, икки тилли бўлиб, ўзига хослик унинг турмуш тарзи, анъаналари ва маданиятида намоён бўлади. Собиқ совет даврида халқимиз азалдан ўзининг турмушида, маданий, маънавий ва маиший хўжалик ҳаётида фойдаланган қатор сўзлар, атамалар истеъмолдан чиқиб кетди. Бунинг устига бу сўзлардан фойдаланиш доираси доим қисқариб борди. Масалан, тилимизда маданий воқеликни ифодаловчи сўзлар жуда хилма-хил бўлиб, биргина маънони ифодаловчи 10 та сўзни айтиш кифоя. Масалан, *дала, ёвон, ҳаёт, ташқари, чарвоқ, чорбоғ, дарахтзор, залдоризор* каби. Ҳудуд аҳолисининг ҳаёт тарзи ва маданияти унинг тилида маълум даражада акс этади. Турли маданиятларнинг ўзаро аралашуви тилда, халқ оғзаки ижодида, анъаналарида намоён бўлади.

Қизилтепа тумани жой номларини, уларнинг топоним, ойконим, гидроним, некроним каби мавзуий гуруҳларга бўлмасдан, ҳозирда мавжуд қишлоқ фуқаролар йиғини ҳамда маҳалла фуқаролар йиғинлари кесимида жойлаштириш сифатидаги таснифи ўзининг семантик-лисоний, когнитив, этимологик, лингвомаданий ҳамда бошқа илмий параметрларга жавоб бериши билан устунликка эга.

Туркий тиллар ономастикасининг тадқиқи манбалари қадим тарих, яъни Осиё мамлакатларининг жой номларини илмий жиҳатдан махсус ўрганган ва илмий этимологик талқин қилган, М.Кошғарий ва унинг «Девону луғотит-турк» асарига бориб тақалади. Бу асар А.Н.Кононовнинг фикрича, «XI аср туркий халқларининг ҳаёти, турмуш тарзи, ... этнонимлар ва топонимлар. ... қавм-қариндошлик атамалари,.... географик номлар ва атамалар, ... турли тарихий, мифологик қаҳрамонларнинг номлари, диний, этник атамалар ва бошқалар ҳақида маълумот берувчи ягона манбадир»[96]. Шуни қайд этиб ўтиш керакки, бу асарда туркий тилларнинг улкан ономастик сатҳи ўз аксини топган.

Туман ҳудудининг қадимийлиги ҳамда археологик ёдгорликларнинг, маданий қатламларнинг бирмунча кўплигини ҳисобга олиб, мазкур ҳудудни диахрон планда тадқиқот объекти сифатида ўрганилишига етарли илмий назарий асос бор деб ҳисоблаймиз. Тадқиқот жараёнида Қизилтепада аниқланган мавжуд 72 номдаги тарихий-археологик ҳамда архитектура объектларнинг номлари тадқиқ этилди.

Тадқиқ этилган ҳудуд топонимиясининг изоҳли луғатида тадқиқот иловаларида тавсиф этиладиган топонимик бирлик бўлган ойконим, комоним, некроним, доромоним ва гидронимларнинг номларини бериш билан бир қаторда мазкур топонимларнинг пайдо бўлишини турли манбалар асосида олинган халқона ривоятлар негизида таъриф берилди.

[96]Наханова Л.А.Историко-семантическая интерпретация топонимов в Орхоно-Енисейских памятниках. Диссертация на соискание ученой степени (PhD) доктора философии. - Астана, 2014. -С.13; Кононов А.Н. Махмуд Кашгарский и его «Дивану лугат-ит турк».// Советская Тюркология. – 1972. №1. –С.3-17.

Шунингдек, ҳудуддаги ойконимларнинг шаклланиши асосан содда, баъзан апеллятив лексикада ясама бўлган ҳолда ономастик лексикада эса бир бутун номнинг ўзи тўғрисида фикр юритилган.

Туман ойконимлари тизими номланиши умумтуркий ва форс-тожикча номлаш тизимининг ажралмас бир бўлаги эканлигини, ойконимларнинг топоасослари, асосан, умумтуркий, форс-тожикча ҳамда қисман бошқа тилларнинг лексемаларидан шаклланганлигини, шунингдек, улар бир неча тарихий даврларнинг маҳсули эканлигини ифодалаб келади.

Вахимкор – мазкур топонимлар ўтмишда қўлланган *вақф* термини асосида юзага келган. Вақф сўзи арабча бўлиб, «дин йўлида ажратилган мол-мулк» деган маънони англатган. (Ислом. Справочнк. Тошкент, 1986, 61-б.) «Вақф қилинган ерларда ташкил топган қишлоқларнинг баъзилари юқоридаги каби Вахим деб аталиб кетган».

Вахм арабча вақф сўзининг маҳаллий халқ тилидаги талаффузидир: *вақф* > *вахф* > *вахм* > *Вахм*, яъни сўзда олдин қ ундоши х ундошига алмашган. Сўнгра лаб-тиш ф ундоши талаффуз жараёнида лаб-лаб м ундошига ўзгарган. Демак, ойконим апеллятив лексикадаги ўзлашган сўзлардан танланган ва ономастик лексика сатҳига ўтиб, жой номи бўлиб келмоқда: *вахм* > *вахим* > *Вахим.* Унинг этимони ўзлашган ва «туриш, туроқ, қўзғалмас, дин ва хайрли мақсадлар йўлида ажратилган мол-мулк» деган маъноларни англатадиган вахм сўзи саналади.

Эмакти – қишлоғи М.Кошғарийнинг «Девону луғотит турк» асари *этмак* сўзи *нон* маъносида; шунингдек, *«эр этмакланди – кишининг нони кўпайди»* маъносида берилади.

Этмäкчї – новвой. Демак, новвой маъносидаги мазкур сўз нон тушунчасини англатувчи этмак асосига -чи аффиксини қўшилишидан ясалган. Бу касб-ҳунар номи эски ўзбек тилида ҳам, хусусан, Алишер Навоий асарларида ҳам *итмакчи* фонетик вариантида қўлланганлигини кўришимиз мумкин: *«Итмакчи танури андин қизиқ, аллоф бозори андин иссиқ».* Ҳозирги ўзбек адабий тилида эса этмакчи//итмакчи қўлланмайди, архаик сўз ҳисобланади. Демак, бу сўз аслида этмакчи шаклидан фонетик ўзгаришлар асосида асл талаффузини йўқотиб, эмакти шаклини олган: Демак, бу топоним апеллятив лексикадаги новвой маъносидаги *этмак* сўзининг топонимлашуви жараёнида ономастик лексика сатҳига ўтишидан юзага келган.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, Қизилтепа тарихи бўйича фаолият кўрсатаётган олимлар, журналистлар, тарихчиларнинг жалб қилиниши, мазкур мавзуни ўрганишга киришишда энг асосий таянч манба ҳисобланади.

АДАБИЁТЛАР

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. I жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 29
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5850-сон Фармони. Манба: http://lex.uz/docs/4561730
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сонли «Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги фармони // www.lex.uz
4. Эназаров Т.Ж. Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати.-Тошкент, 2006. –Б.6-14. 5. Наханова Л.А.Историко-семантическая интерпретация топонимов в Орхоно-Енисейских

памятниках. Диссертация на соискание ученой степени (PhD) доктора философии. - Астана, 2014. -С.13; Кононов А.Н. Махмуд Кашгарский и его «Дивану лугат-ит турк».// Советская Тюркология. – 1972. №1. –С.3-17.
5. Адизова Н.Б. Бухоро тумани микротопонимларининг лексик-семантик тадқиқи. ф.ф.ф.д (PhD) дисс.автореферати. – Бухоро, 2021. –Б.16-19.

НУТҚИЙ СЎЗ БИРИКМАЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАВСИФИГА ДОИР

Жавлон ИБРАГИМОВ,
Абдулла Орипов ижод мактаби ўқитувчиси,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация

Узоқ вақт тилшунос олимлар сўз бирикмасининг тил ёки нутқ бирлиги эканлиги ҳақида мунозара қилиб келдилар. Тил ва нутқ зиддияти асосида ёндашув натижасида сўз бирикмаси қолиплари лисоний, бу қолиплардан ҳосил бўлган сўз бирикмалари нутқий ҳодиса сифатда баҳоланди. Сўз бирикмасининг “бирикма” тарзида қўлланиши нутқдаги тежам билан боғлиқ бўлиб, қисқа нутқ талабидан келиб чиққанлиги шубҳасиз.

Аннотация

Долгое время лингвисты спорили о том, является ли словосочетания единицей языка или речи. В результате подхода, основанного на конфликте языка и речи, образцы словосочетаний оценивались как лингвистические, а словосочетания, образованные из этих образцов, качественно оценивались как речевые явления. Употребление словосочетания в форме «сочетание» связано с экономией в речи и, несомненно, обусловлено требованием краткости речи.

Annotation

For a long time, linguists have been arguing about whether phrases are a unit of language or speech. As a result of the approach based on the conflict of language and speech, phrase samples were evaluated as linguistic, and word combinations formed from these samples were qualitatively evaluated as speech phenomena. The use of the phrase in the form "combination" is associated with economy in speech and, undoubtedly, due to the requirement of brevity of speech.

Таянч сўз ва иборалар: синтактик позиция, тобе сўз, ҳоким сўз, бирикма, алоқа, шаклий омил, маъновий омил, отли бирикма, феълли бирикма

Ключевые слова и выражения: синтаксическая позиция, придаточное слово, управляющее слово, сочетание, связь, формальный фактор, семантический фактор, существительное словосочетание, глаголное словосочетание

Key words and expressions: syntactic position, subordinate word, control word, combination, connection, formal factor, semantic factor, noun phrase, verb phrase

Ўзбек тилшунослигида синтаксиснинг муҳим объекти сифатида сўз бирикмаси назарий жиҳатдан анъанавий тилшуносликда ҳам (А.Ғуломов, М.Асқарова, Ғ.Абдураҳмонов, Ф.Абдуллаев, Ш.Раҳматуллаев), структурал тилшуносликда ҳам (Н.Маҳмудов, Ҳ.Неъматов, А.Нурмонов, Р.Сайфуллаева, М.Қурбонова, Б.Мснглиев, М.Абузалова, Ш.Акрамов, Р.Бобокалонов, С.Назарова, Л.Раупова, Б.Ёров) атрофлича

тадқиқ қилинган. Узоқ вақт тилшунос олимлар сўз бирикмасининг тил ёки нутқ бирлиги эканлиги ҳақида мунозара қилиб келдилар. Тил ва нутқ зиддияти асосида ёндашув натижасида сўз бирикмаси қолиплари лисоний, бу қолиплардан ҳосил бўлган сўз бирикмалари нутқий ҳодиса сифатда баҳоланди. “Дарҳақиқат, валентлик ва сўз бирикмаси ўзаро моҳият ва ҳодиса муносабатидир. Моҳият умумий, ҳодиса эса унинг аниқ кўринишлари саналади. Валентлик абстракт тафаккур сатҳида (моҳият), сўз бирикмаси эса жонли кузатиш сатҳида (ҳодиса) мавжуддир. Сўзларнинг маълум тил меъѐрига хос боғланиш модели тил бирлиги, бу моделнинг лексик бирликлар билан тўлдирилиши, аниқ реаллашуви, ҳодисаларда намоён бўлиши нутқ бирлиги ҳисобланади. Демак, тил ва нутқ зидлиги сўз бирикмаларига ҳам хосдир” [1; 5].

Сўз бирикмаси таҳлилига ўтишдан аввал бу атаманинг тилшуносликда қўлланиш даражасига эътиборни қаратиш муҳим. “Ҳозирги замон тилшунослигида «бирикма» ва «сўз бирикмаси» терминлари ва бу терминлар билан боғлиқ тушунчалар кўпинча бир-биридан фарқланмайди, бир-бирига аралаштириб қўлланилади ёки бир-биридан етарли даражада чегараланмайди[3]. Сўз бирикмасининг “бирикма” тарзида қўлланиши нутқдаги тежам билан боғлиқ бўлиб, қисқа нутқ талабидан келиб чиққанлиги шубҳасиз.

Демак, икки ва ундан ортиқ мустақил сўзларнинг грамматик-семантик муносабатидан ташкил топиб, бир мураккаб тушунча (предмет, ҳаракат, ҳолат, белги тушунчаси) англатадиган эркин бирикмалар сўз бирикмалари дейилади. Баъзи олимлар бирикмалар тугал фикр ифодаламаганлиги учун уларни “очиқ конструкциялар” [2; 5] сифатида таърифлайдилар (фикр тугал бўлиши учун у давом эттирилиши ва шаклланган кесим билан бирикиши лозим).

Сўз бирикмаси, қайд этилганидек, гарчи бу бўлимнинг асоси гап ҳақидаги таълимот саналса-да, синтаксис (гр. sintaxys - тузиш, қуриш) бўлими тадқиқ объекти саналади. Гаплар сўзларнинг эркин бирикувларига ҳам асосланади (сўз-гап каби биргина кесимдан иборат гаплар бундан мустасно). Шунга асосан сўзларнинг боғланиш қонуниятлари, сўз бирикмалари хам синтаксисда ўрганилади. “Атом хусусиятлари ва улариинг бирикиш қонуниятларини очиш молекула табиатини ўрганишга бўйсундирилганлиги каби сўз бирикмаларини ўрганиш ҳам гап таълимотининг таркибий қисми бўлиб, ундан ажратилган ҳолда қаралиши мумкин эмас” [3; 5]. Шу сабабли нутқий сўз бирикмаси ва унинг лисоний сатҳдаги қолипини таҳлил қилишимиз мақсадга мувофиқ бўлади. Нутқий сўз бирикмасига манбаларда турли хил шаклда таъриф берилса-да, уларнинг мазмунида муштараклик мавжуд. Масалан, “Бирдан ортиқ мустақил сўзнинг маъно ва грамматик жиҳатдан тобе боғланиши сўз бирикмаси дейилади: *мактабга бориш, дафтарнинг варағи* каби” [4; 180]. Демак, нутқий сўз бирикмаларида қуйидаги жиҳатларни ажратиш мумкин: 1) камида икки мустақил сўздан тузилади; 2) бирикаётган сўзлар маъно ва грамматик жиҳатдан мос бўлади; 3) аъзолар орасида ҳоким-тобелик муносабати бўлиши лозим; 4) тушунча англатиши лозим.

Сўз бирикмаси мазкур жиҳатларнинг баъзилари мавжуд бўлган бошқа нутқий бирликлардан фарқланади. Масалан, сўз ҳам тушунча ифодалайди, лекин сўз бирикмаси бирдан ортиқ сўзнинг бирикувидан (бунда ҳар бир сўз алоҳида сўроққа жавоб бўла олади) тузилиши билан ундан фарқланади. Шу билан биргаликда сўз англатган тушунчага нисбатан сўз бирикмаси англатган тушунча фарқли. Сўз бирикмаси англатган тушунча сўзникига қараганда аниқроқ, муайянроқ. Буни *китоб* сўзи ва *бадиий китоб* бирикмаси маъноларидаги фарқда ҳам кўришимиз мумкин.

Демак, сўз бирикмаси сўзга нисбатан шаклан кенг бўлса-да, мазмунан торроқ ҳисобланади.

Бирдан ортиқ маъно ва грамматик жиҳатдан мос мустақил сўзларнинг ҳоким-тобе муносабатда бирикиши билан гап ҳам сўз бирикмасига ўхшаш, лекин сўз бирикмаси тушунча англатиши билан фикр англатувчи гапдан фарқланади. Яъни гап предикатив (шаклланган кесимга эга) бирикма ҳисобланса, сўз бирикмаси предикатив бўлмаган бирикма ҳисобланади. Бирдан ортиқ мустақил сўздан тузилиши билан сўз тизмаси (ака ва ука, амма ва хола каби бирикувлар) ҳам сўз бирикмасига ўхшаш, аммо қисмлари орасида тенг алоқа уларнинг фарқланиши учун асос бўлади. Фикр далилини "Ўзбек тилининг мазмуний синтаксисида" А.Аҳмедов томонидан ёзилган қуйидаги сўзларда кўришимиз мумкин: "Шундай қилиб, гап билан сўз бирикмаси ўзаро предикатив ва нопредикатив бирликлар сифатида фарқ қилади. Сўз бирикмаси кам деганда, икки мустақил сўзнинг нопредикатив бирикувидан ҳосил бўладиган синтактик бирликдир" [5; 17].

Сўз бирикмаси, шунингдек, бирдан ортиқ мустақил сўзлардан тузиладиган ва тушунча англатадиган ибораларга ҳам шаклий томондан ўхшаш. Бироқ иборани ҳосил қилувчи сўзлар орасида синтактик алоқа сўнган, бу сўзлар ўзаро яхлитланган, кишилар хотирасида тайёр сақланиш белгиси билан лисоний бирликлар қаторидан жой олган. Иборалар шаклан сўз бирикмасига ўхшаса-да, моҳиятига кўра лексемаларга яқинлашади. Зеро, *капалаги учиб кетмоқ* ибораси билан *қўрқмоқ* сўзининг маъновий моҳияти яқиндир. Иборалар худди лексемалар каби яхлит, "бузилмаган" ҳолда тил соҳибларининг кейинги авлодига ўтади. Сўз бирикмаси эса вақтинчалик, нутқ жараёнида тузиладиган бирликдир. Шу билан бирга сўз бирикмасидаги сўзлар ўз мустақил маъноларини сақлаган бўлса, иборани ҳосил қилувчи сўзлар ўз маъносидан узоқлашган ва умумий иборавий маъно ифодалашда хизмат қилади.

Умуман олганда, ҳозирга қадар турғун сўз бирикмалари талқини бобида тилшунослар фикрларининг муштарак эмаслигини кўрамиз. Ана шу боис фразеологик бирикмалар тавсифида, улар таркибига қай ҳолатдаги турғун бирикмалар киритилиши лозимлиги ҳақида бирор қатъий фикр айтилгани йўқ.

Фразеология бобида айтилаётган фикрлар ҳамон чалкаш ва мунозарали эканлигини узоқ вақт н мақол ва ҳикматли сўзлар, парафразалар, соф турғун бирикмалар, турли хил семантик вазифаларга эга эканлигидан қатъи назар, бир хил ном билан – фразеологик бирикма номи билан талқин этилиб келинганлигида ҳам кўришимиз мумкин. Бу ҳолат мустақиллик йилларига қадар ўзбек тили грамматикасига рус тили грамматикасидаги тадқиқотлар асос қилиб олинганлиги билан изоҳланади. Зеро рус тилшунослигида ҳам фразеологияда юқорида саналган бирикмалар ҳақида аниқ тўхтамга келинмаганлигини кўришимиз мумкин. Баъзи рус тадқиқотчилари эса мақол ва ҳикматли сўзларни нафақат фразеологик тадқиқотлар, балки лингвистик тадқиқотлар доирасидан умуман олиб ташлашни, улар тил системаси сатҳида ўз ўрнига эга эмаслигини таъкидлайди [6; 145]. Ўзбек тилшунослигида мақол, матал, ибора кабилар барқарор бирикмалар сифатида тавсифланди.

Қайд этилганидек, сўз бирикмаси тобе алоқа натижасида ҳосил бўлади. Шу туфайли сўз бирикмаси тобе (эргаш) ҳамда ҳоким (бош) сўздан тузилади дейишимиз мумкин. Тобе сўз ҳоким сўзнинг маъносини аниқлаштиради, яъни маъноси аниқлашаётган сўз ҳоким, ҳоким сўзнинг маъносини аниқлаштираётган сўз тобе сўз ҳисобланади. Сўз бирикмасида ҳоким сўз бирдан ортиқ тобе сўзни эргаштириб келиши мумкин. Лекин тобе мақомдаги сўзлар фақат бир сўзгагина бевосита

эргашади. Масалан, *қизиқарли бадиий китоб* бирикмасида *китоб* сўзи иккита сўзга (*қизиқарли, бадиий*) нисбатан ҳоким. Бунда *китоб* сўзи ҳоким валентлигини, *қизиқарли, бадиий* сўзлари тобе валентлигини намоён этган. Баъзи олимлар маъноси аниқлашаётган сўз ҳоким сўз, унинг маъносини аниқлаштираётган сўз тобе сўз ҳисобланиши бироз ғализ деб ҳисоблайдилар. Бунда бирикмада нафақат ҳоким саналаётган сўзнинг, балки тобе саналаётган сўзнинг ҳам маъноси кенгайишига асосланилади. Зеро, *қизиқарли китоб* бирикувида нафақат *китоб* сўзининг, балки *қизиқарли* сўзининг ҳам маъноси аниқлашаётганлигини (нима *қизиқарли* эканлиги *китоб* сўзи ёрдамида аниқлашмоқда) инкор қилиб бўлмайди. Шу сабабли ҳоким ва тобе аъзоларни белгилашда бошқа воситаларнинг (грамматик шакли, жойлашиши) ҳам ўрни муҳим. Алоқа-муносабат шаклларидан келишик, кўмакчилар тобе сўз таркибида, эгалик шакли ҳоким сўз таркибида қўлланади. Ўзбекча матнларда тобе сўз аввал, ҳоким сўз кейин келади. Баъзан нутқда инверсия ҳодисаси кузатилиши ва шунда тобе сўз ҳоким сўздан кейин келиши мумкин. Тилшунослар сўз бирикмасидаги ҳоким сўзга “кенгаювчи”, тобе сўзга “кенгайтирувчи” атамасини ҳам қўллайдилар. “Кенгаювчи ва кенгайтирувчи атамалари нисбий моҳиятга эга бўлиб, шаклга нисбатан айтилгандагина тўғри бўлади. Масалан: *китобни ўқимоқ* бирикмасида [*ўқимоқ*] лексемаси ёнига яна бир лексема қўшилди ва бир сўз иккита бўлиб, шаклий “ёйилиш”, яъни кенгайиш юз берди. Шаклий кенгайиш эса маъновий торайишни вужудга келтиради. Бунда шакл ва мазмун диалектикаси янада яққолроқ намоён бўлади” [3; 33].

Сўз бирикмасидаги сўзлар тобе алоқанинг уч тури: бошқарув, мослашув ва битишувлардан бири ёрдамида бирикади. **Бошқарув** алоқасида ҳоким сўзнинг талаби билан тобе сўзнинг маълум бир грамматик воситани (тушум, жўналиш, ўрин-пайт, чиқиш келишиклари ёки кўмакчилар) қабул қилишидир. Яъни, бошқарув алоқасида тобе сўз ҳоким сўзга бирикиш учун ўзгаради, шу сабабли бу алоқа шаклий жиҳатдан бир томонлама алоқа ҳисобланади. Қайси восита билан амалга ошганлигига кўра бошқарув иккига ажратилади: 1) келишикли; 2) кўмакчили. Баъзи манбаларда равишдош ва сифатдош шакллари ҳам бошқарув алоқасини ҳосил қилиши айтилади [3; 35]. Равишдош ва сифатдош шаклларининг сўзларни боғлашдаги аҳамиятини ҳисобга олганда бу фикрга қўшилиш мумкин. **Мослашув** алоқасида ҳоким ва тобе сўзлар эгалик шакли ва қаратқич келишиги воситасида бирикади. Бунда эгалик шакли ҳоким сўзга қўшилса, келишик шакли тобе сўзни шакллантиради. Бирикма ҳосил қилишда ҳам ҳоким сўз, ҳам тобе сўз шаклланганлиги учун мослашув шаклий жиҳатдан икки томонлама алоқа ҳисобланади. Баъзан мослашувда ё келишик шакли (*мактаб ўқувчиси*), ё эгалик (*бизнинг ука*) шакли белгисиз қўлланиши мумкин. **Битишув** алоқасида бирикма ҳосил қилаётган сўзлар морфологик кўрсаткичларсиз, оҳанг ва тартиб воситасида бирикади. Бунда олдин келган сўз тобе, кейин келган сўз ҳоким ҳисобланади. “Битишувда тобе сўз ушбу мавқеда келиш учун шаклий жаҳатдан ўзгармайди. Зеро, тобе аъзо сифатида намоён бўлаётган сўз маъновий ва вазифавий жиҳатдан бунга хосланган бўлади. Мисоллар: *қизил гул, оқ қоғоз.* Баъзан от туркумидаги сўзлар ҳам ҳеч қандай воситасиз тобе вазифада кела олади: *олтин соат, тош йўл* каби. Бунда улар моҳиятан тобе аъзолик доимий белгиси бўлган сифат, сон, равиш туркумларига яқинлашади. Бу ҳодиса нутқий бўлиб, *олтин, тош* лексемаларининг лисоний моҳиятлари билан белгиланмаган” [3; 34]. Бошқарув ва мослашув алоқаларида морфологик кўрсаткичлар мавжуд бўлганлиги сабабли аъзоларнинг ўрнини алмаштириш мумкин, бунда ҳоким-тобелик мақоми ўзгармайди.

Битишув алоқасида эса тартибни ўзгартириш ҳоким-тобелик мақомининг ўзгаришига сабаб бўлади.

Баъзан бирикмани ҳосил қилувчи қисмлар орасида алоқа “узилса”, қўшма сўзлар ҳосил бўлиши мумкин. Ўзбек тили ва бошқа кўпгина тиллардаги тузилишига кўра мураккаб сўзлар таҳлили шуни кўрсатадики, қўшма сўзларнинг асосий қисми сўз бирикмаларидан ёки сўз бирикмалари қолипи асосида келиб чиққан. Қўшма сўзларнинг пайдо бўлишида сўз бирикмалари асосий манба бўлиб хизмат қилади. Лекин ҳамма қўшма сўзлар ҳам сўз бирикмаларидан келиб чиққан ёки сўз бирикмаси қолипи асосида тузилган деб қатъий чегара қўйиб бўлмайди. “Ўзбек тилида қатор қўшма сўзлар мавжудки, уларни сўз бирикмаларидан келиб чиққан ёки қадимги сўз бирикмалари қолипи асосида тузилган деб бўлмайди. Масалан: тошбўрон, Тоштемир, Турсунали, Ҳайдарали, тилхат, Самарқандқишлоқ, қорхат, қўлбола, пиёздоғ, Ойгул, темирбетон, ҳадеб, қорёғди (маросим номи), Сойкелди, бағритош, Қумбосди, гўшткуйди, хуморбосди, меҳмонбосди, ёрилтош, уртўқмоқ, уркалтак, очилқамчи, қайнархумча, очилдастурхон ва ҳ. к. Бу қўшма сўзларнинг айримлари тўғридан-тўғри ўзак негизларни қўшишдаи, айримлари жуфт сўзлардан (темирбетон каби), айримлари эга ва кесим муносабатидан — гапдан, айримлари эга, кесим ва упдалмадан келиб чиққандир. Кесим — ундалмадан келиб чиққан ёки чамандагул каби қўшма сўзларда уларнинг компонентлари ўртасида сўз бирикмаларига хос грамматик алоқа йўқ” [7; 35].

Хулоса қилиб айтганда, сўз бирикмалари лисоний синтактик қолипнинг (ЛСҚ) нутқий воқеланиши бўлиб, қисмлар орасидаги тобе алоқанинг турига кўра – бошқарувли, мослашувли, битишувли; ҳоким сўзнинг ифодаланишига кўра – исмли, феълли; тобе сўзнинг синтактик вазифасига кўра – аниқловчили, тўлдирувчили, ҳолли; бирикмани ҳосил қилувчи аъзолар сонига кўра – содда ва мураккаб каби турларга бўлинади.

АДАБИЁТЛАР

1. Маҳмудов Н., Нурмонов А., “Ўзбек тилининг назарий грамматикаси”, Тошкент, “Ўқитувчи”, 1995.
2. Абдураҳмонов Ғ., Сулаймонов А., Холиёров Х., Омонтурдиев Ж., “Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис”, Тошкент, “Ўқитувчи”, 1979.
3. Қурбонова М., Сайфуллаева Р., Боқиева Г., Менглиев Б., “Ўзбек тилининг структурал синтаксиси”, ўқув қўлланма, Тошкент, 2004.
4. Они тили. Қомус. Тошкент, 2009.
5. Аҳмедов А. Синтактик бирликлар таркиби//Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. –Тошкент,1992.
6. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. -Л., 1963.
7. Шарипов М.К. Ҳозирги ўзбек тилида сўз бирикмалари синтаксиси масалалри, Тошкент, “Фан”, 1978.

ЎЗБЕК ТИЛИДА ТОПОНИМЛАР ЭКСТРАЛИНГВИСТИК МАНБА СИФАТИДА

Турдиқулов Шерзод ДУМИНОВИЧ,
Термиз давлат университети Ўзбек тилшунослиги кафедраси ўқитувчиси

Аннотация. *Мақолада ономастик сатҳ бирликларининг лингвомаданий талқинига доир айрим қарашлар таҳлил қилинган, жумладан, топонимларнинг*

миллат маданияти ва тарихий тажрибасига доир ахборотни сақловчи унсурлар эканини тасдиқловчи мулоҳазалар юритилади. Ономастик бирликларнинг этномаданий аҳамияти олам топонимик манзарасига алоқадор тадқиқотларнинг илмий долзарблигини белгилашига тааллуқли хулосалар берилади.

Калит сўзлар: *ономастик бирликлар инсон фаолиятининг маркери сифатида, топонимлар, топонимларда лингвомаданий коднинг ифодаси.*

Инсон фаолиятининг информацион маркери ҳисобланган ономастик бирликларни антропоцентрик жиҳатдан тафсифлаш келиб чиқиши ҳамиша ҳам лисоний омилга боғланмаган, аксинча, экстралингвистик сабаблар билан вужудга келган географик номларни тегишли вақт оралиғида: лисоний, тарихий, ижтимоий, маданий, мифологик, психологик, этнографик билимлар кесимида таҳлил қилиш имконини беради[1].

Бугунга қадар топонимларда лингвомаданий коднинг ифодасига доир ишларда[2] ономастиканинг лингвистика, тарих ва географиянинг ўзаро уйғунлашувидан шаклланган соҳа экани таъкидланади[4]. Бироқ, бундан фарқли, тилшунос И.А.Королёва топонимнинг маъновий кўламини очиқ лингвомаданий матн, лингвомаданий код сифатида текширишни таклиф қилади, зеро, топонимларни декодлаш кенг кўламли маъновий майдонни аниқлашга шароит туғдиради. Жаҳон тажрибасида тилларнинг хариталаштирилган ягона топонимлар базасини яратиш амалиёти мавжуд[9]. Бу мазкур тилдаги жами микро ва макро географик объектлар этимологияси, маъновий кўлами, ясалиш хусусиятлари, ёзма ёдгорликларда учрашини синхрон ва диахрон жиҳатдан ўрганишда қулайлик яратади[4].

Бир тил доирасидаги олам лисоний манзараси фольклор, лаҳжа, топонимлар тизими луғати, олам фразеологик манзарасига доир маълумотларни сақлайди. Бу ҳолат бир тил доирасидаги тиллараро (биз тиллараро тушунчаси остида бир тилга мансуб лаҳжалар, шева унсурлари ҳамда адабий сўзлашув ва ноадабий сўзлашув шаклларининг ўзаро муносабатини назарда тутяпмиз) фарқликларнинг ҳатто бошқа-бошқа тил оилаларига тегишли тиллар, бир тил оиласининг ҳар хил гуруҳига кирувчи тиллараро фарқликларидан ҳам кўпроқ бўлишини исботлайди. Жой номларининг этномаданий аҳамияти олам топонимик манзарасига алоқадор тадқиқотларнинг илмий долзарблигини белгилайди.

Фанда жой номларининг қуйидаги турлари фарқланади:

a) *ойконимлар – яшаш жойлари номлари;*
b) *гидронимлар – дарё номлари;*
c) *оронимлар – тоғ номлари;*
d) *урбанонимлар – шаҳар ичи объектларининг номлари;*
e) *годонимлар – кўча номлари;*
f) *агоронимлар – майдонларнинг номлари;*
g) *дромонимлар - алоқа йўллари номлари;*
h) *макротопонимлар – аҳоли яшамайдиган жой номлари;*
i) *микротопонимлар – аҳоли яшамайдиган кичик ҳудудли жой номлари;*
j) *антротопонимлар – шахс отидан ҳосил бўлган жой номлари*[5] ва б.

Олам топонимик манзараси миллат этномаданий хусусиятларини акс эттирибгина қолмасдан, бой маданий-тарихий ассоциациялар билан ажралиб туради[6-7]. Ҳар бир жой номи эктстралингвистик манба сифатида ўзига хос тарихий шаклланиш хусусиятига эга образли номинацияда муҳрланган атов субъекти – олам миллий манзарасини ифода этади[8].

Топонимлар ареал чегараланганлик белгиси билан ўзга ономастик унсурлардан фарқланади. Шунга мувофиқ, топонимлар маҳаллий бўлмаган аҳоли, тил соҳиблари учун лексик-семантик “ёпиқ” бирликлар ҳисобланади.

Топонимик ахборот: 1) синхрон, 2) тарихий, 3) қисқа ва 4) турғун табиатни намоён этади ҳамда жой номига тааллуқли жами турдаги ахборот миллат лингвомаданий фони умумий ахборот кўламининг таркибида мавжуд бўлади. Шу туфайли ҳам айрим топонимлар Ер юзидан буткул йўқолиб кетган тақдирда ҳам, уларнинг жамият моддий-маънавий тараққиёти тадрижий босқичларига доир ташиган маълумоти лингвомаданиятнинг узоқ муддатли билимлари таркибида яшаб қолиши мумкин.

Лингвомаданий жиҳатдан топонимлар лисоний шахс коммуникатив фаолиятининг икки кўламида: тил ва маданият даражасида мавжуддир. Топонимларнинг лингвомаданий таҳлили эса уларни тил ва маданият хазинаси сифатида текширишни тақозо қилади.

Адабиётлар

1. Королёва И.А. Языковые и культурные контакты в русско-белорусском пограничье //Актуальные проблемы приграничных районов Беларуси и Российской Федерации. Материалы Международной научно-практической конференции (Витебск, 27 мая 2011 г.). – Витебск, 2011. С. 261—264.
2. Васильева Т.Ю. Коды культуры — ойконимия: проблема взаимосвязи // Смоленск и Смоленщина в именах и названиях: история и современность (к 1150-летию со дня основания города): сб. статей по материалам докладов и сообщений конференции (Смоленск, 4—5 октября 2012 г.). – Смоленск, 2012. С. 65—69.
3. Королёва И.А. Географические названия смоленско-витебского пограничья как обозначения объектов культурно-языкового ландшафта // Материалы для исследования культурно-языкового ландшафта смоленско-белорусского пограничья. Вып. 1. – Смоленск, 2014. – С. 49—60.
4. Суперанская А. В. Что такое топонимика? М., 1984.
5. Фаткуллина Ф.Г. Топонимы как компонент языковой картины мира // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 1-1. URL: https://science-education.ru/ru/article/view?id=18126 (дата обращения: 30.09.2022).
6. Молчановский В.В. Лингвострановедческий потенциал топонимической лексики русского языка и его учебно лексикографическая интерпретация. Дисс.канд.педагог.наук. – М., 1984. - 201с.
7. Молчановский В.В. Использование лингвострановедческого потенциала топонимической лексики русского языка при работе над текстом // Лингвострановедение и текст. – М.: Русский язык, 1987. – С. 159-167.
8. Бреус Е.В. Основы теории и практики перевода с русского языка на английский. – М.: Р. Валент, 2000. – 312 с.
9. Ономастика: [сайт]. URL: http://ономастика.рф.

“NUR” TOPONIMINING MA’NO XUSUSIYATLARI

Musallam SAFAROVA,
NavDPI, Fakultetlararo chet tillar kafedrasi o‘qituvchisi
Ilmiy rahbar: Oripov O‘ralboy Axmedovich
NavDPI, O‘zbek tilshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi, f.f.n., dotsent.

Annotatsiya. Tarixiy manbalardan ma’lumki, Nurota toponimining dastlabki nomlari Nur yoki keyinroq esa Ko‘hzor nomi bilan atalgan. Shu nuqtayi nazardan ushbu ilmiy maqolada Nur so‘zi hamda uning ma’no qirralari atroflicha tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: nur, nura, nurak, nuruu, Ko‘hzor, Nurato, Nurota, Nur qal`asi, Nur qishlog‘i, etimon, etnonim, toponim

Mamlakatimizning sobiq birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «Ma’naviyat o‘z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi. Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo‘lmaganidek, o‘z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo‘lmaydi»[97], - degan fikrlari o‘lkamiz toponimiyasini tadqiq qilish uchun ham tegishlidir.

Nurota toponimining ma’nosi, motivatsiyasi haqida anchagina bir-birini to‘ldiruvchi yoki bir-birini inkor qiluvchi talqinlar mavjud bo‘lib, ular lisoniy, tarixiy, geografik, etimologik, etnografik hamda mifologik talqin va farazlardan iboratdir.

Nurota toponimining lisoniy tarkibi, ya’ni apellyativ asosi hozirgi o‘zbek tilida ham funksional bo‘lgan ikki leksemadan nur va ota (ato)dan iborat bo‘lishiga qaramasdan, bu toponim anglatuvchi ma’no haqida tadqiqotchilar o‘rtasida bir to‘xtamga kelingan emas.

Nurota nomi ifoda qiluvchi hudud qadimiy tarixga ega va ba’zi manbalarda unga 2400-2500 yil beriladi. Nurotaning barpo etilishi Iskandar (Aleksandr Makedonskiy) nomi bilan bog‘lanadi. Boboqul Mirzayev buni qisqacha quyidagicha bayon qiladi: «Eramizdan avvalgi 324-yilda O‘rta Osiyoga 160 ming qo‘shin bilan Iskandar – O‘rta Osiyoga kirib keldi... ko‘p shahar va qishloqlarni oladi... so‘ngra Maroqandni, hozirgi Samarqandni olishda ko‘pgina askarlaridan ajraladi. Shundan so‘ng, Iskandar orqasiga qaytib, shimolga buriladi. U tog‘lardan o‘tib, hozirgi tog‘ tepasidagi qal’a qurilgan joyga to‘xtab, yerdan osmonga nur taralayotganini ko‘rib hayron qoladi. Ajabo, bu qanaqa sir. Quyosh nuri yerga taralsa, bu osmonga taralyapti, deb pastlikka yetib kelsa, bir ajoyib manzara – hamma yer ko‘m-ko‘k, bir necha buloqlardan suv chiqib shimolga qarab oqmoqda. Farb tomonda nur taralayotgan buloq bo‘lib, bu yerni dev, parilar makon qilib olgan ekan. Shunda dev va parilarni haydab yuboradi...» hamda o‘sha yerdan qo‘rg‘on va shahar barpo qiladi[98]. Mana shu mazmundagi rivoyat boshqa manbalarda ham keltirilgan[99].

Akademik YA.Fulomov o‘zining «Nur qal’asi» maqolasida Nur qal’asi eramizdan avval IV-V asrlarda qurilganini aytadi.

Jurnalist A.Muxtorov va arxeolog B.O‘roqov «Nur qasrini Iskandariya ham deyishadi, chunki uni Iskandar qurdirgan» deb yozishgan.

Iskandar Nurga kelgan, buloqni ham ko‘rgan, qal’a qurdirgan ham bo‘lishi mumkin. Ammo u kelguncha bu hududning, buloqning qandaydir nomi bo‘lgan-ku! Uni, Iskandar o‘zgartirganmi? Yoki ular nomsiz bo‘lsa, Iskandar birinchi bo‘lib ularni nomlaganmi? Nima deb nomlagan? Iskandarning qal’ani ham, buloqni ham «Nur» deb nomlamagani aniq.

[97] Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiklol va tarakkiyot yo‘li. - Toshkent: O‘zbekiston, 1992. - 71-bet.

Chunki «ziyo» ma’nosidagi nur arabcha so‘z bo‘lib, u turkiy tilga arablar O‘rta Osiyoni istilo qilgandan keyin kirgan.

Sh.Ismoilzoda o‘zining maqolalaridan birida Nur shahrining qadimiy nomi Ko‘hzor bo‘lgani haqidagi rivoyatni keltiradi. Nomning Nurota bo‘lib o‘zgarishiga buloqning o‘zidan nur tarqalishi asos qilib ko‘rsatiladi va Nurota Nur+ato «yorug‘lik taratadigan joy» ma’nosini berishi yoziladi[100]. Ammo ba’zi manbalarda tojikcha bo‘lgan Ko‘hzor nomiga shubha bildiriladi, chunki tarixiy manbalarda bu hududga fors zabon aholi X-XI asrlardan boshlab kirib kelgan deb hisoblanadi.

Nur toponimi ko‘pgina yozma manbalarda qayd etilishicha, qadimda qishloq nomi bo‘lgan. Buning eng ishonchli dalili Abu Bakr Muhammad Ja’far Narshaxiyning Nur qishlog‘i Buxorodan ham avval mavjud bo‘lgan deb yozishidir: «Hali Buxoro shahari vujudga kelmagan, lekin qishloqlardan ba’zilar paydo bo‘lgan edi. Nur, Harqonrud, Vardona, Tarobcha, Safna va Isvonalar o‘sha qishloqlar jumlasidandir». Narshaxiy Nurotani asarining boshqa o‘rinlarida ham Nur shaklida tilga olgan: «Nur katta joy». Hofizi Abruning «Geografiya» asarida, shuningdek, temuriylar davriga oid tarixiy manbalarda Nurota Nur shaklida uchraydi[101]. Umuman, VIII-IX asrlarda, undan keyin ham, gap yuritilayotgan joy Nur deb atalgan. Hatto German Vamberining “Movarounnahr tarixi” asarida ham toponimning Nur shakli qayd qilinadi: “1220 yilda Chingiz bosib olgan ikkinchi shahar Nur bo‘lgan”[102]. Ba’zi tadqiqotchilar Nur toponimi Nurota shaklida XIX asr oxiri XX asr boshidagi yozma manbalarda uchrashini ta’kidlashadi[103].

Nurota nomining ma’no va etimoni axtarilar ekan, quyidagi tomonlarga diqqat qilishga to‘g‘ri keladi:

- agarda joy nomini arabcha Nur so‘zi bilan bog‘lansa, unda bu toponim kamida VIII asrlardan keyin paydo bo‘lgan bo‘ladi;

- bordi-yu, Nur joyning qadimiy nomi emas ekan, unda qadimiy nom nima bo‘lganini axtarishga to‘g‘ri keladi;

- bordi-yu, bu joyni Iskandar nomlagan bo‘lsa, unda u qo‘ygan nom yunoncha bo‘lishi kerak. Ammo Iskandarning bu joyga yunoncha nom qo‘ygani haqida daraklar yo‘q.

- Nur: 1) qishloq nomi; 2) buloq nomi; 3) qal’a (qo‘rg‘on) nomi; 4) tog‘ nomi. Nur dastlab qaysi birining atoqli oti sifatida yuzaga kelgan? Tabiiy hodisa bo‘lgani uchun buloq va tog‘ qadimiy ob’ektdir. Qishloq, qal’a (qo‘rg‘on) sun’iy ob’ekt bo‘lgani uchun tabiiy ob’ektlardan keyin paydo bo‘lgan. Mo‘’tabar manbalarda Nur qal’asi V-VI asrda ham mavjud bo‘lgani yozilgan. Ko‘pchilik manbalarda Nur toponimining paydo bo‘lishi buloqqa, uning xususiyatiga bog‘langan holda izohlanadi.

Nurota toponimining ilk, qadimiy shakli Nur bo‘lgani aniq. Bu holda ushbu tomonimning ma’no va etimonini Nur leksemasidan axtarishga to‘g‘ri keladi.

Nur leksemasi mana shu uch tovushli shaklida arabcha -ziyo, yorug‘lik deb talqin qilinadi. Nur so‘zining ma’nosiga shunday izoh berilgan: «Yorug‘lik manbaidan taralgan va ingichka tola ravishda tasavvur etiladigan ziyo, yog‘du»[104]. Ushbu so‘z qadimiy arab tili, jumladan, «Qur’on» tilida - nu:run – o‘t, olov ma’nolarini anglatgan[105].

---

[98] Mirzayev B. Nurota tarixidan lavxalar // Do‘stlik bayrogi. - 1996. 31 may.- B. 6.

[99] Axmadkulov K. Nurota tarixiy va aziz joy // Ilgor chorvador. - 1994. 12 aprel. – B. 2; O‘sha gazeta. - 1994. 5 aprel. – B. 2; Shavkat Ismoilzoda. Nuri Buxoro// Ilgor chorvador. - 1990. 5 avgust; Bobolardan kolgan nakllar. Yozib oluvchi Raxmatulla Yusuf o‘gli.- T.: Fan, 1998. - 49-bet va b.

[100] Ismoilzoda Sh. Nuri Buxoro // Ilgor chorvador, 1990. 5 avgust.

[101] Bo‘riyev O. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo. – T.: O‘zbekiston, 1997. - 81,138-betlar.

[102] Vamberi German. Movarounnaxr tarixi // SHark yulduzi. - № 4. – B.112.

[103] Kodirov Raxim. Nurota chashmasi// Toshkent, 1998. – 3-bet.

[104] O‘zbek tilining izoxli lugati. II tom. – M., 1981. - 513-bet.

[105] Bobirbek Xasan. Kur’oni karim so‘zlarining arabcha-o‘zbekcha ko‘rsatkichli lugati. – T., 1995. - 490-bet.

Nur so‘zining boshqa ramziy, ko‘chma ma’nolari ham bor. Ular orasida Nur so‘zining an – Nur shaklida Allohning nomi, sifati ma’nosida kelishi va u «o‘z-o‘zidan borlig‘i ayon va borliqni ham ayon etuvchi» ma’nosini anglatishi ma’lum[106]. Xuddi shuningdek, bu leksema Allohi Taolodan tashqari, Muhammad payg‘ambarlarning sifatlaridan biri hamdir. Nur so‘zi asli arabcha va o‘zbekcha ismlar tarkibida mana shu ma’nolarda keladi[107].

Bordi-yu, Nur toponimi keltirilgan ma’nolarga bog‘lanadigan bo‘lsa, joy nomi buloqdan chiqadigan yog‘du, ziyoga bog‘liq bo‘ladi. U holda Nurota nomi tarkibidagi «ota» komponenti «ota» emas, balki «ato» shaklida, ya’ni «nur tarqatuvchi, nur baxsh etuvchi, taratuvchi» ma’nolarida tushunilishi lozim bo‘ladi. «Ato» mana shu shakl va ma’noda talqin qilinsa, u *Allohi Taolo va Muhammad* payg‘ambarning qayd qilingan nomi – sifatlariga ham bog‘lana oladi, ya’ni Alloh yaratgan, baxsh etgan joy, makon yoki Allohning ehsoni, tuhfasi ma’nolarini beradi. Ammo mavjud manbalarda Nurota nomining ikkinchi komponenti imlosi va talaffuzida bir xillik yo‘q. U goh Nurota, goh Nurato shaklida yozilmoqda. Bu nomni o‘sha hududda yashovchi mahalliy aholidan tojikcha so‘zlashuvchilar Nurato, qipchoq shevasida so‘zlovchilar *Nurata*, adabiy tilda so‘zlovchilar Nurota tarzida tilga olishadi.

Nurota toponimining ikkinchi qismini o‘zbekcha (turkiy) ota so‘ziga bog‘lab izohlash ham mumkin. Bu so‘z o‘tmishda, asosan, uch ma’noda qo‘llanilgan: 1) farzandli, bola-chaqali er kishi; 2) rahnamo, ustoz (otaliq so‘zi va unvoni mana shu ma’nodan); 3) ulug‘, muqaddas, avliyo. Biz uchun bu o‘rinda qayd qilingan ma’nolardan uchinchisi ahamiyatlidir. «Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati»da ota so‘zining uchinchi ma’nosi: «ota; buyuk, ulug‘ kishilarning ismi bilan birga keladi: Sadr ota – mavlidi Turkiston viloyatindandur, deb «Nasoyimul muhabbat» asarida izohlangan[108]. Ota so‘zi o‘tmishda yashab o‘tgan bir qator shayxlar, avliyolar, ulug‘ shaxslar atoqli oti tarkibida uchraydi. Chunonchi, Navoiy asarlarida shunday nomlar uchraydi: Zangiota, Ismoilota, Ishoq ota, Kishilik ota, Xalil ota, Qilichlik ota, Qo‘rqut ota, Hakim ota[109]. Bordi-yu Nurota nomining ikkinchi qismi ota (ato emas) deb hisoblanadigan bo‘lsa, unda ikki xil faraz yuzaga keladi: 1) Nurota nomi nur so‘zidan iborat yoki tarkibida nur so‘zi mavjud bo‘lgan (Nurulla, Nuriddin) shaxs nomi bo‘lishi mumkin; 2) Nur deb atalgan qishloq yoki buloq nomi «aziz qadamjoy», «muqaddas joy», «avliyo joy» ma’nosida ilohiylashtirilgan bo‘lishi mumkin. Har ikki holatda Nurota nomi diniy mazmun, talqin kasb etadi.

Nurota nomini diniy ma’noda talqin etish tarafdorlari ham anchagina. Chunonchi, S.Qorayev Nurota nomini mo‘g‘ulcha deb talqin qilishga qo‘shilmaydi va yozadi: «Shunday qilib, Nur bora-bora Nurota bo‘lib ketgan. Nur so‘zi (arabcha) «yorug‘lik», ota esa – geografik nomlar tarkibida «aziz avliyolarning qadamjoyi» degan ma’noni bildiradi»[110]. «Ziyoratgoh joy bo‘lganidan shunday nom olgan bo‘lsa kerak»[111]. S.Qorayevning keltirilgan fikrini boshqa mualliflar ham aynan takrorlashgan[112]. S.Nayimov Nurning mo‘g‘ulcha ekaniga qo‘shilmaydi va uni arabcha nur (ziyo) ga bog‘laydi. Uning fikricha, Nurota tog‘i nomi qadimiy Nur qishlog‘i nomidan olingan[113]. Albatta, bu mulohazalar munozarali. Akademik Ya.Fulomov: «Nur o‘zining chashmasi bilan atrofdagilarga

[106] Begmatov E. Ism chiroyi. – T.: Fan, 1994. - 22-bet.
[107] Begmatov E.A O‘zbek ismlari ma’nosi. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1998. - 299-bet.
[108] Alisher Navoiy asarlari tilining izoxli lugati. II tom. – T.: Fan, 1983. - 533-bet.
[109] O‘sha lugat. IV jild. – T.: Fan, 1985. - 268-311-betlar.
[110] Qorayev S. Toponimika. – T., 1970. - 12-bet.
[111] Qorayev S. Geografik nomlar ma’nosi. – T.: O‘zbekiston, 1978. - 87-bet.
[112] Jumayev A.Sh., Muxamedov I.I., Xamroyev A.X. O‘lkamizdagi joy nomlari. – Buxoro, 1998. - 24-bet.
[113] Nayimov S.N. Buxoro oblasti toponimlari. – T., 1984. - 9-bet.

mashhur. Xalq uning nomi yoniga «ota» so‘zini qo‘shib, «Nurota» deb atagan». Q.Haydarov Nurota 2500-2600 yillik tarixga egaligini yozadi va asli Nur deb atalgan qishloq nomiga «ota» so‘zi X asrdan boshlab qo‘shilgan deb hisoblaydi.

Nur toponimiga ota so‘zining qo‘shilish sababini talqin qiluvchilarning aksariyati Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida aytilgan mulohazaga tayanishadi: «Nur katta joy. Unda masjidi Jome bor. U ko‘pgina rabotlarga ega. Buxoro va boshqa joylarning odamlari har yili ziyorat uchun u yerga boradilar. Buxoro aholisi bu ishda ko‘p mubolag‘a qiladilar: Nur ziyoratiga borgan kishi haj qilgan (kishining) fazilatiga ega bo‘ladi... Tobeinlardan ko‘p kishilar u yerga dafn etilganlar, xudo ularning hammalaridan to qiyomatgacha rozi bo‘lsin!»[114]

Demak, qadimiy «Nur» ning, keyinchalik Nurotaning muqaddas qadamjoy bo‘lgani aniq. Unga «ota» so‘zi shu uchun qo‘shilgan. Ammo bir narsa noaniq qoladi: odamlar buloqqa sig‘inishganmi yoki biror shaxsning qabriga, ruhiga sig‘inishganmi? «Ota» so‘zi yuqorida qayd qilinganidek, asosan, kishi atoqli oti tarkibida keladi.

Nurota nomini bu joyning ziyoratgohga aylanish sababini konkret shaxs nomiga bog‘lab izohlashga intilishlar ham bor. Bunda mashhur shayx Hasan Nuriy ko‘zda tutiladi. Bu shaxs yuqorida Narshaxiy aytgan tobeinlar (Muhammad payg‘ambarni emas, balki uning safdoshlari, sahobalarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rganlar) dan biridir.

Hozir «Chashma» muzeyida saqlanayotgan qabr toshidagi lavha 1912 yilda Mirbiy Yo‘ldosh tomonidan fors-tojik tilida yozilgan bo‘lib, unda Abul Hasan Nuriy yeru ko‘kdagi bilimlar podshosi deb ta’riflanadi. U faqatgina islom targ‘ibotchisigina emas, Nurda dastlabki masjit-madrasalar qurdirgan va shayx unvoniga sazovor bo‘lgan, so‘fiylikning o‘ziga xos yo‘nalishini asoslagani uchun donishmand hamdir. Tilga olingan qabr toshida uning vafot etgan yili hijriy 295, melodiy 907 deb ko‘rsatilgan. Shayx haqida dastlab X asrda yashagan Jullobiy al-Hujviriyning «Kashf al-maxjub» asarida quyidagicha ma’lumot berilgan: «Islomda so‘fiylikning ko‘zga ko‘ringan ulug‘laridan biri Abul Hasan (Husayn) Ahmad ibn Muhammad bo‘lib, so‘fiylikning «Nuriy» bosqichiga asos solganlar. Bu ulug‘ va donishmand kishi IX asrda yashagan».

A.Jomiyning donishmandlar to‘g‘risidagi «Nafohatul uns min hazarotul quds» («Pok zotlar huzuridan esgan do‘stlik shabadalari») tazkirasida 616 donishmand qatorida Nuriy ham tilga olinadi. Jomiydan tashqari, A.Navoiy, F.Attor ham o‘z tazkiralarida uni tilga olishadi.

Nurota toponimining etimologiyasi diniy motivlarga bog‘lanadigan bo‘lsa, u holda «ota» so‘zi shaxs nomiga qo‘shilgan bo‘lib chiqadi. Ammo tarixiy manbalarda bu hududda nomi Nur so‘zi bilan boshlangan mashhur shaxs o‘tganganligi haqida daraklar yo‘q. Shu sababli Nurota toponimining etimonini shaxs nomiga bog‘lab talqin qilish nihoyatda munozaralidir.

Tarkibida *nur* morfemasi mavjud so‘zlar turkiy tillarda ham uchraydi: *nuramoq* - yemirilmoq, uqalanmoq, parchalanmoq yoki *nuri* – go‘ng ma’nosida. Nuramoq so‘z ikki ma’noga ega: 1) eskirib yemirilmoq, buzilmoq va 2) tog‘ jinslarining shamol, atmosfera hodisalari ta’sirida yemirilishi[115]. Sh.Rahmatullayev bu so‘zni negadir turkiy leksema sifatida izohlamagan[116].

Bir qator nomshunoslar Nur so‘zining etimonini mo‘g‘ul tilidan axtarishgan. Mo‘g‘ul tilida nuraax, nurax, nuruu, nuur so‘zlari mavjud bo‘lib, nuur – ko‘l ma’nosini, nuraax, nurax – yemirilish, nurash, parchalanish; nuruu – orqa, tog‘ orqasi, nuruu – tog‘ ma’nolarini

[114] Narshaxiy Abu Bakr Muxammad. Buxoro tarixi. – T.: Fan, 1966. - 2-bet.
[115] O‘zbek tilining izoxli lugati. 1 tom. - 513-bet.
[116] Raxmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lugati. – T.: Universitet, 2000.

anglatadi. Mo‘g‘ul tilidagi mana shu ma’lumotlarga suyangan holda V.A.Nikonov Nurota tarkibidagi Nur mo‘g‘ulcha nurudan va «tizma, tog‘ tizmasi» ma’nosini anglatadi deb hisoblagan. Ota qismini esa tau, tov so‘zlariga bog‘lagani ma’lum. E.Murzayev «nuru»ni – tog‘ deb talqin qilgan. «Mo‘g‘ulcha nura, nuru so‘zlari «tog‘, baland tog‘, tog‘ tizmasi, cho‘qqi» ma’nolarini anglatishi, shunga ko‘ra, Nurota toponimi «baland tog‘, cho‘qqili tog‘» ma’nosini anglatishi mumkinligini Z.Do‘simov va X.Egamovlar ham qayd qilishgan[117]. Taniqli turkman nomshunosi S.Otaniyozov Turkmanistonda Nurata, Nurbak, Nurbike, Nurukash toponimlari mavjudligini qayd qilgan. Ammo u ushbu nomlar etimologiyasini chetlab o‘tgan. Qozoq toponimisti K.Qo‘yshiboyev nura apellyativi: 1) cheksiz keng dala; 2) chuqurlik; 3) tepa (tog‘)ning bosh qismi, cho‘qqi ma’nolarini ifodalashini yozadi va Nurak (Nur+ak) toponimini joy nomini «cho‘zilib yotgan tepalik, kichkina qir» ma’nosida izohlagan.

T.Nafasov Qashqadaryo hududida uchraydigan Nura (balandlik, tepalik nomi) toponimini mo‘g‘ul tilidagi nuraa – o‘pirilish, tog‘dan nurab tushgan toshlar uyumi, qozoq va qirg‘iz tillaridagi nura – jar, jarlik, suv o‘yib ketgan joy ma’nolariga bog‘lab izohlagan[118]. Shuningdek, u Qashqadaryodagi Nurali (qishloq va dara nomi) toponimini kishi nomiga (Nur+Ali) bog‘lagani holda Nurali oronimini negadir mo‘g‘ulcha «nuruu» so‘ziga aloqador deb biladi va bu so‘zning tog‘ tizmasi, cho‘qqi, cho‘qqili, qoyasimon balandlik ma’nolarini keltirgan[119]. T.Nafasov Nurqay toponimini nur – tog‘dan o‘pirilib tushgan toshlar uyumi, nuraa – jar, o‘pirilgan joy, o‘yiq joy deb izohlaydi va Nurqay – toshli, yirik toshli joy ma’nolarida talqin qilgan[120].

B.O‘rinboyev Samarqand viloyati hududida 9 ta qishloq va bitta qo‘rg‘on nomining o‘zagini «Nur» leksemasi tashkil qilishini qayd qilgan. Ammo B.O‘rinboyev toponimlar tarkibidagi nur leksemasining ma’nolarini turlicha izohlagan. Chunonchi: Nur+ak – jar, tik, tubsiz chuqur, Nurak+li – cho‘qqili, qoyasimon balandligi bor joydan ko‘chib kelganlar joyi», Nurbuloq: nur – ziyo, yog‘du, yorug‘lik; buloq (buluk) – to‘da, guruh, to‘p, ya’ni Nurbuloq – ziyo taratgan avlod vakillari yashagan joy»; Nurdek – tosh uyumi, to‘dasi, -dek qo‘shimchasi o‘xshatish ifodalaydi; Nurdek – cho‘ziq qirsimon joydagi qishloq; Nurdum – nur – jar, o‘pirilgan joy, dum – dumaloq, ya’ni «o‘pirilgan joylari mavjud bo‘lgan balandlikdagi qishloq»; Nurobod – jar, o‘pirilgan joy, o‘yiqlar mavjud joydagi qishloq kabi[121].

Nur morfemasi toponimlardan biri Nurak nomidir. B.O‘rinboyev fikricha, bu nom Nur+ak morfemalaridan iborat. U bu nomni mo‘g‘ulcha Nuru so‘ziga bog‘laydi va nur «tizma, tog‘ tizmasi, -ak kichraytish affiksidan tarkib topgan» deb hisoblaydi.

Z.Do‘simov, X.Egamovlarning fikricha, qishloq nomi bo‘lgan Nurota «toponimi Nurota tog‘i nomi asosida vujudga kelgan» va u «baland tog‘, cho‘qqili tog‘» ma’nosini bildiradi[122]. Mualliflar bu fikrni mo‘g‘ulcha nura, nuru apellyativlariga bog‘lab izohlashgan. Ushbu mualliflarning fikricha, Farg‘ona viloyati hududidagi Nursuq qishlog‘i nomidagi Nur ham «tog‘, tog‘ tizmasi» ma’nosidadir. So‘q «o‘zan, jar, soy» ma’nosida. Demak, Nursuq «tog‘ o‘zani, tog‘dagi o‘zan».

[117] Do‘simov Z., Egamov X. Joy nomlarining kiskacha izoxli lugati. – T.: O‘kituvchi, 1977. - 108-bet.
[118] Nafasov T. O‘zbekiston toponimlarining izoxli lugati. – T.: O‘qituvchi, 1988. - 131-bet.
[119] O‘sha ish, o‘sha bet.
[120] Nafasov T. O‘sha ish, o‘sha bet.
[121] O‘rinboyev B. Samarkand viloyati toponimlarining izoki. – Samarkand, 1997. - 97-98-betlar.
[122] Do‘simov Z., Egamov X. Joy nomlarining kiskacha izoxli lugati. – T.: O‘kituvchi, 1977. - 108-bet.

H.Hasanovning yozishicha, Nurota tarixiy yozma manbalarda Nur, Nur Buxoriy, Nurota shaklida tilga olinadi va ko‘hna Nur shahri deb ta’kidlanadi[123]. H.Hasanov Nurota toponimi etimonini arabcha «nur» so‘ziga bog‘laydi va joy nomi tog‘ nomidan olingan deb biladi: «Nurota. Asli nomi Nur. Buxoro va Karmanadagi birdan-bir baland tog‘. Uni ulug‘lab, u yerdagi mozorni muqaddaslashtirib Nur ota deganlar. Oftob nuri ham eng avval ana shu tog‘ tepasida ko‘rinadi[124].

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda Nurota toponimining ma’no va etimoniga oid fikrlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

- Nurotaning qadimiy nomi Nur bo‘lgan. Ikkinchi qism unga keyin qo‘shilgan.

- Nurning bu nomdan avvalgi qadimiy nomi Ko‘hzor bo‘lgan. U ba’zan Iskandariya deb ham atalgan.

- Nurning etimoni mo‘g‘ulcha nura (nuraak) so‘zi va u:

1) emirilgan, nurab tushgan, o‘pirilgan yer;
2) tog‘dan nurab tushgan toshlar uyumi;
3) jar, jarlik, suv yemirgan, o‘yib tashlangan joy;
4) cheksiz keng dala;

5) cho‘ziq qirsimon dala ma’nolarini anglatadi. Demak, Nur – jarlik, jarlik bo‘yida joylashgan qishloq yoki balandlikda, yuqorida joylashgan qishloq, joy ma’nolarini anglatadi.

- Nurning etimoni mo‘g‘ulcha nuruu so‘z va bu so‘z:

1) tog‘, tog‘ning orqa qismi;
2) tog‘, tog‘ tizmasi;
3) baland cho‘qqili tog‘ ma’nolarini anglatadi. Demak, Nur asli tog‘ nomi bo‘lgan va u keyinchalik qishloq nomiga ko‘chgan.

- Nurota toponimini har ikki komponenti arabcha: Nur+ato, Nur – yorug‘lik, yog‘du, ziyo; ato – baxsh etuvchi, beruvchi, in’om qiluvchi. Nurato – yorug‘lik, yog‘du taratuvchi, nurli, nurafshon. Bu ma’noda Nurota buloq (chashma) nomiga bog‘lanadi.

-Nur – Allohi Taolo va Muhammad payg‘ambarning sifatlaridan biri (an-Nur). Demak, Nurato – Alloh ato qilgan, Allohning tuhfasi, ehsoni yoki Muhammadning nazari, nuri tushgan joy.

- Nurota toponimining ikkinchi qismi «ato» emas, turkiy ota so‘zi va u shaxs nomi tarkibida kelib, ulug‘ shaxs, avliyo ma’nolarini anglatadi. Demak, Nurota toponimining etimoni tarkibida nur so‘zi mavjud bo‘lgan biror mo‘’tabar shaxsning atoqli otidir.

- Nurota – muqaddas qadamjoy, ziyoratgoh ma’nosida. Chunki ko‘pgina avliyolar o‘sha joyda dafn etilgan.

Nur//Nurota toponimining paydo bo‘lish vaqtini arabcha Nur so‘zi bilan, shuningdek, O‘rta Osiyoni mo‘g‘ullar istilo qilgan davr (XIII asr) bilan bog‘lab bo‘lmaydi, chunki bu qadimiy Nur qishlog‘i o‘tmishini, yoshini nihoyatda qisqartirib yuboradi. Nur etimonini mo‘g‘ulcha nura (Nuraax, Nurax), nuruu so‘zlari bilan bog‘lash mumkin. Ammo bu holda nega Nur nomi Nura, Nuri, Nuruv shaklida saqlanmagan degan savol tug‘iladi. Nurni mo‘g‘ul va turkiy tillardagi nur morfemasiga qiyoslash mumkin. Mo‘g‘ulcha nuur – ko‘l ma’nosini bersa, turkiy nur, nurash so‘zlari yemirilish, parchalanishni anglatadi. Keyingi ma’noni mo‘g‘ulcha nurax//nuraax ifodalaydi. Demak, nur, nura leksemalari turkiy til va mo‘g‘ul tili uchun mushtarak leksemalardir. Bunday mushtaraklik bu ikki tilning qadimiy rivojlanish davri – oltoy davridagi umumiylikka taalluqli bo‘lishi mumkin.

[123] Xasanov X. Geografik nomlar imlosi. – T.: O‘zFA nashriyoti, 1962. - 125-bet. O‘sha muallif. O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan. – T.: Fan, 1965. - 70-bet.

[124] Xasanov X. O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan. - 49-bet.

Nur toponimini qandaydir boshqa bir qadimiy tilning qoldig‘i deb bilish ham ehtimol, masalan, sanskrit va so‘g‘d tilining. Bunga asos Abu Bakr Muhammad Ja’far Narshaxiyning Nur toponimini qadimiy so‘g‘d va sanskrit tillariga mansub Harqanrud, Vardona, Safna, Isvona nomlari qatorida tilga olishidir. Albatta, bizning bu farazimiz qo‘shimcha izlanishlarni talab qiladi. Har holda Nur nomini o‘sha joyning tabiiy holati, fizikaviy-jo‘g‘rofiy xususiyatiga bog‘lagan holda izohlash maqsadga muvofiqdir. Mana shu ma’noda biz Nur nomini «balandda, yuqorida joylashgan» joy, qishloq deb talqin qilish tarafdorimiz. Bunda, albatta, qadimiy Nur qishlog‘i ko‘zda tutiladi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiklol va tarakkiyot yo‘li. - Toshkent: O‘zbekiston, 1992. - 71-bet.
2. Mirzayev B. Nurota tarixidan lavxalar // Do‘stlik bayrogi. - 1996. 31 may.- B. 6.
3. Axmadkulov K. Nurota tarixiy va aziz joy // Ilgor chorvador. - 1994. 12 aprel. – B. 2; O‘sha gazeta. - 1994. 5 aprel. – B. 2; Shavkat Ismoilzoda. Nuri Buxoro// Ilgor chorvador. - 1990. 5 avgust; Bobolardan kolgan nakllar. Yozib oluvchi Raxmatulla Yusuf o‘gli.- T.: Fan, 1998. - 49-bet va b.
4. Ismoilzoda Sh. Nuri Buxoro // Ilgor chorvador, 1990. 5 avgust.
5. Bo‘riyev O. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo. – T.: O‘zbekiston, 1997. - 81,138-betlar.
6. Vamberi German. Movarounnaxr tarixi // SHark yulduzi. - № 4. – B.112.
7. Kodirov Raxim. Nurota chashmasi// Toshkent, 1998. – 3-bet.
8. O‘zbek tilining izoxli lugati. II tom. – M., 1981. - 513-bet.
9. Bobirbek Xasan. Kur’oni karim so‘zlarining arabcha-o‘zbekcha ko‘rsatkichli lugati. – T., 1995. - 490-bet.
10. Begmatov E. Ism chiroyi. – T.: Fan, 1994. - 22-bet.
11. Begmatov E.A O‘zbek ismlari ma’nosi. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1998. - 299-bet.
12. Alisher Navoiy asarlari tilining izoxli lugati. II tom. – T.: Fan, 1983. - 533-bet.
13. O‘sha lugat. IV jild. – T.: Fan, 1985. - 268-311-betlar.
14. Qorayev S. Toponimika. – T., 1970. - 12-bet.
15. Qorayev S. Geografik nomlar ma’nosi. – T.: O‘zbekiston, 1978. - 87-bet.
16. Jumayev A.Sh., Muxamedov I.I., Xamroyev A.X. O‘lkamizdagi joy nomlari. – Buxoro, 1998. - 24-bet.
17. Nayimov S.N. Buxoro oblasti toponimlari. – T., 1984. - 9-bet.
18. Narshaxiy Abu Bakr Muxammad. Buxoro tarixi. – T.: Fan, 1966. - 2-bet.
19. O‘zbek tilining izoxli lugati. 1 tom. - 513-bet.
20. Raxmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lugati. – T.: Universitet, 2000.
21. Do‘simov Z., Egamov X. Joy nomlarining kiskacha izoxli lugati. – T.: O‘kituvchi, 1977. - 108-bet.
22. Nafasov T. O‘zbekiston toponimlarining izoxli lugati. – T.: O‘qituvchi, 1988. - 131-bet.
23. O‘sha ish, o‘sha bet.
24. Nafasov T. O‘sha ish, o‘sha bet.
25. O‘rinboyev B. Samarkand viloyati toponimlarining izoki. – Samarkand, 1997. - 97-98-betlar.
26. Do‘simov Z., Egamov X. Joy nomlarining kiskacha izoxli lugati. – T.: O‘kituvchi, 1977. - 108-bet.
27. Xasanov X. Geografik nomlar imlosi. – T.: O‘zFA nashriyoti, 1962. - 125-bet. O‘sha muallif. O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan. – T.: Fan, 1965. - 70-bet.

28. Xasanov X. O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan. - 49-bet.

БАДИИЙ МАТН ҚАМРОВИДА ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ВОСИТАЛАР ТАЛҚИНИ

Шахноза ИЗБАСАРОВА,
НавДПИ, ўқитувчи

Тил ҳар бир миллатнинг мавжудлиги, ҳар бир халқнинг маънавий-маърифий юксалишини ҳаракатлантирувчи куч ҳисобланади. Тилимизнинг тарихи, бугуни ва эртаси ҳақида қайғуриш тилшунослик фани зиммасида турган вазифадир. Бошқа фанлар қатори тилшунослик фанида ҳам замонавий тадқиқотларга катта эътибор берилмоқда. Шу боис, фанларнинг ўзаро алоқасини тадқиқ этиш муҳим аҳамиятга эга бўлиб бормоқда. Фанлараро муносабатларни ўрганиш натижасида махсус фанлар олдига қўйилган долзарб муаммоларни ечиш учун катта йўл очилмоқда. Бу ҳол ўзбек тилининг барча сатҳларида чуқур изланишлар олиб боришга катта имкониятлар яратади. Бундан лексик сатҳнинг асосий бирлиги ҳисобланувчи сўз ва унинг маъноси ҳам мустасно эмас.

Бадиий адабиёт материали “поэтик тил ёки бадиий адабиёт назариясининг манбаи бўлиш билан бирга, адабий тил тарихининг яратилишида унинг грамматик қурилишини, масалан, синтактик тузилиши, ёхуд лексик-семантик ва фразеологик тизимини характерловчи асосий манба бўлиб ҳисобланади”.

Хусусан, бадиий адабиёт тили, айниқса, бадиий асар лексикасининг мундаражаси жуда кенг ва ранг-барангдир. Поэтик ёки насрий асарнинг лексикаси фақат айрим синоним, омоним, антоним, пароним сўз ва иборалар, шунингдек, морфема, оғзаки сўзлашув нутқига хос лексик унсурлар билан чегараланиб қолмайди. Унинг ўзига хос муҳим хусусиятлари фақатгина ушбу воситаларни қайд этиш билан белгиланмайди.

Бадиий асар лексикаси биринчи навбатда сўз санъатининг хилма-хил бадиий шаклларини ўзида мужассамлантирувчи “алоҳида тизим” бадиий асар тилининг асосий ва етакчи компонентидир. Бадиий асар лексикасининг ўзига хос хусусиятлари эса муаллифнинг индивидуал услубига боғлиқ. Ёзувчи услуби ва унинг ўзига хос томонларини ўрганишда фойдаланган махсус сўз ҳамда атамаларнинг ўрни, имконияти муҳим аҳамият касб этади. Ёзувчи бадиий образнинг характерини, ҳолатини, касби, мансаби, амалини ифодалашда махсус сўз ва атамалардан фойдаланади.

Замонавий адабий достонлар тилининг лексик-семантик хусусиятларини ўрганиш, ўзбек тили лексикологияси, шунингдек, услубиятининг ўзига хос жиҳатларини аниқлашга хизмат қилади. Шу жиҳатдан замонавий адабий достонларда лексемалар табиати, семантик муносабати, кўчма салбий маъно тараққиётини ўрганиш, лексемаларнинг матндаги зарур кайфиятни таъминлашдаги ўрнини аниқлаш зарурати мавжуд.

Бадиий асарлар тили дунё миқёсида ҳам, ўзбек тилшунослигида ҳам кўп ўрганилаётган аҳамиятли соҳадир. Тилнинг бор имконияти нутқда, яъни контекстда намоён бўлади, шунинг учун ҳам турли жанрларда ёзилган бадиий асарлар матни турли аспектларда текшириб кўрилмоқда. Асарнинг тил хусусиятлари эса тадқиқотчилар томонидан турли қарашларда ҳар хил методологик ва методик асосларга кўра таҳлил қилинади. Бадиий асарларнинг лисоний хусусиятлари жаҳон ва

ўзбек тилшунослигида кенг ўрганилган[125], тил сатҳлари лингвостилистик, лингвопоэтик нуқтаи назардан атрофлича тадқиқи қилинган, бироқ замонавий адабий достонлар тилининг лексик-семантик хусусиятлари, лексик воситаларнинг ўзига хос жиҳатлари алоҳида тадқиқ этилмаган. Зулфия, Ойдин Ҳожиева, Ҳалима Худойбердиева достонларида шахс ва жамият муносабатларини очиб берувчи асосий тил бирликлари, лексик бирликлар махсус ўрганилмаган.

Замонавий адабий достонлар бадиийлигини таъминлаб берувчи лексик-семантик бирликларни таҳлил қилиш, ижодкорларнинг тилдан фойдаланиш маҳорати, сўз танлаш ва қўллашдаги ўзига хосликлари, лексик воситаларнинг достонлардаги аҳамияти, лексик бирликларнинг иштироки, хусусан, номинатив бирликларнинг асар мантидаги ўрни, сўзларнинг лисоний қийматини аниқлаб бериш муҳим аҳамият касб этади.

Бадиий асарнинг бош унсури сўз, умуман, тил екан, ана шу асарнинг чинакам санъат даражасига кўтара олишида унинг тили, муаллифнинг тил воситаларини қай даражада қўллай олиши асосий омилдир. Адабиётимизда из қолдирган ҳар бир ижодкор асарларининг тилини ўрганиш, биринчидан, адибнинг маҳоратини ўрганиш, шу билан бирга, тилимиз ривожига унинг асарлари тили таъсирини, тадқиқотнинг эса тилшунослигимиз тараққиётига қай даражада таъсир кўрсатаётганлигини белгилаш эҳтиёжидан келиб чиқади.

Тил доимий равишда янги луғавий бирликлар ҳисобига бойиб боради. Ҳеч бир сўз коммуникатив еҳтиёжсиз туғилмайди. Аммо янги пайдо бўлган сўзлар тилдаги мавқеига кўра фарқланади. Ҳар қандай янги пайдо бўлган лисоний бирликлар тил тизимида ўз ўрнига эга бўлиши ёки бўлмаслиги мумкин. Луғат таркибида ўз ўрнига эга бўлмасдан якка (индивидуал) нутққа хос ва ўша нутқ (матн) доирасидагина қолиб кетадиган, тасодифий, яъни фавқулодда яратилган ва кўпинча лисоний алоқа жараёнида атиги бир мартагина қўлланадиган бирлик ғайритабиий туюлиши, бетакрорлиги адабий нормадан ташқарида бўлиши билан ажралиб туради. Бундай сўзларни халқ ва тил ижодкорлари яратади. Бадиий ижодда шоир ва ёзувчилар доимо янги сўз ясашга интилиб келадилар. Бу қонуниятдир. Чунки сўзнинг тасвирий имкониятидан мумкин қадар кенг фойдаланишга интилиш, кутилмаган, ғайриодатий, янги образлар яратиш эҳтиёжи ифодани янги тарзда бериш зарурияти ижодкорларни ана шундай йўл тутишга ундайди.

Ҳар қандай бадиий асар, ҳажман каттадир, кичикдир, яхлит коммуникатив-эстетик бутунликдир, унинг сюжет занжиридаги воқеалар, ғоялар, фикрлар бир-бири билан қанчалик узвий ва чамбарчас боғланиб кетган бўлса, бу бутунликнинг бадиий-шаклий, эмоционал-эстетик пойдеворини ташкил этувчи лисоний бирликлар ҳам ўзаро шунчалик яхлитланиб, киришиб кетганки, уни инжа маҳорат билан тўқилган беназир тўрга қиёслаш мумкин. Бадиий асар таҳлилидай мураккаб жараёнда, агар ана шу гўзал тўрдаги тугунларнинг синоатлари инкишоф этилмас экан, яъни бадиий асар лингвопоэтик нигоҳ билан синчиклаб таҳлил қилинмас экан, бадиият дейиладиган муҳташам оламнинг ичига росмана кириб бўлмайди. Очиқ-ойдин шуни айтиш мумкинки, лингвопоэтик таҳлил бадиий асар филологик таҳлилининг ибтидоси, ижодкор маҳорати даражасини баҳолаш мезонларининг алифбоси, бадиият бўстонидаги бетакрор топилдиқларни англаш ва мағзини чақишнинг бошланмасидир.

[125] Винокур Г.О. О языке художественной литературы. – Москва, 1991.; Абулхайров М. “Девони Мунис” тилининг лексик қатламлари: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1996.; Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2000.; Сайидов Ё. Фитрат бадиий асарлари лексикаси: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2001. ва б.

Албатта, бадиий мазмуннинг ифодаланишида тилнинг фонетик-фонологик, морфемик, лексик, морфологик, синтактик ва ҳатто суперсинтактик каби барча сатҳи бирликлари иштирок этади. Аммо таъкидлаш жоизки, бу бирликларнинг, ҳеч бир истисносиз, ҳаммаси ҳам ижодкорнинг бадиий ниятига бевосита ва бир хилда хизмат қилмайди. Ижодкор томонидан унинг маҳорати даражасига кўра яратилган муайян қулай бадиий контекст қуршовида мазкур бирликларнинг айримлари алоҳида бадиий-эстетик таъкид олади.

Лингвопоэтик таҳлилнинг тамалида айни шу тамойил, яъни поэтик актуаллашган – поэтик мазмун билан юкунган тил бирликларини аниқлаш ва уларни тегишли тарзда баҳолаш тамойили турмоғи мақсадга мувофиқдир. Бундай таҳлил ижодкорнинг тилимизнинг туганмас бойлиги имкониятларидан фойдаланишдаги маҳоратини кўрсатиш баробарида бадиий ният хизматидаги бирликларнинг бутун моҳиятини очишга, холис баҳолашга кўмаклашади. Айниқса, бундай таҳлил улкан сўз санъаткорларининг асарлари асосида олиб борилса, бадиий тил маҳоратидаги ибратли жиҳатлар баралла намоён бўлади.

САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ “СУДХЎРНИНГ ЎЛИМИ” ҚИССАСИДА ҚЎЛЛАНИЛГАН ЙИЛҚИЧИЛИК ВА ЧОРВАЧИЛИК ТЕРМИНЛАРИ ТАҲЛИЛИ

Ҳасанов Аҳмад ИСА ЎҒЛИ,
Ўқитувчи, Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети

Ўзбек ва тожик халқининг уллуғ фарзанди Садриддин Айний нодир ва ноёб асарлари билан адабиёт оламида ўчмас из қолдирди. Унинг “Судхўрнинг ўлими”, “Дохунда”, “...” асарлари мухлислар қалбидан жой олди. Ўзига қўйилган ҳайкал бўлди десам адашмаган бўламан. Айниқса, “Судхўрнинг ўлими” қиссаси адабиётимизнинг энг катта ютуқларидан бири бўлди.

Биз ушбу мақоламизда қиссада қўлланилган баъзи бир зоологик (уй ҳайвонлари) терминларни мазмуний, гениологик ҳамда тузилиши жиҳатидан таҳлил қилишни мақсад қилдик.

Асарда от, отлиқ, отбоқар, сайислар, чарс от, улоқчи от, чимхўр, юган, эгар, эгарнинг қоши, чорабзал, ҳўкиз, охур, кунжара, сигир, говмиш, сут, қаймоқ, эшак, тўқим, туя, жун, туёқли моллар, файтон, арава, гупчак, араванинг шотиси, қоракўл териси каби 30 га терминлар берилган. Уларни икки гуруҳга бўлиб таҳлил қилишш мумкин:

1. От, улов, юк ташиш учун хизмат қилувчи терминлар: от, отлиқ, отбоқар, сайислар, чарс от, улоқчи от, чимхўр, юган, эгар, эгарнинг қоши, чорабзал, охур, эшак, тўқим, туя, жун, файтон, арава, гупчак, араванинг шотиси, ғилдирак.

2. Ҳўкиз, охур, кунжара, сигир, говмиш, сут, қаймоқ, жун, туёқли моллар, қоракўл териси.

Охур ва жун лексемаларини ҳар икки гуруҳга ҳам киритишимиз мумкин.

Биринчи гуруҳга кирувчи терминлардан от, отлиқ, отбоқар, улоқчи от, юган, эгар, эгарнинг қоши, эшак, туя, жун, арава, араванинг шотиси ҳозирги кунда ҳам кенг қўлланади. Аммо сайислар, чарс от, чимхўр, чорабзал, тўқим, охур, файтон, гупчак каби терминлар эскирган. Шунинг учун бу лексемаларнинг маъносини луғатдан кўриб чиқамиз.

САЙИС [а. Отбоқар, ҳайвонлвргв қаровчи] 1 тар. Ўрта Осиё хонликларида ҳарбий ва хўжалик эҳтиёжлари учун сақланган отларни парвариш қилувчи шахс. 2 шв. Умуман отбоқар. Сайислар билади отнинг тобини, Чечан одам гапнинг қўяр бопини. Эргаш Жуманбулбул ўғли. (ЎТИЛ, 3 жилд, 422-бет)

Кўряпмизки, сайис лексемаси, соддароқ қилиб айтганда, отбоқар маъносини англатади. Аммо "Судхўрнинг ўлими" қиссасида отбоқар ҳамда сайис терминлари битта гап таркибида уюшиқ бўлак вазифасида қўлланилган. Мана ўша жумла:

Қори Ишкамба билан ноиб кўришаётган чоғда ноибхонадаги мулозимлар, *сайислар ва отбоқарлар* қиқирлқашиб кулишдан ўзларини тия олмадилар. (Судхўрнинг ўлими, 72-бет)

Демак, сайис ва отбоқар сўзлари мазмунан тенг эмас, балки маълум бир маъно нозиклигига эга. Биринчидан, сайис араб тилидан кириб келган, отбоқар эса соф ўзбекча сўз. Иккинчидан, луғатда айтилганидек, сайис сўзи хонликлар даврида кириб келган. Навоий асарларининг изоҳли луғатида бу сўз учрамайди. Отбоқар лексемаси эса узоқ тарихга эга.

*Арава*нинг чап *ғилдираг*и бир ёни билан сувга ботди ва *гупчак*нинг учи зовурнинг ёнига тиралганидан тикка бўлиб қолди. (Судхўрнинг ўлими, 137-бет)

Ушбу гапда арава-улов билан боғлиқ 3 та термин қўлланган: арава, ғилдирак ва гупчак. Арава ғамда ғилдирак бизга таниш. Шунинг учун гупчак терминини таҳлил қиламиз.

ГУПЧАК Ғилдиракнинг марказидаги кегайлар қадалган ва ўқ ўрнатиладиган тешиги бўлган ўрта қисми. (ЎТИЛ, 1 жилд, 527-бет)

Қиссада файтон термини ҳам қўлланган. Файтон лексемасига луғатда қуйидагича изоҳ берилган:

Бу сўз, аслида, фаэтон шаклида бўлган.

ФАЭТОН [юн. Phaethon – юнон мифологиясида: қуёш маъбуди Гелиоснинг ўғли Фаетон исмидан: у икки ғилдиракли қуёш аравасини бошқаришни хоҳлаб, Ер юзини хавф-хатарда қолдирган < phao – ярқирайман, нур сочаман] айн. **файтон, фойтун.** (ЎТИЛ, 4 жилд, 336-бет)

Кейинчалик фаетон фойтунга, фойтун эса файтонга айланган.

ФОЙТУН эск. Тўрт ғилдиракли, очилиб-ёпиладигансоябонли, енгил арава. (ЎТИЛ, 4 жилд, 354-бет)

ФАЙТОН эск.айн. фойтун. (ЎТИЛ, 4 жилд, 320-бет)

– Харгўш қишлоғига бориб, у ердаги ишларимизни саранжомқилганимиздан кейин қайтишда яна Аброрникига кирамиз, унгача сизлар ўзаро ҳисобларни аниқлаб қўйинглар! – деди ва ўзи суд ижрочиси билан файтонга миниб Харгўш қишлоғига жўнади ... (Судхўрнинг ўлими, 132-бет)

Асарда отнинг улоқчи от, чимхўр, чарс от каби турлари келтирилган. Улоқчи от – улоқ ўйини (кўпкари) да чопадиган от.

Чимхўр сўзи эса ўзбек тилидаги чим сўзига форс-тожикча хўр (емоқ) сўзининг қўшилишидан ҳосил бўлган. Бу ерда овқатни танлаб, оз-оз ейдиган, ҳар қандай овқатни еявермайдиган от назарда тутилган.

Чарс от? Чарс сўзи ўжар, бетгачопар, шартаки маъноларини билдиради. Асов, ёввойи табиат, ҳурковуч ҳайвонлврга нисбатан ҳам шу терминдан фойдаланилади. Масалан:

Ноиб супадан тушиб, отга минди, унинг кўрсатиши билан Қори Ишкамбани ҳам келишда мингани чарс отга кўтариб миндирдилар, бир отлиқ унинг юганидан тутди. (Судхўрнинг ўлими, 94-бет)

- Мана шундай мулкли, асбоб-ускунали, ўзига тинч, тўғри ва соддадил деҳқонда сиздай одамниг пули куймайдигина эмас. Балки у сизга говмиш сигирдай бир неча йил сут, қаймоқ бера олади. (Судхўрнинг ўлими, 76-бет)

Ушбу гапда чорва билан боғлиқ говмиш, сигир, сут, қаймоқ каби тўртта термин қўлланган. Бу гапдаги говмиш сўзини кўриб чиқамиз.

ГОВМИШ [ф. йирик шохли ҳайвон, ҳўкиз] Зотли, серсут сигир. (ЎТИЛ, 1 жилд, 508-бет)

Асарда, шунингдек, қорамол (йирик, шохли ҳайвонлар: буқа, ҳўкиз, сигир), охур (чорва молларига ем-хашак солиб бериладиган мослама, идиш), кунжара (уруғ ёки мағизларнинг ёғи сиқиб олингандан кейинги қолдиғи) каби чорвачилик терминлари ҳам қўлланган.

Тузилишига кўра бу терминларни икки гуруҳга бўлишимиз мумкин:

1. Содда (бир таркибли) терминлар: эшак, тўқим, файтон, от, отлиқ, юган, эгар, қош, гупчак, арава, шоти, сайис, улов, чимхўр, улоқ, охур, кунжара, ҳўкиз, қўй, сут, қаймоқ ва ҳ.

2. Қўшма сўз шаклидаги терминлар: қорамол, қоракўл, отбоқар ва ҳ.

3. Сўз бирикмаси шаклидаги терминлар: туёқли моллар, эшак тўқими, туянинг жуни, чарс от, говмиш сигир, улоқчи от ва ҳ.

Тузилишига кўра терминларнинг катта қисмини содда сўз шаклидаги терминлар ташкил қилади. Уларнинг сони 21 та (жами терминларнинг 70 % и).

Қўшма сўз шаклидаги терминлар 3 та (жами терминларнинг 10 % и).

Сўз бирикмаси шаклидаги терминлар 6 тани ташкил қилди (жами терминларнинг 20 % и).

Мақоламизда таҳлил қилинаётган 30 та терминнинг 23 таси туб, 7 таси ясама. Ясама терминларнинг 4 таси аффиксация (чимхўр, отлиқ, туёқли, улоқчи), қолган 3 таси композиция (қорамол, қоракўл, отбоқар) йўли билан ҳосил бўлган.

Терминларни гениологик (ўз қатлам ва ўзлашган қатлам) таҳлил қилганимизда қуйидаги натижага эришилди:

Ўз қатламга мансуб терминлар: тўқим, от, отлиқ, отбоқар, чарс от, улоқчи от, юган, эгар, эгарнинг қоши, ҳўкиз, сигир, сут, қаймоқ, эшак, туя, жун, туёқли мол, арава, арава шотиси, гупчак, қоракўл териси ва ҳ.

Форс-тожик тилидан ўзлашган сўзлар: чорабзал, говмиш, охур, кунжара.

Араб тилидан ўзлашган сўзлар: сайис, мол.

Юнон тилидан ўзлашган термин: файтон.

Шунингдек, ўзбек ва форс-тожикча сўзнинг қўшилишидан ҳосил бўлган қўшма сшз ҳам қатнашган. Бу чимхўр лексемаси.

Хулоса қилиб айтганда “Судхўрнинг ўлими” қиссаси XX аср терминологияи, хусусан, йилқичилик ва чорвачилик терминологиясини ўрганишга асос бўлиб хизмат қилади.

АДАБИЁТЛАР

1. Садриддин Айний. Судхўрнинг ўлими. Эски мактаб: қиссалар. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2020. -240 б.
2. Ҳожиев Азим. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2000.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент, 2006.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Тошкент, 2006.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Тошкент, 2007.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Тошкент, 2008.

SURXONDARYO SHEVALARIGA XOS BA’ZI DIALEKTAL-ETNOGRAFIZMLARNING QADIMGI TURKIY TIL VA ESKI O‘ZBEK ADABIY TILI BILAN MUNOSABATI

Raxmanov Botir ABDURASULOVICH,
Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Tarixdan ma’lumki, o‘zbek xalqi o‘zining tarixiy taraqqiyoti davomida juda murakkab etnogenetik hayot tarzini bosib o‘tgan.[126] Professor F.Abdullayev qayd etganidek,[127] jonli til faktlari xalqning o‘tmishdagi hayotini, urug‘dosh va urug‘dosh bo‘lmagan etnik guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarini aks ettiradi. Shuning uchun o‘zbek sheva va lahjalari rang-barang bo‘lib, uning dialektologik kartasi ham bir muncha murakkabdir.[128] Bu masala V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov, F.Abdullayev, A.G‘ulomov, S.Ibrohimov, M.Mirzayev, A.Shermatov, B.Jo‘rayev, A.Ishayev, A.Aliyev S. Rahimov kabi atoqli tilshunos olimlar tomonidan nazariy jihatdan o‘rganilib, yirik monografik asarlar yaratildi.[129] Shu nazariyalarga asoslanib, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi o‘zbek shevalarini tadqiq qilish sohasida katta ishlar olib borildi va borilmoqda.

Bizga ma’lumki, adabiy til xalq jonli tilidan o‘ziga kuch oladi. Chunki shevalar adabiy til uchun ozuqa manbayi hisoblanadi. O‘zbek shevalarini o‘rganishning bugungi kundagi ahvoli va kelajagi tilshunoslar oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy-ma’naviy qadriyatimiz hisoblanadi. Shuning uchun ham uni asrab-avaylash, qadrlash zarur. Har qanday mahalliy sheva tilning quyi shakli b o‘lib, u adabiy tilning bitmas-tuganmas manbayidir.

Shevaga xos so‘zlarni adabiy tilimizni boyituvchi tarix dalili, guvohi va tarixning o‘zi deyishimiz mumkin. Biron narsa, xalq hayotini, tafakkuri va madaniyatini, ma’naviyatini shevaviy so‘zlar singari tez, ishonchli va aniq mujassam etolmaydi. Chunonchi, Surxondaryo viloyatidagi o‘zbek shevalari ham shular jumlasidandir. O‘zbek tilining lug‘at tarkibining boyishida ayni paytda Surxondaryo o‘zbek shevalarining ham o‘rni bor. Chunki Surxondaryo viloyatida yashovchi aholi ham o‘zbek xalqining etnik tarkibiga kiruvchi element sifatida uzoq tarixiy jarayonni boshidan kechirganlar.

Qipchoq lahjasining “je” lovchilar guruhiga kiruvchi Surxondaryodagi o‘zbek shevalari, o‘z navbatida, fonetik, leksik, grammatik jihatdan adabiy til bilan o‘xshash va noo‘xshash tomonlarga ega bo‘lib, boshqa o‘zbek shevalaridan ayrim lingvistik xususiyatlariga ko‘ra farq qiladi. Shuning uchun bu hududdagi shevalar leksikasini umumxalq o‘zbek adabiy tili lug‘at tarkibidagi so‘zlarga qiyoslab o‘rganish shu so‘zning bugungi kundagi tarqalish chegarasi haqida to‘la ma’lumot beradi. Ushbu maqolada adabiy tilda kam, ammo yozma yodgorliklarda, ayrim turkiy tillarda uchraydigan lug‘aviy birliklarning ma’nosini izohlab o‘tamiz. **(Mo‘ri)-** 1) Devor tagidan suv o‘tish uchun quyilgan ariqcha; 2) O‘tov teshigi; 3) Tutun chiqadigan mo‘ri. Qiyoslang: Mahmud Qoshg‘ariyda **bo‘rin-** suv o‘ygan yoriqlar (DLT, Sh, 380); **Ko‘lik-** ot-ulov: qiyos: ko‘lik-yuk ortish uchun mumkin bo‘lgan hayvon orqasi (DLT, 1, 372); Qadimgi turkiy tilda ko‘lik-ish hayvoni (Mlv, 1, 395); Eski o‘zbek tilida ko‘lik-ot ulov (RDL,II,147); Ko‘lik-“hayvon orqasi” (DTS, 314); Qoraqalpoq, qirg‘iz kabi turkiy tillarda ka’luk “ish hayvoni”(Ydx. 269); qozoq tilida ko‘lik “ish hayvoni” ma’nolarida uchraydi.Bu so‘z birqancha o‘zbek

[126] Ўзбекистон тарихи. Тошкент, 2002.
[127] Ф.Абдуллайев, Хоразм шевалари. Тошкент , Фан, 1961.
[128] Е.Д.Поливанов, Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. Тошкент, 1933.
[129] В.В.Решетов, Узбекский язык. Тошкент, 1959.

shevalarida ham, chunonchi, qarmoq, qoramurd, Xorazm shevalarida yuk ortilgan hayvon ma'nolarini bildiradi. Qishloqqa borishga ko'ligim yo'q. (O'XShL,148). **Boyir-** qir tepalik: Boysun jo'li boyirdi, bitgan guli xayrli (folklordan); eski o'zbek tilida **boyir-** qir, tepa, balandlik (Navoiy asarlari lug'ati, Toshkent, 1972, 57-bet); turkman tilida **bayir-**kichik tepa (Rusko-Turkminskiy slovar, M1956, 127). **B**o'**ktar-** 1)qor uyumi Qadimgi turkiy tilda shu ma'noda ishlatilgan; 2)qatma-qat, ustma-ust Chapanni bo'katuv qi. (Boysun). **Bo'ktaruv-** egar orqasiga bog'lanadigan ot jabdug'lari. Qadimgi turkiy tilda "bo'ktargu" deyilgan. **Qavachag'-** 1)g'o'za po'chog'i yoki po'stlog'i; 2)tuxumi so'rib olingan po'stloq, etimologik jihatdan qobiqcha ma'nosidadir. So'zning o'zak qismi qobiq adabiy tilda va qozoq, qoraqalpoq, turkman, qirg'iz tillarida po'stloq shaklida uchrasa ham qavacha, qobiqcha, qobachog' leksemalari ishlatilmaydi. Bu so'z V.V.Radlov lug'atida qabujak-qopqoq yoki po'stloq deb berilgan. (Rdl, 11, 456). **Chalg'ay-** chopon yoqasiga ulanadigan qism (shevada); **chalg'ay-** qush patining uchlari (DLT, 11, 259). **Chirkay-** mayda chivin (shevada), **chirka-** mayda chivin (RDL, 703).

Adabiy tilda ishlatilmaydigan,faqat shevaga xos so'zlar:

Matal- sabab, bahona. Ko'p matal o'qima; **biragay-** zo'r, kuchli; **malapa-** kiyim kesilganda qolgan chiqindi, qiyqimlar; **dadar-** daydi, sayoq; **nai-** mazax, masxara. Odamlar nai qilmasin deb, Avazxon otiga minib jo'nab ketti. (Folk); **digil-** qora ko'l qo'yning dumbasi kichik turi; **ulapa-** haq, ulush; **andarmon-** biror narsa bilan band bo'lib turish; **aloxanda-** havotir, diqatni bir narsaga jalb qilish, kutish; **charg**o'**z-** (aslida chorko'z)-yuzlashtirish, ko'zma-ko'z qilish; **gavshak-** to'da**; taytuv-** garang; **qatov-** kamar, tog'ning odam chiqolmaydigan qismi; **jelik-** tandirning yon teshigi; **jo'pkari-** xushomadgo'y; **selga-** suv oqadigan soy, jilg'a; **halak-** sarson, sargardon; **jesir-**tul, beva; **chobira-**buzuq joy, qir; **dayov-**kuchli; **xosalamki-** xuddi; **amandas-** yot, begona; **xashuva-** masxara; **dumbir-** payt; **tati-**hech qachon kabi.

Shevalarda fonetik o'zgarishga uchrab aytiladigan so'zlar:

Huchchi- cho'qqi; **tolli-** totli; **cho'pchimoq-** sapchimoq; **iyar-** egar; **iyarchang-** ergashchan (bola); **matal-** mahtal; **jop-** yop; **hafsana-** hafsala; **siyir-** sigir; **gallamoq-** aldamoq kabilar. Qipchoq lahjasiga kiruvchi hududdagi shevalarda ham ko'plab fors-tojikcha so'zlar uchraydi. Bularning aksariyati Navoiy asarlarida shu ma'noda ishlatilgan. Qiyoslash uchun misollar:

Surxondaryo "j"-lovchi Shevalarida	**Tojik tilida**	**O'zbek adabiy tilida**
Kalapo'sh	Kalapo'sh	Do'ppi
Zardoli	Zardoli	O'rik
Bachcha	Bachcha	Bola
Gashtak	Gashtak	Gap
Halganchi	Halganchak	Halinchak
Ustuxon	Ustuxon	Suyak
Kurra	Kurra	Xo'tik
G'o'lin	G'o'lin	O'rik
Chakki	Chakki	Suzma
Hulul	Hulul	Na'matak
O'ymoq	O'ymoq	Angishvona
Daroz	Daroz	Novcha
Ko'nga	Ko'ngna	Eski
Objo'h	Objo'sh	Qaynoq suv
Go'sala	Go'sala	Buzoq

Dovcha Dovcha G‘o‘ra

Xulosa qilib aytganda, qipchoq lahjasiga kiruvchi “ j”-lovchi shevalar o‘ziga xos lug‘at tarkibiga ega bo‘lib, leksik-semantik va etimologik, qolaversa, etnolingvistik jihatdan alohida tekshirishni talab qiladi. Shu bilan birgalikda, hali qadimiy yozma yodgorliklar va o‘rta asrlarda ijod qilgan adiblarning asarlarida uchraydigan ammo adabiy tilda qo‘llanilmaydigan faqat Surxondaryo shevalarida ishlatiladigan leksema va etnografik birliklar to‘la yig‘ib olinmagan va o‘rganilmagan.

ADABIYOTLAR

1.Ўзбекистон тарихи. Тошкент, 2002.
2.Ф.Абдуллаев, Хоразм шевалари. Тошкент, Фан, 1961.
3.Е.Д.Поливанов, Узбекская диалекталогия и узбекски литературний язык. Ташкент, 1959.
4.В.В.Решетов, Узбекский язык. Ташкент, 1959.
5.С.Рахимов, Сурхондарё ўзбек шевалар луғати. Тошкент, 1995.

NOSIR FOZILOV IJODIDA SO‘Z QO‘LLASH MAHORATI IZOHLI LUG‘AT MISOLIDA

Musayeva Shaxlo QUDRATOVNA,
Navoiy davlat pedagogika instituti doktoranti

Keyingi yillarda xalq merosini yoshlarning ongiga singdirish ma’naviy –ma’rifiy sohadagi eng muhim masala ekanligi alohida e’tiborga olinmoqda.Zero Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “…. Bugungi kunda butun dunyoda aholining, birinchi navbatda, yoshlarning ongi va qalbini egallash uchun keskin kurash borayorganini hisobga oladigan bo‘lsak, farzandlarimiz tarbiyasi,ma’naviy-ma’rifiy sohadagi ishlarimizni bir zum ham susaytirmasdan, ularni yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur” [130].

Jamiyat o‘zgarishi bilan bog‘liq holda tilning lug‘at tarkibida turli jarayonlar yuzaga keladi.So‘z va so‘z shakllari paydo bo‘ladi,faollashadi va asta sekin qo‘llanishdan chiqib ketadi.Ularni saralab olish va adabiy tilda muqim o‘rniga ega bo‘lishida lug‘atlar va lug‘atshunoslikning ham o‘rni beqiyos.

XIX asrning 60- yillarida E.Littre fransuz tilining kata lug‘atini chop ettirganda,mashhur adib E.Zolya lug‘atni “fransuz sivilizatsiyasi tarixiga qo‘shilgan hissa” deb baholagan edi[3,8-bet].Zero lug‘atlar millatning ilmiy va tafakkuriy taraqqiyotini ko‘rsatib beruvchi bir vosita bo‘lib, to‘plangan bilimlarini jamlash, tartibga solish, ma’lum xalqni o‘rganish va umumiy baho berish kabi qo‘shimcha funksiyalarga ham ega.

Butun bir tilning so‘z boyligini bilish uchun ko‘plab ishlar qilinadi va lug‘atlar shakllantiriladi va o‘rganiladi.Umuman olgan inson biror boshqa tilni o‘zlashtirmoqchi bo‘lsa albatta lug‘atga murojat qiladi, yoki biror yozuvchining umri davomida nechta so‘z ishlatganini bilish uchun ham uning so‘zlarini lug‘at tartibida joylashtiradi.Demak, tilshunoslik uchun asosiy manbalardan biri bu lug‘at.Lug‘atlar turli bo‘ladi. Tilshunos olim professor Baxtiyor Mengliyev boshchiligida chiqqan “O‘zbek tilining universal qo‘llanmasi” kitobida avval lug‘atlarni ikkiga: umumiy va xususiy lug‘atlarga bu ikki tur ham o‘z navbatida qomusiy va filologik lug‘atlarga bo‘lib tasniflangan.

Izohli lug‘at — lingvistik lug‘at turlaridan biri. Unda, birinchidan, lug‘atga kiritilgan har bir so‘zning (bosh so‘zning) ma’nosi, ko‘p ma’noli bo‘lsa, ma’nolari belgilanadi va

Mirziyoyev Sh.Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.-Toshkent:O‘zbekiston,2017.-B.17.

qayd etiladi. Ikkinchidan, bu ma’no (ma’nolar) izohlanadi, ya’ni tushuntiriladi — tavsifiy yo‘l bilan qayd etiladi[131]. Xuddi shu xususiyatiga ko‘ra "Izohli lug‘at" deb ataladi.

O‘zbek tilining izohli lug‘ati besh jildlik 2020-yil “O‘zbekiston nashriyoti”da chiqqan kitobga nazar solsak. O‘zbek adabiyoti va jahon hamda qardosh xalqlar adabiyoti vakllarining ham asarlaridan misollar keltirgan.Biz siz bilan ana shu izohli lug‘atda asarlaridan misol keltirilga bolalar adabiyotining buyuk vakli, noshir,O‘zbekiston xalq yozuvchisi Nosur Fozilov ijodidagi namunlarni ko‘rib chiqamiz.

Adib ijodiga oid asarlardan birinchi jildda o‘n bitta so‘zga izohlangan bo‘lib. to‘qqizta so‘zda o‘z ma’nosida, ikkita so‘zda ko‘cha ma’noda berilgan.Kitobning ikkinchi jildida yigirma ikkita so‘zga nisbatan izohlangan o‘n yetita o‘z ma’nosida,ikkita ko‘chma ma’noda, uchta so‘z ikkinchi ma’noda ishlatilgan.Kitobning uchunchi jildida o‘n sakkizta so‘zga nisbatan izohlangan bo‘lib,o‘n yetita o‘z ma’nosida, bir o‘rinda iboraga nisbatan ko‘chma ma’noda qo‘llangan.Kitobning to‘rtinchi jildida o‘ttiz to‘rtta so‘z adib ijodidan bo‘lib.yigirma yetita o‘z ma’nosida,olti o‘rinda ko‘chma ma’noga nisbatan, bir o‘rinda esa so‘zning ikkinchi ma’nosiga ko‘ra izohlangan.Kitobning beshinchi jildida yigirma to‘qqizta so‘z izohlangan bo‘lib, yigirma bitta o‘z ma’nosiga nisbatan, to‘rtta ko‘chama ma’noga nisbat berilgan,to‘rtta so‘zning ikkinchi va uchunchi ma’nolariga nisbatan izohlangan. O‘zbek tilining izohli lug‘atida jami bo‘li adib ijodidan 120 taga yaqin so‘zga nisbatan izoh sifatida ishlatilgan.Izohli lug‘atnin ko‘zdan kechirar ekansiz yana bir adib ijodi qanchalik keng va har bir so‘z o‘rni bilan ishlatilganligiga guvoh bo‘lasiz.Bu yerda eskirgan so‘zlar,shevaga oid so‘zlar,xalqaro terminlar va yangi paydo bo‘lgan so‘zlargacha uchratish mumkin.

Vertolyot[r.vert(yetsya)-aylanmoq+let(at)uchmoq Tikka uchub chiqib, yerga tikka qo‘nadigan va osmonda muallaq tura oladigan,parrakli, hovodan og‘ir uchush aparati. Birpas o‘tmay vertolyotning motori gurullab, ustidagi, kata parraklar aylana boshladi.N.Fozilov, Diydor.[132]

*Yalamoq.***1.**Yeyish yoki mazzasini totish maqsadida biror narsaga tilni tegizmoq; til vositasida og‘izga olmoq.

3.Poda ketidan yuraverib, oftob *yalagan* bug‘doyrang yuzlari biroz to‘lishganday…N.Fozilov.Diydor.[133]

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Nosir Fozilov faoliyatining ko‘p yillik davri nashriyot bilan bog‘liqligi bois adib ijodida so‘z qo‘llashga bo‘lgan talab juda yuqoriligi namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1.Mirziyoyev.Sh.Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent:O‘zbekiston,2017.
2.K.arimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010.
3.Будагов.Р.А. Толковы словари в национальной культуре народов.-Москва:Наука,1989.
4.O‘zbek tilining izohli lug‘ati besh jildlik 2020-yil “O‘zbekiston nashriyoti” 1-jild.
5.O‘zbek tilining izohli lug‘ati besh jildlik 2020-yil “O‘zbekiston nashriyoti” 5-jild.

[131] O‘zbek tilining unversal qo‘llanmas.B.Mengliyev.O‘.Xoliyorov.N.Abdurahmonova. “Akademnashr”Toshkent. 2015-yil

[132] O‘zbek tilining izohli lug’ati besh jildlik 2020-yil “O‘zbekiston nashriyoti” 1-jild.456- bet.

[133] O‘zbek tilining izohli lug’ati besh jildlik 2020-yil “O‘zbekiston nashriyoti” 5-jild.104- bet.

АЛПОМИШ ДОСТОНИДА БОШҚА ТИЛЛАРДАН МАЪНОВИЙ ЁКИ ШАКЛИЙ ЎЗЛАШТИРИЛГАН ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАР

Хакимжан Ярашевич АХМЕДОВ,
Термиз давлат университети ўқитувчи

Аннотация

Ушбу мақолада Алпомиш достонидаги фразеолагизмларнинг этималогик тадқиқи.Ўзбек тилшунослигида фольклор асарлар тилининг ўрганлиниши. Шунингдек достон тилида фразеалогик бирликлари ва уларнинг ўзаро муносабати тадқиқ этилган.

Калит сўзлар.

Алпомиш достонидаги фразеолагизмларнинг этималогик тадқиқи, фольклор фразеологиясининг шакилланиши. Алпомиш» достони тили ўрганилиниши, Достон тилида фразеологик бирликларнинг структур семантик ва этималогик таҳлили.

Ўзбек тили фразеологияси ўзига хос тарихий тараққиёт босқичларига эга. Дастлабки босқичда, табиийки, фразеологизмлар таркибидаги лексемалар ўзбек тили лексикасининг ўз мулкидан иборат бўлган. Даврлар ўтиши билан тилимизга форс-тожик ҳамда араб тилларидан кўплаб лексемалар ўзлашдики, улар фразеологизмлар таркибида ҳам ўз аксини топди[134].

Ўзбек тилига, асосан, форс-тожик тилларидан фразеологизмлар кўпроқ ўзлашган. Бунинг сабабини ўзбек ва тожик халқларининг турмуш тарзидаги муштарак томонларнинг кўплиги, қолаверса, қуда-андачиликнинг кенг тус олганлиги каби омиллар билан изоҳлаш мумкин. Жумладан, *“аввал таом, баъдаз калом”, “азбаройи шифо”, “амри маҳол”, “ба жону дил”, “базми жамшид”, “байи бу дунё – пули охират”, “балойи азим”, “балойи нафс”, “бардор-бардор қилмоқ”, “дилини сиёҳ қилмоқ”, “дарди бедаво”, “бажо келтирмоқ”* кабилар форс-тожик тилидан ўзлаштирилган[135].

“Алпомиш” достонида ҳам форс-тожик ва арабий тил таъсири қисман бўлса-да сезилади. Форс-тожик тилида сўзлашувчи халқлар билан жуда қадимдан ёнма-ён яшаб келиш, қуда-андачилик, ижтимоий, иқтисодий, маданий ва маънавий алоқаларнинг узоқ ўтмишга бориб тақалиши бевосита тилга ҳам таъсир қилмай қолмайди. Шу сабаб ҳам достонда форс-тожик тилида қўлланилган *авлиёйи азизлар, раҳм нури Муҳаммад, тахти Сулаймон, Ҳакими Луқмон, Хўжаи Хизр, парвойи фалак* сингари изофали бирикмалар учрайди. Ушбу бирикмалар ислом дини билан боғлиқ ономасиологик бирликлар бўлиб, халқ оғзаки ижодида кўп ҳолларда ундалма шаклида қўлланган ва қаҳрамонларнинг илтижолари амалга оширувчи, ўз мақсадларига етишдаги мададкор куч сифатида келтирилади.

Достондан олинган қуйидаги парчага эътибор қаратамиз:

Ёд айладим аввал **Одам сайфулло,**
Садағангиз бўлайин **Нуҳи набилло,**
Миллатим денг, ё **Иброҳим ҳалилло,**
Умматим денг, ё **Муҳаммад Мустафо**,
Мадакор бўлинг, азиз-авлиё (303).

[134] Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологияси. -Тошкент: 2019, 44-бет.
[135] Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологияси. -Тошкент: 2019, 42-бет

Парчада келтирилган *Одам сайфулло, Нуҳи набилло, Иброҳим ҳалилло, Муҳаммад Мустафо* каби турғун бирикмаларнинг юзага келишида араб тилининг таъсири бор. Қуръони карим, ҳадисларда пайғамбарлар номларининг бу тартибда айтилиши ислом динига эътиқод қилувчи халқимиз нутқида ҳам қатъий қолиплашган бирикмаларнинг ҳосиласини тайёр ҳолда қўллашга асос бўлган Бундан ташқари достонда Интерференсия йўли билан шаклланган фразеологизмлар ҳам мавжуд.

Дунёда бошқа тиллар томонидан фонетик, лексик-семантик, қисман бўлса-да, грамматик тузилишига таъсир қилинмаган тил бўлмаса керак. Ижтимоий, сиёсий, маданий алоқалар дастлаб тил лексикасига таъсир қилади. Ўзлашган тил бирликлари неологизм сифатида пайдо бўлса-да, вақт ўтиши билан шу халқ нутқининг ажралмас қисмига айланади. Бу ҳолат ўзбек тилида ҳам учрайди. Форс-тожик, араб, хитой, мўғул тилидан кўплаб лексик бирликлар ўзлашган. Уларнинг аксарияти нутқимизда ҳозирги кунда ўзлашма сифатида қаралмайди.

М.А.Бородинанинг таъкидлашича, бир қарашда қанчалик ғайриоддий кўринмасин қўшни қариндош тиллар қўшни ўзга структурали тилларга қараганда тил ўзгаришига камроқ таъсир қилади. Икки ҳар хил системадаги тилларнинг ўзро таъсири биринчи навбатда, мулоқот, ўзаро тушуниш эҳтиёжи билан боғлиқ. Икки қариндош тил бир-бирига қанчалик яқин ва ўхшаш бўлса, сўзловчилар учун улар қисқа амалий мулоқотдан сўнг шунчалик тушунарли бўладики, ўзаро таъсирга ҳеч қандай ҳожат қолмайди[136].

“Алпомиш” достонида қариндош бўлмаган қўшни халқлардан форс-тожик тилининг таъсири лексик, қисман, грамматик структурада акс етади. Қадим-қадимдан Ўзбекистон ҳудудида аҳоли лексикасида билингвизм ҳодисаси учрайди. Билингвизм ҳодисаси достон тилидаги фразеологик бирликларда ҳам учрайди. Масалан, *авлиёйи азизлар, раҳм нури Муҳаммад, тахти Сулаймон, Ҳакими Луқмон, Хўжаи Хизр, парвойи фалак* каби турғун бирикмалар билан бир қаторда достонда *Ҳазрати Жалтанг, Ҳазрати Чилтан, Ҳазрати Одам ота, Ҳазрати Хизр назар солсин* сингари мифоним, теонимик характердаги бирикмалар юзага келган. *Достонда Ҳазрати Жалтанг, Ҳазрати Чилтан* каби мифонимлар юқорида келтирилган теонимлар қолипида шаклланган. Шу боис ҳам бир қараганда мана шу мифонимлар теонимлар сингари ўқувчи онггида шаклланади. Бироқ ушбу мифонимлар аслида инсон ҳаёлий тасаввури, тўқималарининг маҳсули ҳисобланади.

Достондаги фразеологик бирликларда форсий тилга хос айрим қолиплардан яна фойдаланилган. Масалан, ***“ба жону дил”*** бирикмасига қолипида ўзбек тилида ***“дарду алам”*** жумласи шаклланган. Бир қараганда ушбу бирикмалар структураси бир-бирига ўхшаса-да, ***“дарду алам”*** бирикмаси ўртасида келган ***“у”*** тенг боғловчи саналади. Бироқ ушбу бирикманинг шаклланишида форс тилидаги бирикувнинг таъсири боис, “у” тенг боғловчиси ўз вазифасини йўқотиб бормоқда. Достонда ***дарду аламини ёрмоқ, юраги дарду-аламга тўлмоқ, дарду алами қуюқлашмоқ*** каби барқарор бирикмаларда буни кузатиш мумкин. Шунингдек, достонда келтирилган иборалар таркибидаги компонентлардан бири форсийча-тожикча лексема бўлиши мумкин. Бироқ бу лексемалар тил эгалари томонидан деярли фарқланмаган ҳолда нутқда қўлланилади.

Ўзбек тилига ***“жуфти ҳалол”*** бирикмаси ҳам форс-тожик тилидан кирган бўлиб, ***“жуфтига ҳалол”*** маъносини англатади. Ушбу турғун бирикма нутқда изофали бирикма шаклида қўлланилиб, кейинчалик фразеологик бирликнинг компонентларидан бирини ҳосил қилган. “Алпомиш” достонида ушбу бирикма оила

[136] Аврорин В.А. Проблемы изучения функциональной стороны языка. -Ленинград: Наука, 1975, - с 154.

қуриш, маълум урф-одат жараёнида тилга олинади: *Ҳакимбек билан Барчиной бошдан бир-бирига аталган, бир-бирига* ***жуфти ҳалол бўлади****, деб айтиб, Бойбўри, Бойсарилар тилла танга назр бериб, Қаландар дарвеш жўнаб кетди (28).*

Шунингдек, достонда учрайдиган *нигоҳи тушмоқ, қалби пок, меҳри жоъшмоқ, меҳр ташламоқ, дилини хушламоқ, ширин соъзламоқ* каби кўплаб фразеологик бирликларда компонентлардан бири форс-тожикча лексема бўлиб, ҳозирги кунда ушбу бирликларни ўзлашма экани фарқланмайди.

Достонда араб тилига хос бирикув қолипларидан деярли фойдаланилмайди. Бироқ асардаги барқарор бирикмалар компонентларидан бири арабий лексема бўлиши мумкин. Мисол, ***аҳдига қаттиқ турмоқ***:

Қаттиқ туриб аҳдига,
Кал чўпоннинг бахтига,
Ишни бажариб нақдига,
Қайқубодни чиқарди (327).

Ваъдасини тиндирмоқ - *Шундай қилиб, мастон айёрнинг жазосини бериб, Қайқубодни подшоҳ қилиб, тахтига миндириб, берган ваъдасини тиндириб, қаторида нор олиб, ўлжа олиб норларга ортиб, тилла билан зар олиб, карвон бўлиб, Еломон туячини карвонбоши қилиб, Бойсари акасини бирга олиб, мол-дунёси билан йўлга солиб, кўчиб келган қўнғиротлар ҳам қўшилиб, катта карвон-кўч бўлиб, қаторлашиб Алпомиш Бойчибор отининг белига миниб, Қайқубод-шоҳ дўсти, Товкаой ва Тойчахонлар билан хўшлашиб, йўлга тушиб, юришни тезлаб, ота юртини кўзлаб, Бойсун-Қўнғиротни излаб бораётган жойи экан (327).*

Назр бермоқ, қоълини ҳалоллатмоқ, назари тушмоқ, қалби қайноқ, кайфини чоғламоқ, жафо тортмоқ, хатога тоймоқ, жазава тутмоқ каби ибораларда ҳам бирикма компонентларидан бири арабча лексика ҳисобланади. Юқорида таъкидлаганимиздек, бу лексемаларнинг арабча экани фарқланмайди.

Иборалар халқ ижодиётининг маҳсули бўлганлиги сабабли муайян бир жойнинг табиати, халқнинг иқтисодий тузуми, тарихи, маданияти, ҳаёт тарзи, оғзаки ижодиёти, бадиий адабиёти, санъати, фани, урф-одати кабиларни акс эттиради ва авлоддан-авлодга ўтиб боради. Шу жараёнда улар маълум семантик ва структур ўзгаришларга ҳам учрайди[137].

“Алпомиш” достонидаги фразеологик бирликлар таркибий қисмларининг этимологик жиҳатдан кўп тилли эмаслиги, қардош бўлмаган тилларга хос лексемаларнинг ҳам тил эгалари томонидан ўзлашма сифатида қаралмаслиги, асосан, диалектал характерга эга екани билан ҳам аҳамиятлидир. Фразеолгик бирликларнинг таҳлили шуни кўрсатадики, достон тили, унинг синтактик, морфологик қурилишига узоқ маданий, ижтимоий алоқаларга эга тиллардан форс-тожик ва араб тилининг таъсири деярли сезилмайди.

АДАБИЁТЛАР

1. Аврорин В.А. Проблемы изучения функциональной стороны языка. -Ленинград: Наука, 1975, - с 154.
2. Д.Ўринбоева. Ўзбек халқ оғзаки достонлари тилининг лингвостатистик таҳлили(монография) Самарқанд 2009.3 Б.
3. Жуманазарова Г.У. Фозил Йўлдош ўғли достонлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлили): Филол. фан. док... дисс. – Тошкент, 2017, 17-б.

[137] Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологияси. -Тошкент: 2019, 4-бет.

4. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. -М. 1947
.
5. Мирзаев Т., Эшонқул Ж., Фидокор С. “Алпомиш” достонининг изоҳли луғати. – Тошкент: Елмус-Пресс-медиа, 2007.
6. Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологияси. -Тошкент: 2019, 4-бет.
7. Ишаев А. Халқ досдонлари лексикасига оид кузатишлар//”Ўзбек тили ва адабиёти”, 1970, 5-сон.-Б.56-63

RUS TILSHUNOSLIGIDA TAVTOLOGIYANING O‘RGANILISHI

Dilnoza Xasan qizi YO‘LDOSHEVA,
NavDPI 10.00.01-O‘zbek tili ixtisosligi 1-bosqich tayanch doktoranti

ANNOTATSIYA

Maqolada ortiqchalik tamoyili, xususan, tavtologiyaning rus tilshunosligida o‘rganilish tarixi yoritilgan bo‘lib, tavtologiya hodisasining yillar davomida qaysi fanlar tarkibida o‘rganilganligi, rus tilshunoslarning tavtologiya hodisasi ustida atroflicha olib borgan izlanishlari, ushbu hodisalar xususida turlicha qarashlar qayd etib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: tavtologiya, mantiq, falsafa, leksik, xato, takror.

Mavzuni o‘rganish jarayoni shuni ko‘rsatdiki, rus tilshunoslari tomonidan tavtologiya hodisasi boshqa tilshunoslarga nisbatan ancha batafsil tadqiq etilgan. Rus tilshunos olimlar tomonidan ortiqchalik tamoyili asosida vujudga kelgan pleonazm hodisasidan tashqari, tavtologiyaga ham stilistik vosita sifatida qaraladi. Aloqa jarayonida tautologiyadan foydalanish qo‘pol nutq xatosi. Badiiy asarda u muallifning niyatiga bo‘ysunadi, tasvirni yaratishga xizmat qiladi va o‘quvchiga hissiy darajada ta’sir qiladi. Tavtologiya yunon tilida “xuddi shu so‘z” degan ma’noni anglatadi. Lingvistik sifatida rus tilidagi atama uzoq vaqtdan beri ma’lum. Lekin oldin hozirgi vaqtda yagona talqin yo‘q ushbu kontseptsiya, chunki u ko‘rib chiqiladi turli jihatlar: nutq hodisasi va stilistik vosita sifatida.[138]

“Rus tilining lug‘ati” da S. I. Ojegova tavtologiyani “So‘zlarni takrorlash” deb ta’riflaydi.[139] V.V.Pchelkina tomonidan esa bu tushunchaga “mantiqiy xato, faqat mavzuda ifodalangan narsani boshqacha so‘zlar bilan takrorlaydi” deb talqin qiladi.[140]

Ma’lumki, tildagi implikativ va eksplikativ o‘zaro munosabatlar til taraqqiyotining faktorlaridan biridir. “Agar (neytral normaga nisbatan) implikativ munosabat til ekonomiyasi natijasida vujudga kelsa, o‘z navbatida, eksplikatsiya tilda redundantlikni, ya’ni ortiqchalikni vujudga keltiradi”[141]. Bunday ortiqchalikning til uchun nechog‘lik ahamiyatli ekanligini, garchi ular informatsiya yetkazishni sekinlashtirib, til elementlarini ko‘paytirsa-da, tushunchaning yanada aniq bo‘lishi uchun yordam berishini I. R. Galperin alohida ta’kidlagan edi.[142] B. A. Serebrenikov tilda ortiqchalikning vujudga kelishini quyidagicha izohlaydi: “Bu tendentsiya favqulotda va xavfli hodisa ekan, degan tushuncha

[138] Г.Н.Кораблева. ТАВТОЛОГИЯ КАК СТИЛИСТИЧЕСКИЙ ПРИЕМ (НА МАТЕРИАЛЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ М. ЗОЩЕНКО). Российский государственный университет им. Н.А. Косыгина (Технологии. Дизайн. Искусство),Москва. 2020, 205-210.
[139] Ожегов С.И. Словарь русского языка. М.: Русский язык, 1986. 797 с.
[140] Словарь иностранных слов / Зав. ред. В.В. Пчелкина. М.: Рус. яз., 1989. 624 с.
[141] Б у ш у й А. М. К теории тавтологии в язнкозиании / / Язик и литература. Материалн II Республиканской научно-теоретической конференции молоднх ученнх и аспирантов, посвяоденной 50-летию Леиинского комсомола. Самарканд, 1969. С. 30 — 31.
[142] Гальперин И. Р. Информативность единнц язнка. М., 1674. С. 84

vujudga kelmasligi kerak. U muomala jarayonida tug‘iladi. U yoki bu tilda gapiruvchi kishi atrofidagilar uni yaxshiroq tushunishiga harakat qiladi”[143]. Til doim maksimal aniqlikka intilar ekan, ortiqchalikning vujudga kelishi tabiiydir.

A.N.Nikolyukin “Adabiy entsiklopediya” da tavtologiyaga “ma’noga yaqin so‘zlarni takrorlash” deb qaraydi.[144] Kengroq talqin V. N. Yartseva tomonidan tahrirlangan “Lingvistik entsiklopedik lug‘at’ da berilgan. Tavtologiya, lug‘at mualliflarining fikriga ko‘ra, “mazmunli bayonotning ortiqcha bo‘lishi, o‘zini namoyon qiluvchi butun yoki uning bir qismining semantik takrorlanishi. Tavtologiya pleonazmga o‘xshaydi va ba’zan “yovuz pleonazm” ham deb ataladi, ammo tavtologiya, pleonazmadan farqli o‘laroq, har doim nutqqa tegishli, stilistik vosita sifatida bo‘lavermaydi.” [145]

E.B.Bogatova tavtologiyaning uch jihatdan ko‘rib chiqadi va quyidagicha ekanligini ta’kidlaydi:

1) kutilmagan tavtologiya;
2) funktsional tavtologiya;
3) tabiiy tavtologiya.

Kutilmagan tavtologiya muallifning qobiliyatsizligi bilan qo‘zg‘atilishi kerak, funksional tavtologiya maxsus topshiriq bilan boshlanadi va tabiiy til tizimi tomonidan aniqlanadi.[146]

Zamonaviy rus tilida T.A.Kovaleva, tavtologiya turli til darajalarida namoyon bo‘lishini qayd etadi: fonetik, leksik-semantik va sintaktik.[147] Muloqotda so‘zlovchining tavtologiyadan foydalanishi (*orqaga qaytish, o‘z tarjimai holida, bepul vakansiya, pastga tushirish, ichki makon va boshqalar*) so‘zning leksik ma’nosini, adabiy tilining normalarini bilmasligini ko‘rsatadi, shuning uchun bu past nutq madaniyatining ko‘rsatkichidir. Bunday holda, tavtologiya bu nutq xatosi. Tavtologiya, S.A. Pugach ta’kidlaganidek, badiiy va hissiy jihatdan turli xil semantik va hissiy ekspressiv funksiyalarni bajaradi. Bundan tashqari, tavtologiya quyidagi vazifalarni bajarishi aytib o‘tiladi: harakatning davomiyligini yoki intensivligini anglatadi, obyektlarning katta miqdori yoki massasi, xususiyatini ta’kidlaydi yoki aniqlaydi, nomlari, sarlavhalari tufayli asarlarga, gazeta maqolalariga e’tiborni jalb qilish uchun xizmat qiladi, hissiyotni kuchaytiradi, kulgili taassurot qoldiradigan so‘zlarni yaratish vositasi, shuningdek matn qismlarini bog‘lash vositasidir.

Faylasuflar, mantiqchilar, tilshunoslar va “sodda tilshunoslar” tavtologiyada turli xil, tegishli bo‘lgan narsalarni ajratib ko‘rsatishadi. Ular ushbu hodisa belgilarini bir xil baholamaydilar. Falsafiy asarlar “tavtologiya” tushunchasidan foydalanish qonuniyatlarini kuzatish tavtologiyaning ikkita asosiy xususiyatini ajratib ko‘rsatishga imkon berdi: takrorlash va doira. Tavtologiyaning "sodda tilshunoslik" sohasidagi yetakchi belgilari: takrorlash, xato va truizm. Shunday qilib, tavtologiya juda ziddiyatli turli xil belgilar to‘plamiga ega bo‘lgan hodisa. Ushbu tahlil to‘rtta tavtologiya guruhini ajratishga imkon berdi:

1.Tavtologiya “inertiya bo‘yicha”.
2. Tavtologiya “odat bo‘yicha”.
3. Tavtologiya “bilmaslik”.

---

[143] Серебренников Б. А. Об относительной самостоятельности развития системн язнка. М.,1968. С. 82.
[144] Николюкин А.Н. Литературная энциклопедия слов и понятий. М.: Интелвак, 2003. 720 с
[145] Ярцева В.Н. Лингвистический энциклопедический словарь. М.: Советская энциклопедия, 1990. 685 с.
[146] Богатова Е.Б. Типологическое исследование репрезентаций тавтологии в разных дискурсах // Вестник Иркутского государственного лингвистического университета. 2014. № 2. С. 250–255.
[147] Ковалева Т.А. Тавтология и плеоназм в отечественном языкознании: интегральный и дифференциальный аспекты // Вестник МГОУ. Серия: Русская филология. 2016. № 2. С. 34–39.

4. Tavtologiya “niyat bo‘yicha”.[148]

O‘zbek tilshunosligi uchun tavtologiya yangi hodisa emas, lekin haligicha to‘liq o‘z yechimini topmagan muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Ma’lumotlardan ko‘rinadiki, rus tilshunosligida ortiqchalik tamoyili, xususan, tavtologiya hodisasi birmuncha kengroq qamrovda o‘rganilgan. Biroq o‘zbek tilshunosligida tavtologiya hodisasining qo‘llanish o‘rinlari, sotsial xoslanish masalalari, uslubiy qo‘llanishdagi farqli jihatlari, lingvopragmatik xususiyatlari tilshunosligimizda hozirga qadar monografik jihatdan o‘rganilmagan. Yuqorida qayd etilgan manbalar esa kelgusida o‘zbek tilshunos olimlari tomonidan mazkur hodisaning ilmiy tadqiq etilishi uchun asos bo‘ladi desak, yanglishmaymiz.

ETNOGRAFIZMLAR LEKSIK BIRLIK SIFATIDA

Mavjuda SUVONOVA,
NavDPI mustaqil tadqiqotchisi

Etnografizmlar har bir xalqning o‘zi va tili tarixida tutgan o‘rni ahamiyatga molikdir. Etnografizmlar folklor tarkibida ham o‘rganiladi. Avvalgi asrlarda ,shuningdek hozirgi kunda ham yaratilgan asarlar xalq urf-odatlaridan ajratilgan bo‘lishi mumkin emas.

Xalqshunoslik etnografiya fani barcha tillarda mavjud bo‘lib, to‘la o‘rganilib tugatilmagan soha desak xato bo‘lmaydi. Chunki ko‘plab urf-odatlar ba’zilari to‘la hozir ham o‘zini namoyon qilsa, ba’zilari boshqa an’analar tarkibiga singib ketgan. Bir joyda uchramaydigan odatlar, chekka hududlarda hali ham barhayot bo‘lishi mumkin. Shuningdek, marosimlarni o‘zi ham turli bog‘imlarga , turlarga bo‘linib ketadi.

Dastlabki etrografik ma’lumotlar ibtidoiy jamiyat tashkil topgandan so‘ng qabilalar o‘rtasida aloqalar o‘rnatila boshlagandan keyin asta-sekin to‘plangan. Ilk yozma manbalarda qadimgi Yunon va Rim mualliflari asarlarida Orol bo‘yi hamda Oks(Amudaryo),Yaksart(Sirdaryo), Movaunnahr va Baqtryada yashagan qabila va elatlar tilga olinadi.O‘rta Osiyo haqida eng qadimgi ma’lumot beruvchi manba “Avesto” kitobi hisoblanadi.Shuningdek, Farg‘ona va Xorazm haqida Xitoy elchisi Chjan Szyan ma’lumotlari, zamondosh xalq va elatlari haqida arab sayyoh va geograflari batafsilroq ma’lumot berib o‘tishgan.Xususan, Abu Sayh Balxiy 60ga yaqin asar yozgan bo‘lib, Somoniylar kutubxonasida saqlangan.Buxoroni Balxiy shunday tasvirlaydi:”Qo‘rg‘ondan tashqarisi sermanzaralikda Buxorodan chiroyliroq shaharni ko‘rmadim…osmon bilan ko‘kalamzorlar oralig‘ida ko‘ringan qasrlar osmondagi yulduzlarga o‘xshaydi, ekinzorlar tep-tekis.”

O‘rta Osiyolik mutafakkirlardan Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Farg‘oniy, Abu Sa’d Abdul Karim asarlarida o‘zbeklar va O‘rta Osiyoning boshqa xalqlari bevosita ajdodlari, ularning maishiy turmushi va madaniyatining ayrim tomonlarini tariflaydi. Amir Temur davrida yashab o‘tgan tarixchi Xofiz Abro‘ning “Zubbat at-tavorix” asarida Movaunnahrga oid bazi etnografik ma’lumotlar keltirilgan. Masalan, Buxoro haqida gapirilganda, aholining mashg‘uloti va turmushi tasvirlanadi. Muallifning yozishicha, “Buxoro mevasi hamma mevadan yaxshi va shirindir, xususan Buxoro olxo‘risi butun yer yuziga chiqariladi. U yerda qaynatilgan qiyomni asaldan farq qilib bo‘lmaydi. Tamomi dashtlarda mol bisyor, o‘tinni aksar bo‘glardan yig‘ishadi va yana Buxoroning xosiyatlaridan deydilarki, odamlaridek g‘arib do‘st kishilar hech mavzeda yo‘qdir.”

[148] Остапенко Татьяна Сергеевна. КОГНИТИВНО-СТРАТЕГИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ ТАВТОЛОГИИ АВТОРЕФЕРАТ Иркутск-2011

O‘zbek etnografiyasiga oid ilmiy ahamiyatga ega materiallar to‘planish davri aslida XIX asrdan boshlanadi. XIX asr birinchi yarmida Muravyov, Xanikov, A.F.Negri, Danilevskiy va boshqalar o‘tkazgan ishlar O‘rta Osiyo xalqlari etnografiyasini o‘rganishda muhim qadamlar edi.

1819-1821-yillar Xiva xonligiga sayohat qilgan kapitan Muravyov o‘z tassurotlarini asar qiladi.Ba’zi boblarida beklarning tabitadi, kiyim-kechaklari, dininy etiqodlari, urf-odatlari haqida etnografik ma’lumotlar keltiriladi.Aytishicha, Buxoro tomondan kelgan o‘zbeklar asosan 4 toifadan qiyot-qo‘ng‘irot, uyg‘ur-nayman, qang‘li-qipchoq, nukus-mang‘itdan iborat.

Buxoro xonligiga maxsus missiya bilan kelgan N.Xanikov Buxoro elatining xilma-xilo ekanligi, antropologik tuzilish va urug‘-qabilaviy nomlariga soslanib ko‘chmanchi o‘zbeklar va qipchoqlarning yaqinligi haqida, ilovada esa 92 o‘zbek urug‘ining ro‘yxatini keltirib, 28tasi Buxoro xonligida yashashishini aytadi.

1863-yilda darvesh libosini kiyib savo karvoni bilan Buxoro, Samarqand, Xiva va boshqa O‘rta Sharq mamlakatlariga qilgan sayohati davomida yozgan asarida juda ajoyib etnografik ma’lumotlar keltirib ,o‘zbek so‘zining kelib chiqishi haqida mulohaza ham yuritadi. Vamberi 32 o‘zbek qabilasining ro‘yxatini shakllantiradi, ularning kiyim-kechagi, taomi, urf-odatlari, diniy qarashlari haqida hikoya qiladi.

XX asr 20-yillarida o‘zbek etnogenezi, urug‘-qabilaviy tuzilishi, ijtimoiy va oilaviy turmushi va boshqa masalalarga bag‘ishlangan maqolalar paydo bo‘lgan. Ular orasida D.Polivanov, P.Potapovlarning ilmiy etnografik ma’lumotlari diqqatga sazovor.

Qadimgi sharq, ayniqsa, yuksak madaniyat yaratgan ko‘hna Osiyoda yashagan xalqlarning juda ko‘p afsona va rivoyatlari odamzotning paydo bo‘lishi haqida hikoya qiladi, ularning orasida eng ko‘p tarqalgani bunyodkor Xudo obrazlari bo‘lib, odamni yaratib, unga tirikchilik uchun turli hunarlarni o‘rgatgani ta’kidlanadi.

O‘zbek etnografiyasida ijtimoiy munosabatlar haqida to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, ijtimiy turmushida eng qadimgi udumlardan yoshiga qarab guruhlarga bo‘linish-bolalik, o‘spirinlik, balog‘at yoshi va qarilik bo‘lib, ular bilan bog‘liq urf-odatlar saqlanib qolgan. Har bir yoshdagi guruh o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan, ular kiyimi, bezaklari, sochining shakli, ijtimoiy burchi va xulq- atvori bilan biroz ajralib turgan. Masalan, Buxoro va Xorazmda yoshiga qarab guruhlarga bo‘linib kiyinish odati ilgari keng tarqalgan. Buxorolik qizlarning birinchi marta mursak kaltacha kiyish maxsus odati bo‘lgan.

Urug‘-qabilachilik an’analari ancha mustahkam saqlangan o‘zbeklarda patrialxal urug‘chilik izlari ancha sezilarli ravishda namoyon bo‘lgan bo‘lib,ozbek urug‘larida qozoqlardagi kabi ekzogam nikoh emas, aksincha o‘z urug‘doshlari orasida endogam nikoh keng tarqalgan.

Atoqli etnograf Nalivkin o‘zbek xonliklari demokratik tuzumi to‘g‘risida gapirganda asosiy mezon shariat ekanligini eslatib o‘tadi. Biroq bu davrga kelib o‘lkada diniy mutaassiblik, xurofot avj olgan edi. Sadriddin Ayniy ozining “Estaliklari”da imom va mullalar bir aravakashni dahriylikda ayblab, xudoga qarshi chiqdi deya ‘oq podsho”ning Buxorodagi siyosiy agenti ruxsati bilan mullalarning o‘zi toshbo‘ron qilib o‘ldirishganini o‘z ko‘zi bilan ko‘rganini yozib qoldirgan.

O‘zbek xalqining ma’naviy merosida xalq ijod qilgan va kata ijtimoiy ahamiyatga ega turli bayramlar, ommaviy o‘yinlar va hunarlarga bog‘liq marosimlar kata o‘rin egallagan.Jumladan, o‘zbek mavsumiy marosimlar tadqiqotchilar fikricha 4ga-bahorgi(Navro‘z, shoxmoylar,yomg‘ir chaqirish), yozgi(qovun sayli, “choy momo”), kuzgi (“oblobaraka”, shamol chaqirish) va qishki(gap-gashtak)ga bo‘linadi. Masalan, Navro‘z bayrami haqida Beruniy, Umar Hayyom qiziqarli ma’lumotlar berib o‘tgan bo‘lsa, Mahmud

Qoshg‘ariy Navro‘z ayyomini o‘n ikki muchal hisobi bilan bog‘lab turli ma’lumotlar beradi, xalq qo‘shiqlaridan misol keltiradi:”Turklar bu yillarning har qaysisida biror hikmat bor deb taxminlaydilar. Masalan, sigir yilida urush ko‘p bo‘ladi, chunki sigir bir-biri bilan suzishadigan hayvon.Timsoh yili kirsa yog‘ingarchilik va hosil ko‘p bo‘ladi, chunki u suvda yashaydigan hayvon…”

Xalqimizda Navro‘z bilan bog‘liq saqlanib kelayotgan an’analardan shu ayyomda tug‘ilgan bolaga shu nom bilan ism qo‘yishdir.Xususan, Lutfiyning ajoyib asari “Gul va Navro‘z”da Farrux shohning o‘g‘li shu kun tug‘ilgani uchun Navro‘z deb ot qo‘yilgan. Hozir ham Buxoro, Samarqand, Qashqadaryoda shu kuni tug‘ilgan o‘g‘il bolalarga, Farg‘ona vodiysida esa ko‘pincha qiz bolalarga shu ism qo‘yiladi.

Bahorda o‘tkaziladigan yomg‘ir chaqirish yoki “sust xotun” marosimi haqida gapiradigan bo‘lsak, bu marosimning Buxoro viloyatining Qorako‘l va Olot tumanlarida o‘ziga xos mahalliy xillaridan bir “chala xotin” qo‘shig‘i bilan ma’lum. Kuzgi marosimlardan bo‘lgan shamol chaqirish marosimi matriarxat davriga oid degan qarash bor. Negaki Farg‘ona vodiysi, Samarqand, Buxoro, qisman Surxandaryo va Qashqaryoda yashovchilarda ham shamol homiysi keksa ayol degan qarash mavjud. “Choy momo” marosimi(shamolni haydash) haqida esa Divayev ” Choy momo” degani notog‘ri ibora, chunki u hech qanday ma’no anglatmaydi, “chal momo” (eski turkiy tilda shamolni chal deyishgan degan qarash bor) esa asli qari ,oqsoch kampir ma’nosida deb ta’rif beradi.

Kuzgi marosimlardan bo‘lgan “Oblo Baraka” marosimi esa islom dini ta’sirida paydo bo‘lgan bo‘lib oxirgi tutam bug‘doyni o‘rimi bilan bog‘liq hisoblanadi.

Ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim an’anaviy tartiblardan biri ustozning shogirdiga fotiha berish marosimidir. Bu odat hozirgacha saqlanib qolgan bo‘lib, xususan, Buxoroda “qo‘l berish” udumi deb nomlanadi.

O‘zbek etnogenezida azaldan urug‘chilik an’analari yaqqol sezilib turgan bo‘lib, ko‘p javhalarda patrialxal tuzum belgilari namoyon bo‘ladi. Xususan, oila boshqarish, mahallachilik, nikohda. Feodal munosabatlarda va islom kirib kelish davrida ham bu narsa yanada mustahkamlangan. Ba’zi o‘rinlarda esa erkaklar manfaati anchayin ko‘tarilib, ayollar huquqi uncha e’tiborga olinmagan.

O‘zbek xalqi milliy madaniyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, uzoq tarixiy davrni qamrab oladi.Sharq mamlakatlari ichidagi eng qadimgi yozuv namunalarini o‘lkamizda yashagan ajdodlarimiz yaratganini ta’kidlab o‘tmasa bo‘lmas. Xorazmning Qo‘yqirilgan qal’a xarobalaridan sopol idishlarga o‘yib yozilgan milloddan avvalgi IV-I asrga oid oromiy yozuvlarini misol qilish joiz.

Jumladan, Y.Bobojonov hudud shevalaridagi etnografizmlarni quyidagicha tasnifini keltirib o‘tadi:

1) inson tug‘ilishi va uning chilla davri bilan bog‘liq etnografizmlar;

2) to‘y (sunnat to‘yi va nikoh to‘ylari) etnografizmlari: to‘yga qadar, to‘y paytida, to‘ydan so‘ngi marosimlarga oid etnografizmlar;

3) motam-marosimni ifodalovchi etnografizmlar.[1, 7]

Etnografizmlar hudud jihatidan, etnos- urug‘-qabilalar turfa xilligi jihatidan, mavsum jihatidan ham ko‘plab turlarga bo‘linadi.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, o‘zbek mavsumiy marosimlarni quyidagi turkimlarga tasnif etish mumkin:

1)qishda o‘tkiziladigan gap-gashtak, yasa-yusun kabilar;

2) bahorgi marosimlar — Navro‘z, shoxmoylar[qo‘sh chiqarish], lola yoki qizil gul sayli, loy tutish, “sust xotin” kabilar;

3)yozgi marosimlardan “qovun sayli”, “choy momo” va hozakolar;

4) kuzgi marosimlar — hosil yig‘imi bilan bog‘liq mixrgan, “oblobaraka”, shamol chaqirish, uzun sayli kabilar.[2, 192]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobojonov.Y. Janubiy Xorazm etnogtafik leksikasi. Fil.fanlar nomzodi diss. Avtorefarat. Toshkent. 1997.
2. Iso Jabborov. O‘zbek xalq etnografiyasi. Toshkent. O‘qituvchi. 1994.

THE IMPORTANCE OF UZBEK LANGUAGE IN TEACHING ENGLISH

Malika KAZAKOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti, Ingliz tili amaliy kursi kafedrasi

Abstract. This paper demonstrates the role of native (Uzbek) language interference in teaching foreign (English language) in globalization period. It compares some common mistakes from semantic and lexical point of view selected from the author’s observation, experience. Furthermore, some practical ways to alleviate future native language teachers’ job in teaching and correcting students’ pronunciation and speech mistakes.

Key words: interference, interlingual, global language, native language, foreign language, grammar, vocabulary.

Introduction

Globalization is the widespread term, which symbolizes a global reality that means living in a new information technology environment. Globalization creates connections among people all over the world. Nowadays, more than three-quarters of the world’s population is frequently influenced by this global change, in economic, environmental, political and social spheres (Catherine Ch. and Richard B., 2017).

The resolution made by the Cabinet of Ministry of Republic of Uzbekistan in August 11, 2017 numbered 610 --- On the measures to the further development in the quality of teaching foreign languages in educational places contributed to the improvement of the teachers and methodologists’ work in the process of teaching foreign language. Measures taken not always brought positive results as there are students’ with various experience with the presence and absence of second language knowledge. The reason for some unexpected results were connected with the interlanguage interference.

Methods and suggestions

The influence of the native language on the foreign language learning has always been clearly noticeable. This negative effect happens because of oblivious spontaneous language habit transference. Therefore, occurs peculiarity of foreign language under the interference language effect that can be noticed in almost every language system. However, it is crucial to point out that grammar interference could cause the great number of mistakes. The reason is the interaction systems with complex categories, unequal grammar features under the language contact conditions and the structure of languages.

According to E.A.Vertogradskaya, “each unit of a foreign language seems to fall into the ready signified “cell” and is placed comfortably in it due to the fundamental corporation of signified sign systems of various languages of the world” [7: 122]. Language learners are not recommended to learn through the mechanical assimilation of fixed grammar rules, but they should acquire the language through the correction of the existing language competence. It is vital to mention that, in the initial stage of learning language students make individual mistakes with the usage of words and phrases in vocabulary or in speaking

when they face with semantically close mismatching structures in words. In foreign language teaching methodology it's clear that the teachers should never stop students' while speaking to correct their mistakes, as it can lead to disappointment and demotivation of student in learning a language (Tojiyeva G. 2020). This concept relates only to the speaking, when it comes to written speech teacher cannot ignore even minor mistakes. When developing exercises targeted to the prevention of the interference teacher should identify discrepancies and function the same linguistic phenomena in the native and targeted languages that demonstrate the recognition of different aspects of two languages. Another useful exercise can be correct or improve sentences tasks or vocabulary correction

Common mistakes

In every language, there are unique characteristics of the grammar system and the linguistic structure. All of them are formed in human's mind at an early age. Hence, the semantics of the language, word order, time sequence and different meanings of verb forms cause the inadequacy of foreign language norms. Such mistakes in their speech are considered to be the consequence of typological differences grammar-lexical structure of both native and second language (Abdullayeva M.A., 2015).

Having analyzed other methodologists' experiences, some types of common mistakes to be presented. They are vocabulary difficulties based on the meaning and forms used in speech, such as, different meanings of synonyms, differences in grammar and vocabulary word combinations. Problems using prepositions, as there is no prepositions in Uzbek Language, and it's hard to connect with students' native language. Using double negatives, omitting the verb 'to be', misusing syntactical agreement, singular/plural forms are other problematic sides of acquiring the foreign language (Periligin A., 2012). The last, but not least Gerund demonstrates many difficulties for students, as in Uzbek there is no such phenomenon in grammar. Some English sentences are hard for students to comprehend, such as "It's snowing; it's raining". Because, in English 'snow' is used as subject and they usually say it: The snow is falling.

Conclusion

If students are often introduced with many typical word combinations, they will get familiarized with new grammar phenomenon meaning and the usage in different contexts. Future EFL teachers (English as a foreign language) should be not only fluent, but also should deeply aware of structure and aspects of English language in comparison with the native language in order to avoid different types language interferences.

REFERENCES

Abdullayeva M.A. About typology of mistakes in the English speech of linguistic faculty students. Vestnik Chuvashskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo unversiteta imeni I.Ya.Yakovleva. № 4. 2015. P.90-99.

Peryligin A.I. Ways of neutralization of grammar interference. Sposoby neytralizasii grammaticheskoy interferensii. Ucheniye zapiski orlovskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya: Gumanitarniye I socialniye nauki. № 5. 2012. P.237-240.

Tojiyeva G. Native Language Interference In Teaching English Uzbek Students. 2020.

Vertogradskaya E.A. Disclosure of the semantics of foreign language grammatical forms. Rakrytiye semantiki inoyazychnyh grammaticheskih form// Psihologicheskie i psiholingvisticheskiye problem vladeniya I ovladeniya yazykom. M., 1999, P.118-125: 122.

MATN MAZMUNINING KOGNITIV ASOSLARI

Gulrux BEKBOYEVA,
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti tadqiqotchisi

Matnning mavqeini aniqlashda Ferdenand de Sossyur tomonidan shakllantirilgan «til va nutq» dixotomiyasiga tayanayotgan tilshunoslarning bir guruhi ushbu dixotomiyani yangicha, ya'ni *sistema – matn* qarama-qarshiligida talqin qilishga harakat qilishsa, boshqalari matn va gap hodisalari o'rtasidagi muvozanat, o'xshashlikni izlaydilar. Natijada ular tahliliga yondoshlik (parallellik) va izomorflik (bir xil xossalarga ega bo'lish) nuqtai nazaridan qarash hamda ularni yagona bir umumiy sath doirasida tavsiflash holatlari yuzaga keladi. Bunga misol sifatida gap va matnni bir pog'onadagi birliklar (ba'zilar «til birligi» yoki «semiotik belgi» deyishsa, boshqalari ikkalasini ham nutq sathiga joylashtiradilar) deb isbotlash borasidagi urinishlarni keltirishimiz mumkin. Agarda biz nutqni til sistemasi yordamida yoki aynan shu sistemaning o'zi tomonidan yaratiladigan mahsulot deb qaraydigan bo'lsak, unda beixtiyor uning (nutqning) matnlar yig'indisi (to'plami)dan iborat ekanligini e'tirof etgan bo'lamiz. Ammo til tizimiga «nutq voqelanishi uchun moddiy material», «xomashyo» bilan ta'minlovchi zahira nisbatlarining berilishi [Xayrullayev] til va nutq bog'liqligini nihoyatda oddiy munosabatlar sifatida, soddalashtirilgan holda tasavvur qilishga olib keladi. Nutqning matn bilan tenglashtirilishi esa matn hodisasiga xos bo'lgan asosiy xususiyatlardan ba'zilarining inkor etilishiga sabab bo'ladi. Jumladan, matnning mazmunan yaxlitlik va shaklan chegaraga egalik xususiyati uning alohida kategoriya sifatida boshqa tuzilmalardan farqlanishini ta'minlashi haqida turli fikrlar mavjud. Kategorial belgilar tavsifisiz biror birlikning (uning til yoki nutq tizimiga oid bo'lishidan qat'iy nazar) tub mohiyatini yoritish yo'lidagi har qanday harakat kutilgan natijani bermaydi. Shunday ekan, matn mohiyatini belgilashda uning murakkab lisoniy yaxlitlik ekanligini va «lisoniy voqelik»ning muhim qismi bo'lishini unutmaslik lozim. Til va nutq hodisalarining semantik va kommunikativ-pragmatik mohiyati haqida ko'plab tadqiqotlar olib borgan I.P.Susov matnning lisoniy voqelikda tutgan o'rnini quyidagicha belgilagan edi: «obyektiv borliq – ijtimoiy hayot – kommunikatsiya – matnlar – lisoniy vositalar tizimi». Demak, matn ushbu qatorda kommunikatsiya va til tizimi o'rtasidagi oraliq o'rinni egallaydi. Ta'kidlash o'rinliki, u bir paytning o'zida lisoniy voqelikning turli sathlariga oid xususiyatlarni mujassamlashtiruvchi hodisa. I.P.Susov ushbu maqolasida matn til birliklari tanlovi asosida hosil bo'ladigan nutqiy faoliyat sifatida qaralganda, uning semantik tahlili mazmunning voqelikdagi predmet, hodisalarning xususiyatlari, munosabatlarini aks ettiruvchi denotativ-referent asosini izlash bilan band bo'lishini ta'kidlaydi. Bunday holatda matn mazmunining kommunikativ-pragmatik xarakterga ega bo'lgan modal, temporal, emotiv qatlamlari e'tibordan chetda qoladi. Bu esa yuqorida tasvirlangan zanjirli qatordagi «ijtimoiy hayot» va «kommunikatsiya» halqalarining inobatga olinmayotganligidan dalolatdir. Matnning qo'llanishi ma'lum ijtimoiy muhit bilan bog'liq ekanligi faqat ushbu hodisaga kommunikativ-pragmatik yondashuv sharoitidagina inobatga olinadi. Bu holda matn «predmet (tayyor mahsulot-S.B.) ko'rinishida emas, balki so'zlovchi, tinglovchi harakati va ijtimoiy-kommunikativ muhit doirasidagi jarayon sifatida talqin qilinadi». Uning fikricha, so'zlovchi (S), tinglovchi (T), referent, ya'ni voqelik parchasi (R) va matn (M) munosabatlari yagona bir dinamik tizim – «kommunikativ-ijtimoiy maydon»ni tashkil qiladi.

Matn kommunikativ mazmunining shakllanishi murakkab jarayon bo'lib, u xuddi shu maydon doirasida kechadigan alohida munosabatlarning birikuvini taqozo etadi. Masalan, M – R (matn-referent) munosabati axborot mazmunining negizini tashkil qiladi, M – S

(matn-so‘zlovchi yoki muallif) munosabati esa bir tomondan, matnning so‘zlovchi (muallif)ning muloqot faoliyati natijasida yuzaga kelgan hosila ekanligiga ishora qilsa, ikkinchi tomondan, muallifning bayon qilinayotgan voqea haqida o‘z sub’ektiv fikrini bildirayotgan, uni baholash, ma’qullash kabi maqsadlarni amalga oshirishga qodir bo‘lgan faol shaxs ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, M – T (matn-tinglovchi yoki o‘quvchi) munosabati axborot uzatish yo‘li bilan tinglovchiga ta’sir o‘tkazish imkoniyatini hosil qiladi. Keyingi bosqichlarda ushbu munosabatlarning yanada murakkablashib borishi kuzatiladi va shu murakkablashuv jarayoni kommunikativ mazmunning ko‘p qirraliligini ta’minlaydi. Lekin izohlanayotgan munosabatlar qanchalik ko‘p bosqichli, murakkab bog‘liqliklar ko‘rinishiga ega bo‘lmasin, ularning negizida muallifning muloqotdan ko‘zlangan ma’lum maqsadi, ya’ni intensiyasi yotadi. Zero, I.P.Susov ta’kidlaganidek, «muallif intensiyasi tushunchasi matn va umuman, kommunikativ harakatning inson faoliyati, insonlarning borliq bilan o‘zaro munosabatlari maydonidan o‘rin olishini belgilaydi».

Matnning kognitiv tahlil obyekti sifatida e’tirof etilishi uning tabiati haqidagi tasavvurlarning ham ma’lum darajada o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Natijada I.P.Susovning matn tabiatan ikki jihatga ega («tekst dvulik po svoyey prirode», degan tavsifi bugungi kunda tadqiqotchilarni qoniqtirmay qo‘ydi. Matnning ko‘p jihatli va ko‘p qirrali hodisa ekanligi tinimsiz ta’kidlanayotgan bir paytda, biz matnning lisoniy voqelikda tutgan o‘rnini tasvirlovchi zanjirga yana bir halqani qo‘shishni ma’qul ko‘rgan bo‘lar edik va bu xalqa voqelik haqidagi tasavvurning konseptuallashuvidir. Kognitiv tilshunoslikka xos tadqiq uslublarining matn tahliliga tatbiq qilinishi, birinchi navbatda, matnning kommunikativ tizim va umuman, insonning borliq haqidagi bilimining asosiy unsuri sifatida e’tirof etilishi bilan bog‘liq. Bunday e’tirof esa, o‘z navbatida, tadqiqotchilar e’tiborining matnning ichki tuzilishi, strukturaviy xususiyatlaridan uning yaratilishi va mazmunan idrok etilishi jarayoniga ko‘chishiga sabab bo‘ladi.

Xullas, muloqot maqsadining kommunikativ faoliyat maydonida tutgan o‘rni muhim, intensiya muallif oldiga lisoniy birliklarni muloqot vaziyatiga mos ravishda tanlash vazifasini qo‘yadi va shu tanlov «kommunikatsiya jarayonining, lisoniy munosabatlarning effektiv, ya’ni samarali bo‘lishini oldindan belgilaydi».

EPITET VA BADIIY MATN

Ra’no MARDONOVA,
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi

Maqolada sifatlashning badiiy sifatlash turi to‘g‘risidagi qarashlar tahlilga tortilib, xulosa qilishda muallif badiiy sifatlash – epitetlarning badiiy matndagi vazifalaridan kelib chiqadi. Shuningdek, epitetlar tasnifiga qisman to‘xtalib, ular borasidagi to‘xtamlarini izchil bayon etishga harakat qiladi. Inversiya, nazmiy matnni nasriy – oddiy bayon turiga aylantirish orqali so‘z birikmasi va predikativ maqomli sintaktik qoliplarni aniqlash to‘g‘risida tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: *sifatlash, epitet, fanda epitetlar tasnifi, epitetning nutqiy xususiyatlari.*

Epitet badiiy matndagi eng keng tarqalgan stilistik vositalaridan biri bo‘lib, uning o‘ziga xosligi mualliflarga nafaqat o‘quvchiga tanish bo‘lgan klishelardan foydalanishga, balki ham ma’no, ham shaklda yangi, hissiy va baholovchi xususiyatni ifodalovchi obrazli vositalarni yaratish imkonini beradi.

Mazkur birliklar bitta muallifga taalluqli qator asarlarning maqbul tarjimasini tashkil etishning turli usullarini tizimlashtirish imkonini yaratadi.

Hozirgi vaqtda adabiyot nazariyasida epitet qaysi toifaga tegishli boʻlishi kerakligi haqida qat'iy fikr yoʻq. Ba'zi tadqiqotchilar buni trop deb atashsa, boshqalari leksik-sintaktik ekspressiv vositalar qatoriga kiritadi va buni epitet bajaradigan funktsiya bilan izohlaydi.

Epitetning asosiy maqsadi tasvirlangan hodisaning xususiyatini ta'kidlash, ammo, sifat bilan ifodalangan ta'rifdan farqli oʻlaroq, epitet har doim hissiy mazmunga ega.

Lingvistik tadqiqotlar epitetlarning turli tasniflariga asoslanadi. L.S.Barxudarov, K.V.Golubina, T.M.Guseva, A.V.Pavshuk, N.S.Manieva, I.R.Galperin singari olimlar epitet va uning lisoniy-stilistik jihatlariga doir tadqiqotlarni amalga oshirganlar.

L.A.Tursunova ingliz tilidagi epitetlarning struktur tiplari va uslubiy vazifalari haqida gapirib, epitetni lingvistik jihatdan atroflicha oʻrganish uning uslubiy xoslanishini bir vaqtning oʻzida falsafa, estetika, axborot nazariyasi (XX asr 50-yillarda rivoj topgan soha) singari fanlar kesimida tekshirishni taqozo etishini ta'kidlaydi[1].

Fanda epitetlarning quyidagi turlari ajratiladi:

1. Oddiy epitetlar (simple epithets: *romantic buccaneer, inky water*).
2. Murakkab epitetlar (compound epithets: *brilliant sun-flashing ripples*).
3. Ikki pogʻonali epitetlar (two-step epithets: *a tired old town*).
4. Iboraviy epitetlar (phrase epithets: *Despite the dress and crushed-strawberry mouth, she was one of the shyest and most sweet-natured of the girls*).
5. Inversiyali epitetlar (reversed epithets[2]: *your rotten sack-bag of a body*).

Bu muammo bir necha asrlar davomida tilshunoslik va adabiy jamoalar vakillari, shu jumladan, klassik yozuvchilar va izlanuvchilar e'tiborni tortib kelmoqda.

Epitet estetik voqelikni, ya'ni muallif idroki voqeligini yaratishning asosiy usullaridan biri boʻlib, u oʻquvchi e'tiborini olamning estetik, hissiy-ekspressiv manzarasiga jalb qilishga intiladi. Zero, kommunikativ-estetik vazifani bajaruvchi har qanday xususiyatli soʻz gapning markazi, epitet sifatida tasniflanishi mumkin.

"Epitet – bu narsa, shaxs, hodisa, jarayonning badiiy ta'rifi boʻlib, vaziyat, nuqtai nazardan muhim narsani ajratib koʻrsatish, ta'kidlash, mustahkamlash, muallifning nuqtai nazari, ob'ektlarning butun sinfi uchun odatiy va ajralmas, ob'ektning individual xususiyatini anglatuvchi soʻz boʻlishi mumkin. Epitet nutqqa goʻzallik berib, yashirin ma'no va baholashni oʻz ichiga oladi; asarning hissiy manzarasini yaratish, taassurotni kuchaytirish, qabul qiluvchining intellektual, hissiy va estetik idrokiga ishora qilish vazifasini bajaradi.

Badiiy asarda epitet turli vazifalarni bajarishga xoslanadi:

- obyektni majoziy yoʻlda tavsiflash (*oltin qoʻllar, oltin quyosh, oltin kuz, oltin dala*);
- muhit, kolorit, kayfiyat yaratish (*baxtli nigoh; yashnagan chehra*);
- muallifning tasvir mavzusiga munosabatini bildirish (*osmonga sapchimoq, goʻladek kekkaymoq*);
- she'riy matnda aniqlangan soʻz bilan birga esda saqlashni osonlashtiradigan turgʻun ibora hosil qiladi (*qirgʻiyburun, ochiqqoʻngil*).

Epitetlarning uslubiy xossalarini aniqlash, ularni aynan epitet deb belgilashning muammolari ularning nutqda qaysi sintaktik konstruksiya orqali berilayotganiga ham bogʻliq boʻladi. Masalan,

Bir qadamim — umid, bittasi — armon,
Bir yonim makondir, bir yonim — zamon,
Bir yoʻlim zamindir, bir yoʻlim — osmon,

Osmonning ichida oyday sarsonman. (she’rdan)

Garchi misollarda predmet, narsa, voqea-hodisalarni sifatlash ularga tegishli sifatiy belgining ajratilishi evaziga sodir bo‘layotgan bo‘lsa-da, mazkur holatni epitetga doir dalil deb bo‘lmaydi. Negaki 1) mazkur misolni tashkil etayotgan qismlar predikat maqomidagi qurilmalar bo‘lib, epitet mansub bo‘lgan nominative vazifani bajarayotgani yo‘q. 2) Ushbu sintaktik konstruksiyalar transformatsiya qilinsa, tire orqali ajratilayotgan sifatiy belgilar bilan ular tegishli bo‘lgan predmet o‘rtasidagi leksik-grammatik muvofiqlik yo‘qaladi. Jumladan, *Bir qadamim — umid, bittasi — armon* jumlasini hech qanaqasiga to‘g‘ri bayonga o‘girib, mavjud jumlani *umidli qadam, armonli qadam* tarzida berib bo‘lmaydi, chunki semantic jihatdan *Bir qadamim — umid, bittasi — armon* jumlasida bunday ma’no ishtirok etayotgani yo‘q. Aksincha, tegishli jumlada *insonning biror harakatni bajarishda ikkilanishiga o‘xshash* ma’no ifodalanmoqda. Huddi shunday, *Bir yonim makondir, bir yonim — zamon, Bir yo‘lim zamindir, bir yo‘lim — osmon* misralarini ham erkin bayonga o‘girilganida ham, epitetga mos ifoda shakllanmaydi. Solishtiramiz: *Bir yonim makondir – makonli yon (yonli makon)?; bir yonim — zamon (zamonli yon?, yonli zamon)* va b.

Ko‘rinadiki, badiiy matndagi tegishli obrazli ifodalarning barchasi ham epitet bo‘lavermaydi va mazkur ifodalarni lingvistik tahlil qilish avvalida ularning qaysi LSQ asosida berilayotgani, tegishli ifodaning nutqda qaysi vazifani bajarib kelayotganini tekshirish lozim bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. Турсунова Л.А. Структурные типы и стилистические функции эпитета в языке английской художественной литературы XX в. Дисс. кандидата филологических наук. - Москва, 1973.
2. Galperin I. R.. Цит.соч. – С. 156.
3. Гималетдинова Г.К., Перминова М.А.Трудности художественного перевода английских эпитетов (на примере романа Н. Хорнби «Как стать добрым») / Ученые записки казанского университета. Серия гуманитарные науки. 2016, Т. 158, кн. 5 ISSN 1815-6126 (Print). – С. 1392–1403.
4. https://kpfu.ru/portal/docs/F2094929751/158_5_gum_17.pdf

АЛИШЕР НАВОИЙНИНГ “САДДИ ИСКАНДАРИЙ” ДОСТОНИДА ҚЎЛЛАНГАН БОТАНИК ТЕРМИНЛАР ТАҲЛИЛИ

Мавлонов Ахмаджон ХОШИМОВИЧ,
Ўқитувчи, Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети

Алишер Навоий ўзбек тили тараққиётига мислсиз ҳисса қўшган буюк шоирдир. Маълумотларга кўра, бобомиз ўз ижодида 26035 та сўздан фойдаланган[149] ва у сўз қўллаш бўйича дунёда энг олдинги ўринда туради (Қиёслаш учун: иккинчи ўринда турадиган А.С.Пушкин 21193 та, Шекспир эса 20000 дан ортиқ сўздан фойдаланган).

Алишер Навоий аарларида турли фан ва касбга оид кўплаб терминлардан ҳам фойдаланган. Масалан, тил, адабиёт, география, биология, денгизчилик, овчилик, деҳқончилик ва ҳ.

Биз ушбу мақоламизда Алишер Навоийнинг энг буюк асарларидан бири бўлган “Садди Искандарий” достонида қўлланилган ботаник терминларни таҳлил қилдик.

Достонда ботаника фанига оид 30 дан ортиқ термин учрайди. Масалан, анбар, сандал, обнус, барг, шажар, чинор, шох, зайтун, нахл, ток, узум, най, гул, гулшан,

[149] Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. –Т.: Фан, 1983.- 157 б.

гулзор, сабза, ошён, ҳамишабаҳор, ғунча, настаран, арғувон, буғдой, арпа, пайванд ўлмоқ, бўстон, боғ, чаман, испанд, ҳанзал, найшакар, қаранфул ва б.

Не соатки, юзланса ком-у мурод,

Сочиб ўтқа испанд, ўқинг “ин якод” (Садди Искандарий, 466).

Бу айтда қўлланилган испанд истилоҳи ҳозир кунда ботаника фанида исириқ, шеваларда эса адрасман деб юритилади.

Бизда сандал деганда танча тушунилади. Аслида сандал ботаника фанига оид термин бўлиб, у дарахт ва шу дарахтдан олинувчи ёғочни ифодалайди. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғатида сандал сўзига шундай изоҳ берилган: “хушбўй дарахт ёғочи, (ҳар хил ўйинчоқ ва зийнатлар ясашда ишлатилади, оловда куйдирилса, хушбўй ҳид беради)”[150].

Муқорин келиб сандал-у обнус,

Шабаҳ бирла, ул навъким, сандарус (Садди Искандарий, 307).

Халқ тилида сандал маъно кўчиш ҳодисасига учраган. Танча сандал дарахти ёғочидан ясалгани сабабли халқ уни сандал деб кетишган, яъни метонимия асосида сўз маъноси кўчган. Демак, сандал XV аср ботаникасига тегишли термин.

Юқоридаги байтда қўлланилган обнус сўзи ҳам Навоий даврига оид ботаник терминдир. Луғатда унга “қора тусли қаттиқ ва хушбўй дарахт; эбен” дея таъриф берилган[151].

Шунингдек, ушбу байтда ботаникага яна бир термин мавжуд. Бу – сандарус. Сандарус сариқ тусли дарахт, сариқ дарахт елими маъносини англатади[152].

PhD М.Усманова Навоий асарларида қўлланган фитонимларни генеологик таҳлил қилганда қуйидаги натижага келганини айтади: “Алишер Навоий асарларида қўлланган ўсимлик номларининг қайси тилга мансублиги (яъни генеологик) жиҳатдан қуйидаги натижаларни берди: умумтуркийй ва ўзбекча сўзлар – 34 та, арабча сўзлар – 53 та, форсча сўзлар – 204 та. Бундан ташқари, арабча-форсча ва форсча-туркийча аралаш таркибли 14та сўз мавжудлиги қайд қилинди”[153].

Юқоридаги таҳлилдан маълум бўладики, фитонимларнинг катта қисми форс тилидан ўзлашган экан. Иккинчи ўринда араб тилидан ўзлашган сўзлар, кейинги ўринда эса ўз қатлқмга оид сўзлар турар экан.

Бизнинг таҳлилимиз ҳам шу натижани берди. Ботаника фанига доир 30 та терминнинг 4 таси (жами терминларнинг 13 % и) турк тилига (арпа, буғдой, пайванд ўлмоқ, узум), 19 таси (жами терминларнинг 63 % и) форс тилига (арғувон, барг, боғ, бўстон, гул, гулзор, гулшан, ғунча, испанд, най, найшакар, настаран, пайванд, сабза, ток, ҳамишабаҳор, чаман, чинор, шох), 6 таси (жами терминларнинг 20 % и) араб тилига (зайтун, нахл, обнус, сандал, ҳанзал, шажар) хос экани маълум бўлди.

Қаранфул термини ҳам ўзлашган қатламга мансуб лексема ҳисобланади. Бу терминнинг қайси тилдан ўзлашгани борасида икки хил маълумотга дуч келдик. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида бу сўз умуман берилмаган. Бир қарашда уни қалампир сўзининг тарихий шакли дейиш мумкин. Луғатларда қаранфулга шундай изоҳ берилган:

Қаранфул а. Қалампирмунчоқ (майда мих шаклидаги бир хил хушбўй доривор; рус. гвоздика)[154].

---

[150] Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. III жилд. – Т., 1984. – Б. 39.

[151] Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. II жилд. – Т., 1984. – Б. 497.

[152] Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. III жилд. – Т., 1984. – Б. 39.

[153] Усманова М. Алишер янавоий асарларидаги фитонимларнинг лексик-семантик ва стилистик тадқиқи. Фил.фан. бўйича фал. док. (PhD) дис.автореферати. – Жиззах,2022. – Б. 16.

[154] Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1972. – Б. 730.

Демак, бу луғатда қаранфул арабча сўз эканлиги айтилмоқда. Фарҳанги забони тожик луғатида эса қаранфул ҳинд тилидан олингани, ҳиндчага эса юнон тилидан кириб келгани айтилган.

Бу терминлар ичида найшакар анча таҳлилталаб. У икки қисмдан иборат: най ва шакар. Композиция усули билан янги сўз ясалган. Най ҳам, шакар ҳам ўзбек тилига форс тилидан кириб келган.

Най форс тилининг ўз қатламига оид сўз. Шакар лексемаси эса форс тили учун ўзлашган қатлам ҳисобланади. У форсчага ҳинд тилидан кириб келган. Бу сўзга луғатда қуйидагича изоҳ берилган:

Шакар [ф.< қад. ҳинд. sakkhara – шағал, қум; қанд уни] 1 Лавлаги ёки шакарқамиш ўсимлигидан саноат йўли билан олинадиган оқ-сарғиш рангли қумсимон ширинлик. *Шакар сепилган қатлама. Ширин сўз шакардан ширин.* Мақол[155].

Араб тилидан ўзлашган терминлар ичида обнус ва сандал ҳам алоҳида таҳлилни талаб қилади. Улар турк тилига араб тилидан кирган бўлса-да араб тилининг ўз қатламига оид эмас. Сандал араб тилига ҳинд тилидан, обнус эса юнон тилидан ўзлашган.

Луғатда сандал лексемасига қуйидагича изоҳ берилган:

САНДАЛ II [юн. Sandalon < а. + ф. < санск.] бот. Ниҳоятда хушбўй, эфир мойига бой, доимий яшил кўп йиллик дарахт (бўёқ ва хушбўй эфир мойлари олишда фойдаланилади)[156].

ОБНУС [а. < юн. ebenos – қора дарахт] Тропик мамлакатларда ўсадиган, ёғочи қаттиқ ва қорамтир ёки қора дарахт[157].

Хулоса ўрнида қуйидагиларни айтишимиз мумкин:

1. Алишер Навоийнинг “Садди Искандарий” достонида ботаникага оид арғувон, арпа, барг, боғ, буғдой, бўстон, гул, гулзор, гулшан, ғунча, зайтун, испанд, қаранфул, най, найшакар, настаран, нахл, обнус, пайванд, пайванд ўлмоқ, сабза, сандал, ток, узум, ҳамишабаҳор, ҳанзал, чаман, чинор, шажар, шох каби 30 дан зиёд терминлар қўлланилган.

2. “Садди Искандарий” достонида қўлланилган ботаника фанига доир 30 та терминнинг бор-йўғи 4 таси ўз қатлам (туркийча) га тегишли. Булар: арпа, буғдой, пайванд ўлмоқ, узум кабилар.

3. “Садди Искандарий” достонида қўлланилган арғувон, барг, боғ, бўстон, гул, гулзор, гулшан, ғунча, испанд, най, найшакар, настаран, пайванд, сабза, ток, ҳамишабаҳор, чаман, чинор, шох каби ботник терминлар ўзлашган қатлам (форс тили) га тегишли.

4. “Садди Искандарий” достонида қўлланилган зайтун, нахл, обнус, сандал, ҳанзал, шажар каби терминлар ўзлашган қатлам (араб тили) га тегишли.

АДАБИЁТЛАР

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I-IV жилд. – Тошкент, 1984.
2. Навоий асарлари луғати. – Тошкент, 1972.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III – IV жилдлар. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007 – 2008.
4. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. –Т.: Фан, 1983.- 157 б.

[155] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 536.
[156] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б. 438.
[157] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б. 74.

5. Усманова М. Алишер Навоий асарларидаги фитонимларнинг лексик-семантик ва стилистик тадқиқи. Фил.фан. бўйича фал. док. (PhD) дис.автореферати. – Жиззах,2022. – 28 б.

AYRIM TARIXIY ASARLARDA “OTA” KONSEPTINING KOGNITIV TALQINI (“Devonu lug‘otit turk” va “Qutadg‘u bilig” asarlari matni asosida)

Ozoda ANORQULOVA,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Adabiyotning badiiy ko‘rinishi insonga bir vaqtning o‘zida ham shavq, ham huzurni, qolaversa, qayg‘uli hissiyotlarni hadya etishi mumkin. Sababi, kishi badiiy asarning har qanday ko‘rinishidan estetik zavq oladi, u bilan yashaydi, uni yuragi bilan his etadi. Asarda tasvirlanadigan jarayonlar, voqealar rivoji yozuvchining qalb qo‘ridan chiqadi, har bir muammoga beriladigan yechimlar inson uchun xulosa chiqarish, saboq olish uchun yordam beradi. “Poeziya badiiy adabiyotning alohida turi sifatida voqelikni bayon etishda o‘ziga xos yo‘ldan borsa-da, tildan foydalanishda, eng avvalo, uni iste’mol qilishda umumiy qonuniyatlarga – hozirgi zamon adabiy tili normasiga asosan itoat qiladi. Poeziyada tilning stilistik va emotsional imkoniyatlari ham ana shu norma doirasida reallashadi.”[158]

Ota tushunchasining konsept sifatida shakllanishi, avvalo, xalq mentaliteti, ijtimoiy hayotda otaning yetakchilik maqomida bo‘lganligi bilan bog‘liq. Bu masala bugungi kungacha yetib kelgan barcha yozma manbalarda, shuningdek, Mahmud Koshg‘ariy, Nosiruddin Rabg‘uziy, Yusuf xos Hojib, Alisher Navoiy, Lutfiy, Bobur kabi ko‘plab ajdodlarimiz asarlarida qayd etilgan.

M. Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari adabiyotshunoslikda ilk yozilgan mualliflik ishi, ilk lug‘at sifatida bir qancha sohalar yuzasidan tadqiq qilinadigan manba sanaladi. Mazkur asarda “Ota” qarindoshlik terminiga aloqador tushunchalarni ifodalovchi jumlalar uchraydi:



اَلْغِيلْ اُكُتْ مَنْدِينْ اُغولْ اَرْدَمْ تِيلا
بُويدا اُولُغْ بِلكا بُلُبْ بِلكِينكْ اُولا

Алғіл ӧгӯт мӭндін, оғул ӭрдӓм тілӓ,
Бојда улуғ білгӓ болуб, білгің ула. (DLT, 1-tom, 85 bet).

Ma’nosi: *O‘gil Mandan o‘git ol, fazilat tila, El-yurt orasida ulug‘ olim bo‘l, ilmingni tarqat.*

Yana bir jumlaga baytga qarataylik:



تَكُرْ مَنِكْ ساڤِمْنِي بِلْكالِكا اَىْ
تِنُرْ قَلِي اَتَسا قِسْرَقْ سَنِي تاىْ

Тӭгӯр мӭніц саwїмнї білгӓлігӓ ај,
Тїнур қалї ататса қїсрақ сӭні[111] тај. (DLT, 1-tom, 244-bet).

Ma’nosi: *Mening so‘zimni aqllilarga yetkaz, agar toy bolasi ot bo‘lsa, otlar qatoriga kirsa, baytal tinadi.*

[158] Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби.- Самарқанд: Зарафшон, 1992. б.23.

Keltirilgan misoldan ma’lum bo‘ladiki, “ota” konseptiga xos xususiyatlar badiiy matn qonun-qoidalariga amal qilgan holda namoyon bo‘ladi. *“*Yo‘l-yo‘lakay ko‘rib o‘tilganiday, badiiy nutqda obrazlilik birinchi planda bo‘lganligi uchun so‘z ma’nosidagi siljishlar, ko‘chishlar ko‘p kuzatiladi. So‘z va u ifodalagan predmet o‘rtasidagi mutanosiblik badiiy nutqda ko‘pincha ochiq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘lmaydi. Badiiy nutq o‘zining ta’sir etishdan iborat asosiy maqsadiga erishish uchun so‘zning turlicha qo‘llanishi, tovlanishi, turlanishi, xilma-xil ma’nolarni ustiga olishiga keng imkoniyat yaratadi”.[159] Muallif o‘z bo‘lgan fikrini muqoyasa qilish asnosida ifodalashi badiiy adabiyot uchun xos ekanligi ushbu baytda ot bilan toy ota va farzandga qiyoslanishida ko‘rinadi. Ushbu bayt bugungi kundagi “Ot o‘rnini toy bosar, ota o‘rnini – o‘g‘il” maqoli bilan sinonimlik hosil qiladi.

Bu kabi holatlar didaktik xarakterdagi mumtoz asarlar tili uchun xos xususiyat hisoblanadi.

Yusuf xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari yana bir axloqiy-ta’limiy xarakterga ega bo‘lgan yirik manba sifatida alohida qimmatga ega. Ushbu asarning “Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi”[160] deb nomlangan maxsus bo‘limi bo‘lib, unda Oyto‘ldi tomonidan o‘g‘li O‘gdulmishga qarata aytgan so‘zlari, pand-nasihatlari, vasiyati ifoda etilgan. Ushbu bo‘limda shunday jumlalar keltiriladi:

O‘g‘il-qizni deya ota yer etin,
O‘g‘il-qiz atamas otasin otin.
Bu Oyto‘ldi aytdi, eshit, ey o‘g‘il,
So‘zimni unutma, menga tut ko‘ngil. (“Qutadg‘u bilig”, 46-bet)

Ushbu asarda keltirilgan har bir jumla pand-nasihat tarzida o‘quvchiga yetkaziladi va o‘zining ma’rifiy-tarbiyaviy vazifaga mo‘ljallanganlgigi bilan ajralib turadi. Ota tilidan o‘g‘liga qarata aytilgan nasihatlarning barchasida til birliklarini tanlashda ma’lum bir kommunikativ maqsad nazarda tutilgan. “Til birliklaridan ijobiy foydalanish, bir tomondan, nutqni rang-barang qilish, ikkinchi tomondan, yakka shaxs nutqidan tortib uslublarning o‘ziga xosligini vujudga keltirish imkonini beradi. Shunday qilib, nutq birliklarida til imkoniyati reallashadi.”[161]

Asarda matn mazmuni va maqsaddan kelib chiqib, didaktik xarakterdagi fikrlar berilgan va ularda ifodalangan ma’no matnga singdirib yuborilgan:*“Otaning ish-amali o‘g‘liga singsa, uning xulqida jilvagar bo‘ladi. Bolani tergab-nazorat qilish ota-ona yuzining yorug‘ligini ta’minlaydi. Nazoratdan tashqaridagi bola bebosh va yaramaslik sari og‘adi. Erka bo‘lib o‘sgan o‘g‘il-qizlar xatti-harakati ota-onaga mung va alam keltiradi”*(“Qutadg‘u bilig”, 49,50-bet). Lingvomadaniy konseptlarning o‘ziga xos xususiyatlari ularning tilda turli lisoniy vositalar yordamida verballashuvi bo‘lib, u tilning turli sathlariga, aynan so‘z yasalishi, leksik, frazeologik, sintaktik sathlariga aloqadordir.[162]

Bu holat badiiy asarda yorqinroq aks etadi. “Badiiy matnda boshqa uslub matnlarida bo‘lganidek, qat’iy mantiq, soddalik, tushunarlilik, normativlik kabi qonuniyatlarga to‘la-to‘kis amal qilinavermaydi. Unda badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalaniladi. Ta’sirchanlik birinchi planga ko‘tariladi. Ohangdor, jozibador so‘zlar ko‘p qo‘llaniladi. Tasvirlanayotgan voqelikda uyg‘un bir musiqa, ichki bir garmoniya sezilib turadi. Insonni ruhan to‘lqinlantirish, yig‘latish, kuldirish, xayolot olamiga yetaklash, o‘yga cho‘mdirish, estetik tafakkurini

---

[159] Маҳмудов Н.Ўқитувчи нутқи маданияти.-Тошкент: 2009.Б.113.

[160] Юсуф хос Ҳожиб. Қутадғу билиг: («Саодатда элтувчи билим»)/Юсуф хос Ҳожиб; [Ҳозирги ўзбек тилида баён қилувчи ва сўзбоши муаллифи Боқижон Тўхлиев]. — Чўлпон номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2007. -Б.200

161 Неъматов Ҳ.,Бозоров О.Тил ва нутқ.-Тошкент:Ўқитувчи, 1993.Б.25.

162 Хожиева З. Репрезентация концепта “ўзбеклар” / “Узбеки” в художественном тексте. “ Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмийметодик электрон журнал. №1/201 9.С.64.

shakllantirish, voqea-hodisalarga teran, boshqacha nazar bilan boqishga o‘rgatish kabi ko‘plab imkoniyatlarni o‘zida mujassam qilgan. Badiiy matn ma’lumki, badiiy uslub talablari, qoliplari asosida shakllantiriladi, shuning uchun unda poetik, romantik, tantanavor ifoda shakllaridan keng foydalaniladi. So‘zlarning tanlanishi, gap tuzilishi, leksik - semantik, ritmik-intonatsion birliklarning qo‘llanishi ham mazkur uslub talablaridan kelib chiqadi. Badiiy matnning lisoniy xususiyatlaridan eng muhimi shundaki, unda emotsional bo‘yokdor so‘zlarga, sheva so‘zlariga, tarixiy va arxaik so‘zlarga, jargon va argolarga, ko‘chma ma’noli so‘zlarga, ma’nodosh, shakldosh, o‘xshash, talaffuzli va zid ma’noli so‘zlarga, shuningdek, ibora, maqol-matal va aforizm kabi birliklarga keng o‘rin beriladi.”[163]

Liro-epik janrda yozilgan ushbu asar matnida “Otalik qilmoq” iborasi ham uchraydi. Bu jumla Elig tomonidan O‘gdulmishga qarata aytilgan:

Otang o‘lgan bo‘lsa, ota men senga,
Otalik qilayin, ota men senga . (“Qutadg‘u bilig”, 56-bet).

Bu yerda otasidan ayrilgan o‘g‘ilga taskin berish, jonkuyar, fidoyi, haqiqiy do‘st hisoblangan Oyto‘ldining tarbiyasini olgan bolani farzandlikka olish maqsadida ushbu so‘zlar aytilgan. O‘z-o‘zidan bu holatda o‘gaylik aloqasi ham paydo bo‘ladi. (O‘gaylik tushunchasi avvalgi boblarda izohlangan.)

Asar matnini kuzatish jarayonidan muallif tomonidan bir aqlli kishining nutqidan olingan quyidagi parcha keltirilganligiga guvoh bo‘ldik:

Otang pandin sen qattiq tut, qattiq,
Kuning qutli bo‘lar, keltirar totig‘.
Otangni, onangni sevintir mudom,
Yumushing evazi bo‘lar ming osig‘. (“Qutadg‘u bilig”, 56-bet).

Aynan O‘gdulmish ota nasihatini qattiq tutganligi, unga doimiy amal qilganligi, ota-ona rizosini olganligi uchun ham ishi, kuni qut-barakali, elda suyukli va mukarram bo‘ldi.

Yuqorida keltirilgan baytlardan “Devonu lug‘otit turk” hamda “Qutadg‘u bilig” asarlarida ota **“Nasihatgo‘y”** konseptini ifodalaydi, degan xulosaga kelish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 15.
2. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. – Самарқанд: Зарафшон, 1992. – Б. 23.
3. Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: 2009. – Б. 113.
4. Хожиева З. Репрезентация концепта “ўзбеклар” / “Узбеки” в художественном тексте. “Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмийметодик электрон журнал. №1/201 9. – С. 64.
5. Юсуф хос Ҳожиб. Қутадғу билиг: («Саодатда элтувчи билим») /Юсуф хос Ҳожиб; [Ҳозирги ўзбек тилида баён қилувчи ва сўзбоши муаллифи Боқижон Тўхлиев]. – Чўлпон номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2007. – Б. 200.

БАДИИЙ МАТНДА ШАКЛ-МАЪНО-ВАЗИФА ДИАЛЕКТИКАСИ

Эшниёзова Гулҳаё ҲАМРОҚУЛ ҚИЗИ,
Навоий давлат педагогика институти докторанти

Аннотация: Ушбу мақола орқали шоира Ҳалима Худойбердиева поэтик нутқининг лисоний–бадиий таҳлилининг хусусиятлари ҳамда бадиий матнда шакл-маъно-вазифа диалектикаси ва бадиий матнни ҳосил қилувчи бирликларнинг тасниф

[163] Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари.-Тошкент :Фан,2007. Б.15.

қилиниши ҳамда тадқиқотда шакл-маъно ҳосил қилувчи бирликларнинг лисоний хусусиятлари ўрганилади.

Annotion: Through this article, the characteristics of the linguistic-artistic analysis of the poetess Halima Khudoyberdieva's poetic speech, as well as the dialectic of form-meaning-function in the artistic text and the classification of the units forming the artistic text, as well as the linguistic characteristics of the units forming the form-meaning are studied in the research.

Аннотачия: Посредством данной статьи дана характеристика лингвохудожественного анализа поэтической речи поэтессы Халимы Худойбердиевой, а также диалектика формы-смысла-функции в художественном тексте и классификация единиц, образующих художественный текст, а также в исследовании изучаются языковые характеристики единиц, образующих форму-значение.

Калит сўзлар: Тилшунослик, шеърият, диалектика, психолингвистика, лингвопрагматика, бадиий матн, санъатлар.

Табиатдаги ва жамиятдаги барча ҳодисалар каби инсоният тили ҳам табиий ва ижтимоий жараён – диалектик қонун асосида ривожланиб келган. Бизга маълумки, нутқимиздаги нарса ва ҳодисаларнинг ҳаракат ўзгариши, бир ҳолатдан иккинчи ҳолатга ўтиб туриши, ривожланиши, улар ўртасидаги алоқадорлик ва ўзаро таъсир, сўзларнинг такрорланиш жараёнлари каби масалалар тилшунослар ўртасида турли баҳс ва мунозараларга сабаб бўлиб келмоқда. Тил инсоннинг ўз моҳиятини, руҳияти ва фаолиятини турли нуқтаи назарлардан тадқиқ этувчи эски ва янги фанларнинг марказий, айни пайтда сирли ҳодисанинг бевосита реаллашиш, намоён бўлиш тарзи саналмиш яхлит нутқ оқимини бўлакларга бўлиш, қисмларга ажратиш, ҳар бир қисм ёки қисмчани алоҳида тасаввур эта билиш, шунингдек, бу қисм ёки қисмчалар ўртасидаги тўғри ва ҳатто нотўғри муносабатларни идрок қила олишдай бир босқичга етиб келгунга қадар бадиий матнда шакл-маъно-вазифаси босқичма-босқич такомил йўлини босиб ўтганлигини кўриш мумкин. "Дунё тилшунослигида тил ва нутқ диалектикаси энг кўп муҳокама қилинган ҳодисалардан бири ҳисобланади. Бу ҳодиса кўпинча бирор шоир, шоира ёки ёзувчи услуби билан ҳам боғлаб илмий изланиш олиб бориш долзарб вазифага айланмоқда. Бугунги кунда тилни тизимий, прагматик, лингвомаданий, лингвопоэтик жиҳатдан қараш устунлик қилса-да, ҳар бир тил ўзининг тадқиқ эҳтиёжига кўра чуқур таҳлил қилинишни тақозо қилади. Бадиий тил, сўзлашув тили материаллари, муайян бадиий асар нутқи асосида лисоний имкониятларнинг воқеланиши ҳамда нутқий ифодалардаги ўзига хосликни илмий жиҳатдан асослаш ва баҳолаш зарурати тадқиқотнинг долзарблигини белгилайди."[164]"Нутқнинг бетакрор шакллари, намуналари сифатида юзага келган сўз дурдоналари-афсоналар, асотирлар, эртаклар, мақолу маталлар, топишмоқлар, қўшиқлар, шеърлар, драмалар, ҳикоя, қисса ва романлар инсоният бадиий даҳосининг ноёб шаҳодатномалари сифатида яшаб келмоқда, яратилмоқда ва албатта, бундан кейин ҳам яратилади. Атоқли ўзбек адабиётшуноси О.Шарафиддинов ўзининг "Адабиёт тилдан бошланади" номли мақоласида шундай ёзади: "Рангсиз тасвирий санъат, оҳангсиз мусиқа бўлмаганидек, тилсиз адабиёт ҳам бўлмайди. Адабиётни инсоншунослик дейдилар. Дарҳақиқат, ёзувчи хилма-хил инсоний характерларни тадқиқ қилиб, жамият ривожига ёрдам берадиган салмоқли ҳақиқатларни кашф

[164] Маҳмудова М.М. «Саид Аҳмад ҳажвий асарларида лисоний имкониятларнинг нутқий воқеланиши» Қарши-2022 ф.ф PhD диссертацияси автореферати

қилади. Бироқ буларнинг ҳаммаси адабиётда тил орқали рўёбга чиқарилади."[165] Шуни айтиш мумкинки, асосий мазмуннинг имплицитлиги (изоҳи) бадиий матнни нобадиий матнга зидловчи омиллар жаҳон адабиёти замирида чинаккам анъанага айланган ақидалардан бири шуки, муаллиф фикри қанчалик яширин бўлса, санъат асарининг эстетик қиммати ҳам шунчалик юқори деб қаралади.

"Бадиий матнни тушиниш, унда айтилмоқчи бўлган фикр-ғояни тугал англаб етиш, эстетик идрок этиш у қадар ҳам осон иш эмас. Бадиий матнда муаллифнинг асосий гапи яширин, турли ишоралар воситасида, образлар, кўчимлар, тагмаънолар каби бадииятининг ўзига хос унсурлари орқали берилади. Таниқли адабиётшунос Қ.Йўлдошев ўринли таъкидлаганидек, бадиий асарнинг ўқувчи томонидан қабул қилиниши жараёнида жўнгина ахборот алмашиш эмас, балки бадиий мулоқот содир бўлади. Негаки, бу жараёнда муаллиф бадиий матн воситасида риципиент (истеъмолчи) ўқувчига таъсир кўрсатиб, бу орада акс таъсир ҳам амалга ошади, тескари жараён содир бўлади. Ўқувчининг матнни идрок этиши, ундаги яширин жиҳатларни топа олиши матнга кўрсатилган ижодий таъсирнинг намоён бўлишидир. Шу тариқа риципиент бадиий маҳсулотнинг истеъмолчисигина бўлиб қолмай, унинг яратувчисига айланади... Реципиентнинг бадиий асарга маъно юклай олиш даражаси унинг матндан эстетик таъсирланиши даражасига тенг бўлади. Табиийки, барча ўқувчининг бадиий матнга маъно юклай билиш, унинг яратувчисига айлана олиш даражаси, демак, бадиий матндан эстетик таъсирланиш даражаси ҳамиша ҳам бир хил бўлмайди. Бу, шубҳасиз, ўқувчининг ҳаётий тажрибаси, филологик тайёргарлиги, эстетик диди ва савиясига боғлиқ."[166] Бу каби мисолларни таниқли ўзбек шоираси Ҳалима Худойбердиева шеъриятида яққол учратишимиз мумкин. Бунга мисол унинг "Илк муҳаббат", "Оқ олмалар", "Чаман", "Суянч тоғларим", "Бобо қуёш", "Иссиқ қор", "Садоқат", "Муқаддас аёл", "Ҳурлик ўти", "Бу кунларга етганлар бор", "Тўмариснинг айтгани", "Сайланма", "Йўлдадурман", "Буюк қушлар", "Осойишта шам", "Йиллар нафаси" деб номланган асарлари жамланган "Танланган асарлар"даги шеърларидаги лирик қаҳрамон яъни шоира Ҳалима Худойбердиева қаламига мансуб шеърлари матнига маъно юклашдаги профиссионаллиги мана шу шеърларида моҳирона тасвирланган.

Она алласидай ширин, лаззатли
Куй бўлмаса керак санъат бобида.
Она орзусидай теран, қанотли
Сўз йўқдир шоирнинг шеър китобида.[167]

****

Мен бир боғ ўстирдим, бироқ у боғим
Мевалари ҳали ўзим каби ғўр.
Истагим: ёнса-ю умид чироғим,
Инсонлар қалбига бўлгудай манзур.[168]

Кўриб турганимиздек, шоиранинг ушбу шеърларини тўлиғича ўқимасдан туриб, мисралардаги яширин маънони англаб етишнинг имкони юқ. "Албатта, бу ўринда матннинг бадиийлик жиҳатидан савиясини ҳам унутмаслик лозим, бадиий нуқтаи назаридан баркамол матнни тушуниш, тегишли тарзда талқин қилиш унчалик

[165] Йўлдошев М Бадиий матн липвопоэтикаси. Монография. -Тошкент. "Ўзбекистон" НМИУ,-2019.-256-б. 5-бет.
[166] Йўлдошев М Бадиий матн липвопоэтикаси. Монография. -Тошкент. "Ўзбекистон" НМИУ,-2019.-256-б,139-бет
[167] Худойбердиева Ҳ Танланган асарлар.-Т.: "Шарқ", 2020.-560 б. 15-бет.
[168] Худойбердиева Ҳ Танланган асарлар.-Т.: "Ш арқ", 2020.-560 б. 16-бет.

қийин ҳам бўлмайди, уни ўқиган ўқувчиларнинг талқинидаги фарқ катта ҳам бўлмайди. ”[169] Шуни айтиш мумкинки, ўзбек тилининг бой ифода имкониятларини ёритиб бериш, бадиий асар матнлари асосида тил бирлигининг маъно тараққиётини ўрганишда, бадиий матнда қўлланилган бадиий санъатларнинг лексик хусусиятлари ва морфологик жиҳатлари ҳамда мустақил сўз туркумлари турларининг иштирок этиш даражасини, айниқса, ёрдамчи ва алоҳида сўз туркумларининг, хусусан, юклама, ундовларнинг матндаги зарур ўрни ва вазифасини аниқлаш зарурати мавжуд.

“Шунинг учун қизиқарли воқеалар ривожи китобхонни тутиб туради, айтиш мумкин бўлса, ўқувчи ундан яширин маънолар излаб ортиқча бошини оғритмайди. Аммо чинакам бадиий баркамол матн талқини тамоман бошқа нарса. Бундай матнни тушуниш, ундаги маъно-мазмунни талқин этиш осон иш эмас. ”[170] Шоира Ҳалима Худойбердиеванинг “Гарчанд қуш емассан...” шеърига назар ташлайдиган бўлсак,

Гарчанд қуш эмассан, ё эмассан хас,
Учавер, Сенга ҳам ўйлаш шарт эмас.
Нима бу ноаён чуғур-чуғур сас
“Девонул-луғатит турк” бўлса бўлар.
****
Муҳими, ҳар лаҳза яйрасин танлар,
Бор бўлсин тошни ҳам ёраётганлар,
Тоғу тошдан кетиб бораётганлар,
Ковул-каврак бўлса, зирк бўлса бўлар. [171]

Шоиранинг ушбу фикр талқини борасида фарқли қарашлар мавжуд. Бунда лирик қаҳрамон ўзининг тилидан айтилган бўлиб, лирик қаҳрамоннинг ички кечинмалари тасвирланаётганлигини кўриш мумкин. Лирик қаҳрамон гуё биринчи шахс, иккинчи шахсга яъни ҳозирги ёш-авлодга худди панд-насиҳат, дидактик руҳда мурожаат эканлиги китобхон-ўқувчи битта мутолаа қилганда тушунчага эга бўлишини ёрқин номоён қилаолган. Шоиранинг шеърларида маълум бир ҳақиқат бор.

“Бадиий матн талқинида ана шундай яширин маънолар, эксплицит бирликларнинг импликатцияларини, турли мазмуний ишораларини нозик ва теран идрок этиш фавқулодда муҳимдир. Турк адабиётшунослигида мумтоз шеъриятдаги ана шундай яширин маънолар “мазмун” деб номланади. Мармара университетининг профессори Сабоҳат Дениз ўзининг “Шоирларнинг яширин тили: мазмун” номли мақоласида турк филологларининг мазмун тушунчаси атрофидаги талқинларини шарҳлайди ва девон адабиётидаги мазмунни тушуниш учун бу мазмунга ишора этадиган сўзлар, мақоллар, тарихий воқеалар, билим ва тажрибалардан хабардорлик зарур эканлигини таъкидлайди. Айни пайтда тадқиқотчи очиқ ифодаланган маъно ишораси билан англашиладиган маъно мазмун мақомида бўлишини, унинг шеър эстетикаси билан, хусусан, адабий санъатлар билан боғлиқ эканлигини, мазмун асарда айтилмоқчи бўлган асосий фикр сифатида орфа планда туришини айтиб ўтади.

Бу ўринда яна бир нарсага аниқлик киритиб олиш мақсадга мувофиқдир. Маъно ва мазмун сўзлари ифодалаган маънолар бир-бирига анча яқин, ҳатто базан бири ўрнида иккинчиси қўлланади ҳам. Уларга термин сифатида ёндашилганда, улар орасидаги фарқни таъкидлаш жоиз. Гарчи лингвистик адабиётларда бу терминларни

[169] Йўлдошев М Бадиий матн липвопоэтикаси. Монография. -Тошкент. “Ўзбекистон” НМИУ,-2019.-256-б, 140-бет.
[170] Йўлдошев М Бадиий матн липвопоэтикаси. Монография. -Тошкент. “Ўзбекистон” НМИУ,-2019.-256-б,141-бет.
[171] Худойбердиева Ҳ Танланган асарлар.-Т.: “Шарқ”, 2020.-560 б. 223-бет.

синонимик тарзда қўллаш баъзан учраб турса-да, маънони, асосан сўзнингобъектив оламдаги нарса-ҳодисаларнинг инсон онгидаги инъикоси билан боғлиқ тушунчага дахлдор ички томони ифодачиси, мазмунни эса гап ичида шаклланган фикр шамойилидаги бирлик ифодачиси тарзида талқин этиш филология илмида анча турғунлашган. ” [172] “Бадиий матнда ҳар қандай бирлик аҳамиятли, уларнинг барчаси ҳам объектив мазмун, ҳам бадиий мазмуннинг ифодаланишида у ёки бу тарзда иштирок этади. Аммо бу сўз ва унинг маъноси, сўз маъносининг бадиий матнда юзага чиқиши билан боғлиқ масалага бир қадар тўхталиб ўтиш мақсадга мувофиқ. Чунки бадиий матндаги сўз ва унинг маънолари бениҳоя мураккаб ва ўзига хос ҳодисалардан биридир. ”

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, кўриб турганимиздек, шоиранинг шеърларини тўлиғича ўқимасдан туриб, мисралардаги яширин маънони англаб етишнинг имкони юқ. “Албатта, бу ўринда матннинг бадиийлик жиҳатидан савиясини ҳам унутмаслик лозим, бадиий нуқтаи назаридан баркамол матнни тушуниш, тегишли тарзда талқин қилиш унчалик қийин ҳам бўлмайди, уни ўқиган ўқувчиларнинг талқинидаги фарқ катта ҳам бўлмайди. Мазмун ва шакл фикрнинг батафсил, атрофлича ифодаланишига, тасвир объекти билан боғлиқ ҳолда шоиранинг шеърларида мазмун ифодаланишига етарлича хизмат қилган.

АДАБИЁТЛАР

1. Йўлдошев М Бадиий матн липвопоэтикаси. Монография. -Тошкент. Тошкент-2018 256-бет.
2. Маҳмудова М.М. «Саид Аҳмад ҳажвий асарларида лисоний имкониятларнинг нутқий воқеланиши» Қарши-2022 ф.ф PhD диссертацияси автореферати
3. Худойбердиева Ҳ Танланган асарлар.-Т.: “Шарқ”, 2020.-560 б.
260-бет

KICHIK NASRIY ASARLARDA ONA KONSEPTINING IFODALANISHI

Ulug‘murodova Sohiba AZAMATOVNA,
SamDU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi tadqiqotchisi

Ona yer, Ona vatan, Ona til va Ona tabiat. Biz ushbu nomlarni bir-biridan ayro tasavvur qilolmaymiz. Ushbu to‘rt nomsiz hayotni anglash imkonsiz, demak onaning yana bir nomi hayot. Adabiyotning, jamiki, betakror ijod namunalarining bosh mavzusi – ayol. Ayol esa – ona, opa – singil, yor. Qaysiki asarni o‘qimang barchasida mo‘tabar va mushfiq onalarimizni turli xil ko‘rinishda uchratamiz. Hech bir asar yo‘qki ona obrazi mavjud bo‘lmagan. Onalar uchun yozilgan asarlar, ularni madh etuvchi kuy-qo‘shiqlar qanchalik ko‘p bo‘lmasin, ularning adosi yo‘q, ta’rifi cheksiz. Xususan, adiblardan O‘tkir Hoshimov ijodida “Dunyoning ishlari” qissasi ona obrazini yaratishdagi kulminatsion nuqtasi bo‘ldi, deyish mumkin. Zero, mazkur qissa o‘zbek kitobxonlari va adabiyotshunoslarigina emas, xorij kitobshinavandalari qalbini ham zabt etdi. Ustoz adib Said Ahmad “Ijod va jasorat” maqolasida qissa haqida shunday e’tirof etdi: “Dunyoning ishlari” asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo‘shiqday o‘qiladi. Uni o‘qib turib, o‘z onalarimizni o‘ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarmiz oldidagi bir umr uzib bo‘lmas qarzlarimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko‘z oldimizda ko‘ndalang turib oladi”. Adabiyotshunos A.Rasulov shunday deb yozadi: “Dunyoning

[172] Йўлдошев М Бадиий матн липвопоэтикаси. Монография. -Тошкент. “Ўзбекистон” НМИУ,-2019.-256-б,142-бет.

ishlari” poetikasining alohida sinchkovlik bilan o‘rganish zarur. Asarda yozuvchi mahorati, topqirligi, qissa janri tabiatiga kiritgan yangiligi, eng kichik personaj mohiyatini ham bir turtki, bir imo, harakat bilan ochib yuborganligi aniq ko‘rinadi. Bir qarasangiz, “Dunyoning ishlari” sentimental asar emas. Mazkur qissaning ijobiy, gumanizm targ‘ibotchisi sifatida xislat va fazilatlari haqida taqriz va maqolalar e’lon qilishdi. Qissa kompozitsiyasiga e’tibor bersak, asar muallif ta’kidlaganidek, hajm jihatdan xilma-xil, katta, kichik, o‘rtacha muqaddimasida shunday deydi: “Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasida men uchun aziz odam - Onam siymosi bor. Bundagi odamlarning hammasini o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman. Faqat ba’zilarining ismi o‘zgardi, xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihati bilan Onamga bog‘langan”. Demak, bu qissa yaratilish uslubi jihatidan Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar”, Nazir Safarovning “Navro‘z” avtobiografik xarakterdagi asarlariga o‘xshab ketadi. Qissada adibning onasi Poshsho xola obraziga hayotiy asos bo‘lib, uning atrofiga chamasi 20 ga yaqin onalar obrazi bog‘lanadi. Lekin barcha voqealar va onalar siymosi Poshsho xola obrazi bilan bir nuqtada kesishadi.

“Dunyoning ishlari” qissasidagi bosh qahramon Ona xarakteri turadi. Fikrimizni dalillash maqsadida asarga murojaat qilamiz. Qissadagi hikoyalar davomida muallif qahramon tarzida o‘zini o‘zi koyiydi. Ona qadriga yetmaganlikda, uning mehribonliklarini tushunmaganlikda, farzandlik burchni yaxshi ado etolmaganlikda ayblaydi. Bu iztiroblar, ayniqsa, “Xiyonat” hikoyasida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Yozuvchi bu hikoyada muallif nutqini, uning ruhiy holatini tabiat bilan qiyoslashtirib beradi. “Xiyonat” hikoyasida O‘tkir Hoshimov o‘zining bolalikda, o‘quvchilikda, talabalikda boshidan kechirgan sarguzashtlarini ta’sirli qilib ifoda etadi.Yozuvchi ijodiga xos lirik tarona uning “Dunyoning ishlari” qissasida eng baland pardalarda jarangladi. Bu asar Ona haqidagi, Ona qalbining cheksiz sahovati haqidagi o‘ziga xos qasidadir.

“Dunyoning ishlari” bir qarashda avtobiografik asar, yozuvchining o‘z bolalik yillari, yoshlik, yigitlik davri xotiralari, onasi, qarindosh-urug‘lari, tanish odamlar hayotidan voqe etadi. Unda xilma-xil voqealar hikoya qilinadi, biroq asar markazida Ona obrazi turadi. Asardagi ona farzandi, farzandi oromo, baxti uchun jonini, jahonini berishga tayyor ming-minglab onalarimizning timsoliga aylandi.

Qissa zavq-shavq bilan shoirona yozilgan. “Dunyoning ishlari”ni qissa emas, doston deb atashni istardim, - deydi Said Ahmad. U qo‘shiqday o‘qiladi. Uni o‘qib turib o‘z onalarimizni eslab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo‘lmas qarzlarimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko‘z oldimizda ko‘ndalang turib oladi. Qissa bizni insofga, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi”.

Yozuvchi o‘z onasining cheksiz qalb sahovatlari haqida so‘z ochar ekan, ayni vaqtda uni yetarlicha qadrlay olmaganidan afsuslanadi.

Qissa bir-biri bilan uzviy bog‘langan mustaqil voqeiy (bo‘lib o‘tgan) hikoyalardan tashkil topadi.

“Dunyoning ishlari” boshdan-oyoq nihoyatda yorqin, ajib bir milliy bo‘yoqlar bilan jilolangan. Ayni paytda asar teran bir umuminsoniy, baynalminal tuyg‘ular bilan yo‘g‘rilgan. Qissada shunday mulohazalar bor:

“Ehtimol, dunyoning bu chetida turib bir odam o‘z sevgilisiga aytgan dil rozini dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Ehtimol, dunyoning bu chetida turib bir odam aytgan qo‘shiqni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Ehtimol, dunyoning bu chekkasida turib bir odam aytgan oqilona fikrni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Biroq dunyoning bu chekkasida turib Ona aytgan allaga dunyoning narigi chekkasidagi go‘dak bemalol orom oladi”.

Ona allasining sirli-sehrli kuchini muallif avvalo Alloh so‘zi - Qur’oni Karim oyatlari tilovati sadosi bilan qiyos qiladi. Qabristondagi hujra tomonidan tilovat sadosi eshitiladi, xuddi shu payt hovli tomondan ona allasi yangraydi: “Rabbano - o - o , rabbano - o - o ...” ”Allayo, alla...” Hikoyachi ajib bir holatga tushadi ”Bir tomonda tilovat sadosi, bir tomonda alla... Ajab, ular bir-biriga halaqit bermas, bir-birini rad etmas”. Orada qandaydir sirli mushtaraklik mavjud.

Qissa muallifi onasidan alla eshitgan daqiqalardagi holatini eslab ketadi; Ona aytgan satrlar oddiy qo‘shiq emas, uning ovozidan qandaydir boshqa narza, mungmi, iltijomi, tinglovchi qalbini asir etadigan ilohiy sehr borligini uqtiradi; “Keyin katta bo‘lganimda ham qayerda alla eshitsam, yuragim shirin orziqish bilan talpinib ketar, nega bunaqa bo‘layotganini o‘zim bilmas edim” deb yozadi.

Yozuvchi dunyoning ikki chekkasida o‘zi guvoh bo‘lgan ikki hodisani - safar chog‘i qirg‘iz o‘tovida qirg‘iz ayol aytgan alla va olis Kislovodskda sibirlik juvondan alla eshitgan chog‘dagi g‘aroyib holati - yurakdagi shirin orziqish tuyg‘ularini to‘kib soladi. Qirg‘iz va rus ayollarining o‘z ona tillarida aytgan dil rozlari muallif qalbini onasidan eshitgan alla kabi tug‘yonga soladi, allalaydi.

Shu tariqa yozuvchi voqea-hodisalarni shunchaki hikoya qilib bermaydi, hodisa bilan bog‘liq tuyg‘ularning ajib sehrini, nafosatini kitobxon qalbiga olib kirishga muvaffaq bo‘ladi. Qissaning deyarli barcha boblari ayni shu ruhda bitilgan.

Ona obrazi O‘tkir Hoshimovning keyingi asarlarida ham boshqa zamon va boshqa makonlarda o‘quvchining ko‘z o‘ngida gavdalanadi. Chunonchi, “Tushda kechgan umrlar”dagi Qurbonoy xola ko‘p jihatdan qissadagi Oyi obrazini mantiqan davom ettiradi. “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasidagi Umri onaning mushfiqligi, hokisorligi ham bu ikki asardagi onadagi fazilatlarda deyarli farq qilmaydi. Turli asarlardagi turli obrazlarga bunday yondashuv to‘g‘ri yo noto‘g‘riligini butkul boshqa masala, lekin bu o‘rinda gap boshqa yoqda. “Dunyoning ishlari”da Onaning quyma obrazini yaratishga muvaffaq bo‘lgan muallif endi boshqacha onani tasavvuriga sig‘dirolmasligi aniq edi, binobarin basharti u onani boshqacha tasvirlasa go‘yo o‘sha Onaga xiyonat qilayotgandek ona timsoliga putur yetkazib qo‘yayotgandek ahvolga tushardi. U adib O‘tkir Hoshimovning onasi, o‘zbekning onasi edi.

1972-yilda yaratilgan “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasi ham lirik ifoda va epik ko‘lam mushtarakligini yorqin aks ettiradi. Hikoya ikkinchi jahon urushining insoniyat taqdiriga, jumladan, millat psixologiyasiga ko‘rsatgan ta’sirini aks ettiradi. Asosiy qahramon - Umri xolaning ikki o‘g‘li bor. Kattasi - Shoikrom o‘z oilasi bilan alohida yashaydi. Kichik o‘g‘li Shone’mat dardga chalingan. Tabib unga qo‘y suti buyurgan, lekin Ona o‘z farzandiga sut olib berishga qodir emas. Asar davomida kuzatiladigan tushkun kayfiyat ustuvorligi alamzada o‘g‘ilning qarori yordamida fojiaviy nuqtaga ko‘tariladi. Shu o‘rinda Umri xola va Shoikrom xatti-harakatlaridagi o‘xshashlik kitobxonni ajablantirmaydi. Ona o‘g‘rilik qilish katta gunoh ekanini o‘ylab ko‘rmaganidek, farzand ham birovning joniga qasd qilish salbiy illat ekanini tushunishni istamaydi. Asosiy aybdor - urush va uning salbiy asoratlaridir.

ADABIYOTLAR

1. Боровков А.К, “Узбекские говоры Наманганской области”, Научные труды ТашГУ, вып. 211, Языкознание, Ташкент, 1963, стр. 29

2.Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент, Фан, 1966. – В. 26

3.Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш., Ҳозирги ўзбек адабий тили, Тошкент,1965, p.114

4. Узбек классик адабиёти асарлари учун қисқача луғат Тошкент, Уз ФА нашриёти , 1953.
5.Ma’rufov Z.M. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, Moskva, Rus tili nashriyoti 1981

O‘ZBEK TILIDA KECHIRIM SO‘RASHNING ENG MUHIM VAZIFASI PRAGMATIK AFV MAZMUNLI BIRLIKLAR

Hazratkulova Ozoda ABDUG‘ANIYEVNA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi

Til va madaniyatning bunday o‘zaro bog‘liqligi nuqtai nazaridan, biz birinchi navbatda ushbu munosabatlar paradigmasi doirasini cheklaymiz va tegishli metodologiyani ishlab chiqamiz (adekvat taxminlar bilan), so‘ngra turli tillarda berilgan masalalarning ijtimoiylashuvini tekshirishga o‘tamiz. Kechirim so‘rashning eng muhim vazifalaridan biri bu ijtimoiy uyg‘unlikka erishish va Lakoff tomonidan metaforik tarzda *"ijtimoiy g‘ildiraklarni moylash*" deb ta’kidlagan narsadir. U bu "birinchi navbatda va asosan ijtimoiy harakat" nuqtai nazaridan qarashni yaxshi ko‘radi. xushmuomalalik haqida: "Kechirim so‘rash - muloyimlik bilan harakat qilish ... adresatning yuz ehtiyojlariga e’tibor berish." Olshtain deyarli bir xil narsani aytadi (1989:156): "Og‘zaki kechirim so‘rash qarorida S (ma’ruzachi) o‘zini ma’lum darajada kamsitishga tayyor ...". bir martalik (ya’ni o‘zini yanada kamsitadi).
Goffman “kechirim so‘rash ijtimoiy muvozanatni tiklash” deb ta’kidlaydi, bu kechirim so‘rash harakati bilan "ishtirokchilar masalalar yopiqligini va [ijtimoiy] muvozanat tiklanganligini his qiladilar.

Madaniyat - bu ma’lum bir xalqning xatti-harakati, tabulari, folklor, kiyim-kechak, musiqa va boshqalar kabi barcha qabul qilingan va namunali xatti-harakatlari.[173] Ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lgan juda keng atama, tushuncha yoki so‘z, shubhasiz, "madaniyat" turli xil ma’no va foydalanishga ega. Ba’zi odamlar madaniyatni amaliyot, boshqalari esa ma’lumot deb bilishadi. Amaliyot jamiyatda yoki tilda ma’lum bir o‘rganilgan koddan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ma’lumot uni statik ma’lumot sifatida saqlash va kerak bo‘lganda unga murojaat qilishdir. Chunki u hayotda ham, tilda ham aniq namoyon bo‘ladi, bu erda xabar yoki metaxabar ayniqsa ikkinchisi orqali uzatiladi. Demak, u alohida emas, balki jamiyat mahsuli sifatida ijtimoiy nuqtaga ega. U o‘sib borayotgan yoki rivojlanayotgan qismga ega, chunki u ijtimoiy o‘zaro ta’sir orqali rivojlanish yoki kamayish yo‘li bilan o‘zgarishi mumkin. Yana bir jihat shundaki, madaniyat urf-odatlar, qadriyatlar, e’tiqodlar, an'analar yoki bilimlar orqali almashiladi. Bundan tashqari, u ongli yoki ongsiz xatti-harakatlar orqali o‘rganiladi
Bizning cheklovimiz quyidagi masalalarni o‘z ichiga olgan ingliz va turk tillarida muloqot qilishning lingvo-madaniy tahlili yo‘nalishi bo‘yicha:
1-Madaniyatga asoslangan kommunikativ xatti-harakatlar
2-Ingliz va turk tillarida kechirim so‘rash usullari
5. Madaniyatni til orqali o‘rgatish

Umuman olganda, nutq harakatlarining turli xil an'anaviy doiralarini muhokama qilgandan so‘ng, endi uzr so‘rash nutq aktini alohida ko‘rib chiqishga kirishamiz. Keyingi bo‘limda kechirim so‘rash bo‘yicha empirik tadqiqotlar, shu jumladan tillararo va madaniyatlararo tadqiqotlar olib boriladi.

[1]Benedict, Ruth (1949). Patterns of Culture. Boston: Houghton Mifflin Company Publishing.

Pragmatikaning kichik sohasi bo‘lgan nutqiy harakatlarni so‘zlar yordamida amalga oshiriladigan harakat sifatida aniqlash mumkin, ya’ni nutqiy harakatlar inson muloqotining muhim birliklari hisoblanadi. Bu yerda an'anaviy nutq akti haqida qisqacha ma’lumot beriladi va asosiy e’tibor Ostinning (1962) nutq aktlari nazariyasiga, Searlning (1979) nazariyasiga va Grice (1975) so‘zlashuv ta’siri. Ostinning (1962) nutq aktlari nazariyasi, Searlning (1979) qayta ko‘rib chiqilgan taksonomiyasining Ostinning nutq aktlarini tasniflash tizimining va Gricean (1975) so‘zlashuv implikaturasining pragmatik nazariyasi nutq aktlarini o‘rganishga klassik hissa qo‘shishi aksiomatikdir. falsafa, keyin esa pragmatika.

Kechirim so‘rash - bu turli fanlarning turli tadqiqotchilari e’tiborini tortgan nutq harakati. Xolms (1995) fikriga ko‘ra, kechirim so‘rash bu muloyim nutq harakati bo‘lib, unda kechirim so‘ragan shaxs javobgarlikni o‘z zimmasiga olgan holda jinoyatni davolaydi va natijada suhbatdoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tiklashga qaratilgan. Aynan Ostin birinchi marta nutq harakati nazariyasini (1962) kiritgan va til nafaqat biror narsa aytish, balki biror narsa qilish uchun ham qo‘llanilishiga e’tibor qaratgan. Yillar o‘tib, bu nazariya Searle (1969) tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u nutq harakatlarini muloqotning asosiy birligi sifatida belgilaydi, unda ma’ruzachi o‘zi aytganidan ko‘ra ko‘proq narsani ifodalashi mumkin. Turli xil munosabatlarni ifodalash uchun ma’ruzachi kontekstga va o‘ziga mos kelmaydigan nutq harakatidan foydalanadi.

kommunikativ niyat - ya’ni. illokatsion kuch. Har bir nutqiy harakat so‘zlovchining munosabat turiga mos keladi. Masalan, gapni ifodalash uchun so‘zlovchi e’tiqodni bajaradi, o‘z g‘azabini bildirish uchun, so‘zlovchi shikoyat qiladi yoki afsus bildirmoqchi bo‘lsa, kechirim so‘raydi.

Muloqotning bir qismi sifatida nutq harakatining muvaffaqiyati tinglovchining ma’ruzachining kommunikativ niyatini tan olishi bilan belgilanadi. Shmidt va Richards (1980) ga ko‘ra, nutq aktlari nutq orqali amalga oshiriladigan barcha harakatlar, shu jumladan aloqa paytida munosabat, imo-ishoralar, nutq va kontekstdir. [174] Bundan tashqari, ular nutq harakatlarini odatda shikoyat, iltifot, taklif, va’da, so‘rov yoki kechirim so‘rash kabi aniqroq belgilarga ega bo‘lgan so‘zlar orqali amalga oshiriladigan harakatlar sifatida belgilaydilar. Ostin (1962) nazariyasiga ko‘ra, ma’noning uch turi mavjud: lokatsiya akti, noma’lum akt va perlokatsion akt. Lokatsion akt – bu so‘zlovchining birovga nimadir deyish harakati. Misol uchun, agar ma’ruzachi "bu tort mazali ko‘rinadi" desa. Bu ibora "bu tort mazali ko‘rinadi" degan so‘zma-so‘z ma’noga ega.[175] Illokatsion akt so‘zlovchining aytilgan narsaning ijtimoiy funktsiyasini bajarish maqsadiga taalluqlidir. Boshqacha qilib aytganda, so‘zlovchi biror narsani aytganda, u qandaydir vazifani nazarda tutgan holda gapni ifodalaydi. Natijada, so‘zlovchi gaplarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nosidan ko‘ra ko‘proq narsani ifodalashi mumkin. Shuning uchun, "bu tort mazali ko‘rinadi" kimgadir pirojnoe bo‘lagi taklif qilinishini bilvosita so‘rov sifatida talqin qilish mumkin. Buzilish harakati so‘zlovchi tinglovchiga keltirmoqchi bo‘lgan ta’sirni o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, "bu tort mazali ko‘rinadi" degan gap tinglovchiga bir bo‘lak tort olishiga olib kelishi mumkin.

1) I admit I ate the hamster (Responsibility)
2) It was wrong of me to eat the hamster / I shouldn’t have eaten th
hamster (wrongdoing/ regretting)
3) Can you find it in your heart to forgive me for eating the hamster
(Wish/request for forgiveness,

[174]Lansdown, Richard (ed.) (2015) Byron's Letters and Journals :A new Selection. Oxford : Oxford University Press.
[175]Austin (1962) How to Do Things with Words. Cambridge :Cambridge University Press.

4) I'll never eat a hamster again as long as I live (abjuration of bad behaviour)
5) I'm sorry that I ate the hamster (apology)
6) I'm sorry Mr Smith isn't available today (an expression of non responsible sympathy)
7) Well I'm sorry! But you don't know what you are talking about (denial that an apology is in order (the examples are from Lakoff (2003: 202)

"Sorry" muloqotda quyidagi semantic mazmunni ham ifodalashga xizmat qiladi:

a. Sifat: kechirim so'rash Bu siz boshqa birovga muammo yoki qiyinchilik tug'dirganingiz uchun o'zingizni yomon his qilishni anglatadi:

I'm really sorry (that) I forgot about our appointment yesterday.

"**Sorry", Shuningdek, kimdandir sizni bezovta qiladigan biror narsa qilganingiz uchun kechirim so'rashning xushmuomala usuli sifatida ishlatiladi:**

The train will be moving shortly – we are sorry for the inconvenience. Sorry is also used as a polite way to show your sympathy to someone because of a loss, problem, or trouble the person has had: We were sorry to learn about the death of your grandmother.

b. Sifat: xushmuomalali rad etish Rad etish yoki kelishmovchilikni ifodalashning xushmuomala usuli sifatida ishlatiladi.:

I'm sorry, but I think you've made a mistake in our check. Sorry, you can't go in there.

Ingliz tilida "Apology" (Buyuk Britaniya odatda kechirim so'rayman) quyidagi ma'nolarda qo'llaniladi:

I just went up to him and said, " Hey, man, I apologize about your wife. " And he goes, " I'm, I'm

Tekshiruv natijalari shuni ko'rsatdiki, kechirim so'rash quyidagi iboralar uchun afsuslanishning boshqa asosiy ma'nolarini baham ko'rish mumkin emas:
Britaniya ingliz tilida biror narsadan bosh tortganda yoki rozi bo'lmaganda xushmuomalalikni ko'rsatish uchun ishlatiladigan xushmuomalali inkor (undov) yoki amerikacha ingliz tilida rad etish yoki kelishmovchilikni ifodalashning xushmuomala usuli sifatida ishlatiladi.

Sorry, you can't go in there. (CALDT, 2017)
I'm sorry, but I think you've made a mistake in our check
With only two exceptions you all did very well in your qualifying examin
ations and I am very proud of the school 's results, but I am sorry, only twelve of you have been accepted for Form 1. " There was silence in the classroom.

b. Kimdandir muloyimlik bilan biror narsani takrorlashni so'rash yoki xushmuomalalik bilan kimnidir to'xtatganda

"He's late." "Sorry?" "I said he's late." (CALDT, 2017)
Sorry, could you just say that last sentence again please? (CALDT, 2017)

c. Qayg'u, qayg'u, hamdardlik yoki umidsizlikni ko'rsatish uchun ishlatiladi, ayniqsa, quyidagi misollarda bo'lgani kabi, yoqimsiz narsa sodir bo'lganligi yoki qilinganligi sababli

I'm sorry (that) you had such a difficult journey. (CALDT, 2017)
We were both sorry to hear you've been ill again. (
tell me this if it hurts you. I know the story. I am sorry for the terrible massacre. I am sorry for your husband and your pain.
I'm surprised by the ground swell of support for these people. I am sorry. They are

felons, they have bilked people out of a lot of money

Sinonimlarni farqlashning yana bir xususiyati grammatik qoliplardir. Bu ikki sinonim yaqin sinonimlar hisoblanadi, chunki ular har qanday kontekstda bir-birini almashtira olmaydi. Biroq, “to apologize” faqat bitta ma’noga ega bo‘lib, u "birovga muammo yoki baxtsizlik keltirgan narsadan afsuslanish" ifodasi sifatida ishlatiladi. Boshqa tomondan, to be sorry birikmasining "*yo‘q deyish*" va "*xafa bo‘lish*" kabi boshqa ma’nolarga ham ega bo‘lib, unda qayg‘u, hamdardlik yoki umidsizlikni ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, uzr so‘zi faqat undov sifatida ishlatiladi va "apology" ma’nosini berish uchun ishlatiladi; "polite negative"; va "birovdan biror narsani takrorlashni xushmuomalalik bilan so‘rash" yoki "birovni xushmuomalalik bilan to‘xtatganda". Ushbu birikmalar beshta fe’lning bo‘sh sinonimlarini o‘rganishga mos keldi, ya’ni *so‘rash, iltimos qilish, uzr so‘rash, uzr holatida bo‘lish va murojaat qilish singari. Sinonimik qatorlarni tadqiq qilish borasida ham tadqiqotlar olib brogan olim* Phoocharoensil barcha kontekstlarda bir-birining o‘rnida ishlatib bo‘lmaydigan yuqorida ko‘rsatilgan sinonimik qatorlarni aniqladi. [176](2010), ular ushbu sinonim fe’llarni aniqladilar.

ADABIYOTLAR

1. Benedict, Ruth (1949). Patterns of Culture. Boston: Houghton Mifflin Company Publishing.
2. Lansdown, Richard (ed.) (2015) Byron's Letters and Journals :A new Selection. Oxford : Oxford University Press.
3. Austin (1962) How to Do Things with Words. Cambridge :Cambridge University Press.
4. Phoocharoensil, S. (2010). A Corpus-Based Study of English Synonyms. International Journal of Arts and Sciences, 3(10): 227 – 245

MODERN SHE’RIYATDA METAFORIK OBRAZLILIK

Gulchehra BOZOROVA,
NDKTU akademik litseyi, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Modern adabiyoti mazmun-mohiyatiga ko‘ra turli shakli va uslubiy ko‘rinishlar, tabiat va inson his-tuyg‘ularini o‘zgacha obrazlilik orqali tasvirlashga asoslanadi. Shuning uchun ham bu jihatni Faxriyorning “Geometrik bahor” she’riy to‘plamiga so‘ngso‘z yozgan Nazar Eshonqul: “San’at tilsimlangan qo‘rg‘onga o‘xshaydi. Uning eshigi “sim-sim” degan kalitni topmaguncha ochilmaydi.... Mohiyat tasavvur chizig‘idan boshlanadi. Uni topish uchun “tasavvurga dosh berish” ham kerak bo‘ladi. Tasavvur–san’atning kirish eshigi”[177] ekanligi ta’kidlaydi. Bu o‘rinda she’riyatdagi yangicha obrazlilik metaforalar orqali tasvirlanayotganini ilg‘ash mumkin:

Osmon yonboshlaydi hovuz chetiga....
Cho‘milayotgan oyni
tomosha qilgisi kelar osmonning
Bahor bo‘yi qulday ishlagan chiroy
yozga yetmay qarib qoladi....
...suv tekkan oy o‘chib qolar hovuz tubida....
Yana bir navro‘zga yetgan bobolar
sevinchdan yayrab
tushlarin dalaga qo‘yib yuborar....

[176] Phoocharoensil, S. (2010). A Corpus-Based Study of English Synonyms. International Journal of Arts and Sciences, 3(10): 227 – 245

[177] Eshonqul N. Tasavvurga dosh bersang bo‘ldi. // Faxriyor. Geometrik bahor. Toshkent, 179-bet

Metafora–tushunchaning tasavvurdagi uyg‘unligidir. Tasavvurni anglamay turib, na metaforani na so‘zni yangilab bo‘ladi. Tushunchalar voqelik turgan joyda faqat ismdir. Tushning dalalarga qo‘yib yuyuorilishi zohiran mantiqsiz tuyuladi. Ammo erkinlik anglanmas ekan, yuqoridagi satrlar shunchaki so‘z, obrazlik mohiyati kasb etmaydi.

Adabiyotshunos olim Abdug‘afur Rasulov o‘zining “Badiiylik-bezavol yangilik” nomli kitobida bugungi adabiy asarlarni yangicha tahlil, ya’ni struktual tahlil tamoyillariga yondashib o‘rganishni tavsiya etadi. Shu o‘rinda olim bugungi she’riyatdagi yangicha shakl va ramziylikni tahlil qiladi: “Haqiqiy badiiy asar–mukammal, murakkab tarkib (struktura). U matn tarzida yaratiladi. Matnning pishiq-puxtaligi avvalo san’atkor iste’dodiga, aytmoqchi bo‘lgan gapining haqqoniyligiga, so‘zlarga yuklatilgan ma’noning salmog‘iga, maromning tovlanishi, tuslanishiga bog‘liq. Mukammal matn yaratish–ilmiy-ijodiy izlanish demak. San’atkor izlanmasa, o‘qimasa, o‘rganmasa, ma’lum darajada tadqiqotchi bo‘lmasa, musti mahkam matn yaratishi amri mahol”[178]. San’atkor iztiroblari uchun mukofot tarzida Olloh tomonidan beriladi. Qisqalik, lo‘ndalik– iste’dod mujdasi. Shoir bir misralik she’rni mana bunday obrazlilik yaratadi:

Anorlar dard kabi yorilar.

(Faxriyor).

Mitti bu she’rni anglash uchun avvalo insoniy dardning barcha tomonlarini his etish kerak. Dardning yorilishi–ko‘ngilning bo‘shashi, ko‘zning moshday ochilishi. Nihoyat, anorning yorilishi qip-qizil donalarining lov-lov yonishi. Muhimi, insoniy holatning boshqa predmetga ko‘chirilishidagi mahorat–badiiylik ifodasi. Faxriyor yana bir she’rida esa:

Yig‘i, seni qandoq kuldiray?

she’ridagi kechinmadoshlik o‘quvchini o‘ziga rom etadi. Odam–kimligi, qayerdanligi, dini, irqidan qat’i nazar–hamisha dardkash, g‘amdosh. Axir, inson besh kunlik dunyoga yig‘lash, dard chekish uchun kelmaydi-ku?!

So‘z aytish qobiliyati har kimga ham nasib etavermaganiday, So‘zni qabul qilish, anglab yetish iqtidori ham hammada birday emas. SHoir B.Ro‘zimuhammad bir o‘rinda so‘zni shunday ustalik bilan ishlatadiki, uning qa’rida, albatta, bir necha ma’no bo‘ladi. Shoir she’rlarining hatto zohiriy ma’nosi ham ko‘p qatlamli bo‘ladi:

Iz tushmagan qordek
quyoshgacha yoyilib ketdi tong

“Tong manzarasi” deb nomlanuvchi mazkur she’rni tabiat tasviri tarzida ham, shoir ruhiy holatining eng pok, sokin, ko‘tarinki pallasining so‘zga aylangan shakli deb ham tushunish mumkin. Va bularda she’r ma’nosining to‘la talqini bo‘la olmaydi. Kitobxon she’r o‘qiyotgandagi holatiga ko‘ra uni har safar o‘zgacha anglayveradi. Masalan, “Iz tushmagan qordek” misrasini shoir tongni bezovta qilmagan, tongga yo‘l tushmagan, deb ham, tabiat va vaqtning uyg‘un tasviri deb ham izohlash mumkin. Ta’kidlashlaricha, eng shirin va qattiq uyqu payti erta tongga to‘g‘ri kelar, shu vaqtda uyqudan uyg‘onish qiyinroq kecharkan. Shundan ko‘rinadiki, shoir tunni bedor o‘tkazgan:

qush qanoti ko‘milib qolgan -
yoqut ufqqa tutashadi harir gilam.
Gilam ustida
undan ham harirroq tuman.[179]

“Qush qanoti ko‘milib qolgan–yoqut ufqqa tutashadi harir gilam” satrlarini dastlab “erta tongda ufq endi chiqayotgan quyosh nurlaridan qirmizi tusga kiradi-yoqut ufq.

[178] Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. Toshkent, “Fan” 2006. 125-bet
[179] Ro‘zimuhammad B. SHe’rlar // “Yoshlik” jurnali, 6-son, 2001- yil, 43-bet

Maysalar bilan qoplangan va ufqqa tutashib ketgan yer-harir gilam. Quyosh nurlari tungi salqin havoni asta-sekinlik bilan qizitishi natijasida paydo bo‘lgan narsa–gilamdan-da harirroq tuman. Mana shu tuman ortida esa elas-elas oppoq parqu bulutlar ko‘zga chalinadi– qush qanotlari qo‘milib qolgan” tarzida anglash ham va “shoir ko‘nglining tasviri, qush ehtimol ruhdir, tun bo‘yi o‘zini har yoqqa urgan bezovta ruh tong chog‘i harir gilam– ko‘ngilda tin olgandir, gilam ustidagi undan-da harirroq tuman esa ilhomdir, ijodkor balki” deya qabul qilish ham mumkin.

Sovuq yulduzchalar qoldig‘i,
yulduzchada tillarang hoshiya.
To‘yib nafas ol
SHaffoflik xira tortguncha.
(Dum-dumaloq nafas
yulduz qirrasida titrar).

“Sovuq yulduzchalar qoldig‘i”dan erta tongdagi titrab turgan muzday shudring tomchilari tasvirini yoki oppoq qorga tushayotgan quyosh nurlarining jilvalari ifodasini topgan har bir o‘quvchi o‘zicha haq. “To‘yib nafas ol”– qishda nafas olganda og‘izdan chiqayotgan iliq havo tashqaridagi sovuq ta’sirida qo‘zga ko‘rinadi: “Shaffoflik xira tortguncha”. Ehtimol, shoir soflik, bokiralikdan bahra olmoqchiligini ifodalayotgandir. She’rda biror mavsumga aniq ishora yo‘qliga bois tasvirni musaffo havodan boshqalardan burun to‘yib nafas olvolishga chorlov tarzida ham tushunish mumkin. Chunki har bir odam ichiga yutgan kislorod (shaffoflik)ni karbo-nat angidrid (xira) qilib chiqaradi, havoni buzadi. Buni ezgulik qabohatga aylanmasdan oddin uni qabul qil deb tushunish ham mumkin.

Ma’lumki, badiiy ijodning birinchi quroli so‘zdir. Ijodkor o‘zi idrok etgan voqelik, olamni, kishiga aytmoqchi bo‘lgan fikrini ilgari surmoqchi bo‘lgan g‘oyasini so‘z orqali yetkazadi. so‘z va iboralarni, tashbehlarni o‘rinli qullash, ayniqsa, she’r uchun zarur va shartdir. Bu borada Aristotel shunday yozadi: “Men ko‘p qo‘llaniladigan hamma so‘zlardan boshqasini; noyob so‘zlar, metafora, cho‘zilgan va boshqa so‘zlarni g‘alati deb atayman. Lekin kimdir butun nutqni shunday asosda tuzsa, yo topishmoq, yo varvarizm kelib chiqadi. ko‘chma so‘zlar, metaforalardan tashkil topsa,– topishmoq, noyob so‘zlardan tashkil topsa, –varvarizm yuzaga keladi”[180].

Ma’lumki, moddiy borliqning aniq tasviri ta’sirchanlikni oshirish bilan birga, lirik qahramonning eng nozik tuyg‘ulari va ichki kechinmalarini ham yorqin ifodalashga xizmat qiladi. Buni bugungi kun she’riyati misolida ko‘rish mumkin.

TILSHUNOSLIKDA MA’NO KUCHAYTIRISH VOSITALARI

Ra’no DAVLATOVA,
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.f.d. F.H.Yuldashev

So‘zlar davr ma’lum davr taqazosi bilan, asrlar o‘tishi natijasida o‘zining ma’no ko‘lamini, qo‘llanish vazifasini, qamrovini o‘zgartirib boradi. Tilshunoslikda so‘z doimo shu soha vakillarining diqqat markazida bo‘lib kelgan. So‘zning matnga qarab serqirra ma’no ifodalashi, bitta tovush, ohang, tinish belgi, gaplar yoki qo‘shimchalarning turfa ma’no ifodalashini ko‘rish mumkin, ularni bir-biridan farqlashga ba’zi vositalarda, shu jumladan, kuchaytiruvchi so‘zlardan ham foydalaniladi.

[180] Aristotel. Poetika. –T.: 1980, 45-bet.

Fikrimizni so‘zlar vositasida ifodalar ekanmiz, shu fikrni yanada aniqroq va tushunarli qilishga kuchaytiruvchi vositalar, kuchaytiruvchi birliklar kerak bo‘ladi. Ijodkorlar badiiy asarlarini jozibali va ta’sirli chiqishida kuchaytiruvchi birliklarning o‘rni bo‘lakcha. O‘zbek tilida, fikr bayon qilish jarayonida, nutq ta’sirchanligini oshirish uchun turli kuchaytirish usullaridan foydalaniladi. Masalan, fonetik, leksik, grammatik, punktiatsion va nutq vaziyati kabilar. Ana shu birliklarni tahlil-u tavsif qilish mutaxassislarning tadqiq obyekti hisoblanadi.

O‘zbek tilida kuchaytiruvchi so‘zlarning fonetik vositalari ijodkorlarning sevimli usullaridan biri. Chunki har bir yozuvchi o‘zining qalb kechinmalarini qog‘ozga tushurar ekan, uni turli vositalar yordamida izohlaydi. Masalan, so‘zlar yordamida ifodala olmaydigan holatlar birgina tovush orqali ifodalanadi. Bu tilshunosligimizda fonetik-fonologik vositalar hisoblanadi. Bu holatlar unlini cho‘zish, qo‘sh undoshlarning kelishi, unlilarning qo‘shaloq kelishi kabi o‘rinlarda bo‘ladi. Masalan; Ehtimol, o‘zinikilar eshitib qolar Gulsari derazaga kallasini cho‘zib oyoq ostidagi taxtani tepib; “Qaydasizla-a-a-r?” degandik bo‘g‘iq ovozda kishnab yubordi. (Chingiz Aytmatov ‘‘Jamila’’ qissasi 161-bet)

M-m-men. Smolenskda q-qon k-kechib yurganimda s-sen qayoqda eding. S-sendaqalarni o-osish k-k-kerak! O-o-yog‘ingdan osish kerak. (O‘tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi ” 286-bet)

Fonetik vosita hisoblangan yana bir jarayon borki, u nutq vaziyatiga bog‘liq. Unda bo‘g‘inlarning cho‘zilishi, ohang, urg‘u asosiy o‘rin tutadi. Albatta, u og‘zaki yoki yozma jarayonga ham bog‘liq. Masalan:

Nechta o‘g‘li bor ?

Nechta o‘g‘li bor !

Bitta…. Qorategindan keldingmi opang omonmi? (Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” 160-bet)

So‘z ma’nosini kuchaytirishda leksik vosita hisoblangan ko‘chimlarning ta’siri, so‘z ma’nosini kuchaytirishda kontekstual sinonimlarning ahamiyati faol vositalar hisoblanadi. Zotan, yozuvchi o‘z nutqini so‘zlar yordamida aks ettiruvchi mohir “usta” hisoblanadi.

Masalan: Sintalog‘ qizi, suv, deyman! Suv! Yuragim kuyib ketdi… Yonib ketdi! Suv! Suv! (Cho‘lpon “Kecha va Kunduz ” 258-bet

Bundan tashqari o‘zbek tilida matnlar ma’nosini kuchaytiruvchi vasita sifatida morfologik vositalar ham ahamiyat kasb etadi. So‘z ma’nosini kuchaytirishda grammatik vositalarning ta’siri, sifat va ravish so‘z turkumining so‘z ma’nosini kuchaytirishdagi ahamiyati, fe’l so‘z turkumining so‘z ma’nosini kuchaytirishdagi ahamiyati keng tahlil etiladi. Fe’llar takrori davomiylik ma’nosini bildirishi gap ma’nosini kuchaytirishga xizmat qiladi. Masalan: O‘ylab-o‘ylab qo‘limdan kelgani shu bo‘ldiki, o‘limimga atalgan narsalardan bir ozroq ajratdim. (Cho‘lpon “Kecha va kunduz” 33-bet)

Ey, tavba! Ey tavba! – deb o‘z-o‘ziga so‘zlanib, otni qattiq-qattiq besh-olti qamchiladi (Cho‘lpon “Kecha va Kunduz ” 25- bet

Shirin-shirin gap o‘rniga shirin-shirin ashuladan bo‘lsin, opa. Ta’rifingizni eshitib, jigarlarimiz laxta-laxta qon bo‘lib ketgan. (Cho‘lpon “Kecha va kunduz” 24-bet)

Yusufbek hoji boshida oq do‘ppisini va egnida oq olacha to‘ni bilan ustidan belini bog‘lagan edi. O‘zbek Oyim yoniga sekin-sekin yurib keldi. (Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” 317-bet

O‘zbek tilida kuchaytiruvchi so‘zlarning sintaktik xususiyatlari ham borki, bu so‘z ma’nosini kuchaytirishda gradatsiyalar, so‘z ma’nosini kuchaytirishda ritorik so‘roq gaplar, So‘z ma’nosini kuchaytirishda emmotsional gaplar tahlili xususida fikr yuritiladi. Misollar:

Gulsinning gapiga qizlar kulishdilar. Kumush juda xafa koʻringanlikdan uning koʻnglini ochmoqqa toʻgʻri kelar edi. (Abdulla Qodiriy “Oʻtkan kunlar” 56-bet)

Anvarning ikki koʻzi jiq yoshga toʻlib, koʻkragi kuchlik-kuchlik silkindi va gavdasi oʻziga ogʻirlik qilgandek devorga borib suyandi. (Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon” asari 274-bet)

Koʻngliga ogʻir tashvishlar solgan yigitchaning shunday yonginasida juda shirin hayollar bilan birga juda qora oʻylarga botib turgan vaqtida birdaniga ayvon tomondan bir ovoz eshitildi. (Choʻlpon “Kecha va kunduz” romani 41-bet)

Albatta, ma’no kuchytirshda turkumlarning ham oʻrni boʻlakcha. Masalan, sifat soʻz turkumida belgini kuchaytiruvchi *qip-qizil, yam-yashil, dum-dumaloq, kuppa-kunduzi, toʻppa-toʻgʻri, bab-barobar , oppoq* shakllari ma’noni bir pogʻona koʻtarishga, kuchaytirishga, fikrni qat’iy ifodalashga hissa qoʻshadi. Misol; Poshshaxon oʻz kundoshining bu gaplaridagi achchiq kesatmalarni toʻppa-toʻgʻri oʻz bagʻriga borib sanchiladigan nayzalar bilib va sezib oʻtirardi. (Choʻlpon “Kecha va kunduz” romani 47-bet)

Soʻzning *-ma, ba* **yordamida birlashgan qismlari** chiziqcha bilan yozilganda ma’no kuchaytirishga hissa qoʻshadi. *koʻchama-koʻcha, uyma-uy, rang-barang, dam-badam* kabi. *Koʻcha kezdim* gapi *koʻchama-koʻcha yurdim* birikmasidan mazmun jihatdan farqlanadi. Masalan; Dushman bilan betma-bet uchrashmoq kuni belgulanganlikdan oʻzining bu kungi kutulmagan muvaffaqiyati toʻgʻrisida hech bir taajjublanmas, faqat dushanba kun kechasi bilan miyasi mashgʻul edi. (Abdulla Qodiriy “Oʻtkan kunlar” 252-bet)

Soʻz ma’nosini kuchaytirishda chi, -a (-ya), -ku, -u (-yu), -da, -e, -ey (-yey) yuklamalari chiziqcha bilan yozilishi matnda soʻz ma’nosini kuchaytiradi. Masalan,
sen-chi, boraylik-chi, sen-a, kutaman-a, bola-ya, mingta-ya, keldi-ku, kelgan-u, yaxshi-yu, yaxshi-da, qoʻy-e, yashang-e, oʻgʻlim-ey, keldi-yey birikmalar sen, boraylik, kutaman, yashang va boshqa birliklardan emmotsionalsizligi bilan farqlanadi. Yoki *-mi, -oq (-yoq), -ov (-yov), -gina (-kina,-qina)* yuklamalari oʻzidan oldin kelgan soʻzga qoʻshib yozilganda ma’no kuchayadi. Masalan, *keliboq, oʻziyoq, koʻrganov, koʻrdiyov, mengina, qoʻshiqqina* . Masalan;

Miryoqub kursini yaqinroq jildirdi, chiroyli bir chinayoqqa (chashka, likobchali krujka) samovardan quyuqqina choy qoʻygach, chinayoq likobchasiga ikkita konfet olib qoʻydi. (Choʻlpon “Kecha va kunduz” romani 138-bet)

Tilimizning har bir vositasining oʻz oʻrni va vazifasi bor. Shu vazifalardan toʻgʻri foydalanish tilning ichki imkoniyatlarini ochib beradi.

O‘ZBEK LINGVOKULTUROLOGIYASIGA XOS O‘XSHATISHLAR VA ULARNING TARJIMASI HAQIDA
(Badiiy asarlar misolida)

G‘aybulloyeva Umida AHMATOVNA,
Navoiy davlat pedagogika instituti, magistrant

Annotatsiya: Har bir millat oʻzida ma’lum bir milliy ananalarni aks ettiradi.Ya’ni har bir xalqning,millatning oʻz milliy ananalari,urf-odatlari mavjud.Har bir inson,ana shu milliylikni oʻzida aks ettiruvchi muayyan bir til,adabiyot,tarixga aloqador boʻladi.Til ijtimoiy hodisa boʻlishi bilan birgalikda madaniyat bilan ham uzviy bogʻliq.Bugungi kunda insonlar,xalqlar oʻrtasidagi madaniy aloqalar,madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida yangi bir yoʻnalish-lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab boʻldi va

natijada til va madaniyat muammosini o‘rganuvchi soha lingvokulturologiya jadal rivojlandi.

Erkin Vohidov va O‘tkir Hoshimovning ko‘pgina asarlarida ham o‘zbek milliy madaniyati teran aks ettirilgan. Mazkur maqolada milliy-madaniy semaga ega bo‘lgan o‘xshatishlarning semantik xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Har bir tilning milliy-madaniy semaga ega bo‘lgan o‘xshatishlari mavjud. Tarjimada esa bunday o‘xshatishlar maxsus yondashishni talab etadi. Ularni o‘rganish, qiyoslab tahlil qilish talabadan mustaqil izlanishni talab etadi.

Kalit so‘zlar: chet til, madaniyat, lingvokulturologiya, o‘xshatishlar, semantik xususiyati, mustaqil izlanish.

Hozirgi kunda yurtimizda chet tilini o‘zlashtirishga juda katta e’tibor qaratilmoda.O‘zbek tilshunosligi sohasida ham chet tilini bilish muhim ahamiyat kasb etmoqda.Til bilish, dunyo tillari imkoniyatlarini tadqiq etish ,ularni o‘zbek tili va boshqa tillar bilan qiyosiy o‘rganish tilshunoslik sohalarining rivojlanishiga,tillarning imkoniyatini yanada kengroq o‘rganishga imkon beradi.

Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o‘ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o‘rganish lingvokulturologiyaning asosiy maqsadidir. Mazkur sohaning obyektibtil va madaniyat,predmeti esa o‘zida madaniy semantikani namoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi.O‘zbek lingvokulturologiyasida mavjud bo‘lgan o‘xshatishlar ham xalqning lingvomadaniy boyligi bo‘lib, ular millat vakillarining dunyoqarashi, dunyodagi hodisalarni milliy tasavvurlarga ko‘ra taqqoslash, qiyoslash natijasida shakllangan.

O‘xshatishlar ikki xil bo‘ladi:

a) erkin o‘xshatishlar;

b) turg‘un o‘xshatishlar.

Turg‘un o‘xshatishlar, asosan, lingvokulturologiyaning obyekti bo‘ladi.

Har bir xalqning lingvomadaniy boyligi bo‘lgan o‘xshatishlar bor. Bunday o‘xshatishlar dunyoqarash, dunyodagi predmet, hodisa va harakatlarni milliy tasavvurlarga ko‘ra taqqoslash, qiyoslashdir.[1. 102-b.] Quyida tahlil qilinayotgan Erkin Vohidov asarlarida qo‘llangan lingvokulturologiyaning obyekti bo‘lgan o‘xshatishlar semantikasiga e’tiboringizni qaratmoqchimiz. Mazkur o‘xshatishlarni tarjima jarayonida ma’no xususiyatlariga e’tibor berish lozim. Aks holda (tarjimada) ma’noga putur yetadi. Chunki bunday so‘zlar o‘xshatish vositasi bo‘lgan –dek/-day affikslarisiz boshqa ma’nolarni anglatadi, o‘xshatish vositasi bilan esa boshqa ma’nolarni anglatadi. Masalan:

O‘rab uni naq yurakdek
Ona Hindistonini
Zobitlar oq o‘rgimchakdek
So‘raradilar qonini.

Yurak-*Odam va hayvonlar ko‘krak qafasi ichida joylashgan,ularning qon aylanish sistemasidagi muskul qopchiqqa o‘xshash markaziy a’zo. -[O‘TIL]*

Bu misolda esa ”yurak”so‘zi ko‘chma ma’noda qo‘llangan.Mustamlakachilar Hindistonning yuragini o‘ziniki qilib bo‘lganligiga urg‘u berilgan.Chunki til,ma’naviyat millatning yuragidir.

O‘rgimchak-O‘ziga ovqat bo‘ladigan hasharotlarni tutish uchun to‘r to‘qiydigan bo‘g‘imoyoqli yirtqich hasharot. *-[O‘TIL].* Keltirilgan parchada esa,shoir Nazrul Islomning erk,ozodlik harakatlarini barbod qilgan zobitlar oq o‘rgimchakka o‘xshatilgan.Yozuvchi Nazrul Islomni ayanchli ahvolga solgan mustamlakachilarni bu hasharotga qiyoslash orqali yanayam ta’sirli bayt yarata olgan.

Qaldirg‘och bolasidek–”*asosan odamlarning yonma-yon yoki ketma-ket joylashib, saf hosil qilishi*” [5.228-b] ma’nosida qo‘llanadi... Qaldirg‘och bolasi himoyaga muhtoj. Ular hali yashash uchun mustaqil harakat qila olmyadi. Ular ona qaldirg‘ochning himoyasiga, ko‘magiga muhtoj. Ana shu holatga nisbiy qiyos asosidagi o‘xshatishda emotsionallik kuchli: ”*... qaldirg‘och bolasidek ko‘rpadan bosh chiqarib yotgan besh bolang bir-biri bilan inoq bo‘lishini shunchalik xohlaganmiding!”* Hikoyadan keltirilgan bu parchada ona tajribasiz bolalarining kelajagini oylaydi, hayot sinovlari, tashvishlari oldida bir-biri bilan inoq bo‘lib, hamdard, hamnafas bo‘lishini istaydi. Qaldirg‘och-kichkina qush. Asosan, odamlarning uylarida, peshayvon, darvoza oldidagi shiftlarda in qo‘yadi. O‘zbek xalqida ”Qaldirg‘och in qo‘ygan uyda tinchlik bo‘ladi”, ”Qaysi uyda qaldirg‘och in qo‘ygan bo‘lsa, bu– yaxshilik alomati” kabi qarashlar mavjud. Shuning uchun o‘zbek lingvomadanoyatida bu qush yangilik, ijobiylik ramzi, etaloni sifatida ishlatiladi.

-O‘v, Rahimtoy!-Oqsoqol ***rapidadek*** *qo‘lini paxsa qildi.-Berdisini aytguncha urib o‘ldirma-da, odamni!*[5.152-b.] **Rapida** “Tandirga non yopish uchun ishlatiladigan, matodan tikilgan, to‘garak shakldagi qalin qo‘lqop” qo‘lga kiyib non yopiladi. Qo‘lning o‘zini rapida kiyilgan qo‘lga o‘xshatilib “keng yumaloq, katta o‘xshovsiz” qo‘l, kaft ma’nosini ifodalamoqda.

Yuksaklikda sening qadring
Himolay monanad. [3.16-b]

Himolay-sanskritcha,himalaya-qorlar makoni.Yer sharidagi eng baland tog‘ sistemasi hisoblanadi.Mazkur parcha Erkin Vohidovning ”Ruhlar isyoni”dostonining ”Inson qo‘shig‘i”bobidan keltirlgan bo‘lib, insonning qadrini ,yuksakligini Himolay tog‘iga o‘xshatgan.

Ko‘r ko‘zlarga mehrigiyodek nur baxsh etdi nashtarim [3.36-b]

Mehrigiyo-qadimdan turli kasalliklar shifo bo‘luvchi noyob o‘simlik sifatida talqin qilinadi.Keltirilgan misolda tabib ko‘zi ojiz odamning ko‘zlarini davolagan tabib tilidan kamtarona o‘xshatish keltiriladi.U so‘qir odamning ko‘zlariga nur bergan qo‘llarini emas,balki o‘z nashtarini mehrigiyoga oxshatadi.

Majruh qushdek
To‘lg‘andi goh
Goh bo‘tadek bo‘zladi. [3.52-b]

Qush-Umurtqalilarning tanasi par va patlar bilan qoplangan,uchishga layoqatli sinf vakili,parranda. *-[O‘TIL]*

Bo‘ta-Tuyaning bir yoshgacha bo‘lgan bolasi. *-[O‘TIL]*Parchada qush va bo‘ta so‘zlaridan ojiz,kuchsiz qolgan insonni ta’riflash uchun foydalanilagan.Shohi Jahonning Yori Mumtoz Mahaldan ayriliq holatlari,yorining o‘limidan keyingi iztiroblari keltiriladi.Shohning nola qilib,zor-zor yig‘lagani esa bo‘taloqning bo‘zlaganiga o‘xshatilgan.

Insonning dunyoni bilishida o‘xshatish-qiyoslashdan foydalanishi katta ahamiyatga ega. Ayniqsa turg‘un o‘xshatishlar tilda tayyor birliklar kabi nutqqa olib kiritiladi. Har bir lingvomadaniyatda shu xalqning mentalitetini, uning o‘ziga xos milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi turg‘un o‘xshatishlar mavjud bo‘ladi. Chet tillarni o‘rganishda o‘sha chet tilda so‘zlashuvchi xalq(lar) lingvomadaniyatiga xos o‘xshatishlarning semantik xususiyatlarini o‘rganish samarali natija beradi. Bu kabi tahlillar tarjima ham jarayonida albatta zarur bo‘ladi. Talabalar, til o‘rganuvchilar turli tillar lingvomadaniyatiga xos birliklarni o‘rganish uchun badiiy asarlarning lingvikuturologik jihatlarini mustaqil o‘rganib izshlari lozim bo‘ladi. V.Maslova o‘xshatishlarning antroposentrik jihatlariga alohida e’tibor berib shunday deb yozgan edi: “O‘xshatilayotgan obyektlarning bir-biridan uzoq

bo‘lgan turli doiralarga mansub ekanligi o‘zida bir-birini taqazo etuvchi qo‘shimcha assotsiatsiyalarning butun boshli zanjirini namoyon etadi, ular axborotning to‘laqonli bo‘lishini ta’minlashi bilan birga ta’sirchanlikni ham kuchaytiradi; o‘zaro o‘xshatilayotgan obyektlar voqelikda bir-biridan qancha uzoq bo‘lsa, ulardagi ta’sirchanlik shuncha yorqinlasha boradi. O‘xshatishlarning evristik vazifasi yana shunda ko‘rinadiki, ular dunyo realiyalarini chuqurroq va kengroq bilib olishga, ularning turli va ko‘pincha kutilmagan qirralarini anglab olishga imkon beradi”.

Umuman, o‘xshatishlar lingvokulturologiyaga oid adabiyotlarda metafora, metonimiya, maqol va iboralar kabi tilning lingvomadaniy boyligi sifatida e’tirof etiladi[8]. Bu kabi madaniy birliklar ba’zida biror etnosga xos mentallikni, shuningdek, real voqelikni lison vositasida ifodalash darajasini ko‘rsatuvchi dalilhamdir. Ular o‘zida xalqning ijtimoiy-ma’naviy jihatdan rivojlanishini ham ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya.T.: 2019.102-b.
2. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. T.:2013.
3. E.Vohidov Ruhlar isyoni.Toshkent 2011.
4. O‘tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. T. “Meriyus”. 2011.
5. O‘tkir Hoshimov .Tushda kechgan umrlar.Toshkent.2011.
6. www.ziyouz.com kutubxonasi.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik.1-,2-,3-,4-,5-jildlari.O‘zME n-ti.:T.:2006-2008.
8 .Маслова В.А. Человек в зеркале сравнения .

O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA MA’NAVIYAT MAVZUSINING AKS ETTIRILISHI

Dilshoda RASULOVA,
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.f.d. F.H.Yuldashev

O‘zbek xalq maqollari – O‘zbek xalqining milliy an`analari, qadriyatlari, urf-odatlariga asoslangan xalq og‘zaki ijodining O‘zak namunalaridan biri hisoblanadi. O‘zbek xalq maqollarida ma’naviyat mavzusi ham alohida aks etgan masalalardan biri hisoblanib, bevosita ma’naviyatga aloqador holda shakllangan maqollar kishilik jamiyati taraqqiyotida muhim rol o‘ynashi bilan ahamiyatlidir. Xususan, O‘zbek xalq maqollarini bir guruh deb oladigan bo‘lsak, undagi har bir bob ma’lum ma’naviyat masalalariga bag‘ishlanganligi bilan yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ma’naviyat semasining O‘zbek xalq maqollari orqali o‘z ifodasini topishi xalq og‘zaki ijodining naqadar ulkan xazina ekanligidan dalolat beradi.

Misoluchun, Vatan va vatanparvarlik g‘oyalari aks etgan maqollarga nazar tashlasak, ulardagi asosiy g‘oya Vatan himoyasi, uni dushmanlardan asrash, Vatanni onadek e`zozlash, har bir qarish tuprog‘iga bo‘lgan hurmat ekanligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Vatandan ayro yashash naqadar ayanchli voqelik ekanligi, begona tuproq insonni sog‘inchga ko‘milib yashashga majbur qilishi , o‘zga yurtdagi xonlikdan ko‘ra o‘z yurtidagi gadolik ming bora ustuvor ekanligi aks etgan ma’naviyat semasi O‘zbek xalq maqollarining muhim talqiniy ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Shu o‘rinda Vatan va vatanparvarlik g‘oyalari aks etgan maqollarni ma’naviyat sememasining aks etishiga ko‘ra uch semaga ajratish o‘rinli:

A) Vatandan ayro yashashning naqadar ayanchli ekanligi asosida shakllangan semaga ega maqollar;

B) Vatan qadrini aks ettiruvchi semaga ega maqollar;

C) *Vatan himoyasi mazmunini ifoda etuvchi xalq maqollari*.

Birinchi guruhdagi semaga ega bo‘lgan maqollarda ona Vatandan ayro yashashlik insonni ne azob-uqubatlarga duchor etishi haqidagi sema aks etgan, ushbu turdagi maqollarga quyidagilarni misol sifatida keltirishimiz mumkin bo‘ladi:

Ayrilmagin elingdan,
Quvvat ketar belingdan.
Begona tuproq – devona tuproq.
Birovning yurtida bek bo‘lguncha,
O‘zingning yurtingda it bo‘l.
Vatan gadosi – kafan gadosi.
Vatandan yiroqlashgan – nomusdan o‘lar.
Yoridan ayrilgan yeti yil yig‘lar,
Yurtidan ayrilgan o‘lguncha yig‘lar[181]vahokazo.

Yuqorida qayd etilgan maqollarda dominant so‘zlar sifatida “ayrilmoq”, “begona”, “yiroqlashmoq”, “yig‘lamoq” leksemalari ishtirok etgan bo‘lib, ulardan asosiylari fe`l so‘z turkumiga taalluqli ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Ikkinchi semaga , ya’ni Vatan qadrini , unga bo‘lgan muhabbat mazmunini ifodalovchi maqollarda ham asosiy jihat uning qadriga yetish kabi masalalarga qaratilganligi bilan yaqqol ko‘zga tashlanadi:

Vatan qadrini bilmagan o‘z qadrini bilmas.
Ona yerning tuprog‘i – ona sutidan aziz.
Ona yurting – oltin beshiging.
Tovushqonga tug‘ilgan tepasi aziz[182].

Vatan himoyasiga urinish, uni asrab-avaylash masalalari ma’naviyat semasi aks etgan maqollarning uchinchi turiga kirishi bilan ahamiyatlidir:

Vatanni sotgan er bo‘lmas.
El g‘amini bilgan elda doston.
Elga xizmat – oily himmat.
Yurtni dedim – yuzga kirdim[183].

Demak, Vatan va vatanparvarlik g‘oyalari aks etgan maqollarda ma’naviyat semasi o‘z ichida qator semaviy guruhlarga ajratilar ekan.

Yoki bo‘lmasa, O‘zbek xalq maqollaridan o‘rin olgan mehnatsevarlik hamda ishyoqmaslik sememalari namoyon bo‘lgan maqollarda mehnat qilish insonning ko‘rki ekanligi, el-yurt orasida kishi o‘z mehnati ila aziz bo‘lishi , mehnat qilmay erishilgan har bir narsa qadrsiz ekanligi, bekorchilik ko‘plab uqubatlarga sabab bo‘lishi semalari mazmunan aks etgan. Ta’kidlash lozimki, O‘zbek xalq maqollarida o‘z ifodasini topgan mehnatsevarlik semasi ma’naviyat masalalaridan biri hisoblanib, bugungi kunda ham ushbu sohada olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy tashviqotlarda ham ushbu masalaga alohida urg‘u berilmoqda. Mehnatsevarlik ma’naviy mavzusi namoyon bo‘lgan xalq maqollarini semaviy jihatdan quyidagi tarkibiy guruhlarga ajratish o‘rinlidir, ya’ni:

A) Mehnatsevarlik g‘oyalari aks etgan maqollar – ushbu mavzu ilgari surilgan xalq maqollarida mehnat qilishning ulug‘vor sharaf ekanligi, har bir inson o‘z mehnati tufayli elda azizligi haqidagi g‘oyalar o‘z ifodasini topadi:

Mehnat baxt keltirar.

[181]O‘zbek xalq maqollari. –T., 1981.
[182]O‘zbek xalq maqollari. –T., 1981.
[183]O‘zbek xalq maqollari. –T., 1981.

Mehnat bilan yer ko‘karar,
Duo bilan - el.
Mehnat yerda qolmas,
Oltin yo‘lda.
Mehnat kishini boqar,
Yalqovlik o‘tga yoqar[184].

B) Ishyoqmaslik, dangasalik qoralanganmaqollar – bunday turdagi maqollarda mehnatdan qochish, dangasalik kabi illatlar qoralanadi:
Dangasaning saratonda qo‘li sovqatar.
Ishi yo‘q it sug‘orar.
Ishyoqmasning so‘zi yoqmas.
Ishyoqmas it ga ham yoqmas[185].

Mavzuviy jihatdan qarama-qarshi semalarni ifodalovchi ushbu mehnatsevarlik mazmuni aks etgan xalq maqollari ma’naviyat sememasining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

“POKLIK” LEKSEMASINING SEMANTIK XUSUSIYATI

Dilobar AZIMOVA,
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.f.d. F.H.Yuldashev

Ijtimoiy hayotda madaniy va ma’naviy olamning shakllanishi takomillashib borayotgan bir davrda “ma’naviyat” leksimasining ahamiyati ortib bormoqda. Bu borada turli xil qarashlar, yangicha yondashuvlar shakllandi. Zero, XIX asrda V.Fon Gumboldt o‘zining “Tilning tuzilishi va insoniyat ma’naviy rivojiga ta’siri” kitobi bilan tilshunoslik sohasiga o‘z hissasini qo‘shgan bo‘lib, til va millat xususiyatlarining munosabatlari haqida qayd etgan edi. Ayniqsa, uning “tilning o‘ziga xos xususiyatlari millatning o‘zligiga ta’sir qiladi, shuning uchun tilni chuqur o‘rganish tarix va falsafani insonning ichki dunyosi bilan bog‘lab tushuntiradigan barcha narsani qamrab olishi kerak” kabi fikrlari keng tarqalgan. [Gumboldt 1985:370]. Shu tariqa, olim tilning turli shakllarida turlicha hissiyot va tafakkur uslublarini ko‘radi. Demak, tilda madaniy va ma’naviy o‘ziga xoslik aks etib turadi, degan xulosaga keladi. Ma’lumki, o‘zbek tilshunosligida bunday tadqiqotlar zamon va ilm-fan talabi bilan ommalashib bormoqda. Tilning lug‘at tarkibini leksik-semantik guruhlarga ajratib tahlil qilishga, maydonlar ko‘lami va qamrovi, maydon ichidagi elementlarning o‘zaro munosabatini aniqlashga bag‘ishlangan qator tadqiqotlar amalga oshirildi.

“Ma’naviyat” leksik semantik maydon sifatida o‘z markazida “komillik” mujassam etadi, bundan kelib chiqadiki ushbu paradigma o‘z tarkibiga komil insonni shakllantiruvchi tushuncha va yo‘nalishlarni qamrab olmog‘i lozim. Har bir so‘z va gapda so‘zlovchining ruhiy-ma’naviy kayfiyati, orzu-istaklari insonga, hayotga, tabiat hodisalariga munosabati ham dunyoqarashi va madaniy saviyasi ham aks-sado berib turadi[186]. Bunday belgilar so‘zlar vositasida yuzaga chiqadi. Ushbu so‘zlar maydon, leksik-semantik kategoriya sifatida o‘rganilsa, tizimli shakllanadi. Ularning ma’noviy munosabati sayqallashadi. Ushbu leksik-semantik kategoriyalardan biri “ma’naviyat” maydoniga oid bo‘lgan ma’noviy guruhlar bugungi kunda katta ahamiyatga egadir.

[184]O‘zbek xalq maqollari. –T., 1981.
[185]O‘zbek xalq maqollari. –T., 1981.
[186] A.Rustamov so‘z xususida so‘z-T:. “Yosh gvardiya” 1987.B.16-17

“Ma’naviyat” leksik-semantik maydoni keng qamrovli bo‘lib, undagi “poklik” konsepti alohida paradigmani tashkil qiladi. Bu tushunchaning lug‘atlardagi ta’riflariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, xususan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da poklik – sof vijdonlilik, halollik, soflik, to‘g‘rilik kabi so‘zlar bilan ta’riflanadi[187].

Mana uning men yaxshi ko‘rgan jilmayishi! Ko‘nglining pokligi, ishonch, mehr-hammasi shu jilmayishda.(A.Muxtor,”Davr mening taqdirimda”.)

Nahotki shunday pokdomon odamning xonodoni egri ko‘chaga kirishga majbur bo‘lsa! Pora bersa! (Shuhrat “Umr pog‘onalari”)

Kamunikativ vaziyatda “pokiza”, “pokdomon”, “pokdil”, “pok-pokiza” kabi leksimalardan semantik xususiyatiga ko‘ra farq qiladi. Ushbu birliklarning barchasida “pok” so‘zi o‘z ma’nosini bosh planda nomoyon etadi. “Pok” leksemasi “toza”, “pokiza”, “iffatli”, “uyatchan” kabi so‘zlar bilan izohlanib, “top-toza”; “gard-g‘ubor”, “chang” kabilardan xoli deb ta’rif berilgan.

Shunqor ko‘kragingiz istehkomdan zo‘r,

Chunki pok havoda olmishdir nafas.(G‘. G‘ulom)

-“Pok” leksemasi ko‘chma ma’noda ham qo‘llanib, “nomiga gard yuqmagan”, “halol”, “to‘g‘ri” so‘zlarini anglatadi. Aynan shu ma’nosi bilan “ma’naviyat” umumiy semali atov birliklar tizimiga taalluqli bo‘ladi.

Normurod otaning vijdoni pok, u o‘z vijdoniga xilof ish qilgani yo‘q. (O. Yoqubov,”Diyonat”)

O‘zining gard qo‘nmagan, nurdan pok tuyg‘ularini kimga ishonib tipshirayotganini u bilmasa, Yodgorga ayon-ku! (O‘. Hoshimov) Mana shu o‘rinlarda “pok” semasi ko‘chma ma’noda qo‘llanilib kamunikativ vaziyatda shaxslar o‘rtasidagi sof va samimiy tuyg‘ularga ishora qilingan.

– O‘n minutdan keyin yigit xotinining har qanday shubhadan pok ekaniga ishondi. (A. Qahhor. Tanlangan asarlar) Aynan keltirilgan jumlada “pok” leksimasi “xoli” semasini ifodalagan.

“Pokdil” leksimasi esa xalqimiz mentalititiga xos bo‘lib – ko‘nglida kiri yo‘q, vijdonli, dili pok, sofdil va samimiy shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi.

Me’mor salomatlar, – dedi teshkobchi kulolga jilmayib , – siz mendan ko‘p narsalarni so‘rayapsiz, kulol. Endi hech narsa so‘ramang, bilmayman! Sizni pokdil odam deb bilaman…xayr, men ketdim. (Mirmuhsin. “Me’mor”)

“Poklik” semasi keng semantik maydonda tahlil qilinib,o‘rin-joyga, shaxs va narsalarga nisbatan ishlatilsa , lug‘atimizda mavjud bo‘lgan “pokdomon’ leksimasi, asosan, iffatli, nomusli, halol, or-nomusini saqlagan shaxslarga xos bo‘lgan xususiyatni o‘zida aks ettiradi.

Nahot endi hammasiga sen javob bersang,

Axir o‘zing pokdomonim, shuning o‘zi bas. (A. Oripov. “Yillar armoni”)

“Pokiza” leksimasi tilimizdagi ma’naviy tushunchalarni o‘zida jamlagan birliklarimizdan hisoblanadi. O‘z va ko‘chma ma’noda qo‘llanib, ma’no nozikliklarini nomoyon qiladi :

– Odam degan pokiza yurishi kerak. Toza yurgan odamning tabiati ravshan bo‘ladi. (Said Ahmad. “Sud”) Keltirilgan jumlada “pokiza” so‘zi o‘z ma’noda ya’ni toza, ozoda so‘zlarini ifodalamoqda.

Ko‘chma ma’noda esa “halol”, “to‘g‘ri”, “sof” so‘zlari bilan o‘z semantik qatorini tashkil qiladi.

[187] O‘zbek tilining izohli lug‘ati .uchinchi jild.-T:”Davlat ilmiy nashriyoti” 2007. B.290-292Lug`at

– Pokiza koʻngli bilan, baʼzan oʻta qattiq qahri, baʼzida juda yumshoq mehri bilan bogʻlab olgan. (S. Zunnunova “Olov”.)

Shuningdek xalqimizda ajdodlarimizdan meros boʻlib kelayotgan “vijdoningni pok tut” kabi birliklar zamirida ham maʼnaviy qarashlarimizga xos boʻlgan umumiylik mavjuddir. Hozirda ham koʻpchilik nazarida “poklik” leksemasi tibbiy goʻyo shaxsiy ozodalik ishi hisoblanadi. Bu jumladagi poklikdan maqsad *riyo, kibr, hasad* kabi maʼnaviy hamda barcha moddiy nopokliklardan saqlanishdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”dagi “maʼnaviyat” umumiy semali atov birliklarga oid leksemalarning umumiy va xususiy maʼnolari mavjud boʻlib, matnda turli maʼno jilolari aks etadi.

ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA SO‘Z VA UNING IFODA TARZI

Bekzod G‘ANIEV,
Navoiy davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

Maʼlumki, badiiy ijodning birinchi quroli soʻzdir. Ijodkor oʻzi idrok etgan voqelik, olamni, kishiga aytmoqchi boʻlgan fikrini ilgari surmoqchi boʻlgan gʻoyasini soʻz orqali yetkazadi. soʻz va iboralarni, tashbehlarni oʻrinli qoʻllash, ayniqsa, she’r uchun zarur va shartdir. Bu borada Aristotel shunday yozadi: «Men koʻp qoʻllaniladigan hamma soʻzlardan boshqasini; noyob soʻzlar, metafora, choʻzilgan va boshqa soʻzlarni gʻalati deb atayman. Lekin kimdir butun nutqni shunday asosda tuzsa, yo topishmoq, yo varvarizm kelib chiqadi. koʻchma soʻzlar, metaforalardan tashkil topsa, - topishmoq, noyob soʻzlardan tashkil topsa, - varvarizm yuzaga keladi»[2]

Xalqning oʻzligi, maʼnaviy dunyosi, intellektual salohiyati tili va badiiy adabiyotida adabiyotda oʻz ifodasini topadi. U tabiat, jamiyat va inson psixologiyasini ifodalovchi, odamlarning maʼnaviy dunyosiga, jamiyatning madaniy-maʼrifiy saviyasiga taʼsir koʻrsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Bu esa har bir davrning ijtimoiy-siyosiy, maʼnaviy- axloqiy muammolarini koʻtarib chiqishi va ularga javob izlashiga koʻra tarbiyaviy ahamiyatga ega. Uning ijtimoiy-maʼrifiy xususiyati, ayniqsa, xalqning milliy ruhini ifodalab berishda koʻrinadi. Tabiiyki, bu jarayonda xalqona poetik tafakkur tarzi ijodkorning adabiy shaxsiyati darajasini namoyon qiladi.

Chinakam isteʼdod egasi, xalq dilining ulkan tarjimoni Abdulla Oripov ijodida xalqona poetik tafakkur tarzi yetakchilik qiladi. Zero, shoir millionlar dardini oʻz qalb prizmasidan oʻtkazib kuyladi. Akademik M.Qoʻshjonov taʼkidlaganidek, “...maʼlum bir davrda million-millionlarning dard va alamini va koʻngil rozini izhor qilish vazifasini biror shaxs zimmasiga yuklaydi. Yirik she’riyat sultoni shu tariqa maydonga chiqadi”.[188]

Shoirni adabiy muhit va ona zamin voyaga yetkazadi. Olmon faylasufi Hegel xalqni “hosildor zamin” deb atab, “shunday zamin borligi uchun ham yorqin individlar yuzaga chiqadi”,[189] deya izoh bergan edi. Shu maʼnoda, har bir betakror isteʼdod oʻzi mansub boʻlgan xalqning maʼnaviy madaniyat mulki hisoblanadi. Uning millat orzu-istaklarini, dard-alamlarini, sururli onlarini badiiy shaklda bayon etib turishi ham shundan. Abdulla Oripov chinakam xalqning ehtiromi va eʼtirofiga sazovor boʻlgan shoirdir. Uning xalq ardogʻiga, el-yurt hurmatiga sazovor boʻlishining oʻziyoq ijodkorning she’r va dostonlari

[2] Aristotel. Poetika. –T.: 1980, 45-bet.
[188] Qoʻshjonov M. Abdulla Oripov. Toshkent, 2004. 135-bet
[189] Hegel. Falsafa . Toshkent, 2001. 258-bet

xalq ruhi va qalbining ifodasiga aylanganidan darak beradi. Abdulla Oripov butun hayoti davomida “o‘z xalqi bilan hamdardu hamnafas bo‘lib” yashab, ijod qilgan shoirdir.

Abdulla Oripovning poetik tafakkur tarzini adabiy-nazariy jihatdan tadqiq qilish iste’dodli, chinakam san’at ahlining xalq qalbiga quloq tutishi, o‘z “men” ligida xalq dard-alamlarini, shodlik-sururlarini jamlay olishi, “xalqim” deganda bevosita “men”lik ruhida sobit turishi yuksak saviyadagi badiiyat namunalarini yaratish uchun zamin hozirlaydi.

Shoir she’rlari tilining soddaligi, aniqligi va tiniqligi bilan ajralib turadi. Ularda milliy iboralar, qochiriq – kinoyalar, tabiiy obrazlar va hazillar ko‘p qo‘llaniladi. Xalq tili bilan badiiy til uyg‘unlashib, tiniq va ixcham poetik ifodalar tusini oladi.

Badiiy asarlarda qahramonlar nutqi shevadagi so‘zlar asosida individuallashtirilsa, ishonchlilik quvvati oshadi. Agar she’riy misralar tarkibida o‘rinli qo‘llansa, tabiiyki, she’r xalq qalbidan o‘rin oladi. Buning yorqin misolini Abdulla Oripov ijodida ham ko‘rishimiz mumkin. Shoir “Yuzma-yuz” she’rida o‘z xalqini ta’riflar ekan, uning zahmatkashligini aytib “Elda tinim bordir, unda yo‘q tinim” degan g‘oyatda xalqona o‘xshatishni ishlatadi. Keyingi satrida: “Shunday ishparastdir u munisginam”,–deya xalqiga bo‘lgan mehrini ifodalaydi. Ishchanligini, mehnatkashligini “ishparast” degan yangi bir o‘zi ijodkor sifatida yasagan so‘z bilan bayon etadi. She’rning davomida “millionlab egatlarga sochilgan o‘zbek”ning holiga qarab: “Rangpar singilginam, o‘ylayman seni”, deb yozadi. Boshqa bir o‘rinda: “Akaning singilga achinganiday” degan bag‘oyat xalqona ta’birni qo‘llaydi. “Munisginam”, “singilginam”, “ishparast”, “rangpar” kabi poetik so‘zlar, o‘ziga xos tashbehlar shoir she’riyatining yuksak til badiiyatini ko‘rsatadigan omillar sanaladi.

Shoir qalbining aks-sadosi sifatida yangraydigan, tug‘ilgan yurtga muhabbat nafasi ufurib turgan “Qarshi qo‘shig‘i”da ham nihoyatda topib aytilgan, xalqning aynan o‘zidan olingan poetik so‘zlarni uchratamiz: “Mana bukun, ey yurtim, g‘oz turibman qarshingda”, “Bu yerlarning bori shu: qip- qizil sahro bari”, “Oyoqlangan qo‘ziday dovdirar yelda maysa”, “Bosh ustingda o‘t purkar samoning ajdahosi, Asta sekin kun qaytar, bosilar qaynoq to‘zon” kabi misralardagi “g‘oz turibman” (mag‘rurlik ma’nosi kuchli), “qip-qizil sahro” (o‘ta yalang‘och ma’nosi kuchli), “oyoqlangan qo‘ziday” (xalqona o‘xshatish tasvir realligini kuchaytirgan), “o‘t purkar” (o‘ta qizdirish ma’nosi kuchli), “kun qaytar” (vaqt o‘tishini, quyoshning yotog‘i tomon og‘a boshlashini xalq shu ibora bilan ifoda etadi) kabi o‘xshatish va so‘z birikmalarida xalq tili va dilining tafti sezilib turibdi. She’rning badiiy qiymatini oshirishga bunday ta’birlarning ijobiy ta’sir ko‘rsatishi tabiiydir.

Ma’lumki, mustabid tuzum millatni dinidan, tilidan, milliy ma’naviyatidan mahrum qilganligi hammaga ayon. Shoir ana shunday mash’um yillarda el va til taqdiriga befarq qarab turolmadi va jasorat bilan o‘zining “Ona tilimga” nomli she’rini yaratdi. She’r shoir boshiga juda ko‘plab malomatlar keltirgan bo‘lsa-da, bu milliy isyon shoir yuragida yana ham alangalandi:

Ona tilim, sen borsan, shaksiz
Bulbul kuyin she’rga solaman.
Sen yo‘qolgan kuning, shubhasiz,
Men ham to‘ti bo‘lib qolaman...[190]

“***Ona tili***” “***bulbul kuyi***”ga “tanosub” qilingan bo‘lsa, ***to‘ti bulbul*** va ***ona tili*** birliklariga zidlanib, tazod san’ati ko‘rinishi sifatida yuzaga chiqqan. Umuman, bulbul kuyi va ona tili ohangi shoir nazdida bir- birini qoplovchi va to‘ldiruvchi tushunchalardir. Tahlil jarayonida badiiy til jozibasi, jonli xalq tilining butun go‘zalligini namoyon etuvchi

[190] Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. To‘rt jildlik. Birinchi jild. G’afyp G’ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti.- Toshkent, 2000. 58-bet

fazilatlar shoirning xalqona badiiy tafakkurini belgilovchi asosiy mezonlar sifatida qayd etiladi.

Ma’lumki, hikmatli iboralarda o‘xshatish (istiora, tashbeh,metafora), taqqoslash (antiteza), parallelizm, kinoya, piching va boshqa badiiy tasvir vositalari keng qo‘llanadi. Abdulla Oripov she’riyatida bu kabi tasvir vositalari ko‘p. Masalan, shoirning aksar she’rlarida, to‘rtliklarida irsoli masal san’ati qo‘llanganini, muayyan bir fikr isboti yoki his-tuyg‘u ifodasi uchun xalq maqoli, matallarini o‘z o‘rnida ishlatganini kuzatish mumkin. “Yaxshilik va yomonlik” she’rida shoir yozadi:

El aro yuradi bir naql,
Xalq uni takrorlab aytadi.
Kimsaga yomonlik qilmagil,
Bir kuni o‘zingga qaytadi.

She’rning oxirgi bandida shoir it obraziga murojaat qiladi. Aslida, xalq orasida it bilan bog‘liq juda ko‘p naqllar bor. Bu o‘rinda shoir kimga yaxshilik qilishni ham bilgan ma’qul, demoqchi. Chunki xalq orasida “It itligini qiladi”, degan hikmat yuradi. Bu tipdagi misollarning barchasi shoirning xalq qo‘llagan tasvir vositalaridan, uning go‘zal tili va xalq donishmandligidan juda o‘rinli foydalanganini, shoirga xos poetik tafakkurning naqadar xalqona ekanini namoyon etadi.

Adabiyotning so‘z san’ati ekanligi haqidagi haqiqat juda qadim zamonlardan beri takrorlanib kelinadi. Demakki, adabiyotning bosh unsuri so‘z, umuman, tildir. Adabiy asarning san’at darajasiga ko‘tarila olishi uning lisoniy tarkibi va asar muallifining badiiy ifoda balog‘atiga bog‘liq ekanligi shubhasiz. Shunday ekan, har qanday adabiy asarning mohiyatini xolis baholamoq uchun, eng avvalo, uning lisoniy tarkibining o‘ziga xosligi tahlil etilmog‘i lozim.

O‘ZBEK TILIDA “TARBIYA” UMUMIY MA’NOLI GURUHLAR

Mushtariy TOJIBOYEVA,
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.f.d. F.H.Yuldashev

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy ,axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy-pedagogik jarayon. “Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora-tadbirlar yig‘indisi”[191]. Bir necha lug‘atlarni kuzatar ekanmiz, “tarbiya” leksemasiga turlicha ta’riflar keltirilganligining guvohi bo‘lamiz. Xususan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “tarbiya”(arabcha-rivojlanish) “parvarish qilish”, “o‘stirish”, “o‘rgatish”; “ilm berish” ma’nolarini bildiradi. 1.Ta’lim, odob-axloq va shu kabilarni o‘rgatib, singdirib, insonni voyaga yetkazish, ulg‘aytirish, o‘stirish. 2. Insonda ish-hunar, odob-axloq va shu kabilarni shakllantirish, rivojlantirishga, uning jamiyatda yashashi uchun kerak bo‘lgan xislatlarga ega bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan ish-amallar majmui va shu yo‘l bilan singdirilgan odob-axloq, xislat, fazilat kabilarning o‘zi[192] ekanligi aytiladi.

“Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati’’da esa tarbiyaga, avlodlararo ijtimoiy-tarixiy va hayotiy tajribani uzatishga xizmat qiladigan, oila, ta’lim muassasalari, ijtimoiy va boshqa tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari ta’siri ostida jismonan, siyosiy sog‘lom, ma’nan barkamol insonni shakllantirish va takommillashtirish jarayonini

[191] https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tarbiya
[192] O‘zbek tilining izohli lug‘ati.3-jild.678-bet.

anglatuvchi termin”[193] sifatida qaraladi. Shu fikrlarni mujassamlashtiradigan bo‘lsak, tarbiya insonni komillikka tomon rivojlantiruvchi bosqichli jarayon degan xulosaga kelishimiz mumkin. Izohli lug‘atda berilgan ta’rifda tarbiyaning insonga nisbatan qo‘llaniladigan jarayon ekanligini ko‘rsak, “Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati”dagi ta’rifdan esa tarbiya faqat insonnigina emas, balki butun jamiyatni rivojlantirish uchun xizmat qiluvchi ijtimoiy jarayon ekanligining guvohi bo‘lamiz.

Yoshlar tarbiyasi, ularni ilmga chanqoq va har tomonlama mukammal qilib voyaga yetkazishga intilish hamma zamonlarda ham insoniyatning oldiga qo‘ygan muhim vazifasi hisoblangan. O‘z davrining yetuk mutafakkirlari hisoblangan buyuk ajdodlarimiz yaratgan nodir asarlarda tarbiya bosh mavzu bo‘lib kelgan. Ularning durdona asarlari o‘sib kelayotgan yosh avlodni salbiy illatlardan asrab, axloqan pok, ma’nan yetuk inson bo‘lib yetishishlariga undagan. Asrlar davomida sevib mutolaa qilib kelinayotgan “Pandnoma”,”Qobusnoma”, “Odob as-solihin”, “Guliston”, “Bo‘ston”, “Turkiy guliston yohud axloq” va hokazo asarlar shular jumlasidandir. Yuqoridagi asarlar bilan yaqindan tanishar ekanmiz, tarbiya tushunchasing keng va tor ma’nolarda ifodalanishining guvohi bo‘lamiz.

“Keng ma’noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy hayotida faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan barcha ta’sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig‘indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g‘oyalari, adabiyot, san’at, kino, radio va boshqalarni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma’nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta’lim va ma’lumot olish ham kiradi. Tor ma’noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma’naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didi o‘stirilishiga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi”.[194] Bundan tashqari “tarbiya” so‘zinining o‘zini bir necha semantik turlarga ajratish mumkin.

Ular quyidagilar:

1.Axloqiy tarbiya – jamiyat ma’naviy hayotidagi muhim ijtimoiy hodisa bo‘lib, odob-axloq tizimini, axloqiy fazilatlarni zamon talablari asosida har qaysi avlod ongiga singdirish shakli.[195] Ushbu ma’noviy guruh quyidagi leksemalar bilan kengayadi: *adab, adabli, axloqli, boadab, xushxulq, odob, intizom, hurmat, dilparvar*. Yuqoridagi leksemalar “axloq” umumiy semali atov birliklari tarkibidagi semalar bilan bevosita va bilvosita aloqador.

2.Mehnat tarbiyasi – o‘quvchilarning ilmiy bilimlar hamda turli fanlar asoslarini o‘zlashtirishga qaratilgan faoliyat turidir. Ushbu tarbiya o‘quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlashni nazarda tutadi.[196] Tarbiyaning bu ma’noviy guruhi quyidagi leksemalar bilan kengayadi: *harakatchan, ishchanlik, chaqqon, kasb, malaka, ko‘nikma, chiniqmoq, amaliyot, unumli, baraka.* Yuqorida keltirilgan leksemalar “mehnat” umumiy semali atov birliklari tarkibidagi semalar bilan bevosita va bilvosita aloqador.

3.Estetik tarbiya – shaxsni tabiat va jamiyatdagi go‘zalliklarni ideal nuqtai nazardan idrok etishga o‘rgatadi. O‘quvchilarda estetik bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirishni hamda estetik his-tuyg‘u, qiziqish, ehtiyoj, baho berish kabi xislatlarni tarbiyalash masalalarini o‘z ichiga oladi.[197] Bu ma’noviy guruh quyidagi leksemalar bilan kengayadi:

[193] Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. Toshkent-2010.526-527-bet.
[194] https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tarbiya
[195] Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. Toshkent-2010.52-bet
[196]Umumiy pedagogika.(Tarbiya nazariyasi).O‘quv qo‘llanma.Qo‘qon.2020.67-bet.
[197] Umumiy pedagogika.(Tarbiya nazariyasi).O‘quv qo‘llanma.Qo‘qon.2020.72-bet

san'at, badiiy ijod, did, fahmlamoq, idrok etmoq, qalban, farosat, tasavvur, muomala, kiyinish. Yuqoridagi leksemalar "estetika" umumiy semali atov birliklari tarkibidagi semalar bilan bevosita va bilvosita aloqador.

4.Ekologik tarbiya – ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi. O'quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish yuzasidan ko'nikma malakalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir.[198] Tarbiyaning bu ma'no turi esa quyidagi leksemalar bilan kengayadi: *tabiat, ekologik madaniyat, atrof-muhit, hayvonot olami, o'simlik dunyosi, foydali qazilma, ekologik ta'lim, asramoq.* Yuqoridagi leksemalar "ekologiya" umumiy semali atov birliklari tarkibidagi semalar bilan bevosita va bilvosita aloqador.

5.Huquqiy tarbiya – shaxsda ijobiy huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir.[199] Ushbu guruh quyidagi leksemalar bilan kengayadi: *huquqiy ong, huquqiy madaniyat, burch, majburiyat, qonun, rioya qilmoq, huquq normalari, jamiyat, amal qilmoq, sud.* Yuqoridagi leksemalar "huquq" umumiy semali atov birliklari tarkibidagi semalar bilan bevosita va bilvosita aloqador.

6.Siyosiy tarbiya – ijtimoiy tarbiyaning siyosiy ong va madaniyatini shakllantirishga qaratilgan muhim turidir.[200] Ushbu ma'noviy guruh quyidagi leksemalar bilan kengayadi: *vikont - (lotincha - tarbiyachining o'rinbosari) – G'arbiy Yevropa mamlakatlarida dvoryanlarning graf bilan baron oralig'idagi unvon, milliy g'urur, g'oyaviy e'tiqod, mafkuarviy sobitlik, davlat rahbari, Yangi O'zbekiston, iqtisodiyot, jadidchilik, rivojlanish, ustuvor vazifa.* Yuqoridagi leksemalar "siyosat" umumiy semali atov birliklari tarkibidagi semalar bilan bevosita va bilvosita aloqador.

7.Ijtimoiy tarbiya – tarbiyaning muhim bir shakli, butun jamiyat, xalq, millat va tabaqaga ko'rsatilgan maqsadga muvofiq ma'naviy ta'sirini ifoda etadigan tarbiya.[201] Ushbu tarbiya guruhi quyidagi leksemalar bilan kengayadi: *yetimxona, usuli jadid, madaniyat, parvarish qilmoq, ijtimoiy himoya, sog'lomlashtirish, ijtimoiy muhofaza, tibbiyot xodimi, muallim, bog'cha.* Yuqoridagi leksemalar "jamiyat" umumiy semali atov birliklari tarkibidagi semalar bilan bevosita va bilvosita aloqador.

8.Ma'naviy tarbiya – yuksak ma'naviyatni tarbiyalash vositasi, muayyan shaxs, jamoa, muayyan guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy, ma'naviy yetuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta'lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi termin. [202] Ushbu guruh quyidagi leksemalar bilan kengayadi: *mafkuraviy immunitet, bag'rikenglik, vatanga sadoqat, ommaviy madaniyat, milliy tarbiya, mehr-shafqat, ma'rifat, diniy e'tiqod, milliy siymolar, bechoraparvar.*

Yuqoridagi leksemalar "ma'naviyat" umumiy semali atov birliklari tarkibidagi semalar bilan bevosita va bilvosita aloqador.

[198] Umumiy pedagogika.(Tarbiya nazariyasi).O'quv qo'llanma.Qo'qon.2020.37-bet
[199] Umumiy pedagogika.(Tarbiya nazariyasi).O'quv qo'llanma.Qo'qon.2020.125-bet
[200] Falsafa.Qomusiy lug'at.Toshkent.2004.366-bet.
[201] Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Toshkent-2010.187-bet.
[202] Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Toshkent-2010.317-318-betlar.

НЕПОЛНЫЕ ПРЕДЛОЖЕНИЯ В СИНТАКСИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА

Шодиева Ирода САЪДУЛЛАЕВНА,
Магистрант специальности 70111501- Родной язык и литература: русский язык и литература
Навоийский государственный педагогический институт

В речевой общественной практике разговорного обмена мыслями, в связи с конкретной ситуацией, при наличии мимики и жестов как вспомогательных выразительных средств, при большой экспрессивной силе интонаций формируются такие структурные типы предложений, в которых отсутствует словесное выражение каких-нибудь отдельных членов, ясных из контекста и ситуации. Например: *Нет ни одной души в прихожей. Он в залу; дальше: никого* (Пушкин. «Евгений Онегин»); [Осип] *Куда тут?* [Мишка] *Сюда, дядюшка, сюда* (Гоголь. «Ревизор»); [Хлестаков] *Как, только два блюда?* [Слуга] *Только-с* (там же); *– А вы на каком факультете? – спросила она у студента. – На медицинском* (Чехов. «Именины»); *– Горячей воды! – говорит он ей на ходу. – И чистый халат, а этот сегодня же выстираете* (Панова. «Спутники»).

Такие предложения, в словесной ткани которых «не хватает» одного или нескольких членов, обычно называются неполными. Однако чаще всего такие предложения не могут быть грамматически пополнены без нарушения синтаксических норм современного русского языка. <...> При учете всех средств выражения, ситуации и контекста, при учете структурно-грамматических особенностей так называемых неполных предложений почти каждое из них окажется «полным», т.е. адекватным своему назначению и соответствующим образом выполняющим свою коммуникативную функцию.[203]

В разработке проблематики неполных предложений большое значение имеет статья И.А.Поповой “Неполные предложения в современном русском языке”, которая привлекла внимание к этому сложному явлению и открыла многолетнюю дискуссию, в которой структурные и семантические свойства неполных предложений получили разноречивые оценки.[204]

Одним из дискуссионных вопросов является вопрос: можно ли неполные предложения “равнять” по полным?

В традиционном языкознании неполные предложения оценивались как варианты полных с пропуском тех или иных членов. Не без оснований А.М.Пешковский писал: “...неполные предложения, хотя их в разговорной речи, несомненно, гораздо больше, чем полных, в сознании нашем всегда равняются по полным”.[205] Под неполными предложениями А.М.Пешковский понимает такие предложения, в которых не хватает по сравнению с рассмотренными до сих пор конструкциями предложений одного или нескольких членов (Пешковский, 1956:396). То есть неполнота предложения прежде всего определяется формальным составом. В таких предложениях наблюдается отсутствие не только главных (подлежащего или

[203] Виноградов В. В. Избранные труды. Исследования по русской грамматике. М., 1975. С. 254-294. https://vk.com/@jqjqoqowjehdnsdldlsoaqoqibd-vv-vinogradov-osnovnye-voprosy-sintaksisa-predlozheniya-na-m

[204] Попова И.А. Неполные предложения в современном русском языке // Труды Ин-та языкознания АН. 1953. Т. 2. С. 42-71. https://vja.ruslang.ru/archive/1954-1.pdf

[205] Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. 8-е изд. М.: Языки славянской культуры, 2001. 544 с. URL: https://elibrary.ru/item.asp?id=22321726

сказуемого или и того и другого), но и второстепенных членов. Например, когда мы используем переходный глагол именно в переходном смысле, он не имеет при себе управляемого им падежа. То есть отсутствует дополнение. В предложении «*Он убил»* опущено дополнение *кого* или *что.* Кроме этого, А.М.Пешковский также выделил стационарные неполные предложения, которые в полном виде употребляются или исключительно редко, или, во всяком случае, реже, чем в неполном. Такие как «*Что с вами?», «Что с ней?» (в смысле „не чувствует ли она себя дурно?")*; всевозможные пожелания: *«Спокойной ночи!», «Доброго здоровья!»;* поздравления: «*С Новым годом!», «С приездом!»* и т.д. Описание таких предложений относится скорее к области фразеологии, чем к синтаксису.

А.М.Пешковский также обращает внимание на то, что неполные предложения могут быть распространенными и нераспространенными глагольными и неглагольными. Так, например, в предложении «*Он дал»* переходный глагол «*дать»* требует прямого дополнения. Но в этом предложении, где присутствуют только подлежащее и сказуемое, дополнение не указано, поэтому возникает неполное нераспространенное предложение. Или в выделенной части следующего предложения «*Белый хлеб предоставляю вам, Настасья Кирилловна, есть по гостям, а я ем свой черный»*. Здесь без учета контекста прилагательное *«чёрный»* не является общепонятной заменой существительного. Но в контексте мы понимаем, что *«черный»* означает *«черный хлеб»*. В данном предложении имеются и главные, и второстепенные члены, поэтому перед нами неполное распространенное предложение. Под глагольными и неглагольными предложениями понимаются такие предложения, как инфинитивное неполное предложение «*в стакан воды подлить... трех капель будет…– Пушкин*» или номинативное неполное предложение, например, в надписях на коробках с конфетами «*шоколадные, ромовые, молочные»*. Значение данного предложения становится ясным лишь в определенном контексте или ситуации. Примеры личных и безличных глагольных предложений прослеживаются в предложении «*Не хватает»,* которое требует родительного падежа и в предложении «*Не спится»,* которое требует дательного падежа (Пешковский, 1956:397).[206]

Попова отмечала, что неполные предложения нельзя равнять по полным, что вставка тех или иных членов предложения в некоторых случаях не только не нужна, но и невозможна, так как может существенным образом изменить предложение.[207] Эта мысль была развита в целом ряде исследований, вследствие чего многие структурно неполные разновидности предложений стали оцениваться как полные, ибо в смысловом отношении они достаточно полны, причем учитывается лишь речевая сторона информативной семантики предложения.

Обсуждение проблем полноты/неполноты предложений позволило осознать специфические свойства разновидности неполных предложений, в частности эллиптических.

Таким образом, на вопрос “Можно ли неполные предложения “равнять” по полным?” нельзя ответить категорично (“да” или “нет”), так как при ответе нужно учитывать многоаспектность неполных предложений, различать их структурную и семантическую полноту.

---

[206] Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. 8-е изд. М.: Языки славянской культуры, 2001. 544 с. URL: https://elibrary.ru/item.asp?id=22321726

[207] Попова И.А. Неполные предложения в современном русском языке // Труды Ин-та языкознания АН. 1953. Т. 2. С. 42-71. https://vja.ruslang.ru/archive/1954-1.pdf

Сопоставление полных и неполных предложений показывает, что в полных предложениях раскрываются все синтаксические связи и отношения, более развернуто и полно выражается информативная семантика, включающая грамматическую и лексическую.

Однако полные предложения не всегда уместны: повторение одних и тех же слов может создавать многословие, затруднять общение. У неполных предложений есть свои семантико-стилистические преимущества: они придают речи живость, естественность, непринужденность, а главное, позволяют актуализировать “новое”.

К трактовке и классификации неполных предложений исследователи подходят по-разному, но ясно одно: понятие о неполном предложении требует учета совокупности структурных и семантических признаков. Например, В.В.Бабайцева по соотношению структурных и семантических свойств предложений выделяет структурно полные, но семантически неполные предложения; структурно и семантические неполные предложения и семантически полные, но структурно неполные предложения. Н.С.Валгина выделяет контекстуально и ситуативно неполные предложения и эллиптические предложения.

По мнению Н.С. Валгиной, неполными предложениями называются такие предложения, в которых некоторые члены предложения (главные или второстепенные) опущены и которые понимаются только в контексте или в речевой ситуации. Например, в предложении «*Вот этот сок нужен липе, тот – ландышу, тот – сосне, а тот – папоротнику или дикой малине»* только первая часть предложения является структурно полной, а в остальных частях главный член предложения «*сок нужен»* опушен. Именно поэтому с формальной стороны это предложение считается неполным. Пропущенная в данном предложении часть обусловлена контекстом, т.е. предыдущим предложением. Здесь неполнота этого предложения не мешает нам его пониманию. Нужно отметить, что явление пропуска отдельных членов предложения тоже появляется в распространенных и нераспространенных предложениях, односоставных и двусоставных предложениях, которые по структуре схожи, но в сущности различны. Поэтому неполными могут быть односоставные и двусоставные, распространенные и нераспространенные предложения. Например, в диалоге « – *Покорно благодарю, доктор! – За что? – остановился тот. – За заботу»* выделенное предложение является неполным односоставным предложением, а остальные («*За что»* и «*За заботу»)* – неполными предложениями. Или например: « – *А куда же он едет? – Учиться. В гимназию его везем».* Здесь выделенное предложение является неполным распространенным предложением, а реплика *«учиться»* – неполным инфинитивным предложением (194).

Таким образом, Н.С. Валгина следующим образом характеризует неполные предложения: отсутствие главных и второстепенных членов предложений, при их восполнении необходимо учитывать контекст или речевую ситуацию, по структуре неполные предложения могут быть и односоставными или двусоставными, распространенными или нераспространенными. В вопросе определения неполных предложений мы придерживаемся точки зрения Н.С. Валгиной.[208]

Неполные предложения можно рассматривать с разных точек зрения: 1) формальной, структурной (Н.И. Греч, А.М. Пешковский); 2) когнитивной (А.А.

[208] Валгина Н.С. Современный русский язык: Синтаксис: Учебник/Н.С. Валгина. – 4-е изд., испр. – М.: Высш. шк., 2003 – 416 с.

Шахматов); 3) структурно-семантической (В.В. Бабайцева). В дальнейших научных исследованиях мы будем рассматривать данный вопрос.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Валгина Н.С. Современный русский язык: Синтаксис: Учебник/Н.С. Валгина. – 4-е изд., испр. – М.: Высш. шк., 2003 – 416 с.
2. Виноградов В. В. Избранные труды. Исследования по русской грамматике. М., 1975. С. 254-294. https://vk.com/@jqjqoqowjehdnsdldlsoaqoqibd-vv-vinogradov-osnovnye-voprosy-sintaksisa-predlozheniya-na-m
3. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. 8-е изд. М.: Языки славянской культуры, 2001. 544 с. URL: https://elibrary.ru/item.asp?id=22321726
4. Попова И.А. Неполные предложения в современном русском языке // Труды Ин-та языкознания АН. 1953. Т. 2. С. 42-71. https://vja.ruslang.ru/archive/1954-1.pdf

ТВОРЧЕСКИЕ ЗАДАНИЯ ДЛЯ ЗАКРЕПЛЕНИЯ ТЕМЫ «НАКЛОНЕНИЕ ГЛАГОЛА»

Каххорова Дилафруз ШАХОБИДДИНОВНА,
Магистрант специальности 70111501- Родной язык и литература: русский язык и литература
Навоийский государственный педагогический институт

Проблема описания императива – одна из наиболее динамично развивающихся сфер современной теории познания, интерес к которой значительно вырос в последнее время. Повелительное наклонение – одна из древнейших языковых категорий. Однако в настоящее время в ней возникают новые формы, свидетельствующие о том, что она продолжает оставаться актуальной. Повелительное наклонение занимает особое положение в системе глагольных наклонений, что связано с его основной функцией – выражать волю говорящего в той мере, в какой она должна воздействовать на поведение и волю слушателя. Во множестве исследований описаны грамматические, семантические, прагматические, типологические особенности императивных конструкций и правила их функционирования в речи.[209]

В настоящей работе мы рассмотрим особенности образования форм повелительного наклонения глагола и задания для учащихся общеобразовательных школ.

Синтетическая форма повелительного наклонения образуется от основы настоящего / будущего простого времени при помощи суффикса -И- (сход+и, принес+и) или нулевого суффикса (рассказывай-0). Повелительная форма 2-го лица множественного числа образуется присоединением к форме единственного числа окончания -те: строй+те, неси+те, оставь+те.

Возвратные глаголы присоединяют к указанным образованиям повелительной формы аффиксы -ся (после согласного) и -сь (после -и и -те): не упрямься, стройся, стригись, стригитесь.

[209] Хасан-заде, Виген. Парадигма императива в русском языке в сопоставлении с переводом на персидский язык / Виген Хасан-заде, Хосейн Голами. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2015. – № 15 (95). – С. 680-688. – URL: https://moluch.ru/archive/95/21291/ (дата обращения: 02.10.2022).

Повелительное наклонение выражается формой 1-го лица множественного числа настоящего времени или, чаще, будущего простого, произносимой с особой интонацией приглашения: Начнем, пожалуй.

Присоединение к этой форме аффикса -те выражает побуждение к совместному действию или придает высказыванию оттенок вежливости: *Уж вы, братцы мои, други кровные, поцелуемтесь да обнимемтесь на последнее расставание.*

Односложные глаголы *пью, бью, лью, вью* образуют формы *пей, бей, лей, вей;* глагол *лягу* имеет повелительную форму *ляг, лягте,* а глагол *ем - ешь, ешьте;* при глаголе *еду* используются повелительные формы *поезжай - поезжайте.*

Аналитические (сложные) формы повелительного наклонения выражаются сочетанием формообразующих частиц *пусть, пускай, да* с формой 3-го лица единственного или множественного числа настоящего или будущего простого времени: *Пусть пылает лицо, как поутру заря; Пускай послужит да потянет лямку; Да здравствуют музы, да здравствует разум!*

Составная форма повелительного наклонения складывается из глаголов 1 или 3 лица единственного и множественного числа настоящего или будущего времени и формообразующих частиц *«да», «давай», «давайте», «пусть», «пускай»*:

- *да будет согласие;*
- *давай пойдем;*
- *давайте спросим его;*
- *пусть веселится;*
- *пускай позвонят.*

В качестве повелительного наклонения используется неопределенная форма глагола, которая произносится с особой интонацией в форме приказа:

- *Встать!*
- *Сесть!*
- *Разойтись!*
- *Построиться!*

В речи нередко наблюдается использование другого наклонения в значении повелительного:

1. Условное наклонение в значении повелительного.

Вы бы поели.

2. Изъявительное наклонение в значении повелительного.

Пошёл прочь!

Не образуют синтетические формы повелительного наклонения по семантическим причинам:

1) безличные глаголы *(лихорадит, знобит, трясёт, светает),*
2) отдельные глаголы со значением восприятия *(видеть, слышать, чувствовать),*
3) со значением состояния *(гнить, недомогать, зябнуть, недомогать, обезножеть),*
4) модальные глаголы (*мочь, желать, хотеть*) и др.

Контрольные вопросы для закрепления темы «Наклонение глагола».

- Сколько наклонений имеет глагол? (*три наклонения*)
- Какое действие обозначают глаголы в изъявительном наклонении? (*действие, которое происходило, происходит и будет происходить*)
- Какое действие обозначают глаголы в сослагательном наклонении? (*которое возможно при каком-либо условии*)
- Какое действие обозначают глаголы в повелительном наклонении? (*которое просят или приказывают выполнить*)

- Как образуются формы повелительного наклонения глаголов?

Задание: образуйте от инфинитива все три формы наклонения в ед. ч. Цель задания: отрабатываются умения учебно-познавательные (морфологические: образование различных форм глагола), логические (анализ и синтез языкового материала).

Выполнение задания:

Писать - пишу - писал бы - пиши
Жить - живу - жил бы - живи
Мазать - мажу - мазал бы - мажь
Бросать - брошу - бросил бы - брось
Бороться - борюсь - боролся бы - борись
Стричь - стригу - стриг бы - стриги

На уроке можно составить вспомогательную обобщающую таблицу, которую дома учащимся необходимо будет дополнить примерами:

ИЗЪЯВИТЕЛЬНОЕ НАКЛОНЕНИЕ	СОСЛАГАТЕЛЬНОЕ (УСЛОВНОЕ) НАКЛОНЕНИЕ	ПОВЕЛИТЕЛЬНОЕ НАКЛОНЕНИЕ
Обозначает действие, которое происходит (наст, вр.), происходило (прош. вр.), будет происходить (буд. вр.): ***пишу*** *письмо* - ***писал*** *письмо* - ***буду писать*** *письмо*	Обозначает действие, которое возможно при каком-либо условии или желательно: ***написал бы, прочитал бы***	Обозначает действие, которое просят или приказывают выполнить: ***напишите,*** *п ожалуйста, письмо*

Предлагаем тесты для школьников для закрепления темы «Повелительное наклонение глагола».

1. Перед вами утверждения. Какие из них верные?
A) Глаголы в повелительном наклонении обозначают действия, которые кто-то просит или приказывает выполнить
B) Глаголы в повелительном наклонении изменяются по временам
C) Глаголы в повелительном наклонении употребляются обычно в форме 2 лица
2. Найдите глагол повелительного наклонения.
A) смотреть
B) смотрел бы
C) смотрю
D) смотрите
3. Как образуются глаголы повелительного наклонения?
A) Глаголы повелительного наклонения образуются при помощи суффикса И
B) Глаголы повелительного наклонения образуются при помощи суффикса Л
C) Глаголы повелительного наклонения образуются при помощи суффиксов СЯ , СЬ
D) Глаголы повелительного наклонения образуются без суффикса
4. От какого глагола форма повелительного наклонения образована неверно? *Найди неверный вариант.*
A) предупредить-предупреди
B) сесть-сиди
C) спрятать-спрячь
D) аплодировать-аплодируй
5. В каких предложениях употребляются глаголы повелительного наклонения?

A) Труд кормит, а лень портит.
B) Поздней осенью скворцы улетают на юг.
C) Век живи, век учись.
D) Книга в счастье украшает, а в несчастье утешает.
E) Приезжай ты к нам, соколик мой ясный.
6. Найдите строки, в которых на месте пропуска во всех словах надо написать Ь.
A) певуч..., реж..., леч...
B) плач...те, печ..., спряч...
C) реч..., камыш..., назнач...
D) лож..., береч..., намаж...те
7. Найдите предложение с ошибкой в написании глагола.
A) Познакомься, мамочка, с моим другом.
B) Забудьте обо всем, что знаете.
C) Спрячься за то дерево, что стоит подальше.
D) Бабушка, не тревожся о нас.
Увеличьте количество выпускаемой продукции в два раза.
8. Выберите предложения, в которых нужно писать И в глаголах.
A) Застел...те постель чистой простыней!
B) Вы всегда пиш...те грамотно?
C) Не понимаю,что вы там бормоч...те.
D) Крикн..те громко!

Для решения данных тестов учащиеся должны повторить правила правописания глагольных форм и образования форм повелительного наклонения.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Розенталь Д. Э., Голуб И. Б., Теленкова М.А. Современный русский язык. - М.: Рольф, 2003. – 448 с.
2. Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Справочник по русскому языку. Словарь лингвистических терминов. – М.: Оникс, 2006. – 623 с.
3. Современный русский язык: Учебник. / Под ред. Н.С.Валгиной. - М.: Логос, 2002. – 528 с.
4. Шанский Н.М., Тихонов А.Н. Современный русский язык. Ч.2: Словообразование. Морфология. – М.: Просвещение, 2003. – 270 с.
5. Хасан-заде, Виген. Парадигма императива в русском языке в сопоставлении с переводом на персидский язык / Виген Хасан-заде, Хосейн Голами. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2015. – № 15 (95). – С. 680-688. – URL: https://moluch.ru/archive/95/21291/ (дата обращения: 02.10.2022).

BADIIY ASARLARDA KONSEPTNING LINGVOKOGNITIV VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Yandashova Dilniso SHAVKAT QIZI,
Tadqiqotchi

Jahon tilshunoslik ilmida konsept bu- inson turmush tarzi bilan bog‘liq ma’lum tushunchalarni maxsus qoliplarga solish,lisoniy va madaniy mavjudligini belgilashga qaratiladi.Albatta,konsept tushunchasi borasida ko‘plab munozaralar olib borilgan va bu xususida bir to‘xtamga kelish qiyin.D.X.Lixachevning keltirishicha konsept bu- individual anglash jarayoni va ma’lum kontekstda so‘z ma’nosini almashtirish hisoblanadi.Ma’lum bir

konsept har bir lingvomadaniyatda o‘ziga xos shakllanishga ega sanaladi.Konseptlar,o‘z navbatida,so‘z ma’nolariga nisbatan keng talqin etiladigan,murakkab tipologik qurilmaga ega.Hozirgi kunda o‘zbek tilshunosligida leksemalar guruhida ,,shaxs”tushunchasi xususida ayrim fikrlar bayon qilinayotgan bo‘lishiga qaramay, ,,inson” konsepti o‘zining to‘liq lisoniy-falsafiy hamda konseptual-assotsiativ tavsifiga ega bo‘lganicha yo‘q.Yuqoridagi Lixachevning fikrlariga qo‘shimcha qilgan holda konsept haqiqatdan ham biror bir tushunchani individual anglash,tushunish hamda ma’lum vaziyatlarda uni almashtira olish demakdir.Konsept bu lotin tilidagi conceptus-,,tushuncha” so‘zining kalkasidir.Konsept ikki tomonli xususiyatga ega.Bir tomondan madaniyat konsept ko‘rinishida insonning mental dunyosiga kirsa,ikkinchi tomondan inson konsept yordamida madaniyatga kiradi.Konsept bu bilimlar majmui hisoblanadi.Bilish hamda tushunish konseptning asosini tashkil qiladi.inson ko‘p narsalarni bilishi mumkin,lekin ularning mohiyatini anglamasligi mumkin.Ayrim manbaalarda shunday keltiriladi: Alisher Navoiyning ,,Lison ut-tayr”dostonida ,,Ko‘rlar va fil”hikoyati orqali bilish va mohiyatini anglash haqida so‘z yuritilgan.Ko‘rlar fil haqida ko‘p narsalarni bilishadi ammo uning mohiyatini anglab yetishmagan.Orif esa ularning bilimlarini umumlashtirish orqali fil mohiyatini anglaydi.Tushuncha sezish,idrok qilish bilan birga o‘qish,eshitish orqali qabul qilinishi mumkin.Aynan tushuncha ko‘p hollarda eshitish,tushuntirishdan ko‘ra sezish,idrok etish orqali ko‘proq samara berganligini tajribalar o‘zida ko‘rsatgan.Masalan Mahmud Qoshg‘ariy ,,Devonu lug‘otit turk” asari haqida shunday deydi,,Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli so‘zlar,saj’(qofiyali nasr) lar,maqollar,rajaz,(misralari nisbatan uzunroq bo‘lgan she’r turi) va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim…Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo‘llanilib kelingan she’rlardan,shodlik va motam kunlarida qo‘llanilib kelinadigan hikmatli so‘zlardan,maqollardan keltirdim”,-degan edi.Demak shu parcha orqali bizda asar haqida tushuncha,tasavvur paydo bo‘ladi va bu albatta asarning to‘liq matni bilan tanishganimizda birmuncha yengillik berishi mumkin.Demak tushunchaning sezgi,idrok,tasavvurdan farqi shundaki u konseptdagi aynan eng umumiy,eng muhim umumlashmalarnigina saqlab qoladi.Biz shoir-u yozuvchilarning asarlarida hamda lirikasida konseptning ko‘plab turlariga duch kelamiz va bu orqali badiiy asarni yoki she’rning tag ma’nosini anglashimiz va to‘la tushunishimiz biroz osonroq bo‘ladi nazarimda.O‘tkir Hoshimovning ,,Yol bo‘yidagi daraxt”hikoyasida yaxshilik konsepti juda ham chiroyli hamda ta’sirli aks ettirilgan.

Katta yo‘l bo‘yida daraxt o‘sardi…Ittifoqo uning tagiga bir yo‘lovchi keldi.Kun issiq,yo‘lovchi charchagan edi.Daraxt soyasida o‘tirib dam oldi…Yo‘lovchi ochiqqan edi.Qarasa,daraxtda mevalar pishib yotibdi.U daraxtga chiqishga erindi:tosh otdi.Mevalar duv to‘kildi.Yo‘lovchi to‘ygunicha yedi…

Manzil olis edi.Yo;lovchi daraxt shoxini,tayoq yasadi…Keyin…zahar tang qilib qoldi.Yo‘lovchi daraxt panasiga o‘tdi…

So‘ng yo‘liga ketdi…

Daraxt boshqa yo‘lovchini kuta boshladi…Bu daraxtning nomi yaxshilik edi…

Qisqa hikoya zamiridagi ma’no qanchalar kuchli.Bunda yaxshilik konsepti nihoyatda ta’sirli hamda kitobxonga tushunarli qilib aks ettirilgan.Daraxtning yaxshiligi shunchalar beminnatki,yo‘lovchi to‘ygunicha yedi gapidan keyin bir daraxt qancha insonning og‘irini yengil qilishi,har tomonlama ko‘mak berishi uncha-muncha insonlarning qo‘lidan kelavermasligini hikoya davomida anglaydi kitobxon.

Bu kabi asarlar badiiy adabiyotimizda yetarlicha.Xurshid Do‘stmuhammadning ,,Hijronim mingdir mening” qissasi orqali sog‘inch konsepti badiiy jihatdan chiroyli ifodalangan.

Birdan allaqaysi musicha choʻzib ku-kuladi.shu qadar nola qildiki,musichaning tovushida shu qadar mung,shu qadar sogʻinch,shu qadar dard borligini birinchi bor ilgʻashim…Sizni esladim…Musicha yana ku-kuladi,azbaroyi hovli jaranglab ketdi,beozor parrandaning boʻgʻiqroq tovushi mening ichimdan eshitilayotgandek boʻldi…Bu tovush sizni chaqirayotgan,sizni chorlayotgan edi…Sezyapsizmi,Siz ning soʻzingizdan chiqmay ortiqcha iztiroblarga berilmaslikka uringanim sayin Sizni oʻylamaslik,Sizni xayoldan quvib chiqarish epini topolmadim. Yuqoridagi parchada sogʻinch konsepti ham badiiy jihatdan,ham inson ichki kechinmalarining ifodalanishi jihatdan juda ham ta'sirli yozilgan.Musichaning ku-kulashi orqali inson his tuygʻulari hamda uning badiiylikka burkanishi nihoyatda badiiylik kasb etgan.Oʻquvchi badiiy parchani oʻqir ekan,und anima ifodalanayotganligi birdan tushuna oladi.

Badiiy adabiyotimizda hayrat konseptining ifodalanishi ham nihoyatda ta'sirli va tushunarli aks ettitilgan.Nazar Eshonqulning ,,Momoqoʻshiq"qissasida berilgan parcha orqali hayrat konseptini lingvokognitiv jihatdan tahlil qilish mumkin.

Bu juda goʻzal manzara edi,buni faqat usta rassomlarning suratlaridagina koʻrish mumkin,biroq eng zoʻr musavvir ham uning qoʻshigʻiga boʻyoq topolmagan boʻlardi.qizning ovozida bani dunyo oʻzaro uygʻunlashib jaranglar,goʻyo hayol ham,goʻzallik ham,orzu ham qizning qiyofasiga kirib qoʻshiq aytardi.Qoʻshiqni tinglayotgan odam bahorni,yasharish faslini,sollanib turgan gullarni,shabadadan toʻkilay-toʻkilay deyayotgan qizgʻaldoq bargidagi shudringni,tuman qoplab olgan bogʻni,varrak uchirayotgan bolalarni,yuksak-yuksaklarda parvoz qilayotgan.jilvala nayotgan bolalik hayolini koʻz oldiga keltirishi mumkin edi.Bolalik kabi goʻzal,tiniq va orzumand bu ovoz quyoshning issiq taftidek oʻz ohanggi bilan odamni eritib yuborar,koʻngilga yoqimli shabadaday esib kirardi.Toʻrt hasharchi shunday taassurotlarni boshidan kechirar,ular qoʻshiqni oxirigacha eshitmoqchiday dong qotib turishardi.Yuqoridagi parchada birgina qizning tovushining jarangini shunaqangi chiroyli tasvirlaganki,yozuvchining badiiy mahoratiga tan bermay ilojimiz yoʻq.Uning qoʻshigʻidagi jilvani,eng usta rassomlarning suratiga,hattoki eng usta rassom ham uning ovozini boʻyoqlarda aks ettiraolmasligiga tan bera olgan inson obrazini badiiy vositalar orqali chiroyli ifodalagan.Bu kabi badiiylik yaqqol sezilib turadigan parchalarni N.eshonqulning asarlarida koʻplab kuzatish mumkin.,,Maymun yetaklagan odam"hikoyasida ham qoʻrquv,hayrat konsepti nihoyatda ta'sirli aks ettirilgan. 1989 yil 6 yanvar kuni N.Eshonqulning yangi hikoyasi bosildi.U hikoyada ruhiy holatni kuchaytiruvchi timsollar juda koʻp,ularning hech biri sababsiz ishlatilmaydi,balki rassom chol fojiasini chuqurroq ifoda etishga xizmat qiladi.Ushbu hikoyada qoʻrquv,sogʻinch,hayrat konseptlari mahorat bilan ifoda etilgan.

U bu yerdaligimni unutganday,xurillatib,imillab,chollarga xos lanjlik bilan ovqatlanar va ogʻzining ikki chetidan lagʻmonning suyugʻi yana kosaga oqib Tushar,boshi qalt-qalt titrar,boʻyinlarida tirishib qolgan tomirlar u yutinganda boʻrtib,koʻkarib ketar,koʻzlari horgʻin yoshlanib turar,har dam-har damda qanjarini oʻng qoʻli bilan qashirdi.Bu unga odat edi chogʻi-qanshari turli boʻyoqlarga belanib qolgandi,qoʻllarini qoshiqqa madorsizlik bilan koʻtararkan,uning shu soniyada yana ham ifodasiz tusga kirgan yuziga qarab,ovqatni ham eplab icholmaydigan asabiy va roʻdapo cholning rassom ekanligiga sirayam ishongim kelmaydi… keltirilgan parchada rassom cholning tashqi qiyofasi va harakatlari orqali hayrat konsepti mahurat bilan ifoda etilgan.

Bundan tashqari Oʻ.Usmonning ,,Girdob"romanidagi parchada ham qoʻrquv konsepti aks ettirilgan.

Yana vujudini daxshat bosdi.Nazarida eri azroildek,kela solib,jonini oladiganday,yuragi qoʻrquvdan dukillab ura boshladi.Qoʻllari,boʻgʻinlari,butun jismi titrab-

qaqshab,ichi yaxlaganday,tuyg‘usiz bir maxluqqa o‘xshab o‘tirardi.Ayniqsa,Aziz ishdan qaytadigan vaqt yaqinlashgan sari battar vosvosga tushib,o‘zidan-o‘zi yig‘lagisi kelar…yelga sovurilgan qadri,nomusining alamiga chidolmaganidanmi,azizning qahridan qo‘rqqanidanmi,o‘ksib-o‘ksib,brogan sari o‘zini to‘xtatolmay yig‘lay boshladi…U irodasi va aqlini yo‘qotgan edi,Bamisoli o‘pqonga tushgan xassimon,o‘zini butkul majruh tuyg‘ular qo‘liga topshirgan edi…Badiiy parchadagi mazmun nihoyatda aniq va tabiiy tarzda aks ettirib berilganki,kitobxin ushbu parchani o‘qib,undagi konseptning qay darajada ta’sirli ifoda etilganligini sezmasdan iloji yo‘q.O‘zbek tilida vaxima,qo‘rqinch,havotir,dax shat,tahlika,qo‘rqinch,sarosima va boshqa birliklar qo‘rqinchning turli darajasini ko‘rsatadi.Tahlil etilayotgan konseptning verballashuvi ingliz tilida maxsus til birliklarida o‘z ifodasini topsa,o‘zbek tilida ,,qo‘rqinch”ning tasodifiy,temporal aniq birliklarda,jumladan ko‘makchi fe’llar yordamida ifodalanadi. Bundan tashqari badiiy adabiyotimizda go‘zallik konsepti ham mavjud.Go‘zallik bu -estetika tushunchasi.Tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarning,inson faoliyatining Kishida mehr-muhabbat,quvonch,zavq,erkinlik tuyg‘ulari hosil qilishga qodir bo‘lgan xususiyatlarini ifodalaydi.Xunuklikning aksi.Bundan tashqari o‘abek tilida „halollik”, „uyat” konseptlari ham mavjud.Aytish joizki konsept lingvokulturologiyada faol ishlatiluvchi birliklardan biri hisoblanib,bu birlik lingvomadaniy birliklar sirasida bo‘lib,muayyan bir xalq madaniyatining o‘ziga xos tomonlarini yoritadi.Lingvokulturologiya fanida ko‘plab konseptlar singari „halollik”konseptining o‘rni beqiyosdir.„Halollik”konseptining nutqda ifodalanishi uning mazmun-mohiyatini anglashga yordam beradi.

O‘zbekiston go‘zal diyor,
Saodatga mehnati yor.
O‘zgacha bir hikmati bor,
Halollikka aytar alyor! (Yo‘ldosh Sulaymon)

Halollik konsepti o‘zida o‘zgacha bir insoniylikka,vatanparvarlikka,mehnatsevarlik ka yetaklovchi tushunchalardan biridir.Mazkur konsept ijodkorlarning asarlarida,o‘zbek nasrida,nazmida keng yoritilgan tushunchalardan bo‘lib,insonning o‘zligini,halollik bilan yashashni mujassamlashtiradigan birlik sifatida izoh berilgan.Mening nazdimda,insoniyat halol yashashi,umr ko‘rishi uchun birinchi navbatda ilm olishi,aqliy va jismoniy mehnat qilishi zarur.

ADABIYOTLAR

1.Асколдов С Концепт и слово Русская словенностью От теори словенности к структуре текста Антология -М Академия 1997-С 267-280ю
2»[Апресян Ю.Д, консепт и культурологи 1995, 56–60]
3 Махмудов Н Тилнинг мукаммал тадкики юлларини излаб Узбек тили ва адабийоти Тошкент 2012, 5-9

«KOGNITIV MUQOBILLIK» TAMOYILINING LINGVISTIK ASOSLARI

Gulbahor ABDULLAYEVA,
Navoiy shahar 11- AFCHO‘IM ingliz tili fani o‘qituvchisi

Ma’lumki, kommunikatsiya statika va dinamika, jarayon va natija qarama-qarshiligi hamda mushtarakligida kechadi. Xuddi shu tarzdagi qarama-qarshiliklar va munosabatlar tizimida yaratiladigan matnni haqiqiy kommunikativ birlik sifatida e’tirof etib, uning kategorial xususiyatlari haqida so‘z yuritish mumkin bo‘ladi. Shu jihatdan, ayrim tilshunoslarning «matn nihoyatda mavhum xarakterga ega va uni kommunikativ faoliyatdan ajratib olish mumkin» [Yuganov 1980:73], degan da’volari, bizningcha, g‘ayritabiiy. Kichik

hajmdagi matnlarning mazmuniy xususiyatlari bilan shug‘ullangan V.I.Yuganovning ushbu da’vosi bir qarashda asoslidek, chunki qayta takrorlanish va o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lgan yozma matn nutq vaziyati bilan bevosita bog‘liqlik xususiyatiga ega emasdek ko‘rinadi. Ammo yozma matn ham muloqot vaziyatiga to‘la ma’noda aloqador. Ma’lumki, situativlik matnning doimiy kategorial belgilaridan biri bo‘lib, biz buning isbotini dastlab matnning qayta takrorlanish sharoitlarida o‘z asosiy kommunikativ mazmunini saqlab qolishida yaqqol ko‘ramiz. Har qanday muloqot sharoitida matn vositasida uzatilayotgan axborotning qiymati saqlanadi, zero, uzatilayotgan axborotga nisbatan qo‘yiladigan asosiy talab – uning muloqot sharoiti uchun yangiligidir. Albatta, bunda matn muallifi axborot uzatishning eng ma’qul usulini topishi zarur bo‘lganidek, retsipiyent ham matn tuzilishiga tayangan holda muallif unga qanday axborotni yetkazish niyatida ekanligini to‘g‘ri anglay bilishi muhim.

Nutqiy tuzilmalarning matn maqomini olishida kommunikativ faoliyat ishtirokchilarining munosabati ham muhim. A.A.Zalevskayaning sharhicha, har qanday nutq qatori faqat muallif yoki retsipiyent bilan munosabatida faollashuvdagina matn bo‘la oladi. Matn inson tomonidan yaratiladi va idrok etiladi, insonning ishtirokisiz tasavvur qilinayotgan matn faqat «moddiy gavda» ko‘rinishini oladi. Haqiqatdan ham matn unga mazmun bag‘ishlovchi faoliyat ijrochisisiz (muallif yoki retsipiyent) hech qanday qiymatga (olimaning ta’biricha – «ichki quvvatga») ega bo‘lmaydi, ammo matnning o‘z-o‘zicha, alohida «gavda» (telo teksta) sifatida mavjud bo‘lishini tasavvur qilish qiyinligini olima unutgan ko‘rinadi. Balki, bu uning tilshunoslikda hanuz hukmron bo‘lib turgan matn va diskurs hodisalarini keskin zid qo‘yish an’anasidan to‘liq voz kecha olmaganligidan bo‘lsa kerak. Bu ikki hodisaning ziddiyatini faollik – nofaollik, dinamik–statik xususiyatlarning qarama-qarshiligi bilan bog‘lashga intilganlar matnni yozma nutq, diskursni esa og‘zaki muloqot mahsuli sifatida ta’riflashga harakat qiladilar. Ushbu yo‘sindagi talqin, so‘zsiz, ularning birini (matnni) moddiy hosila, ikkinchisini (diskurs) esa nomoddiy natija ko‘rinishida tasavvur qilishga olib keladi.

Matn va diskurs munosabati masalasi hamda ularning ziddiyatli hodisalar sifatida talqin qilinishi matn tilshunosligi taraqqiyoti uchun noxush holatlar tug‘dirishi mumkin. Biz ham matnning yozma va og‘zaki ko‘rinishda mavjud bo‘lishini batamom e’tirof etamiz. Shuning bilan birgalikda, «diskurs» va «matn» tushunchalarini to‘liq muqobillikka ega bo‘lgan sinonim tushunchalar sifatida qarash ham to‘g‘ri emas, chunki «diskurs inson ongli faoliyatining bir turi, turkumi bo‘lsa, matn uning ko‘rinishidir».

Matn yaratilishini diskursiv faoliyatning bir turi sifatida talqin qilish ushbu hodisaning dinamik xususiyatlariga, jarayonli belgilariga ko‘proq e’tibor qaratishni talab qiladi. Matnni o‘zgarmas, harakatsiz, turg‘un xususiyatli hodisa ko‘rinishida tasavvur qilib bo‘lmaydi. Matnning maqomini, kategorial belgilarini aniqlash uchun uning ongli diskursiv faoliyat bilan bog‘liq tomonlariga e’tiborni kuchaytirish lozim. Lisoniy hodisalar talqiniga yangicha yondashuv natijasida tadqiq maqsadi matn yaratishning inson kognitiv qobiliyati bilan bog‘liq jihatlarini aniqlash sari yo‘naladi. Sub’ektning kommunikativ-ijtimoiy hamda til tizimi qoidalariga mos ravishda matn yaratish va uni mazmunan idrok etish qobiliyati nutqiy tafakkur faoliyatining samarasini ta’minlovchi asosiy omillardandir.

Kognitiv tilshunoslikning vazifalari, asosiy tamoyillarini aniqlashga harakat qilgan V.Z.Demyankov ushbu yo‘nalishdagi tahlilda «kognitiv muqobillik» va «bevosita muqobillik» tamoyillarini farqlash muhimligini alohida uqtiradi. «Kognitiv muqobillik», olimning ta’biricha, biror bir birlik haqida tasavvur qilish yoki u haqida fikr yuritishda ushbu birlikning qanday idrok etilishi va hosil bo‘lgan tushunchaning qay darajada kognitiv

voqelikka mos kelishini anglatadi. «Bevosita muqobillik»ka koʻra lisoniy voqelanish unsurlarining mazmuni bevosita voqelikdagi hodisalar mohiyatiga mos keladi.

«Kognitiv muqobillik» tamoyiliga amal qilish nutqiy tuzilmalar (shu jumladan, matn) mohiyati, mazmunini bevosita «lisoniy birlik (belgi) - maʼno» zanjirida talqin qilish anʼanasidan voz kechishga undaydi. Ammo, shuning bilan birgalikda, kognitiv-diskursiv tahlil amallari hech qachon lisoniy voqelikni inkor etmaydi, chunki har qanday kognitiv tuzilma negizida lisoniy birliklarga xos maʼno ifodasi yotadi. Soʻzsiz, matn va boshqa lisoniy hodisalar tuzilishini toʻliq tasavvur etish uchun ularning denotativ-referentiv tavsifi yetarli boʻlmaydi. Bu holatda matnning strukturaviy tuzilishi ahamiyatsizdek koʻrinadi. Ammo F.Sossyurning lisoniy belgining ixtiyoriyligi haqidagi gʻoyasini absolyutlashtirish yoʻlidagi bunday qarashning besamar ekanligi semiotiklarning oʻzlariga ham maʼlum. «Lison, - deb yozadi Ya.Kelemen, - faqat bilim toʻplash va uzatish vositasi emas, balki ushbu bilimni oʻziga xos strukturalar asosida moddiylashtirish vositasi hamdir, shuningdek, u hayotning maʼlum shakli, uslubidir».

Yana bir rus tilshunosi A.E.Kibrikning eʼtirof etishicha, «kognitiv tilshunoslik, uning har qanday koʻrinishdagi talqini va tavsifida kognitiv strukturalarning tilga nisbatan birlamchi ahamiyatga molik boʻlishiga tayanadi va bunda til birliklari va qoidalari kognitiv struktura va jarayonlarning grammatik shakl olishi koʻrinishida tasavvur qilinadi». Albatta, kognitiv strukturalarni ajratish har qanday lisoniy tuzilmaning yaratilishi, uning yuzaga kelish tarixini oʻrganish uchun muhim. Lekin ushbu strukturalarning ustuvorligi ularning lisoniy voqelanishi bilan bogʻliq boʻlgan hodisalarni orqaga surib qoʻyishga yoki inkor qilishga sabab boʻlmasligi kerak. Har qanday lisoniy birlikning kommunikativ qiymatini, mazmunini uning shakliy tuzilishidan ajratgan holda tasavvur qilish qiyin. Mazmun va shakl hodisalarining bunday mushtarak munosabati matn hodisasiga ham taalluqli. Shunga binoan matnning tuzilishi oʻrganilganda, asosan semantik-sintaktik xususiyatlarga tayaniladi va bunday yondashuv maʼnoviy hamda formal-sintaktik koʻrsatkichlarning birini ikkinchisidan ajratgan holda oʻrganilishiga nisbatan ijobiy natijalar berayotganligi barchaga maʼlum.

DUNYO TILLARDA SOʻZ YASASH USULLARINING OʻZIGA XOS JIHATLARI

Gavharoy IBROHIMOVA,
Karmana tuman kasb-hunar maktabi ingliz tili fani oʻqituvchisi

Inson soʻzlar yordamida oʻzining fikrlari, his-tuygʻulari, istaklarini bayon etadi va boshqalarning fikrlari, his-tuygʻulari, istaklarini anglab oladi. Inson nutqi rang-barang soʻzlardan tashkil topadi. Doʻstlarning suhbati ham, soʻzlayotgan kishining chaqirigʻi ham, sanʼatkorning sahnadagi manologi ham, oʻquvchining maʼlum bir soʻroqqa qaytarayotgan javobi ham soʻz va nutqdir. Soʻz va nutqning asosisini tashkil etgan narsa esa har bir tilning soʻz boyligi, yaʼni leksikalogiyasi boʻlib, unda shu tilning bor jilvalari soʻzlovchilar tomonidan yuzaga chiqariladi.

Tilning qanchalar boyligi, uning oʻziga xos qirralari soʻzning eng kichik qismi boʻlgan morfemalar orqali ham yuzaga chiqadi. Bunda shu tilga xos boʻlgan soʻz yasalishi, uning qanday koʻrinishlari mavjudligi, boshqa tillarning bir-biriga qaysi jihatiga koʻra oʻxshashligi va farqliligi toʻgʻrisidagi qarashlar soʻz yasalishi, yaʼni morfemikada amalga oshadi.

Soʻz yasalishi tilshunoslikning bir boʻlimi boʻlib, bunda yangi soʻzlarning yasalish usullari oʻrganiladi. Unda soʻz oʻzagi, soʻz yasovchi va soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchalar faol qatnashadi. “**Soʻzning oʻzagi va undagi barcha turdagi affikslami umumiy tushuncha bilan ifodalab, uni *morfema* (grekcha morphe — shakl) deb ataymiz.**

***Morfema* — tilning eng kichik ma'nodor birli-gidir"**[210]**.** Tildagi mavjud so'zlar va so'z yasovchi vositalar negizida yangi so'z hosil qilish so'z yasash deb tushuniladi. So'z yasash turli yo'llar bilan amalga oshi-riladi.

Turli tillarda so'z yasash quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: **I. *Affikslar yordamida.*** "Affiks (lotincha *affix* — qo'shiluvchi) so'zni yasash va uning shak-lini o'zgartirishda qo'llanuvchi barcha vositalaming majmuidir. Affikslar so'zdagi o'rni va tildagi bajaradigan vazifasiga ko'ra tasnif etiladi"[211]. **1) so'zning o'zagidan oldin qo'shiluvchi — prefiks (bemalol, bama'ni kabi); 2) so'zning oxiriga qo'shiluvchi postfiks (ko'payish, kelmoqda. sezgir kabi); 3) so'z o'zagi va boshqa qismini ulash uchun uning o'rtasiga qo'shiluvchi infiks (ishqiboz, gultojixo'roz kabi). Ushbu uch ko'rinishdagi so'z yasalishi boshqa tillarda ham shu shaklda amalga oshiriladi:**

Prefiks yordamida so'z yasash:

o'zbekcha: badavlat, beg'am, sertashvish
ruscha: запеть, вбежать, сбежать
inglizcha: rebuild, misplace, distrust
nemischa: bewohnen, verstehen, erzahlen

Postfiks yordamida so'z yasash:

o'zbekcha: *ishchi, paxtakor, safdosh, soatsoz*
ruscha: *работник, ирригатор, историк, паспортист*
inglizcha: *teacher, spoonful, kingdom, realize*
nemischa: *Arbeiter, Freundschaft, Freiheit*

Infikslar yordamida so'z yasash usuli arab tillariga xos bo'lib, o 'zbek, rus, ingliz, nemis tillarida deyarli uchram aydi, xom-som (arab) tillari uchun bunday so'z yasash tabiiy holdir: kitob, kotib; talaba, tolib.

II. *Ikki yo undan ortiq so'zlarni bir-biriga qo'shish yo'li bilan yangi so'z yasash.* O'zbek tilshunosligida bu yo'l sintaktik usul deb yuritiladi.

O'zbek tilida: *ota-ona, yer yong'oq, oltin tepa, beshiktervatar;*
rus tilida: *радиостанция, пивовар, пол защитник,*
ingliz tilida: *weekend,hot house, cashpoint* so'zlari shular jumlasidandir.

Turli tillarda so'z yasashning ko'p uchraydigan turlaridan biri konversiya usuli sanaladi. Bu usul kamdan kam tillarda uchraydi. "Konversiya orqali so'z yasash ba'zi tillarda ko'plab uchraydi. Masalan, ingliz va fransuz tillarida bu usul keng qo'llansa, rus, o'zbek tillarida kam uchraydi. Konversiya yo'li bilan so'z yasalganda, so'zlar bir so'z turkumidan ikkinchisiga - ko'proq ot fe'lga, fe'l esa otga o'tadi"[212].

O'zbek tilida **konversiya** usulida hosil bo'lgan yangi so'zlar ham uchraydi. **Sifatdan – otga:** yigit-qiz, achchiq-chuchuk, issiq-sovuq, yosh-qari;
Fe'ldan – otga: keldi-ketdi, chaqirdi (marosim), qo'ydi-chiqdi, mindi-mindi;
Sondan – otga: yigirmasi, yettisi, qirq, to'qqiz-to'qqiz;
Taqlid so'zdan – otga: shaqshaq (qushning nomi), patpat, ququ (qush);

Ingliz tilidagi *We shall answer positively. The answer was positive* gaplarni misol tariqasida keltiramiz. Birinchi gapda *answer* so'zi fe'ldir, chunki u morfo-logik jihatdan zamon kategoriyasini ifodalovchi vosita *(shall)* ni olgan; sintaktik nuqtai nazardan bu so'z

[210] A. Abduazizov. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. (Oliy o'quv yurtlari uchun darslik). Toshkent: "Sharq", 2010. 102-bet.
[211] Yuqorida ko'rsatilgan asar, 103-bet
[212] M.T.Irisqulov. "Tilshunoslikka kirish". Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2009. 120-bet.

kesim vazifasini o‘tab, ravish bilan bog‘lanib kelayapti. Ikkinchi gapda *answer* - otdir, chunki u gapda ega vazifasini bajaryapti, morfo-logik jihatdan bosh kelishik, birlikda bo‘lib, aniq artikl bilan bog‘langan. Ingliz tilida artikllar otning asosiy ko‘rsatk ich larid an biridir. Ingliz tilida bunday mi-sollar ko‘plab uchraydi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotining yetuk namoyondasi, O‘zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo she’riyati misolida eskirgan so‘zlarning qo‘llanganiga e’tibor berish, ularning misralarda qanday joziba baxsh etganiga to‘xtalib o‘tamiz. Bu kabi so‘zlarning bugungi kundagi ko‘rinishi, qaysi lug‘aviy birlik bilan ifodalanishi misolida so‘z yasalishining eski o‘zbek adabiy tili misolida ham ko‘rib o‘tishimiz mumkin.

Shahr ot***lig‘*** sahrolarda qo‘ng‘iroqlar sasin kutdik,
Dahr ot***lig‘*** daryolardan muruvvat kemasin kutdik,
Zahr ot***lig‘*** havolardan atirgullar isin kutdik,
Sabohat elchisin kutdik, jarohat emchisin kutdik[213]. („Farg‘onacha’’ 2.139- bet).

-lig‘ affiksi hozirgi kunda –***li*** qo‘shimchasiga to‘g‘ri keladi. Ushbu morfema grammatik-fonetik arxaizm. Eski o‘zbek tilida bu affiks ot yasashda ham, sifat yasashda ham mahsuldor bo‘lgan. – lig‘ affiksi bilan bir qatorda - liq, -lik, - lig shakllari ham qo‘llangan[214]. Keltirilgan misolda – lig‘ affiksi ismdan sifat yasovchi qo‘shimcha bo‘lib kelgan (otl+ lig‘= otlig‘).

Mazkur misralarda so‘z yasovchi qo‘shimchalar baytning chuqur ma’no va falsafiy mohiyat ifodalashiga xizmat qilgan. Qolaversa, muallifning mohir til ilmi egasi ekanligi, shuningdek, kitobxonda yangi bilim, izlanish paydo qilishi jihatidan ahamiyatlidir.

Umuman olganda, yer yuzida mavjud dunyo tillarining asosiy so‘z yasash usullari yuqorida biz ko‘rib o‘tgan shaklda amalga oshadi. Bunda shu tilga oid ichki qonuniyatlar, uning so‘z boyligidagi o‘ziga xos ko‘rinishlari, bir tilga boshqa tilning ta’siri kabi jihatdan muhim rol o‘ylaydi. So‘z yasalishining turli xil ko‘rinishlarda amalga oshishi dunyo tillarida xalqaro til darajasiga chiqqan tillarda o‘xshash bo‘lib, ular bir-biriga qurilish jihatidan mos tushadi. Bunday qarash o‘zbek tiliga ham mos tushadi.

ODIL YOQUBOVNING “KO‘HNA DUNYO” ASARIDA ISTORIZMLARNING QO‘LLANILISHI

Feruza BOBOQULOVA,
NavDPI o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d. R.Yusubova

Annotatsiya. Hammamiz yaxshi bilamizki, eskirgan so‘zlar ikkiga bo‘linadi: istorizmlar va arxaizmlar. Bunday so‘zlardan, ayniqsa, tarixiy asar yozayotgan har bir yozuvchi asarda o‘tmish muhitini yaratish uchun unumli foydalanishga harakat qiladi. Shu jumladan, adib Odil Yoqubov ham o‘zining "Ko‘hna dunyo" romanida X-XI asrlarga tegishli istorizmlarni keng qo‘llagan. Quyidagi maqolada shulardan bir nechtasi to‘grisida ma’lumot berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: istorizmlar, saroparda, g‘ulom, ariz, arroda, quljallob.

Har bir millatning tarixi uning eng katta merosi sanaladi. Boisi, o‘tmish orqali inson o‘zligini, ajdodlarini taniydi. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev buyuk tariximiz haqida o‘z nutqlaridan birida shunday fikrlarni aytib o‘tganlar: "Hamma o‘z tarixini ulug‘laydi. Lekin

[213] 1.Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. T.:Sharq, 2007.367 b.
[214] Jamolxonov H. Hozirgi o`zbek adabiy tili T. 2005. 271-bet.

bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo‘q. Bu merosni chuqur o‘rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak". Chindan ham, qadimda bir-biridan buyuk, ilmda tengsiz ajdodlarimiz yashab o‘tganlar. Ular to‘grisida yozuvchilar bir qancha mashhur asarlar ham yozganlar. Bunga misol tariqasida O. Yoqubovning qalamiga mansub "Ko‘hna dunyo" romanini olishimiz mumkin. Ushbu asarda Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino kabi ulug‘ bobokalonlarimizning beqiyos hayot yo‘llari yoritib berilgan. Ijodkor asarida o‘sha davrni jonli ifodalash uchun X-XI asrga doir eskirgan leksemalarni yetarli darajada qo‘llagan. Xususan, istorizmlardan unumli tarzda foydalangan. Romandagi istorizmlarga to‘xtalishdan avval bu tushunchaga ta’rif berib o‘tsak.

Tarixiy so‘zlar eskirishiga ko‘ra, ikki guruhga bo‘linadi: istorizmlar va arxaizmlar. Istorizmlarda so‘zlar o‘zi ifodalayotgan sema bilan birga iste’moldan chiqsa, arxaizmlarda esa so‘zning o‘zi iste’moldan chiqsa ham u anglatayotgan ma’no iste’moldan chiqmaydi va mazkur ma’no boshqa leksema bilan qo‘llaniladi. Istorizmlar haqida tilshunos olim H. Jamolxonov o‘zining "Hozirgi o‘zbek adabiy tili" kitobida quyidagi mulohazalarni keltiradi: "Istorizmlar, odatda, uzoq tarixiy jarayonlar davomida yuz beradigan eskirishning mahsuli bo‘ladi, ammo ular, ba’zan, qisqa vaqtda paydo bo‘lishlari ham mumkin: yaqin o‘tmishda (1991-yilgacha) o‘zbek tilining faol so‘zlari bo‘lgan ayrim leksemalarning (partkom, raykom, gorkom, obkom, kolxoz, sovxoz kabilarning) hozirgi kunda eskirib, istorizmlar qatoriga qo‘shilgani buning dalilidir.

Istorizmning muhim belgilaridan biri shuki, uning ifoda plani (nomemasi) va mazmun plani (sememasi) birga eskiradi, binobarin, leksema yaxlit holda hozirgi til birligi bo‘lmay qoladi".

Istorizmlar va arxaizmlarning ikkalasi ham eskirgan so‘z bo‘lsa-da, lekin ularning bir-biridan ajralib turuvchi farqlari bor. "Istorizmlar eskirgani va iste’moldan chiqib qolgani jihatdan arxaizmga o‘xshasa-da, biroq bunday so‘zlarning farqlari ham mavjud:

1. Arxaizmlar orqali ifodalanadigan narsalar mavjud bo‘lsa, istorizmlar orqali ifodalanadigan predmetlar yo‘qolgan bo‘ladi.
2. Arxaizmlarning ekvivalenti mavjud bo‘lib, u shu bilan (yangi so‘z yoki sinonimi bilan) ifodalansa, istorizmlarning ekvivalenti bo‘lmaydi.
3. Arxaizmlar davrlar o‘tishi bilan passiv so‘zdan aktiv so‘zga aylanishi mumkin, istorizmlar esa bunday xususiyatga ega emas"[215].

Asarda ishlatilgan istorizmlarga ***"saroparda", "g‘ulom", "ariz", "arroda" va "quljallob"*** singari leksemalarni misol qilib olishimiz mumkin. ***"Saroparda"*** so‘zi asli forscha so‘z bo‘lib, "podshoh chodiri, qarorgohi; haram" ma’nolarini bildiradi. Tarixda ham shu semalarni ifodalash maqsadida qo‘llanilgan: "Bir zum uning ko‘z oldiga qimmatbaho sheroziy gilamlar to‘shalgan ipak ***saroparda*** keldi".

Saroyda xizmat qiluvchi yigit, xizmatkorga nisbatan qo‘llanilgan ***"g‘ulom"*** leksemasi ham bugungi kunda istorizm hisoblanadi. Mazkur so‘z arab tiliga mansub bo‘lib, eskirgan kitobiy so‘zdir. Ushbu so‘z asarda quyidagi o‘rinda foydalanilgan: "Rost, ba’zan bozor mutasaddilari, ayniqsa, Mozori kalon shayxlari uni shakkoklikda ayblab, G‘aznadan quvmoqchi ham bo‘lishadi, biroq Qutlug‘qadamning baxtiga bundan qirq besh yil muqaddam, o‘sha o‘n to‘rt yashar sohibjamol sabab yosh Mahmud sodiq ***g‘ulomini*** saroyda haydaganida, unga "boshqa jazo berilmasin", deb amr-u farming qilgan".

Keyingi leksik birligimiz ***"ariz"*** so‘zidir. "Attang bundan uch oy avval, sulton ul betavfiq hakimga eng ishonchli nadimi, ***ariz*** Abulvafo Sariqni yuborarkan, bu ishni hammadan, hatto, Xurosonga yurish qilib, shu kunlarda Isfahonda lashkar tortib turgan

[215] Y.Pinxasov - "Hozirgi o‘zbek adabiy tili". T.: "O‘qituvchi". 1969. 41-b.

o‘g‘li amir Masuddan ham sir saqlashni iltimos qilgan edi". Bu parchada ***"ariz"*** leksemasi "harbiy devon sohibi, vazir" ma’nosini ifodalab kelmoqda.

"Arroda" so‘zi ham istorizm bo‘lib, tarixda urushda qo‘llanilgan tosh otuvchi qurolga nisbatan ishlatilgan. "Bu yurish chog‘ida o‘nlarcha shaharlarni bir hamla bilan zabt etgan sultonning muzaffar qo‘shinlari esa bu qal'a ro‘parasida ojizlik qilmoqda, ne-ne qal'a devorlariga yetgan narvonlar bu qal'aning osmono‘par devorlariga yetmayapti, boshqa qal'alarni qog‘ozday teshgan ***arrodalar*** bu qal'aning metin devorlariga "tishi" o‘tmay turipti".

So‘nggi so‘zimiz ***"quljallob"*** so‘zidir. X-XI asrlarga "qulfurush" so‘zidan ***"quljallob"*** shaklida foydalanilgan: "Men ***quljallob*** emasmenki, bir sho‘rlikni senga oltinga sotsam!"

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tarixiy asarlardagi istorizmlarni o‘rganish orqali o‘sha davr muhitini aniqroq tasavvur qilishimiz, shuningdek, buyuk bobolarimiz foydalangan va hozirda biz bilmaydigan so‘zlardan ham boxabar bo‘lishimiz mumkin. Shu sababli ham, istorizmlarni tadqiq qilish dolzarb masalalardan biri sanaladi.

ADABIYOTLAR*:*

1. O. Yoqubov - "Ko‘hna dunyo". T.: " Yangi asr avlodi". 2018.
2. H. Jamolxonov - " Hozirgi o‘zbek adabiy tili". T.: "Talqin". 2005.
3. Y. Pinxasov - "Hozirgi o‘zbek adabiy tili". T.: "O‘qituvchi". 1969.
4. "O‘zbek tilining izohli lug‘ati" - Toshkent. "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat milliy nashriyoti. 2006-2008.

SADRIDDIN AYNIYNING ASARLARIDA QO‘LLANILGAN MAQOLLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Raxshona MUSLIXIDDINOVA,
NavDPI O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) N.J.Yarashova

Annotatsiya: Har bir millatning boy ma’naviy merosining ajralmas bir bo‘lagi sifatida yashab kelayotgan paremiologik birliklar, ya’ni maqol, matal va iboralarni o‘rganish, ularda aks etgan xalq hayotini, insoniy tuyg‘ular tasvirini ko‘rsatish doimo muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada S.Ayniy asarida qo‘llanilgan maqollarning madaniyatimizda tutgan o‘rnini aniqlash, lingvomadaniy jihatdan o‘rganish, semantik jihatdan tasniflash masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: paremiologik birliklar, maqol, matal, ibora, sema, semema.

Аннотация: изучение паремиологических единиц, то есть пословиц, поговорок и поговорок, живущих как неотъемлемая часть богатого духовного наследия каждого народа, всегда имеет первостепенное значение для отображения отраженного в них народного быта, образа человеческих чувств. В этой статье С.В работе Айни освещены вопросы определения места пословиц в нашей культуре, их лингвокультурного изучения, семантической классификации.

Ключевые слова: паремиологические единицы, пословица, поговорка, фраза, сема, семема.

Abstract: the study of paremiological units, that is, proverbs, sayings and sayings that live as an integral part of the rich spiritual heritage of each nation, is always of paramount importance for displaying the national way of life reflected in them, the image of human feelings. In this article, S. Aini's work highlights the issues of determining the place of proverbs in our culture, their linguistic and cultural study, semantic classification.

Keywords: paremiological units, proverb, saying, phrase, Sema, semema.

Hikmatli so‘zlar, maqollar biz uchun asrlarning sadosi, uzoq o‘tmish bilan hamnafaslik hissini uyg‘otuvchi mangu chaqiriq, zamonlararo ko‘prikdir. Hikmatli so‘zlar, maqollar — noma’lum shoirlarning yurak satrlari, xalq iste’dodining masofa bilmas shu’lalari[216]. Badiiy asarlar mazmunan va shaklan jihatdan mutanosib bo‘lsagina, yetuk asar darajasiga chiqa oladi. Paremiologik birliklar barcha tillarda individual o‘rganilgan va hali ham tadqiq etilayotgan hodisadir.

Olim N.M.Shansky frazeologizmlarni to‘rt turga bo‘lib o‘rganadi:

1. Frazeologik chatishmalar;
2.Frazeologik butunliklar;
3.Frazeologik qo‘shilmalar;
4.Frazeologik iboralar[217].

Maqollar – bu xalqning donoligini, millatning ruhini, uning madaniyatini ko‘rsatadigan xalq og‘zaki ijodining gavharidir. Maqollarni, xususan, xalq ijodiyotini o‘rganish, tadqiq qilish bugungi kunda juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hatto maqollar bilan, ularni asarlarda qo‘llanishi bilan tilimizda ham tarjima ishlari ham olib boriladi. Sh.Rahmatullayev, Y.Pinxasov, Q.Samadov, Sh.Shoahmedov, X.Abdurahmonov, M.Sadriddinovalarning ishlari, shuningdek, G‘aybulla as-Salomning 1966-yil nashr etilgan “Til va tarjima”, 1961-yilgi “Maqola va idiomalar tarjimasi” ishlari ahamiyatga molikdir. O‘zbek tilshunosligida xalq maqollarining to‘laqonli sinonimik lug‘ati esa B.Jo‘rayeva tomonidan tuzilgan.

“Xalq maqoli har bir kishi amal qilishi lozim bo‘lgan o‘ziga xos axloqiy hodisalar kodeksidir”[218].

Maqollar orqali matn mazmuni anglashiladi. Asarlarda turli xil voqea- hodisalar, turli xil shaxslar obrazining tasvirini berishda, voqealarni to‘ldirib kelishda eng maqbul usul maqollarning qo‘llanilishidir. Ayniy har bir asarida maqollardan unumli foydalanadi. “Doxunda” asarida quyidagi maqollarni qo‘llanililganiga guvoh bo‘ldik:

“Boshqalar ham xizmatkoringiz, non-u tuzingiz bilan tarbiya topmoqdalar, ulara ham ba’zan ish buyuring!”” deganimda, u kishi “Alimardon dunyoda ikta emas. ***“Har bir echki xirmon yancha olsa, ho‘kiz kerak bo‘lmay qolardi”*** *deb, mening uddaburonligimga ishora qildirlar. (27-bet)*

Azimshox xo‘jayin va Alimardon yasovul o‘rtasidagi suhbatda Bek tomonidan aytilgan bu gapning qistirib o‘tilishida, Bekning boshqa yasovullari ko‘p bo‘lsa-da, Alimardonga ko‘proq suyanadi, chunki u o‘z ishini ustasi bo‘lib, vazifasini maromiga yetkazib bajarar edi. Majozga asoslangan bu maqolda xirmon yanchishni faqat ho‘kiz kuchli bo‘lgani sabab (!) yancha oladi, echkining qo‘lidan kelmaydi. Agar echki ham qila olganda ho‘kiz nima kerak, uning ho‘kizligi (kuchliligiga nisbat berilyapti) qayerda qolardi deyilishi “Doxunda”dagi aynan o‘sha vaziyatga Alimardon yasovul qarashi bo‘yicha qolipdek mos tushgan.

“Tuya qancha katta bo‘lsa, yag‘iri ham shuncha katta” *deganlar, – dedi xo‘jayin, – somonim ko‘p bo‘lsa molim ham ko‘p. Bir hovuch somonnni hisobga olmasam buncha molni qanday boqaman. Menga xirmon boshidan ikki qop somon keltirib bergandek gapirasan-a! (22-bet)*

Bu o‘rinda ish yoki boshqa nimadir qanchalik katta yoki ko‘p bo‘lsa, uni muammosi ham shuncha katta bo‘lishi nazarda tutilyapti. Maqol aynan qo‘llangan vaziyat bilan muqoyasa qiladigan bo‘lsak, mol qancha ko‘p bo‘lsa, unga ketadigan xarajat, yemish ham

[216] Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. – Toshkent, 1990. 5-bet.
[217] Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. 1963.
[218] Пословитси и поговорки народов Вастока. – Москва, 1961. – Б. 13.

anchayin bo‘ladi; tuya qanchalik katta bo‘lsa, karvonda anchayin tosh bosadi, ammo keyin uni yag‘iri ham bisyor bo‘ladi.

*Ikki botmon berib, to‘rt botmon olayotirsiz. Biroz kam kelsa ham zarar ko‘maysiz! – dedi dehqonlardan biri. — **“Hisoblasang qilni qirq bo‘l, bag‘ishlasang qing‘ir bo‘lma!”** deganlar, – dedi xo‘jayin. Men senlarga in’om qilmoqchi bo‘lsam, o‘z vaqtida, o‘z joyida bo‘ladi. Hozir hisobni puxta qilish kerak. (22-bet)*

“Hisobli do‘st ayrilmas” maqoli yuqoridagi maqolning birinchi qismiga mos kelsa, saxiylik haqidagi hikmatli so‘zlar ikkinchi qismini to‘ldirib keladi. Hisob-kitob bilan bo‘lgan kelishuv ikki tomonni ham rozi qiladi, biroq saxiylik, xayr-sadaqa haqida gap ketganda chin yurakdan bag‘ishlash haqidagi fikr uqtirilmoqda.

*Jonim bilan, ha qanday xizmatingiz bo‘lsa, ko‘nglingizdagidek qilib bajarib berishga va’da beraman, sizning duoyingiz g‘animat, – dedi ‘‘muhabbat ulushi’’ni eshitgan Alimardonbek. **“Quruq nafas naydan sado chiqarmaydi”** deydilar. Men ham ‘‘duoiyi obdor’’ qilaman. (30-bet)*

Bu jumla hozirgi kunda ko‘p qo‘llaniladigan “Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi” maqolining semasi sifatida qo‘llanilmoqda. Xalq orasida “Quruq qoshiq og‘iz yirtar” tarzida uchratishimiz mumkin.

***“Agar kasal sog‘ayadigan bo‘lsa, tabib o‘zi kelib qoladi”** deydilar. Darvozli mashhur Sultonxon eshon bu kecha qishlog‘imizga Hojiyoqubbekning hovlisiga mehmon bo‘lib kelgan. Buning o‘zi kasalning sog‘ayish alomatidir. Men hozir borib, shu kishini olib kellib o‘qitaman, sog‘ayib ketadi. (36-bet)*

Ushbu maqolda o‘z muammoviy tuguni yechilayotgan voqeaga boshqa kimdir shunchaki qo‘l uchida kelib aralashib va xuddi o‘sha shaxs yoki omil sabab(!) hal bo‘lib ketgandek bo‘lishi kabi hayotiy hodisa tasvirlangan.

*G‘aflat uyqusida qolibman, kelganingizni ham bilmabman. Aybga buyurmaysiz, – deb uzr so‘radi. — Zarari yo‘q! **Tush uyqusi – qush uyqusi** deganlar azizlar. Bu har kimga ham nasib bo‘lavermaydi. Bunday uyqu xudoning yaxshi ko‘rgan bandalariga, qushday begunoh odamlarga nasib qiladi. (26-bet)*

*Agar ho‘kizlardan birini nazr qilmoqchi bo‘lsang mayli, o‘zim olib boraman. Lekin b u kecha eshon hazratlarini olib borish mumkin emas, chunki yurtning ulamo va fuzalolari u kishining ziyoratlariga kelgan, hozir o‘shalar bilan suhbatdalar. Erta ishroq namozidan keyin olib borishga va’da beraman, – deb uni jo‘natdi. Darvozaxonaning bir burchagida turib, bu suhbatni eshitayotgan boyning qaroli – Zufar **“echkiga jon qayg‘usi, qassobga yog‘ qayg‘usi”** deb qo‘ydi o‘z-o‘ziga.(41-bet)*

Bu maqolning dublet shakli “Echkiga jon qayg‘usi, qassobga mol qayg‘usi” bo‘lib, ikkisi ham bir ma’noni beradi. Har kim o‘z foydasini o‘ylab ish ko‘rishi haqidagi bu maqol kontesktdagi “Agar kasal sog‘ayadigan bo‘lsa, tabib o‘zi kelib qoladi” maqolinig mantiqiy yaqinlikdagi o‘xshashi desak xato bo‘maydi.

Buni jin chalibdi. Vaqti o‘tibdi. Kechaning o‘zida menga xabar berishing kerak edi. Vaqtida kelib jinlarni bog‘lardim, – dedi va uy egasini umidvor qilish niyatida: – hozir ham vaqti, kuchimiz yetguncha harakat qilamiz. Ajab emaski omon *qolsa, **“To resha dar obast umedi samarast (Daraxt ildizi suvda ekan, mevadan umid bor.)”** deganlar…(42-bet)*

Umidni uzmaslik, kishining bir ishni kelajagiga etimot, ertasiga ishonch ma’nosi bilan sug‘orilgan bu maqol asar davomida berilgan “Toki yomon kunni o‘ylamasang, yaxshi kun kelmaydi” bilan pobastadir.

*Balli! – dedi boy, – o‘yla, bitta-yarimta bilan maslahatlashib ham ko‘r! **“Maslahat bilan bichilgan to‘n qisqa kelmaydi”** deganlar. Xotin-bolangni och qoldirib zoriqtirib yurma. Yeydigan nonlaring bo‘lmasa darrov kelib bug‘doy so‘ra. (50-bet)*

“Maslahatli osh tarqamaydi”, “Maslahat bilan bichilgan to‘n qisqa kelmaydi”, shuningdek, shu maqolga uzviy bog‘liq bo‘lgan “Yetti o‘lchab bir kes” maqollarida har bir amalni maslahatlashgan holda puxta o‘ylab bajarish lozimligi uqtiriladi. Xalq orasida “Maslahatli bilan bichilgan to‘n kalta kelmaydi” tarzida ham uchratish mumkin.

Chunki boyning keyingi gaplaridan o‘sha bir qop bug‘doyni ham xatsiz-garovsiz bermasligini payqagan edi. Bola nonsiz chidayolmaydi. Shuning uchun, ***“bolta kelguncha, kunda tinch turadi”*** *degan maqolni eslab: “bugunni ko‘ray, ertaga nima bo‘ladi, ertaga ko‘rarman” deb xat berishga rozi bo‘ldi. (54-bet)*

Maqolda har bir amal o‘z vaqtida bo‘lishiga ishora qilinadi. Kundani bolta chopadi, to chopilmaguncha shundoq holida turaverishi misol qilingan. Maqolni “bir gap bo‘lar” tarzida tushunish ham mumkin. Xalq orasida esa “Bolta kelguncha kunda kutib turadi” shaklida uchratamiz.

To‘g‘ri to‘y ham qarz. Lekin fursatlik qarz. Bir ikki yil kechiksa ham zarar qilmaydi, ***“kech bo‘lsa bo‘lsin, kuch bo‘lmasin”.*** *(55-bet)*

“Hechdan ko‘ra kech” jumlasi yuqoridagi maqolimizning qisman bo‘lsa-da sinonimi bo‘lib, bir ish kech bo‘lsa ham xayrli bo‘lsin, yaxshilik bilan bo‘lsin, toki kuch, qistov, og‘irlik bilan emas, kishi xohishiga ko‘ra yaxshilikka bo‘lishi ko‘zda tutilyapti. Har bir adib o‘z asarining badiiy ahamiyatini oshirish uchun albatta emotsional birliklarni qo‘llashi tabiiy hol.

Sadriddin Ayniyning “Doxunda” asarida qo‘llanilgan maqollar kishilarning, ayniqsa, yosh avlod kamolotida muhim ahamiyatga egadir. Asarda ishlatilgan maqollar yoshlarning tafakkur tarzini kengaytiradi, ularni to‘g‘riso‘z, rostgo‘y, mehnatsevar, mard, jasur, sabotli va matonatli bo‘lishiga o‘rgatadi, ulug‘ insoniy fazilatlarni kamol topishida tayanch vazifasini o‘taydi.

ADABIYOTLAR

1. Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov Sh. Ma’nolar maxzani . – Toshkent, 2001.
2. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Нега шундай деймиз?. Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва саньат нашриёти, 1988.
3. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. – Тошкент, 1990.
4. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.
5. Sadriddin Ayniy. Doxunda. Asarlar. Sakkiz tomlik. Ikkinchi tom. – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965.

MAHMUD QOSHG‘ARIYNING “DEVONI LUG‘OTIT TURK” ASARI VA UNDA BERILGAN MAQOL VA MATALLARNING TARIXIY VA HOZIRGI TALQINI

Xurshidabonu RAMAZONOVA,
NavDPI o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.n. O‘.A.Oripov

Annotatsiya: Mahmud Qoshg‘ariy yashagan davr va ijodkorning ijodiy merosi hamda o‘lmas asari “Devoni lug‘otit turk” chuqur o‘rganilib, har tomonlama tahlil qilishga harakat qilindi. Asar har tomonlama tahlil qilinib, asardagi maqol va matallar diaxron va sinxron jihatdan tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: leksika, leksikom, leksikografiya, diaxron tahlil, sinxron tahlil, etimologiya, o‘z ma’no, ko‘chma ma’no, bir ma’noli so‘zlar, ko‘p ma’noli so‘zlar.

Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir.

“Ta’lim va ma’rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo‘l” shiori Islom hamkorlik tashkilotining bugungi anjumani mavzusi etib belgilangani bejiz emas. Imom Buxoriy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Iso va Hakim Termiziylar, Mahmud Zamaxshariy, Muhammad Kaffol Shoshiy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy va boshqa ko‘plab daholar nomi nafaqat islom, ayni vaqtda jahon sivilizatsiyasi tarixida haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan[219].

Turkiy xalqlar tarixida Qoraxoniylar davri deb yuritiladigan X-XII asrlar alohida ajralib turadi. Tarixiy manbalar shunga guvohlik beradiki, X asrlarga kelib xalifalik birmuncha kuchsizlashdi. Markaziy Osiyoda qarluq qabila ittifoqi kuchaya boshladi va Yettisuvda qoraxoniylar dinastiyasi yoki Ilikxon dinastiyasi vujudga keladi.

Qoraxoniylar sharqda uyg‘ur, g‘arbda esa turk-eron madaniyatini o‘zida uyg‘unlashtirib, Markaziy Osiyoning eng madaniy va eng yirik turk davlatchiligiga asos soldilar. IX asrning ikkinchi yarmida qoraxoniylar davlatining ma’muriy chegarasi ancha kengaydi: yuqori Chindan, Farg‘ona, Tarkan, Buxoroga qadar cho‘zilgan katta hudud Bug‘raxon tasarrufiga o‘tadi.

Bu davrda yozma adabiyot rivojlandi. Turk madaniyati, tiliga qiziqish boshqa xalqlar o‘rtasida kuchaydi. Shuning uchun ham turkey tilde Yusuf Xoc Hojibning “Qutadg‘u bilig” epopeyasi va turkiy tilni o‘rganishni xohlovchi arablarning ehtiyojini qondirmoq uchun Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari maydonga keldi.

Tilshunoslik tarixida Mahmud Qoshg‘ariyning salmoqli o‘rin egallaydi. U tilshunoslikning juda ko‘p sohalari bo‘yicha qalam tebratdi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning otasi, fonetist-fonolog, leksikolog, leksikograf, lingvogeograf, turkiy tillar sarf va nahv ilmining asoschisi sanaladi.

S.Mutallibov ta’kidlaganidek, Mahmud Qoshg‘ariy yaratgan “Devonu lug‘atit turk” asari faqat o‘sha davr uchungina katta voqea bo‘lib qolmay, bugungi turkologiya fani uchun ham o‘z qimmatini saqlab kelmoqda. U haqli ravishda turkologiya fanining asoschisi hisoblanadi.

Afsuski, ana shunday buyuk tilshunoslikning ilmiy merosidan jahon ilmiy jamoatchiligi asrimiz boshlariga qadar bebahra bo‘lib keldilar, chunki bu davrgacha Mahmud Qoshg‘ariyning hayoti va uning “Devon”i haqida ma’lumot yo‘q edi. Arab fani shuhratini yoyishga sabab bo‘lgan bibliografik va biografik asarlarda ham, Hoja Xalfa lug‘atidan boshqa birortasida bu olim haqida ma’lumot berilmadi. Faqat 1914-yilda turkiyaning Diyorbakir shahrida istiqomat qiluvchi Ali Amiriy tomonidan tasodif tufayli Mahmud Qoshg‘ariy ning “Devon”i topilib, lingvistika tarixida mo‘jiza ro‘y berdi. Chunki bu asar tilshunoslikning juda ko‘p sohalarini qamrab olgan qomusiy bir asar edi.

Tilshunoslik tarixida qiyosiy-tarixiy tilshunoslik XIX asrdan paydo bo‘ldi deyiladi va uning asoschilari sifatida Frans, Bopp, Rasmus Rask hamda Yakov Grimmlar e’tirof etiladi. Buning sababi shundaki, G‘arb olimlari Mahmud Qoshg‘ariyning “Devon”i bilan XX asrning birinchi choragiga qadar tanish bo‘lmagan. Agar tanish bo‘lganlarida edi, uning tilshunoslikdagi xizmatlari oldida tiz cho‘kkan va qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, lingvogeografiya singari tilshunoslik yo‘nalishlarining otasi sifatida Mahmud Qoshg‘ariyni

[219] Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. -Toshkent “O‘zbekiston”, 2018, 27-29-betlar.

e’tirof etgan bo‘lardilar. Uning asari oldida ta’zim bajo aylagan mashhur turkolog A.M.Shcherbak shunday yozadi: “Mahmud Qoshg‘ariyning “Devon”iga na materialning hajmi jihatidan bas keladigan biron asar yo‘q. “Devon”ning lug‘at deb atalishi uning mazmuniga uncha mos kelmaydi. Bunda turkiy tillar grammatikasidan juda ko‘p ma’lumotlar bor… Yana unda turkiy tillar lesikasi, fonetikasiga doir keng ma’lumotlar, qabilalarning joylanish xususiyatlari, geografik va boshqa xil ma’lumotlar mavjud”.

Darhaqiqat, Mahmud Qoshg‘ariy turkiy qabilalarni birma-bir kezib, ularrning tilidagi farqli xususiyatlarni aniqladi, til xususiyatlariga ko‘ra turkiy tillarni guruhlarga tasniflash imkoniyatiga ega bo‘ldi. Mahmud Qoshg‘ariyning o‘zi bu haqda shunday deydi:” Puxta qo‘llanma bo‘lsin deb, har bir qabilaning o‘ziga xos xususiyatlariga qiyosiy qoidalar tuzdim… Bu masalaga qiziqqan mutaxassislarga asarni qo‘llanma qildim”[220]

Mashhur sharqshunos P.K.Juze Mahmud Qoshg‘ariy haqida shunday yozadi: “…Dadil aytish mumkinki, yaqindagina (XIX asr oxirlarida)Rossiyada va Sharqda o‘rganilgan turkiy tillar fonetikasi va etimologiyasining asosiy qonunlari Xi asrdayoq Mahmudning bu tekshirishlari shu qadar keng va chuqurki, hatto bunday asar XIX asrda yozilganda ham, unga shon-sharaf bo‘lardi. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devon”i singari asar fan olamida keying asrlarda ham yaratilgan emas. Uning asari bamisoli “Turkiy qomusdir”[221].

Mahmud Qoshg‘ariy leksikografiya sohasida dunyo tilshunosligida yuksak cho‘qqiga ko‘tarildi. U XI asrdayoq turkiy so‘zlarning izohli lug‘atini tuzdi. Mahmud Qoshg‘ariyga qadar arab tilshunosligida leksikografiya sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishilgan edi. Xususan, Xalil al-Farohidiy ibn Ahmadning “Kitobul-ayn”, Sibavayhiyning “al Kitob” singari asarlari arab olamida shuhrat qozondi. Mahmud Qoshg‘ariy ularning lug‘at tuzish prinsiplariga tanqidiy nuqtai nazardan yondashib, o‘ziga xos yo‘ldan bordi. Bu haqda muallifning o‘zi shunday yozadi: “ Men bu kitobni maxsus alifbe tartibida hikmatli so‘zlar, sa’jlar, maqollar, qo‘shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim, qattiq joylarini yumshatdim, qiyin va qorong‘u joylarini yoritdim. Bu ish ustida so‘zlarni o‘z o‘rniga qo‘yish , kerakli so‘zlarni osonlik bilan topish uchun bir necha yillar mashaqqat tortdim. Nihoyat, kerakli so‘zlarni o‘z joyida qo‘llaydigan, qiyinchiliksiz topa oladigan bir holga keltirdim…”[222]

Mahmud Qoshg‘ariy turkiy tilning amaldagi leksik imkoniyatlarini ko‘rsamoq uchun turk qavmlari ichida birma-bir yurib, ullarning tillaridagi umumiy va o‘ziga xos tomonlarini o‘rganishga harakat qildi. Bu haqda shunday yozadi: “ Men turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar, qirg‘izlarning qishloq va shaharlarini ko‘p yillar kezib chiqdim, lug‘atlarini o‘rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganligim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim”[223]

Xullas, Mahmud Qoshg‘ariy turkiy tillarning qiyosiy fonetikasi, qiyosiy fonologiyasi, qiyosiy leksikologiyasi, so‘z yasalishi hamda qiyosiy morfologiyasi haqida batafsil ma’lumot bergan, lug‘at tuzishning namunali mezonini yaratgan, qiyosiy tilshunoslikning, dialektologiya, lingvogeografiya kabi tilshunoslik yo‘nalishlarning asoschisi bo‘lgan buyuk tilshunos olimdir.

Olim ushbu tarixiy-etnografik asarida nafaqat toponimlar, balki, etnonimlar, antroponimlar, kosmonimlar va boshqalar xususida atroflicha fikr yuritilgan. Bulardan tashqari, asarda atoqli otlar ko‘rsatkichi, xalq, urug‘ va qabila nomlari, planeta, yulduz va

[220] A. Nurmonov O‘zbek tilshunosligi tarixi. Toshkent “O‘zbekiston” 2002 34-bet
[221] A. Nurmonov O‘zbek tilshunosligi tarixi. Toshkent “O‘zbekiston” 2002 42-bet
[222] A. Nurmonov O‘zbek tilshunosligi tarixi. Toshkent “O‘zbekiston” 2002 42-43-betlar
[223] A. Nurmonov O‘zbek tilshunosligi tarixi. Toshkent “O‘zbekiston” 2002 45-46-betlar

fasl nomlari, grammatik koʻrsatkichlar, maqol va matallar hamda ularning tarixiy va hozirgi koʻrinishlari bayon qilingan. Jumladanasarning oxirida 21 xil mavzuda maqol va matallar berilgan. Biz shulardan ayrimlarini oʻrganib tahlil qiladik:

1. Qush qanatin er atin – Qush qanoti bilan, er oti bilan
2. Tutushmagincha tuzulmas, tubirmagincha achilmas – Urushmaguncha yarash boʻlmaydi, shamol qoʻzgʻalmaguncha havo ochilmaydi.
3. Ot tesa agʻiz kojmas – Oʻt degan bilan ogʻiz kuymas.
4. Agʻiz jesa koʻz ujazur – Ogʻiz yesa, koʻz uyalur
5. Oʻri qobsa ugʻush oqlishur, jagʻI kelsa imram tebrashur – Faryod koʻtarilsa, urugʻlar toʻplanadilar, dushman kelsa hamma yigʻiladi.
6. Inang ingrasa botu bozlar – Urgʻochi tuya ingrasa, erkak tuya boʻzlaydi.
7. Arpasiz at ashumas, arqasiz alp cherik sijumas – Arpasiz ot qir osholmaydi, yordamchisiz yigit jangda yenga olmaydi.
8. Arqasiz er cherik sijumas – Yordamsiz qahramon jang saflarini sindirolmaydi
9. Etli tirnaqli ezirmas – Er tirnoqdan ayrilmas
10. Sabanda sandirish boʻlsa ortkunda ertish bolmas – Sabanda xusumat chozilgan bolsa, gʻaram vaqtida u boʻlmaydi.
11. Qachish boʻlsa qaja koʻrmas – Xalqda shov-shuv qoʻzgʻalsa, hech kim bir-biriga boqmaydi.
12. Quruq qashuq agʻizqa japamas, qurugʻ soʻz quloqqa jaqishmas – Quruq qoshiq ogʻizga yoqmas, quruq soʻz quloqqa yoqmas.
13. Necha jitik bichak ersa oz sabin janumas – Pichoq qancha oʻtkir boʻlsa ham, oʻz sonini yoʻnmaydi.
14. Koʻzaku uzun boʻlsa elik kojmas – Kosov uzun boʻlsa, qoʻl kuymas.
15. Bir qargʻa birla qish kelmas – Bir qargʻa qish kelmaydi.
16. Tutun qopursa, ishlanur – Kim tutunni qoʻzgʻotsa, oʻziga tutaydi.
17. Sokushub urushur, otra ton tirishur – Soʻkishdan urishish boshlanadi, oʻrtada toʻn yirtiladi.
18. Tagʻ-tagʻqa qavushmas, kishi kishiga qavushur – Togʻ toqqa qovushmaydi, odamga qovushadi.
19. Atasi achigʻ almila jesa ogʻlinin tishi qamar – Otasi achchiq olma yesa, oʻgʻlining tishi qamashar.
20. Tilku oʻz jiniga oʻrsa uzuz bolur – Tulki oʻz inidan nolisa, unga nomus boʻladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, asarda qayd qilingan maqol va matallarning har biri oʻziga xos purma'noligi va jozibadorligi bilan biri ikkinchisidan keskin farq qiladi. Maqol va matallar qanday mazmunda boʻlmasin, inson hayoti va kelajagi uchun didaktik ahamiyatga ega deb hisoblanadi. Asarni oʻrgananar ekanmiz, asarning gʻoyat boy materiallarga asoslanib yozilganligi qolaversa Mahmud Qoshgʻariy serqirra ijodkor ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qilamiz. Keyingi ilmiy izlanishlarimizda asarning yana boshqa ochilmagan qirralarini ochishni biz yoshlar oldidagi muqaddas burch deb oʻylayman.

ADABIYOTLAR

1. Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz Toshkent: "Oʻzbekiston", 2018.
2. A.Nurmonov Oʻzbek tilshunosligi tarixi. Toshkent, "Oʻzbekiston", 2002.
3. N.Husanov XV asrda oʻzbek yozma yodgorliklari tilidagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari. Toshkent "Yozuvchi", 1996.

“MEHROBDAN CHAYON” ROMANIDA QO‘LLANILGAN ANTROPONIMLARNING LISONIY TAHLILI

Mustafoyeva Mohichehra MANSUR QIZI,
NavDPI o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.n. O‘.A.Oripov

Asoslov: Ushbu ishda Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida keltirilgan antroponimlar hamda ularning etimologik, leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilingan. Bundan tashqari, antroponimlar tarixi, tuzilishi har tomonlama o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: antroponim, onomastika, antroponomika, antroponimlarning leksik-semantik xususiyatlari, antroponimlarni davrlashtirish, antroponimik semantika, antroponimik tahlil.

“Xalqimizning ko‘p asrlik madaniy, ilmiy-ma’rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo‘lgan o‘zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir”. Prezidentimiz Sh.M.Miromonovichning 2019-yil 21- oktabrdagi farmonlari ham o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzining oshishiga, tilning imkonyatlaridan to‘g‘ri va oqilona foydalanishga turtki bo‘ldi.[224]

Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri Abdulla Qodiriy o‘zbek romanchiligiga asos solib, milliy nasr uchun yangi davrni boshlab bergan ijodkordir. Bu noyob iste’dod sohibi XX asr o‘zbek adabiyoti tarixida o‘lmas iz qoldirdi. Qolaversa, Abdulla Qodiriyning asarlari badiiy mahorat namunasidir.

Tildagi atoqli otlarni, ularning paydo bo‘lishi, motivativ asoslarini, semantikasi, lisoniy strukturasini tilshunoslikning onomastika bo‘limi tadqiq qiladi. Onomastika—aslida grekcha so‘z bo‘lib, “nom berish san’ati” ma’nosini bildiradi. Onomastika tilning onomastik birliklarini tashkil qiluvchi har qanday atoqli otni lingvistik va sotsiolingvistik aspektda tadqiq qiladi. Onomastika—biror tildagi atoqli otlarning umumiy majmuini ifoda etadigan lug‘atdir va u muayyan davrdagi etnik guruhning tiliga tegishli bo‘lgan atoqli otlar yig‘indisidir.[225]

Ma’lumki, antroponimlar (yunoncha: antrop-antropos+onoma=atoqli ot)—kishi atoqli oti (ismi, familiyasi, laqab, taxallus, patronim va boshqalar). Ma’lum bir tilda mavjud bo‘lgan barcha kishi atoqli otlari majmui antroponim deb yuritiladi. Onomastika (nomshunoslik)ning bu bo‘limida kishi atoqli otlari (antroponimlar)ning paydo bo‘lishi, rivoji, va vazifaviy xususiyatlari o‘rganiladi.

Biz quyida Abddulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida uchraydigan antroponimlarni tahlil va tadqiq qilishga harakat qildik. Qolaversa, bu bo‘yicha barcha mulohazalarimizni asar syujetida ishtirok etadigan antroponimlar misolida ko‘rib chiqdik va imkon qadar tahlil qildik.

Antroponimlarni o‘rganish tarixi. Turkiy tillarda shaxs otlarini o‘rganish XIX asr oxiri XX asr boshlarida amalga oshirila boshlangan deb ko‘rsatilsa-da, XI asrlardayoq shaxs otlari izohiga e’tibor qaratilganini ta’kidlash joiz. Masalan, “Devoni lug‘atit turk”da bir qator shaxs otlari izohi keltirilgan. Antroponimikadagi dastlabki tadqiqotlar tarixiy-etnografik xarakterda yuzaga kelgan. Antroponimlarni lingvistika nuqtayi nazaridan o‘rganishda N.A.Baskakov, A.Satibaliyev, I.Kenesbayev, G.N.Jarkeshova,

[224] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PF-5850-sonli Farmoni. 2019-yil 21-oktabr. htpps:// lex.uz / docs /-4561730
[225] Begmatov E. A. O`zbek tili antroponimikasi. —T.: “Fan” nashriyoti, 2013. B.9.

T.Jonuzoqovlarning xizmatlari katta. T.Jonuzoqov qadimgi turkiy ismlarning boy kartotekasini yaratdi. O‘zbek tili antroponimikasining o‘ziga xos tabiatini etnolingvistik aspektda tahlil qilish, kishi ismlarining leksik-semantik xususiyatlarini yoritishda E.Begmatov alohida faoliyat ko‘rsatdi.[226]

Turkiy antroponimiya tizimini ilmiy tadqiq qilish o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlandi. Turkiy tilshunoslikda birinchi bo‘lib T. Jonuzoqov 1960-yilda “Qozoq tilida shaxs atoqli otlari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyani yoqladi. Turkiy tilshunoslikda kishi nomlariga bag‘ishlangan ushbu ilk tadqiqotda atoqli otlar tushunchasi, turdosh otning atoqli otga o‘tishidagi jarayon (onomasiya) hamda qozoq tilida bolaga ism qo‘yish motivlari, ismlarning yasalishi va grammatik tuzilishi haqida ma’lumot berilgan.[227]

O‘zbek antroponimiyasini zamonaviy ilmiy metodlar asosida o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar o‘tgan asrning 60-yillarida yuzaga kela boshladi. Ungacha bolaga ism qo‘yishga bag‘ishlangan ba’zi ilmiy-ommabop maqolalar nashr etilgan edi.

Dastlab, M.Shamsiyeva ism berishning ba’zi motivlari haqida, E. Begmatov ismlar ma’nosini tushunish va talqin qilishning xususiyatlari haqida, O‘. Nosirov esa ism qo‘yishning Qashqadaryo aholisi orasida tarqalgan udumlari va ismlarning lingvistik o‘ziga xosligi haqida maqolalar e’lon qilishdi.

M. Shamsiyevaning maqolasida ism berishning 5 xil motivi, qizlarni nomlashning 5 xil motivi, shuningdek, diniy ismlarning qo‘yilish sabablari aytilgan. O‘. Nosirov maqolada ism berish udumlari bilan aloqador ba’zi ismlarga keng to‘xtalgan. Masalan, chaqaloq dunyoga kelgach, uning badanidagi belgilarga ishora qiluvchi Qoriq, Qo‘shboy, Qo‘shboq, Qo‘shoq, Oltiboy ismlarining; go‘dakning yuzi, ko‘zi va sochiga xos xususiyatiga ko‘ra qo‘yiluvchi Ko‘kiboy, Sariboy, Qoraboy; agar chaqaloq tug‘ilganidan to yetti kunga qadar ko‘zi ochilmasa, unga Ochil, Ochiloy kabi nomlar berilishining; ba’zi ismlar chaqaloqning tug‘ilgan vaqtiga ishora qilishi Chorshanboy, Juma, Payshanba Bozor; bola biror voqea kuni tavallud topsa Haydar (shanba kuni bozorda sotish uchun mol haydashgan—mol haydar kuni) va boshqalar haqida ma’lumotlar berilgan.[228]

E. Begmatovning “O‘zbek tili antroponimikasi” kitobida ismlarning ma’no strukturasi, ismning unga asos bo‘lgan so‘z (apelyativ)dan semantik va funksional jihatdan farqi, ismlarga xos ba’zi antropoleksemalar, nomlarning tuzilish qolipi, ism va laqab, ism va taxallusning farqi haqidagi fikrlari keltirilgan.

O‘zbek ismlarining imlosiga bag‘ishlangan “Kishi nomlari imlosi”, “O‘zbek ismlari imlosi”, “O‘zbek ismlari” kitoblarida ism berishning etnolingvistik va diniy motivlari izohlangan, qolaversa, o‘zbek ismlarining ma’nolari talqin qilingan “O‘zbek ismlari ma’nosi” va boshqa bir qator asarlar buning yorqin isbotidir.[229]

Antroponimiya tarixini davrlashtirish. Turkiy tillar antroponimiyasi tarixidagi jiddiy, sezilarli o‘zgarish yasagan davrni 3 ga bo‘lish mumkin:

- Islom dini qabul qilingungacha bo‘lgan qadimiy davrlar;
- Islom dini qabul qilingandan XX asrlargacha bo‘lgan davr;
- XX asr va undan keyingi davr.

Uchinchi davrning o‘ziga xos xusuiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: a) o‘zbek ismlarida familiya va ota ism paydo bo‘ldi. O‘tgan asrning 40-yillaridan boshlab o‘zbek fuqarolari 3 qismdan iborat (ism-familiya-ota ism) tizimda nomlanadigan bo‘ldi; b) tilimiz

[226] Abduvaliyev D. Alisher Navoiy tarixiy asarlar leksikasi. —T.: “Fan” nashriyoti, 2016. B. 105-116
[227] Begmatov E. A. O`zbek tili antroponimikasi. —T.: “Fan” nashriyoti, 2013. B.11.
[228]Begmatov E. A. O`zbek tili antroponimikasi. —T.: “Fan” nashriyoti, 2013. B.17.
[229]Begmatov E. A. O`zbek tili antroponimikasi. —T.: “Fan” nashriyoti, 2013. B.19.

yangi ismlar bilan boyidi: Uchqun, Yorqin, Inqilob kabi. d) ikki qismdan iborat arabcha oʻzlashma nomlarni qisqartirib, qoʻshma ismning bitta komponentini tushirib nomlash kuchaydi: Abduvohid—Vohid, Murodulla—Murod kabi.[230]

Ismlar tarixining rivojlanishini davrlashtirishda oʻsha davr antroponimiyasidagi muhim oʻzgarishlarni inobatga olish ayni mudaodir.

Antroponimlarning apellyativ genetikasi. Hozirgi oʻzbek tilida iste'molda boʻlgan ismlarda faqatgina oʻzbek aholisining istak va motivlari yotadi, deb tushunish chegaralidir. Tojikcha, arabcha nomlarning koʻpchiligiga xos motivlar—oʻsha nomlar yaratilgan tojik va arab tillarida yuzaga kelgan va oʻsha tilda qolgan. Masalan, Muso, Iso, Ishoq ismlarining motivi qadimgi yahudiy tilida; Abdusamad, Abduvohid, Abdulla nomlari motivi arab tilida; Binobar, Baxshanda, Gavharshod, Xorkash, Tojinor ismlari motivi fors-tojik tilida qolgan.

Oʻzbeklar bu nomlar ism berish didi, motivi va estetik tasavvurlariga mos kelgani uchun, ularni turli davrlarda oʻzlashtirgan va bolaga ism sifatida qoʻygan. Demak, tilimizda hozirda udum boʻlgan ismlarni ijod qilishda oʻzbeklardan tashqari arab, tojik va boshqa xalqlarning ulushi bor.

Ism asosida yotgan apellyativ genetik jihatdan qaysi xalq tiliga tegishli boʻlsa, ism oʻsha xalqning ijodi deyish ham toʻgʻri boʻlavermaydi. Chunki, bunday ismlarni arab yoki fors-tojik tilidan oʻzlashgan oddiy, turdosh leksemalar asosida xalqimizning oʻzi yasagan boʻlishi mumkin. Masalan, Anvar, Asal, Murod, Kotiba, Ma'rifat kabi ismlarni arabcha leksemalar asosida oʻzbeklar oʻzi ijod qilgani aniq.[231]

"Oʻzbek ismlari ma'nosi" kitobida 2400 ismga oʻzbekcha, 1717 ismga fors-tojikcha, 3070 ismga arabcha belgisi qoʻyilganini koʻrsatadi. Hisoblashda zaminida sodda leksema yotgan ismlar va har ikkala komponenti bir tilga oid qoʻshma ismlar hisobga olingan. Yana shuni kuzatish mumkinki, asarda berilgan 804 sodda va qoʻshma ismning birinchi komponenti oʻzbekcha, 680 ismning birinchi komponenti fors-tojikcha leksema, 1744 ismning birinchi komponentini arabcha leksema tashkil etadi.

Mana shunday hisoblash boshqa tillardan oʻzlashgan ismlar boʻyicha ham belgilandi. Lugʻatda 35 ismga qadimiy yahudiycha, 21 ismga moʻgʻulcha, 9 ismga lotincha, 8 ismga pahlaviycha, 4 ismga soʻgʻdcha, 7 ismga hindcha, 1 ismga xitoycha belgisi qoʻyilgan, 79 ism esa qadimiy turkiy belgisiga ega.[232]

Yuqoridagi ma'lumotlardan koʻrinadiki, hozirgi oʻzbek ismlarining apellyativ asosini taxminiy hisobga koʻra, arabcha leksemalar, ikkinchi oʻrinda oʻzbekcha leksemalar, uchinchi oʻrinda fors-tojikcha leksemalar tashkil qiladi. Albatta, bu hisoblar nisbiy, taxminiydir.

E. Begmatovning "Oʻzbek tili antroponimikasi" kitobidagi tadqiqotlari natijasini tahlil qiladigan boʻlsak, olim ismlarning apellyativ semantik asosiga koʻra ismlarni: hayvonlar nomi; ba'zi jonzotlar nomi; oʻsimliklar va ulaning mahsuloti nomi; daraxtlar va ularning mahsuloti nomi; biror tabiiiy joy, oʻrinlar nomi; suv bilan bogʻliq tabiiy obyektlar nomi; samoviy (kosmik) obyektlar nomi; fasllar, oylar, kunlar nomi; yorugʻli, nur olov tushunchalari nomi; ba'zi tabiiy hodisalar va stixiyalar nomi; kasb-hunar, mashgʻulotlar nomi; oʻtmish davrga oid kasb-korlar nomi; qabila va elat nomlari; ba'zi tasodifiy harakat, jarayon, hodisa nomlari; rasm-odat, udumlar nomlari; oilaviy-ijtimoiy holatni ifoda etuvchi nomlar; oʻtmishga oid mansab, unvonlar nomi; son va miqdor ifodalaydigan leksemalar; bolalarning tugʻilish navbati va katta-kichikligi tushunchasini ifodalovchi leksemalar;

[230] Begmatov E. A. O`zbek tili antroponimikasi. —T.: "Fan" nashriyoti, 2013. B.148.
[231] Begmatov E. A. O`zbek tili antroponimikasi. —T.: "Fan" nashriyoti, 2013. B.108.
[232]Begmatov E. A. O`zbek tili antroponimikasi. —T.: "Fan" nashriyoti, 2013. B.108-109.

qavm-qarindoshlik tushunchalarini ifodalovchi leksemalar; badandagi ortiqcha yoki notabiiy belgini ifodalovchi leksemalar; uy-roʻzgʻor, maishiy buyumlar va ba'zi urush qurollari nomlari; ijodiy hislat, orzu va istaklarni anglatuvchi leksemalar kabi 23 guruhga ajratadi.

Apellyativ semantikasiga koʻra tahlil. "Mehrobdan chayon" romanida farzandga ma'lum sabablarga koʻra *Rajab, Safar* (chaqaloq tugʻilgan oy), *Navroʻz hofiz, Navroʻzqul, Qurbon oyim, Qurbon* (bayram va marosim kuni), *Asqarboy* (nom egasining oilada nechanchi farzand) qoʻyilgan ismlar, bundan tashqari diniy ma'noli Xudoyorxon (Alloh yor boʻladigan), Isoxon (Allohning yaqini), Mamat (Muhammad ismining qisqargan shakli) ismlari qoʻyilish oʻrinlarini ham uchratish mumkin.

Asardagi ismlarning ma'lum istaklar natijasida qoʻyilganligini koʻrib chiqdik:

- Farzand (ayniqsa, bolasi turmagan oilalarda) avvalgi turmagan bola oʻrniga Alloh bergan "tuhfasi, ehsoni, hadyasi" deb bilishadi va ushbu tushuncha motiv (sabab) qilib olinadi: *Tursun otaliq, Tuhfanisa* (Allohning ehsoni tuhfasi), *Niyoz domla* (Allohdan soʻrab olingan), *Hanifa* (mustahkam);
- Chaqaloqning kamtarin, oddiy odam boʻlishini istab, dilkash, mehribon boʻlishini istab: *Abdurauf* (oʻta mehribon, muruvvatli), *Abdurahmon* (mehribon), *Qumri* (qumridek beozor, yuvosh,) *Rahim* (mehribon, rahimli, marhamatli), *Nasim* (muloyim, yumshoq koʻngilli), *Abdukarimxon* (karamli, saxovatli, kechirimli), *Oxundjonboy* (oqkoʻngil);
- Ulgʻayib qadrdon, sadoqatli doʻst boʻlib yurishini istab: *Habib eshon* (qadrli, suyukli, doʻst, oʻrtoq);
- Bolaning ulgʻayib hammaga manzur, yaqin, yoqimtoy boʻlishini istab: *Asal* (shirin, yoqimli), *Shirin bekach* (yoqimli, suyukli), Gulshanbonu (yoqimtoy, shirin qiz)
- Tarbiyaning muhim moʻjizasi boʻlgan insonning xislatlaridan biri—pokiza, halol, gunohlardan holi boʻlishidir. Kishilar farzandining ulgʻayib mana shunday odam boʻlishini istashadi va ushbu istak bir guruh ismlarning qoʻyilishiga sabab boʻlgan: *Zarifa* (pok, toza), *Mas'uma* (toza, pok), *Safoxon toʻram* (tiniq, toza); Tarbiya koʻrgan, odobli insonni odamlar doimo qadrlashadi, uni maqtab olqishlashadi. Ota-onalar oʻz farzandini shunday odam boʻlib ulgʻayishini istab: *Sharif* (qadrli, nurli), *Roziya oyim* (qadrli, e'zozli);
- Farzandini komilligini istab: *Ahsan* (eng yaxshi), *Qobil* (iste'dodli, qobiliyatli), *Olim qovoq* (bilimdon) ismlari qoʻyiladi.

Ota-onalarning farzandlariga ezgu tilak va istaklari ifodalagan ismlarini quyida koʻrib chiqamiz:

1. Eng avvalo, bolani sogʻ-salomat oʻsib ulgʻayishini, uzoq umr koʻrishini istab, unga quyidagicha ism berishadi: *Salim* boʻyoqchi (sogʻlom yashovchi), *Poʻladxon* (uzoq umr koʻruvchi bola).
2. Bolaning kelajak umri charogʻon, omadli boʻlishini xohlashadi. Bola va uning kelajagi nurga, yogʻduga qiyos qilinadi: Anvar (ravshan, nurli), Sharif (nurli).
3. Bola ulgʻayib, nasibasi butun, rizq-roʻzli bolishini istashadi: Nasibbek, Nasiba (rizqli-roʻzli).
4. Bolaning baxtli, tolei baland boʻlishini istashadi: Mas'uda, Mas'ud (baxtli, baxtiyor), Na'ima (saodatli, peshonasi yorugʻ).
5. Farzandning goʻzal va maftunkor boʻlishini istab: Ra'no (qizil guldek goʻzal va muattar), Zebi (goʻzal, xushroʻy), Nodira (goʻzal, latofatli), Misqol hofiz (xushbichim, zebo).
6. Martabasi ulugʻ boʻlishini istab: Gulbonu (baland martabali), Mahmud (dongdor, maqtovga sazovor), Mansur, Nusrat (gʻolib, muzaffar), Sultonali mirzo (baland martaba egasi).

Antroponimlarning tuzilishiga koʻra tahlili. Antroponimlarning tuzilish qoliplari, bir tomondan, antroponim uchun asos boʻlgan apellyativning xususiyatiga, ikkinchi tomondan, antroponimlarning oʻziga xos xususiyatlariga asoslanadi.

Hozirgi davrda tilimizdagi ismlarni lisoniy tuzilishiga koʻra 2 guruhga ajratish mumkin:

1. Sodda tuzilmali antroponimlar: Anvar, Asal, Safar, Rajab, Qurbon, Niyoz, Qumri, Rahim, Nasim.
2. Qoʻshma tuzilmali antroponimlar: Sultonali, Abdurauf, Abdurahmon, Abdukarim, Tuhfaniso, Navroʻz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tilshunoslikda onomastik birliklarni har tomonlama oʻrganish, tahlil va tasnif qilish, qolaversa, leksik-semantik va uslubiy jihatdan oʻrganish biz yosh avlodning navbatdagi vazifalarimizdan desak xato boʻlmaydi. Bundan tashqari, atoqli nomlarni etnolingvistik, etnomadaniy, ruhshunoslik, sotsiolingvistik, estetik, tarixiy-diniy nuqtayi nazardan yondashgan holda oʻrganish davr talabi deb oʻylayman.

ADABIYOTLAR

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-5850-sonli Farmoni. 2019-yil 21-oktabr. htpps:// lex.uz / docs /-4561730
2. Begmatov E. “Oʻzbek tili antroponimikasi” Toshkent: “Fan” nashriyoti. 2013
3. Begmatov E. “Oʻzbek ismlari maʼnosi” Toshkent: OʻzME 1988
4. Begmatov E. “Oʻzbek ismlari” Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1991
5. Abduvaliyev D. Alisher Navoiy tarixiy asarlar leksikasi. —T.: “Fan” nashriyoti, 2016
6. Husanov N. XV asrda oʻzbek yozma yodgoriklari tilidagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari. Toshkent: “Yozuvchi” nashriyoti. 1996
7. Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon” Toshkent: “Navroʻz” 2019
8. https://ismlar.com/name/

OʻZBEK VA QOZOQ TILLARIDAGI AYRIM QOʻSHIMCHALARNING QIYOSIY TAHLILI (KELISHIK, EGALIK, SHAXS-SON QOʻSHIMCHALARI MISOLIDA)

Gauxar BERDIBEKOVA,
NavDPI Oʻzbek tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.n. Oʻ.A.Oripov

Asoslov: Oʻzbek va qozoq tillaridagi kelishik,egalik hamda shaxs-son qoʻshimchalarini oʻzaro taqqoslash va qiyoslash orqali tillardagi oʻzaro yaqinlik,oʻxshashlik va farqli tomonlarini aniqlash va qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Kalit soʻzlar: Kelishik, egalik, shaxs-son qoʻshimchalari, affikslar,affiksoidlar va boshqa grammatik vositalar.

Muhtaram Prezidentimiz taʼkidlaganidek:"Bizning mushtarak tarixiy merosimizni ajratib boʻolmayganidek, mamlakatimiz va xalqimizning bugungi kuni va kelajagini ham ayro holda tasavvur etib boʻlmaydi" [1]

Shu munosabat bilan Samarqandda Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdugʻaniyevich Karimov bilan vidolashuv marosimida Qozogʻiston har doim Oʻzbekiston va uning xalqini qoʻllab-quvvatlaydi. Birgalikda quvonib, ogʻir damlarni ham birgalikda boshdan kechiramiz",degan soʻzlaringizni yaxshi eslaymiz va hech qachon unutmaymiz.

Shuni yana bir bor alohida ta’kidlamoqchiman: O‘zbekiston hamisha Qozog‘istonning ishonchli sherigi va do‘sti bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi. Biz, Qo‘zog‘iston erishayotgan muvaffaqiyatlarni O‘zbekistonning yutuqlari deb bilamiz.

Buyuk ajdodlarimiz ham shunday yuksak ma’naviy prinsiplarga so‘zsiz rioya etishga chaqirganlar.

Buyuk shoir va mutafakkir Abayning quyidagi umrboqiy so‘zlari bugungi intilishlarimiz bilan hamohang ekani bilan tahsinga sazovordir. " Ezgulik, rahmdillik, o‘zingga ravo ko‘rganni boshqalarga ham ravo ko‘rish mana haqiqiy qalb qanday bo‘lishi kerak. Chinakam sheryurak qozoqcha aytganda jurekli odamlar shunday bo‘ladi".

Shu o‘rinda qozoq xalqining quyidagi maqolini keltirmoqchiman."Достық бар жерде табыс бар" yani " Do‘stlik bor yerda muvaffaqiyat bor"

[1] Shavkat Mirziyoyev " Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat'iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko‘tarilamiz" 1- nashriyot , Toshkent -"O‘zbekiston" 2018 yil 377- bet.

Xo‘sh, qaysi xalq tilidagi affikslar haqida qanday gap bo‘lmasin , aslida ularning kelib chiqishi haqida o‘ylab ko‘rganmisiz?

Aslida bu hodisa,so‘zlarning taraqqiyot yo‘li bilan bog‘liq: bu fikr (mustaqil so‘zning ma’no va shakl jihatdan o‘zgarib,yordamchi so‘zga o‘tish va affiksga aylanishi) bir qancha tillarning manbalarini chuqur o‘rganish,tarixini tekshirish,qolaversa tahlil qilish asosida kelib chiqadi.M: Sifatdoshdagi -digan affiksi (ishlaydigan,boradigan kabi) aslida turgan so‘zidan kelib chiqqan.(yuraturgan-yuratirgan- yuratigan-yuradig‘an-yuradigan)

Boryapti- bor-a-yap-ti . . . yetipti- yapti- yap) affiksi kelib chiqqan.Turur fe’lidan -dir affiksining paydo bo‘lganini aytgandik . . . Ushbu -dir affiksi -dir shaklida ham qo‘llanadi (aytibdir -aytubdir)

Qo‘zichoq sifati -choq affiksi (Aytibdur=aytib erur)

miqdor,mo‘ljal,chama,kichiklik bildiradigan -choq so‘zidan kelib chiqqan Keyinchalik bu chog‘ affiksi turli shakllarga kirgan (qattiq va yumshoq shakllariga kirgan.

Qattiq shaklida -choq (qo‘zichoq) Yumshoq shaklida - chak = cha +k aslida (kelinchak)

-cha= toycha=toychoq bel+a+n+chak

-cha kichraytirish ayrim holatlarda -ak qo‘shimchasiga sinonim ham bo‘la oladi

.M: yo‘lcha ((yo‘lak+cha)

M: (bordim) aslida men qisqarishidan olingan.

-miz tarixan bizdan olingan(aytib+biz +aytibmiz

talababiz-talabamiz

Yo‘qot = yo‘q+ at, yo‘qol= yo‘q+ ul // yani yo‘q bo‘l dan olingan.

Bilan ko‘makchisi aslida (bir+lan+ n), yani bir so‘zidan olingan.

Affikslarning kelib chiqish haqida turli hil qarashlar mavjud.

Bu qo‘shimchalar:

1) - niki aslida - ning+ ki dan kelib chiqqan

2) Sodda qo‘shimchalar o‘zaro birikib, murakkab qo‘shimchani hosil qilgan yoki aksincha...

- chi+ lik (suvchilik,gulchilik)

-chilik (mulchilik, ko‘pchilik)

(yod+la+sh), (ish+ la+ sh)

-mas,- lan, - lash,-lar, -di,-gan,(sifatdosh)

-dir(di+r= ayt+in+di+lar)

3) Boshqa tillardagi so‘zlarning o‘zbek tiliga affiks morfema sifatida qabul qilinganligi:

-hur,-shunos, - boz,- furush, -parvar,-jon, -parast, - soz , -bor , -bod . . .

4) boshqa tillardan tayyor affikslarning o‘zlashtirish natijasida: be- , -ba , -no ,- mand ,- band. . .
Bular o‘sha tilga mansub so‘zlar bilan birga o‘zlashgan , affiks sifatida o‘zlashmagan.
5) Affiksga oidlar (ayrim so‘zlar affikske morfemalar qatoriga siljishi natijasida: -jona,- jon, -oy, - obod, - boy, - vor, -bachcha ,- loy ,- alla...
6) Ko‘p ma’noli affiks morfemalarning ma’no jihatdan bir -biridan uzoqlashib ketishi natijasida :
M: Aslida- lar ko‘plik qo‘shimchasi - lar hurmat , ma’no kuchaytirish chama - taxmin va boshqa shu kabi ma’nolarni ifodalaydi.

Xulosa: Yuqoridagi tahlillarda kelib chiqib,shunday xulosa qilish mumkinki,biz ushbu izlanishimizda o‘zbek va qozoq tillaridagi kelishik, egalik, shaxs-son qo‘shimchalarini imkon qadar tahlil qildik. Keyingi ilmiy tadqiqotlarimizda o‘zbek va qozoq tillaridagi boshqa qo‘shimchalarni ham , qolaversa morfologik uslubiyat masalalarini atroflicha tahlil va tasnif qilish niyatidamiz.

ULUG‘BEK HAMDAM NAZMIDA METAFORALAR TALQINI

Shahnoza MANSUROVA,
NavDPI, O‘zbek tili va adabiyoti 4-kurs talabasi
Imiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) N.Yarashova

Anatatsiya: maqolada Ulug‘bek Hamdam she’riyatida qo‘llanilgan metaforalar til va badiiylik xususiyatiga ko‘ra tahlil qilingan. Metaforalarning she’riy parchalardagi uslubiy ma’nosi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ulug‘bek Hamdam, she’riyat, metafora, uslubiy vositalar, badiiy metaforalar, lingvistik metaforalar, ko‘chirish.

Ma’lumki, jamiyat qanchalik taraqqiy qilsa, jamiyat a’zolarining ongi va tafakkuri, dunyoqarashi ham shakllanib, kengayaib boraveradi. Ayta olamizki, bugungi taraqqiy qilgan davrda insoniyatning “chanqog‘ini qondirish” uchun kuchli adabiyot va muhit lozim. Adabiyot asarlarning yaratilish davrlariga diqqat qilsak, ularning bir biridan har tomonlama farq qilishiga guvoh bo‘lamiz. Bugungi she’riy namunalar ifoda ko‘lami, ta’sir qilish yo‘nalishi nuqtai nazaridan o‘zgachalikka ega. Hech bir muallif shunchaki yozmaydi, uning asarlarini o‘qigan kishi boshdan oyoq titramog‘i, qalb larzadaga kelishini xohlaydi. Va buning uchun o‘zi bir tuyg‘ularni turli yo‘lda asarlariga jo etadi. Bunda turli tasviriy vositalar, jumladan, metafora metanimya, isteora va boshqalarning o‘rni muhimdir. Badiiy matnda qo‘llangan turli metaforalar so‘zning jozibasini, ta’sirini ko‘rsatadi. Metafora tilshunos olimlarimiz tomonidan keng ko‘lamda o‘rganilib bormoqda. Sh.Rahmatullayevning ta’kidlashlaricha, metafora “Biror predmet, belgi, harakatning nomi boshqasiga o‘zaro tashqi o‘xshashlik (shakli, rangi kabi jihatlari bilan) asosida ko‘chirilsa, metafora yo‘li bilan ko‘chirish deyiladi. (yunoncha “metaphore” – “ko‘chirish) [1].

Tilshunoslik sohasida metaforaning asosan 2 turi farqlanadi.

a) lingvistik metaforalar;

b) badiiy metaforalar;

Lingvistik metaforalar ko‘pincha nutq jarayonida faol qo‘llansa, badiiy meforalar badiiy asarlarning bezagidir. Ularda lingvistik metaforalarga nisbatan ta’sir qilish bo‘yog‘i ko‘proq mavjud. Qolaversa, badiiy metaforalar ijodkordan yaratuvchanlikni talab qiladi. Haqiqiy ijodkor orginal metaforalar orqali bir tushunchaning mohiyatini turlicha yo‘sinda

anglatishga harakat qiladi, yangilik yaratadi. Shunday ijodkorlardan birii Ulug‘bek Hamdamdir. Ustoz shoirning she’rlarida qo‘llangan metaforalar, haqiqatda, o‘zgachadir. Ayniqsa, hijron, o‘lim, bolalik, umr, qalb bilan bog‘liq yaratilgan metaforalar orginalligi bilan ajralib turadi. Misol uchun, quyidagi she’rga e’tibor qaratsak,

Ichim kuyib ketdi, Parvardigoro,
Nechun to‘rt tomonning ichindaman men?
Chiqib ketsam hamki tomondin nari
Ne sud. ***Dil - qopqonning ichindman men...(****23-bet, Atirgul)*

dilni qopqonga o‘xshatsa, yana boshqa o‘rinda shoir o‘zining diliga “nodon”, - deya tana otadi.

....yeti iqlim hukmdorining qizi-
husni olam aro tillarda doston
Malika tashrifimga mahtal-u
ichkariga kirmas dil-nodon *(162-bet, Atirgul)*

Dil shoir nazdida, nodon, aqlga bo‘ysunmay xunob qilguvchi, ba’zida esa u qopqon o‘ylab o‘tirmay egasini "o‘lja" qiladigan. Shoir dilga qancha tuxmatlari u tana qilmasin, baribir uning soyasida ko‘radi o‘zini. U misli bir chiroq. So‘nggi najot:

Kimsasiz saroyda ***yongan chiroq - dil***
Bir lahza muallaq tin olar tanda
Bir lahza unitib ko‘ngilni ko‘ngil
Baxtli va hur yashar olis makonda. (141-b, Atirgulning)

Iste’dodli qalamkash yana bir she’rida tug‘ilish, o‘lim, hayot - uch so‘z. Necha yillik umrining mohiyatidir bu. Shoir uch yirik falsafani 4 misrali she’rda uch metafora yordamida singdirishga harakat qiladi. Ha, butun bir mohiyat, uch metafora va to‘rt misra she’rda mujassam. Bu uchun shoir haqiqiy "dard ko‘rgan" bo‘lmog‘i lozim.Shoir tug‘ilish bu dunyoga mashaqqat, alam,dard izlab kelish, hayot- ozodlik izlab o‘tkazilgan vaqt va boy berilgan umr, o‘lim esa kun u tun biz bilan birga bo‘adigan, bir nojo‘ya qadam bosdingmi hamisha uning to‘rlari iskanjasida bo‘lishini qismat ekanligini o‘qtirmoqchi go‘yo:

Tug‘ilish - o‘rgimchak to‘riga tushish
Yaqinlashib kelayotgan och o‘rgimchak-o‘lim
Hayot - ozodlik qasdida chekilgan zahmat
Sen esa bir kulmoq istaysan, ko‘nglim.(84-bet, Atirgul)

"Nodon" ko‘ngil ancha muncha chegarani pisand qilmaydi. Egasining boshiga ne kunlarni soladi. Ba’zida bildiradi, ba’zida yondiradi:

Sevamanmi?
Sevaman
Biroq
Bu baxt emas, kulfatdir ayon
Axir-ku, dil- lov-lov qizg‘aldoq
Yo‘lim esa tap taqir maydon (91-bet, Atirgul)

Ba’zilar sevgi qalbiga oshno bo‘lganidan quvonib-"Baxt"desa, bizning qalamkash, bunday ertak bilan o‘zini ovutmaydi, ochiqchasiga "kulfat"ligini aytib qo‘ya qoladi. Nima qilsada, bu kulfatda dil -qizg‘aldoqdek yonishga o‘zi esa "tap-taqir"yo‘lda yurishga majbur. Shoir bunday ta’riflarni lingvistik metafora yordamida izohlasa, shu she’rning yana bir o‘rnida badiiy metaforalar orqali "oqarmagan tun"ini "iztirob"ga mengzaydi.

Shoir ijodini kuzatar ekanmiz, hech kimda uchramaydigan metaforalarga duch kelamiz. Misol uchun " quvonch- yangi kiyim kiygan bolakay"(124-bet, "Atirgul"). Bunday o‘xshatishlarni ko‘rib beixtiyor inson o‘zining hayotni taftish qiladi. Kunda, yo kunora

bolakaylarning yangi kiyim olgandagi holati koʻz oldimizga keladi. Ular bir muddat sevinib oʻzlariga sevinib yurishadi-yu, keyin oddiy holga aylanadi. Qalamkashimiz nazidda, quvonch ham bir muddatlik.

kuz gʻamgin donishmand
Tillarang tillari-
Daraxtlarda hikmat soʻzlayotir
Qani uni tinglaguchi
Bir intiq quloq (189-bet, Atirgul)

Kuz badiiy adabiyotda xorgʻinlik, dardman qalbning ramzi sifatida qoʻllanadi. Shoir ham shunga ishora qilib :" kuz-gʻamgin donishmand" deya, kuzning koʻrki boʻlgan sariq xazinalarni bamisoli tilga qiyos etadi. Ular hikmat soʻzlaydi. Ajabo, biz bilar edik. Daraxt barglarining shivirlashi dardlarni soʻzlashishi deb, ammo ustoz U. Hamdam ularni hikmat soʻzlaydi deb biladi. Qarib, kekasayib, fasli qishga yaqinlashib qolgan keksa donishmand-kuz barchaga umr oʻtkinchiligi toʻgʻirisida nasihat uqtiradi.

Hamma ham oʻxshatish- metafora qoʻllay oladi, ammo asl metoralarni yaratuvchi kishi oʻzgacha qalbli boʻlishi darkor. U dunyoni boshqalardek koʻrmaydi, uning olamida dunyosi boshqacha, qalbi boshqacha. Kezi kelganda, darddan shunday eziladiki, qani uni soʻylamoqqa til, tinglamoqqa bir vujud. Yoʻq. Boshlarning dardi seni qiziqtirmaydi. Nacharo, endi " Makonim- qaygʻuzor" (200-bet, Atirgu) deya oʻzingni oʻzing telbaga aylantirasan. Mana shunday qisqa, majoziy metaforlada butun mohiyat aks etadi. Bundan shuni koʻrish mumkinki, " metafora qisqa, qisqartirilgan yoki elliptik taqqoslashdir"[2] Metaforalarda, asosan, qisqalik muhim ahamiyat kasb etadi. Bir soʻz bilan predmetning, abstraktlarning qiyosi, oʻxshatishi yaratiladi. Ular adabiyotning quvvat manbayidir. Yangi yangi yaratiladigan va yartilgan uslubiy vositalar adabiyotning kelajagi uchun xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy oʻzbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006.
2.http//:osnovaschool.ru
3. Ulugʻbek Hamdam. Atirgul.Toshkent, 2005

TOHIR MALIKNING “SAODAT SAROYINING KALITI” ASARIDA SINONIMLAR USLUBIY VOSITA SIFATIDA

Iroda BAHRONOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti Oʻzbek tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.f.d (PhD) N.J.Yarashova

Annotatsiya: ushbu maqolada soʻzlarning ma’noviy guruhiga mansub sinonimlar haqida soʻz boradi. Jahon va oʻzbek tilshunoslarining qarashlari, sinonimik lugʻatlar atroflicha oʻrganiladi. Tohir Malikning “Saodat saroyining kaliti” asari yuzasidan sinonimiya tahlil qilinadi.

Kalit soʻzlar: soʻzlarning ma’noviy guruhi, sinonim, sinonimlarning ma’no guruhi, uslubiy va konnotativ vazifasi, emotsional boʻyoq.

Tilshunoslikda soʻzlararo ma’noviy darajalanish munosabati mavjud boʻlib, dastlab jahon va keyinchalik oʻzbek tilshunosligiga kirib keladi. Soʻzlar ma’noviy munosabatiga koʻra sinonim, antonim, paronim va omonim kabi turlarga boʻlinadi. Bu turlarning barchasi, ayniqsa, sinonimlar tilimizda keng qoʻllanadi va nutqimizning xilma-xilligini ta’minlaydi,

takrorlarning oldini olishga xizmat qiladi. Sinonimlar tadqiqiga oid ko‘plab izlanishlar olib borilgan va shunga ko‘ra bu hodisaga nisbatan berilgan ta’riflarning turlicha ekanligi ko‘zga tashlanadi.

O‘zbek tilshunosligida sinonimlarga berilgan ta’riflarga e’tibor qaratilsa, ularni belgilashda dastlab leksemalarning ma’no jihatdan bir xilligiga[233], so‘ngra ma’nolarning umumiyligi, keyinchalik esa ma’noviy o‘xshash (aynan) likka [234] asoslanganligi kuzatiladi. O‘zbek tilshunosi Azim Hojiyevning “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” da bu hodisaga shunday ta’rif berilgan: “Sinonimlar – talaffuzi, yozilishi har xil, birlashtiruvchi ma’nosi bir xil (umumiy) bo‘lgan, qo‘shimcha ma’no nozikligi, emotsional bo‘yog‘i, qo‘llanishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o‘zaro farqlanadigan so‘zlardir”[235].

Sinonimiya hodisasi tadqiqiga oid ishlarda “ma’nosi aynan bir” deb kelingan ta’rifdan voz kechildi, sinonimlarning ma’noviy guruhlariga, uning uslubiy va konnotativ ifodasiga e’tibor qaratila boshlandi. Sinonimiyaga oid so‘zlardan sinonimik qator hosil qilinadi. Undagi so‘zlar nutqning biror turiga, uslubiga xosligi jihatidan ham o‘zaro farqlanadigan bo‘lishi mumkin. Masalan, belgini turli darajada ifodalashiga ko‘ra normal (neytral) hamda kuchli bo‘lishi kuzatiladi. Misol uchun *“**Injiqroq**, **qaysarroq** bo‘lib qolasiz. Dars tayyorlagingiz kelmaydi. **Asabiyroq** bo‘lib qolasiz”(6-b)* gaplarida *asabiy* so‘zi salga tutoqadigan, asabi qo‘zg‘agan holat ma’nosini ifodalab, kuchli belgi darajasini, *injiq, qaysar* so‘zlari esa nisbatan kuchsiz belgi darajasini bildiradi.

*“Mehr o‘rniga **adolatsizlik, haqsizlik**, ilm o‘rniga johillik, shafqat o‘rniga zulmni ko‘rganimda qo‘rqib ketyapman”(15-b)* jumlasida *adolatsizlik, haqsizlik* leksemalari ma’nodosh bo‘lib, adolatga, haqqoniyatga zid xatti-harakat ma’nosini ifodalab, holatni kuchli darajadaligini bildiruvchi sinonimlar hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida sinonimlarni semik tahlil qilish orqali ularning ma’noviy farqlanishi masalasini o‘rganishga ham e’tibor qaratildi. Tilshunos Sh. Rahmatullayevning bu muammo tahliliga oid maqolasida sinonimiyani belgilashda leksik ma’noning bo‘linishi, uning tarkibiy qismlar, ya’ni sememalardan iborat ekanligini hisobga olish lozimligi ko‘rsatib o‘tildi.

Ma’lumki, sinonimik qatordagi so‘zlar ko‘p yoki oz qo‘llanishiga ko‘ra o‘zaro farqlanishi mumkin. Masalan, quyidagi jumlaga e’tibor qilsak : *“Chunki endi faqat **atrof**ni ko‘radigan odamcha emas, bu **borliq**da o‘zini ham ko‘ra oladigan, fikrlaydigan shaxs tug‘iladi. Birinchi tug‘ilishda go‘dak chinqirib go‘yo deydiki: “Mana, men yorug‘ **dunyo**ga keldim…Bu – mening **hayot**dagi maqsadim.” (5-b)* misolida *atrof, borliq, dunyo, hayot* kabi ma’nodoshlarni ko‘rishimiz mumkin. Nutqimizda atrof so‘zi ko‘proq, borliq, dunyo va hayot leksemalari nisbatan kamroq qo‘llanilishini kuzatish mumkin. “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” da ushbu so‘zlar biror narsa, joyning hamma tomonlarining tutash holdagi butunligi ma’nosida ham, uning ma’lum bir nuqtadan olingan turli tomoni ma’nosida ham qo‘llanadi.

Tilshunoslikda sinonimik qatorda paradigma tushunchasi bor bo‘lib, bu termin haqida tilshunos O.Bozorov aytib o‘tganidek, paradigma a’zolariga xos bo‘lgan umumiy ma’no, ya’ni aynanlik bilan bir vaqtda ularni bir-biridan farqlab turuvchi hamda ziddiyatga asos bo‘luvchi farqliliklarning ham mavjud bo‘lishini e’tirof etish mumkin. Albatta, bu holatni barcha turdagi sinonimik qatorlarga birday xos jihat deb bo‘lmaydi. [236]

---

[233] Jumaniyozov R. Sinonimlar ta’rifi masalasi. O‘zbek tili va adabiyoti. 1970. №-1. – 35 b.

[234] Rahmatullayev Sh. Semik tahlil va leksik sinonimiyani ta’riflash masalasi. O‘zbek tili va adabiyoti. 1979. №-5. – 55 b.

[235] Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug’ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1974. – 3-b.

[236] Bozorov O. O‘zbek tilida darajalanish. –Toshkent: Fan, 1999. –29-b.

“Sizlarning ***mehringizga, shafqatingizga, iltifotingizga*** *ehtiyojim bor. Sal o‘tmay meni atak-chechak qilib yurg‘izingiz, yiqilsam – turg‘izingiz, boshimni silang…”(29-b)* misolida *mehr, shafqat, iltifot* so‘zlari ma’nodosh sanaladi va bu sinonimik qatorni boshqa paradigmatik so‘zlar bilan ham davom ettirish mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, sinonimlar nutqimizdagi takrorlarning oldini olish, emotsional-eksressivlikni ta’minlash vazifasini bajaradi. Buni biz yuqorida Tohir Malikning asari yuzasidan atroflicha ko‘rib chiqdik. Sinonimlarning ta’rifini mukammal va aniqroq yoritish, konnotativ va uslubiy jihatini ko‘proq o‘rganish, tadqiqotlarda misollar asosida tadqiq qilish yanada keng o‘rganishimizga sabab bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. Malik T. Saodat saroyining kaliti. Toshkent – Yangi asr avlodi, 2017.
2. Jumaniyozov R. Sinonimlar ta’rifi masalasi. O‘zbek tili va adabiyoti. Toshkent – 1970. №-1.
3. Rahmonov G‘. O‘zbek tilida lug‘aviy sinonimiya va graduonimiyaning o‘zaro munosabati. Farg‘ona–2019.
4. Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1974.
5. Rahmatullayev Sh. Semik tahlil va leksik sinonimiyani ta’riflash masalasi. O‘zbek tili va adabiyoti. Toshkent –1979. №-5.
6. Bozorov O. O‘zbek tilida darajalanish. –Toshkent: Fan, 1999.

“JANNATGA YO‘L” DOSTONIDA MA’NAVIYAT UMUMIY SEMALI BIRLIKLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Sayfullayeva Fotima BAXODIR QIZI,
Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.f.d. F.H.Yuldashev

Annotatsiya.

Ushbu maqolada Abdulla Oripovning “Jannatga yo‘l” dostonida qo‘llangan ma’naviyat umumiy semali birliklarning leksik-semantik xususiyatlari ochib berildi. Asarda komil inson, ezgulik, yomonlik, oxirat singari qadriyatlarning azaliy mezonlari jonli timsollar–jonli obrazlar orqali ko‘rsatiladi.

Абстрактный

В данной статье выявлены лексико-семантические особенности единиц с общей темой духовности, использованных в эпосе «Дорога в небо» Абдуллы Орипова. В произведении вечные критерии ценностей, таких как совершенный человек, добро, зло, загробная жизнь показаны через живые символы - живые образы.

Abstract

In this article, the lexical-semantic features of the units with the general theme of spirituality used in the epic "The Road to Heaven" by Abdulla Oripov were revealed. In the work, the eternal criteria of values such as the perfect person, goodness, evil, and the afterlife are shown through living symbols - living images.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, ezgulik, do‘stlik, leksik-semantik kategoriya, guno, savob, sema.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda tilni sistema sifatida o‘rganish samarali yo‘l bo‘lib, inson tafakkur tizimi, insonning ma’naviy-ruhiy qarashlaridagi lingvistik xususiyatlarini aks ettirishga xizmat qiladi. Xususan, tilshunoslikda yangi yo‘nalish sifatida shakllanib borayotgan lingvoma’naviyatshunoslikning vazifalariga til va ma’naviyat

oʻrtasidagi munosabatni oʻrganish va tavsiflash kiradi. Bundan maqsad esa ulgʻayib kelayotgan yosh avlod maʼnaviy yetuk boʻlishini taʼminlashdan iborat. Maʼnaviyatga oid birliklarni oʻrganishda va ularni tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilishda aynan badiiy asarlardan foydalanamiz. Chunki asarlarda xalqimizning qon-qoniga singib ketgan milliylik, urf-odat, anʼanalar yoritiladi. Bu uchala tushunchada xalqimizning maʼnaviyat va marifati mujassamlashgan.

Maʼnaviyat insonga havodek, suvdek zarur. Sahrodagi sayyoh har doim buloqdan chanqogʻini bosadi. Xuddi shuningdek, inson ham necha-necha azoblar va qiyinchiliklar bilan maʼnaviyat chashmasini izlaydi. Yer, oila, ota-ona, bolalar, qarindosh-urugʻlar, qoʻni-qoʻshnilar, xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik–maʼnaviyatning maʼnosi ana shunday keng. Maʼnaviyat–insonning, xalqning, jamiyatning kuch - qudratidir. U yoʻq joyda hech qachon baxt -saodat boʻlmaydi. Maʼnaviyat haqida gap ketar ekan, men avvalo, insonning ruhiy poklanish va yuksalishga daʼvat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, eʼtiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uygʻotadigan qudratli botiniy kuchni tasavvur qilaman.[1]

Asosiy qism. Tilshunoslik va maʼnaviyat oʻzaro bir-biriga bogʻliq tushunchalardir. Abdulla Oripovning “Jannatga yoʻl” dostoni orqali maʼnaviyatga oid birliklarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilamiz. Ushbu asar nazm va dramaturgiyaning yetakchi xususiyatlarini oʻzida istifoda etgan dramatik doston janriga mansub. Doston orqali maʼnaviyat umumiy semali leksik birliklarning semantik xususiyatlarini oʻrganamiz. Asarni oʻqish jarayonida maʼnaviyat semasining bir qancha sememalari va leksik-semantik kategoriyalarini kashf qildik va ularni maʼnoviy guruhlarga boʻldik.

"Eʼtiqod" umumiy semali birliklar: Alloh, farishta, behisht, qiyomat, haj safari, arosat, doʻzax, jannat, kofir, kufr.

"Ezgulik" umumiy semali birliklar: samimiyat, vijdon, savob, doʻstlik, oliyhimmat, yaxshilik.

"Insonparvarlik" umumiy semali birliklar: shafqat, hurmat, doʻstlik, marhamat, begunoh, zukko, pok, sobit, oliyhimmat.

"Yovuzlik" semasiga oid birliklar: noshukur, tekinxoʻr, nokas, manfur, hasadgoʻy, olchoq, sulloh, tovlamachi, qahr, gʻazab, shakkoklik, hasad, manmanlik, xudbinlik,ishonchsizlik, jinoyat.

"Axloqiy buzuqlik" semasiga oid birliklar: nafs, zino, oʻgʻrilik.

“Eʼtiqod”, “ezgulik”, “insonparvarlik”, “yovuzlik”, “axloqiy buzuqlik” tushunchalari maʼnaviyatning leksik-semantik kategoriyalaridir. Asarda ularning har biri yan bir qancha maʼnoviy guruhlarga boʻlinib ketadi. Undan tashqari sabr qilmoq, omad, baxt, haqiqat, roʻy-rost, bokira, ibrat, hijron, tinchlik, halovat, falokat kabi sememalar mavjud.

Maʼnaviyat umumiy semali birliklarning semantik xususiyatini oʻrganish davomida ularni shakl va maʼno-munosabatiga koʻra turlarga ajratdik. Xususan, Sinonim munosabatdagi semalar: qahr–gʻazab, jannat–behisht.
Antonim munosabatdagi semalar: gunoh–savob, doʻzax–jannat, gunohsiz–begunoh.

Asarda maʼnaviyatga oid birliklar orqali jannatga eltuvchi yoʻl siz bilan biz yashayotgan shu tiriklik dunyosidagi ezgulik, mehr-muruvvat, diyonatda; ota-ona, yaqinlar, umuman, odamlar oldidagi ularning har biriga munosib qarzni uzish va burchni ado etishda; Alloh oldidagi qarz, avvalambor, uning bandasi oldida uzilmogʻi kerak. Bu gʻoya dostonda Yigit, Ota, Ona, Doʻst singari obrazlar orqali ochilib boradi. Ular dialog-u monologlarida maʼnaviyatga oid birliklardan foydalanishadi. Masalan, Tarozibon: *Sendaylarga doʻzax yaxshi, mulla boʻlasan.*

Yigit: *Agar yordam qilsangiz-ku jannat ham tayin, Ancha-muncha savobim ham bordir,o‘ldimi?! Qarasangiz bo‘lar edi tezroq, amaki.* Ushbu dialogda “do‘zax”, “jannat”, “savob” kabi ma’naviyatga oid birliklar qo‘llangan. Bu so‘zlar,avvalo, diniy tushunchalar hisoblanadi. Din ham ma’naviaytimizning bir bo‘lagidir.Ota: *Nahot birov gunohlari senga yozilmish?* Ushbu misrada qo‘llangan “gunoh” tushunchasi ma’naviyat leksik- semantik kategoriyasining “yovuzlik” semasi tarkibiga kiradi. Asar asosida muhim bir badiiy konsepsiya yotadi; ezgulik faqat imkon borida yoxud imkon boricha ro‘yobga chiqariladigan xohish emas. Ezgulik insonda albatta amalga oshirilishi zarur ehtiyoj bo‘lmog‘i kerak. Abdulla Oripov ezgulikni bu dunyoda yashab o‘lib, u dunyoga tushgan qahramonlar timsolida ana shunday talqin etadi. Mezon tarozusida gunoh va savoblar o‘lchanar ekan, hayotda qilgan ezguliklar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Nainki yomonlik, balki hatto yomonlarga befarqlik, do‘st u yoqda tursin, bcgonani hasadgo‘ylardan himoya qilish o‘rniga, o‘z tinchligini ko‘zlab, dumini quruqqa olib qochishdagi nomardlik shoirning komil ishonchiga ko‘ra, ko‘zga ko‘rinmaydigan insofsizlikdir. Shuning uchun bu dunyoda silliqqina, kamtargina yurgan dostonning ayrim qahramonlari u dunyoda munosib jazosini olayotgan kishilar sifatida tasvirlanadi.Ezgu ishlarni amalga oshirish va yomonlikka ayovsizlik asarda inson burchini belgilaydigan ikki asosiy omil sifatida belgilanadi. Bu hol Yigitning Tarozibon bilan suhbatida, Ota bilan Yigit dardlashuvida, Ona monologlarida, Do‘st va Yigit muloqotida yaqqol ochilib boradi.[2] Asar oxirida do‘stlik degan kuch ga’laba qiladi. Do‘stlik tushunchasi ma’naviyat leksik-semantik kategoriyasining “insonparvarlik” ma’noviy guruhiga kiradi.

Xulosa. “Jannatga yo‘l” asari orqali ma’naviyat konseptining yana bir qirralari ochildi. Ma’naviyat leksik-semantik kategoriyasining ma’no guruhlarini o‘rgandik. Doston orqali so‘zlarning semantikasi, ya’ni ichki ma’nolarini kashf qildik. Ijodkor asarni shunchalik mahorat bilan yozganki, har bitta so‘z komil insonni tarbiyalashga xizmat qiladi. Ma’naviyat inson ongi rivojlangani bilan kengayib boradi.

ADABIYOTLAR

1. Islom Karimov . “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim vazirligi Respublika bolalar kutub Fan; Adabiyot. Toshkent 2011
3. Abdulla Oripov “Jannatga yo‘l”. Toshkent,1980

NO-AFFIKSINING IJTIMOIY-SIYOSIY TERMINLAR HOSIL QILISHDAGI O‘RNI

Abdimurodova Feruza EGAMOVNA,
Navoiy shashar 12-IDUM ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

So‘z o‘zlashtirish yaqin yillargacha o‘zbek tili ijtimoiy-siyosiy terminologiyasining boyishida muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa, keyingi yillarda affiksatsiya usuli bilan ham yangi terminlar hosil qilishning faollashgani kuzatiladi. Masalan, no-affiksining o‘zi bilan shu sohaga oid bir qancha yangi terminlar yuzaga kelganini ko‘ramiz.

Ma’lumki, -no affiksi fors-tojik tilidan o‘zlashgan prefiks (old qo‘shimcha) bo‘lib, so‘nggi paytlarda ijtimoiy-siyosiy terminologiyada termin yasovchi sifatida ancha faollashgan. No-affiksi yordamida nafaqat o‘zbekcha so‘zlardan, balki rus tilidan o‘zlashgan so‘zlardan ham yangi so‘zlar yasalmoqda: nolegal, nostandart, noreal, norentabel, nolikvid kabi.

O‘zbek tiliga oid ko‘pgina adabiyotlarda no- affiksi bilan asosan, sifatlardan, kam miqdorda otlardan sifat yasalishi qayd etilsa, ayrim o‘rinlarda otga qo‘shilish, predmetning

yo‘qligini bildirish bu affiksga xos xususiyat emasligi aytiladi[1]. Lekin kuzatishlarimizdan ma’lum bo‘lishicha, bu affiksning otdan sifat yasash imkoniyati kengaygan.

No- affiksi yordamida otlardan yasalgan sifat asosdan anglashilgan tushunchaga ega emaslik, uning inkori bilan bog‘liq bo‘lgan ma’nolarni bildiradi: noumid, noiloj, nojins, noinsof, nohaq kabi. Shuningdek, bu affiks bilan asosdan anglashilgan narsaga «tegishli emas», «taalluqli bo‘lmagan» ma’nosidagi sifatlar yasaladi. Bunday leksemalar birikma ijtimoiy-siyosiy terminlarning yasalishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunda ular birikma terminlarning aniqlovchi qismi bo‘lib keladi: nodavlat sektor, nohukumat tashkilot, notijorat korxona kabi.

Bukabiyasalmalarda no-prefiksio‘rnini «emas», «bo‘lmagan» so‘zlari bosa olmaydi. Ya’ni, *nodavlat* leksemasini «davlat emas», «davlatga ega bo‘lmagan» ma’nolarida emas, balki «davlatga tegishli bo‘lmagan», «davlatga taalluqli bo‘lmagan» ma’nosida tushuniladi: *Nodavlat tashkilotlarining mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorlikdagi faoliyati har ikki tashkiliy tuzilmadagi mavjud resurs va imkoniyatlarni safarbar etishdan iboratdir* (Jurnaldan).

No-affiksi sifatlarga qo‘shilganda asosdan anglashilgan belgi, xususiyat, holatga ega emaslik, yo‘qlikni bildirgan sifatlar yasaydi. Bunday holda no-prefiksi «bo‘lmagan», «emas» so‘zlarinio‘rnini bosadi: noaniq – aniq bo‘lmagan, aniq emas, notinch – tinch bo‘lmagan, tinch emas kabi.

Sifatlarga qo‘shilib: a) asosdan anglashilgan belgiga ega emaslik ma’nosidagi terminlar yasaladi: *norasmiy* idora, *norentabel* korxona, *nomoddiy* mulk, *nosog‘lom* muhit, *nodavriy* nashrlar, *noxolis* siyosat, *nomaxfiy* xabar. Ijtimoiy-siyosiy sohaga oid matnlarni tahlil qilish jarayonida ushbu ma’noni reallashtirish uchun no-affiksining ayrim turg‘un birikmalarga qo‘shilish holatlari ham kuzatilmoqda: *Noqishloq xo‘jaligi tarmoqlarida yangi ishjoylarini yaratishga e’tiborni qaratish lozim;* b) asosdan anglashilgan belgiga zid ma’noli terminlar yasaladi: *noqonuniy* faoliyat: *Noqonuniy qatag‘on qilinganlarning huquqlarini siyosiy nuqtai nazardan to‘liq tiklash lozim*(Gazetadan.) ,*noshar’iy* nikoh kabi.

O‘zbek tilidagi -siz affiksi ham inkor ifodalashi bilan no- affiksiga ma’nodosh ekanligi ma’lum[1]. Masalan, noiloj – ilojsiz, noinsof – insofsiz kabi. Lekin yuqorida ko‘rilgan terminlardagi no-affiksini -siz affiksi bilan almashtirishning iloji yo‘q (faqat norentabel bundan mustasno: norentabel - rentabelsiz).

Xullas, no-affiksi bugungi kundan faqat sifat, balki ot yasovchi sifatida ham faollashgan. Bu affiks bilan otlardan faqat asosdan anglashilgan narsaga ega emaslik, uning inkorini bildiradigan sifatlargina emas, yasovchi asos anglatgan narsa-predmetning xususiyatiga ega bo‘lmagan sifatlar ham yasaladi.

O‘zbek tili ijtimoiy-siyosiy terminologiyasida sifat turkumiga mansub no-affiksli terminlardan tashqari ot turkumiga xos termin yasalishi ham kuzatiladi. Masalan, **norezident** termini *rezidentlar jumlasiga kirmaydigan shaxslarga* nisbatan qo‘llanadi[2]. Ushbu termin rus tilidagi shu ma’noda qo‘llanuvchi **нерезиденты** leksemasini o‘zbekchaga kalkalab olish natijasida yuzaga kelgan. Bunda ruscha inkor bildiruvchi ne-prefiksi o‘zbek tilidagi no- affiksi bilan ma’no jihatdan mos keladi.

No-affiksi bilan yasalgan bu kabi ijtimoiy-siyosiy terminlarning aksariyati mustaqillikdan keyin yaratilgan terminlardir. Shu boisdan ular sho‘ro davrida yaratilgan «O‘zbek tilining izohli lug‘ati» (2 jildlik, Moskva, 1981)da berilmagan. Yangi (5 jildlik,

[1] O‘zbek tili grammatikasi. Toshkent, 1975. 101-b.
[1] Bu haqdaqarang: Tojiyev Ysh. O‘zbek tilida affiksal sinonimiya. T., 1981. 75 – 79-betlar.
[2] O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi. T., 2009. 337-b.

Toshkent, 2006 - 2008) izohli lug‘atda esa bu terminlarning barchasi berilib, mohiyatiga mos holda izohlangan.

Bugungi kunda no-affiksi bilan nafaqat ijtimoiy-siyosiy sohada, balki boshqa sohalarda ham terminlar yasalishi davom etmoqda. Bunda no-affiksi bilan yasalgan sifatlarning birikishidan birikma terminlar hosil bo‘lgan. Masalan, *nofaol leksika, nolisoniyomillar, nosemantik fe’llar* – tilshunoslik terminlari, *nomutanosib sonlar, noma’lumli tenglama* – matematika terminlari, *noxaridorgir mahsulot, noegiluvchan narx, nolikvidaktivlar* – iqtisodiyot terminlari, *nomuntazam qo‘shinlar* – harbiy soha terminlari kabi.

Demak, no-affiksi bugungi kunda sermahsul termin yasovchi bo‘lib, muayyan tushunchani ixcham va aniq ifodalashga xizmat qiladi. Buni so‘nggi yillarda ijtimoiy-siyosiy sohada keng qo‘llanayotgan *nodavlat-notijorat tashkilot* terminidagi ayrim so‘zlar bilan ifodalanishi lozim bo‘lgan ma’no no-affiksiga yuklatilgani bois terminga xos qisqalik va ixchamlikka erishilganidan bilish mumkin.

BADIIY MATNDA *BIZ* OLMOSHINING STILISTIK XUSUSIYATI

Sanoyeva Nasiba NABIYEVNA,
Navoiy shahar 6-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Til vositalarining badiiy matnlarda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishi tufayli ularda tildan foydalanishning alohida uslubi shakllangan. Ana shu alohidalikning olmoshlardan foydalanishda ham yaqqol namoyon bo‘lishi ularni maxsus tahlil etishni taqozo etadi.

Adabiy asarlar matnida olmoshlarning barcha turlarini uchratish mumkin. Mavzularning turli-tumanligi, asarda turli jins, yosh va kasbdagi qahramonlar nutqi olmoshlardan shu tariqa keng ko‘lamda foydalanishga yo‘l qo‘yadi. Bu qo‘llanishda ular, birinchi navbatda, o‘zining semantik ma’nolari, ikkinchidan, stilistik ma’nolari bilan ishtirok etadi.

Biz elementi so‘zlayotgan kishi va boshqa kishilarni birgalikda olib ko‘plik ma’nosini anglatishi uning leksik-grammatik ma’nosi hisoblanadi: *O‘zi-ku,* ***bizni*** *ilm-urfonga chanqoq xalq deydi, yana mehnatkash nomehnatkash deb xalqni ajratgani nimasi!..* (A.Qahhor). Ko‘plikni umumiy tarzda anglatishdan tashqari, ba’zan aniq ikki kishi ma’nosini ham beradi: *Nechun ollo* ***bizni*** *bultur qovushtirmadi?* (O.Yoqubov).

Shu bilan birga, u funksional uslublar doirasida yana qo‘shimcha ma’nolar ham anglatadi. Jumladan, badiiy matnlarda alohida semantik-stilistik ottenkalari bilan namoyon bo‘ladi. Masalan, an’anaviy tarzda *men* o‘rnida qo‘llanadi: *Bu talafotning sababi shukim,* ***biz*** *inongan lashkarboshilar, mislsiz razolatga borib, shahzoda tarafiga qochib o‘tmishlar...* (O.Yoqubov) kabi. Bunda bir necha stilistik nozikliklar yuzaga chiqadi:

a) kamtarlik ottenkasi: – ***Bizning*** *dargoh to‘g‘ri kelmasa... kamina ne qilay?* (O‘. Hoshimov);

b) manmanlik, maqtanish ottenkasi: *Buyog‘ini* ***bizga*** *qo‘yib bering. Buyog‘ini* ***biz*** *boplaymiz!* (T.Murod);

v) xoksorlik ottenkasi: ***Biz*** *bir dalada yurgan dehqon bo‘lsak* (T.Murod);

g) erkalanish ottenkasi: *Jinni! Ayiq! — Shahnoza erkalanib qo‘lidagi qoshiqchasi bilan yana tahdid qildi — Yomon bola bo‘psiz! Bilib qo‘ying,* ***bizdayam*** *qurol bor. Bir ursam! — Shunday deb ro‘molchasi bilan mening lablarimni artib qo‘ydi* (O‘.Hoshimov);

d) ajratish yoki birgalik ottenkasi: ***Sen*** *bilan* ***biz*** *— o‘zbekmiz* (O‘.Hoshimov); ***Sen*** *bilan* ***biz*** *faqat «opazdыvat» qilamiz, faqat ayb qilamiz* (T.Murod) kabi;

e) yaqinlik ottenkasi: *Agarchi humo qushi shahzodaning boshiga qo‘nib, yurt osoyishi buzilsa ... rasadxonadagi barcha nodir kitoblar, barcha noyob qo‘lyozmalarni asrab qolmoq sizu **bizga** yuklanibdur, birodari aziz...* (O.Yoqubov).

Mazkur olmoshda birgalik ottenkasi *men* o‘rnida qo‘llanmagan taqdirda ham namoyon bo‘lishi kuzatiladi: ***Biz** Gippokrat oldida qasam ichganmiz* (T.Murod).

Ba’zan *biz* ning qo‘llanishi metonimiya hodisasining yuz berishiga sabab bo‘ladi va u gapda boshqa bir so‘zning vazifasini o‘z zimmasiga oladi: *Siz **bizda** o‘qirdingiz-a! — dedi hamon jilmayib* (O‘.Hoshimov). Bu holat so‘zlashuv uslubida ko‘proq kuzatiladi.

Faxr, g‘ururlanish ottenkalarini kuchaytirishga, ichki tug‘yonning yuzaga chiqishiga ko‘maklashadi: *Ana, **bizni** shahrimiz – yaraqlaydi! **Bizni** shahrimizni ko‘rgan odam... o‘lgisi keladi! O‘lgan sayin, o‘lgisi keladi! **Bizni** shahrimizni ko‘rgan odam... tezroq omonatimni topshirib... shu shahardan makon topsam deydi!* (T.Murod).

Ushbu tahlillar badiiy matnlarda *biz* olmoshining semantik-stilistik imkoniyatlari keng ko‘lamda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Bu o‘ziga xosliklarning ma’lum qismi olmoshning so‘zlashuv uslubida anglatgan ma’nolariga mos keladi.

NUTQ ODOBI VA MADANIYATIGA OID FIKRLAR TARIXIDAN

Turobova Gulhayo VALIJONOVNA,
Navoiy shahar 24-MTM tarbiyachisi

Tilga munosabat, uni e’zozlash, undan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish, shuningdek, tilni insonni tarbiyalovchi, kamolga yetkazuvchi vositalardan biri deb bilish juda qadimiy tarixga egadir. O‘tmish ajdodlarimiz inson nutqini, kishi hayoti uchun foydali, ijobiy ta’sir o‘tkazuvchi, hattoki, inson taqdirini o‘zgartira oluvchi, uni ijtimoiy xususiyatlar tomon yo‘naltiruvchi vosita, deb bilgan.

Tilga sig‘inish, so‘z kulti juda qadimiy hodisadir. Shunga ko‘ra, o‘tmish davr kishilari shaxsning nutqi insonni baxtli yoki baxtsiz qilishga sababchi bo‘ladi, deb ishonganlar. Shu sababli tildan ehtiyotkorlik bilan, maqsadga muvofiq ravishda foydalanishning o‘ziga xos tartib-qoidalari, muayyan me’yorlari yaratilgan. Ushbu qoidalarga amal qilish **nutq odobi** deb yuritiluvchi tushunchalarga zamin hozirlagan.

Hozirda nutq odobi deb yuritilayotgan nuqtai nazarlar juda qadimda yashab o‘tgan ajdodlarimizning tafakkuri mevasidir. Buning yorqin namunalari yozma manbalarda, xalqning udumlarida saqlanib, bizgacha yetib kelgan. Xususan: xalq og‘zaki ijodi asarlari – doston va ertaklar, maqol va matallar; qadimiy yozma obidalar (toshbitiklardagi matnlar, tarixiy memuarlar, mumtoz adabiyot asarlari va boshqalar); xalqning og‘zaki tilidagi, lahja va shevalardagi til va nutqqa oid fikrlar; qadimdan turli shakllarda saqlanib bizgacha yetib kelgan mifologik asarlar – afsonalar, latifalar, miflar; “Ibratli hikoyalar”, “Hikmatlar” nomi bilan bizgacha yetib kelgan yozma asarlar tili; xalqning asrlar davomida tildan odob-axloq doirasida gapirishga intilib, mazmunan qo‘pol, dag‘al so‘z va iboralarni evfemistik vositalar bilan almashtirishi shular jumlasidandir.

Yuqorida qayd qilingan og‘zaki va yozma manbalarda o‘z ifodasini topgan nutq odobi va madaniyatiga oid fikrlar tarixini o‘rganish va undan nutq madaniyati va notiqlikning asosiy mazmun va tamoyillarini yaratish tilshunoslikning muhim muammolaridan biridir.

Nutq odobi va madaniyatining juda ko‘hna tarixga egaligini anglash uchun o‘tmish ajdodlarimiz bizga qoldirgan madaniy, ma’naviy, tarixiy, etnografik asarlarni hamda xalq og‘zaki ijodining noyob namunalarini sinchiklab o‘rganish lozim bo‘ladi. Ushbuni hisobga

olgan holda, biz nutq odobi va madaniyati yuzasidan o‘tmish ajdodlarimiz bayon qilgan fikrlarga qisqacha to‘xtalib o‘tishni lozim topdik.

Fikr yuritilayotgan muammoning nihoyatda qadimiyligini Markaziy Osiyo xalqlari ajdodlari tomonidan yaratilgan bebaho obida – “Avesto” asaridan ham bilsa bo‘ladi. Ma’lumki, ushbu asar bundan ikki ming yetti yuz yil oldin yaratilgan bo‘lib, o‘zbek xalqi uning qonuniy ma’naviy merosxo‘ridir. Chunki “Avesto” qadimiy Xorazm zaminida Amudaryoning ko‘hna qirg‘oqlari bo‘yida ijod qilingan. “Avesto” qomusiy asar bo‘lib, unda o‘tmish ajdodlarimizning tarixiga oid juda ko‘p qimmatli ma’lumotlar o‘z aksini topgan. Mana shunday ma’lumotlar orasida til, nutq, nutq odobi, tilga munosabat, tilni ulug‘lashga oid fikrlar ham mavjud. Unda juda ko‘p joyda takror aytilishicha, o‘sha davr dini va ma’naviyati asosini *e’tiqod, ezgu niyat, ezgu so‘z* va *ezgu amal* tushunchalari tashkil qilgan[1].

Keltirilgan *ezgu so‘z* tushunchasi xalq uchun foydali bo‘lgan fikrni ifodalagan, uni nutq odobi va madaniyatiga amal qilingan nutq hamda kishilarga manfaat keltiruvchi va ta’sir etuvchi, qolaversa, ularni tarbiyalovchi vosita, so‘z deb tushunmoq kerak. Bu fikrni ba’zi o‘rinlarda *ezgu so‘z* o‘rnida *ezgu kalom, ezgu fikr, muqaddas so‘z* kabilar ifodalashida ham ko‘rish mumkin.

E.Begmatovning yozishicha, “Avesto”da *ezgu kalom*ga *yovuz kalom, qabih so‘z* qarama-qarshi qo‘yiladi[2]. Chunki birinchisi adolatga, yaratuvchanlikka chorlasa, ikkinchisi yovuz, qabih niyatlar, amallarga undaydi: *“Men bu uch narsadan,* – deb yoziladi. “Avesto”da – *qabih andisha, qabih so‘z va qabih amaldan pushaymonman va patit qilaman (qaytaman)”*[3]. Shuningdek, “Avesto”da rostgo‘ylik, rost so‘z, to‘g‘ri so‘z ulug‘lanar ekan, haqqoniy nutq, yolg‘onchilik, yolg‘on so‘zga nafrat izhor qilinar, bu hozirgi davrda nutq odobi oldiga qo‘yilayotgan talablarga javob beradi. Tilga olingan maqolada “Avesto”dagi nutq madaniyati va odobiga oid fikrlar batafsil tahlil qilingani uchun biz unga ortiqcha to‘xtalib o‘tirmaymiz[1].

Nutq odobi borasida qadimiy turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbeklar amal qilgan asosiy qonun-qoidalar, rasm-rusumlar va me’yorlar qadimiy turkiy til, eski o‘zbek tilida yozilgan ba’zi yozma obidalarda yaxshi saqlanib qolgan.

ALISHER NAVOIYNING “MUHOKAMATUL LUG‘ATAYN” ASARI XUSUSIDA MULOHAZALAR

Nilufar RO‘ZIBOYEVA,
Navoiy shahar 12-IDUM o‘quvchisi

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ko‘plab shoirlarimiz ijodiyotini ko‘ramiz. Ayniqsa, o‘zbek adabiy tilining asoschisi va mutafakkir shoir Alisher Navoiyning ijodi ulkan parvozlarga teng. U butun ijodida insoniyatning jamiki orzu-umidlarini, o‘y- xayollarini, go‘zal fazilatlarini yuksak parvozlarga eltib kuyladi. Uning qaysi bir asarini mutoalaa qilsangiz, komillik sari eltuvchi hikmatlari, bebaho bitiklari mujassamlashtirilganini anglab yetamiz. Navoiy shuncha yillar ichida iymonni, ulug‘vorlikni, xalqparvarlikni kuyladi. U o‘ziga biror

[1] Avesto. Asqar Mahkam tarjimasi. – Toshkent: Sharq, 2001. – B.56-57.

[2] Begmatov E. “Avesto”da nutq madaniyati va odobiga oid talqinlar / Istiqlol va til. – Toshkent: O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, 2007. – B. 109.

[3] Avesto. Asqar Mahkam tarjimasi. – Toshkent: Sharq, 2001. – B.298.

[1] Begmatov E. “Avesto”da nutq madaniyati va odobiga oid talqinlar / Istiqlol va til. – Toshkent: O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, 2007. – B. 106-111.

boylik to‘plamadi, aksincha, boylik insoniylikning maqsadi emas, balki xalqning g‘amini o‘ziniki deb, qo‘lidan kelguncha ularga yordam qo‘lini cho‘zdi. Navoiy saxovatpeshalikni har narsadan ustun qo‘yar edi.

Bobomiz doimo tinchliksevarlik, ma’rifatparvarlik, insoniylik, komillik, kabi g‘oyalarni tarannum etgan buyuk ijodkor, o‘zbek tili va adabiyotini yuksaltirgan daho shoirdir desak, yanglishmaymiz.

Alisher Navoiy o‘zining mislsiz badiiy ijodi bilan o‘zbek adabiy tilini yuksak cho‘qqilarga ko‘tardi. U bu tilni boshqa tillardan qolishmasligini, bizning tilimizga past nazar bilan qarovchilarning mulohazalari asossiz ekanini amalda ham isbotlash maqsadida, 1499-yilning dekabr oyida “Muhokamat ul-lug‘atayn” (“Ikki til muhokamasi”) nomli ilmiy asarini yozib, o‘zbek tilining dovrug‘i dunyoga teng ekanini isbotladi. Bu risolasida Navoiy turk-o‘zbek va fors-tojik tillarini qiyoslaydi. Agar Navoiy o‘zbek tilining o‘z imkoniyatlarini fors-tojik tili bilan qiyoslamaganida, uning nazariy qiyosmalari o‘z ona tilining madhidangina iborat bo‘lib qolar edi. Shoir bu ikkala tilni qiyoslar ekan, u turk shoirlariga o‘z tillarini qanchalik go‘zal, latofatli qanchalik so‘zlarga boy ekanini qayta-qayta ta’kidlaydi. Bobomiz turkiy tilimizning ravnaqi yuksalishini niyat qilib, bu tilni fors tiliga xos bo‘lmagan, eng asosiysi, badiiy ijod uchun juda qo‘l keladigan ayrim xususiyatlari borligini, ana shu risolasida bayon qiladi. Alisher Navoiy turkiy tilning bunday fazilatlarini ko‘rsatar ekan, fors tilini kamsitmagan holda qiyoslash usulini nazariy va amaliy jihatdan asoslaydi.

Ma’nodoshlik – badiiy uslub ziynatidir. Alisher Navoiy masalaga mana shu nuqtai nazardan yondashib, turkiy tildagi bir sinonimik qatorni tashkil qiluvchi so‘zlarning barchasini fors-tojik tilida uchratib bo‘lmasligiga diqqatni jalb etadi. Buning isboti sifatida “Muhokamat ul-lug‘atayn”da fors tilida “muodidi bo‘lmagan” yuzta fe`lning ro‘yhati keltiriladi. Jumladan, “sipqarmoq” va “tomshimoq” so‘zlari haqida bildirligan mulohazalar turkiy til nafosatini yaqqol namoyish etishi bilan ahamiyatlidir. (Foydalanilgan manba: Rahim Vohidov va Husniddin Eshonqulovlarning “Ozbek mumtoz adabiyot tarixi” darsligidan 415-bet.)

Bugungi kunda yurtimizda ulug‘ shoirga bo‘lgan ehtirom yuksakligidan, shuni anglash mumkinki, ularning ijodiga barcha insonlar har kungidan ham ko‘proq ehtiyoj sezadilar. Shuning uchun ularning asarlari boshlang‘ich ta’limdayoq o‘rgatilmoqda.

Alisher Navoiy turkiy nazm-u nasrning shoh asarlarini ijod etgan ulug‘ so‘z san’atkoridir. Asrlar davomida bu buyuk shoir, buyuk daho qalamiga mansub, bebaho ilmiy adabiy meros insoniyatning ma’naviy kamolotiga munosib xizmat qilib kelmoqda. Alisher Navoiydek bobolarimizning boy merosi nafaqat Sharq, balki G‘arb olimlarining ham diqqat e`tiborida bo‘lib, ulkan ilmiy-badiiy merosi jahonning turli nufuzli tillariga tarjima qilinmoqda.

So‘nggi yillarda Hindistonda Navoiy ijodiyotiga qiziqish tufayli, hindistonlik yosh avlodlarni u asarlardan bahramand qilish maqsadida uning yuksak asarlari hind tilida tarjima qilindi. Hatto chet el xalqlari ham Navoiy ijodiga tan berib, unga yuksak baho berganligi, bizning qalbimizda g‘urur va iftixor tuyg‘ularini uyg‘otadi. Biz ana shunday ulug‘ mutafakkirimizning ijodini har lahza yodga olib, bahramand bo‘lganimiz kabi, o‘zga yurt vakillarini ham bu ijodga oshno qilmoqlik baxtiga muyassar bo‘lganligimizgan nihoyatda xursandmiz.

ТИЛ ТАРАҚҚИЁТИДА БАДИИЙ АДАБИЁТНИНГ ЎРНИ

Абдухамид ХОЛМУРОДОВ,
НавДПИ профессори, ф.ф.д.

Аннотация: Она тилининг ривожида бадиий адабиётнинг ўрни мавзусида сўз борар экан, миллий тил тараққиётининг турли босқичларини назарда тутиш лозим. Мақолада асосан XX аср ўзбек адабиётида яратилган энг нодир насрий ва шеърий асарлар асосида фикр юритилган.

Она тилимиз узоқ тарихий тараққиёт йўлини босиб ўтди. XII асрда шаклланган ўзбек элатининг тили ҳозирги миллий тилимиздан кескин фарқ қилади. Аввал бошдаёқ она тилимиз учта катта диалект–қипчоқ, қарлуқ, ўғиз лаҳжалари замирида вужудга келди. XIV-XV асрларда адабий тил шаклланди ва Алишер Навоий даврида у юксак даражада сайқал топди. Бугунги кунда она тилимиз илм-фаннинг жадал тараққиёти, глобаллашув жараёнининг кучайиши, миллий ва умумбашарий қадриятларнинг кенг ёйилиши, миллий, этник ва демографик ўзгаришларнинг кучайиши оқибатида юзага келаётган имкониятлар, зиддиятлар, қарама-қаршиликларни ўзида акс эттирган ҳолда ривожланмоқда. Адабий тилнинг жонли сўзлашув тилига яқинлашиши ўтган асрда тил тараққиётининг энг характерли хусусияти бўлди. Бу жараён бугунги кунда ҳам давом этмоқда.

Маълумки, адабий тилнинг ривожида адабиётнинг ўрни ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Чунки адабий тил миллий тилнинг ишланган, сайқал берилган, қонун-қоидалар ва меъёрларга бўйсундирилган шакли ҳисобланади. Шоирлар, ёзувчилар яратган асарлар, олимларнинг турли фанларга оид илмий асарлари адабий тилда яратилади ва у миллий тил хусусиятларини ўзида мужассам этади, миллий тилдаги муайян тушунчани англатувчи сўзнинг адабий тилдаги шаклини сайқалланган, гўзаллашган ҳолатини вужудга келтиради. Шу жиҳатдан она тилимизнинг ривожида бадиий адабиётнинг ўрни беқиёсдир.

Адабиётшунос олим Д, Қуронов “Адабиёт назарияси асослари” дарслигида рус олими Г.О.Винокурнинг “Поэтик тил тушунчаси” мақоласи ҳақида фикр юритиб, “бадиий тил”, “бадиий нутқ” тушунчаларига аниқлик киритишга ҳаракат қилган. Рус олимининг бадиий асар тили ҳақидаги мулоҳазасига кўра бадиий асарлар ёзишда ишлатиладиган тил “умумхалқ тили”, “миллий тил”, “адабий тил” атамалари биз кундалик алоқа-аралашувда фойдаланиладиган тилдан фарқланишига шубҳа билан қарайди. “...бадиий асарлар ёзишда ҳам “умумхалқ тили” ёки ”миллий тил” деб аталувчи тилдан фойдаланилади, маълум даражада ”адабий тил” меъёрларига амал қилади”[237], дейди. Бу билан олим “бадиий тил” билан жонли сўзлашув тили бир-бирига яқинлашгани боис “бадиий тил” истилоҳига ўрин қолмаганлигини тасдиқламоқчи бўлади. Аммо адабий тил бадиий ва илмий асарларнинг асосий тили сифатида миллий тилдан озиқ олиб, унинг имкониятларидан самарали фойдаланиш

[237] Қуронов Дилмурод, Адабиёт назарияси асослари, Дарслик, Тошкент, “Навоий университети” нашриёти, 2018 й. Б.238.

эвазига тобора бойиб, гўзаллашиб борадиган миллий тилнинг юқори даражадаги кўринишидир.

А.Қодирий ўз асарларида она тилимизнинг жозибадорлигини, гўзаллигини, тасвир имкониятлари беҳад кенглигини намоён этган сўз санъаткоридир. “Ўткан кунлар” романида Отабек ва Юсуфбек ҳожи, Отабек ва Кумуш диалогларида, Офтобойимнинг амирона сўзларида, Мирзакарим қутидорнинг турли ҳолатларда Отабекка бўлган муносабатини ифодаловчи мулоҳазаларида тилимизнинг рангинлигини, жозибасини ҳис этамиз. Романда Отабек билан Кумуш ўртасида бўлиб ўтган суҳбат бу фикрни тасдиқлайди:

“Отабек гарангсиб қолган, ўзини овутмоқчи бўлган бу олижаноб гўзалга нима дейишини билмас, қаердан сўз бошлашга ҳайрон эди:

–Ким йиғлатди сизни?

–Йиғлабманми?

–Кўзингиз, киприкингиз...

–Ўзи шунақа...

–Йиғлатган мен эмасми?

–Китобни нега ёпдингиз? Очиб ўқинг, мен эшитай.

-Ота-она ризолигини бир томчи кўз ёшингизга арзитдимми?

-Мен рози, мен кўндим,–деди дафъатан Кумуш, бу сўзни нимадандир қўрққандек шошиб айтди.

–Кўндингиз... Нега, а?

Отабек таажжуб ва ҳайрат ичида эди.

–Негаки, –деди Кумуш,–мен сизга ишонаман...

–Шунинг учун...

–Шунинг учун кўндим...

–Кўнглингиз фаришталар кўнглидек.

–Сизнинг ҳам кўнглингиз...”[238]

Келтирилган парча ёзувчининг юксак маҳоратини, тилимиз имкониятлари нақадар кенглигини, сўзларнинг маъно товланишлари ниҳоятда ранг-баранглигини намоён этади.

Ғафур Ғулом она тилимизни ҳамиша ҳар ерда улуғлаган, у билан фахрланган, уни бойитишга улкан ҳисса қўшган улуғ аллома ҳисобланади. Хоҳ насрий, хоҳ шеърий асарлар бўлсин, унда Ғафур Ғуломнинг халқ тилини яхши билиши, теша тегмаган ибора ва бадиий тасвир воситаларидан ниҳоятда усталик билан фойдаланганлигини кўрамиз. “Ёдгор” қиссасининг охирида ҳарбий шифокор Жўра бир танишининг уйига борганида бир вақтлар унинг қўлига чақалоқни тутқазиб, ўзи ғойиб бўлган аёлга дуч келади. Шунда Жўра узоқ ўтмишни кавлаб ўтирмай аёлга унинг ўша пайтда айтган сўзларини эслатади: “Бировга холис хизмат қилганмисиз?” дейди. Шу сўзлардан кейин ҳар иккаласида–Жўрада ҳам, аёлда ҳам қандай руҳий ҳолат юз берганлигини ёзувчи узундан узоқ шарҳлаб ўтирмайди, жўнгина айтиб қўяди: “Шарманда оёқости бўлди, ор-номус бир пул!” Бу тилимизнинг жозибасини кўрсатмайдими, сиқиқлик, сўзларни ўз ўрнида қўллаш маҳоратининг сеҳрини намоён этмайдими? Ҳикояларидан бирида табиат тасвирланган ўринда теша тегмаган ташбеҳ ишлатади: “Ҳаво шовла еган кампирларнинг кўнглидай мулойим”.

ХХ аср шеъриятимизнинг ўлмас дурдоналари бўлиб қолган шеърларида ҳам Ғ.Ғулом тилимизнинг гўзаллигини, қудратини намойиш этди. “Қалқонбағир эрлар”, “ҳижронзада қизлар” сингари оҳорли ташбеҳлар фақат Ғафур Ғуломга хослигини

[238] А.Қодирий, Ўткан кунлар, Тошкент, 1995 й.Б.154.

ҳамма билади. Ғ.Ғулом шеърларида сўзлар чексиз қудрат касб этади, гумбурлайди, тоғлар каби акс садо беради, қалбнинг туб-тубидаги энг нозик ҳис-туйғуларни жунбушга келтиради:

Бир оннинг баҳосин ўлчамоқ учун
Олтиндан тарози, олмосдан тош оз.
Нурлар қадами-ла чопган секунднинг
Барини тутолмас айюҳаннос овоз.
(“Вақт” шеъридан)

Ёки:

Гилослар лабингиз акси бўлгандек
Лабингиз аксидир бу боғда гилос.
Сиз учун шеър ёзар бўлган чоғимда
Ўсма сиқиб бердингиз сиёҳимга мос.
(“Хотинлар”)

Тилими тилимни минг тилим қилган
Қирқмалар боғлади юкин қовғага.
(“Куз”)

Ойбек, Миртемир, Шайхзода, Абдулла Қаҳҳор, Зулфия ижодида ҳам она тилимизнинг ранг-баранг товланишларини, гўзаллигини кўрамиз ва она тилимизга меҳримиз ортади, ундан қалбимизда ғурур туямиз. Ундан кейинги авлод–Эркин Воҳидов, Абдулла Орипов, Ш.Холмирзаев, Р.Парфи, Ш.Раҳмон, Т.Мурод, М.Муҳаммад Дўст ва бошқа ёзувчи-шоирларимиз ижодида ҳам шундай хусусиятларни учратамиз. Бадиий адабиёт она тилимизнинг ривожида, унинг гўзаллашиб боришида, имкониятлари кенгайишида ниҳоятда катта аҳамиятга эга. У адабий тилнинг миллий тилга гўзал либос кийдиришини кўрсатади.

СЎЗДАГИ ЖОЗИБА

Тоҳир ХЎЖАЕВ,
филология фанлари номзоди, доцент, Навоий давлат педагогика институти

Навоий асарларида, айниқса, “Хамса”, “Лисон ут-тайр”, “Маҳбуб ул-қулуб”, “Назмул жавоҳир”, айрим қитъа ва фардларида одоб-ахлоқ, инсон камолоти, ҳаёт ва тириклик, яшаш ва умр мазмуни ҳақидаги мушоҳадалари баён этилади. Шоир фикрича,одамларга яхшилик қилиш, юрт ва халқ ташвишида тиниб-тинчимаслик ва шу асосда эзгу ном қолдириш –умр мазмуни. Бу-бир томони. Иккинчидан, шоирнинг бадиий маҳорати. Сўз ишлатиш, унга жон ато қилиш, руҳият ва кечинмалар жунбушини сўз орқали ифодалашни Навоийдан ўрганиш. Шоирман деган, шоирликка даъвогарлик қиладиган ҳар бир шахс Навоийни қайта-қайта ўқиса, сўз қўллаш маҳоратини ўрганса, маза-матрасиз, фикрдан холи, ҳиссиз шеърлар камроқ ёзилармиди, деб ўйлайман. Навоийда бирор сўз ортиқча ишлатилмайди. Уларнинг ҳар бири ўз ўрни, вазифасига эга. Такрор сўзлар ҳам маълум мақсадга йўналтирилган. Ушбу мақолада ҳам айнан ана шу жиҳатларга эътибор қаратилди. Шоир ғазалларидаги айрим байтларда учрайдиган камида уч ёки тўрт марта қўлланган бир хил сўзлар моҳияти ёритишга ҳаракат қилинди. Шу асосда Навоийнинг бадиий маҳорати, сўз ишлатишдаги ўзига хослигига эътибор берилди.

Маълумки, Навоий шеъриятидаги лирик қаҳрамон, асосан, ошиқ инсон. У ҳаётий гўзал васлига интиладими, Оллоҳ жамоли ошиғими –барибир дарду изтироблар исканжасида қолган киши. Шунинг учун ҳам унинг “кўзи намлиқ, бўйи хамлиқ, ичи андуҳу мотам”га тўла. Бугина эмас. Мана шу азоблар гирдобидаги шахс маънавий суянчга,дарддошга эҳтиёж сезади. Аммо унга “на ҳамдам, на марҳам” бор. Ишқ меҳнатларини пинҳона бошдан кечиради. Муҳаббат ўзи шундай: Улуғ куч, улуғ завқ, улуғ азоб. Навоий ёзганидек, ишқ водийси ажаб водий, унда мўр-чумоли шердан ҳам кучли, пашша эса, филни ҳам маҳв эта олиш салоҳиятига эга бўлиши мумкин. Ишққа гирифтор кўнгил юксакликка кўтарилади. Ўзида юксак куч сезади:

Ишқ водийси ажаб водий эрурким, ҳар мўр
Анда шерафкану ҳар пашша эрур пилафкан. (Н.Ш. 319-бет)

Навоий кўнгил кечинмалари, қалб ғалаёнларини теран ҳис этади. Бу ҳолатларни ифодалашда ўзига хос сўз, жумлалар топа олади. Мана бу байтда қофия ва радифлар ошиқ ҳолатини аниқ ифодалашда ёрдам берган:

Не учун тарки муҳаббат қилди моҳим –билмадим,
Бу ғазабким, айлади моҳим, гуноҳим – билмадим. (Ф.К. 296-бет)

Ошиқ-вафодор инсон. У маъшуқасига қаттиқ боғланиб қолган. Ёрдан айрилиш –чидаб бўлмас азоб. Лирик қаҳрамонни ҳайрон қолдирган нарса битта: нима сабабдан маҳбуби уни тарк этди. Муҳаббатидан воз кечди. Ошиқ шу билан ҳам қолиб кетмайди. Ўз ёрини моҳим –ойим дея ардоқлаган ошиқ ундан зуҳур бўлаётган зулмларга чидайди. Уни яна ҳам ажаблантираётган нарса маъшуқанинг ғазаби. Муҳаббатини рад этиш билан кифояланмаган ёр, унга ғазаб ҳам қилади. Ошиқ эса, гуноҳини билмай ҳайрон. У икки томонлама қайғуда: ҳам ёридан айрилди, ҳам ёрининг ғазабига учради.

Навоий ғазалларида “ишқ дашти”, “ишқ саҳроси”, “ишқ олами”, “ишқ дарди”, “ишқ аҳли”, “ишқ барқи” (чақмоқ), “ишқ нахли”(ниҳол), “ишқ мулки”, “ишқ султони”, “ишқ зулми”, “ишқ илми”, “ишқ фани”, “ишқ ғавоси”, “ишқ яғмоси”, “ишқ ўти, “ишқ дарёси”, “ишқи комил”, “пири ишқ” каби жумлалар кўп учрайди. Мана бу байтда “ишқ дашти” бирикмаси бор:

Ишқ даштида ўлумдин қочмоғилким, анда бор
Минг балоким, бу балодур барчадин ўксук бало. (Н.Ш. 27-бет)

Иккинчи мисрада уч ўринда “бало” сўзи ишлатилган. Бало – мифик образ. Халқ тасаввуридаги ёвузлик, ҳайбат, совуқ қиёфа ва қўрқув ифодаси. Бу образ ҳозирги кунда образлик тушунчасидан йироқлашиб, кўпроқ қарғиш, совуқ муносабат билдирувчи сўз сифатида тилга олинади. “Балога йўлиққур”, “бошимга бало бўлдинг”, “жонимга бало бўлдинг”, “бало бўл” каби атамалар шулар билан боғлиқ. Мисраларда ишқнинг кучи, унга гирифтор ошиқнинг ҳолати таъсирли ифодаланган. Ишқ дашти қийноқлар, балолар билан тўла. Бу даштга кирган киши ҳамма нарсага тайёр туриши, ҳатто ўлимни ҳам бўйнига олиши зарур. Мисралардаги биринчи бало – ишқ даштидаги балонинг миқдорини – кўплигини билдирса, иккинчиси – “бу бало” – ишқни, учинчиси – “ўксук бало” – балоларнинг енг озини, камини англатади.

Одатда, бир гапда айнан сўзнинг икки ва ундан ортиқ ишлатилиши ғализликни туғдиради. Аммо Навоий ғазалларидаги айрим байтларда бир сўз икки, уч, тўрт, ҳатто беш марта ҳам ишлатилади. Уларнинг ортиқчалиги, зўраки киритилгани умуман сезилмайди. Бу сўзларнинг ҳар бири ўз вазифасини аниқ бажаради. Шоир ғоялари, лирик қаҳрамон кечинмаларини кўтаринки руҳда тасвирлаш имконини беради. Мана бу байтга назар солайлик:

Жон Навоийни, Навоий жонни сенсиз истамас,
Ани жоннинг, жонни анинг, ранжидин қутқор, кел. (Н.Ш. 275-бет)

Бу байтда “жон” сўзи тўрт марта, Навоий сўзи икки марта қўлланган. Ҳар бир мисрада “жон” асосий сўз сифатида келган. Ошиқ таъкидича, жон (юрак) ёрсиз Навоийни истамаганидек, Навоий ҳам маъшуқасисиз жонни (кўнгилни) хоҳламайди. Ошиқ севгилисига мурожаат қилиб, тезроқ келишини илтижо қилади. Жон билан Навоийнинг яшаб қолиши, “Ани (Навоийни) жоннинг, жонни анинг (Навоийнинг) азобларидан халос бўлишининг ягона чораси ёрнинг висоли.

Навоий шеъриятидаги ошиқ вафо тимсоли. У ҳар қандай вазиятда ҳам ёридан воз кечмайди. Маъшуқанинг азобу ситамларига сабр билан чидайди. Висол умиди билан яшайди. Ёр жамолига етолмай, уни кўриш илинжи қолмаган, соғинч туйғулари жунбушга келган ошиқ маҳбуби итини кўришдан-да хурсанд:

Не итни ул бути бегонаваш итики соғиндим,
Ит ошноға ёлинғон кеби ул итка ёлиндим. (Н.Ш.288-бет)

“Не итни” – бу қайси итни деган маънода, “бегонаваш итики” – ёр ити мазмунини, “ит ошноға” деганда ҳаётдаги ҳар қандай ит маъноси, “ул ит” эса яна ёр ити маъносида келган. Демак, ошиқ ҳар қандай итни эмас, ўзини бегоналардек тутаётган, уни кўришни хоҳламаётган ёрининг итини соғинаяпти. Сабаби: у ит маъшуқани кўриб туради, унинг даргоҳида кун кечиради. Ёрини кўрган итни кўриш ҳам ошиқ истаги. Шунинг учун ҳам ит овқат илинжида одамларга қанчалик ёлвориб қарагани, умидвор бўлгани каби ошиқ ҳам ёр итига ёлворади. Ўз ёнига келишини истайди. Бу ҳолат соғинч ва висол умидида азоб тортаётган ошиқ ҳолатини аниқ намоён етади.

Мана бу байтда “туз” сўзи тўрт марта ишлатилган. Ҳозирги вақтда туз деганда овқатга солинадиган нарсани тушунамиз. Шунингдек, тузмоқ феъли мазмунида ҳам қўлланади. Мумтоз адабиётимизда эса, тузнинг бир неча маънолари бор: тўғри, рост, келишган, текис ер, дала. Кўринадики, “туз” сўзи шаклдош бўлиб, бир неча маъноларга эга. Ушбу байтда-чи?

Қадинг туз, нахли гулзори Эрам туз –
Ки, туз ашёға бўлмиш соя ҳам туз. (Ф.К. 142-бет)

Мумтоз шоирларимиз ёр қоматини турли нарсаларга қиёслайдилар. Унда биринчи белги тўғри, тик қадга эътибор берилади. У “алиф” ҳарфи, “сарв”, Нуҳ умри, нахл (ёш дарахт) кабиларга ўхшатилади. “Қадинг туз” – жумласидаги “туз” тик, тўғри дегани. Қоматинг тўғри, чиройли. У билан Эрам (парилар маскани бўлмиш афсонавий жой) гулзорини туз – бунёд эт. Шоир фикрича, туз ашёнинг – тўғри нарсанинг сояси ҳам тўғри бўлади. Демак, мисраларда уч ўринда “туз” сўзи тик, тўғри маъносида, биттаси эса, “тузмоқ”, “яратмоқ” мазмунида ишлатилган. Қуйидаги мисраларда “яхши” ва “ёмон” сўзлари уч мартадан ишлатилган:

Фаҳм этар яхши-ёмон васлинг манга тегмасниким,
Яхшилардин яхшисен сен, мен ёмонлардин ямон. (Ф.К. 301-бет)

Биринчи мисрадаги “яхши-ёмон” одамлар маъносида. Ошиқ эътирофича, ёр васли унга муяссар бўлмаслигини барча билади. Чунки унинг ёри барча яхшилардан яхши. Ошиқ эса, дунёдаги энг ёмонлардан ҳам ўзини ёмонроқ деб билади. Бу – камтарлик, хокисорлик белгиси. Лирик қаҳрамоннинг юрак эътирофи, маъшуқасига ўзини муносиб кўрмаслик иқрори “яхши”, “ёмон” сўзлари орқали таъсирчан ифодаланган. Мана бу мисраларга назар ташлайлик:

Кўзу қошини то кўрдум – кўзум қошиға ҳайрондур,

Яна ҳеч илтифотим йўқ кўзу қоши қароларға. (Ф.К.386-бет.)

Бу байтда “кўз” ва “қош” сўзлари уч мартадан ишлатилган. Биринчи мисрадаги “кўзу қош” ёр аъзолари. Кўз ва қош ҳақида. Иккинчи ўринда эса, ошиқнинг кўзи маҳбуб қошини кўргани боис ҳайратда. Ёр гўзаллигини (кўз ва қошларини) кўрган ошиқ бу ҳусн олдида ҳайрон қолади. Шу сабаб, у энди бошқа, “кўзу қоши қароларға” – гўзалларга назар солишни истамайди. Иккинчи мисрадаги “кўзу қош” бошқа ҳусн эгаларини англатади.

Умуман, Навоийнинг “Хазойин ул-маоний” девонидаги ғазалларда бундай мисоллар кўплаб учрайди. Уларни аниқлаш, ўрганиш, Навоийнинг юксак иқтидорини яна бир бор ҳис қилиш, сўздаги сеҳр ва жозибани англаш имконини беради. Китобхон руҳига кўтаринкилик бағишлайди, сўздан завқ ола билиш ҳиссини уйғотади.

ЎЗБЕК МАРОСИМЛАРИ ВА ИРИМ-СИРМЛАР ХУСУСИДА

Турсунова Насиба ХАМРОЕВНА,
Навоий давлат педагогика институти
Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Халқ оғзаки бадиий ижоди аждодларимизнинг миллий руҳияти, менталитети, маънавий дунёқарашини ўзида акс эттирувчи поэтик кўзгу бўлиши билан бир қаторда ёзма адабиётнинг юзага келиши ва тараққиётида ҳам муҳим роль ўйнаган. Бадиий салоҳияти бениҳоя юксак бўлган зукко аждодларимиз тафаккурининг серқирра ижодий даҳоси туфайли шаклланган фольклор анъаналари, шунингдек, ирим-сирмлар билан боғлиқ маросим фольклори намуналари асрлар давомида ижтимоий ҳаётда инсонларнинг эътиқодий қарашлари змирида хизмат қилиб келмоқда.

Ўзбек маросим фольклори бўйича илмий кузатишлар олиб борган профессор Б.Саримсоқов маросим фольклорларини икки катта туркумга – мавсумий маросимлар фольклори ва оилавий–маиший маросимлар фольклорига ажратади.[1] Оилавий-майиший маросимларнинг ўзи икки турни ўз ичига олади. Тўй маросимлари ва мотам (аза) маросимлари.

Тўй маросимлариининг хам бир неча ичкий турлари мавжуд бўлиб, маросимнинг кимга, нимага қаратилиши ва ташкил этилиши билан бир-биридан фарқланади. Жумладан, “Бешик тўйи”, “Мучал тўйи”, “Хатна тўйи”, “Никоҳ тўйи” ва бошқаларни ташки этади. Дастлабки кузатишларимиз борасида оилада фарзанд туғилиши билан боғлиқ “Бешик тўйи” маросими, уни ташкил этиш хусусидаги урф-одатлар, расм-русмлар ва ирим-сиримлар ҳақида тўхталамиз.

Ўзбек фольклоршунослигида бешик тўйи маросимининг келиб чиқиш тарихи, ўтказилиш тартиби ва унда ижро этиладиган фольклор асарларининг бадиий хусусиятлари ҳақида бир қатор илмий асарлар яратилган. Хусусан, профессор О.Сафаровнинг бола тарбиясининг бешик даври билан алоқадор қўшиқ, айтим ва олқишларни илк бор илмий тавсифлашга доир ишлари,[239] тахлил этилган.

[1] Саримсоқов Б. ¤збек маросим фольклори. Т.: «Фан», 1986, 30-бет.

[239] Сафаров А. Жанровый состав и поэтика узбекского детского поэтического фольклора: Автореф. дисс. доктора филол. наук. – Ташкент, 1985; Яна ўша: Болаларни эркаловчи ўзбек халқ қўшиқлари. – Тошкент: Фан, 1983; Яна ўша. Ўзбек болалар поэтик фольклори. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985; Яна ўша. Алла-ё, алла. Тўплаб нашрга тайёрловчи: О.Сафаров. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985; Яна ўша. Аллаё-алла. Тўплаб, нашрга тайёрловчи: О.Сафаров. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999.

Бешик кеча янги туғилган фарзанднинг дунёга келганига шукроналик билдириш мақсадида ташкил этилувчи маросим. Чақалоқни ёмон кўзлардан сақлаш, инсу-жинслардан муҳофаза қилиш учун турли ирим-сиримлар билан урф-одатларга бой бўлади. Чақалоқ бешикка илк бор белангандан кейин момолар унинг онасини бешикнинг ўнг томонига олиб ўтиб, болани эмиздирадилар. Она боласига кўкрак тутишидан аввал кайвони момо унга бир нон тишлатади. Маълумки, нон тишлатиш ўзбекларда рамзий маънога эга бўлиб, бу аждодларимизнинг нонни муқаддас деб эъзозлашлари, уни инсонга йўлдош сифатида тушунишларидан ва нон ризқ-насиба рамзи эканлигидан далолатдир. Шу маънода бешикдаги чақалоқ ҳам катта бўлиб, кўчада ўйнаб юрган болалар сингари соғлом бўлиб ўссин деган ниятда она тишлаган нонни ёш болаларга бўлиб берадилар. Шундан кейин болани ухлатиш учун кайвони момолар ёки она томонидан алла айтилган.

Бешикка белаш маросими турли иримларга бойлиги билан ажралиб туради. Юртимизнинг турли вилоятларида «Бешик кеча» маросимида бешикка беланган чақалоқ уйқусида қўрқиб уйғонмасин, тинч-осуда ётиб дам олсин деган мақсадда турли хил магик амаллар бажарилган. Чақалоқнинг ёстиқчаси остига саримсоқ, қайроқ тош, пичоқ ва бир дона кулча нон қўйилади. Бу нарсалар гўдакни зиён-заҳматдан асровчи воситалар тариқасида ирим ҳисобланади. Бешикнинг учта ерига пахта қўйиб ёқилади ва куйиндилар йиғиб олинади. Бу жараёнда бешик олов билан покланиши назарда тутилади. Болани бешикка белаётган аёл уни атайлаб нотўғри ётқизмоқчи бўлади, шунда аёллар бир овоздан «йуқ, йўқ!» деб жавоб беришади. Бу ҳаракат икки марта такрорланиб, ниҳоят чақалоқ кайвони аёлнинг кўрсатмаси билан бешикка тўғри беланади ва қуйидаги сўзлар айтилади:

Қоч-қоч бабаси,
Келди бешикнинг эгаси,
Ота-онанг гапиришса,
Қичқиришса яна қўрқма,
Олапар ит аккилласа,
Сен яна қўрқиб юрма! ва ҳоказо.
(Ёки бошқача варианти айтилади)
Орқаси пахта, бешиги тахта
Эгаси келди, бабаси коч, қоч
Қўрқма-қўрқма болам, қўрқма
Отанг бақирса қўрқма,
Онанг чақирса қўрқма
Бобонг шовқинлаганда
Итинг аккилаганда,
Қўрқма болам қўрқма[240]

Қўрқма-қўрқма деб новвот билан бешикни икки томонидан урилади. Шундан кейин бешик устидан ширинликлар сочилиб, исириқ тутатилади. Мехри жўшган бувижонлар томонидан илк бор набиралик бўлганда, айтилган шукроналик айтимлар:

Худойимга қилдим тилак,
Ҳадя этди жажжи юрак.
Шуни асраб жоним ҳалак,
Неварамга меҳрим бўлак.
Келтираман кўплаб ўйинчоқ

[240]Дала машғулоти. 2021 йил, сентабрь ойида Кармана тумани Хончарбоғ маҳалласи, Айрончи қишлоғи 60 ёшли момо Шоҳиста Турсуновадан олинган маълумот.

У чавондоз, ўзимман тойчоқ.
Қўлларига тақиб кўзмунчоқ
Неварамга меҳрим бўлак.
Бувижон деса эриб кетаман
Жонимни ҳам бериб кетаман
Шу зайлда ўлиб кетаман
Неварамга меҳрим бўлак.[241] - деб, болага ният билдирилади.

Хуллас, Ўзбек халқининг қадимий тарихга бой оилавий-маиший маросимлари ранг-баранг бўлиб, улар инсон туғилиши билан боғлиқ турли расм-русмлари ва урф-одатларга, сўзнинг мўъжизали қудратига асосланган. Халқнинг истеьдодли вакиллари томонидан яратилиб, унга бадиий сайқал берилиб, авлоддан-авлодга ўтиб келаётган маросимларнинг вербал қисмини ташкил этувчи, ирим-сирмлар муҳим аҳамиятлилигини тақозо этади.

ALISHER NAVOIY MUXAMMASLARINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Boltayeva Gulchehra SHOKIROVNA,
Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,filologiya fanlari nomzodi
Ernazarova Nilufar UMAROVNA,
Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada g‘azaldan keyin eng ko‘p yaratilgan lirik janr-muxammas hamda taxmis muxammaslar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy-nazariy tahlil qilingan

Kalit so‘zlar. Beshlik, taxmis, mustaqil, tab`i xud muxammasot, taxmismuxammas, “Xazoyin ul-maoniy”, lirik qahramon, botiniy dunyo, uslub, majoziy ishq, ruhiy qiyofa.

Annotatsiya. В данной статье рассматривается наиболее созданные после газели лирические жанры мухаммас и тахмис мухаммас, их специфические черты.

Ключевые слова. Пятистишие, тахмис, табъи худ мухаммасот, тахмис мухаммас, «Хазойин-ул маоний», лирический герой, внутренный мир, стил, метафофорическая любовь, духовный образ.

Annotation. This article discusses the most created after the ghazal lyrical genres muhammas and tahmis muhammas and their specific features.

Keywords. Five lines, tahmis, tabi hud muhammasot, tahmis muhammas, "Khazoyin ul-maoniy", lyrical hero, inner world, style, metaphorical love, spiritual image.

Alisher Navoiyning “Xazoyin ul- maoniy”ga kiritilgan o‘n muxammasidan barchasi taxmis, ya’ni g‘azalni beshlantirish asosida vujudga kelgan muxammas hisoblanadi. O‘zga shoir g‘azaliga taxmis bog‘lash shu shoir bilan ijodiy hamkorlik qilish va muayyan ma’noda adabiy musobaqaga kirishishdir. Shuning uchun ham ijodkorlar odatda o‘z taxmislarini ma’lum poetik mahoratga ega bo‘lganlaridan keyin yarata boshlaganlar. Yana shuni unutmaslik kerakki, bunda g‘azal muallifi bilan unga taxmis bog‘layotgan muallif o‘rtasida mushtarak dunyoqarash, estetik ideal hamohangligi va g‘oyaviy yaqinligi bo‘lishi zarur.

Filologiya fanlari doktori Aftondil Erkinov fanga ma’lum qilgan va shoirning muxlislari tuzgan ikkinchi devoni hisoblanadigan “Oq quyunli ixlosmandlar devoni” tarkibida uch muxammas mavjud. Ularning barchasi Lutfiy g‘azallariga bog‘langan.

[241] Дала машғулоти. 2018 йил, март ойи. Кармана туман “Дўрмон” маҳалласи .68 ёшли хожиона Ибодат Шароповадан олинган маълумот.

Mazkur devonning 1471-yilda tuzilganligi 30 yoshli shoirning dastlabki taxmislari faqatgina ustozi Lutfiy g‘azallari asosida yaratilayotganligini bildiradi.

Sharbati “yuhyil izom” erni mayi nobindadur,
Surayi “vashshams” tafsiri yuzi bobindadur,
Sharhi “mozog‘ulbasar” nargislari xobindadur,
Laylat-ul me’rojning sharhi sochi tobindadur,
Qoba qavsayn ittihodi qoshi mehrobindadur [5:1].

Bunda ajratib ko‘rsatilgan misralar Lutfiy qalamiga mansub bo‘lib, yuqoridagi uch misra Alisher Navoiy tomonidan bitilgan.

Taxmisning yaratilish davriga e’tibor qaratsak, “Professor Hamid Sulaymon tomonidan tayyorlangan va shoirning dastlabki she’rlari kiritilgan “Ilk devon”ning fotonusxa nashrida bir muxammas mavjudligini ko‘ramiz. Ushbu devonning 1465-1466-yillarda tuzilganligini hisobga olsak, Alisher Navoiy o‘zining ilk taxmisini mavlono Lutfiy g‘azaliga 25 yoshiga qadar yaratib bo‘lganligi ma’lum bo‘ladi. Odatda, g‘azalga taxmis bog‘lanayotganda uning bandlari soni g‘azal baytlariga mos holga keltiriladi. Lekin ba’zan shoirning xohishiga ko‘ra, g‘azaldagi ayrim baytlarga taxmis bitilmasligi, ya’ni ular qisqartirilishi mumkin. Aynan shu holat yuqoridagi taxmisda ham kuzatiladi. Taxmisga asos bo‘lgan Lutfiy g‘azali, aslida, hajman 7 baytdan iborat. Ammo taxmis bog‘langanda uning ikki bayti qisqartirilib, 5 band holiga keltirilgan [5].

Yosh Navoiyning dastlabki muxammaslarini “malik ul-kalom” g‘azallariga bog‘layotganligi bejiz bo‘lmay, bu holatni Lutfiyning Navoiygacha bo‘lgan turkiy adabiyotda tutgan yuksak maqomi, uning badiiy jihatdan mukammal she’riyati bilan izohlash mumkin. Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn”da turkiy she’riyatda o‘zidan avval yetishib chiqqan bir necha shoirlarni tilga olib, shunday yozadi: “Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va Atoiy va Muqimiy va Yaqiniy va Amiriy va Gadoiy… Va forsiy mazkur bo‘lg‘on shuaro muqobalasida kishi paydo bo‘lmadi, bir mavlono Lutfiydin o‘zgakim, bir necha matla’lari borkim, tab’ ahli qoshida o‘qusa bo‘lur…” [5].

Alisher Navoiy bu o‘rinda turkigo‘y shoirlar orasida forsiy adabiyotdagi Xoqoniy, Avhauddin Anvariy, Kamol Ismoil, Zahir Foryobiy, Salmon Sovajiydek qasidanavislar; Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviydek masnaviy ustalari; Sa’diy Sheroziy va Hofiz Sheroziy kabi g‘azalnavis shoirlar yetishib chiqmaganligiga e’tiborini qaratib, turkiy shoirlardan faqat Lutfiygina ular bilan she’riy musobaqaga kirishish salohiyatiga ega bo‘lganligini ta’kidlayapti. Alisher Navoiyning o‘ttiz yoshgacha bo‘lgan davrda yaratgan taxmislari aynan Lutfiy g‘azallariga bitilganligi bu fikrni asoslaydi [5]

Ma’lumki, Alisher Navoiy so‘zga, xususan, she’rga yuksak talabchanlik bilan yondashgan. U har bir janrning qonun-qoidalarini chuqur bilgani holda muhammas janriga ham ijodkor g‘oyalarining ifodasi sifatida qaragan. Alisher Navoiy tanlagan g‘azalda buyuk shoirning dardu dunyosi, albatta, aks etishi shart edi. Ehtimol, Alisher Navoiy muayyan bir ijodiy salohiyatga yetishgandan so‘ng turkiy adabiyotda mana shunday she’r namunasiga duch kelmagandir, boshqa shoirlarning baytlarida o‘z olamining aks-sadosini his etmagandir?! Bu esa badiiy didi yuksak bo‘lgan Alisher Navoiyning o‘z g‘azallariga taxmis bog‘lashiga olib kelgan bo‘lishi mumkin. Qolaversa, shoir, yuqorida ko‘rganimizdek, “Majolis un-nafois”da turkiy tilda ijod qilgan Atoyi, Gadoiy, Sakkokiy kabi yirik shoirlar haqida to‘xtalgani holda faqat Lutfiy g‘azallarini taxmis bitishga munosib ko‘rmoqda [5].

Hazrat Navoiy taxmis bog‘lagan Lutfiyning “Sensan sevarim” nomli g‘azallar devonida quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Laylatul me’rojning sharhi sochi tobindadur,
Qoba qavsayn ittihodi qoshi mehrobindadur [6:80].

Matla’dan ma’lum bo‘ladiki, Lutfiy g‘azalining lirik qahramoni go‘zallikda tengsiz bir yordir. Uning tunga qiyos etilgan qora sochiga me’roj kechasining sharhi yashiringan, mehrob misol qoshi esa qobaqavsayn – ikki yoy oralig‘idagi masofani esga soladi. Bu o‘rinda shoir Lutfiy ma’shuqa tasvirida payg‘ambarning me’roj tunida Olloh huzuriga ko‘tarilishi va Yaratgan bilan rasul orasidagi masofa ikki qosh oralig‘i misoli yaqin bo‘lganligi hodisasiga ishora qiladi, deyiladi g‘azal tahlilida. G‘azalning keyingi baytlari ham yor go‘zalligi ta’rifi bilan davom etib, uning shirin va jon baxsh labidan salsabil (jannat bulog‘i) sargardon, Xizr va Iso Masihlar xijolatda ekanligi ta’kidlanadi. Shu tarzda g‘azal baytlarida yor ta’rifu tavsifini keltirish davom ettiriladi [4].

Alisher Navoiyning bu g‘azalga murojaat qilishi ham tasodifiy emas, muayyan asoslarga ega. Navoiy buyuk so‘z ustasi Abdurahmon Jomiy bilan tanishgan va ustozi ta’sirida vahdat ul-vujud (butun borliqning yagonaligi) ta’limotiga qiziqqan. Ma’lumki, Abdurahmon Jomiy vahdat ul-vujud ta’limotini naqshbandiya tariqati bilan bog‘laydi. Tariqat g‘oyasiga ko‘ra, komil inson – Yaratganning bir zarrasi ko‘rinishida ham tashqi, ham ichki go‘zalliklar majmuidir. Komil inson timsolining oliy namunasi bo‘lgan Payg‘ambar (s.a.v) dan tortib barcha valiy zotlar ham komil inson timsoli hisoblanadilar. Lutfiy g‘azalida tavsifi keltirilgan yor muayyan ma’noda komil inson timsolidir. Shu o‘rinda aytish mumkinki, insonni butun “maxluqotlarning toji” sifatida ulug‘lagan Alisher Navoiy “malik ul-kalom”ning ushbu g‘azalidan ta’sirlanishi va undagi g‘oyani rivojlantirib, mazkur g‘azalga taxmis bog‘lashi bejiz emas edi. Negaki ulug shoirning birdan bir niyati komil inson timsolini yaratish va shu orqali insonlar siyratida komillikni ko‘rish edi. Ulug‘ shoir taxmisning birinchi bandida Lutfiy g‘azali matla’sida keltirilgan komil inson go‘zalligi ta’rifiga hamohang tarzda iqtibos san’atidan foydalanib, har bir misrada Qur’on oyatlaridan jumla keltiradi:

Sharbati “yuhyil izom” erni mayi nobindadur,
Surayi “vashshams” tafsiri yuzi bobindadur,
Sharhi “mozog‘ulbasar” nargislari xobindadur …[5:1].

Alisher Navoiy misralarida yorning labi o‘liklarni tiriltiruvchi toza sharbat manbai, Qur’oni Karimdagi “Vashshams” surasining izohi uning yuzida aks etadi, “ko‘z aldanmadi” oyatining sharhi uning ko‘zlarida namoyon. Bu ta’rif Lutfiy qalamidan to‘kilgan soch va qosh ta’riflari bilan birlashib, mukammal go‘zallik tasvirining yorqin namunasi vujudga kelganligini ifoda etadi. Odatda, g‘azalga taxmis bog‘lanayotganda uning bandlari soni g‘azal baytlariga mos holga keltiriladi. Lekin ba’zan shoirning xohishiga ko‘ra, g‘azaldagi ayrim baytlarga taxmis bitilmasligi, ya’ni ular qisqartirilishi mumkin. Aynan shu holat yuqoridagi taxmisda ham kuzatiladi. Taxmisga asos bo‘lgan Lutfiy g‘azali, aslida, hajman 7 baytdan iborat. Ammo taxmis bog‘langanda uning ikki bayti qisqartirilib, 5 band holiga keltirilgan. Xususan, quyidagi ikki bayt Navoiy taxmisida uchramaydi:

Xomai qudrat-la bitgandan emush afdur yuzi
Kim, malohat oyati majmu’ aning bobindadur…
Ko‘zlari har go‘sha uyqudin qo‘porur fitnalar,
Turfa maxmur eki chandon fitnalar xobindadur [4].

Yuqoridagi ikki baytga e’tibor qaratsak, ularda yuz va ko‘z tasvirini ko‘ramiz. Birinchi baytda yor yuzi qudrat qalami bilan bitilgan Mushaf, ya’ni Qur’onga nisbat berilsa, ikkinchi baytda uning ko‘zlari uyquda ham fitna qo‘zg‘otuvchi maxmur (mast)ga o‘xshatilmoqda. Alisher Navoiy o‘z taxmisining birinchi bandidayoq yuz va ko‘z tasvirining mukammal tarzdagi bayonini berib bo‘lganligi uchun uni yana takrorlashga ehtiyoj qolmayapti va o‘z-o‘zidan endi bu ikki bayt mazmun jihatidan taxmis uchun ortiqcha ekanligi seziladi. Yana bir sabab qofiya talabi bilan bog‘liq. Tushirib qoldirilgan

baytlardagi qofiyalarga e’tibor qaratsak, ular “bobindadur” va “xobindadur” tarzida ekanligini ko‘ramiz. Alisher Navoiy taxmisning matla’ bandidayoq ushbu qofiyalardan foydalanganligi uchun ularni takror holda qo‘llashni istamagan va shu tarzda taxmis 5 band holatiga kelgan[4]).

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Alisher Navoiy muxammaslarida shoir o‘zining yoshlik va yigitlik chog‘idagi ijodiga alohida e’tibor bilan qaragan va bu davrda yozgan g‘azallariga o‘z ijodi jarayonida qayta-qayta murojaat etib turgan. Shoir muayyan mavzuga doir g‘azal yozar ekan, oradan vaqt o‘tib, shu mavzuga qaytishga ehtiyoj sezgan va shu tariqa o‘z g‘azallarini muxammas holiga keltirgan. Sohir so‘z ustasi Alisher Navoiy o‘z g‘azaliga taxmis bog‘lash natijasida mumtoz adabiyotimizda mavjud an’analarga yangicha ruh, jon baxsh etib, o‘zining yuksak mahorati, novatorlik salohiyatini namoyon etgan. Shoir taxmis bog‘lashda o‘z g‘azallarini tanlar ekan, ulardagi yoshlikka xos jo‘shqin, shiddatkor ruhni alohida e’tirof etadi va shu ruhni saqlab qoladi. Natijada, mazkur taxmislarda yoshi ulg‘ayib borayotgan ulug‘ shoirning betakror ichki dunyosi, nozik fasohati va navqiron iste’dod sohibining qaynoq hissiyotlari, she’riyat olamiga bo‘lgan zavqu shavqining san’atkorona uyg‘unlashganiga guvoh bo‘lamiz. Bu xususiyatlar bevosita bugungi kun she`riyati ijodkorlari ruhiyatiga ham oz tasirini otkazib, zamonaviy she`riyat vakillari Navoiy muxammaslariga taxmislar bog‘lash an`analarini davom ettirmoqdalar. Buni birgina shoir Jamol Kamol ijodidan namuna sifatida ko‘rdik. Alisher Navoiy muxammaslariga taxmislar bog‘lash va yaratish mumtoz sheriyat an`analarini saqlagan holda o‘tmish va kelajak avlodni bog‘lab turishi shubhasizdir.

ADABIYOTLAR

1.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild. (To‘plam 1-5-jildlar), Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2020. -379b

2. Alisher Navoiy. Qomusiy lug‘at.Birinchi jild.”Sharq “nashriyoti. –T.,2016.

3.Is`hoqov,Yoqubjon. So‘z san’ati so‘zliligi /Yo.Is`hoqov.-.Toshkent: «O‘zbekiston», 2014. -126 b

4. Yusupova D. Alisher Navoiy taxmislari. http://www.e-adabiyot.uz/uzbek/mumtoz /1267-maqola.html. 21.08.19.

5.Yusupova D. https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/dilnavozyusupova-alisher-navoiy-taxmislari.html

6.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar toplami: Badoyi_ul-bidoya. MAT. 20 tomlik. — Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti 1987-2003.-1b .http://navoi.natlib.uz:8101/uz/badoyi_ul_bidoya_birinchi_tom/

7. Lutfiy. Sensan sevarim. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987. – 80 b

ЭЪТИҚОДЛАР БИЛАН БОҒЛИҚ МАРОСИМЛАР ХУСУСИДА

Ризоева Мехринисо АБДУАЗИЗОВНА,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Навоий давлат педагогика институти

Ўзбек халқи анъанавий турмуш тарзидаги қадимий диний эътиқодлар билан боғлиқ маросимлар ва урф одатларни илмий асосда таҳлил этиш мазкур минтақада яшовчи халқларнинг ташқи олам, табиат тўғрисидаги тасаввурларининг энг қадимги қатламларини аниқлашга, халқимизнинг қадимги аждодлари илк диний эътиқодий қарашлари, тафаккури ва мафкураси борасида мушоҳада юритишга имкон беради.

Қадимги мифларнинг асосий қисми халқ бадиий тафаккурининг дастлабки пайтда куй, сўз ва ҳаракат бирлигидан иборат қоришиқ шаклда намоён бўлган илк кўринишларига сингиб кетган. Ўзбек халқ оғзаки насрида сакрал (лотинча “sacralis”-муқаддас) персонажларнинг қадимги мифология билан бевосита боғлиқ бўлган архаик қатламига оид матнларда ўтмишда яшаган аждодларимиз дунёқараши, уларнинг ўй-хаёллари, табиат ва жамият ҳақидаги қарашлари, эътиқодий қараш ва инончлари акс этган. Халқимиз анъанавий турмуш тарзидаги қадимий эътиқодлар ва улар билан боғлиқ урф-одатларнинг аксарияти асл моҳияти ва мазмуни унутилган бўлсада, исломий кўринишда ёки у билан ўзаро уйғунлашиб одат, анъана сифатида яшаб келаётгани тасдиқланган. Исломий урф – одат ва маросимлар билан қадимий диний этиқодларга хос бўлган одатлар орасида аниқ чегарани белгилаш учун махсус тадқиқотлар олиб бориш мақсадга мувофиқ. Бу бир томондан халқимиз миллий урф-одатлари ва анъаналари узоқ тарихий асосга эга эканлигидан далолат берса, бошқа тарафдан, анъана ва қадриятлар изларини тадқиқ этиш бугунги куннинг муҳим муаммоларидан бири ҳисобланади.Оғзаки насрда сакрал персонажларни тадқиқ этиш борасида жаҳон фольклоршунослигида муайян ижодий тажриба тўпланган бўлиб, айниқса, М.С.Андреев[1], Е.В.Антонова[2], О.В.Горшунова[3], Г.П.Снесарев[4], В.ЙБасилов[5],ЛевиСтросс[6], О.П.Валянская[7],Р.М.Мустафина[8], О.Муродов[9] каби олимларнинг ишларида бу хусусда жиддий илмий қарашлар илгари сурилган. Маълумки, ҳар бир маросимнинг ўзига хос хусусият ва характери бор. М.С.Андреевнинг 1927 йилда нашр этилган “Золушканинг (Сандриллонс) Ўрта Осиё версияси”, О.А.Сухареванинг[10] мусулмон авлиёларига, муқаддаслаштирилган аёл тасвирларини ўрганишга бағишланган асарларида Ўрта Осиё халқлари маданияти ҳақидаги маълумотлар тизимлаштиришга ҳаракат қилинган. Таниқли фольклоршунос Г.П.Снесарев[11] тадқиқотларида Хоразм ўзбеклари орасидаги эътиқод ва урф-одатлар, Хоразмда энг машҳур бўлган авлиё Анбар она культига эътибор қаратиб, уни хоразмликлар диний ҳаётининг бошқа ҳодисалари: аграр, оилавий-маиший, ҳаттоки дафн маросими билан бир қаторда кўриб чиқиш, шунингдек, маросимларнинг махсус , маълум бир автономияга эга бўлган қисми сифатида - унумдорликка сиғиниш, муқаддас Анбар она ва бошқа ҳомий культ элементларини таҳлил қилган. М.С.Андреев[12] қарашларида қадим даврларда аёл худоларнинг қуш образи воситасида тасвирланиши хусусида маълумотлар мавжуд. Ўзбек фольклорида табиат ва коинот тўғрисидаги космогоник тасаввурлар, тотемистик, анимистик, фетишистик ва магик инончларининг мифологик талқинлари хусусида Б.Саримсоқов[13], М.Жўраев[14], У.Жуманазаров[15], С. Мирзаев[16], А.Аширов[17], Д.Ўраева[18], О.Қаюмов[19] тадқиқотларида жиддий илмий қарашлар илгари сурилган. Марказий Осиёнинг айрим ҳудудларида аёллар иштирокида ўтказиладиган жамоавий маросимлар, йиғинлар, асосан, ҳомий аёл культларига бағишланади. Аёлларга хос маросимлардан бири, отинойи ёки раҳбарлигида бажариладиган Бибисешанба маросимидир. Тарихий манбаларда қайд этилишича, Биби сешанба келиб чиқиш моҳиятига кўра, маъбуда рамзи бўлиб, унинг илдизи Ўрта Осиё ва Ўрта Шарқда Ислом дини келгунига қадар кенг ёйилган маъбуда Анахита (Ноҳид)га бориб тақалади. Анахита деҳқончилик ва чорвачилик, ҳосилдорлик ва пишиқчилик маъбудаси ҳисобланиб, гўё унинг қудратига инсон ва ҳайвонлар, қушлар ва барча жониворлар ҳам бўйсунган, деб ҳисобланар эди. Шу тариқа у Биби мушкул кушод, яъни кишини ҳар қандай мушкулдан халос этувчи Она образига айланган. Бу маросим кўплаб туркий халқлар орасида кенг тарқалган. Туркистон ўлкасида Биби Сейшанба, Туркияда Пеишенбе-кари ёки Паршамба пари, Эронда Биби-хур ва Биби Нур,

Афғонистонда Биби Рисинда, Биби Чархий, уйғурлар орасида - Биби-Сейшанба номи билан машҳур бўлган. Мамлакатимизнинг турли ҳудудларида Биби Сешанба (Сешанба она) маросими сешанба кунлари ўтказилади.

Рус этнологи О. Горшунованинг[20] фикрича, Бибисешанба, (Сешанба хоним) мусулмон динида мўмин аёлларнинг сажда қилинадиган объекти бўлган маъбуда пир яъни аёлларнинг афсонавий ҳомийси Момо аёл аждодларга сиғиниш номи билан боғлиқ. Айрим муаллифлар "Бибимушкулкушод" ва "Бибисешанба" образларини сўфийлик - Муҳаммад Баҳоуддин Нақшбанд таълимоти билан узвий боғлиқ ҳолда ҳисобга олиб, уларни оила ўчоғи посбонлари деб ҳисоблайдилар. Таниқли этнограф О.А.Сухареванинг[21] ёзишича, Бибисешанба ва Бибимушкулкушодга оид "мусулмон мифологияси" мусулмонларга қадар бўлган эътиқодларга асосланган учун бу икки аёл культлари ислом динига сингиб, авлиёлар даражасига кўтарилган. Ҳозирда Ўзбекистоннинг кўпгина вилоятларида яшовчи аҳоли орасида Мушкулкушод ва Биби Сешанба маросимлари сақланиб қолган. Маросимлар асосан, аёллар орасида мушкулни осон қилиш мақсадида, иш юришмай қолса, қиз ёки йигитга тенги топилмай қолганда, ҳомиладор аёлларнинг эсон-омон қутилиб олишлари учун ўқитилади. Шунингдек, Бибисешанба ўзбек ва тожик халқлари мифологиясида оилавий бахт тимсоли бўлиб, йигирувчилар ва тикувчиларнинг ҳомийси ҳисобланади[22]. Унинг исмидаги «сешанба» сўзи ҳафтанинг унга аталган кунини кўрсатади. Бибисешанба тўқувчи аёлларнинг ҳомий пири саналгани учун маросим нишонланаётган кун аёлларнинг ип йигиришлари қатъий тақиқланган. Халқ орасида тўқувчилар меҳнатлари туфайли топган сармояларидан маълум бир қисмини пирлари- Бибисешанба шарафига зиёфат уюштириб эхсон қилишган, шунингдек, "қўлларини янгилашган"[23]. "Бибисешанба" қиссасига кўра, бир етим қиз ўгай она қўлида хорлик тортар экан. Онаси ҳар куни қизнинг қўлига пахта бериб-пахтани йигириб, сигирни ўтлатиб кел,- дер экан. Ип йигирмай келган куни ўгай она қизга кўп азоб-уқубатлар берар экан. Бир куни қиз сигирини олиб, пахтани йигириш учун кетаётганда сигир қочиб бир ғорга кириб кетади. Қиз ҳам сигирини кетидан ғорга киради ва у ерда бир аёлга кўзи тушади. Қиз аёлга салом беради. Биби қизнинг саломига алик олиб, хол-аҳволини сўрайди. Қиз маъюслик билан аҳволини гапириб беради. Шунда Биби Мен сени дуо қиламан, мушкулларинг енгиллашади, сен эса мени йўқлаб тургин, деб тайинлайди. Қиз бибини тез-тез келиб йўқлаб туради. Кунларнинг бир кун қиз яшайдиган шаҳар катталаридан бирининг тўйига бормоқчи бўлган. Қизнинг уст-боши уриниб қолганлиги сабабли Биби жаннатга қўл узатиб қизга жаннатдан кийим-кечаклар олиб берибди. Қиз тўйда ўгай онасини кўриб қолиб, у ердан чиққанда кавуши тушиб қолади, кавушини топиб олган тўй хонадонининг ўғли кимга бу кавуш тўғри келса, унга уйланишини айтади. Ковуш қизга тўғри келади ва қизга уйланади. Биби қизга васият қилиб: меҳнатинг роҳатга, машаққатинг давлатга айланди, Мени ҳаққимга таом қилиб, бу қиссани баён қилиб тур деб тайинлайди. Ғарбий Европадаги Золушка эртагига ўхшаш афсона, ўчоқ культига бориб тақалади, унда Биби-Сешанба қари аёл кўринишида камбағал қизга ёрдам беради. Биби-Сешанба ҳақидаги ҳикоя маросимий дастурхон устида айтилиб, унда фақат аёллар қатнашади. Бибисешанба маросими одатда қизларни турмушга беришдан олдин, уларнинг оиласи фаровонлигини таъминлаш мақсадида ўтказилади[24]. Айрим худудларда ушбу маросим тўйдан кейинги кунларда ҳам ўтказилади. Зарафшон вохасида ўтказиладиган "Бибисешанба" маросимининг ўзига хос этник-маҳаллий хусусиятлари мавжуд. Маросим чоғида отинойи олдига(маросим тарихини ўқиб эшиттирувчи) супра ёйилиб, ун, иккитита шам, икки ёки тўртта нон,

умоч оши (хамир овқат), 7та чалпак, (қотир) ёғда қовурилган юпқа тортилган, бўғирсоқ ва ҳолвайтар пиширилган.

Умоч оши маросим таоми сифатида асосан сешанба ва чоршанба кунлари фақат аёллар томонидан тайёрланган. Бибисешанба маросимини ўтказмоқчи бўлган аёл юзига оқ рўмол ўраб, етти уйни айланиб (остонадан ўтмасдан) бир коса (ош косаси) ун олиб юрган. Тадқиқотлардан олинган маълумотларга кўра, аёллар кўз ва суқдан сақлаш маъносида келиннинг сирли, махфийлигини сақлаб қолиш учун юзларини яширган. Уларнинг уй остонасидан ошиб кетмаганликларининг асосий сабаби Шарқ халқларининг азалдан ўзлари ва бутун дунё ўртасидаги чегара ҳисобланган ўша остонага алоҳида муносабатда бўлганлигидир. Ун, сут, туз каби маҳсулотлар оила учун ўзига хос ризқ тимсоли бўлганлиги боис уларнинг фаровонлигини таъминлаш мақсадида остонада бўлишига алоҳида эътибор қаратилган. Маросимга тайёргарлик кўриш чоғида Навоий вилояти аҳолиси қўшниларидан ун сўраш одат тусига кирмаган бўлса-да, уйларининг тўрт бурчагига ун солинган лаганлар қўйишади. Қоидага кўра, маросим таомининг хамири сув билан, Бухорода эса райҳон қўшилган сув билан қорилади. Бу, эҳтимол, озиқ-овқатга ёқимли ҳид бериш учун қилинган ва райҳон жаннат ўсимликлари ҳисобланганлиги сабабли фойдаланишган.

Ахборотчиларнинг фикрига кўра[25], маросим таомлари таркибидаги ун асоси фаришталар унли таомларни афзал кўришлари билан изоҳланади (шунинг учун руҳлар улар учун мўлжалланган таомни оладилар). Бибисешанба маросимининг асосий рамзларидан бири бу супрадир. Супра - махсус (одатда чарм), унинг устига ун элакдан ўтказилади. У ерга уч марта ёйилиб, турмуш қурган аёлларга ва умуман меҳмонларга орқа билан тикилган. Баъзан бу қўшни хонада уч ёки тўрт аёл иштирокида амалга оширилади.

Биринчи марта супра муваффақият, омад ва бахт тилаклари учун очилади. Бибисешанба онадан иккинчи марта ҳимоя ва йўл очишни сўрашади. Учинчи марта, бу ҳаракатни уй бекаси амалга оширади, мақсадга эришиш ва муаммоларни ҳал қилишда ёрдам сўраб мурожаат қилади. Ёйилган супра атрофида фақат бевалар ва турмушга чиқмаган қизлар отинойи бошчилигида ўтирадилар, кейин маросим таомлари тортилади. Маросимнинг асосий шартларидан бири фақат бевалар ва турмушга чиқмаган қизлар учун ноз-неъматлар тайёрлашдир. Бундай ҳолда, турмуш қурган аёллар ва эркаклар учун таом тановул қилиш тақиқланган. Эркакнинг маросим таомини татиб кўриши қатъий тақиқланади. Ахборотчиларнинг гувоҳлик беришича, маросим бўлиб ўтган уйдан олиб келинган ноз-неъматни татиб кўрган кишиларга талофот етиши мумкин (қорин, кўз оғриғи).

Уйда узоқ вақт бўлмаган одам маросим таомларини татиб кўриши мумкин, деб ишонилади. Бизнинг фикримизча, беваларнинг маросимида иштирок этиши қийин масалада ёрдам сифатида қабул қилинади. Карманада Бибисешанба маросимида қатнашувчилар сони чекланмаган, аммо бевалар сони тоқ бўлиши керак, деб ҳисобланади(уч ёки беш киши). Маросимнинг асосий қисми биринчи таом тортилгандан кейин бошланади. Қадимда кампирлар супра устига шам ёқиб, ривоят ва кўрсатмаларни бошлаб беришган бўлса, бугунги кунда шамлар фақат ривоят пайтида ёнади ва Қуръон ўқиётганда уларни ўчириш одат тусига кирган. Кейин супрада умоч оши еб, қотир- чаватини синдириб, ҳозир бўлганларга тарқатилади. Ширинликлар ҳам тарқатилади, фақат уйнинг эгаси учун икки дона қолдиради. Уйда фаровонликни сақлаш учун косанинг пастки қисмига бир оз сув қуйилади, ундан озгина сув истеъмол қилишди, кейин бироз чайқатиб, тўрт томонга қуйилади.

Отинойига оқ рўмол, ун ва пул бериши керак. Қизи бор маросим иштирокчиларига чавати берилади. Кейин супра яна тарқалади ва уч марта йиғилади, шундан сўнг уй бекаси уни бошига қўйиб, етти қадам ташлайди. Аёлларнинг: “Қаерга кетяпсан?” деган саволига жавоб қуйидагича: “Тўйга”, шундан сўнг супра тахмонга қўйилади. Ушбу супрани дарҳол ишлатиш мумкин эмас, фақат икки ёки уч кундан сўнггина ишлатиш мумкин. Бунинг сабабини сўраганимизда, “Биби супраси” супада бир оз вақт ўтказиши кераклигини айтишди. Баъзан Биби Сешанба руҳига ёрдам сўраб мурожаат қилиш ширкнинг кўриниши эканлиги ҳақидаги фикрлар ҳам мавжуд. Бизнингча, бу маросимнинг ҳаётийлиги унинг сўфийлик билан бевосита боғлиқлиги ва маросим давомида отинойи томонидан ранг-баранг талқин қилиниши билан изоҳланади.

Юқоридаги фикр- мулоҳазалардан ушбу маросим аёллар ўртасидаги жамоавий мулоқотнинг бир шакли бўлиб, оилавий муаммоларни ҳал қилишга қаратилгани боис уларга маълум бир маънавий қониқиш берганлиги шунингдек, Ўрта Осиё халқларининг анъанавий дунёқарашида диний ва фалсафий концепциялар билан боғлиқ кўринишлар муҳим аҳамиятга эга эканлигига амин бўлдик.

АДАБИЁТЛАР

1.Андреев М.С. Средне-Азиатская версия Золушки (Сандрильоны). Св. Параскева Пятница. Див-и Сафид. Из материала по мифологии таджиков. -М.,1927. Он же. Женская богиня “госпожа вторник”, покровительница прях //Религиознные верования народов СССР.-М.-Л.,1931.Т.1.-С.311-315.

2.Е.В.Антонова Обряды и верования первобытных землядельцев Востока.-М.: Наука,1990. -310с.

3.Горшунова О.В.Женское паломничество к святым местам(по материалам Фурганской долины) // Итоги полевых исследований.-М.,2000.-С.23-39.Он же. Отынча. // ЭО, № 3. 2001. – С. 136.; Он же. Узбекская женщина: социальный статус, семья, религия. –М. 2006. С. 258.

4.Г.П. Снесарев.Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков хорезма.// М.: 1969.336 с.

5.Басилов В. Й. *Культ святых в исламе. М., 1970;*

6.Леви-Стросс. К первобытное мышление. М., 1994;

7.Валянская О. П. Женщина в мифах и легендах.//Энциклопедический словарь. – Т.: Шарк, 1992. – С. 22

8.Мустафина Р. М. Представления. Обряды и культы у казахов. – Алма-Ата, 1992. – С. 127

9.Муродов О. *Шаманский обрядовый фольклор у таджиков средней части Зерафшана //*Домусульманские верования и обряды в Средней Азии.-М.,1975

10. Сухарева О. А Ислам в Узбекистане. –Т.: Изд-во Ан УзССР, 1960. – С. 40.

11.Г.П. Снесарев.Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков хорезма.// М.: 1969.336 с.

12.Андреев М.С. Средне-Азиатская версия Золушки (Сандрильоны). Св. Параскева Пятница. Див-и Сафид. Из материала по мифологии таджиков. -М.,1927. Он же. Женская богиня “госпожа вторник”, покровительница прях //Религиознные верования народов СССР.-М.-Л.,1931.Т.1.

13.Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. –Тошкент, Фан, 1986. - Б.144.;

14.Жўраев М.Соч магияси билан боғлиқ маросимлар // Ўзбекистон этнологияси. Янгича қарашлар ва методологик ёндашувлар.-Т.,2004.-Б.190-194.

15.Жуманазаров У. Тарих, афсона ва дин. – Тошкент.: «Ўзбекистон», 1990.

16.Мирзаева С. Ўзбек халқ афсун-дуоларининг тематик таснифи. Андижон, 1992.–С. 10-11;
17.Аширов А.Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент, 2007.-Б.200-201.
18. Ўраева Д., Нарзуллаева Д. Бибисешанба маросимида супра рамзи.// Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: Фан, 2008. – Б. 25.
19.Қаюмов О.Ўзбек шомон маросимлари фольклори,Т.,Иқтисод-молия 2021
20.Горшунова О.В.Женское паломничество к святым местам(по материалам Фурганской долины) // Итоги полевых исследований.-М.,2000.-С.23-39.
21.О.А.Сухарева. Древние обряды, верования и культы народов Средней Азии.// Сборник. М., 1986.
22. Сухарева О. А. Вопросу о культе мусульманских святых в Средней Азии // Труды института истории и археологии. Том. II. – Т.: 1950. – С. 173.; Ўзбек совет энциклопедияси. – Т.: Ўзбек совет энциклопедияси бош редакцияси, 1976. – Б. 207.; Женщина в мифах и легендах. – Т.: Главная редакция энциклопедий, 1992. – С. 57.
23.Диссертантнинг фольклор экспедицияси материаллари. Навоий вилояти, Кармана тумани. Ахборотчи: Мукаррам бахши Отақулова . 55 ёш,ўрта маълумотли. 2020 йил сентябрда ёзиб олинган
24.Горшунова О. В. Отынча. // ЭО, № 3. 2001. – С. 136.; Хабиба Фатхи. Смысл женских ритуалов Биби Мушкулькушод и Биби Сешанбе в современной Центральной Азии. – Б.14.; Полевые записи Булакбашинский туман Андижанского вилоята, 2007 г.
25.Диссертантнинг фольклор экспедицияси материаллари. Навоий вилояти, Кармана тумани. Ахборотчи: Зайнаб бахши Бойчаева . 59 ёш,ўрта маълумотли. 2019 йил августда ёзиб олинган.

ЎЗ ОНА ТИЛИНИ БИЛМАЙДИГАН ОНАНИНГ ФАРЗАНДИ УЧУН ОНА ТИЛИ ҚАЙСИ ТИЛ БЎЛАДИ?

Норова Гулсанам МАХСУТОВНА,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Навоий давлат педагогика институти

Тил ҳар бир миллатнинг кўзгуси, унинг ҳақиқий сарчашмасидир. Тил бор экан, миллат барҳаёт. Шул сабабдан ҳам ҳар бир миллатнинг ўз тили, она тили ҳисобланади. Бу қиёслаш, бу ўхшатиш бежизга эмас. Чақалоқ дунёга келиб, бу ёруғ оламга мурғак нигоҳлари билан боқар экан, илк бора онасининг ширин овози ила ўз тилида эркаланади. Унинг жон томирларида миллат руҳи, урф-одатлари, қадриятлари оқа бошлайди. Она алласи билан ором олаётган болакай мана шу тилнинг руҳини ҳис қилиб улғаяди, камол топади.

Бежизга, Муҳтарам Президентимиз Шавкат Мирзиёев ҳам Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганлигининг 30 йиллиги муносабати билан сўзлаган нутқида: “Кимда-ким ўзбек тилининг бор латофатини, жозибаси ва таъсир кучини, чексиз имкониятларини ҳис қилмоқчи бўлса, мунис оналаримизнинг аллаларини, минг йиллик достонларимизни, ўлмас мақомларимизни эшитсин, бахши ва ҳофизларимизнинг сеҳрли қўшиқларига қулоқ тутсин”, - дея айтмади. Аслида ҳам бу чин ҳақиқат эканлиги барчамизга аён.

1989 йил 21 октябрь – Ўзбек халқи учун тарихий кунга айланди. Миллатимиз, халқимиз ўзини, ўзлигини яна бир бор англади. Тилимиз ҳақиқий эозибасини кўрсатди. Ўзбек миллати учун дунё саҳнасида яна бир жой очилди. Таъкидлаб ўтиш

жоизки, Ўзбекистон Республикаси Конституциясида ўзбек тили мақоми ҳуқуқий жиҳатдан мустаҳкамланди. Ўзбек тили ҳақидаги қонун қабул қилинганидан сўнг барча давлат ҳужжатлари ўзбек тилида юритила бошланди, газета ва журналларнинг ўзбек тилида чоп этилиши йўлга қўйилди. 1993 йил 2 сентябрда «Лотин тилига асосланган ўзбек алифбосини тузиш тўғрисида»ги қонун қабул қилингандан сўнг, мамлакатимиз ҳар томонлама ривожланди ва жаҳон коммуникация тизимидан муносиб ўрин эгаллашига йўл очди. Шу ўринда статистик маълумотларга эътибор қаратсак: дунёда 5600 дан ортиқ тиллар мавжуд бўлиб, бундан 200 тасигина давлат тили сифатида қабул қилинган. Уларнинг орасида ўзбек тилининг борлиги унинг нақадар соф, мукаммал, пурмаъно ва жозибадорлигининг ёрқин далилидир. Россиялик тилшунос олима, профессор А. М. Козлянина “Ўзбек тили нафис ва мусиқа оҳангидек жозибадор” деб бежиз таъкидламаган эди.

Бироқ, бугун кўнглимизга тиғдек ботиб тургувчи бир савол бор. Айни пайтда улғайиб келаётган жажжи болажонларимиз она алласини тинглаб улғаяптими? Келажагимизни тарбиялаётган оналаримиз ўз она тилларида гаплашяптими? Афсуски, бундай деб бўлмайди. Замонавий оналаримиз ўз тиллари қолиб, болажонларига рус, инглиз тилларидаги аллар билан улғайтётгани ҳам, айни ҳақиқат. Тўғри, турли тилларни билиш, дунё билан ҳамнафас бўлиш шараф. Чунки фарзанларимизнинг салоҳияти. Заковати шу зайлда дунё юзини кўради. Бироқ, ўз она тилида равон гапира олмайдиган, ҳаттоки, умуман ўз тилини билмайдиган ўзбек фарзандларини тарбиялаётган оналаримга бир савол бергим келади... Сиз, қайси миллат фарзандини улғатяпсиз?!

Бугун ўзини ҳаммага “Гуля” ёки “Дима” дея таништираётган ёшлардан миллатини сўрасангиз соф ўзбек. Ота тарафдан ҳам она тарафдан ҳам адашиб бўлсада авлодига кириб қолган бирор бир рус ёки бошқа миллат вакили йўқ. Аслини суриштирсангиз ўзлари қайсидир бир чекка қишлоқдан келишган-у, йиллар ўтиб шаҳарликка айланиб қолган оддий одамлар.

Ота-онаси шаҳарда яшаб, ишлаб, рўзғор тебратишган. Фарзандлари шу ерда боғчага, мактабга борган. Негадир ўзбек тилини базўр гапирадиган аммо бошқа тилда булбулдек сайрайдиган на ўзбек на рус миллати вакиллари. Ҳаттоки, ўзбек тилида айтиладиган сўзларнинг мағзини ҳам билмайди. Дейлик, сиздан бирор нарса сўради. Унинг сўрагани сизда йўқ эди ва бунинг учун такрор-такрор узр сўрадингиз. У эса сизга жавобан: “раҳмат” дейди.

Лекин бу айтилган гапда ҳеч қандай кесатиқ ёки пичинг маъно йўқ. Бироқ бундан сизнинг кулгингиз қисташи табиий. Афсуски, у “раҳмат”, “ҳечқиси йўқ”, “арзимайди”, “хижолат бўлманг” каби сўзларнинг қай бири қандай маъно англатишини, қайси бири қай вазиятда ишлатилишини ҳам билмайди. Шу ўринда, рус адабиётининг йирик намоёндаларидан бири М.Горькийнинг: “Тилнинг софлиги, маъно аниқлиги, ўткирлиги учун кураш – маданият қуроли учун курашдир. Бу қурол қанчалик ўткир бўлса, қанчалик аниқ йўналтирилса у шу қадар енгилмасдир” – деган фикрлари хаёлимиздан ўтади.

Энди ўзингиз “дўппини бошдан олиб” бир ўйлаб кўринг. Бугун кўча-кўйда, жамоат жойларида турли тиллар аралашмасида сўзлашаётган ёшларни кўриб “ҳа, ҳали ёшда, “замонавийлик” дея шуни қабул қилишади-да”, – десангиз, ёшлари бир жойга бориб қолган катталаримизни кўриб нима дейиш мумкин?! Айниқса, улар оналаримиз бўлишса?!

“Қуш уясида кўрганини қилади”, – дейди доно халқимиз. Шундай экан, оила аталмиш муқаддас гўшада камол топаётган “полапон”лар кимнинг, кимларнинг

изидан эргашаётган экан?! Тўғри, тил билмоқ – эл билмоқ. Бу билан биз чет тилларини ўрганманг демоқчи эмасмиз?! Бошқа тилларга ҳурматсизлик билан ҳам қарамоқчи эмасмиз. Биз бу каби хаёллардан, ўй-фикрлардан буткул йироқдамиз. Бироқ ўз тилимизни унутмаслигимиз, унинг рангин жилосини, жилвасини йўқотиб қўймасликка ундамоқчимиз, холос.

... Она тилим, сен борсан шаксиз,
Булбул куйин шеърга соламан.
Сен йўқолган куниng шубҳасиз,
Мен ҳам тўти бўлиб қоламан – дея айтилган ашъорлар шунчаки қоғоз қоралаш учун эмас, у халқни, миллатни ўз тилини унутмасликка қарата айтилган даъватдир.

Тил – халқни бирлаштирувчи маънавий мерос. Миллат руҳиятини, халқнинг энг буюк қадриятларини ифодаловчи омил. У одамга ўз манфаатларини қондириш учун эмас, аксинча, фикр-ўй, туйғулар, ўзидаги ҳақиқат ва илҳом учқунларини ифодалаш ва ўзгаларга инъом этиш учун берилади. Ўзбек тили нақадар бой мазмун-моҳиҳатга эга бўлган тилдир. Унинг ҳар бир маъноси ўн саккиз минг оламнинг дур-у жавоҳиридан-да кўпроқ, бисёрроқди. Ҳар бир миллатнинг тили ўз маданияти билан юксалади, ривожланиб боради. Шу сабаб ҳам ҳар бир халқнинг ўз тилини ўз миллий руҳияти билан чамбарчас боғлиқдир.

Миллат қадрияти, урф-одатлари, анъанаю маросимлари, болага она сути, она меҳри, она тарбияси орқали қонига сингиб боради. Чунки тил миллат руҳ, миллат қалбидир. Энди айтингчи, ўз она тилини билмайдиган онанинг фарзанди учун она тили қайси тил бўлади?.. У қайси тилни: “менинг она тилим, менинг шон-шарафим, ғурурим, ифтихорим” – дея айта олади?! Кўксини кериб, тоғдай тура олади?!

“ХАМСА” ПОЭТИК СТРУКТУРАСИДА БАСМАЛАНИНГ ЎРНИ

Нигора ШАРИПОВА,
НавДПИ доценти, ф.ф.ф.д. (PhD)

Аннотация: Мақолада туркий “Хамса”нинг биринчи достонидаги илк басмала бобнинг достон структурасидаги муҳим функцияси, ғоявий-бадиий хусусиятлари, ўзбек адабиётшунослигидаги тадқиқи хусусида сўз юритилган.

Калит сўзлар: достон, басмала, боб, тадқиқ, бадиий маҳорат, поэтик тасвир.

Алишер Навоий ижодини ўрганиш ҳамиша улкан тадқиқотларга йўл очади. Муҳтарам юртбошимиз Ш.Мирзиёев таъбири билан айтганда, “янги Уйғониш даври — Учинчи Ренессанс пойдеворини яратаётган бугунги кунда Алишер Навоийнинг безавол адабий мероси мисолида ўзбек адабиёти ва маданиятини чуқур ўрганиш ва оммалаштириш ҳар қачонгидан ҳам муҳим аҳамият касб этмоқда”.[242]

Шоир ижодида “Хамса” асари ўзига хос ўрин тутади. Унинг илк достони “Ҳайрат ул-аброр” буюк обиданинг очқичи сифатида бешликнинг кейинги достонлари моҳиятини теран англаш учун махсус таҳлилни талаб этади. Шу нуқтаи назардан достоннинг композициявий, семантик, бадиий-эстетик жиҳатларини ўрганиш муҳим аҳамиятга эга.

«Ҳайратул-аброр» «Хамса»нинг бошқа достонларидан фарқли равишда бир неча достонлар, қасидалар мажмуаси, маърифий-ирфоний руҳдаги асардир:

[242] Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. Буюк шоир ва мутафаккир Алишер Навоий таваллудининг 580 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида //Халқ сўзи, 2020, 20 октябрь.

«Хамса»ларнинг биринчи қисми фалсафий, ижтимоий, ахлоқий- тасаввуфий ва дунёвий характерда бўлиши Низомий Ганжавийнинг ихтироси бўлиб, Хусрав Деҳлавий ҳам, Жомий ҳам, Навоий ҳам бу анъанани қабул қилдилар.

Достонда эпик тасвир эмас, лирик ифода устунлик қилади, муаллифнинг таъриф ва тавсифлари етакчи рол ўйнайди, сюжет ва воқеалар баёни ўрнига шоирнинг фикру қарашлари ўз ифодасини топган. “Ҳайрат ул-аброр”даги фикрлар кейинги достонларда образлар воситасида бадиий талқин қилинади.

Шарқ шеърияти даҳолари Низомий Ганжавий, Хусрав Деҳлавий, Жомий, Навоий «Хамса»ларидаги биринчи достонлар барча бешликларнинг кейинги достонларига нисбатан калит, очқич вазифасини бажаради. Нима учун? Чунки барча “Хамса”ларнинг биринчи достонидан ҳар қандай замон ва макон учун бениҳоя аҳамиятли бўлган – бу оламнинг яратилиши, инсоннинг бу оламдаги ўрни, мавқеи, бурчлари, вазифалари ҳақида ижтимоий, ахлоқий, фаласафий фикрлар ўрин олган. Бу хусусият Навоий ва салафларининг достонлари учун муштарак, умумий бўлиб, Низомийда “Махзан ул-асрор” - “Сирлар хазинаси”, Хусрав Деҳлавийда “Матлаъ ул-анвор” - “Нурларнинг балқиши”, Жомийда “Туҳфат ул-аҳрор”-“Ҳурларнинг ҳадяси”, Алишер Навоийда “Ҳайратул-аброр” - “Яхшилар ҳайрати” етакчи ғоя бўлиши бу достонларнинг ўзига хослигини таъминлайди.

Алишер Навоий “Ҳайрат ул-аброр”да тасаввуф босқичларини, тариқат аҳкомларини пухта эгаллаган мутасаввуф сифатида намоён бўлади. Навоийнинг шу йўналишдаги кўплаб асарлари ва шеърларида диний билимларни пухта эгаллаган олимни кўрамиз. Бунда XI асрда яшаган тасаввуф асосчиларидан, тариқат пири Абдуллоҳ Ансорийнинг “Манозил ус-сойирин”, Фаридиддин Атторнинг “Тазкират ул-авлиё”, Ҳужвирийнинг “Кашф ул-маҳжуб”, Абдураҳмон Жомийнинг “Нафоҳат ул-унс” асарларига суянади.

Алишер Навоий ана шу тасаввуф таълимоти асосчиларининг издоши сифатида аввалги хамсанавис салафларининг анъанасига риоя қилган ҳолда ўз “Хамса”сининг биринчи достонини “Хайратул-аброр” деб атайди, анъанага кўра муножотлар ва ва наътдан сўнг уч ҳайратни тасвирлайди. Навоий “Хамса”сида ҳам биринчи достон кейинги достонларнинг ғоявий-поэтик асосини ташкил этади. Илк достон сифатида “Ҳайрат ул-аброр”да олам ва одамнинг яралиши, иймон фалсафаси асосий ўринни эгаллайди. Шу сабабларга кўра “Ҳайратул-аброр” “Хамса”нинг таркибида бўлган беш достонни бир-бирига боғлаб турувчи етакчи асардир.

Инсон кўнгли, уни барча мавжудотлардан азиз ва мукаррам қилиб турувчилар руҳий олами манзаралари, коинот ва инсон, жамият ва шахс муносабатлари, Тангри инсонга инъом этган ҳаёт ажойибларидан ҳайратланиш “Ҳайрат ул-аброр” достонининг ғоявий-бадиий мазмунини ташкил этади. Навоий ғазалларида ва қасидаларида айтган маънавий оламга доир ахлоқий, ижтимоий, сиёсий, адабий-эстетик қарашлари ҳам “Ҳайрат ул-аброр” достонида юксак бадиий ифодасини топган.

“Ҳайрат ул-аброр”нинг илк боби - Басмала боб нафақат “Ҳайрат ул-аброр” учун, балки бутун “Хамса” учун муқаддимавий бобдир. Чунки кейинги тўрт достонда бундай боб учрамайди. Демак, шоир “Хамса” яратишга “Бисмиллоҳир раҳмонир раҳим” деб қадам қўйишни “Ҳайрат ул-аброр”дан бошлаган. Достоннинг қолган 62 бобининг барчасида шу боб тезиси сифатида сажънинг нодир намуналаридан ташкил топган дебочалар мавжуд, фақат илк бобдагина шоир насрий дебоча киритишни жоиз топмаган. Бу бобда муқаддас Қуръони Каримдаги бош илоҳий жумла “Бисмиллоҳир раҳмонир раҳим” (“Меҳрибон ва раҳмли Аллоҳ номи билан бошлайман”)ни поэтик

шарҳланади. Ўзбек адабиётшунослигида “Ҳайрат ул-аброр”нинг басмала боблар ҳақидаги фикрлар А.Рустамий, Ҳ.Карорматов, Р.Воҳидов, М.Имомназаров, М.Муҳиддинов, О.Давлатов каби олимлар тадқиқотларида кўзга ташланади.[243]

Шоир “Бисмиллоҳир раҳмонир раҳим” жумласининг ҳар бир ҳарфига алоҳида маъно юклайди, бу муқаддас каломни ягоналик хазинасига олиб борадиган энг яқин йўл сифатида эътироф этади:

Йўққи, эрур махзани ваҳдатқа йўл,
Йўлу не йўл, асру яқин йўлдур ул.[244]

“Хамса”нинг илк достонидаги Басмала бобида мураккаб рамз ва ташбеҳлар қўллаб, бетакрор поэтик тасвир яратган шоир бу мисралар орқали муножот ва наътларга ҳам замин тайёрлайди.

Бисмиллоҳир-раҳмонир-раҳим,
Ришгага чекти неча дурри ятим.[245]

Низомий ҳам “Махзан ул-асрор”ни

Бисмиллаҳир-раҳмонир-раҳим,

Хаст калиди дари ганжи ҳаким,[246] байти билан бошлайди, “Бисмиллоҳ” ҳикматини хазиналар эшигини очувчи калитга қиёслайди, бундай бошлашнинг буюк фазилатини тушунтиради. Шунингдек, Деҳлавийнинг “Матлаъ ул-анвор” достони ҳам “Бисмиллоҳ” шарҳи билан бошланишини таъкидлаш жоиз.

Биринчи байтдаги “ришта” ва “дурри ятим” сўзлари чуқур рамзий маъноларни ифодалайди. Бу ерда “дурри ятим” (ягона ўхшаши йўқ дур) сўзи Муҳаммад пайғамбарга нисбатан қўлланилган бўлиб,[247] “ришта” олам яралишидан то охиратгача бўлган узун ҳаёт йўлидир. Тангри шу узун йўлда адашганларни, гуноҳ қилувчиларни ҳақ йўлга чақириш учун бир нечта пайғамбарларни юборган. Шоир “ар-раҳим” сўзида қатнашадиган алиф ҳарфини жаннат ариғи ёқасида ўсган мевали дарахтга, илоҳий хазинани қўриқловчи аждаҳога ўхшатади. Бироқ бу ташбеҳдан ҳам кўнгли тўлмай, янги ташбеҳга мурожаат қилади: илонга ўхшаган ришта, арқон - Тангрига яқинлаштирувчи йўлга ўхшайди. Лекин бу йўл: “ҳам қаттиғу, ҳам махуф(хавфли)”. Шоир боб мобайнида ружуъ, ташбеҳ, китобат санъатларидан маҳорат билан фойдаланиб, чиройли тасвир яратади. Навоий фикрича, инсонга бу қийин йўлни босиб ўтишга инсоф, тавфиқ ёрдам беради. Ганжи илоҳийни-инсоний фазилатларни қўлга киритиш учун инсон ўзидаги нафс аждаҳосини ўлдириши кераклиги таъкидланади.

Қилғувчи бу бодия қатъиға майл,
Аҳли қабулу рад эрур икки хайл.

Шу ўринда Навоий Қуръони Карим ва ҳадисларга таяниб Ҳаққа етиш йўлини босиб ўтувчиларни икки гуруҳга ажратади: аҳли қабул (қабул қилувчилар) ва аҳли рад (рад қилувчилар). Араб алифбосидаги ҳарфлардан фойдаланиб, китобат санъатининг гўзал намуналарини яратар экан, “аҳли рад” ва “аҳли қабул”га бу ҳарфларнинг шакли ва кўринишидан келиб чиқиб, алоҳида-алоҳида тасвир яратади.

---

[243] А.Рустамий. Бисмиллоҳнинг маъноси. –Т.:Фан, 1999; Карорматов Ҳ. Ўзбек адабиётида Қуръон мавзулари (адабий-тарихий таҳлил). Фил.фан.док.дисс. автореф.– Т., 1999; Воҳидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. –Б. Бухоро, 1994; Имомназаров М. Навоийшуносликка кириш. –Т.,2015. Муҳиддинов М.Комил инсон – адабиёт идеали. –Т.: Маънавият, 2005; О.Давлатов. Алишер Навоий шеъриятида Қуръон оятлари ва ҳадисларининг бадиий талқини. Фил.фан.буйича фал.док.дисс.автореф. –Самарқанд, 2017.

[244] А.Навоий. Ҳайрат ул-аброр. Тошкент, 2006. – Б.12.

[245] Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр.

[246] Н.Ганжавий. Куллиёт. Махзан ул-асрор. Жилди панжум. Душанбе: Ирфон, 1984. – Б.256.

[247] Қаранг: проф. У. Жўрақуловда ҳам шу фикр учрайди: Алишер Навоий “Хамса”сида хронотоп поэтикаси. Фил.фан.док.дисс.Т., 2016. – Б.66.

Рад қилувчиларга муносабат билдирилаётганда “син” ҳарфининг шакли наҳанг балиғининг умуртқа суягидаги аррага, “мим” ўт сочувчи илон нафаслига ўхшатилса, қабул қилувчиларга бўлган муносабатда бу ҳарфларнинг ижобий маънолардаги тасвирига гувоҳ бўламиз: “син” саломатлик зинасига, “мим” эса мақсад манзилидаги булоқ бошига ўхшатилади.

Боб сўнгида шоир нафақат “Ҳайрат ул-аброр”, балки бутун “Хамса”га доир эстетик қарашларини ифода этади, бобнинг “Хамса” учун мўлжалланганлиги яққол аёнлашади:

Йўл ёмон-у яхшисидан ема ғам,
Бисмиллоҳ, дегил-у қўйғил қадам.

“Хамса” ёзиш машаққати, заҳмати бир ёнда, уни китобхонга тақдим этишдаги ҳадик ва ҳаяжон бир томонда. Шоир улкан мақсад ва муддао рўёби учун Тангри марҳаматига умид боғлаб, буюк обидасини илоҳий жумла “Бисмиллоҳир раҳмонир раҳим” билан бошлаётганлигини таъкидлайди.

Адабиётшунослар “Ҳайрат ул-аброр”нинг басмала бобини шарҳлар экан, мусулмон оламида ҳар бир ишни меҳрибон ва шафқатли Аллоҳ номи билан бошлаш одат тусига кирганини, барча мазмун, мавқе ва тоифадаги асарларнинг туғроси муқаддас илоҳий Китобнинг илк табаррук жумласи билан безалишини, Навоий “Бисмиллоҳир раҳмонир раҳим” замирида инсон яшашининг ўзак фалсафаси яширинганини илғаб, кўрсата олганини таъкидлашади.[248]

“Ҳайрат ул-аброр”нинг басмала бобини Низомий Ганжавий, Хусрав Деҳлавий, Абдураҳмон Жомийларнинг шу йўналишдаги достонлари билан қиёслаб ўрганилса, Навоий достонидаги басмала бобнинг яратилишида Низомий ва Амир Хусрав достонларидан кўра Жомийнинг “Туҳфат ул-аҳрор”и кўпроқ манба-асос бўлиб хизмат қилгани кўринади.[249] Бунда Навоий ва Жомийнинг бир даврда яшаб, тасаввуфий илмларда ҳам ҳаммаслак бўлганлари муҳим рол ўйнаган.

Фақат “Ҳайрат ул-аброр” эмас, балки яхлит “Хамса” учун муҳим аҳамият касб этган илк боб моҳиятини тўғри англаш буюк обиданинг ўзак ғоясини теран талқин этиш учун ҳам ғоят муҳимдир.

АДАБИЁТЛАР

1. Алишер Навоий.ТАТ. Ўн томлик. Олтинчи том. Ҳайрат ул-аброр. Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2013.
2. А.Рустамий. Бисмиллоҳнинг маъноси. –Т.:Фан, 1999;
3. Воҳидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. –Б. Бухоро, 1994;
4. Давлатов О. Алишер Навоий шеъриятида Қуръон оятлари ва ҳадисларининг бадиий талқини. Фил.фан.буйича фал.док.дисс.автореф. –Самарқанд, 2017.
5. Имомназаров М. Навоийшуносликка кириш. –Т.,2015.
6. Кароматов Ҳ. Ўзбек адабиётида Қуръон мавзулари (адабий-тарихий таҳлил). Фил.фан.док.дисс. автореф.– Т., 1999;
7. Муҳиддинов М.Комил инсон – адабиёт идеали. –Т.: Маънавият, 2005;

[248] Воҳидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. –Б. Бухоро, 1994. – Б.46-47.

[249] Бу ҳақда қаранг: Давлатов О. Алишер Навоий шеъриятида Қуръон оятлари ва ҳадисларининг бадиий талқини. Фил.фан.буйича фал.док.дисс.автореферати. –Самарқанд, 2017. –Б.14.

“ҲАЙРАТ УЛ-АБРОР” ДОСТОНИДА НАЪТ

Нигора ШАРИПОВА,
НавДПИ доценти, ф.ф.ф.д. (PhD)

Аннотация: Мақолада “Ҳайрат ул-аброр” достонидаги наътларнинг ғоявий-бадиий хусусиятлари, Навоийнинг поэтик маҳорати, ўзбек адабиётшунослигида наътларнинг ўрганилиши хусусида сўз юритилган.

Калит сўзлар: достон, наът, боб, пайғамбаримиз Муҳаммад мустафо (с.а.в.), тадқиқ, бадиий маҳорат, поэтик тасвир.

“Хамса”да жами 13 та наът боб мавжуд бўлиб, “Ҳайрат ул-аброр”да 5 та, “Фарҳод ва Ширин”да 2 та, “Лайли ва Мажнун”да 2 та, “Сабъаи сайёр”да 2 та, “Садди Искандарий”да 2 та наът боб келтирилган. Кейинги достонлардан кўра илк достонда наът бобларнинг кўплиги достондаги муқаддимавий боблар бутун “Хамса” учун мўлжалланганлиги билан изоҳланади.

“Ҳайрат ул-аброр”даги бешта наътнинг тўрттасида (7-,8-,9-,10-боблардаги) Расулуллоҳ (с.а.в.) ҳаёт йўли, таърифига бағишланган бўлиб, 11-бобдаги битта наътда Меърож туни таърифи келтирилган. 7-,8-,9-,10-бобларидаги наътларда “Нури Муҳаммадия”нинг яралиши, Расули Акрамда нубувват нишоналарининг юз бериши, ислом динининг пайдо бўлиши, бутпарастларга қарши кураш, пайғамбарлик мўъжизалари, исломнинг қудрати, Қуръони Карим ва ҳадиси шарифнинг шуҳрати, халифалар ибрати хусусида сўз боради.

Барча “Хамса”ларнинг биринчи достонларида кириш қисмида ҳамд ва муножотлардан сўнг наътлар келиши ижодий анъана талаби бўлиш билан бирга, исломий иймон-эътиқоднинг бутун инсоният ҳаётида буюк бурилиш ясаганлиги, жоҳилиятга, бутпарастликка, сохта “худолар”ни кўпайтириб олган мажусийликка қарши тинимсиз, машаққатли курашларга етакчилик қилган пайғамбарларни эъзозлаш билан ҳам боғлиқдир Тарихдан маълумки, ҳақ дин, исломий цивилизация ғалаба қилгунича, Ҳақ таоло кўп пайғамбарларни юборган. Бироқ мажусийлар, мушриклар, жаҳолат етакчилари, баъзан оддий қавмлар ҳам набийлар, расулларнинг, пайғамбар эканига ишонмаганлар. Шу сабабли Ҳақ таоло ўз элчилари бўлган пайғамбарларга турли мўъжиза ва карoматлар қилиш иноятини берган. Қуръони карим оятлари бошидан охиригача пайғамбарлар тарихидан иборат, баъзи суралар пайғамбарлар номи билан ҳам аталади (“Иброҳим”, “Юнус”, “Юсуф”, “Луқмон”, “Муҳаммад”, “Нуҳ” суралари). Бошқача номланган сураларда ҳам Оллоҳнинг пайғамбарларга ваҳий қилинган сўзлари, ҳукмлари ҳикоя қилинади. Қуръони Каримда бошқа пайғамбарларнинг қиссалари ҳам Муҳаммад (с.а.в.)га эслатиш учун (“Эсланг”) деб айтилади.

XX аср бошларида Миллий уйғониш даври етакчилари Абдурауф Фитрат, Абдулла Авлоний, Маҳмудхўжа Беҳбудий каби маърифатчи адибларимиз янги усул мактабларида ҳам, эски усул мактабларида ҳам ёш авлод тарбияси учун пайғамбарлар тарихига доир асарлар ёзиб, таълим тизимига жорий этган. Фитратнинг “Раҳбари нажот”, Авлонийнинг “Туркий гулистон ёхуд ахлоқ” ва “Мухтасар тарихи анбиё” асарларида пайғамбарлар ҳаётномаси ва ҳадислардан унумли фойдаланган эдилар. Авлоний “Мухтасар тарихи анбиё” асарида Муҳаммад (с.а.в.)нинг туғилиши, ёшлик йиллари, қирқ ёшларида нубувват-пайғамбарлик бошланиши, мушриклар зулми, Мадинага ҳижрат, ансорлар-мадиналиклар исломга кириши, пайғамбарнинг гўзал

хулқи, саҳобаларнинг фидокорлиги, чаҳориёрлар (Абу Бакр, Умар, Усмон, Али)нинг илк халифалик даври қисқа ва равон ҳикоя қилинади.[250]

Профессор М.Муҳиддинов «Алишер Навоий ва унинг салафлари ижодида инсон концепцияси» («Хамса»ларнинг биринчи достонлари асосида) мавзусидаги докторлик диссертациясининг "Комил инсон проблемаси ва набию валийлар сиймоси" номли биринчи қисмида тўрт бобда "Хамса"ларнинг муножотлари ва наътларини ўзбек навоийшунослигида миллий истиқлол шароитида биринчидан бўлиб, Қуръон оятларига асосланган ғояларни илмий холислик билан чуқур тадқиқ қилди ва бу соҳадаги изланишларга йўл очди.[251] Тадқиқотнинг иккинчи боби "Ҳазрати пайғамбар тасвири" деб номланиб, унда "Ҳайрат ул.аброр"даги наътлар "Матлаъ ул-анвор"даги наътлар билан қиёсан таҳлил этилади. Олимнинг фикрича, Амир Хусрав "Матлаъ ул-анвор"даги наътларда пайғамбар ҳақидаги умумий йўсинда фикр юритса, Навоий пайғамбар сиймосини тарихий воқеалар ичида гавдалантиради, тадрижий тус беради.[252]

Филология фанлари доктори У.Қобилов "Ўзбек адабиётида нубувват мотиви ва образлари талқини" мавзусида бу соҳадаги муҳим тадқиқотни амалга оширди. Тадқиқотда ўзбек мумтоз адабиётида нубувват мотиви ва образлари орқали ифодаланган маърифий ғоя ва мазмун, жанрий ва шаклий ранг-баранглик илмий асосланган.[253]

Тадқиқотчи О.Давлатов "Алишер Навоий шеъриятида Қуръон оятлари ва ҳадисларнинг бадиий талқини" деб номланган диссертациясининг "Навоий шеъриятида Муҳаммад пайғамбар (с.а.в.) сиймоси" номли учинчи бобида пайғамбаримиз Муҳаммад мустафо (с.а.в.)нинг Қуръонда зикр этилган ва ўзгаришсиз келган исм ва сифатлари, Навоийнинг Муҳаммад пайғамбар (с.а.в.) сиймосини тасвирлашда ҳадислардан фойдаланиш маҳорати, шунингдек, Расули Акрамнинг энг улуғ мўъжизаларидан бири – меърож ҳодисасининг бадиий талқини таҳлилга тортилган.[254]

Тадқиқотчи З.Ғафорова "Хазойин ул-маоний" куллиётидаги наът ғазалларни мавзуий йўналишига кўра икки гуруҳга ажратади: а) васф наът ғазаллар; б) меърожнома наът ғазаллар.[255] Навоий ғазаллари хусусида сўз борганда, юқоридаги тасниф ўринли бўлиши мумкин. Бироқ муайян сюжет линиясига эга достон бобларида фақат таъриф-тавсифлар берилмасдан, муаллиф воқеалар ривожи ва маромини яратиши табиий. Агар наътларнинг барчасида фақатгина пайғамбар (с.а.в.) васф этишни мақсад қилганда эди, уларни тўрт бобда эмас, ягона бобда бериши ҳам мумкин бўларди. "Ҳайрат ул-аброр"нинг 7-,8-,9-,10-бобларидаги наътларда "Нури Муҳаммадия"нинг яралиши, Расули Акрамда нубувват нишоналарининг юз бериши, ислом динининг пайдо бўлиши, бутпарастларга қарши кураш, пайғамбарлик мўъжизалари, исломнинг қудрати, Қуръони Карим ва ҳадиси шарифнинг шуҳрати, халифалар ибрати хусусида сўз боради. Бу бобларда ўрни билан пайғамбар мадҳ этилиб, комиллиги бот-бот таъкидланса-да, мазкур бобларда Расулуллоҳ (с.а.в.)

---

[250] Авлоний . Мухтасар тарихи анбиё (ва тарихи ислом). Т.: "Фан", 1994.

[251]М.Муҳиддинов. Алишер Навоий ва унинг салафлари ижодида инсон концепцияси. Фил. ф.док.дисс.автореф. Тошкент,1995. б. 5-55.

[252] Ўша манба. – Б.21.

[253][253]Қобилов У. Ўзбек адабиётида нубувват мотиви ва образлари талқини (XIV-XV асрлар). Фил.ф.док.дисс.автореф. Самарқанд, 2019.

[254]Давлатов О. Алишер Навоий шеъриятида Қуръон оятлари ва ҳадисларининг бадиий талқини. Фил.фан.буйича фал.док.дисс.автореферати. –Самарқанд, 2017.

[255] Ғафорова З.Алишер Навоий ҳамд ва наът ғазалларининг ғоявий-бадиий таҳлили. Фил.фан.буйича фал.док.дисс.автореферати. – Самарқанд, 2018. – Б.17.

ҳаёти, фаолияти хусусида муайян тарихий воқелик ва ҳақиқат вақт ва замон контекстида тадрижий акс эттирилган. Буни тарихий ҳақиқатнинг адабий воқеликка айланиши сифатида таърифлаш ўринли.

“Ҳайрат ул-аброр”даги ***биринчи наът***да биринчи инсон – Одам Атодан ҳам аввал Муҳаммад пайғамбарнинг нури - “Нури Муҳаммадия” яралгани ғояси тасвирланган (“Тарихи анбиё ва ҳукамо”асарида ҳам бу ҳақда сўз юритилган). Профессор М.Муҳиддинов “Нури Муҳаммадия” тушунчасига таъриф берар экан, ислом уламолари бу тушунчани тез-тез тилга олишини, Тангри таоло оламларни яратишдан олдин Муҳаммад нурини яратган бўлиб, шу нур туфайли оламларни ва одамларни халқ этганини, бу нур “Ҳақиқати Муҳаммадия” деб ҳам юритилишини айтади.[256] Навоий тасвирича, бу нур зуҳур қилганида на соя, на нур бор эди, олам яралмаган, уни зулмат маҳв этган эди. Пайғамбар нури туфайли юз минг чироғлар равшан нур соча бошлади:

Топти азал субҳи чу базминг чароғ,
Не тонг агар ёруса юз минг чароғ.[257]

Бу нур пайғамбардан Одам Атога, сўнг Момо Ҳаввога, кейин уларнинг фарзанди Шисга, сўнгра бутун инсониятга кўчади. Оламни зулмат тарк этиб, мунавварлик қамраб олади:

Ғам тунини нурсиришт айлади,
Ер юзини боғи биҳишт айлади. (28)

Иккинчи наътда Расули Акрамнинг болалик йиллари, шахсиятидаги мукаммал фазилатлари, пайғамбарлик белгилари, ташқи кўринишидан бола, бироқ ҳар бир сўзи даҳоларники сингари пурмаъно эканлиги, унинг комиллиги ва буюклиги олдида Осмон ҳам сажда қилиши, вафо қутисининг гавҳари, ҳаё буржининг юлдузи эканлиги, бундай юлдуз бағрида эканлигидан Қуёш ҳам бахтиёрлиги, янги Ой ҳам, тўлин Ой ҳам унга хизмат қилишга тайёрлиги бетакрор усулда, поэтик мукаммал тасвир этилган. Мазкур наътда Муҳаммад мустафо (с.а.в.)нинг “Амин” – сақловчи, омонатга хиёнат қилмовчи лақаби борлигига ҳам урғу берилган.

Учинчи наътда ислом динининг ғалабаси, пайғамбаримизнинг мўъжизалар кўрсатиши, шариат илмининг шаклланиши ёритилган. Шоир бу ўринда олдинги ўтган барча пайғамбарларни Пайғамбаримиз (с.а.в.)нинг қуёшидан чиққан зиёлари, соялари дея эътироф этади. Шоир Расули Акрамни Аллоҳ ва инсониятни бирлаштирувчи буюк қудрат эканлигини, инсониятга ҳамиша ҳамдаму-ҳамроз бўлишини алоҳида таъкидлайди:

Ҳақ азалий раҳмати жовиди сен,
Нома қаро қилғон эл уммиди сен. (32)

Тўртинчи наътда эса, пайғамбарлик қудрати, унинг саҳобалари, Худонинг китоби – “Калимуллоҳ”нинг Муҳаммад пайғамбарга нозил бўлиши бетакрор санъаткорлик ва юксак шоирона дид билан тасвирланади:

Буки каломуллоҳ ангадур насиб,
Ким йўқ анга мўъжиза андин ғариб. (34)

Шоир Муҳаммад мустафо (с.а.в.)ни фасоҳатда – маъноли ва қоидали сўз сўзлашда тенгсизлигини таъкидлар экан, илоҳий калом эгаси пайғамбарнинг аслини жавоҳирларга бой денгиз деб атайди. Шу наътда пайғамғамбаримизнинг бошидан кечирган изтиробли кунлар, душманлар ҳужумидан ғорда яшириниб жон

[256] Муҳиддинов М. Комил инсон – адабиёт идеали. Т.:Маънавият, 2005. – Б.37
[257] Алишер Навоий.ТАТ. Ўн томлик. Олтинчи том. Ҳайрат ул-аброр. Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2013.- Б.26. (Қолган мисоллар ҳам шу манбадан олиниб, саҳифаси қавсда берилади.)

сақлаганлари, сўнг буюк ғалабанинг қўлга киритилиши, Ҳазрати Умар (р.а.)нинг Қуръони Карим бўлакларини йиғиб, яхлит китоб ҳолатига келтириши, Ҳақ уйи – муқаддас Каъбанинг мушриклардан тозаланиши ва макон тутилиши масалалари қаламга олинади, саҳобалар садоқатига алоҳида эътибор қаратилади:

Руҳ эди ул баҳри нубувват дури,
Тўрт рафиқи танининг унсури. (35)

Бешинчи наът “Меърож кечаси” тасвирига бағишланган бўлиб, унда шоир бетакрор сўз ва тасвир устаси сифатида намоён бўлади. Наътларда пайғамбар (с.а.в.) ҳаётини босқичма-босқич тасвирлаган Навоий достондаги сўнгги наътни буюк ҳодиса – Меърож кечаси тасвирига бағишлагани, бу наътга бошқаларига қараганда кенгроқ ўрин ажратгани (ҳажм жиҳатидан энг катта наът 5-наът ҳисобланади: 53 байт; солиштиринг: 1-наът-26 байт, 2-наът-28 байт, 3-наът-32 байт, 4-наът-34 байт-Н.Ш.) Меърож кечасининг исломият тарихида буюк ҳодиса эканлиги ҳамда пайғамбаримиз ҳаётида ўта муҳим босқич ҳисобланиши билан бевосита боғлиқдир.

Бобдаги тасвир ҳайратланарли: Тун қоровули Ой, Қалам эгаси Аторуд, хурсандчилик танбурини чертиб турган Зуҳра, ўз сояси билан жамолини тўсиб турган Қуёш, шуъла остига бекинган Ҳилол, кўзгусифат Зуҳра, яқинликдан мартаба орттирган Муштарий, қоронғуликни ёритиб турган Зуҳал, жонини қурбон қилаётган Ҳамал ва Сарв, хизматига, бир имосига мунтазир турган Жавзо, Саратон, Асад, Сунбула, Ақраб, чиллада дуо қилиш пайида бўлган Қавс, бир қарашига муштоқ Далв ва Ҳут. Навоий Меърож кечаси тасвирини шунчалик мукаммал яратдики, бу тасвирдаги ҳар бир жонсиз предметнинг жонли тасвири табиий, такрорланмас. Шоир ташхис, ташбеҳ, тазод санъатларидан унумли фойдаланган ҳолда тасвирда табиийликка эришган.

Таъкидлаш жоизки, “Ҳайрат ул-аброр” наътлари – Муҳаммад мустафо(с.а.в.)нинг болалигидан тортиб, Меърож кечасида буюк мақсадининг ҳосил бўлишигача бўлган буюк даврни ҳаққоний ёритиб берувчи муҳим тарихий-бадиий манбалардир.

АДАБИЁТЛАР

1. Алишер Навоий.ТАТ. Ўн томлик. Олтинчи том. Ҳайрат ул-аброр. Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2013.
2. Авлоний. Мухтасар тарихи анбиё (ва тарихи ислом). Т.: “Фан”, 1994.
3. Давлатов О. Алишер Навоий шеъриятида Қуръон оятлари ва ҳадисларининг бадиий талқини. Фил.фан.буйича фал.док.дисс.автореферати. –Самарқанд, 2017.
4. М.Муҳиддинов. Алишер Навоий ва унинг салафлари ижодида инсон концепцияси. Фил. ф.док.дисс.авторефер. Тошкент,1995.
5. Муҳиддинов М. Комил инсон – адабиёт идеали. Т.:Маънавият, 2005.
6. Қобилов У. Ўзбек адабиётида нубувват мотиви ва образлари талқини (XIV-XV асрлар). Фил.ф.док.дисс.автореф. Самарқанд, 2019.
7. Ғафорова З.Алишер Навоий ҳамд ва наът ғазалларининг ғоявий-бадиий таҳлили. Фил.фан.буйича фал.док.дисс.автореферати. – Самарқанд, 2018.

LUQMON BO‘RIXON QISSALARIDA XARAKTER

Farhod NIZOMOV,
Navoiy davlat pedagogika institute O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti yangi olam, yangi dunyoqarashning odamlar ruhiyatiga ta’siri, ularning ko‘ngil holatidagi turfa holatlarni aks ettirishga alohada urg‘u

bermoqda. Mualliflar o‘zlari yaratayotgan asarlariga yangicha joziba, kutilmagan tasvir, obrazlar ruhiyatining adoqsiz kechinmalari, qalb iztiroblari aks etgan asarlar yaratilmoqda. Mustaqillik davri o‘zbek qissachiligi bu borada alohida o‘rin tutadi. “Bugungi qissachiligimizga nazar tashlaganda birinchi galda undagi mavzu muammo, shakliy, uslubiy jihatdan rang-baranglik e’tiborni tortadi; ular orasida tarixiy, zamonaviy, ijtimoiy-siyosiy, oilaviy-maishiy, ishqiy mavzulardagi ham an’anaviy romantik, realistik, ham modernistik, ham jiddiy, ham yumoristik, sarguzasht-dedektiv yo‘nalishdagi asarlarni ko‘rish mumkin”[258]. Jiddiy yumoristik kayfiyatdagi maishiy turmushimizda ro‘y bergan voqealardan uchraydigan “Chorbog‘ qo‘riqchisi yoxud Xizr ko‘rgan yigit” qissasi alohida ajralib turadi.

Iste’dodli yozuvchi Luqmon Bo‘rixon qalamiga mansub ushbu asar o‘zida aniq taqdir egalari, biror xarakterga ega turfa obrazlar, har xil kechmish sohiblarining hayot tarzini badiiy jihatdan yorqin aks ettirgan. Qissa “Kechagina eshagiga qiyshiq mingan qishloqi edim, bugun esa ajabtovur mashina o‘rindig‘ida yastanib o‘tiribman-a?! Nahotki, Xizr ko‘rganim chin?!”[259] jumlalari bilan boshlanadi. Asar bosh qahramoni Qorjov (keyinchalik hamma Qorjovboy deb ataydi) tomonidan aytilgan ushbu fikr qishloqdoshlari tomonidan ishonch bilan qabul qilinadi. Qishloqning soddadil kishilari uning so‘zlariga to‘la ishonadi. Ayniqsa, yaqin do‘sti Husanning oshirib, toshirib aytgan gaplari bu gaplarni “haqiqat”ga aylantirib yuboradi. Qissada qishloq odamlarining hayoti, ularning ishonuvchanligi, qishloq yigitining mardligi, rostgo‘yligi o‘z ifodasini topgan. Qorjov odddiy bir davlatning qo‘ylarini boqadigan bir cho‘ponning o‘g‘li. Otasi Chorshanbi yoshi anchaga borib qolgan, erta-yu kech dashtdan beri kelmaydigan kishi. Farzandlarining birortasini o‘qita olmaydi, ammo shu kenjasi – Qorjovni o‘qitishni sidqidildan istaydi. Qorjov esa maktabda unchalik yaxshi o‘qimaydi, darslarni ham tayinli bajarmaydi. Gavdasi katta, besunaqay bu yigitga o‘qituvchilar ham tanbeh berishdan charchashmaydi.

Bu Qorjovning tubandagi iqroridan ham ko‘rinib turibdi: “Menga esa o‘qrayib qarashgani-qarashgan, hammasiga baland bo‘yim, qoruvli qomatim aybdorday bosh chayqashadi: “Esiz jasad... esiz kuchquvvat...”. Ba’zan orim qo‘zib, astoydil o‘qishga bel bog‘lab kitoblarga ko‘milib o‘tirgan paytlarim ham bo‘lgan. Biroq o‘z-o‘zimga bosh og‘riqdan boshqa narsa orttirmaganman. Kitob-daftarga termulib o‘tirish allanechuk ensamni qotiradi, nazarimda, men boshqa bir ishlar uchun yaralgandek edim”[260]. Darhaqiqat, shunday bo‘ldi. Maktabni bitirib sinfdosh do‘stlaridek katta-katta chamodonlarni ko‘tarib shaharga otlanmaydi. Otasiga yordam beradi. U cho‘rtkesar, haqgo‘y, rost gapni hayiqmay ayta oladigan yigit. Buni bir gal davlatga tegishli qo‘ylardan nechtasini o‘lgan, bo‘ri tekkan degan bahona bilan o‘z oshqozonlariga hazm qildiradigan tekinxo‘rlar kelganda ularning oldiga kirib ko‘rishmasdan ketishi, ularning bazmiga sherik bo‘lmasligida ham ko‘rish mumkin. Otasiga aytgan: “ - Ota, shu sizga zarilmi, a? Nima, ularning oldida muttahammisiz, qulimisiz shu enag‘arlarning? Davlat molining sho‘rini quritib yotgan shular-ku? Shu quzg‘unlar nima desa, doim ko‘nasiz...”[261] so‘zlari uning nohaqlikni sira ko‘tarolmasiligini bildiradi. Aslida qirda o‘tlab yurgan otarning birdan akt qilinib yo‘qqa chiqarilishiga u chidolmaydi.

Shu o‘rinda bu obraz chinakam xarakter darajasiga ko‘tarila olgan deyishimiz mumkin. “Xarakter — bu aniq iroda yo‘nalishiga ega bo‘lgan, o‘z xatti-harakatlari, intilishlari, o‘y-xayollari, dunyoqarashi, ma’naviyati, ma’rifati, fe’l-atvori bilan ajralib

[258] Normatov U. “Umidbaxsh tamoyillar”. T.: “Ma’naviyat”. 2004. 47-bet.
[259] Bo‘rixon L. “Chorbog‘ qo‘riqchisi yoxud Xizr ko‘rgan yigit”. Toshkent: “Sharq”. 2007. 2-bet.
[260] Bo‘rixon L. “Chorbog‘ qo‘riqchisi yoxud Xizr ko‘rgan yigit”. Toshkent: “Sharq”. 2007. 5-6-betlar.
[261] Yuqoidagi manba, 9-bet.

turadigan to‘laqonli shaxslar obrazidir”[262]. Qorjovboy kurash tushadi. Bu borada anchayin tengsiz sportchiga aylanadi. Mashhur bo‘lgan qanchadan qancha kurashchilarni ham yer tishlatadi. O‘qish, izlanishga sabri yetmaydigan bu yigit bilagidagi kuchdan to‘g‘ri foydalanadi. Sodda bo‘lsa-da o‘z haqini birovga oldirib qo‘ymaydi. O‘ziga murabbiy deb biladigan Toshtemirga ham bir gal musobaqa yarim finalida ustozi (Toshtemir)ning istagi bilan o‘z raqibiga yutqazib beradi. Ammo sovrinni o‘zlarida qoladi. Shunda ustozi “g‘ala-badan” olgan pulidan bir qismini Qorjovga berganda olmaydi. Aksincha, oriyati kuchli polvon “-Ustoz, menga ma’naviy g‘alaba ham etarli, moddiy g‘alaba sizga bo‘laqolsin...”, deya uni rad etadi.

Qissada bugungi kun ba’zi o‘zbek yoshlarining qiliqlari, o‘y-xayollari, ko‘ngil olami, yengil yelpi orzularga berilishi, g‘arb ma’daniyati tomon siljishlari ham aks etgan. Bekqul To‘raqulovich chorbog‘ida ro‘y bergan hodisalar, Bahodir va Sayyoraning uyatsiz qiliqlari, Jahongir va Gulyuzning tuproqqa qorishib yotishlari, ichkilik va o‘yin kulguning avj olishi, baqir-chaqirlar o‘zbek yosh-larining ongini ham egallaganligini anglatadi. “Ulkan daraxt tagidagi yumaloq stol ustida meva-cheva solingan idishlar. U er, bu erda pivo ichimligidan bo‘shagan shishalar sochilib yotibdi. Hali ochilmagan talay shishalar suv to‘la tog‘oraga tashlab qo‘yilgan. Kichkinagina magnitofonda mayin, ma’yus musiqa yangramoqda”[263]. Ushbu ekspozitsiya chorbog‘dagi yigit va qizlarning hammasi tengma teng ichkilikka ruju qo‘yganligi, sharqona tarbiyaning ular orasida “o‘lib” bo‘lganligini bildiradi. Asarda Marjonanining xatti-harakatlarida ham shuni ko‘rish mumkin. U yevropacha hayotga moslashgan, kiyinishi, yurishi, gap so‘zlari - hammasi o‘zgacha.

Muallifning yutuqlaridan yana biri shuki, o‘z qahramonlarini ortiqcha bo‘rttirmaydi, maqtamaydi. Ulardagi nuqsonlarni boricha ko‘rsatadi. Voqealar jarayonida sun’iylikka yo‘l qo‘ymaydi. O‘sha yoshlarga birrovga sherik bo‘lgan Qorjovboy ham hissiyotlar oldida ojiz qoladi. Ichimlik ta’sirida (u ilk bor bu narsani og‘ziga oladi!) Marjonadan hissiyotlarini yashira olmaydi. Uning bir harakatlariga rahmingiz kelsa, bir harakatlari kulgungizni keltiradi. Shovqin-suronda yugurib uyidan chiqqan Bekqul To‘raqulovichning oq yaktak, oq ishtonda ko‘rib “yo hazrati Xizr shu bo‘lsa” degan xayolga borishi, qamoqda sherigiga ham yoshligida o‘ziga Xizr duch kelganligini aytib, sherigini kuldirishi, o‘zi ham qo‘-shilib kulishi bor gap. “Men... men hazrati Xizrni ko‘rganman, - dedim,nihoyat kallamga kelgan fikrdan quvonib. - Ha-a, shunaqami? - dedi yigitcha yolg‘ondakam hayratlanib. - Qachon? Nomusni bulg‘ayotganda emasmi, ishqilib? Men bu gal baralla qah-qah urib kulib yubordim”[264]. Bu Qorjovning qanchalik sodda va oq ko‘ngil va ishonuvchan ekanligidan dalolat beradi.

Uning do‘sti Husanning uch yildan beri o‘qishga kira olmayotgani, qishloqda o‘zi va taqdiridan norozi bo‘lib yurishi, ba’zida Kengsoy qirlarida hazrati Xizrni izlashlari (bir vaqtlar Qorjov ikkalasi yo‘lda ketayotib, yarim tunda oq kiyimli, oq saqolli kishini uchratadi. Shunda u (Husan) buni qandaydir bir ruh deya qochib ketgandi. Qorjov esa qo‘rqmasdan uni yoniga borgan, uning Xizr emasligini, hamqishlog‘i Mirza bobo ekanligini ko‘radi. Unga yodamlashib duolarini ham oladi. Qorjovning harakatlari orqali ishonib aytilgan bir gap ancha vaqtlar ishonchini yo‘qotmasligi shu obraz holatida to‘la aks etgan. Do‘sti Husan esa tabiiy-hayotiy qishloq odami, ko‘ngli so‘zlari kabi toza shaxs timsoli. U do‘stining “Men Xizrni rostdan ko‘rdim” degan gapiga oxiragacha ishonadi.

---

[262] Adabiyotshunoslik nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik /Tuzuvchi: Umurov H. —T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. 48-bet.

[263] Bo‘rixon L. “Chorbog‘ qo‘riqchisi yoxud Xizr ko‘rgan yigit”. Toshkent: “Sharq”. 2007. 42-43-betlar.

[264] Bo‘rixon L. “Chorbog‘ qo‘riqchisi yoxud Xizr ko‘rgan yigit”. Toshkent: “Sharq”. 2007. 55-bet.

Asarda hayot haqiqatlari, insonlarning kamchiliklardan holi emaslgi, odam avvalo o‘zligini bilishi kerakligi, har doim inson atalmish sharafli nomga munosib bo‘lishi lozim degan ichki bir iqror aks etib turadi. Muallif yaratgan Qorjovboy, Husan, Chorshanbi chol xatti-harakatlarida ayni shu holni ko‘rish mumkin. Ular asarda qanday bo‘lsa, hayotda ham shunday.

Ishbilarmonlik, olg‘irlik, ishning hadisini bilish Toshtemir obrazida yorqin muqoyasa etilgan. U atrofdagilarga qo‘lidan kelgancha yordam beradi, sayohat, yeyish-ichish, bazm-u jamshidlarga ham ulguradi. Kimgadir qilgan yaxshiligi uchun o‘z ulushini hayiqmasdan talab qiladi. Qaysi odamdan qanday foydalanish kerakligini yaxshi biladi. Ayni shu obrazda bugungi kun o‘zbek tadbirkorining qiyofasi aks etgan desak, nazarimda adashmagan bo‘lamiz. Chunki odamlar undan minnatdor bo‘lib haq to‘lashadi, rahmatlar aytadi.

Bu qissaning o‘ziga xos jihatlarini aniqlash adabiyotshunos olimlarimiz haqli ta’kidlagan: “Mana shunday holatlarning hayotiy va badiiy asoslarini, xarakter yaratish borasidagi ularning individualligi hamda mushtarak jihatlarini o‘rganish, shuningdek, hozirgi badiiy nasrimizda yuz berayotgan o‘zgarishlarni tahlil etish muammolari qissashunosligimizning kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalaridan hisoblanadi”,-degan fikrlari asos bo‘ladi[265].

Qissadagi tiniq badiiy tasvir, jonli qahramonlar muhiti, yoshlar olamidagi turfa o‘zgarishlar, ta’sirchan voqealar kitobxonni o‘ziga qaratadi. Asarni mutolaa qilgan o‘quvchi ham beixtiyor qissa qahramonlarining ruhiy holatini boshidan o‘tkazganday bo‘ladi.

ОНА ТИЛИ – АКЛИЙ ТАРБИЯНИНГ МУХИМ ОМИЛИ

Дилором Ахатовна АКБАРОВА,
ЎЗДЖТУ Хозирги замон рус тили кафедраси ўқитувчиси

Маълумки, ўзликни англаш, миллий онг ва тафаккурнинг ифодаси, авлодлар ўртасидаги руҳий-маънавий бойлик тил орқали намоён бўлади.

Жамики эзгу фазилатлар инсон қалбига сингади, Она тили – бу миллатнинг руҳидир. Буюк маърифатпарвар бобомиз Абдулла Авлоний айтганидек, «Ҳар бир миллатнинг дунёда борлигини кўрсата турган ойнаи ҳаёти тил ва адабиётидир. Миллий тилни йуқотмаклик миллатнинг руҳини йуқотмакдир» [1].

Тарихий маълумотларга биноан таҳлил қилсак, айнан XI-XII асрларда ўзбеклар Мовароуннахрда асосий аҳоли сифатида таркиб топди, ўша даврда «турк тили» деб ном олган ўзбек тили адабий тил ҳусусиятига эга бўлди. Шу даврда илм-фаннинг ўсгани Муҳаммад ибн Мусо ал-Хоразмий, Абу Наср Форобий, Ахмад Фарғоний, Абу Али ибн Сино, Абу Райхон Беруний ва бошқа олимларнинг фаолияти мисолида яққол кўринди [2].

Амир или шва унинг авлоди хукмронлик қилган XIV-XV асрларда мамлакатнинг иктисодий, ижтимоий ҳаётида қайта тикланиш ва ривожланиш бошланиши билан илм-фан, меъморчилик, тасвирий санъат, наққошлик, мусиқа сохасида, бадиий адабиётда жуда катта ютуқларга эришилди, ҳалқ; оғзаки ижоди ривожланди. Бу даврда илохиёт табиий, тиббий ва тарих ҳамда адабиёт фанлари сохасида Мирзо Улуғбек, Қозизода Румий, Ғиёсиддин Жамшид, Али Қушчи, Султонали Хўжандий, Юсуф Табиб, Шарафиддин Али Яздий, Хофизи Абру, Абдураззок Самарқандий,

[265] Xolmurodov A. O‘zbek qissalari poetikasi. Risola. Navoiy DPI kichik nashriyoti. 2014. 27-bet.

Хондамир, Алишер Навоий, Абдураҳмон Жомий, Давдатшох Самарқандий, Заҳириддин Мухаммад Бобур каби буюк олим, адиблар камол топди.

XVII-XIX асрларда бадиий адабиётнинг Сайидо Насафий, Турди, Машраб, Гулханий, Махмур, Нодира, Увайсий, Анбар Отин, Завқий, Фурқат, Муқимий, Аваз Ўтар каби истеъдодли намояндалари етишди. Бу даврда маданий анъаналарга кўра мактаб ва мадрасаларда илоҳиёт ҳакидаги фанлар билан бир қаторда табиий фанлар хам ўқитиларди. Табиийки, ўқитиш жараёнида педагогика фани энг қадимги ёзув пайдо бўлишидан олдин шакллана бошлаган.

Шунга кўра, у илмий педагогиканинг бошланиши хисобланади. Аслида педагогика инсон, ҳалк бунёд бўлган даврдан бошлаб мавжуддир. Жамоатчилик хусусияти, ҳаётий ифодалик эса ҳалк педагогиканинг асосий ҳусусиятидир. Педагогикада хар бир ҳалққа хос донишмандлик, унинг тили, атама ва шеваларида ёрқин кўринади, айниқса ўз она тилини яхши ўзлаштириши катта аҳамиятга молик. Чунки она тили дунёни англаш, билишда асосий восита, ёшларнинг ақлий тарбиясида муҳим омил хисобланади.

Ҳалқ ибораси билан айтганда, «Тил – дил калити», «Тил – дил тилмочидир». Она тили – ҳалқнинг маънавий бойлигидир. Бола дунёга келган кунданок ўз исмини она тилида эшитади, она алласини тинглайди ва бутун ҳаёти давомида уни эслайди, у ёшлигиданоқ борликни англай бошлайди. Боланинг шахс сифатида шаклланишида, ақлий фаолиятида бу тушунчалар ҳосил қилиш. Хулоса ва ходисаларни, уларнинг содир бўлиш сабаблари ва қонуниятларини билиш, ҳаёт учун зарур қоидаларни бунёд этиш демакдир.

Дарҳақиқат, ақлий жараён деганда турли сезгилар, тушунчалар, тасаввурлар, хукмлар, уларнинг ўзаро ўхшашлиги ва бир-биридан фарқланиши, бу ўхшашлик хамда фарқланишнинг сабаблари тушунилади. Масалан, улуғ мутафаккир Абу Наср Фаробийнинг фикрича[266], ақл фақат инсонгагина хос бўлган туғма қувват – руҳий куч билан боғликдир.

Атокли рус педагоги К.Д.Ушинский таъкидлашича, утмиш авлодларимизнинг ақлий жараёнида эришган, ота-боболаримиз онгида қайта ишланган сўзлар кейинги авлодлар тилида турли ўзгаришлар билан ҳозирги авлодларга етиб келади ва улар онгида шу сўзларни вужудга келтирган, яратган ва ривожлаштирган тушунча, ғоя ва ҳис-туйгулар ҳосил қилади.

Маълумки, муайян нарса, воқеани сезиш-таққослаш натижасида аниқланади, таққослаш эса ақлга хос фаолиятдир. Ақлий жараён учун сўз ғоятда аҳамиятлидир. Чунки сўз тушунчани ифодалайди.

Шу боис, сўз хам, унда ифодаланган тушунча хам фақат фикрни ифодалаш учун хизмат қилади. Фикр сўзнинг ўзида эмас, балки сўзлар орасида, сўзлар тизимида ифодаланади. И онг тафаккури сўзлар туфайли амалга ошади.

Демак, сўз инсоннинг камол топишида асосий восита ҳисобланади. Инсон ақли, тафаккури ва нутқининг фазилатларини грамматика ва мантиқ фани ўрганади. Педагогик таълим-тарбия жараёнида Абу Наср Фаробийнинг фикрича, назарий билим билан амалий харакат одат, малака, фаолият бирлашиб боради, етуклик шу бирлашувнинг даражасига қараб юзага келади. Одатда, таълим сўз ва ўрганиш билангина амалга ошрилади. Тарбия эса амалий иш, тажриба билан ҳаётга жорий қилинади.

[266] Фаробий. Бахт-саодатга эришув хакида.

Шу боис, Фаробий таълим-тарбия методлари устида тухтаб, шундай ёзади: «Амалий харакатлар ва амалий касб-хунар ва уларни бажаришга одатлантириш масаласига келсак,
*
бу одат икки турли йўл билан ташкил этиладир!» [3]

АДАБИЁТЛАР

1.Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Узбекистон, 2008.
2.Зиёдова Т. Ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатиш. — Т.: «Ўқитувчи», 2000.
3.Зуннунов А. У рта Осийда педагогик фикр тараккиёдан лавхалар. – Тошкент: ФАН, 1990.
4.Махмудов К;. Ахмад Югнакий. – Тошкент: ФАН, 1975.

АНДРОМАХА

Арзиқулова Хуршида АКБАРАЛИЕВНА,
Самарқанд давлат чет тиллар институти мустақил изланувчи

Таянч сўзлар: трагедия, зиддият, фожиянавислик, тарихий афсоналар,бурч ва садоқат, ватанпарварлик, характер, саҳна, фалсафий, фазилатлар, аҳлоқий, сиёсий, ижтимоий роллар.

Key words: tragedy, contradiction,tragic, historical legends, duty and loyalty, patriotism, charater , scene, philosophical,qualities, moral, political, social, roles.

Расин 1668 йилда “Андромаха” трагедиясини ёзганидан сўнг узоқ йиллар муваффақиятли ижод қилади ва шон-шуҳратга эришади. Унинг ижоди ҳақида кўплаб фикрлар билдирилади ва баҳс мунозаралар юритилади. Ёш ижодкор ушбу жараёнда трагедия ҳақидаги ўз муносабатини билдиради ва трагедия ҳақидаги айнан ўзининг қаттий тушунчасини айтади. “Андромаха” асари сюжетини алоҳида таъкидлаш лозим, асосан унинг қаҳрамонлари грек мифологиясидан олинганлиги билан ажралиб туради. Ушбу трагедияда воқеалар ривожи Трояга бўлган ҳужумлар натижасида содир бўлади. Расин ижодигача бўлган даврда ҳам классик трагедияларда бахтсизлик билан тугалланувчи муҳаббат, севги мавзусига тез-тез мурожаатлар қилинган. Бу мавзуга айнан шу давр ёзувчилари кетма-кет қўл урган. Даврнинг долзарб муамолари бўлган бурч ва туйғу худду қоидалар сифатида сингиб борган, икки шахс бир-бирини севади, аммо ундан юқори қўйиладиган ақидалар уларнинг бирга бўлишига йўл қўймайди. Шу тартибда шахснинг бурчи пайдо бўлган.

Расинга кўра унинг муқаддимасида, Андромаха Аенеид Virgil томонидан амалга Еней ва Андромаче учрашув қисқача таърифи учун ҳамма нарсани қарзи, парчалар қайси у кириш сўз келтирилган: "бу ерда бир неча оятларда бу фожиа бутун мавзуси. Бу ерда саҳна, унда содир бўлаётган ҳаракатлар, тўртта асосий шахс ва ҳатто уларнинг қаҳрамонлари.Бу ерда саҳна, унда содир бўлаётган ҳаракатлар, тўртта асосий актёр ва ҳатто уларнинг қаҳрамонлари. "Еврипиднинг Андромахи унга фақат Гермионанинг характерини яратишда ёрдам беради. Фақат муқаддимада шоир бизни ишонишимизни истайди, деб ҳеч қачон айтилмайди ва аллақачон ўзининг биринчи муқаддимасида (Буюк Aleksandr) Racine манбаларни, парадоксни, полемикани, қисқаси, ёмон ниятни яшириш санъатининг устаси еканлигини кўрсатди. Шунинг учун унинг баёнотига ишонишимиз керакми ?

Расин биринчи бор томошабиннинг эътиборини оддий, "ўртача" одамларнинг ҳаётига қаратади, аммо албатта ўрта хол инсонларнинг қалбида спектаклга нисбатдан танқидий қарашларни уйғотмаслиги лозим. Қироллик саройига нисбатан жуда очиқчасига ҳурматсизлик эди Ю.Б.Виппернинг таъкидлашича, " Расиннинг бадиий дунёқараши феодал аристократиянинг сиёсий қаршилиги бостирилган шароитда шаклланган ва у монарх хоҳишларига бўйсунган, ўз ижодий ҳаёт мақсадларидан маҳрум бўлган сарой зодагонларига айланган. Расиннинг фожиаларида, биринчи планга ҳокимият таъсирида бузилган одиий халқни қўяди, шавқатсиз эҳтиростар алангасига тушиб қолган бундан эса иккиланиб эсанкираб қолган одамлар эди. Расин драматургиясида сиёсий эмас, балки ахлоқий мезонлар устунлик қилади".

Лекин Волтер, Расиндан фарқли ўлароқ, Ротрани ўқимади, аммо XX асрнинг бошларига келиб америкалик олимлардан бири Г. Рудлер Расин ҳам Гераклнинг ўлимидан (1634) руҳланганини пайқади. Бу пайтда аллақачон Гераклни забт этилиш тарихи ҳикоя қилинган эди, Дежанир ўз қонуний хотинидан воз кечиб, асирани бутун вужуди билан севишга ҳаракат қилар эди, чунки у бутун Иол оиласини ўлдирган ва яқин инсонларининг ҳаётига таҳдид қилиб уни мажбурламоқчи бўлган; ва бу ҳақиқатдан ҳам ушбу фожиада III актдаги 2-саҳнада бўлиши мумкин, Иол ақилдан озган уни эшитишни истамаётган аёлга ўзининг айбсизлигини тушинтиришга ҳаракат қилади, Гермионага Андромаханинг бу беҳуда илтижоларини Расиннинг ўзи ўйлаб топади (III, 4). Ниҳоят, Дежанирни ўзининг жозибаси ёрдамида қайтариб олишига ишонади, (аммо, беихтиёр) унинг ўлимига сабаб бўлди, унга қачонлардир у ўлдирган бир кентаврнинг қони билан бўялган туникани юборади. Вольтер ҳам "Саллебре Троадаси" ("*La Troade* de Sallebray" 1640) билан таниш эмас эди, ундан Расин ўзига машҳурлик "мен ёқгандан кўра кўпроқ гулхан ёқиш" ни олди, бу сафар яна бир XX аср олими инглиз Р. К. Найт томонидан кўрсатилган. (R.C. Knight) 6 биз у ерда ўз асираси Касандрага телбаларча ошиқ бўлган Агамемнон тасвирланганини кўрамиз, унинг кўнглини овлаш орқали Астянахнинг (жияни) ва Поликсенанинг (синглиси) ҳаётини сақлаб қолишни ўйлайди аммо буни амалга оширолмайди.Бу уч песанинг ҳеч бирини истисно қилиб бўлмайди, чунки Расин ўз трагедиясини ёзаётганида улар кўз ўнгида бўлган, бу ерда бир оят, бу ерда бир ғоя, бу ерда яна бир муносабат бу ҳаммаси ҳақиқат. Битта савол туғилади, улардан униси ёки буниси Вергилия ва Еврипидни топгани учун фитна чиқаришга ҳомий бўлиб хизмат қила олганми?

Гуманист Расин ўз-ўзидан Виргилнинг ривоятида қадимий мавзу ва замонавий (ва Жасур) тузилиш ўртасида уйғун синтез қилиш имкониятини кўрган бўлармиди? Севги муносабатлари, рашк ва никоҳ билан озми-кўпми боғланган тўртта персонаж, фақатгина севги занжирининг ушбу тасдиқланган формуласига тиришқоқ ўқувчи ва томошабиннинг рефлексига мурожаат қилиши мумкин бўлган? Дарҳақиқат, ҳамма нарса бироз мураккаброқ бўлиб туюлади, чунки нима бўлишидан қатъи назар, қадимги афсонанинг маълумотлари севги занжири принципига ўз-ўзидан яқинлашишни қийинлаштиради. Ушбу маълумотларга кўра, ҳақиқатан ҳам Орестни севадиган Гермиона ўзи севмайдиган Пиррга турмушга чикиши керак эди, у Андромахни олиб, кейин уни рад этди..Яъни, Орест ва Гермионанинг ўзаро севгиси севги занжири билан яқинлашиш ҳақидаги ҳар қандай ўз-ўзидан пайдо бўлган ғоя олдида ҳақиқий экран яратганга ўхшайди. Қандай аҳамиятли ҳолат унинг Андромахасидаги ушбу реляцион схемаси илдизини ўзгартиришга эришган, шу сбабли ушбу жараённи кўриб чиқишга арзийди. "Андромаха" трагедиясидаги ахлоқий тамойилнинг бошланиши Гекторнинг беваси тимсолига айланади. Пиррдан, Гермиона ёки Орестдан фарқли ўлароқ, унинг олдида ўғлининг тақдири билан боғлиқ бўлган

танлов туради.. Н.А.Жирмунскийнинг фикрига кўра, Андромаханинг олдида бошқа қаҳрамонларнинг эҳтиролари туфайли сохта танлов туради. Пирр, унинг бутун оиласининг қотили бўлишига қарамасдан, унинг қўлини сўрайди ва тахтни таклиф қилади. Агар Андромаха таклифни рад этса, унинг ўғли ўлим хавфи остида қолади. Андромаханинг ишончли кишиси Сефиза билан саҳнадаги суҳбати асира Малика бошдан кечираётган улкан ички юкни англатади. Бу бузилган иборалар, урғу беришлар, чалкаш нутқлардан далолат беради. Хотиралар ва ҳақиқатнинг тасвирлари аралашган, ҳамма нарса тоборо яқинлашиб келаётган танловнинг мураккаблигини очиб бериш учун хизмат қилади:

Andromaque
Dois-je les oublier, s'il ne s'en souvient plus ?
Dois-je oublier Hector privé de funérailles,
Et traîné sans honneur autour de nos murailles ?
Dois-je oublier son père à mes pieds renversé,
Ensanglantant l'autel qu'il tenait embrassé ?
Songe, songe, Céphise, à cette nuit cruelle,
Qui fut pour tout un peuple une nuit éternelle.
Figure-toi Pyrrhus, les yeux étincelants, (39-бет
Эҳ, Пирр энди унутди деб, - мен уларни унутишим керами?
Гекторни дафн қилинди деб унутишим керакми?
Ва ғурурини топтаб деворларимиз атрофидан судраб ўтдими?
Унинг отасининг оёқларим остига йиқилганини унутишга мажбурманми
У ўпди бўлиб қурбонгоҳ қон?
Сефиз бу даҳшатли кеча, туш, туш,
Бу бутун халқ учун абадий тун эди.
Ўзингизни Пирр билан тассаввур қилинг, кўзлари ёниб турарди, (39-бет

Céphise
Hé bien, allons donc voir expirer votre fils.
On n'attend plus que vous. Vous frémissez, Madame. (40-бет
Хўш, ўғлингиз кўз ўнгингизда ўлади.
Биз фақат сизни кутмоқдамиз. Сесканиб кетяпсизми Хоним.

Andromaque
Non tu ne mourras point, je ne le puis souffrir.
Allons trouver Pyrrhus. Mais non, chère Céphise,
Va le trouver pour moi. (40-бет. SCÈNE VIII.
Йўқ, сен ўлмайсан, мен уни азоблай олмайман
Кетдик, Пиррни топамиз. Аммо йўқ, азизим Сефиз
Бор уни мен учун топ

Céphise
Que faut-il que je dise ? (40-бет. SCÈNE VIII.
Нима дейишим керак?

Andromaque
Dis-lui que de mon fils l'amour est assez fort…
1040 Crois-tu que dans son coeur il ait juré sa mort ?
L'amour peut-il si loin pousser sa barbarie ? SCÈNE VIII.
Унга ўғлимга меҳрим жуда кучли эканлигини айтинг…
Сиз у қалбида ўз ўлимига қасам ичганига ишонасизми?

Севги шу пайтгача ўзининг манқуртлигини сураса бўладими ?
Andromaque
Hélas ! Pour la promettre est-elle encore à moi ?
1045 Ô cendres d'un époux ! Ô Troyens ! Ô mon père !
Ô mon fils, que tes jours coûtent cher à ta mère !
Allons. SCÈNE VIII
Афсус! Мен у ҳали меники деб уни ваъда керак?
Оҳ, куёвнинг куллари! Оҳ Трояликлар! Оҳ, менинг отам!
Ей ўғлим, кунларинг онангга жудаям қимматга тушсин!
Кетдик.

Бари бир Андромаханинг танлови тинчлик келтирмайди. У қаҳрамоннинг имконсиз аҳволи ўз жонига қасд қилишга мажбур қилиши ҳақида кўп гапиради. Андромаханинг танлови “унинг никоҳ ваъдасининг икки томонлама маъноси асосида қурилган ахлоқий келишувдир, чунки ўғлининг ҳаётини сотиб оладиган никоҳ аслида содир бўлмайди. Андромахнинг антагонистлари, Пирус ва Гермиона, ўзларининг тақдири ва унинг тақдирини ҳал қилишда ташқи кўринишдан эркин кўринади, улар Андромахадан кам бўлмаган эҳтирос билан асир ҳолатига боғланган ва қулликда. Орест ўзини идора қилиш учун яна ҳам камроқ мустақилдир.Парадоксал вазият юзага келади-уларнинг тақдиридаги барча тебранишлар ва бурилишлар, бошқача қилиб айтганда, фожианинг бутун ривожланиши Андромаха қандай қарор қабул қилиши билан белгиланади ва у фақат сохта қарор қабул қилишга қодир”.

Бизнинг фикримизча, Расин Энеида шеърларида у ўз пьесасининг “бутун мавзуси” ва “унда содир бўлаётган ҳаракат” деган маънони англатганда янглишмайди. Аристотель поэтикасига таянган ҳолда ўн еттинчи аср трактатлари шунингдек, Корнель нутқларида ҳақиқатдан ҳам уч босқичли тузилма: “бошланиши, ўртаси ва охири” каби ҳаракатлар трагедия яратувчисини ўз мавзусидан ажратиб туради.

АДАБИЁТЛАР

1. (éd. R. A. Carr, Société des Textes Français Modernes, 1977, p.137-167). Pour les tragédies, voir *Alcméon ou la vengeance féminine* d’Alexandre Hardy (publ. 1628).
2. (éd. S. Poli, Naples, Edizioni Scientifiche Italiane, 1995). Pour les tragédies, voir *La Mort de Démétrius* de Boyer (repr. 1660, publ. 1661) et *Arsace* de Prade (repr. 1662, publ. 1666).
3.Артамонов С. Д. История зарубежной литературы XVII-XVIII вв. Учебник для студентов пед. Ин-тов по спец. № 2101 «Рус. яз. и лит.». - М., «Просвещение», 1978. 608 с. С. 21 – 23, 86 – 141.

ГЕНЕЗИС И ТИПОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ЭКФРАСИСА

Гафурова Азиза ЗИЯТОВНА,
Преподаватель, кафедры русского языка и литературы
Навоийский государственный педагогический институт

Литература всегда существует в некоем контексте - социальном, культурном, политическом. Литературный контекст разворачивается и по горизонтали - в соотнесении с другими гуманитарными и художественными областями человеческой жизнедеятельности: театром, живописью, музыкой, философией, кинематографом и т.д. Методологически важным представляется высказывание Ю.М. Лотмана: «В реальности искусство всегда говорит многими языками». При этом языки эти

находятся между собой в отношении неполной переводимости или полной непереводимости[2]

Именно переводимость непереводимого, требующая высокого напряжения, и создает обстановку смыслового взрыва. Невозможность однозначного перевода языка поэзии на язык живописи или даже, казалось бы, на более близкие языки театра и кинематографа является источником порождения новых смыслов» [2]. Литература научилась производить эти смысловые взрывы. Как я старалась показать, есть модели взаимодействия литературы с другими родами искусств, которые позволяют состояться этому взрыву смыслов. Именно экфрасис, на мой взгляд, является такой взрывной моделью соединения литературы и живописи, на что я и хотела обратить внимание. По объекту описания экфрасиса подразделяются на прямые и косвенные. Прямой экфрасис представляет собой непосредственное описание либо простое обозначение визуального артефакта в литературном произведении. Автор при этом открыто указывает, что описывает картину, скульптуру, архитектурное сооружение, фотографию и тому подобные визуальные объекты. Один из наиболее ярких примеров прямого экфрасиса - поэма А.С. Пушкина «Медный всадник», в которой описывается памятник Петру I скульптора Э.-М. Фальконе.

Косвенный экфрасис служит созданию (образа) словесной реальности. Описание пейзажа, персонажа, других элементов художественного мира литературного произведения создается с привлечением мотивов визуального произведения (артефакта). Автор делает это завуалированно, лишь намекая на цитирование какого-либо визуального источника, или открыто, проводя сравнение с визуальным образом. М. Нике говорит о такого рода экфрасисе в романе М. Горького «Жизнь Клима Самгина». В одном из эпизодов романа Самгин характеризует героиню, Марину Зотову, как персонажа картин Машкова и Кустодиева. Нике пишет по этому поводу: «Получается экфрасис с живой картины...» [3].

Авторство экфрасиса в тексте художественного произведения представляется чрезвычайно важным, ибо, будучи носителем огромного пласта культурно-исторической, эстетической информации, экфрасис расшифровывает мировоззрение, социальную принадлежность, философию интерпретатора изображения.

По авторской принадлежности экфрасис делится на монологический - от лица одного персонажа, и диалогический, когда изображение раскрывается в ходе беседы, диалога персонажей. Н.В. Брагинская дает следующее определение: «Диалогический экфрасис - беседа, связанная с изображением и содержащая его описание. Изображение описывается здесь не как произведение искусства, а с точки зрения своего содержания» [1].

Существует определенная конструкция такого рода экфрасисов, включающая в себя следующие признаки: изображения таинственны, обладают скрытым смыслом; в ходе беседы изображение получает истолкование, смысл раскрывается, загадка разгадывается; собеседники при этом исполняют определенные партии; Беседа включает «оптическую» лексику и зрительные императивы - термины, связанные со временем, призраками, чудесами, дивами и т.п.; описание богато световыми образами, блеском, сиянием, сверканием, огнем; все внимание и зрителя и экзегета сосредоточено не на художественном объекте, а на предмете изображения и на его пересказываемом смысле, поэтому картина или статуя, рельеф учит, наставляет, открывает жизненную, религиозную, философскую тайну, толкует миф; изображения сакральны [1].

ЛИТЕРАТУРА

1. Брагинская Н.В."Картины" Филострата Старшего: генезис и структура диалога перед изображением.1994г.
2.Лотман М.Ю. о русской культуре: Быт и традиции русского дворянства (XVIII — начало XIX века)
3.Нике М. К вопросу о хлыстовстве Марины Зотовой из «Жизни Клима Самгина» // Максим Горький и XX век. Горьковские чтения — 1997. Н. Новгород

ALISHER NAVOIYNING FORS TILIDAGI IJODIGA BIR NAZAR

Sultonova Kibriyo FAXRIDDIN QIZI,
NavDPI o‘qituvchi

Alisher Navoiy butun hayoti davomida o‘zbek tili bilan bir qatorda forsiy tilda ham ijod qilib, barakali meros yaratdi. Uning bu tildagi she’rlari 1490-yillarning o‘rtalarida, Eron olimi Yusuf Sheroziy taxminicha, 1495-1500 yillar orasida muallif tomonidan devon holiga keltirilgan va «Devoni Foniy» nomi bilan mashhur. Mazkur devoni 1963 yilda Tehronda, 1965 yilda Toshkentda, 1993 yilda Dushanbada nashr etilgan. O‘zbek olimi Sulaymonov tavsifi bo‘yicha, «Devoni Foniy»da, «Debocha»dan tashqari, 7 qasida, 554 g‘azal, 1 musaddas, 1 marsiya, 72 qita, 73 ruboiy, 16 tarix, 373 muammo, 9 lug‘z bor. «Devoni Foniy»dagi g‘azallarning aksariyati mashhur fors shoirlari she’rlariga tatabbulardan iborat. Jumladan Jomiyning 52, Hofiz Sheroziyning 237, Xisrav Dehlaviyning 33, Sa’diy Sheroziyning 25, Mavlono Kotibiyning 5, Shohiy Sabzavoriyning 5, Kamol Xo‘jandiyning 4 va boshqa g‘azaliga tatabbu bog‘langan. Alisher Navoiy fors tilida yozgan original g‘azallariga «Muxtara», «Ixtiro» deb sarlavha qo‘ygan bo‘lib, ularning soni 50 dan ortiq.

Alisher Navoiyning adabiyot nazariyasiga oid «Mufradot» («Risolai muammo») asari forsiy tilda yozilgan, muammo yozish va yechish qoidalarini ilmiy izohlashga bag‘ishlangan. Navoiy davrida bu she’r turi nihoyatda keng iste’molda bo‘lgan. Aftidan, bu janr nazariyasi va amaliyoti shu davr kitobxonlarining adabiy didi, tarbiyasi bilan ham bog‘langan edi. Alisher Navoiy ba’zan maxsus muammo yechish majlislari tashkil etgan.

«Alisher Navoiy hayotining oxirlarida «Mahbub ul-qulub» nasriy asarini yezdi. Asar 3 qismdan iborat. Uning birinchi qismi 40 fasl. Har bir faslida muallif o‘zi yashagan davrdagi bir tabaqa hayoti, axloqi va vazifalari haqida suhbat yuritadi. U ushbu tabaqa vakillarining yaxshi ishlari haqida ham, ayb va nuqsonlari haqida ham goh halimlik bilan, goh g‘azab-nafrat bilan mulohaza yuritib, ularni insofga chaqirmoqchi, tarbiyalamoqchibo‘ladi. Asarda Alisher Navoiyning inson axloqiga va tarbiyasiga doir eng noyob pand va nasihatlari xalq maqollari va hikmatli so‘zlari shaklida bayon qilingan. Ko‘p o‘rinda shoir o‘z fikrlarini bayt, qit’a, masnaviy, ruboiy shaklida ifodalashi asarga rang-baranglilik bag‘ishlagan. «Tarixi muluki Ajam» va «Tarixi anbiyo va hukamo» Alisher Navoiy Sulton Husayn Boyqaro davri ijtimoiy-siyosiy tarixiga bag‘ishlab yozmoqchi bo‘lgan asarining boshlang‘ich bo‘laklaridir.

Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da qadimgi Eron podshohlari, ularning tarixda muhrlanib qolgan ishlari va shaxsiyatlari to‘g‘risida hikoya qiladi. Bundagi ma’lumotlarni Navoiy ko‘proq Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma» dostonidan hamda «Tarixi Tabariy» kitobidan olgan. Alisher Navoiyning «Tarixi anbiyo va hukamo» asari esa islom dini tarixi bilan bog‘liq rivoyatlar va adabiy asarlarni, xususan bir qator payg‘ambarlar hayotini Buqrot (Gippokrat), Aflotun (Platon), Batlimus (Ptolemey) kabi donishmandlarni bilib olish

uchun muhim manbadir. Ayni vaqtda Alisher Navoiyning bu asarlari o‘zbek badiiy nasrining qadimiy va go‘zal namunalaridir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy vafot etganidan keyin o‘tgan davr mobaynida uning asarlari forsiy va turkiy xalqlar orasida keng yoyildi. Atoqli tojik shoirlarining ko‘pchiligi, Fuzuliy, Kishvariy, Mirzo Fatali Oxundov, Sobir kabi ozarbayjon yozuvchilari, Ozodiy, Mahtumquli va Zelili kabi turkman shoirlari, qozoq yozuvchisi Abay Qo‘nonboev, qoralpoq sohibqalamlari Berdaq, Ajiniyoz, tatar shoirlari Abdulla To‘qay, Hayum Nosiriy va boshqa Alisher Navoiyga yuksak baho berib, asarlaridan ta’lim oldilar, ayrim asarlariga nazira bitdilar.

JAMOL KAMOL SHE’RLARI – KO‘NGIL TARJIMONI

Bozorova Xolida ERGASHEVNA,
NDKTU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, erkin tadqiqotchi

Annotatsiya: Jamol Kamol ijodining ona tiliga, so‘zga munosabat nuqtayi nazaridan tahlili berilgan. Shoirning “Olam kirar yuragimga”, “Buyur, dedim”, “Qasrlar”, “Tilak”, “Suvaydo”, “Foxira”, “Qayonda” she’rlari va ularda qo‘llangan xalq maqollari, iboralar, tarixiy so‘zlar yuzasidan sharhlar qayd etilgan. Maqolada Jaloliddin Rumiy, Xoja Ahror valiy , Erkin Vohidovlarning so‘zga munosabati va buning Jamol Kamol she’rlarida ham ifodalanishi to‘g‘risida mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Jamol Kamolning “Olam kirar yuragimga”, “Buyur, dedim”, “Qasrlar”, “Tilak”, “Suvaydo”, “Foxira”, “Qayonda” she’rlari; Jamol Kamol she’rlarida so‘zga munosabatning ifodalanishi; xalq maqollari, iborlar va “Foxira” , “suvaydo” kabi tarixiy so‘zlar.

Shoir qalbi qiziq-da. Undan hosil bo‘lgan yaratiqlarni o‘qiganingda tubi ummondan chuqur suvlik ostida marjonlar ko‘zing qamashtirar va shu qamashgan ko‘zlarni ochib yumguningcha o‘zingni suv ustida bir xas kabi notavon-u ojiz ko‘rasan. U bir satrda qalbingni Hazrat Navoiyga oshufta etsa, boshqasida Majnun orqasidan bo‘zlatib ketadi. Bu sinoat - so‘zning qudratidan. Jonajon o‘zbek tilining sehr-u jodusidan! Sevimli shoirimiz Erkin Vohidov: ”Ona tilimni sevmasam, so‘zlariga mahliyo bo‘lmasam, hayratlanmasam menga shoirlik qayda edi!”[267] - deganida tilimizning beqiyos quvvatini ko‘z-ko‘z qiladi. Aslida, shoirlik - taqdir. Bu da’voni qilishda ilm-u hikmatdan tashqari iste’dod va, albatta, Olloh nazari kerak.

Hali 22 yoshlaridayoq “yuragidan olamga joy bera bilgan o‘zbek she’riyatining zabardast vakili, otaxon shoiri Jamol Kamol ana shunday olloh nazari tushgan yuksak iste’dod sohibidir:

Olam kirar yuragimga
Ming jilva bilan,
Daryo-qo‘shiq,
Oqshom-shafaq,
Oy shu’la bilan…[268]

Jamol Kamol she’rlari sodda va ravon, hech bir murakkabliklarsiz o‘qiladi. Unda tarixi ming yillarga borib taqaladigan yoki endi dunyo yuzini ko‘rgan javohirotlar to‘lib-toshib

[267] Erkin Vohidov, So`z latofat. Toshkent. “O`zbekiston” 2014-yil , 9-bet
[268] Jamol Kamol , Asr bilan vidolashuv. Saylanma. She’rlar va dostonlar,1-jild. Toshkent. O`zbekiston Respublikasi akademiyasi ”Fan” , 2007-yil 19-bet

yotibdi. Shoir so‘zni shu qadar ardoqlaydiki, uni “farzandlari ko‘zlari”ga hatto “osmondagi yulduzlar”ga qiyos etadi:

Xayolimda yozilajak
She’rimning so‘zlari
Ular go‘yo tug‘ilajak
Bolalarim ko‘zlari.
Ular yonar, yashnab kular
Atrofimda charx urib
Osmonimda yulduz ular,
To‘yolmayman termulib. [163-bet]

Har qanday milliy tilni yanada go‘zallashtiruvchi, boyitib, sayqallovchilar ijodkorlar, shoir-u yozuvchilardir. Ular qo‘lida so‘zlar halim kabi yumshaydi, go‘yo zargar qo‘lida metall oltinga, tosh gavharga aylanadi:

Xayollarim yulduz kabi
Sehrkor edi… [28-bet]

O‘zbek tilida –kor qo‘shimchasi ot turkumidagi so‘zlarga qo‘shilib, asosdan anglashilgan tushunchaga egalik, u tushunchaning ortiqligini yoki unga xoslik, o‘xshashlik, xususiyat, holat ma’nolarini ifodalovchi sifat yasaydi: fusunkor, havaskor kabi. [269] Misrada ko‘rganimiz “sehrkor” so‘zi ham sifat turkumiga mansub bo‘ib, undan –li qo‘shimchasi bilan sifat- sehrli, -gar qo‘shimchasi bilan shaxs oti- sehrgar , yasaladi. “Sehrkor” so‘zi “maftunkor” so‘ziga ma’nodoshlik hosil qilib, mazkur she’rda yangi hodisa sifatida mavjud bo‘lmoqda.

Sevinchdan toshib-qaynab
Hansiradi Yer.
Uchib o‘tgan bu fazokor
O‘g‘lonim, dedi… [28-bet]

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da –kor qo‘shimchasi shunday izohlangan: -kor qo‘shimchasi omonim xususiyatga ega bo‘lib, kasb egasi, mutaxassislik, mashg‘ulot bilan bog‘liq bo‘lgan shaxs oti yasaydi: binokor, xaloskor. “Fazokor ” so‘zi esa shoir qalamiga xos ijod namunasi, go‘zal bir yaratiq.

Jamol Kamol she’riyatini o‘rganar ekansiz, bu kabi yaratiqlarga ko‘p martalab guvoh bo‘lasiz. Zero, shoir ijodini ulkan bir daraxtga qiyos etsak, bir ildizi mumtoz she’riyatga, bir ildizi ona tilimizning ming yillik tarixiy xazinasiga borib taqaladi va lirikasini xalqona iboralar-u maqollar, rivoyatlar-u hikoyatlardan oziqlanayotganini his etasiz.

Qosh qoraydi, sir pardasin
yopindi olam … [59-bet]
Ingrab yotar **zax zaminga ko‘ksini qo‘yib**…[60-bet]
Oh urarsan, o‘tli bir oh,
Bo‘tam, shunda nor bo‘lib,
Tuproq emas, **olam-jahon**
Ko‘zlaringga tor bo‘lib...[94-bet] kabi iboralar;
ko‘zni tuydirarmish bir hovuch tuproq...[49-bet]
Odam libos bilan, deganlari rost...[111-bet] singari xalq maqollari;
Nahot g‘ofil qolding, ey keksa **ochun**?..[55-bet],
Yurakni xun qilib uf chekadi, uf .... [66-bet],
Jamol bo‘lolmadim **xub**lardan **xub**roq [115-bet],
Olamda seningdek iftixorim bor,

[269] O`zbek tilining izohli lug`ati. T. ”O`zbekiston” nashriyoti , 5-tom 585-bet

Olamda o‘zing bor, mening **Foxiram**...[111-bet] singari tarixiy so‘zlarning qo‘llanishi shoir ijod ummonining naqadar chuqur ekanidan dalolat beradi.

Jamol Kamol san’atkorligining mohiyati chuqur, shoir qalbining nechog‘li buyukligidan, mukammalligidan. Zero, muqaddas hadislarimizda aytilgani kabi ”She’rda hikmat bor”. Jamol Kamol she’rlarining hikmati shundaki, undan she’rxon nafaqat bahra oladi, balki o‘z tafakkur olami, dunyoqarashini ham boyita oladi. Yuqorida qayd etganimiz ”Foxira” so‘zi ko‘pchilikni qiziqtirishi tabiiy, albatta. Foxira- qadim Buxoroning qadimiy atamasi, mag‘zida faxr mamlakati tushunchasi mujassam:

Jannat bog‘laridan mening orim
Menga nima emish u bog‘i Eram?
Olamda seningdek iftixorim bor,
Olamda o‘zing bor, mening Foxiram...[111-bet]

Ba’zan shoir o‘z falsafiy fikr-mulohazalarini ifodalashda to‘g‘ridan –to‘g‘ri so‘z sharhiga qaratadi va bu bilan, avvalo, so‘z ma’no-maxzanini o‘quvchi ongiga yetkaza oladi, ikkinchidan, shu so‘z bilan bog‘liq fikr-mulohazalarini bayon eta oladi:

Buyuk Navoiyning bir lug‘atida
Ne-ne tushunchalar pinhoniy paydo.
O‘sha olmajahon so‘zlar qatida,
Alomat bir so‘z ham kelar: Suvaydo.
Yurak o‘rtasida nuqta emish u.
Qora nuqta emish, kuyik bir nuqta.
Xattotning xatidek puxta emish u
Kimlarda jizg‘anak, kimlarda so‘xta.
Hijrondan tug‘ilsa-qonli bo‘larmish,
Armondan tug‘ilsa-dardli qorachiq.
Hamisha ko‘z kabi jonli bo‘larmish,
Hamisha ko‘z kabi olamga ochiq...[95-bet]

Aytmoqchi bo‘lganimiz shoir Jamol Kamol – kamol iste’dod sohibi. U bugun o‘zbek she’riyati bisotini ko‘plab she’rlar, dostonlar va tarjimalar bilan bezab turibdi. Dunyoni-ochun, yaxshi-xub, zalolatni zillat sifatida qo‘llab, eskirgan so‘zlarga qayta jon baxsh etmoqda, ”sehrkor”, ”fazokor” kabi so‘zlar bilan so‘z boyligimizga so‘z qo‘shmoqda, tarix zarvaraqlarining sarg‘aygan sahifalari qatida bo‘lgan ”suvaydo”, ”foxira” atamalaridan bizni voqif etmoqda va, albatta, bu bilan o‘z tilimizga ehtirom, faxr uyg‘otmoqda.

Shoirning so‘zga, ona tiliga mehri bo‘lakcha. Tiriklik manbasi deb biladi tilni hassos ijodkor:

Xalqimning qadimiy tili bor, durkun,
Har bir jaranglashi ruhimga rivoj.
O‘shani yopininb yuraman har kun,
O‘shasiz jahonda men bir yalang‘och.
Tilim yorug‘ligim, yirikligimdir,
Bashariy shu olam, dahri-dun aro.
Tilim - bu dunyoda tirikligimdir,
O‘lsam kafanimdir jismimda qaro... [111-bet] misralarini o‘qir ekansiz, shoir salobatini his etasiz, boy ruhiyatiga tahsin o‘qiysiz, ham ona tiliga mehringiz ortadi. Shoir ta’kidlagani kabi ”yalang‘och” bo‘lib qolish xavfidan o‘zingizni ozod etasiz. “Tiling ko‘ngilning tarjimoni bo‘lsin”, deydi buyuk shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur pir-u komil Xoja Ahror valiy tilidan “Risolai volidiyya” asarida. Jamol Kamol she’rlari ham

“ko‘nglining go‘zal tarjimoni” bo‘lib sohibining siyratini, botinini to‘kib-sochadi. So‘zning qudrati shunchalikki, Rumiy hazratlari qo‘lingga nay tutqazib:
Tingla naydin, ne hikoyatlar qilur,
Ayriliqlardan shikoyatlar qilur,[270] deya oshiq ko‘ngillarga ishq navosidan roz aytadilar. Go‘yo oshiq dard-u hasrati nay navosi bilan qalblarning tub-tubida aks-sado beradi. Rumiy ”nay”i shu tariqa ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelaveradi. Shu taxlit ijod ahli millionlab ko‘ngillarda so‘zga, tilga sayqal berib, mehr-u muhabbat uyg‘otadilar yoki millionlab qalblarda jo‘sh urgan tug‘yonning tarjimoni sifatida dil dardlarini oshkor etaveradilar. Jamol Kamol she’rlari ham ana shunday betakror ”tarjima” mahsulidir.

ADABIYOTLAR

1.Erkin Vohidov, So‘z latofat. Toshkent. “O‘zbekiston” 2014-yil , 9-bet
2. Jamol Kamol , Asr bilan vidolashuv. Saylanma. She’rlar va dostonlar,1-jild. Toshkent. O‘zbekiston Respublikasi akademiyasi ”Fan” , 2007-yil 19-bet
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent. ”O‘zbekiston” nashriyoti , 2006-yil. 5-tom 585-bet
4. Jaloliddin Rumiy. Masnaviy hikoyalariga sharhlar. Naynoma. Masnaviy hikmatlari. ”Muharrir” nashriyoti. T. 276-bet.
5. Berdak Yusuf, Mumtoz adabiy asarlar lug‘ati, “Sharq” T:. 2010.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur, ”Risolai volidiyya” nazmiy tarjimasi va sharhi. ”Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. T. 2014-yil. 385-bet.

ALISHER NAVOIY VA BOBUR RUBOIYLARIDA TASAVVUFIY QARASHLAR

Ravshanova Feruza BAXRIDDINOVNA,
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti akademik litseyi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: This article is about Alisher Navoiy's and Bobur's rubai and their views on sufism. Today's relevance of rubai is completely revealed

Tasavvuf aslida keng ma’noli tushuncha bo‘lib, insonning kamolotga yetishishi, haqni tanishi va shu orqali umr yo‘llarini ezgulik va halollik bilan bezamog‘i lozim bo‘lgan bir ta’limotdir. Bu ta’limot asosida inson avvalo tasavvufning mazmun mohiyatini anglashi zarur. Xo‘sh, bu asli qanday amalga oshiriladi? Uning g‘oyalari nimadan iborat? Ushbu keng ma’nodagi savollarni har bir ongli mavjudot aqlida idrok qilishi kerak.

Tasavvuf g‘oyalari aslida muqaddas kitobimiz Qur’ondagi oyatlarga amal qilish va sunnatga ergashish, haqiqatni bilib unga muvofiq bo‘lish, nafsni nazorat qilish, ustozlar va salaflarni hurmat qilish (bilish kerakki, hurmat aslida haqiqatga olib boradi), haqni bilmagan avom xatosini kechirish, dindoshlar va do‘stlar bilan go‘zal munosabatda bo‘lish, yomon odatlarni tashlamoq, o‘z majburiyatlari va vazifalarini ado etmoq singari birlamchi qarashlardir. Mana shunday g‘oyalar ruhini o‘z ijodida aks ettirgan buyuk shoh va shoir, mutafakkir, tarixchi va davlat arbobi, markazlashgan davlat va boburiylar saltanati asoschisi Zahiriddin Muhammad Boburdir. Uning ijodi bir qancha: gazal, ruboiy va tuyuq, qita, fard, masnaviy kabi janrlardan tashkil topgan. Ayniqsa, ruboiylari, ulardagi sof va samimiy tuyg‘ular kishini o‘ziga rom etadi.
Har kimki vafo qilsa vafo topg‘usidur,

[270] Jaloliddin Rumiy. Masnaviy hikoyalariga sharhlar. Naynoma. Masnaviy hikmatlari. ”Muharrir” nashriyoti. T. 276-bet.

Har kimki jafo qilsa jafo topg‘usidur,
Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonlig‘ hargiz,
Ha kimki yomon bo‘lsa jazo topg‘usidur!

Barchaga ma’lum va mashhur ushbu ruboiyni tahlil qiladigan bo‘lsak, undagi so‘zlarning ma’nolari botiniy va zohiriy tuyg‘ular bilan boyitilgan. Hozirgi yashab turgan moddiy dunyoda ham inson qilgan yaxshiligi uchun mukofot, yomonligi uchun jazo olishi muqarrar. Xuddi shu fikrlar tasdig‘i esa Qur’oni Karimda “Zalzala” surasining oxirgi oyatlarida o‘z aksini topgan ya’ni: famay ya’mal misqola zarrotin xoyroy yaroh, va may ya’mal misqola zarrotin sharroy yaroh. (Har bir kishi misqolcha qilgan yaxshiligi uchun ham, misqolcha qilgan yomonligi uchun ham albatta jazosini yoki mukofotini oladi) Demak inson barcha amallari uchun javob beradigan va mukofot oladigan kun muqarrar ekanligi ta’kidlangan.

Jondin seni ko‘p sevarmen ey umri aziz,
Sondin seni ko‘p sevarmen ey umri aziz,
Har neniki sevmak ondin ortiq o‘lmas,
Ondin seni ko‘p sevarmen ey umri aziz.

Yoki Alisher Navoiyning mana bu ruboiyini tahlil qiladigan bo‘lsak, satrdagi birinchi misrada o‘zidan, butun borlig‘idan hatto shirin jonidan ham Ollohni sevishi, yagona, hamma narsani yaratuvchi xoliq zot ekanligiga ishora qilingan bo‘lsa; misraning ikkinchi qatorida esa adadsiz, ma’lum bir miqdorsiz cheksiz sevishi va qadrlashi, ulug‘lashi nazarda tutilgan. Keyingi uchinchi va to‘rtinchi misralar esa qolganlaridan farqli o‘laroq kengroq tushunchani qamrab oladi. Inson uchun dunyoda sevimli va aziz narsalar, sevimli va qadrli yaqinlari, do‘st-u oshna, birodarlar, farzand ne’mati, ota-ona saodati….Lekin bularning barchasidan ollohni ustun qo‘yishi va uni sevishi, hamma maqtovlar-u olqishlar, hamd-u sanolar unga ekanligini anglash g‘oyalari ilgari surilgan. Chunki biz sevgan va qadrlagan butun borliqdagi jamiyki mavjudotlarning yaratuvchisi yakka-yu yagona Xoliq. Muqaddas ollohning kalomi bo‘lmish “Qur’on”ning birinchi surasi “Fotiha”da ham buni sharhini berib shunday deyilgan: Alhamdulillahi robbil a’lamiyn (barcha maqtov, shukrlar olamlarning tarbiyachisi Allohga bo‘lsin). Olamlarni yaratgani uchun ham, ulardagi barcha jonzotlarga hayot, rizq-u ro‘z bergani uchun ham Alloh barcha hamd-u sanolarga sazovordir. Mana shunday tasavvufni bilgan va anglagan, ilmi va amaliga sodiq inson haqiqiy mo‘mindir. Haqiqiy mo‘min esa islom ta’limotida olloh uchun eng yaqin va taqvodor insondir.

Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi ana shu singari bashariyatni ezgulikka, yaxshilikka, halollikkka, soflik va poklikkka undovchi g‘oyalar talqiniga qaratilgan asarlardan iborat.

Demak, inson fitratida ollohni anglasa, uni har bir farziga amal qilsa, musulmonchilik qonun - qoidalarini bajarsa, sunnat va vojib amallarga rioya qilsa ikki dunyo saodatiga erishadi.

ALISHER NAVOIY FALSAFIY QARASHLARIDA TILGA DOIR MULOHAZALAR

Maftuna OCHILOVA,
NavDPI doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Mahbub ulu-qulub”, “Saddi Iskandariy”, “Badayi ul-vasat” asarlaridagi tilga doir falsafiy qarashlar tahlil etilgan. Shuningdek, inson kamoloti xususida mulohazalar bayon etilgan.

Abstract: This article analyzes the philosophical views on language in Alisher Navoi's works "Mahbub ulu-qulub", "Saddi Iskandari", "Badayi ul-vasat". Also comments on human perfection are stated.

Kalit so‘zlar: antroposotsiogeniz, tasavvuf, inson, timsol, individ, ijtimoiy.

Sharq va G‘arb falsafasida Amir Alisher Nizomiddin Navoiyning merosi hajm jihatdan ham, mazmun jihatdan ham erishilmagan yuksak maqomdir. Ulug‘ mutafakkirning ilm-fan, va badiiy ijod sohasida amalga oshirgan ishlari, jumladan, nazm, nasr, tarix, din, tasavvuf, adabiyotshunoslik, tilshunoslik yo‘nalishlarida yaratgan durdona asaralari va ularda ilgari surilgan falsafiy mazmun asarlar osha butun bashariyatni hayratga solib kelmoqda. Mutafakkir merosida insonning jamiyatda tutgan o‘rni va vazifalari va hayot tarzi aniq bir shakllarda aks ettiriladi. Til -borliq va tafakkur o‘rtasidagi munosabatlar, shuningdek, bu munosabatlarni ifodalovchi va izohlovchi nazariy-metodik bilim. Ma’lumki, bugungi kunda fanda “inson o‘zini-o‘zi anglovchi mavjudot”, “inson eng aqlli mavjudot”, “inson-ma’naviy mavjudot” degan fikrlar ishlatilmoqda. Odamning insonga aylanishi antroposotsiogeniz jarayonning natijasidir. Unga ko‘ra bu jarayonda mehnat, til, nutq asosiy o‘rinda turadi. Alisher Navoiy asarlarida inson kamolot bosqichida tilning o‘rniga alohida e’tibor berilgan. Mutafakkirning umriga yakun sifatida yozilgan “Mahbub ul-qulub” asarida mavzu doirasida alohida tanbehlar keltirilgan:

Husn-jamolsiz kishi shirin kalom esa,
Sayd aylar elni nukta fasohat bila desa[271]

Husn-jamoli yo‘q odam ham shirin so‘zi bo‘lsa, go‘zal shirin so‘z bilan elni o‘ziga rom qiladi. Faylasufning umri o‘tib, barcha hayotiy xulosalari asosida yuzaga kelgan bu asarida til odobiga doir alohida to‘xtalib o‘tishi bejiz emaski, hayotning mohiyatini anglashda va insonning ijtimoiy jamiyatda mavqeyini belgilshda til birinchi darajali birlikdir. Itimoiy jamiyatdagi har bir individ alohida xususiyatlari bilan ajralib turar ekan, faqat uning o‘ziga xos tafakkur shakliga monand tili shakllanadi va nutqda buni aks ettiradi. Faylasuf nodon odamning tilida yolg‘on so‘zlashini eshakning sababsiz hangrashiga o‘xshatadi. Yoki 48-tanbehda:”So‘zda har qanday yaxshilikning imkoni bor, shuning uchun debdurlarki, nafasning joni bor. Iso alayhissalom nafas bilan o‘likka jon kirgizdi, go‘yo nafasi o‘likka jon bo‘lar edi”. Tildan chiqayotgan, so‘zlanayotgan so‘zga qarab insonning dunyoqarashi va tafakkur ko‘lami o‘lchanadi. Til xuddi monitoring singari inson tanasini , qalbini, borlig‘ini, shuurini akas ettirib turadi. Mutafakkir bir o‘rinda tilni tiya olgan kishini donishmand hakimga qiyoslaydi. Lekin tilning ofatini Husayn Mansur mirzo dorga osilishidi misol qilib keltiradi. Har qanday tildan yaxshi va yomon so‘zlar so‘zlanganda ularga javoban so‘z qaytadi.

Xush so‘zga kim o‘lsa mastu behush,
Sharbat aro zahrni qilur no‘sh.

Yaxshi so‘zga kim mast-u behush bo‘lsa, sharbat ichidagi zaharni ham ichib yuboradi.O‘zbek xalqi poetik ijodida “Yaxshi so‘z bilan ilon inidan chiqar, yomon so‘z bilan pichoq qinidan chiqar”, -degan maqol zamirida ham tilni tiya olamslik faqatgina ofat keltirishini bildirgan.

Buyuk faylasuf Al-Maarriy Abul Alaning fikrlari ham Hazrat Navoiyga hamohang:

Tilini tiysa kim bezgaklikda ham,
Baxt unga tez kunda bo‘lg‘usi hamdam[272]

[271] Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”, Toshkent 2018, 127-bet (Izoh:boshqa misollar ham shu manbadan olinib sahifada beti ko`rsatiladi)
[272] “Yuz mumtoz faylasuf” Toshkent “Yangi asr avlodi” 2017, 204-bet.

Bezgak bu inson tanasidagi isitma kasalligi. Agar kishi isitmalab betob bo‘lib yotganda ham tilni tiya olsa baxt unga tez kunda hamroh bo‘lishini yozadi.

Navoiy hukmdor va jamiyat xizmatini amalda ikki toifa odamlar boshqarishi lozimligini ta’kidlaydi. Birinchisi, aqlli, bilimdon, ziyrak, so‘zga usta, xushmuomala, chaqqon, epchil odamlar bo‘lib, hukmdor og‘ir vaziyatlardan ular yordamida qutilib ketadi. Ikkinchisi, kuchsiz, bilimsiz odamlar bo‘lib jamiyat yukuning og‘irligi ular zimmasidadir[273]. Adolatli davlat va faravon hayotni ko‘rishni istgan har qanday shoh, avvalo, atrofiga birinchi toifa odamlarni yig‘ishga intiladi.

Giloniyning fikricha:

Komil inson – ruhi oliy had darajasida yuksalgan inson.

Komil inson-faqirlik maqomidagi inson.

Komil inson-o‘z nafsini jilovlagan inson.

Komil inson-tana va ruhi uyg‘un inson.

Komil inson-haqiqatni anglagan inson.

Komil inson-nurli inson.

Komil inson-ilohiy-laduniy ilmni egallagan inson.

Yuqoridagilardan anglashiladiki, til odobi inson kamoloti bosqichida o‘ta ahamiyatlidir. Nasf deganda biz yemoqlik va ichmoqlikdan tashqari barcha insonga xos bo‘lgan illatlardan, masalan, yolg‘onchilik, ochko‘zlik, tilni tiya olamaslik, tavoze qilmaslik va shu kabilar tushuniladi. Navoiyning butun ijodida, uning asaralari bag‘riga singdirilgan til bilan dilning birligini ta’minlash g‘oyasi komillik bosqichlariga poydevordir. Adabiyotshunos Ibrohim Haqqul fikricha, Alisher Navoiyning komillik haqidagi fikr qarashlari, asosan to‘rt ustuvor asosga tayanadi. Bular Axloq go‘zalligi, Qalb tasfiyasi, Ruhoniyat qudrati va Tafakkur balog‘ati. Navoiy komil inson deganda nafsoniy ehtiyoj va talablardan g‘olib kelgan va mutloq tarzda ma’naviy-ruhiy hurriyatga erishgan insondagi yangi hamda har jihatdan ibratli “Men”ni nazarda tutgan.[274] Fikrimizcha, o‘sha “Men”ning hayot yo‘li, ruhiy yuksalishi va ko‘ngil olamidagi yangi evrilishlar til bilan amalga oshiriladiki, buni yaxshi anglagan har bir inson komillikka intiladi.

Alisher Navoiy insonga biologik hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy hodisa sifatida qaraydi. U har qanday kimsani emas, balki haqiyqiy insonni e’zozlaydi. Inson hayotini o‘zi uchun ham, butun jamiyat uchun ham foydali bo‘lgan xizmatga bag‘ishlashi, kasb-hunar o‘rganishi, ma’rifatli, fazilatli va xushxulq bo‘lishi kerak. Shundagina u o‘z insoniy burchini ado etgan komil inson bo‘ladi.

Kimki bir ko‘ngli buzuqning xotirin shod aylagay,

Oncha borkim, ka’ba vayron bo‘lsa, obod aylagay.[275]

Haqiyqiy inson el-yurt bilan birga bo‘lishi, uning andishasi bilan birga yashashi, imkoni boricha yaxshilik qilishi lozim. Ko‘ngilga malham bo‘lish til bilan amalga oshiriladi, albatta. Navoiy millat hayoti va shaxs qalbining ichki haqiyqatlarini falsafiy ohanglarda tasvirlashda beqiyosdir.

Insoniyat ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotida tub yangilanishlar til bilan amalga oshiriladi. Bugungi globallashuv sharoitida o‘zbek tili mavqeni yana-da oshirish, uning yorqin istiqbllarini ta’minlashda har bir millat fuqarosi Alisher Navoiy ijodini o‘rganishi, uning tilga doir hikmatli so‘zlarini qalbiga joyalashi, o‘ylaymizki, tilimizning umrboqiyligini ta’minlashda katta zafarlar olib kelad.

---

[273] Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy”. -Toshkent. G’ofur G`ulom nashryoti , 1991. 232-bet

[274] Ibrohim Haqqul “Mushohada yog`dusi”, -Toshkent, “Fan” 2009, 254-bet

[275] Alisher Navoiy, “Xazoyin ul-maoniy” “Badoyi ul-vasat”, O`z Fan, -Toshkent, 1960,621-bet

QADRING BALAND BO‘LSIN, ONA TILIM!

Ergasheva Dilshoda HALIMOVNA,
Navoiy shahar 12-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumiy o‘rta ta’lim maktabi ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

Bu milliy g‘urur,ona tilimizning taqdiri,uni asrash kelajak avlodlarga yetib borish imkoniyatini yaratish bilan bog‘liq. Qolaversa, o‘z milliy tiliga hurmat mamlakatimizning dunyoda munosib e’tirofga ega bo‘lishda ham muhim omil sifatida qaraladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining
75- sessiyasida Pzezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ilk bor o‘zbek tilida so‘zlagan nutqini yuksak g‘urur va faxr tuyg‘usi bilan tingladik.Bu yurtboshimizning o‘zbek tili-Davlat tiliga bo‘lgan cheksiz hurmatlari hamda tilimizning nufuzini dunyoda hamjamiyatida yuqori ko‘tarishdagi qutlug‘ qadamlari bo‘ldi desak ,also mubolag‘a bo‘lmasa kerak.Yurtboshimizning bu nutqlari jahon hamjamiyatida ham yuksak e’tirofga sazovor bo‘ldi.Chet davlatlar OAVlarida ham Prezidentimizning tarixiy nutqlari ijobiy tahlil qilindi.O‘zbek tili jahonda jarangini taratdi.

Bugungi globallashuv davrida o‘zligini anglagan har bir xalq millati va milliy qadriyatlarini asrab qolish ustida tinimsiz bosh qotirmoqda. Texnikaning shiddatli rivoji, siyosiy – iqtisodiy jarayonlar sur’ati va millatlararo muloqat kuchayib borayotgan hozirgi davrda zamon bilan hamnafas yurishga,o‘zini tili, madaniyatiga bu jarayonlarning “yemirish “va “yo‘q qilish” darajasidagi salbiy ta’sirini imkon qadar kamaytirishga harakat qilmoqda.

Ona tilimiz , o‘zbek tili, davlat tili masalalarida endi ehtiroslarga berilish davri o‘tdi. Davlat tili maqomini mustahkamlashga harakat har birimiz o‘zimizdan,o‘z faoliyatimizdan boshlashimiz kerak.Millatning borligi va borlig‘ini ko‘rsatuvchi tilimizni asrab-avaylash , oila, jamoa, mahalladan boshlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining istiqlolga intilishi , mustaqillikka erishish arafasidagi dastlabki dadil qadami o‘zbek tiliga Davlat tili maqomini berishdan boshlandi. Mustaqillik e’lon qilinmay turib , uzoq yillar davomida bo‘g‘ilib , qadrsizlanib kelayotgan milliy tilimizni saqlash , tiklash , asrash , yuksaltirish uchun huquqiy zamin yaratildi. Bu ham til erki , ozodligi , taraqqiyotning millat taqdiriga , milliy hurriyatga nihoyatda chambarchas bog‘liq ekanligini , millat va til taqdiri o‘zaro mustahkam rishta bilan payvand etilganlgini namoyish etuvchi tarixiy haqiqatdir.

O‘zbek tilini ta’limning eng quyi bosqichlaridan o‘rgatib borish bo‘yicha zamonaviy metodika ishlab chiqish zarur. Agar o‘qituvchi sinfda yoki auditoriyada yoshlarda o‘zbek tilini o‘rganishga qiziqish va ehtiyoj uyg‘otib, unda tilga hurmat tuyg‘usini uyg‘ota olmas ekan,davlat tilining jamiyatdagi mavqeini ko‘tarish mushkul ish. Bu borada masofaviy ta’lim, mustaqil o‘rganishga yo‘naltirilgan video darslarni ham ko‘paytirish va internet tarmoqlariga joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Darhaqiqat , o‘zbek tili shu kungacha ko‘p ming yillik tarixiy taraqqiyot yo‘lini mardonavor bosib kelmoqda. O‘rxun-Enasoy yodgorliklaridagi bitiklardan tortib , hozirgi davrgacha yaratib kelinayotgan adabiy ifodasi , ma’no qatlamlari , lug‘at tarkibi to‘g‘risida atroflicha va asosli ma’lumotlar bera oladi.

Xalq og‘zaki ijodining nodir namunalaridan boshlab , qadimiy bitik toshdagi yodnomalar , Mahmud Zamaxshariy , Mahmud Qoshg‘ariy , Ahmad Yassaviy , Yusuf Xos Hojib , Ahmad Yungakiy , Lutfiy ,Alisher Navoiy , Bobur , Mashrab , Ogahiy , Nodira , Uvaysiy , Furqat , Behbudiy , Fitrat , Qodiriy , Cho‘lpon , Usmon Nosir kabi ijodkor mutafakkirlar merosi bu boradagi salmoqli manbalar sirasiga kiradi. Shu bilan bir qatorda, keyingi avlod vakillari , XX-XXI asr ma’rifati , adabiyoti

namoyondalari , tilshunos va adabiyotshunos allomalari ham o‘z adabiy , ma’naviy – ma’riiy boyish va yuksalishiga , tobora sayqallanib kamol topishga benazir hissa qo‘shib kelmoqa.

Biz adodlarimizning merosini , uzoq va yaqin o‘tmish hayot lavhalarini , davlatchiligimizning tarixiy asoslarini , milliy qadriyat va an’analarimizni ana shu milliy til vositasidagina yanada chuqurroq anglaymiz , o‘zlashtiramiz , mustahkamlaymiz , kelajak avlodga yetkazilishini ta’minlab bera olamiz. Shu boisdan ham o‘zbek tili o‘zbek xalqining milliy o‘zlik va mustaqil davlatchilik timsoli , buyuk qadriyat sifatida yuksak maqomga ega.

Xulosa qilib, shuni ta’kidlash joizki , ilmiy – texnik , ijtimoiy – iqtisodiy , siyosiy-mafkuraviy o‘zgarish va yuksalishlar , dunyoviy hamkorlik va aloqalar bevosita tilga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi:adabiy til lug‘at tarkibida , ma’no qatlamlarida eskirish , yangilanish jarayonlari kechadi , hattoki , tilning gramatik tabiatida ham o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Shu bois til hamisha tahrir -u tadqiqqa , e’tibor-u e’zozga ehtiyoj sezadi , muntazam faollikda bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganini har yili keng nishonlashga, shu munosabat bilan”Tariximsan , taqdirimsan , kelajagimsan , ona tilim!” degan ezgu g‘oyani o‘zida mujassam etgan ma’naviy – ma’rifiy , madaniy targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazishga qaratilgan respublika miqyosidagi amaliy harakat yuqoridagi jihatlarni to‘la qamrab olgani bilan katta ahamiyatga ega.Har bir o‘zbek o‘z tilini qadrlashi, uning bebaholigini his qilib ,hurmat bilan munosabatda bo‘lsagina haqiqiy fidoyi hisoblanadi.Bejizga Ona tilim deb e’tirof etmaymiz.Bu so‘z zamirida ona vujudida sayqallanib ,onamiz allasi bilan qon-qonimizga singgan yuksak qadriyat mavjudligini to‘la anglamog‘imiz lozim.

“SEN TILNI SHARAFLA, EL UCHUN NOMUS BIL”

Sevinch OMONOVA,
NavDPI O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Dunyoda inson zoti yaratilibdiki, bir-biri bilan gaplashadi, so‘zlashadi, o‘zaro muomalada bo‘ladi. Bunda tilning o‘rni beqiyos, albatta. Inson til orqali boshqa tirik jonzotlardan ongli ravishda farq qiladi. Dunyoda tillar ko‘p, lekin har bir xalq, har bir millat uchun o‘z tili qadrdon va sevimli, chunki shu tilda u bemalol muloqot qiladi, o‘z fikr-tuyg‘ularini bevosita erkin ifoda etadi. O‘zbek xalqi qanchalik teran tarixga ega bo‘lsa, ona tilimiz ham shunchalik uzoq tarixga egadir. Asrlar davomida xalqimiz qanday kunlarni boshidan kechirgan bo‘lsa, tilimiz ham shunday kunlarni boshidan kechirdi.

Til millatning muqaddas mulki, ma’naviy boyligidir. Millat o‘zligini ko‘rsatadigan, millat degan ulug‘vor tushunchani shakllantiruvchi asosiy unsurlardan biri ham eng avvalo tildir. Tilshunos olim N.Mahmudov «…benihoya muhtasham va muntazam mazmuniy unsur, murakkab mohiyatdir»- deb ta’kidlaydi. Buni teran anglagan ulug‘ ajdodlarimiz milliy til taraqqiyoti uchun doimo kurashib kelganlar.

Asrimiz avvalida o‘zbek xalqining ko‘zga ko‘ringan tilshunosi Abdurauf Fitrat matbuotda «Tilimiz» («Ishtirokiyun» gazetasining 1919yil, 12 iyun soni) nomli dolzarb maqolasini e’lon etadi. Maqolaning umumiy ruhi turk (o‘zbek) tilining o‘tmishi va kelajagi, taqdiriga qaratilganligi bilan ahamiyatli. Unda Fitrat o‘zbek tilini dunyoda nihoyatda boy, lekin baxtsiz deb ta’riflaydi.

Turkiy tilning boy imkoniyatlarga ega ekanligini birinchi bo‘lib Alisher Navoiy o‘z asarlari orqali isbotlab, nazariy asosi sifatida «Muhokamat ul-lug‘atayn»nomli asar yaratdi.

Alisher Navoiy turkiy tilni dunyo uzra «yakqalam» kilishga, turkiy tillarni bir adabiy til doirasiga tortishga intildi. Buning yorqin isbotini o‘zining o‘lmas asarlari orqali ko‘rsatdi.

«Turk alfozida… olame nazarga keldi,– deb yozadi shoir «Muhokamat ul-lug‘atayn»da,– o‘n sakkiz ming olamdin ortuq, anda zebu ziynat…to‘qqiz falakdan ortuq; anda mahzane (xazina)uchradi, durlari kavokib (yulduz) gavharlaridin ravshanrok…» Navoiy o‘z ona tilini o‘n sakkiz ming olamdan ortiq deb hisoblaydi. Uning xazinalari durlarga to‘la, uning gullari osmon yulduzlaridan ham ravshanroq deb biladi.

Turkiy va forsiy tillar muhokama va musohabasiga bag‘ishlangan «Muhokamat ul-lug‘atayn» asarida turkiy til boyliklari va imkoniyatlari boshqa tillardan qolishmasligini xolis baholaydi.

Ma’lumki, mumtoz she’riyatda yor tasviri, holati, uzvlari tasviriga oid tashbehlarni chiroyli va takrorlanmas ko‘rinishda qo‘llash san’atkor mahoratini belgilovchi omil hisoblanadi. Bu jihatning sharq she’riyatida nodir namunalari yaratilgan. «Muhokamat ul-lug‘atuyn»asarida Navoiy yor (mahbub, oshiq)tasviriga doir so‘z va iboralarni boshqa tilda uchramaydigan ko‘rinishlarini keltiradi.

Masalan ***qimsanmon (tortinmok), qizg‘anmok, chukur (oshiq oyog‘iga kirgan tikan), termulmagi, bezanmak, qabog‘*** so‘zlari faqatgina turk lafzi bo‘lib, fors-tojik tilida uchramaydi. Navoiy yozadi: «Va xo‘blar ko‘z va qoshlari orasinkim , qabog‘ derlar. Forsiyda bu uzvning oti yo‘qdur. Masnaviyda bir jamoat xo‘b ta’rifida mundoq deyilibdurkim,

bayt:

Mengizlari gul-gul, mijalari xor,
Qabog‘lari keng-keng , og‘izlari tor »

Navoiy o‘z asarida turkiy so‘zlarning bir necha ma’no ifodalashini ko‘rsatadi. ***Sog‘in*** so‘zining besh ma’nosini: *yod qilmok, sutluk qo‘y, ishq masti va majnuni, bemori muqobala* kabi ma’nolarini yoritib beradi.

Navoiy asarlarida bir so‘zning turli ma’no ko‘rinishda tovlanishi ham bu til imkoniyatlari kengligini dalillaydi.

Abdurauf Fitrat esa turkiy tilning imkoniyatlarini, so‘z boyligini arab tiliga solishtirib ochmoqchi bo‘ladi. Fitrat ham Navoiy tanlagan yo‘ldan borib, arab tilida muqobili bo‘lmagan ko‘plab o‘zbek so‘zlarini keltiradi. Birgina ilm so‘zining turkcha varianti ***bilim*** so‘zini keltirib, uning ***bil-*** o‘zagidan 98 so‘z formasi yasalganligini ko‘rsatadi. Buni turkiy (o‘zbek) tilining baxti deb biladi.

Fitrat aytib o‘tgan o‘zbek tilining baxtsizligi nimada? Maqolada muallif bunga bir qator faktlarni ko‘rsatib o‘tadi.Avvalo o‘kinch bilan shularni eslaydiki, dunyoning eng buyuk qomusiy olimlari Ibn Sino, Farobiy, arab tilini mangulikka kirgizgan Javhariy, buyuk tasavvuf ta’limotining yetakchisi Jaloliddin Rumiy, ma’nilar otasi Bedillarning barchasi turkiy zamin farzandlari ekanligi holda, o‘z asarlarini ko‘plari arab, fors tilida yaratgan.

Fitratning bu qarashlari orqali ulug‘ ajdodlarimiz amalga oshirgan ishlar aslo kamsitilmagan. Negaki, til – vosita. Fitratning orzusida jon bor. Millat uchun qayg‘urish bor. O‘z zamonasida millatning boshiga tushgan baxtsizlikda tilning baxtsizligini ham ko‘radi.

Qullik ham, erkinlik ham tildan boshlanadi. Xalqimiz o‘tmishi qanchalik murakkab yo‘lni bosib o‘tgan bo‘lsa, tilimiz ham bundan kamini ko‘rmadi. Til – avvalo ijtimoiy

hodisa. Jamiyat taraqqiyoti unga katta ta’sir koʻrsatadi. Lugʻat boyligi kengayib boradi. Lekin, bu oʻz tilini unitish , kamsitish hisobiga boʻlmasligi lozim. Avlodlardan-avlodlarga meros qoladigan asosiy boylik – Til. Ona tili bor ekan, Vatan bor,Millat bor. Xalqning umr ulchovini tili belgilaydi, balki dunyo miqyosidagi nufuzini koʻrsatadi.

Shukrki, bugun tilimizga boʻlgan e’tibor oʻz oʻrnini topmoqda. Ish yuritish, diplomatik munosabatlar hamma-hammasi oʻzbek tilida amalga oshirilmoqda. Aslida ham shunday boʻlishi zarur. Manaman degan jahon sporti shohsupasida oʻzbek kalimasi yangramoqda. Bundan esa koʻngil gʻurur, faxr tuygʻusini tuyadi. Shoir Jamol Kamol aytganidek: «Sen tilni sharafla, el uchun nomus bil…Yoʻllarni yoritguvchi goʻzal fonus bil».

Xulosa qilib aytganda, ona tilini sevish ham vatanparvarlik belgisi, ajdodlar ruhiga hurmat ramzidir. Oʻz tilini hurmat qilgan xalq oʻzligini, oʻz gʻururini asrab-avaylagan boʻladi. Ona tiliga muhabbat har bir soʻzning ma’nosini chuqur anglagan holda ishlatish, uni yaxshi bilish, asrab-avaylash kabi fazilatlarda namoyonboʻladi. Shunday ekan, biz, ayniqsa oʻzbek tili oʻqituvchilari tilimizning beqiyosligini, rang-barangligini, kelgusi avlodga teran yetkazishimiz muqaddas burchimiz ekanligini aslo unutmasligimiz kerak. Zero, davlat tili birligimiz, borligimiz ramzidir. Shuningdek, ayni damda yoshlarimiz ongiga milliy gʻurur va nafosatni yuksaklarga koʻtarishni mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy jihatdan taraqqiy etishi, xalqaro obroʻ-e’tiborining yuksalishi uchun ona tilimizni yanada boyitish, uni puxta egallashimizga ham koʻp jihatdan bogʻliq ekanligini takror va takror uqtirishimiz zarur. Ana shunda yosh avlod qalbida tilimizga yanada mehr oshadi, kelajakda ular oʻz ma’naviy barkamolligini koʻrsata olishi, shubhasizdir.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA TIL MA’NAVIYATI

Gulshoda BAHRIDDINOVA,
NavDPI Oʻzbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

“Yorvordi-ya!” , “Udar qildi!” , “Vaxima ekan” , “Yondirarkan” kabi jumlalar tez-tez qulogʻimizga chalinib turadi. Bunga odatiy hol sifatida qarashga ham ulgurdik.Ammo hech oʻylab koʻrganmisiz,biz qachondan ularni qoʻllay boshladik? 10 yilmi, 25 yilmi yoki 50 yilmi? Toʻgʻri javob:3-4 yil.Bugun jamiyat a’zolarining deyarli 90%i ijtimoiy tarmoqlarda faol. Ommaviy axborot vositalari sodir boʻlayotgan voqealarni aholining katta qismiga yetkazishga xizmat qilgani singari Facebook, Instagram,Telegram,Twitter kabi media makonlar yuqoridagi soʻzlar foydalanuvchilarning iste’moliga nihoyatda tez sur’atda kirib borishiga zamin yaratadi. Endilikda tilimiz sofligiga faqatgina oʻzlashma soʻzlar emas,balki tilimizda mavjud boʻlgan soʻzlarning oʻzgargan semalari ham putur yetkazmoqda. Masalan,”dahshat” soʻzi “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da quyidagicha ta’riflanadi: “Dahshat. 1.Nihoyat darajadagi qoʻrqinch,xavf,vahima. 2.Azob-iztirobga soluvchi mudhish ahvol,voqea-hodisa,manzara. 3.Ortiq darajada qoʻrqqan,vahimaga yoki azob-iztirobga tushgan kishining koʻrinishi,ruhiy holati.” Biroq jamiyatimizda ushbu soʻz oʻzining qoʻrqinch semasini yoʻqotib, “juda ajoyib”, “ ta’rifiga til ojiz” birliklari bilan ma’nodoshlik hosil qila boshladi. Yoxud “it” soʻzi hozirda “biror turdagi mahsulotning eng sifatlisi” , “rusumi oxirgi” ma’nolarida kelgani holda aslida lugʻatda “It.1.Uy-roʻzgʻorni qoʻriqlash,ov ovlash va sh.k. maqsadlar uchun saqlanadigan toʻrt oyoqli sutemizuvchi uy hayvoni.Koʻppak it. 2.Shu hayvonga nisbatlanuvchi haqoratni bildiradi. Bu yoqqa chiq,itlar! Oybek,Tanlangan asarlar. 3.Koʻchma.Birovning manfaatlarini himoya qilib ,boshqalarga zulm oʻtkazuvchi odam;malay.Musulmonqulning iti boʻlmasa,oʻzimizdan mingboshi boʻlarlik odam qurib qoluvdimi, deyman. A.Qodiriy,Oʻtgan kunlar.

Yana bir so‘z xususida to‘xtalishni joiz topdik. “Karl” iborasi ayni vaqtda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining hech qaysiga begona emas,ko‘p hollarda mohiyatini bilib-bilmay undalma sifatida ishlatiladi. “Nodon”, “uquvsiz”,”bir narsani tushunishi qiyin” birliklariga ekvivalent sifatida qo‘llanayotgan ushbu leksema ingliz filmlaridan biridagi qulog‘i eshitmaydigan bola obrazining nomi bo‘lib,kartina davomida ushbu nom mazax qilish maqsadida bolaning otasi tomonidan turlicha talaffuz qilinadi.

Bunday misollar qatorini hali davom ettirish mumkin,lekin shuning o‘ziyoq jamiyat vakillari orasida til ma’naviyatiga e’tibor qaratish zarurati mavjudligini anglatadi.

O‘ZBEK TILIDA TASAVVUFIY ATAMALAR

Madina YUNUSOVA,
Termiz davlat universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti talabasi

Annotatsiya. *Maqolada tasavvuf va uning tariqatlari, o‘zbek tilshunosligida tasavvifiy atamalarning o‘rganilishiga doir jihatlar tahlilga tortilgan. Shuningdek, “tasavvuf” atamasi ma’nosining lingvistik sharhi, bu istilohning o‘ziga doir izohlar, talqinlarning muqaddas kitoblarda berilmasdan, yaqin ma’nolarda talqin etilishi, ramz, timsol-tamsillarning mohiyatiga oid adabiyotlar tahlili keltiriladi. Bunda maqola muallifi Shayx Muhammadsodiq Muhammad Yusuf hazratlari, navoiyshunos olim Ibrohim Haqqul, Xamidulla Boltaboyev, Najmiddin Komilov singari yetuk olim va nazariyotchilar, ta’limot egalarining qarashlariga suyanib xulosa chiqarishga harakat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Islomda tasavvuf va uning inson kamolotidagi o‘rni,“tasavvuf” atamasi va unga lingvistik sharh, manbalarda tasavvufiy ramz, timsol-tamsillarning talqini.*

Tasavvuf – islom dinida insonning ruhiy olamini ruhiy va axloqiy jihatdan komillikka yetaklovchi tariqat. U poklanish haqidagi ta’limot bo‘lib, qalbni poklash, ruhni poklash va nafsni tarbiyat etish nazarda tutiladi. Tasavvuf haqida gap ketganda Muhammad Nurulloh Sayd al-Jazariyning fikrlarini keltirib o‘tish joizdir. U “Tasavvuf sirlari” asarida quyidagi fikrlarni bayon etgan: “Insonning ma’naviy olamini isloh etadigan, buzilgan qalblarning muolajasi uchun eng ta’sirli bo‘lgan, insonni haqiqatlar atrofiga to‘playdigan o‘ta foydali va mustaqil ilmdir”. Tasavvuf ilmiga kirmoq, avvalo, islom dinining beshta ahkomini bajarishdan boshlanadi.

Tasavvuf bu so‘fiylik demakdir. “Tasavvuf” so‘zining lug‘aviy ma’nosi yuzasidan ko‘p bahs-munozaralar davom etib kelmoqda. Chunki bu tushunchani hamma o‘z talqinicha qabul qilishadi. “Muhammad Yusuf Muso tahqiq qilgan “Al-aqiyda vash- shariya fil Islom” kitobida zikr qilinishicha, Nikolson hijriy beshinchi asrgacha bitilgan asarlardan tasavvufning 75 ta ta’rifini topgan. Abdul Qohir Bag‘dodiy ishonchli tasavvuf qutblarining ta’lifotlaridan mingga yaqin ta’rifni topgan.

“Qavoidut-tasavvuf” kitobida zikr qilinishicha, mashhur tasavvuf shayxi Ahmad Zarruq rahmatullohi alayhi 2 000 ga yaqin ta’rifni keltirgan. Ularning hammasi Alloh taologa sodiq tavajjuh qilish ma’nosidadir”, deya qayd etgan Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf o‘zining “Tasavvuf haqida tasavvur” kitobida (Toshkent: “Hilol-nashr”, 2021,33-bet).

“So‘fiy” (“sufiy”) va “tasavvuf” atamalari bir-biridan ajralmas tushunchadir. Ammo bu so‘zlarning qaysi asosdan kelib chiqqanligi haqida turli talqinlari uchraydi. Ba’zilar “so‘fiy” so‘zi “suffa”, “saf”, “safo”, “surf” so‘zlaridan yoki qadimda juda ham ko‘p ibodat bilan mashg‘ul bo‘lgan Sufa ibn Udd ibn Tlobixa ismidan kelib chiqqanligi haqida izohlar

keltirishadi. Biroq bularning barchasini ham mufassal va to‘g‘ri izoh deyish noo‘rindir. Arab tili lug‘ati jihatidan “so‘fiy” so‘zi “surf” so‘zidan kelib chiqqan degan variant ko‘proq monand bo‘ladi. Ibn Xaldun fikricha, “surf” so‘zining lug‘aviy ma’nosi “po‘stin, jun” degan ma’noni ifodalaydi. Ya’ni so‘fiylar “jun matodan kiyim kiyib yuruvchilar”dir . Bilamizki, qadimda ko‘p zikrda bo‘ladiganlar, obidlar oddiy jun matodan kiyim kiyib yurishgan. Bir rivoyatda ham Muhammad sollallohu alayhi vasallamning obidligi borasida “Ul zot jundan kiyim kiyar edilar” deya keltiriladi. Bu rivoyat Nabiy sollallohu alayhi vasallamning obid inson bo‘lganligini yana bir bor ta’kid etadi.

“Tasavvuf” atamasi na Qur’onda, na hadislarda uchraydi deyishimiz mumkindir. Ammo aynan atamaning o‘zi bo‘lmasa-da, shu ma’noni anglatuvchi boshqa tushuncha mavjud edi. Qur’oni Karimdagi “tazkiya” so‘zi mavjud bo‘lib, uning lug‘aviy ma’nosi “poklash” demak. Bu Rosululloh sollallohu alayhi vasallam olib kelgan to‘rt narsaning ichida bor edi. Bu to‘rt ilm quyidagilardan iborat edi:

Qur’on oyatlarini foniy bandalarga tilovat qilib berish;
Qur’ondan tahsil berish;
Sunnat amallarni o‘rgatish;
Ularni poklash.

Tasavvufning nazariy asoslarini o‘rganish va ishlab chiqish IX asr boshlarida shakllandi. Va shu bilan birgalikda TARIQAT, MA’RIFAT, HAQIQAT degan tushunchalar yuzaga kelib, tasavvuf yaxlit bir ilm sifatida taraqqiy eta boshladi. Bu tushunchalar bilan SHARIAT tushunchasi uyg‘un emasmi? Nega shariat bu qatorga qo‘shilmaydi mazmunidagi savollar yuzaga kelishi tabiiy hol.

Shariat va tariqatni bir-biriga zid qo‘yish ham, ularni farqlay bilmaslik ham nomaqbuldir. Shariat va tariqat ahllari o‘rtasida ixtiloflar va ichki ziddiyatlar azaldan ko‘p bo‘lgan. Ammo bir narsani esda tutmoq lozimki, shariatsiz tariqatga yetishish dushvor. Yassaviylik tariqatining asosiy g‘oyasi: “Shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma’rifat, ma’rifatsiz haqiqat bo‘lmaydi. Ular bir-birini takomillashtiradi”. Barchamizga ma’lumki, shariat “ilmi qol”, tariqat esa “ilmi hol”ga asoslanib ish ko‘rarlar. Har ikkisining ham asosiy manbalari Kalomulloh va Hadisi Sharif hisoblanadi. Alisher Navoiy ham o‘z o‘rnida ilmlarni 2 guruhga, ya’ni madrasalarda o‘qitiladigan ilmni “qol”zohiriy ilm , tariqat ilmini esa “hol”-botiniy ilmlarga ajratgan. Tasavvufiy manbalarda bu irfoniy maqomlarga turlicha majoziy va istilohiy ta’rif –tavsiflar ko‘p uchraydi. Masalan, shariat – teri, tariqat – go‘sht, haqiqat (“lubb ul-lub”, ya’ni “ichning ichi”) – suyak, ma’rifat esa ilikdir kabi tavsiflar keltirilgan.

So‘fiylar va ulamolar haqida Rifoiy rahmatullohi alayhi aytadi: “Ulamolar va so‘fiylarning nihoyasi birdir. So‘fiylar ko‘p ibodat va oz ilm bilan erishgan narsaga olimlar ko‘p ilm va oz ibodat bilan erishadilar”.

Tasavvufiy atama, ramz, timsol-tamsillar o‘zbek tilida, adabiyoti va san’atida ko‘p uchraydi. Tasavvufning asl ma’no-maqsadini o‘rganishga turli olimlar harakat qilishgan va bu hozirda ham davom etmoqda. Tasaffufning ma’nosi, vazifalari, atama va ramzlari bo‘yicha olimlar tomonidan ko‘pdan ko‘p asarlar, risolalar yozilyapti. Navoiyshunos olim Ibrohim Haqqulning “Navoiyga qaytish” asarlar to‘plami, Shayx Muhammadsodiq Muhammad Yusufning “Tasavvuf haqida tasavvur”, Xamidulla Boltaboyevning “Islom tasavvufi manbalari”, Najmiddin Komilovning “Tasavvuf” kabi asarlari tasavvufni o‘rganishda ilmiy qo‘llanma vazifasini o‘taydi. Hadisi Sharifda “Olimlar- Payg‘ambarlarga voris!” deb bejiz aytilmagan. Shu bois tasavvufchi olimlar siz-u bizga har bir atama izohlarini, orifona she’rlardagi ramz va timsollarning qaysi ma’noda kelayotganligini imkon qadar yoritib berishga harakat qilgan.

ADABIYOTLAR

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. – Toshkent: Hilol-nashr, 2021.
2. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr, O‘zbekiston, 2009.
3. Ibrohim Haqqul Navoiyga qaytish. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti, 2007.
4. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. – Toshkent: Tafakkur, 2021.
5. Boltaboyev X. Islom tasavvufi manbalari. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005.

4-SHO‘BA
TIL TA’LIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUV

ONA TILI TA’LIMINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Xolbibi QURBONOVA,
NavDPI O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlar nomzodi

Bugungi kunda ona tili ta’limini o‘qitishda bir qancha zamonaviy yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos ta’lim mazmuni va metodologiyasiga ega. O‘quvchiga muayyan tilni o‘rganish metodikasini taklif qilishda o‘quvchining maqsadlari muhim hisoblanadi, ushbu maqsad asosida til o‘rganish jarayonida zarur bo‘ladigan barcha vositalar (metodika, o‘rganish uchun taqdim etiladigan materiallar, yondashuvlar, baholash usullari) tanlanadi va tadbiq etiladi.

Til ta’limida zamonaviy yondashuvlar haqida gap ketar ekan, bugungi kunda til o‘qitishda amalda qo‘llanib kelinayotgan yondashuvlar: kognitiv yondashuv, kommunikativ yondashuv, integrativ yondashuv, interfaol yondashuv, innovatsion yondashuvlar ahamiyatli hisoblanadi.

Innovatsion yondashuvlar tilni o‘rganishda aloqadorlikka (fanlararo aloqadorlik, vositalararo aloqadorlik, baholashda aloqadorlik) tayanishi yuqorida keltirilgan zamonaviy vositalar rivojlangan xorijiy davlatlar ta’lim tizimida ona tilini o‘qitish tajribasi, metodlari va ulardan foydalanish, ularga tayanib, tilning omilini his qildirishga asoslanadi. Shuningdek, qabul qilingan Milliy o‘quv dasturi mazmuni ham ushbu yo‘nalishning tamoillariga ham to‘la mos bo‘lib, dastur asosida o‘qitilgan o‘quvchidan kelajakda maktabda olgan bilim, ko‘nikma va malakalaridan foydalanib, shaxsiy, kasbiy, ijtimoiy hayotida qo‘llay oladi.

Interfaol yondashuvda zamonaviy dars shakllar intellekt xarita, klaster,guruhlarda ishlash, BBB usuli kabilar.

Intellekt xarita yaratish texnologiyasining mazmun-mohiyati haqida metodistlar quyidagi fikrlarni bayon etishgan.

O.Saidaxmedov “Til ta’limida universal model – intellekt xaritadan foydalanish” nomli maqolasida intellekt xarita yaratish texnologiyasi mohiyatini ochib bergan: “… universal modellardan biri bu – intellekt kartadir [O.Saidahmedov, 2003].

Vositalararo aloqadorlik mazmuni, uni tashkil etishning pedagogik-psixologik maqsadi ham o‘zgarishga uchradi. Ta’limning bugungi vazifasi o‘quvchilarni kun sayin oshib borayoitgan axborot – ta’lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iboratdir. Bugungi kun o‘qituvchsi tayyor elektron resurslardan foydalanib dars o‘tish bilan chegaralanmasdan, balki ta’limiy resuslarni yaratishi hamda ularni amalda qo‘llovchi, o‘qitishning zamonaviy texnologiyalaridan samarali foydalanishi, fan va uning tarkibiga kiruvchi bilimlar mazmunini o‘quvchilarga yetkazish malakasiga ega shaxs sifatida faoliyat olib borishi lozim[Daniyarov,2012:6] Darhaqiqat, bugungi kun o‘qituvchisi faqat tayyor shaklda bilimlarni taqdim etmasdan, o‘quvchilarni bilim olishga qiziqtirishi, ularning ijodkorlik qobiliyatlarini takomillashtirishni, o‘z- o‘zini tahlil qilish, o‘z ustida ishlash va bilimlarini rivojlantirishni,ya’ni o‘qishni, bilim o‘rgatishi kerak. Bunday usul o‘quvchilarni tayyor bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi,

shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi.

Bugungi zamon talablari va jamiyat ehtiyojiga ko‘ra barcha sohada yangi-yangi islohotlarning amalga oshirilayotgani innovatsion yondashuvlar asosida jadal ishlashni talab qilmoqda. Shu ma’noda, xalq ta’limi tizimining umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun nashrga tayyorlanayotgan darsliklarning DTS, o‘quv dasturlari mazmuni, malaka talablari, kompetensiyaviy yondashuv, PISA, PIRLS kabi xalqaro baholash tizimi talablari asosida takomillashtirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ona tili fani o‘quvchiga o‘z fikrini og‘zaki yoki yozma shaklda ixcham va lo‘nda ifodalash, mustaqil, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu ma’noda mazkur fanlardan nashr qilinajak darsliklar mazmuni o‘quvchi uchun amaliy ahamiyatga ega, nihoyatda foydali bo‘lishi lozim. Ammo darslikdagi hamma o‘quv materiallari ham bu jarayonda faol ishtirok etavermaydi. Jumladan,imlo qoidalari, tinish belgilarining ishlatilishi, to‘g‘ri talaffuz qoidalari haqidagi ma’lumotlar har bir o‘quvchi uchun hayotiy faoliyatda juda muhim, biroq ayrim grammatik qoidalar, murakkab tasniflar, haddan ortiq nazariy ma’lumotlar bo‘lajak tilshunos (bir sinfda ko‘pi bilan ikki foiz bo‘lishi mumkin) uchun qimmatlidir, lekin bo‘lajak huquqshunos, jurnalist, shifokor, tadbirkor, fermerlarga ertangi hayotida fikr ifodalash uchun deyarli ahamiyatga ega emas. Demoqchimanki, ona tilini o‘qitishda o‘quvchi o‘zlashtirgan grammatik bilimini nutqiy vaziyatlarda faol qo‘llay olishi lozim. Bunda o‘quvchining tasavvur olamini boyitish va uni ifoda eta olish, lug‘at boyligini kengaytirish, to‘g‘ri talaffuz hamda nutqiy vaziyat jarayonidagi ko‘nikmalarni rivojlantirish lozim.

ADABIYOTLAR

1.Saidahmedov O. Intelekt xaritadan foydalanish. Ta’lim taraqiyoti. 2003.
2. Daniyarov B.Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim sifatini oshirishda innavatsion texnologiyalar. // Ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot- kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish: muammo va yechimlar to‘plami. – T., 2012.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA O‘QUV ADABIYOTLARINING AHAMIYATI

M.S.QAYUMOVA,
f.f.n., dotsent
SH.A.O‘TKIROVA,
NavDPI magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining chet tili kompetensiyalarini shakllantirishda darslik va o‘quv qo‘llanmalarining ahamiyati hamda ular uchun tuzilgan zamonaviy darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratish bilan bog‘liq muhim masalalar muhokama qilingan. Zamonaviy o‘quv materiallari o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini, ruhiyatini, ambitsiyalarini va boshqa ekstralingvistik omillarni hisobga olgan holda o‘zaro ta'sir vositasi bo‘lib xizmat qiladigan nazariy va amaliy bilimlar bilan boyitilgan bo‘lishi kerak.

Annotation: The importance of textbooks and manuals in the formation of foreign language competences of pupils at the junior school age and some essential matters connected with the creation of modern textbooks and manuals compiled for primary classes have been discussed deeply in this article. Modern academic materials must be enriched with theoretical and practical knowledge which can serve as an interaction tool, taking into

account the age characteristics of students, psyche, ambition and other extralinguistic factors.

Kalit so‘zlar: chet tili kompetensiyalari, mustaqil o‘rganish (self study), nutqiy malaka, intellektual salohiyat, intensifikatsiya, optimizatsiya, kommunikatsiya va interaksiya vositasi, til o‘zlashtirish, Mutanosiblik nazariyasi, Tillararo nazariya, tillararo/aralash kod.

Key words: foreign language competencies, independent study (self study), speaking skills, intellectual potential, intensification, optimization, communication and interaction tool, language acquisition, Theory of Proportion, Theory of interlanguage, interlingual/mixed code.

Har bir davlatning rivoji, porloq kelajagi, ertangi kuni va jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashi shu davlatda bugungi kunda ta`lim-tarbiyaga qaratilayotgan e`tiborga bog‘liqdir.

Yurtimizda chet tillarni o‘rganishning kundan kunga rag‘batlantirilishi, kichik yoshdan chet tillarini muloqot darajasida o‘zlashtirishga oid chora tadbirlarning amalga oshirilishi ta`lim sohasidagi islohotlarning samarasidir. So‘nggi yillar mobaynida yurtimizda olib borilayotgan ta`lim sohasidagiilohotlarning deyarli barchasita`limni yanada rivojlantirish, ta`lim sifatini oshirish, chet tillarini o‘rganishni keng targ‘ib etishga qaratilgan bo‘lib, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son Qarori,Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-sonli “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2022-yil 7-iyundagi “Yoshlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va shu kabibir qancha qaror va farmonlar xorijiy tillarni mukammal o‘rganishni qo‘llab – quvvatlatlash, rag‘batlantirish, yoshlarga 10 ta asosiy chet tillarini o‘rganishlari uchun moddiy va amaliy yordam ko‘rsatishni maqsad qilganligi fikrimizning yorqin dalili bo‘la oladi.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish Agentligiga xorijiy tillarni o‘rganishni aholi orasida ommalashtirish, xalqaro tan olingan dastur,zamonaviy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarni ta`limning barcha bosqichlarida joriy etilishini muvofiqlashtirish, bu borada o‘qituvchilarning ilg‘or o‘qitish ko‘nikmalarini rivojlantirish, “ bog‘cha – maktab – oliy ta`lim tashkiloti – korxona”tamoyilidagi uzluksiz ta`limzanjirini joriy etish maqsadida aholining barcha qatlamlariga mos bo‘lgan tilni o‘rganish bo‘yicha uslubiyot va tavsiyalarni ishlab chiqishni muvofiqlashtirish kabi vazifalarning yuklatilishi natijasida xorijiy tillarni o‘rganishni yanada yuqori bosqichga olib chiqish nazarda tutilgan.

Jumladan , ingliz tilini o‘rgatishni maktabgacha ta`lim muassasalaridagi hattoki kichik yoshdagi guruhlarda o‘yinlar vositasida, keyinchalik katta yoshdagi guruhlarda mashg‘ulot tarzida tashkil etish, hamda bularning uzviy davomi sifatida boshlang‘ich sinflarda, ya`ni 1-sinfdan 4- sinfga qadar tizimlashtirilgan holda o‘qitish kelgusida nafaqat bir yoki ikkita xorijiy tilni, balki ko‘p tillarni effektiv o‘rganish uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Dars jarayonida va mustaqil o‘rganish (self-study) uchun foydalaniladigan dasturlar,darsliklar, tavsiya va uslubiy ko‘rsatmalarning o‘quvchining til ko‘nikmalarini shakllantirishida ahamiyati katta. Ammo,dasturlar va ularga tayangan holda ishlab chiqarilgan darslik va qo‘llanmalarning barchasi ham samarali natija bera oladigan, intensiv, mukammal va albatta xatolardan holi deb aytib bo‘lmaydi.Bizning fikrimizcha, darsliklarda nutqiy malakalarni (o‘qish, yozish, tinglab tushinish, gapirish) oshirishga qaratilgan mashq va topshiriqlar o‘quvchilarningyoshi, aqliy salohiyati, tilni bilish darajasi va boshqa ekstralingvistik

omillarni hisobga olgan holda soddadan murakkabga boradigan tarzda berilishi zarur. Shu oʻrinda oʻqituvchining zamonaviy texnologiylardan xabardor boʻlishi, multimedia vositalaridan darsda oʻrinli foydalana olishi, oʻquvchilarning psixologik, fiziologik va intellectual salohiyatini hamda kommunikativ ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta`lim berishi, kasbiy kompetentligining ham oʻquvchilarning ta`lim olishida ta`siri beqiyosligini ta`kidlash zarur.

Boshlangʻich sinflar darsliklarida qoida, nazariy bilimlarni oʻrganishdan koʻra, amaliy koʻnikma va malakalarni egallashni tezlashtirish (intensifikatsiya), hamda yengillashtirish (optimizatsiya) maqsadlariga yoʻnaltirilgan holda, oʻquv jarayonida nutqiy amaliyot birlamchi vazifaga aylangan. Kichik yoshdagi til oʻrganuvchilar (6-7 yosh) berilgan materialni mexanik tarzda, toʻliq anglamay turib yod olishi bu chet tili kommunikatsiya va interaksiya vositasi darajasida oʻzlashtirildi degani emas. Bu borada oʻquvchi nutqiy faoliyat yuritish maqsadida erkin fikrlashi va xatolarga yoʻl qoʻyishi tabiiy jarayon sifatida qaralib, xatolar oʻquvchining nutqiy faoliyat maqsadida ijod qilayotganligidan dalolat beradi. Oʻqituvchi esa xatolarni ijobiy tahlil qilishi va kelajakda bartaraf etish choralarini koʻrishi lozim. Chunki kichik maktab yoshidagi oʻquvchilar (6,7-10 yosh)oʻrganayotganchet tilida asosiy e`tibor shaklga emas, mazmunga qaratiladi, ya`ni chet tili nutqiy muhiti yoʻq, tabiiy sharoitda emas, sun`iy muhitda muloqot vositasi sifatida oʻzlashtirilayotgani bois ta`limining samaradorligini ta`minlashda oʻquvchilarning til oʻrganishga layoqati va ishtiyoqi muhim omil sanaladi.

Boshlangʻich ta`limda xorijiy tillarni oʻqitish metodikasida “til oʻzlashtirish” va “til oʻrganish” terminlari farqlanadi. “Chet til oʻrganish” termini ushbu tilda gapirish, tinglab tushunish, oʻqish va yozuv koʻnikma va malakalarini egallanishidir. Chet tili oʻquv predmeti hisoblanib, boshlangʻich sinflarda haftasiga 2 soat vaqt ajratiladi, muloqot qilish uchun yetarli vaziyat ham, aniqrogʻi yetarli vaqt ham yoʻq, til boʻyicha belgilangan A1 darajaning ta`lim mazmunidan kelib chiqib,maxsus til materiali majburiy ravishda chegaralangan miqdorda tayyorlanadi. Oʻquvchi faqatgina oʻquv dastur va oʻquv rejada belgilangan nutq mavzulari doirasida chet tilida gapirishga majbur boʻladi.

Til sharoiti tushunchasidan kelib chiqib zamonaviy metodikada kichik maktab yoshida chet tilini tabiiy muhitda oʻzlashtirishva uni maktab sharoitida oʻrganilishining obyektiv qonuniyatlarini ilmiy jihatdan asoslovchi nazariyalar ishlab chiqilgan boʻlib, bular: “Mutanosiblik nazariyasi” va “Tillararo nazariya” dir. Ushbu nazariyalarga koʻra, chet tilini oʻzlashtirish jarayoni kognitiv va kreativ faoliyat sifatida talqin etiladi. “Mutanosiblik nazariyasi” da ona tili va chet tilini oʻzlashtirish jarayoni bir xildir. Unga muvofiq tillararo interferensiya chetlab oʻtiladi va nutq namunalari qismlarga boʻlinmasdan yaxlit oʻrganiladi. Mazkur nazariyaga asosan, chet tili elementlarini (tarkibiy qismlarini) oʻzlashtirish jarayoni ona tilini oʻzlashtirish jarayoni bilan aynan oʻxshash (parallel), avval nutqiy kompetensiyalar, keyin yozuv, fonetika, leksika, grammatikani izchil oʻzlashtirish amalga oshiriladi.

“Tillararo nazariya” da esa chet tilini oʻrganish jarayoniga ta`sir etuvchi barcha omillar: til oʻrganuvchining yosh xususiyatlari, psixologik, fiziologik rivojlanishi, aqliy salohiyati, bilish faolligi, ta`limning mazmuni, maqsadi va unga muvofiq ishlab chiqarilgan vositalari hisobga olinadi. Mazkur nazariyaga koʻra, til oʻrganish jarayonida oʻquvchi til tajribasiga tayanib chet tilidagi kommunikatsiyaning yangi lingvistik tizimi aralash - tillararo kodni shakllantiradi. Ya`ni ona tili tajribasi chet tilini oʻrganishda, soʻngra ularning har ikkalasi ham chet tilini egallashda (tillararo transpozitsiya va interferensiya) ijobiy va salbiy ta`sir koʻrsatadi. Shu boisdan darslik tuzishda tillararo interferensiya va oʻquvchining til tajribasi inobatga olinishi zarur. Ta`lim berishga moʻljallangan qoidalar

(nazariy bilimlar) amaliy koʻnikma va malakalarning egallanishini tezlatish va soddalashtirish maqsadlariga boʻysundiriladi.

Biz tomonimizdan oʻtkazilgan kuzatuvlar,tahlil va tajribalardan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash joizki, boshlangʻich sinf oʻquvchilariga chet tilini oʻrganishni qiziqarli hamda til koʻnikmalarini oson usullarda va zamonaviy metodlar vositasida egallay oladigan jarayonga aylantirish maqsadida quyidagi omillarga jiddiy e'tibor qaratilishi lozim:

1.Portfoliolar, mini proyektlar, multfilm va badiiy filmlarni subtitr bilan korish;

2. Chet tilini oʻrganishga motivatsiya bera oladigan syujetli, rolli, didaktik oʻyinlar va ertaklarni sahnalashtirish va sinf xonasining interyerini devoriy koʻrgazlamalar orqali jozibadorlashtirish;

3. Chet tilida muloqot muhitini yaratish;

4. Darsliklarni ham nutqiy, ham lingvistik kompetensiyalarni teng egallanishiga zamin yaratadigan, bilim, koʻnikma, malakalarni rivojlantiruvchi mashqlar bilan boyitish kabi muhim masalalarga katta ahamiyat qaratish .

ADABIYOTLAR

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Oʻzbekiston Respublikasida xorijiy tillarni oʻrganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son Qarori.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-sonli "Xorijiy tillarni oʻrganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi Qarori .
3. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi "Yoshlar muammolarini oʻrganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi Qarori.
4. Namangan Davlat Universiteti Ingliz tili oʻqitish metodikasi kafedrasi "Boshlangʻich sinflarda ingliz tili oʻqitish" fanidan oʻquv – uslubiy majmua. Namangan 2019-yil.
5. Jalolov J.J. Chet til oʻqitish metodikasi: Chet tillar oliy oʻquv yurtlari (fakultetlari) talabal ari uchun darslik. – T.: Oʻqituvchi, 2012. – 432 b.
6. Birdsong D., Bialystok E.,Hakuta K. Second Language Acquisition and the Critical Perio d Hypothesis.– L.: Lawrence Erlbaum associates publishers,1999. – p.182.
7.Pinter A.Chidren learning second languages. Research and practice in Applied Linguisti cs. – UK.:Palgrave & Macmillan, 2011. – p.308.

АНАЛИЗ РАЗДЕЛА «СЛОВООБРАЗОВАНИЕ» В ШКОЛЬНЫХ УЧЕБНИКАХ

Жумаева Феруза РУЗИКУЛОВНА,
Доцент кафедры русского языка и литературы
Навоийский государственный педагогический институт

Актуальность проблемы переходности в языке и речи, по мнению В.В. Бабайцевой, определяет, прежде всего, то, что учёные, преподаватели вузов и средних учебных заведений постоянно обнаруживают речевой материал, который нельзя разместить в пределах самых подробных классификаций [1, 4]. И добавляет: "Явления переходности в языке привлекали внимание многих лингвистов, не раз были предметом специальных исследований, но ряд вопросов, связанных с проблемой переходности, до сих пор остается нерешённым" [1, 5]. Важнейшие вопросы теории переходности освещены во многих исследованиях Веры Васильевны Бабайцевой [1, 15-25]; её наработки по теории переходности были обобщены, дополнены и систематизированы в монографии «Явления переходности в грамматике

русского языка» [1]. Наиболее существенными в исследовании являются тезисы о необходимости четкого разграничения понятия переходности в синхронном и диахронном аспектах, о том, что исчерпывающее исследование языковых единиц, явлений и категорий не может ограничиваться только анализом (синхронным или диахронным), необходим учёт динамического состояния грамматической системы языка и открытого межсистемного взаимодействия [1, с. 7, 34, 314].

Одним из вариантов пополнения частей речи и образования новых классов слов является процесс перехода (трансформации) слов из одной части речи в другую. Трансформацию квалифицировали как сложный процесс изменения свойств слов, который служит причиной перемещения слов из одной части речи в другую или из одного морфологического разряда в другой в пределах одной части речи. Следствием этого процесса является синкретизм (термин в научный оборот введён В.В. Бабайцевой). Синкретическими называются такие слова, которые сочетают в своей грамматической структуре (в категориальном значении, морфологических и синтаксических признаках) свойства двух или более частей речи [1, 17]. Итак, исследовательница акцентирует внимание на наличии среди языковых единиц элементов с двойными семантико-синтаксическими признаками. Транспозиционные перемещения, то есть синкретизм, по В.В. Бабайцевой, – это сочетание дифференциальных структурных и семантических оппозиционных единиц, связанных явлением переходности [1, 236].

Переходные явления учёные исследуют разнопланово как проблемы:

1) перехода и переходности; 2) взаимоперехода частей речи; 3) процессов грамматической омонимии, омонимии между частями речи, функциональной омонимии и тому подобное; 4) транспозиции; 5) конверсии; 6) морфолого-синтаксического словообразования; 7) деривации; 8) взаимодействия между частями речи; 9) трансформации; 10) трансориентации; 11) синкретизма; 12) контаминации; 13) теории современных функционально-грамматических исследований и тому подобное.

Диапазон “транспозиционных” проблем, которые изучают в современном языкознании, чрезвычайно широк. Понятно, что все указанные процессы взаимосвязаны, но не являются тождественными. Надо учитывать и то, что исследование явлений переходности в дальнейшем требует характеристики переходных явлений в свете новейших проблем, выявления общих и конкретных закономерностей переходных явлений на уровне частей речи, определения статуса промежуточных образований, унифицированного представления функциональных омонимов и гибридных слов в лексикографической практике, определения синкретического и контаминационного направлений в исследовании транспозиции частей речи и т. д. [4, 82]

Раздел «Словообразование» появился в школьных программах в 1970 году. Он изучается вместе с морфемикой, а затем при знакомстве с частями речи рассматриваются соответствующие способы их образования.

«Словообразование» в школьном курсе занимает особое место. Слово как единица словообразования исследуется с двух сторон: со стороны его состава (морфемная структура слова как результат морфемного анализа) и со стороны его образования (словообразовательная структура слова как результат словообразовательного анализа).

В ходе работы над данным вопросом мы ознакомились с содержанием учебников «Русский язык» для школ общего среднего образования с русским языком

обучения Узбекистана. Нас интересовал вопрос о том, каков объём часов, как представлен учебный материал по разделу «Морфемика. Словообразование» в данных учебниках, так как в современном школьном курсе словообразовательные понятия изучаются на всех ступенях обучения.

В школах с русским языком обучения Республики Узбекистан понятия о морфемике и способах словообразования изучаются с начальных классов: уже во втором классе учащиеся подробно изучают состав слова, знакомятся с такими понятиями, как *корень, сложные слова, окончание, приставка, суффикс, значения суффиксов, основа слова, родственные слова, приставки и предлоги.* [6, 23-48]

В 3 и 4 классах изучается состав слова.

В учебнике «Русский язык» для 5 класса в параграфе §64: «Основные способы образования слов в русском языке» авторами в виде таблицы даны основные способы образования слов: морфологические и неморфологические. Как неморфологический способ образования слов представлен ПЕРЕХОД: *мороженое* мясо (прилагательное), *мороженое* (фруктовое) – (существительное). [2, 166-168]

Изучению способов словообразования посвящено 5 упражнений - с 385 по 389. Данные упражнения приучают школьников соотносить общее и частное в языке, ориентироваться в словообразовательной структуре слов, лучше осознавать особенности происхождения слов, законы словообразования в русском языке.

Словообразовательные упражнения имеют большое значение в развитии лингвистических способностей и в общем развитии младших школьников, способствуют возникновению интереса к языку, потребности в приобретении новых языковых знаний, стремления ясно и точно выражать свои мысли в слове.

В упражнении №387 изучается порядок словообразовательного разбора, также учащиеся должны составить словообразовательную цепочку по образцу. Владение словообразовательными моделями позволяет расширить словарный запас учащихся, вооружить их активным способом понимания значения новых слов, а для учителя – это эффективное средство объяснения значения производных слов, встречающихся в тексте на уроках чтения.

Хотя в 6 классе центральным языковым разделом является «Морфология»: от знакомства с функцией слов, относящихся к разным частям речи, учащиеся переходят к их детальному изучению, но словообразование изучается в разделе «Повторение изученного в 5 классе»: §3. Словообразование; §4. Словообразование. Орфография. [3, 6-8]

Также в 7, 8 и 9 классах повторяются, закрепляются и обобщаются знания об основных способах словообразования в современном русском языке.

В 10 классе способы словообразования изучаются более подробно: Морфемика и словообразование. [6, 27-32] В §7. «Способы словообразования» авторами дано следующее определение: «Неморфологический способ – переход слов одной части речи в другую (например, прилагательного и причастия в существительное): *столовая, мостовая, пирожное, трудящийся, заведующий, командующий»*. В представленных трёх упражнениях (Упражнения 43, 44 и 45) всего три примера на переход: в упражнении 43: *столовая, часовой (на посту);* в упражнении 44: *рабочий*. [6, 31-32]

В 11 классе изучается раздел «Синтаксис и пунктуация», изучение словообразования не предусмотрено в учебном плане.

Анализ учебных программ и учебников показал, что в школьном курсе русского языка неморфологические способы рассматриваются поверхностно, и в

учебниках можно найти материал, посвящённый только такому способу неморфологического словообразования, как переход из одной части речи в другую, хотя неморфологических способов – три, и в школьных учебниках очень мало примеров на переход. Подробно изучаются в школе только морфологические способы словообразования.

В педагогических вузах способы словообразования изучаются студентами на 2 курсе, в 3 семестре. В лексикон студентов-бакалавров вводятся такие термины как: *деривация, транспозиция, субстантивация, адъективация* и др. В 5 семестре при изучении раздела «Морфология» на занятиях по современному русскому языку изучению темы «Транспозиция частей речи» отводится 2 часа. Студенты изучают типы транспозиции, явления транспозиции (переноса) на уровне частей речи, лексико-грамматических разрядов и морфологических категорий.

Магистранты специальности 70111501 - Родной язык и литература (Русский язык и литература) педагогических вузов подробно знакомятся со всеми типами транспозиции в первом семестре на занятиях по дисциплине «Практическая функциональная грамматика». Лексикон студентов-магистрантов обогащается следующими новыми терминами и понятиями, используемых лингвистами для обозначения явлений транспозиции в русском языке: транформация, трансформациология, трансоминизация, конверсия, ономатоляция (переход в звукоподражательные слова), копуляция (переход в связки), функциональные омонимы и др.

Кроме типов транспозиции на уровне частей речи, магистранты изучают транспозицию на уровне лексико-грамматических разрядов:

- модели транспозиции на уровне лексико-грамматических разрядов внутри существительных: собственное / нарицательное существительное, транспозиция абстрактных имен существительных в конкретные, транспозиция одушевленных существительных в неодушевлённые;
- внутри качественных и некачественных адъективов;
- внутри глагола: транспозиция глаголов; основные типы транспозиции временных форм глагола в современном русском языке;
- внутри наречий: транспозиция качественных наречий в количественные;
- транспозиция внутри местоимений.

Учитывая вышесказанное, мы разработали следующие рекомендации для специалистов и учителей:

1) необходимо увеличить объём часов по изучению неморфологических способов словообразования в общеобразовательных школах и вузах;
2) в тематику внеклассных и внеаудиторных самостоятельных работ учащихся и студентов включать больше тем по изучению данной темы;
3) учащимся школ и вузов давать разнообразные виды и формы творческих заданий по изучению неморфологических способов словообразования: составление таблиц, подбор примеров из художественных произведений и интернет-ресурсов и др.;
4) разработать индивидуальные задания для самостоятельной работы учащихся;
5) необходимо разработать лингвометодическую систему непрерывного изучения разделов «Морфемика» и «Словообразование».

Использованная литература

1. Бабайцева, В. В. Явления переходности в грамматике русского языка [Текст] / В. В. Бабайцева. – М. : Дрофа, 2000. – 640 с.

2. Зеленина В.И., Рожнова М.Э. Русский язык. Учебник для 5 класса школ общего среднего образования с русским языком обучения. – Ташкент - «Узбекистан», 2020. – С. 166-168
3. Зеленина В.И. Русский язык. Учебник для 6 класса школ общего среднего образования с русским языком обучения. – Т.: «Шарк», 2017. – С. 6-8.
4. Зеленина В.И., Кон О.В. Русский язык. Учебник для 9 класса школ общего среднего образования с русским языком обучения. – Ташкент - «Узбекистан», 2020. – С. 100-102.
5. Ожоган В. Партикуляція прономінативних слів [Текст] / В. Ожоган // Наукові записки. Серія: філологічні науки (мовознавство). – Кіровоград : РВЦ КДПУ ім. Володимира Винниченка, 2000. – Вип. 23. – С. 81-89.
6. Рахматуллаева Г.М., Кельдиев Т.Т. Русский язык. Учебник для 10-х классов школ общего среднего образования с русским языком обучения. – Т.: Extremum-press, 2017. - 160 с.
7. Тохтаходжаева М.Х., Белова В.А., Вейцман Н.М. Русский язык. Учебник для 2 класса школ общего среднего образования с русским языком обучения. – Т.: - «Узбекистан», 2018. – С. 23-48.

TA’LIM TEXNOLOGIYALARI – SIFATLI TA’LIM POYDEVORI

Muhtabar SANOYEVA,
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar uzluksiz ta’lim tizimining harakatlantiruvchi kuchiga aylanib borayotgan ayni davrda ta’lim-tarbiya tizimiga yangicha ilmiy-uslubiy yondashuvlar kirib kela boshladi. Bu yondashuvlar, o‘z navbatida, o‘quv jarayonining turli tashkiliy va metodik jamg‘armalarida muayyan ijobiy o‘zgarishlarni sodir etadi, albatta. Ularning ko‘pchiligi pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat bilan uzviy bog‘liq o‘zgarishlardir. Bunday vaziyatda matn ustida ishlash bo‘lajak kadrlarning kasbiy kompetensiyasini to‘laqonli tarzda shakllantirish yo‘lida foydalanish kerak, albatta. Qolaversa, ta’lim-tarbiya jarayonlari uchun qimmatli bo‘lgan vaqt budjeti ham shuni taqozo etadi.

Ta’limda texnologiyalar 3 guruhga bo‘lib o‘rganiladi. Bular:

1) umumdidaktik texnologiyalar;
2) xususiy metodik texnologiyalar;
3) lokal texnologiyalar[276].

Umumdidaktik texnologiyalar – bu ta’lim jarayonida umumtexnologik qonuniyatlarni, ularning konseptual asoslarini, o‘qituvchi hamda o‘quvchining bilim darajasini namoyon etishdir.

Xususiy metodik texnologiyalar – ma’lum bir fanni, jumladan, ona tilini o‘qitishda, uning maqsad va vazifalarini belgilashda, ona tili ta’limini o‘quvchilar ongiga singdirishda amaliy ahamiyat kasb etadigan vositalardir.

Lokal texnologiyalar – ona tili ta’limi jarayonida maxsus didaktik va tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishni nazarda tutadigan texnologiyalar.

Ushbu ta’lim texnologiyalari nafaqat o‘qituvchiga qulaylik yaratish maqsadida, balki dars sifati samaradorligini oshirishda, texnik imkoniyatlarni yanada kengaytirishda samarali vositalardan bo‘lib xizmat qiladi.

[276] Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004. – 104 b.

Har qanday ma’lumotni qay darajada o‘zlashtirish o‘quvchining xohish irodasiga bog‘liqdir. Psixologik nuqtai nazardan darsda, ayniqsa, yangi dars bayonida o‘quvchini qiziqtirish lozim. Aks holda, harakat samarasiz bo‘lishi mumkin. Shu ma’noda matn mavzusini o‘qitishda ham turli noan’anaviy dars usullaridan foydalanish lozim. Matnni o‘qitishda o‘quv materiallarni o‘quvchilarga qaysi metod orqali tushuntirish yaxshi natija beradi? Quyida matnga doir o‘quv materiallarini o‘qitishda qo‘l keladigan samarador usullar ustida ishlab, aytilgan fikrlarni ayrim misollar bilan asoslashga harakat qilamiz. Matn mavzusini o‘qitishda o‘qituvchilarni, o‘quvchilarni ham qiynaydigan mavzulardan biri mumtoz matnlardir. Mazkur mavzuni o‘quvchilarga o‘rgatishda quyidagicha yondashish mumkin.

1.***“Qiyoslash” usuli***. Bir predmet haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish uchun uni ikkinchisi bilan qiyoslash o‘quvchida birdan yorqin tasavvur hosil qiladi. Shu ma’noda o‘quvchiga ona tilini boshqa bir tilga yoki so‘zni omonimiga qiyoslab o‘rgatish eng samarali usuldir. O‘qituvchi ona tili darslarida, xususan, matn mavzusini tushuntirayotganda o‘quvchiga imkon qadar u o‘rganayotgan biror chet tilidagi zaruriy bilimlar bilan taqqoslasa, dars yanada samarali bo‘ladi. O‘qituvchining taqqoslanayotgan tilni qay darajada bilishi natijaga salbiy yoki ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Hududiy farqlanishga ko‘ra mumtoz matnlarda uchraydigan arabiy va forsiy so‘zlar bilan bog‘liq xatoliklar ko‘p uchraydi. Uni o‘qitishda grammatik topshiriqlar va interfaol usullardan o‘rinli foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, “Kim xattot?” usuli.

2. ***“Kim xattot?” usuli***. Sinf uch guruhga bo‘linadi. Qur’a tashlash yo‘li bilan ulardan biri ekspert, qolgan ikkisi bahslashuvchi jamoalarga ajratiladi. Ekspert guruhi jamoasi arabcha hamda forscha ishtirok etgan so‘zlarni aralash holda aytaveradi, bu so‘zlardan bir jamoa tarkibida arabcha ishtirok etgan so‘zlarni, ikkinchi jamoa tarkibida forscha ishtirok etgan so‘zlar qatorini yozib boradilar. Belgilangan vaqtda jamoalar ishi to‘xtatiladi. Ekspertlar jamoasi ikkala guruh ishlarini tekshirib beradi. Ish yakunida o‘qituvchi uchala guruh ishlarini ko‘rib chiqib baholaydi.

3. ***“Matndagi axborotni o‘zlashtirish darajasini aniqlash testi” metodi***. O‘quvchilarga matn taqdim etiladi. Berilgan matn mazmunidan anglashilgan tushunchalar asosida test topshiriqlari bajariladi. Masalan, quyidagi testlardan foydalanish mumkin.

HUNAR XOSIYATI

Aytishlaricha, Gushtasp (Erondagi kayoniylar sulolasining beshinchi hukmdori) kunlardan birida o‘z Vatanidan ayrilib, begona bir shaharga kelib qoldi. Uning yonida biror chaqa ham yo‘q edi. Yeyishga narsa topolmay, och qoldi. Birovdan so‘ray desa, izzat-nafsi yo‘l qo‘ymas edi. Uning yodiga yoshligi tushdi. U bolalik paytida maktabga borar ekan, yo‘l chetida joylashgan temirchi do‘koni oldida biroz to‘xtab, temirchilarning pichoq va bolta yasashlarini tomosha qilar edi va uning siridan birmuncha voqif bo‘lib qolgan edi. Gushtasp ko‘p o‘ylab o‘tirmay, temirchilarning oldiga bordi va ularga dedi:

– Ey birodarlar, temirchilik siridan ancha xabardorman, meni ham o‘zlaringga sherik qilib olsalaringiz.

Temirchilar rozi bo‘lishdi. Gushtasp bir necha muddat ishlab, pul yig‘di. So‘ng Vataniga qaytib bordi. **U martabaga erishgan paytida barcha yoshu qarini kasb va hunar o‘rganishga da’vat qildi.**

Bolalarni kunning avvalida o‘qitib, ikkinchi qismida hunar o‘rgatishga farmon berdi. (8-sinf, 35-bet)

Matn yuzasidan test savollari:

1. Matnda imloviy xatolikka uchragan so‘zning izohi keltirilgan javobni belgilang.

A) hokimiyat egasi;

B) temirni bolg‘alab, undan turli buyumlar yasaydigan hunarmand;

C) biror shaxsning or-nomusi yoki biror harakatni qilishga bo‘lgan uyat sharmi, g‘urur;

D) muayyan ko‘nikma, mahorat talab qiladigan mashg‘ulot.

2. Matn mazmuniga aloqasi bo‘lmagan maqol javoblarning qaysi birida keltirilgan?

A) Hunar – zar, hunarli – zargar.

B) Bir yigitga yetmish hunar oz.

C) Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo‘lar chiroylik.

D) Ona yurting omon bo‘lsa, rangi-ro‘ying somon bo‘lmas.

3. Matnda ajratib ko‘rsatilgan gap tarkibida mavjud teng bog‘lanishlar haqidagi to‘g‘ri hukmni aniqlang.

A) gapda ikkita teng bog‘lanish mavjud

B) teng bog‘lanishlardan biri bo‘g‘lovchi bilan birikkan

C) bog‘lovchi vazifasidagi yuklama bilan birikkan teng bog‘lanish uchraydi

D) barcha javoblar to‘g‘ri

4. Gapga aloqasi bo‘lmagan bo‘lak qatnashgan gapni toping.

A) Uning yonida biror chaqa ham yo‘q yedi.

B) Temirchilar rozi bo‘lishdi.

C) Gushtasp bir necha muddat ishlab, pul yig‘di.

D) – Ey birodarlar, temirchilik siridan ancha xabardorman, meni ham o‘zlaringga sherik qilib olsalaringiz.

5. Matndan chiqargan xulosangizni yozma (20-25 so‘z) bayon eting.

Ko‘rinadiki, ta’lim texnologiyalarini dars jarayonida samarali qo‘llash natijasida birgina topshiriqni bajarish mobaynida bir nechta zarur nutqiy ko‘nikmani shakllantirishga erishish mumkin.

ROSTGO‘YLIKNING BOLA TARBIYASIDAGI O‘RNI// BOLAGA DOIM ROST SO‘ZLANG

Shoira HAMIDOVA,
Samarqand davlat universiteti Tayyorlov markazi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Farzand Alloh taolo tomonidan insonlarga berilgan ne’matlarning sarasidir. U dunyoga kelgach, oilada o‘zgacha bir muhit, xursandchilik hukm suradi. Farzand ota-onaning ko‘z quvonchi, naslining davomchisidir. Farzand ota-onaga berilgan omonat hisoblanadi. Har bir ota va ona farzandi tarbiyasida mas’uldirlar. Bola tug‘ilgan paytida oppoq qog‘oz kabi toza bo‘ladi. Uning fe’lida hech qanday nuqson, kamchilik bo‘lmaydi. U “qog‘oz”ga nimani yozish va qanday yozish ota va onaning qo‘lida.

Bu haqida quyidagi hadisi sharifni keltirib o‘tish joiz. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “**Nabiy sallollohu alayhi vasallam: “Har bir tug‘ilgan bola faqat fitrat** (sof tabiat) **ila tug‘iladi. So‘ng ota-onasi uni yahudiy yoki nasroniy yoki majusiy qiladi. Bu xuddi hayvonning bus-butun hayvon tug‘ishiga o‘xshaydi. Quloq-burni kesilgan holda tug‘ilgan hayvonni ko‘rganmisiz?** ”[1] dedilar. (Imom Muslim rivoyati)

Bundan kelib chiqadiki, tarbiya insonning kelajagini belgilab beruvchi, ota-ona esa o‘sha kelajakni yaratuvchisi, me’mori, desak xato qilmasak kerak.

Fazilatli shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Baxtiyor oila” kitobida “Farzand tug‘ilgach, ota-onaning vazifalaridan biri chiroyli ism qo‘yish bo‘lsa, yana biri chiroyli tarbiya qilmoqdir”[2] deganlar.

Dunyoning hamma davlatlarida irqidan, dinidan, ijtimoiy holatidan qat’i nazar bola tarbiyasiga umumdavlat masalasi sifatida qaraladi. Bu xususda Sharqning o‘z tarbiya usullari bo‘lgani kabi G‘arbning ham o‘ziga xos yondashuvlari mavjud. Misol tariqasida Kaykovus o‘g‘liga nasihatnoma tarzida yozgan “Qobusnoma” asarida shunday deydi: “Bu jahon bir ziroatgohdur. Har nima eksang, shuni o‘rasan va har ne desang shuning javobini eshitursan”[3]. Ushbu asarning yana bir o‘rnida: “Ey farzand, bilgilkim, jahonda odamning bilmagan va tanimagan hech nimarsasi yo‘qdur. Magar Xudoyi taolo kim oning tarafig‘a tanimoq bila aslo yo‘l topmag‘usidir. Chunki ondin o‘zga barcha nimarsani taniding, ammo har vaqtikim o‘zingni tanisang oni tanursan”[4] deganida farzandiga Xoliqini tanish kerakligi uqtirilgan.

Yuqoridagi fiklardan anglashiladiki, farzand tarbiyasi har zamon va har makonda o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydi. Bugun e’tibor qaratmoqchi bo‘lganimiz rostgo‘ylik, ya’ni ota-onaning farzand bilan o‘zaro muomalalarida yolg‘on ishlatishlari nechog‘li xatarli ekanini ta’kidlash bo‘ladi. Bu o‘rinda yana bir hadisga murojaat qilsak. Abduloh ibn Omir roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: **“Bir kuni Rasulullоh sollalohu alayhi vasallam uyimizda o‘tirganlarida onam meni chaqirib: “Beri kel, bir narsa beraman ”, dedi.**

Shunda Rasulullоh sollalohu alayhi vasallam unga: “Nima bermoqchisan?” dedilar. “Men unga xurmo bermoqchi edim”, dedi. Shunda Rasulullоh sollalohu alayhi vasallam unga: “Ammo agar hech narsa bermaganingda, senga yolg‘on yozilar edi”, dedilar”. (Abu Dovud va Bayhaqiy rivoyat qilganlar).[5]

Kaykovus “Qobusnoma”ning 7-bobida farzandiga “suxango‘y” (notiq) bo‘lishini, lekin “durug‘go‘y”(yolg‘onchi) bo‘lmaslikni nasihat qiladi.[6] Bundan ko‘rinadiki, rostgo‘ylik tarbiyada alohida o‘rin tutadi. Farzand rostgo‘y bo‘lishi uchun esa ota-ona unga namuna bo‘lishi lozim.

Hazrat Alisher Navoiy o‘zining “Hayrat ul-abror” asarida bu mavzuga alohida bir bob bag‘ishlaydi. Asarning 10-maqolati “Rostgo‘ylik ta’rifida” deb nomlangan. Asarda rost va yolg‘on tushunchalariga bir qancha tashbehlar beriladi. Jumladan, yo‘l qancha to‘g‘ri bo‘lsa, maqsad shuncha yaqin; yo‘l egri bo‘lsa maqsad uzoqlashganiga ajablanish o‘rinsiz. Mistarning chizig‘iga yozuv to‘g‘ri kela bergach, qalam boshini ko‘tarmasdan yozgani yozgan. Unda bitta chiziq egri bo‘lsa, xatga bitta dog‘ tushadi; ko‘chirilayotgan nusxada esa har sahifada qiyshiq xat bo‘ladi.[7]

Bola tarbiyasi haqidagi mashhur kitoblardan biri “Bolaning uyg‘un rivojlanishi” (Гармоничное развития ребенка) kitobi muallifi Glen Doman shunday deydi: “Bola tug‘ilganidan (esini taniy boshlaganidan) aytilgan hamma narsani haqiqat ekanligiga ishonadi. Hech qachon bu borada shubhalanishiga yo‘l bermang. Siz uni aldab boshlagan zamoningizdan muhabbat saqlanib qoladi, lekin hurmat yo‘qoladi. Bu holatdan keyin uyalib qolmaysizmi?”[8]

Yaponiyalik Ibuka Masaru “Uchdan keyin kech” kitobida hali gapira olmaydigan go‘dak ota-onasining suhbatini eshitishi va olingan ma’lumotlarni miyasi o‘zlashtiishi haqida yozadi.[9]

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda aytish mumkinki, bolaga ota-ona har doim rost gapirishi shart va zarur. Bola tabiatan sezgir, rost va yolg‘onni ajrata oladi. Uning tarbiyasiga homilalik paytidayoq kirishish zarurligini ko‘pchilik ta’kidlashgan. Bu ota-ona ham homila paydo bo‘lmasidan o‘zlarini tayyorlashlari kerak degan xulosaga olib keladi. Bolaning yoshidan qat’i nazar ot-ona ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga majbur.

Ma’lumki, farzand ko‘proq ona bilan bo‘ladi, shuning uchun ona fazand bilanmi, boshqa oila a’zolari bilanmi muomala jarayonida juda ehtiyot bo‘lmog‘i, o‘zini isloh qilib borishi shart. Bola go‘dakligidayoq bizning munosabatlarimizdagi rost-u yolg‘onni ajrata olar ekan, ma’lum yoshga yetgandagi ochiq-oshkora yolg‘onlarimiz haqida gapirmasa ham bo‘ladi.

Oddiy misol. Qo‘shni ayol biror buyumimizni zarurat bo‘lgani uchun so‘rab chiqdi. Shu narsa o‘zimizda bor bo‘lgani holda “Voy, yo‘q edi-ya, esiz”, “Kechagina tugab qoluvdi” qabilida yolg‘on gapirasiz. Yonimizda turgan farzandimiz hech qanday munosabat bildirmasa-da, birgina yolg‘on tufayli bizni hurmat qilmay qo‘yadi (E’tibor qiling, yaxshi ko‘rmay qo‘yadi deyilmayapti). Mana shu holatda qo‘shnimizga so‘rab chiqilgan narsa o‘zimizga kerak ekanligini yolg‘onsiz ham tushuntirishimiz mumkin edi.

Ikkinchi misol. Ma’lumki, jamoat tansportlarida “7 yosh va unda katta bolalarga 100% yo‘lkira to‘lanadi” degan yozuv bor. Ona 8 yoshdan oshgan farzandini konduktorga 7 yoshga to‘lmagan, deb tanishtiradi. Tasavvur qilyapsizmi, ona arzimas pulni iqtisod qilish maqsadida bilib-bilmay farzandi tarbiyasida kechirib va tuzatib bo‘lmas xatolikka yo‘l qo‘ydi. Bunda bola psixologiyasida o‘zgarish bo‘lishi mumkin. U kattalarning hamma gaplari ham to‘g‘ri emasligi, yolg‘on gapirish mumkinligini ongiga singdiradi. Bolada o‘zining noto‘g‘ri harakatlariga javob berish mas’uliyati yo‘qolib boradi. Keyinchalik ham unga so‘z va amal birligi haqida ma’ruza o‘qib o‘tirish befoyda. Bolalar eshitganiga emas, ko‘rganiga qarab xulosa qilishadi. Bola g‘iybat, ikkiyuzlamachilik kabi illatlarni bizdan o‘rganadi. Har bir harakatimiz bolalarimizda aksini ko‘rsatadi. Yaxshi xulqimiz farzandlarimiz orqali jamiyatga foyda keltirsa, xulqimizdagi nuqsonlarni o‘ziga singdirgan bolalarimiz ertaga nevaralarimiz tarbiyasi boshida turishlari yodimizdan chiqmasligi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Odob-axloqqa doir 40 hadis. Toshkent: Azon kitoblari, 2021. B.6.
2. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. T: Hilol nashr,
3. 2020. B.281.
4. Kaykovus. Qobusnoma. T.: Poligafiya kombinati, 1994. B.24.
5. Kaykovus. Qobusnoma T.: Poligafiya kombinati, 1994. B.25.
6. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. T.: Hilol nashr, 2020. B.369.
7. Kaykovus. Qobusnoma. T: Poligafiya kombinati, 1994. B.35.
8. Alisher Navoiy. Hayrat ul- abror. www.ziyouz.com. B.66.
9. I.Masari. Uchgacha ayni vaqti. Akademnashr, 2021. B.56.

SOHADA O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH SAMARADORLIGI

Eshniyazova Maysara BEKNAZAROVNA,
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya.

Ushbu maqolada respublikamizda olib borilayotgan til siyosati, sohada o‘zbek tilini o‘qitishda kreativ fikrlashni, og‘zaki va yozma nutqni o‘stiruvchi, shaxsni shakllantiruvchi yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish yuzasidan fikr-mulohazalar hamda tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: til siyosati, savodxonlik, nutq madaniyati, og‘zaki nutq, yozma nutq, ta’lim usullari, sharh, lug‘at, 2x1, aqliy hujum, muammoli vaziyat, keys-stadi, FSMU, KKIT.

Mamlakatimizda o‘zbek tili va til siyosatini rivojlantirishga, uning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilashga, tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirishga, shuningdek unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalashga bugungi kunda alohida e’tibor qaratilib, bu masala davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son hamda 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**“**gi PF-6084-son farmoni qabul qilinishi ayni borada olib borilayotgan til siyosatining huquqiy mezonlarini belgilab beradi.

Har bir milliy tilning xalqaro miqyosdagi nufuziga, avvalo, uning jamiyatdagi ijtimoiy qadr-qimmati ulug‘lanishi orqali erishiladi. O‘zbek tilining mavqeyi mustahkamlanishida millatning har bir a’zosi birdek xizmat qilishi lozim. Shuningdek tilshunoslar, ziyoli qatlam vakillari, soha mutaxassislari zimmasida mas’uliyat bu borada yanada ortadi.

Oliy ta’lim muassasalarining nofilologik yo‘nalishda tahsil oluvchi talabalari uchun “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fani o‘quv dasturiga kiritilgan bo‘lib, o‘quv mashg‘ulotlarida talaba-yoshlar yozma nutqni amaldagi imlo qoidalariga mos bayon qila olish, og‘zaki nutqni madaniy nutq talablariga mos holatda tuza olish borasidagi ko‘nikmalarini o‘stirishlari hamda davlat tilida ish yurita olish mahoratini egallashlari talab qilinadi. O‘quv mashg‘ulotarini tashkil etish, darsni rejalashtirish jarayonida o‘qituvchilar zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalangan holda talabalarning ham og‘zaki, ham yozma nutqini o‘stirishga, ularning so‘z boyligini oshirishga e’tibor qaratishlari darkor. Demak, dars mashg‘ulotlarida ta’lim usullari shu maqsadga mufoviq holda tanlangani ma’qul.

Dars jarayonining faollashtiruvchi bosqichida motivatsion fikrlardan (hikmatli so‘zlar, maqol va hadislar) shior sifatida foydalanish mumkin. Masalan, “Jaholatning uch turi mavjud: umuman hech narsa bilmaslik, hamma bilgan narsalarni juda yomon bilish, lozim bo‘lmagan narsalarni bilish” (SH. Dyuklo), “Istamay mutalaa qilayotgan talaba – qanotsiz qush” (Sa’diy), “Har qanday donolikning zamini – sabr-qanoat” (Aflotun), “To‘rt narsa o‘lik dilni tiriltiradi: ustoz, yaxshi do‘st, muvofiq yor va davlatu iqbol sababchisi bo‘lgan dono aql” (Muiniddin Juvayniy), “Fikrat – daryo, g‘aflat ko‘lmakdir, Daryo – hayot, ko‘lmak o‘lmakdir” (E.Vohidov), “Yaratuvchanlik – bu aqlning vaqtichog‘lik qilishidir” (Albert Einstein), “Donishmandlikning bir foizi ilhomlanish va to‘qson to‘qqiz foizi harakatga bog‘liq” (Thomas Edison), “Quloqdan dilingga gar kirmasa nur, Sichqon kavagidan ne farqi bo‘lur” (A. Jomiy) kabi tajribada qo‘llangan hikmatli so‘zlarni tavsiya qilgan holda aytish joizki, berilayotgan aforizmlar mashg‘ulot mavzusiga bog‘liq bo‘lishi lozim. “Kun hikmati” rukni ostida havola qilinadigan bu kabi jumlalar talabalar tomonidan “**sharh**” usulidan foydalangan holda izohlanadi, fikr-mulohazalar bayon qilinadi.

Tahsil oluvchilarning yozma nutqini o‘stirish, ularda imlo xatolarisiz yozish ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek so‘zlar ma’nosini farqlagan holda qo‘llay olish malakasini oshirish uchun “**lug‘at**” usulidan foydalanish mimkin. Bu usulda odatda ko‘pincha imlo xato bilan yoziladigan qator unlili, qo‘sh va qator undoshli, “x” va “h”li,

tutuq belgili so‘zlardan, sohaga oid o‘zlashma terminlardan iborat o‘nta so‘zlik lug‘at diktant olinadi va xatolar ustida ishlanadi. So‘zlar imlosini eslab qolish uchun ushbu birliklar ishtirokida gaplar tuziladi (maqol, hiklamtli so‘zlar yoki qoidalar eslanishi ham mumkin).

“2x1” usuli yordamida paronim so‘zlardan iborat mashq bilan ishlash mumkin. Bunda o‘quvchi-talaba ham so‘zning ma’nosi bilan ishlab, nutqini uslubiy xatolardan asraydi, ham so‘zning imlosini eslab qolib, yozma nutqini orfografik xatolardan tozalaydi. Paronimlarni maqsadli tanlov asosida sohaga oid so‘zlar bilan boshlash ham mumkin: ablaq (ola-bula tusli ot) – ablah (o‘ta yaramas, razil, qabih), angar (ekin maydoni) – angor (aft, bashara, qiyofa), ariq (maxsus suv yo‘li) – oriq (ozg‘in, eti qochgan), arpa (bug‘doysimon g‘alla o‘simligi va uning hosili) – arfa (uchburchak shaklidagi nohin bilan chalinadigan musiqa asbobi) kabi. Mazkur usulda so‘zlarning ma’nosini va imlosini bilishdan tashqari, ularni izohlay olish, ma’nodoshlarini topish ko‘nikmalari shakllana boradi.

Og‘zaki nutqni o‘stirish, mantiqiy izchil fikrlash, voqelikni tanqidiy baholash, muammolarni aniqlash, ularning yechimlarini topishga harakat qilish va yangi g‘oyalarni ilgari surish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun “aqliy hujum”, “muammoli vaziyat”, “keys stadi”, “FSMU” kabi usullardan foydalanish mumkin.

“Aqliy hujum” metodi – biror muammo yoki savol bo‘yicha o‘quvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir echimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalari sanalgan barcha ta’lim oluvchilar qatnashishlari shartligi, bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalar, hatto ular noto‘g‘ri bo‘lsa ham inobatga olinishi, bildirilgan fikr-g‘oyalar baholanmasligi talabaga fikr, harakat, ifoda, tashabbus erkinligini beradi, ularni fikrining noto‘g‘ri ekanligidan istihola qilish, yomon baho olish xavfidan xalos etadi. “Aqliy hujum” metodida guruhga yangi mavzu bo‘yicha savol beriladi, O‘quvchilar tomonidan fikr va g‘oyalar bildiriladi, ular jamlanadi va guruhlanadi, aniq va to‘g‘ri javoblar tanlab olinadi va taqdimot qilinadi. Bu usulning yana bir ijobiy tomoni shundaki, ishtirokchilarda guruhli ishlash, suhbatdoshining fikrini eshitish, o‘zaro kelishuv, hurmat, munozaraga kirisha olish ko‘nikmalari ham shakllana boradi. Masalan, “Adabiy nutq me’yorlari” mavzusini o‘tishda “aqliy hujum” usulida “Nutq me’yorlarini yaxshi o‘zlashtirishning qanday omillarini samarali usul sifatida qo‘llash mumkin?” yoki “O‘zbek tili me’yorlari faqat ta’lim muassasalarida o‘rganiladimi?” kabi savollarni berish orqali talabalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish mumkin.

“Muammoli vaziyat” metodi – ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning echimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir. «Muammoli vaziyat» metodida muammoli vaziyat tavsifi beriladi, guruhlar muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar, uning oqibatlari to‘g‘risida fikr yuritadilar, so‘ngra muammoli vaziyatni echish yo‘llarini ishlab chiqadilar, to‘g‘ri echimlar tanlab oladilar va taqdimot qiladilar. Muloqot jarayoni va uning ko‘rinishlari haqida o‘tilishi rejalashtirilgan dars mashg‘ulotida muammoli vaziyat metodidan foydalanish o‘rinlidir. Darsda bu mavzuga oid “O‘zbek tilida muloqot qiluvchilarning savodxonlik darajasi nima uchun past?” degan muammoli savol yuzasidan talabalar guruhli ishlaydilar. Darsda talabalarni kichik guruhlarga birlashtirish orqali ishlashini tashkil qilish maqsadga muvofiq, chunki kichik guruhlar o‘rtasida raqobat muhiti paydo bo‘ladi, ishtirokchilar imkon darajasida chuqurroq fikrlashga, hodisaning mohiyatiga kirib borishga, muammoning hayotiy sabablarini aniqlab, optimal yechimlarni topishga harakat qiladilar, bir guruh boshqasidan kuchliroq bo‘lishga intilishi natijasida talabalarda liderlik qobiliyati, o‘z fikrlarini bayon qilish, uning to‘g‘riligini isbotlash, g‘oyalarini himoya qilish ko‘nikmalari shakllanadi.

“FSMU” metodida *fikr*ni bayon etish, bayoniga ***sabab*** ko‘rsatish, ko‘rsatilgan sababni isbotlab ***misol*** (dalil) keltirish, fikrlarni ***umumlashtirish*** orqali muammolar yechimi aniqlanadi. Bu ta’lim usulida muammoli savol beriladi, talabalar yakka tartibda muammoli savolga to‘rt bosqichli javob yozadi, kichik guruhlar shakllantiriladi, kichik guruhlar yakka tartibda bajarilgan vazifalarini umumlashtirib yozadi, kichik guruhlar taqdimot qiladi, barcha fikrlar umumlashtiriladi va xulosa yasaladi. “Nutqning xususiyatlari” mavzusini o‘tishda talabalarga “Madaniy nutqni shakllantirish omillari” mavzusi bo‘yicha FSMU metodidan foydalanib, taqdimot qilish topshirilishi mumkin. Bu usul talabalarda ijodiy yondashuv, mantiqiy izchil fikrlash, keng dunyoqarashga ega bo‘lish, axborot almashinish, kuzatuvchanlik, hodisaning umumiy va xususiy jihatlarini ajrata olish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun samarali usul sanaladi.

“KKIT” metodi (SVOT-analiz, SWOT- analysis) ham ta’limda kreativ fikrlashni o‘stiruvchi usullardan biridir. “Matn va uning ko‘rinishlari” mavzusini o‘qitishda bu usuldan samarali foydalanish mumkin. “Nima uchun bugungi kun talabasi kitoblar mutolaasidan ko‘ra ijtimoiy tarmoqlarda faollik ko‘rsatmoqda?” degan muammoli savolning tahlilini “KKIT (kuchli, kuchsiz tomonlar, imkoniyat va to‘siqlar)” usulida olib borish mumkin. Bunda talaba to‘rtta ustunga hodisaning sharhini bayon qiladi. Bunda qo‘yilgan muammoning tahlili talabaning o‘z shaxsiy tajribasi asosida bayon qilinisi lozimligiga urg‘u beriladi. Natijada talaba o‘z faoliyatini tahlil qiladi, o‘z-o‘zini (yoki boshqa insonni) tahlil qilib, kuchsiz tomonlarni yo‘qotish uchun, kuchli tomonlarini aniqlash, imkoniyatlarni o‘rganib chiqish va to‘siqlarni bartaraf etish yo‘llarini aniqlab oladi va belgilangan xulosalarni mustaqil hayotida qo‘llash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Bu usuldan erishiladigan natijalar ancha samarali bo‘lib, har bir talabani o‘z hayotiga, faoliyatiga tanqidiy baho berishga, imkoniyatlardan unumli foydalanishga o‘rgatadi.

Bugungi kunda axborot almashinuvi shiddat bilan o‘sib bormoqda, axborot ulashuvchi tarmoqlar ko‘paymoqda, kuchli axborot oqimi shaxs tarbiyasiga, ruhiyatiga, ma’naviyatiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shiddatkor zamonda talabalarni to‘g‘ri va kreativ fikrlashga, turli sohalarda ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga, mustaqil fikrga ega bo‘lish va uni erkin ifodalay olishga o‘rgatish, ularning yozma va og‘zaki nutqini o‘stirish nafaqat filologlar, balki barcha fan o‘qituvchilari, mutaxassislar zimmasidagi mas’uliyatli vazifadir. Tahsil jarayonidagi maqsad va mohiyatni anglagandagina talaba kelajakda yetuk kadr, o‘z sohasining bilimdoni, kuchli notiq, professional mutaxassis, qat’iyatli shaxs, jamiyatning faol a’zosi bo‘lib yetishadi. Zero, bugunning talabasidan talab qilinayotgani ham aynan shudir.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekistonga jadal islohotlar sur’atiga mos ilg‘or kadrlar kerak. – “Xalq so‘zi”, 2018-yil 19-dekabr, 262-son.
2. Saidahmedov N.S., Abdurahimov S.A. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. TDTU, Toshkent, 2010.
3. Kamoliddinov M., Vahobjonov B. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. «Talqin», Toshkent, 2010.
4. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. TDIU, Toshkent, 2010.
5. Hodiev B., Golish L.. Mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari. - TDIU, Toshkent, 2010.
6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. - Toshkent: «Iste’dod», 2010.

XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARI VOSITASIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH

Sharipova Nilufar RAUFOVNA,
Navoiy davlat pedagogika instituti, maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi

Davlatimiz rahbari bolalar tarbiyasi jarayonida o‘z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog-kadrlarni jalb qilgan holda, ularni go‘daklardan fikr va tafakkurni to‘g‘ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma’naviyatga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni tarbiyalashning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlaganlar.

Zamonaviy maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilari ushbu vazifalarni hal etish uchun tashkiliy jihatdan ham, mazmuniy jihatdan ham maktabgacha ta’limning integrativ xarakterini, o‘zining bo‘lajak kasbiy faoliyatining integrativ yo‘nalganligini aniq his qila olishi zarur. Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligida integratsiyalash zarurati unda kasbiy kompetentlikni shakllantirish samaradorligini belgilab beruvchi asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Boshqacha aytganda, integrativ yondashuv nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilgandagina bo‘lajak maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining metodik tayyorgarligi samarali bo‘ladi.

Bo‘lajak pedagoglar bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda alla- qo‘shiqlarining ijtimoiy-g‘oyaviy mazmuni va tarbiyaviy ta’sirini, xalq ertaklari va maqollari vositasida bolalarda dastlabki xulq-atvor madaniyatini shakllantirishda pedagogik faoliyat muhim ahmiyat kasb etadi.

Bolalarning ma’naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy, psixik rivojlanishlariga mos keladigan, o‘zida ma’naviy-axloqiy sifatlarni jam qilgan ertaklar klassifikatsiyalangan. Ertaklarda o‘rtoqlik va do‘stlikning olijanobligi, kamtarinlik, saxiylik, to‘g‘riso‘zlik, vatanpravarlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik fazilatlarini targ‘ib qiluvchi jarayonlarni aynan maktabgacha yosh davridan boshlash va unga amal qilish zarurligi targ‘ib qilinadi va bolalarni ham shu ertakdagi ijobiy obrazlardan namuna olishga undaladi.

Maqol xalq og‘zaki badiiy ijodining keng tarqalgan janrlaridan biridir. Maqollar asosan hayotiy tajribalar asosida maydonga keladi. Asrlar bo‘yi og‘izdan-og‘izga o‘tib kelayotgan maqollarda keng mehnatkash xalq ommasining dunyoqarashi, jamiyat va mehnatga munosabati, ota-onaga hurmat va Vatanga cheksiz sadoqat motivlari mujassamlashgan. Shuningdek, maqollarda xalq orzu- umidlari, insonparvarlik hislari ufurib turadi.

Maqollar mavzu jihatidan boy, xilma-xil va rang-barangdir.Ularda ona - Vatanni sevish, do‘stlik, birodarlik, dushmanga nafrat, ahillik va birdamlik g‘oyalari, yaxshilik, halollik, to‘g‘rilik hamda rostgo‘ylik ulug‘lanadi, yomonlik, yolg‘onchilik va qalloblik esa qoralanadi:

Maktabgacha ta’lim muassasalarida mashg‘ulotlarda maqollardan foydalanish bolalarning nutq malakasini shakllantirishi, ularda hayotiy tushunchalarning boyitishi, eng asosiysi, har bir maqol mazmunidagi insoniy fazilatlar; vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ota-onaga hurmat, kichiklarga izzat, do‘stlik va uni qadriga yetish, kamtarinlik, rostgo‘ylik, halollikka o‘rgatish va aksincha, yomon illatlardan holi bo‘lishga da’vat etilishi masalalari o‘z aksini topgan.

Jumladan, ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida nutqiy vazifalarni hal etish uchun u yerda turli shart-sharoit yaratish muhim zamin hisoblanadi. Bunday sharoit

bolalarda gapirish, atrofdagilarni nomlash, nutqiy muomalaga kirishish istagini tug‘dirishi kerak.

Bola nutqini to‘g‘ri shakllantirishning umumiy vazifalarini aniqlashtirar ekanmiz, uning tarkibiy qismlariga to‘xtalishga to‘g‘ri keladi. O‘zaro aloqadorlikdagi bunday vazifalarni shartli ravishda yettitaga ajratish mumkin. Ular til va nutqning asosiy komponentlariga muvofiq keladi.

Tarbiyachi, avvalo, bolaning atrofdagilar bilan normal muomalada bo‘lishi uchun muvofiq so‘zlarni tanlaydi. Bunday so‘zlarni bolaning o‘z holicha tanlashi qiyin. To‘g‘ri, bola ularni o‘zlashtiradi, ammo kattalarning yordami bilan o‘zlashtiradi. Tarbiyachi maxsus usullarda yo‘nalish beradi. Natijada u bola zarur so‘zlarning ma’nosini bilib va tushunibgina qolmasdan, balki ularni o‘z nutqida faol qo‘llay olishiga, bolalarda so‘zga qiziqish va e’tibor oshishiga ham erishadi. “Nega shunday deyiladi?”, “Shunday deyish mumkinmi?”, “Shunday qilib yaxshiroq, aniqroq aytish kerak?” kabi usullar shular jumlasidandir.

Og‘zaki nutq madaniyatiga o‘rgatib, tarbiyalab borib, bolalarni qo‘pol iboralar va oddiy so‘zlashuvdagi so‘zlardan qochish, ularni adabiy tildagi muqobillari bilan almashtirishga o‘rgatadi. Lug‘at ishi bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirishga bog‘liq ravishda amalga oshiriladi. Qaysi bir narsa va hodisani bildiruvchi so‘zlar to‘g‘risidagi xabar o‘sha ob’ektlar bilan tanishtiruvchi umumiy o‘quv-tarbiyaviy jarayonda beriladi.

Bola atrofdagilardan grammatik shakllangan nutq eshitadi. Eshitganlarini fikr qilib, grammatik qurilishni o‘zlashtiradi, til modelini anglaydi. Tarbiyachi bolalar bilan xilma-xil nutqiy amaliyotlar tashkil etadi. Til o‘rgatish tizimiga turli mashqlar kiritadi. Bu mashqlar bolalar e’tiborini ancha murakkab, shu bilan birga, ular uchun zarur jumla yoki birikma, ibora tuzilishlariga tortadi.

Maktabgacha ta’lim muassasida shoshilmasdan, o‘z fikrini o‘ylab, tinglovchilarga murojaat qilib hikoya qilish ko‘nikmalari tarbiyalanadi. Shuningdek, notanish davrada, masalan, bayramlarda, kattalar ishtirokida, boshqa guruhlarda so‘zlashga ham odatlantiriladi. Bu esa nutqning takomillashuviga yordam beradi, topqirlikni, jamoada o‘zini tuta bilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Pedagog sifatida yosh davrlariga xos pedagogik-psixologik xususiyatlarni hisobga olib ta’limni tashkil etish davlat ta’lim standartlariga mosligini ta’minlaydi.

Maktabgacha ta’lim muassasida bolalar nutqini o‘stirish bo‘yicha butun pedagogik ish ularni maktabda o‘qishga tayyorlashga xizmat qiladi. Maktabda esa bolaning to‘g‘ri og‘zaki nutqi, boshqalarni tinglash, ularning suhbatiga aralashib, fikr va munosabat bildirish, zarur bo‘lganda, o‘rtog‘ining javobini to‘lg‘azish yoki tuzatish ko‘nikmalari zarurdir. Maktabda muvaffaqiyatli o‘qish uchun quyidagi sifatlar muhim ahamiyat kasb etadi: pedagog tomonidan aytilganlarni tinglay olish, o‘z fikrini yoyiq sodda gaplarda, uncha katta bo‘lmagan bog‘lanishli hikoyalarda, aniq, ochiq-oydin, grammatik jihatdan turli ifodalay olish.

Bu ko‘nikmalar bolalarda, asosan, yuqori va tayyorlov guruhlarida maqsadli-mo‘ljalli yo‘nalishda hosil qilinadi. Shu bilan birga, olti yoshli bolalarga savod o‘rgatish ishlari ham olib boriladi. Bolalar nutqning tovush tahlili bilan shug‘ullanadilar, uch so‘zdan gap tuzadilar va boshqalar.

Shunday qilib, biz bolalar nutqini o‘stirishda xalq og‘zaki namunalarining o‘rni beqiyosdir. Xalq og‘zaki janrlarining har biri ham ta’limiy, ham tarbiyaviy jihatga ega. Ta’lim jarayonida shaxsning aqliy sifatlari shakllanadi, axloqiy, estetik tarbiyaning muhim vazifalari hal etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Sodiqova Sh.A - Maktabgacha pedagogika. Darslik - T.: Tafakkur bo‘stoni.- 470 b.

2. Qodirova F.R.- Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi ruhiy omillari - T.: “ISTIQLOL”, 2006y. – O‘quv qo‘llanma.
3. М. Ҳакимова, Г. Мусахонова “ЎЗБЕК ХАЛҚ ПЕДАГОГИКАСИ” O‘quv qo‘llanma Тошкент – 2007
4. Имомалиева О. Маънавият ва ахлоқий қадриятларни ривожлантириш услублари. БМИ. – Т.: ТДИУ, 2005.

PRODUCTIVE WAYS OF TEACHING ENGLISH LANGUAGE TO NON-LINGUISTIC STUDENTS

Atamuratova Munira MAKHAMADIEVNA,
Teacher of Termez Branch of Tashkent Medical Academy

Abstract: This article is devoted to analyze the effective and innovative and also quite interesting ways of teaching foreign language, that is, have a great importance of IT in the learning process as well as in the process of raising motivation among students to a higher level. It also describes different methods of multimedia among which the outline of video lessons, role-playing a game lessons, project based-learning have the leading role.

Key words: teaching methods, foreign language learning, effective methods, power point presentation, educational process, and information technology.

Аннотация: Эта статья посвящена анализу эффективных и инновационных, а также довольно интересных способов обучения иностранному языку, то есть имеет большое значение ИТ в учебном процессе, а также в процессе повышения мотивации, учащихся на более высокий уровень. В нем также описаны различные методы мультимедиа, среди которых основная часть видеоархивов, ролевых игр, уроков игры, основанных на проектах.

Ключевые слова: методы обучения, изучение иностранных языков, эффективные методы, презентация Power Point, учебный процесс, информационные технологии.

English, the official language of the entire world, is a very difficult language to teach and learn as well for some student who are not in the field of linguistics. In fact, each language differ from teaching. We know that, present time information technologies stand out as a requirement, and burst into all spheres of our life rapidly. Using of new technologies into the educational process is always considered a progressive way that promoted motivation of learning. It is so crucial to raise the level of knowledge of students by means of bringing in newest information technologies including multimedia assets as well.

At the present time communication technologies become a normal for most of the higher educational establishments in the whole world. Multimedia technologies can be described as package of video, audio and other means of reflecting information that is united in an interactive software environment. Multimedia means permit to include almost all five sense of students, combining the printed text, graphic image, movable video, static photos and audio-record. Because of using multimedia means, students can learn all aspects of language perfectly, such as, phonetic, grammatical, lexical and communicative, that allows more effective and quicker mastering of language material, language skills and abilities. The implementation of new methods of learning that provide the development of communicative, creative and professional competences and stimulate the requirement of

future specialist in self-education based on the content and management of educational process is required from modern educational establishment nowadays. The aim of learning foreign language in the higher educational establishment is forming professional communicative competence among students with the help of development and perfection of all types of language activity: reading, speaking, writing, and listening and lexical-grammar.

As practice shows, a computer, from all the existent means of study, is the best choice to be implemented into the structure of educational process. A computer is capable to provide all round control of educational process as well. Computer also created a lot of possibilities for organization of self-assessment work of students at a lesson of foreign language. Students can use a computer both for the study themes and for self-control of gained knowledge.

One of the most successful examples of means of learning is learning by Power Point Presentation. Foreign language presentation is a way of showing the creative, newly made and adapted for the certain level of Students language information.

Multimedia presentation is based on the use of audiovisual possibilities of computer technologies. There is a general algorithm of multimedia presentation.

Accordingly, it is very important for teacher to follow such steps:

— To define pedagogical tasks which are going to be solved by means of created multimedia presentation;

— To think over the aim and tasks of the slides creation;

— Taking into account the Students' potential possibilities;

— To write down the script of multimedia presentation;

— To create the structure of multimedia presentation;

— To apply animation and voice effects.

Power Point Presentation are used in educational establishment of different levels an specific such as:

— Objects of study in a course of information and communication technologies;

— Means of electronic and paper support in the process of educational orientation and explanation the material by the teacher and also are used to exchange education experience.

Video. Video plays an important role in the study of a foreign language. It helps to create dynamic visualization that makes a lesson more interesting. However, ordinary watching of films will give no effects. The understanding of content and language means used in a film after viewing it, spare the special attention to translation of a content.

Project based-learning. In the modern world, literacy consist of a number of skills (express your own opinion, wishes, and necessities orally; to read and write; to find and to choose necessary information). The evaluation of knowledge and abilities is the process of learning, not the outcome; the educational process is not preparation for life, for this reason participating in bit must bring pleasure. One of such interesting forms of studies is non-traditional lesson of foreign language. Such lessons impress by their variety: lesson exercusion, business games, lessons dialogues, lessons press conferences, etc. The methods of projects plays crucial role in the improvement of mastering of foreign language and in the development of motivation among students.

Role-playing based learning. Role-playing is mostly used when it is needed to analyze a problem and find the best solution. The practice can be tried in different fields like teaching language. It should be pointed out that, the ability of a teacher to use IT in the educational process became one of the substantial parts of the professional competence. It is a well-known fact that learning is more effective and faster when the tasks themselves

arouse interest and curiosity in the student. So Jeremy Harmer, a renowned British author of textbooks for learning English, highlights several advantages of using ROLE in the lesson:

- Role-playing game is fun and helps to increase the student's motivation to assimilate new information;
- Quiet and shy students have the opportunity to more openly express their own opinions;

So, role play is a task aimed at developing speaking skills. What`s more, role play topics usually depend on the lexical and grammatical material that is being studied at the moment.

REFERENCES:

1. J. Jalolov, English Language Teaching Methodology. Tashkent-2015.
2. K. Gardner, (1985) Social psychology and Second language learning: The role of Attitudes and Motivation. London, Great Britain: Edward Arnold.
3. W. Littlewood, (1992). Teaching Oral Communication: A Methodological Framework. Oxford, Great Britain.
4. Ruth Gairns, Stuart Redman Oxford Word Skills “Oxford” University Press-2008.
5. Gilbert H. Muller the McGraw- Hill Reader the City University of New York LaGuardia-1997.

SODDA GAPLARNI O‘QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Qurbonova Yulduz QULMUROT QIZI,
NavDPI 13.00.02-Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (O‘zbek tili) ixtisosligi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligida sintaksis bo‘limi muammolarini o‘rganish bo‘yicha amalga oshirilgan izlanishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Sodda gap sintaksisining darsliklarda berilishi, unga oid nazariy bilim, amaliy mashq va topshiriqlar o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutq ko‘nikmasini shakllantirishdagi ahamiyati aniqlashdan iborat.

Bugungi innovatsion ta’lim ona tilini o‘qitish samaradorligini oshirish maqsadi bilan ta’lim oluvchida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish va takomillashtirishni ustuvor vazifaga aylantirdi.

Didaktik tafakkur — o‘rganish, o‘rgatish va ta’lim mazmunining doimiy aloqadorligi, munosabatlarini izlash, aniqlash demakdir. O‘qituvchi o‘quvchilarni faollashtiradigan, o‘zi va o‘rganuvchi uchun qulay bo‘lgan yo‘llarni, usul va uslublarni, o‘qitish shakllari, metod va vaziyatlarni izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyaga suyanib, o‘quv jarayoni samaradorligini oshiradi. O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatib, o‘quv jarayonining yuqori sifat va samaradorligiga erishadi. Shu boisdan ham, pedagogik, didaktik, ta’lim texnologiyalariga va darsliklarga olib kirishga o‘quv jarayonidagi eng samarali vositalar deb qaralmoqda. Ulardan dunyo pedagogik amaliyotida keng foydalanilmoqda. Har qanday fan darsligi mazmun, vazifa va tuzilish jihatidan mukammal bo‘lishi lozim. Bu faqat darslikning emas, darsning samarasini oshirib, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi uchun keng imkon yaratib beradi. Darslikni o‘rinli ishlata olish, o‘quvchi yetkazib berish esa bugungi kunning zamonaviy o‘qituvchisi oldidagi eng dolzarb masaladir. Filologiya fanlari doktori Baxtiyor Mengliyev ta’biri bilan aytganda, “Darslik

yuqori darajada umumlashtirilgan va zamonaviy ilmiy bilimlarga asoslangan ma’lumotlar-qoidalar, hukmlar, tasniflardan tashkil topishi lozim”.[277]

O‘quv predmetining mazmuni uzviy va tizimli ifodalanishida, avvalo, o‘quv materialini maqsadga yo‘naltirilgan ravishda tizimlashtirish talab etiladi. Darslikning zamonaviylashuvi bu bevosita bo‘lajak kadrlarning zamonaga mos bo‘lib ulg‘ayishiga, fan-texnika yutuqlaridan to‘la xabardor bo‘lishiga, milliy qadriyatlarimiz ruhida kamol topishiga erishish demakdir.

Ko‘rinadiki, umumiy o‘rta ta’lim maktabidagi ona tili ta’limi sathlararo uzviylikka tayanadi. Bu avvalo darslikda ifoda topadi.

Mazkur maqolada o‘quvchilarning psixologik tomonlari hamda dars davomida yuzaga keladigan ehtiyojlarini inobatga olib, sodda gap sintaksisini o‘zlashtirishga qaratilgan metod va usullar, mashq va topshiriqlar tahlili hamda uning dars samaradorligi va o‘quvchilarning ko‘nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyatini yoritishga e’tibor qaratildi.

O‘quvchilarga sodda gap sintaksisini o‘rgatishning asosiy maqsadlaridan biri ularning turli nutqiy vaziyatlarda til birliklaridan o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat. Bu borada interfaol metod usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Xususan, o‘quvchilarda kognitiv faoliyatni faollashtirish, o‘zlaridagi ijodkorlikni namoyon qilish, egallagan bilimlarini hayot bilan qo‘llab ko‘rishlarida *loyiha metodidan* foydalanishlari yuqori samara beradi. O‘quvchilarning kommunikativ aloqa o‘rnatish jarayonida og‘zaki nutqlarida jumlalarni tizimli tuza olishlari, vaziyatga moslasha olishlarida dars davomida turli harakatlar vositasida o‘zlashtirishlariga erishish mumkin. Bunda o‘quvchilar o‘zaro muloqotga kirishganda quyidagi jihatlarni hisobga olishlariga e’tibor qaratiladi:

- reja tuzib olish – berilgan mavzu yuzasidan qanday til birliklaridan foydalana olishlarini aniqlab olish;
- bajarish – tanlab olgan jumlalari orqali vaziyatga kirishib, ohang va harakatlar orqali nutq hosil qilish;
- tahlil qilish – o‘zining va o‘zgalar nutqini tahlil qilish orqali munosabat bildira olish;
- baholash – munosabatlarini asoslab, baho bera olish;
- maqsadni tushunish – yuqoridagi bosqichlarni nima uchun qilayotganlarini anglab yetish.

Loyihaga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida talabalar muayyan kommunikativ vaziyatda xatti-harakatlarning o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishadilar, ommaviy nutqda tajribaga ega bo‘ladilar va ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z pozitsiyalarini ochiq ifoda etish qobiliyatini rivojlantiradilar, yangi leksik va grammatik birliklarni o‘rganadilar, tildan foydalanishni faollashtiradilar[278].

Dars davomida o‘quvchilar qamrovini kengaytirish, ularni o‘zaro aloqaga kirishishlarini ta’minlash, taqdim etilgan mavzu yuzasidan muhokama, muzokaralar tashkil qilishda *jamoaviy ishlash metodidan* foydalanish berilayotgan lingvistik bilimni muhokama, o‘zaro fikr almashish, tahlil va tanqidiy ruhda shakllantirishda yaxshi samarali usul bo‘lganligini tadqiqotimiz davomida kuzatildi. Xususan, o‘quvchilarga berilgan matn strukturasidan foydalanib, yozma matn yaratish topshiriqlarida yozgan matnlarini guruh bilan tekshirish, noto‘g‘ri qo‘llangan til birliklarini tahlil qilish orqali, til birliklarining mohiyati, foydalanish o‘rinlari haqida ko‘nikma hosil qilishlariga erishildi.

[277] B. Mengliyev, B. Baxriddinovna. Ona tili ta’limi: uzluksiz ta’lim bosqichlarida chalkashlik uchramayaptimi? Til va adabiyot ta’limi, 2015-yil, 2-son, 8-12-betlar.

[278] Julia Aplaeva. Project Method as an Innovative Technology for Teaching English. International Conference ICT for language learning.

Tadqiqotimiz davomida o‘quvchilarga yuqoridagi metodlar orqali dars tashkil qilishda tayyorlangan tajriba materiallarining amaliy ahamiyati yuqoridir. Quyida ushbu tajriba materiallariga misol keltirilib, mohiyati ochib berishga harakat qilindi.

Rasmlarni kuzating. Ularga qanday so‘zlarni bog‘lash mumkinligini ayting. Ularga bog‘lana oladigan so‘zlar bilan birga birikma hosil qiling.

Namuna:

	qiziqarli kitob; *qalin kitob;* *mazmunli kitob;* *hoshiyali kitob;*		*qora qalam;* *uchi o‘tkir qalam;* *o‘chirg‘ichli qalam;* *yo‘nilgan qalam;*

Bunda o‘quvchilarga turli rasmlar aks etgan kartochkalar tarqatildi. O‘quvchilarga o‘zlariga tushgan kartochkadagi rasmga mos birikmalar hosil qilib yozishlari aytiladi. Bu jarayonda o‘quvchilarning rasmlarga mos so‘z birikmasi hosil qilishi, rasmda aks etgan tasvirning ma’no-mazmuniga mos so‘z bilan biriktira olishi hamda so‘z birikmasi bilan gapni farqlay olishiga alohida e’tibor qaratildi.

Kang ta’kidlaganidek, vizual aloqa o‘quvchiga yordam berish uchun mo‘ljallangan, oldingi bilimlarni tashkiliy tuzilma shaklida ongli darajaga olib keladi. Ular tushunish va o‘rganishni kuchaytirishga, shuningdek, ma’lumotlarni olish, tushuntirish va yetkazishda muhim rol o‘ynaydi.[279]

Berilgan birliklarni o‘qing. Ularni qanday ma’nolarda qo‘llash mumkin? Misollar bilan fikringizni izohlang.

Ularga mos til birliklaridan foydalanib ijobiy va salbiy ma’noni ifodalaydigan birikmalar hosil qiling.

IJOBIY MA’NO	SALBIY MA’NO
YUKSAKLARGA KO‘TARMOQ	*qo‘l ko‘tarmoq(urmoq ma’nosida)*

Matnni o‘qing. Matnda qo‘llangan so‘z birikmalarini aniqlab yozing. Ularni nima bog‘lab turganligini izohlang.

Cho‘l manzarasi

Birdaniga cho‘lning havosi o‘zgardi, erta kuz bo‘lishiga qaramay, esib turgan ilimiliq shabada o‘rniga qandaydir dimoqqa xush yoqadigan, bog‘lardan esayotgan yoqimli shamol kela boshladi. Hozir biz bir tomoni hali bezrayib yotgan cho‘l, bir tomoni esa obod bo‘lgan yerning hududida turardik.

Etagi olislarda cho‘zilib ketgan cho‘l to‘quvchi dastgohidagi tandaga, yangi obod bo‘lgan joylar esa shu tandaning asta-sekin to‘qilib kelayotgan sergul matosiga o‘xshardi.

Shag‘al yotqizilgan yo‘lning ikki chetida hali usti yopilmagan bir qavatli binolar, xom g‘isht devoriga tol tashlab ustidan tosh bostirib qo‘yilgan chala uylar, ba’zan shaxmat katagiga o‘xshagan sement devorlar uchrab turardi. Bu yerlarda hali odam yashamay turib yosh terak va qayrag‘ochlar allaqachon yerga parcha-parcha soya tashlab ulgurgan edi.

Mazkur topshiriqda o‘quvchilardan matndagi hamma birikmalarni aniqlab yozishlari talab qilinmadi. Asosiy e’tibor matn tarkibidan so‘z birikmasini aniqlay olishlari hamda ularni bog‘lovchi vositalarni tushunishlariga qaratildi. O‘quvchilar yozib bo‘lgach, har bir yozgan birikmalari tekshirildi, xato va kamchiliklari aniqlanib, matn umumiy tahlil qilib berildi, so‘z birikmalari aniqlanib, ularni bog‘lovchi vositalari haqida ma’lumot berildi.

[279] Kang, S. ’Using Visual Organizers to enhance EFL instruction’ ELT Journal, vol. 58, no. 1, January, 2004.

Berilgan birikmalarni o‘qing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

qo‘l qo‘ymoq, qizilishton, bosh og‘riq, o‘n ikki, sayr qilmoq, …kabi.

Ushbu birliklar doskada yozildi. O‘quvchilarga ushbu birliklarni qatnashtirib gap tuzib yozishlari aytildi. So‘ngra ularning yozganlari tahlilga tortildi. Bu jarayonda o‘quvchilarning ushbu birliklarni qatnashtirib tuzgan gaplaridan so‘z birikmasi va qo‘shma so‘zni farqlashlari tushuntirib berildi. *Masalan, Aziza beliga qo‘lini qo‘yib raqsga tushdi(qo‘l qo‘ymoq – so‘z birikmasi), Dadam kundaligimga qo‘l qo‘ydi(qo‘l qo‘ymoq(imzo) – qo‘shma so‘z).*

Berilgan sarlavhalardan birini tanlab, unga mos so‘z birikmalari hosil qiling. Hosil qilgan so‘z birikmalaringizni tartiblab, ular asosida matn tuzing.

Istirohat bog‘i	Sevimli kitobim	Mening sahifam	Yo‘lchi yulduz

Mazkur topshiriq o‘quvchilarni sarlavha ostida matn yaratish, unga oid til birliklarini jamlash, fikrni tartiblashda samarali usul bo‘ldi. Dastlab o‘quvchilarga sarlavhadan istalgan birini tanlab, unga oid so‘z birikmalari tuzishlari aytildi. So‘ngra tuzgan so‘z birikmalarini bog‘lab matn yozishdi. Bu jarayonda o‘quvchilarga matn tuzish ham qiyinchilik tug‘dirmadi.

Har qanday matn ijodiy mahsul sanaladi va matn yaratuvchisining kommunikativ rejasi asosida shakllantiriladi. Matnda joylashtirilgan gaplar propozitsiyasi mantiqiy ketma-ketlik hamda matn yaratuvchisining kommunikativ faoliyati asosida bir makropropozitsiyani tashkil etadi. Demak, voqelikning bayon qilinishida gaplar ketma-ketligi mazmuniy aloqadorlik muhim sanaladi. Shu sabab ona tili ta’limida o‘quvchiga tayyor matnni havola etish yoki biror mavzuda matn yaratish topshirig‘ini berishdan avval uning matn tuzish texnologiyasidan boxabarlik darajasiga e’tibor qaratish muhim sanaladi.

Bizga ma’lumki, yuqorida qayd etilgan metod va usullar asosida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga oid qo‘llangan tajriba materiallarining o‘quvchilarning sodda gap sintaksisini o‘zlashtirishida muhim ahamiyat kasb etdi.

ЭЛЕКТРОННЫЕ СРЕДСТВА ОБУЧЕНИЯ КАК ГЛАВНЫЙ КОМПОНЕНТ СОВРЕМЕННОГО УРОКА РУССКОГО ЯЗЫКА

Г.Р.ФЕФЕЛОВА,
Самостоятельный соискатель
Навойский государственный педагогический институт,

XXI век - век высоких компьютерных технологий.

Электронные гаджеты составляют неотъемлемую часть жизнь современного ребенка. Сейчас как никогда становится важной роль педагога, т.к. именно он является координатором информационного потока. Следовательно, педагог должен владеть современными методиками и новыми образовательными технологиями, чтобы общаться на одном языке с ребенком.

Скорое развитие технологий меняет требования, предъявляемые к содержанию образовательного и воспитательного процесса. Сегодня основная задача учителя - научить детей учиться, самостоятельно находить источники пополнения знаний. Но также необходимо отметить, что полноценность образовательного процесса будет

зависеть от умения педагога использовать электронные средства обучения, которые способны сделать урок более ярким, насыщенным, более эффективным.

Технология применения ИКТ и ЭСО, рассматриваемая как один из компонентов целостной системы обучения, не только облегчает доступ к информации, но и открывает возможности вариативности учебной деятельности, ее индивидуализации и дифференциации, позволяет по-новому организовать взаимодействие всех субъектов обучения, построить образовательную систему, в которой учащийся был бы активным и равноправным участником образовательной деятельности. Компьютер позволяет создать условия для повышения процесса обучения: совершенствование содержания, методов и организационных форм. Систематическое использование компьютерных видеосюжетов и демонстрационных презентаций развивает воображение, абстрактное мышление, повышает интерес к изучаемому учебному материалу и предмету в целом. В обучающих программах могут быть использованы разнообразные формы наглядности, в виде таблиц, схем, опорных конспектов, которые демонстрируют не только статичную информацию, но и различные языковые явления в динамике с применением цвета, графики, эффекта мерцания, звука, пиктографии, «оживления» иллюстраций (это качественно новый уровень применения объяснительно-иллюстративного и репродуктивного методов обучения).

Чтобы цель и поставленные задачи использования электронных средств в обучении русскому языку были достигнуты, необходимо следовать определенной схеме.

1) При составлении структуры занятия учитывать возрастные особенности и степень обученности учащихся.

2) Рассматривать целесообразность применения электронных средств в сравнении с традиционными средствами.

3) Учитывать временные рамки занятия и иметь поминутный план.

В данной статье мы приведем наиболее распространенные методы электронных ресурсов, таких как: компьютерные презентации и показ слайдов; анимация и иллюстрация; мультипликации; интерактивные таблицы и схемы.

Компьютерные презентации и показ слайдов – один из самых распространенных электронных средств обучения. Использовать их можно и при объяснении нового материала, и при закреплении знаний, и при выполнении творческих заданий и физкультминуток. В презентацию можно вставить всё, что только возможно: и рисунки, и схемы, и тесты, и видео. По сравнению с другими ресурсами презентацию можно считать универсальным. Благодаря использованию презентаций у учащихся наблюдается концентрация внимания, включение всех видов памяти (зрительной, звуковой, ассоциативной), повышается интерес к изучению предмета, возрастает мотивация к учебе.

Важное место в процессе обучения заняли такие приемы как анимация и иллюстрация. Использование их при объяснении нового материала позволяет наглядно продемонстрировать учебный материал, позволяют наблюдать различные явления языка. Также эти ресурсы можно использовать для организации творческой работы (составить рассказ на основе картинки, например).

Использование мультипликации и анимации разнообразят уроки, активизируют учащихся. Интересно звучит на уроке лекция с использованием мультимедиапроектора, когда лекция сопровождается демонстрацией учащимся красочных схем, для пояснения используются различные звуки и анимация (но при

этом нужно помнить, что излишняя анимация мешает восприятию), быстрые ссылки на ранее изученный материал.

Систематизировать изученный материал помогают интерактивные таблицы и схемы. С помощью таблиц учащиеся учатся анализировать языковые явления, делать выводы и обобщения, схематично представлять языковой материал. Таблицы помогают вспомнить орфограмму и пунктограмму. В отличие от печатных, электронные таблицы обладают повышенной наглядностью.

Учитывая, что современные компьютеры позволяют интегрировать в рамках одной программы тексты, графику, звук, анимацию, видеоролики, фотоизображения и картинки, применение ЭСО возможно практически на каждом этапе урока:

- при проверке домашнего задания;
- при повторении;
- при изучении нового материала;
- при закреплении;
- при повторении и обобщении;
- при контроле знаний, умений и навыков;
- при проведении физкультминутки.

В заключении стоит отметить ряд положительных факторов ЭСО, влияющих на эффективное обучение. Использование ЭСО в образовательном процессе: обеспечивает наглядность, аудио и видеоподдержку, повышает эмоциональную насыщенность образовательной деятельности, способствует индивидуализации и дифференциации процесса обучения и воспитания учащихся за счет реализации возможностей интерактивного диалога, самостоятельного выбора режима деятельности, организационных форм и методов обучения, пробуждает осознанную активную заинтересованность учащихся как в самом учебном процессе, так и в его результатах, расширяет сферы самостоятельной деятельности учащихся (как индивидуальной, так и групповой, коллективной) за счет возможности организации разнообразных видов деятельности, способствует повышению уровня преподавания и качества обучения.

Применение ЭСО как компонента современного урока русского языка должно обеспечиваться рядом организационно педагогических условий:

– соблюдение последовательности технологических этапов работы с электронными ресурсами и выполнение требований к содержанию деятельности учителя и учащихся на каждом из них;

– овладение учителями умениями работать с электронными средствами обучения и электронными образовательными ресурсами;

– разработка системы заданий в соответствии с уровнями обученности классов.

Использование ЭСО открывает для учителя новые возможности в преподавании своего предмета. Изучение любой дисциплины с использованием ИКТ и ЭСО дает учащимся возможность для размышления и участия в создании элементов урока, что способствует развитию интереса школьников к предмету. Классические уроки в сопровождении мультимедийных презентаций, on-line и off-line тестов и программных продуктов позволяют учащимся углубить знания, полученные ранее. Применение современных технологий в образовании создает благоприятные условия для формирования личности учащихся и отвечает запросам современного общества.

ЎЗБЕКИСТОНДА ТИББИЁТ СОҲАСИНИ РАҚАМЛАШТИРИШ (Навоий вилояти мисолида)

Хамраева Саодат Исломовна-
НавДПИ тадқиқотчиси

Тиббиёт соҳасини рақамлаштириш бўйича тиббиёт муассасалари томонидан масофавий хизмат кўрсатиш сонини ошириш ва сифатини яхшилашга, шунингдек, поликлиника ва шифохоналарда электрон ҳужжат юритиш тизимларини жорий этишга йўналтирилган кенг кўламли ишлар олиб борилмоқда. Шу мақсадда 2021 йилнинг 23 февраль куни қабул қилинган "Соғлиқни сақлаш сақлаш соҳасида рақамлаштириш ишларини самарали ташкил этиш чора – тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ – 5000 – сонли қарорида ҳам "Соғлиқни сақлаш соҳасини рақамлаштириш ва ахборот тизимлари ягона комплексини жорий этиш, бошқарув жараёнидаги ортиқча тартиб – тамойилларни қисқартириш, аҳолига хизматлар кўрсатиш сифатини ошириш"[280] ва тиббиёт соҳасида ахборот коммуникация технологияларини кенг жорий этиш бўйича аниқ вазифалар белгилаб берилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги "Рақамли Ўзбекистон – 2030" стратегиясини ва уни самарали амалга ошириш чора – тадбирлари тўғрисида"ги ПФ – 6079 сон Фармонининг 6 А – иловаси билан рақамли транформация қилиш бўйича бугунги кунда Навоий вилоятининг Қизилтепа ва Хатирчи туманларидаги барча тиббиёт муассасалари оптик толали алоқа тармоғи орқали юқори тезликдаги интернет тармоғига уланди[281].

Шунингдек, "Йўл харита"га мувофиқ Қизилтепа туманида жами 13 та соғлиқни сақлаш муассасасини "Электрон поликлиника" ахборот тизимига улаш кўздп тутилган бўлиб, 151,0 миллион сўм маблағ ҳисобидан тегишли компьютер техникаси ва жиҳозлари харид қилинди. Тумандаги барча соғлиқни сақлаш муассасалари (1 та ОП ва 2 та ОШП) лар ахборот тизимига уланди[282].

Бугунги кунда вилоятдаги 163 та муассасадан 160 таси оптик толали алоқа тармоқлари орқали юқори тезликдаги интернет тармоғидан фойдаланмоқда.

Вилоятдаги 125 та "Электрон поликлиника" тизимига уланиши лозим бўлган тиббиёт муассасаларидан 122 та муассасага "Электрон поликлиника" ахборот тизимига уланди (40 та оилавий полилиника, 60 та оилавий шифокорлик пункти, 11 та кўп тармоқли тиббиёт маркази, 11 та вилоят муассасалари).

Соғлиқни сақлаш вазирлиги ҳузурида янги ташкил этилган "ИТ – МЕД маркази" ДУК томонидан "Электрон поликлиника", "Туғилиш ва ўлимни электрон рўйхатга олиш", "Xatlovuz", "Bemoruz", "Коронавирус инфекциясига қарши эмлаш ҳисобини юритиш бўйича ягона ахборот тизими", "ТМЭК", "Психоневрологик касалликлар ҳисобини юритиш", "Наркологик касалликлар ҳисобини юритиш" ахборот тизимлари жорий этилган бўлиб, ҳозирда вилоят даволаш профилактика муассасаларига логин пароллар ажратилиб, мазкур тизимларнинг электрон базалари кунлик маълумотлар реал вақт режими билан бойитилмоқда.

Навоий вилояти ҳокимлиги томонидан ажратилган маблағлар ҳисобидан, вилоятдаги 512 та тиббий бригадалар учун 512 дона замонавий планшет қурилмалари

[280] Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Соғлиқни сақлаш соҳасида рақамлаштириш ишларини самарали ташкил этиш чора – тадбирлари тўғрисида"ги қарори. 23.02. 2020. https://lexuz
[281] "Дўстлик байроғи". 2022 йил. 4 октябрь.
[282] "Дўқтлик байроғи". 2020 йил, 8 ноябрь.

олиб берилиб, мазкур планшетлар орқали тиббий бригадалар томонидан хонадонма – хонадон юриб аҳолини хатловдан ўтказишда фуқароларнинг антропометрик кўрсаткичларини “Xatlovuz” ахборот тизимига киритишда ҳамда аҳоли хонадонларига тиббий маслаҳатларини беришда фойдаланилмоқда.

Шунингдек, барча тиббий бригадалар томонидан “Телеграмм” мобил иловасида махсус гуруҳлар яратилиб, ўзига бириктирилган ҳудуддаги ҳар бир хонадондан 1 нафар фуқарони яратилган гуруҳга аъзо қилиб, ҳар бир хонадонда истиқомат қилаётган фуқароларнинг соғлиги тўғрисида маълумот олиш ва уларга онлайн тиббий маслаҳатлар бериш тизими жорий этилди. Бу албатта аҳоли томонидан тиббиёт соҳаси ва ходимларига бўлган ишончни янада оширишда жиддий аҳамият касб этди.

2019 – 2021 йилларда қабул қилинган ҳужжатларда долзарб бўлиб турган бирламчи тизимга оид бир қатор муаммоларнинг ечимлари ўз аксини топди.

Навоий вилояти аҳоли сони 2020 йил якунида 1 млн. 19 минг 817 нафар (731.597 нафари катта ёшдагилар ва 288.220 нафари эса 0 – 18 ёшгача болалар)[283]ни ташкил этиб, 3 та шаҳар ва 8 та туманларда 11 та кўп тармоқли марказий поликлиникалар, 40 та оилавий поликлиника, 63 та оилавий шифокор пунктлари ва 307 та маҳалла мавжуд[284].

Вилоятда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 ноябрдаги ПФ – 6110 – сонли Фармони 1 – иловасига мувофиқ 2021 – 2023 йилларда жами 24 та ОШП ва 5 та оилавий поликлиника ташкил этилиши мўлжалланган.

2021 йилда вилоят бўйича 8 та ОШП ва 1 та ОП ташкил қилиш режалаштирилган бўлиб, ҳозирда 3 та ОШП ва 1 та ОП (Қизилтепа туманида Олмазор оилавий шифокорлик пункти, 1 та оилавий поликлиника ва Кармана туманида Зарафшон ва Навбаҳор туманидаги Янгиқўрғон оилавий шифокорлик пунктлари) ташкил этилди.

Бепул тиббий ёрдам олиш ҳуқуқини берувчи йўлланма (ордер) бериш тизимини ахборот технологияларини қўллаган ҳолда такомиллаштириш белгиланди. Ушбу йўналишнинг тўлиқ электрон шаклга ўтказилиши ва фуқароларнинг ордер олишини “ягона дарча” тизими орқали олинишига эришиш орқали халқ учун анча қулайликларни юзага келтириш чоралари кўрилмоқда.

Вилоятда тиббиёт соҳасида мустақлликка эришилган кундан бошлаб ўтган давр мобайнида муркаб ва шу билан бирга катта муваффақиятли ва истиқболли йўл босиб ўтилганлиги юқорида келтирилган рақамларда ўз ифодасини яққол кўрсатиб турибди[285].

Мамлакатимиз мустақилликни қўлга киритиши билан эса юқорида таъкидлаб ўтганимиздек, барча имкониятлардан оқилона фойдаланиб, аҳоли саломатлиги йўлида давлатимиз ва Президентимиз раҳнамолигида салмоқли ишлар амалга оширилмоқда. Кейинги уч – тўрт йилда Президентнинг 60 га яқин фармон, қарор ва фармойишлари, Вазирлар Маҳкамасининг 80 га яқин қарор ва фармойишлари қабул қилинганлиги бунинг яққол далилидир. Ҳозирда Президент Ш.Мирзиёев ташаббуси билан аҳолининг 25 мингга яқин фикр – мулоҳазаларини ўрганиб, “Инсон қадри учун” деган эзгу ғоя асосида юртимиз соғлиқни сақлаш тизимини янги босқичга олиб чиқиш ва халқимизга тиббий хизмат кўрсатиш самарадорлиги ва сифатини оширишга қаратилган кенг кўламли тадбирлар амалга оширилмоқда.

---

[283] Навоий вилояти статистика бошқармаси жорий архиви, 2021 йил, 1 – йиғма жилд, 18 – варақ.
[284] Навоий вилоят давлат архиви. 297 – фонд. 2 – рўйхат. 7 – йиғма жилд. 78 – варақ.
[285] Расулов З. Навоий вилояти тиббиёти. Кеча ва бугун. – Тошкент. “SAHHOF”. 2021 йил. Б. 45.

NAVOIY VILOYATIDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI ISLOHOTLARI: JAHON TAJRIBASI VA AMALIY NATIJALAR

Shirinova Firuza Inoyatovna-
NavDPI Tarix kafedrasi katta o'qituvchisi

Bugungi kunda dunyo tajribasida ijtimoiy sohada, xususan maktabgacha ta'lim tizimida erishilgan innovatsion yutuqlar va tajribani chuqur tahlil qilish asosida mazkur tizimdagi yuksalishlarni takomillashtirish, kadrlar siyosatini rivojlantirish asosida xizmat sifati va samaradorligini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi globallashuv sharoitida yer yuzining rivojlangan davlatlari – Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiya, AQSH, Yaponiya, Turkiya kabi davlatlarning universitetlarida maktabgacha ta'lim sohasi bo'yicha salmoqli ilmiy tadqiqot ishlari bajarilmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim – tarbiya masalalari xalqaro nufuzli davlatlar amaliyotidan foydalanish mutaxassislar tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilikka erishgandan buyon sobiq sho'rolar davridagi turg'unlik yillari soha muammolarini bartaraf etish va rivojlantirish bo'yicha tahsinga sazovor ishlar olib borilayotgan islohotlar zamirida amalga oshirib kelinmoqda. Prezidentning maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilishga qaratilgan qator qaror va farmonlari, hukumat qarorlari, parlament tomonidan ko'rib chiqilib tasdiqlanayotgan yangi qonunlar pirovardida kelajagimiz bo'lgan bolalarimiz ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Shuning uchun ham maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan barcha xodimlarni, mutaxassilarni kasbiy ko'nikma va malakalarini tizim doirasida oshirish, rivojlangan davlatlarning maktabgacha ta'lim tizimi bo'yicha tajribalarini o'rganish va o'zlashtirish hamda, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrovini ko'tarish, qishloq joylarida, uzoq ovullarda maktabgacha ta'lim muassasalarini qurish va mavjudlarini zamonaviy tarzda faoliyat olib borishini tashkil etish, ichimlik suvi muammosini hal etish, maktabgacha ta'lim tizimini har tomonlama rivojlantirishni va ushbu jarayonlarning ilmiy tadqiqotini davr taqozo etmoqda.

YUNESKO va nufuzli xalqaro konsalting tashkiloti (DGP Research & Consulting) ekspertlari tomonidan 2017 yil yanvar – iyun oylarida O'zbekiston ta'lim tizimini kompleks o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tahlillar asosida berilgan xulosalarda mamlakat oliy ta'lim jarayonida qator kamchiliklar qayd etildi. 2017 yil 16 fevraldagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" gi Farmoni, hamda 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora – tadbirlari to'g'risida"[286]gi Qarori mamlakat ta'lim tizimi va ilm – fanini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Prezidenti SH.M.Mirziyoevning tashabbusi bilan, Prezidentning 2017 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar haqida"gi 5198 - Farmoni ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi.[287] Shu bois eng yaxshi xalqaro tajribalar asosida tizimdagi dasturiy va o'quv-metodik ta'minotni takomillashtirish maqsadida maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish zarurati paydo bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi "Boshlang'ich ta'limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o'tish

[287] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni.//Xalq so'zi. 2017 yil, 30 sentyabr.

bo‘yicha chora-tadbirlar haqida”gi 999- sonli qarorini ijro etish doirasida O‘zbekiston o‘z zimmasiga 6 – 7 yoshli bolalarning maktabga to‘lovsiz majburiy bir yillik tayyorgarligi bo‘yicha majburiyatni oldi. 6-7 yoshli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularga ta’lim-tarbiya berish va maktabga tayyorlash maqsadida “Ilm yo‘li” dasturini ishlab chiqish hamda uni tasdiqlash zarurati paydo bo‘ldi.[288]

Mazkur dastur maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun ishlab chiqilgan “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi, O‘zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari, “Kadrlar tayyorlash bo‘yicha Milliy dastur”, maktabgacha ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasi asosida ishlab chiqildi. Shuningdek, ta’lim sohasini boshlang’ich bo‘g’inini rivojlantirish maqsadida mamlakatda birinchi marotaba 2020 yil 23 sentyabrda “Ta’lim to‘g’risida” gi Qonunning yangi tahriri qabul qilindi.

“BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarining to‘rtinchisi – “Sifatli ta’lim”ga bag’ishlangan bo‘lib, O‘zbekistonda bu borada o‘nta ustivor vazifa milliy maqsad sifatida belgilab olindi. Yangi tizimli islohotlar ta’lim sohasining barcha bosqichlarida amalga oshirilishiga e’tibor qaratildi. 2017 - 2022 yillarda O‘zbekisonda maktabgacha ta’lim muassasalari soni 3 barobar oshib, 14 mingga yetdi, bog’cha yoshidagi bolalarni qamrab olish darajasi 27,7 foizdan 60, 2 foizga yetdi. Ushbu sohaga davlat sherikchilik mexanizmi joriy etilishi tufayli 223 mingdan ortiq o‘ringa ega bo‘lgan 7 ming 400 ta xususiy MTM tashkil qilindi”.[289] Maktabgacha ta’lim sohasiga oid boshqa me’yoriy – huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi. Viloyatda 2017 – 2022 yillar davomida jami maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni 132 tadan 1127 taga yetdi. Ulardan 210 tasi davlat va 917 tasi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlaridir. Bugungi kunda davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining qariyb 90 foizi zamonaviy loyihalashtirilgan binolarga joylashtirilgan bo‘lib, 87 foizi markazlashgan tizimlarga ulangan. Birgina joriy yil 6 oyi mobaynida 2 ta davlat va 3 ta yirik davlat – xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari negizida 4 ta xususiy, 73 ta yirik davlat – xususiy sheriklik asosida va 840 ta oilaviy maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyat yuritmoqda. 80671 nafar 3 – 7 yoshdagi bolalarning 65247 nafari maktabgacha ta’lim bilan qamrab olingan. Bu ko‘rsatkich 5 yilda 34,1 foizdan 80,9 foizga yetkazildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qaroriga asosan viloyatda bugungi kunda 60 ta davlat maktabgacha ta’lim tashkilotida ovqatlantirish autsorsing usulida tashkil etildi.[290]

Viloyatda 2018 – 2022 yillar davomida turli davlat dasturlari va mahalliy byudjet mablag’lari hisobidan jami 130 ta, jumladan 33 ta davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti yangidan qurildi, 79 tasi rekonstruksiya qilinib, 18 tasi mukammal ta’mirdan chiqarilgan. Joriy yilda esa 66,7 milliard so‘mlik 22 ta ob’ektda qurilish – ta’mirlash ishlari olib borilmoqda. Viloyatda nodavlat sektorni rivojlantirish uchun 82 ta yirik loyihaga 170,1 milliard so‘mlik imtiyozli kreditlar ajratilgan bo‘lib, tizimda ta’lim berishning muqobil shakllaridan keng foydalanilmoqda. Xususan, 2020 - 2022 yillarda 6 yoshli bolalar uchun 284 ta bir yillik bepul majburiy maktabga tayyorlov guruhlari tashkil etilib, ularga 6923 nafar

[1] Prezident Sh.M.Mirziyoyevning O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi//.Xalq so’zi. Gazeta.//2017 yil, 8 dekabr.

[2] Navoiy viloyati maktabgacha ta`lim muassasalari boshqarmasi joriy arxivi. 2020 yil Hisoboti.

[3] O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojatnomasi. //https: //president.uz./ lists/ view/ 4057.

[289] Мирзиёев Ш.Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда.-Тошкент: O’qituvchi MU MCHJ , 2021/ -Б.53.

[290]Навоий вилоят МТТБнинг 2019 йил якунлари ҳисобот. Жорий архив.2021 йил декабр.

bola qamrab olindi. Yangi o‘quv yilida ham yana qo‘shimcha 58 ta majburiy guruhni tashkil etish va ularga kamida 1160 nafar 6 yoshli bolalarni bepul qamrab olish belgilangan.

Navoiy viloyatida so‘nggi 5 yilda 700 dan ortiq bog’chalar tashkil etilib, ularning soni 1 203 taga yetdi va maktabgacha ta’lim bilan qamrov 61,7 foizdan 79,8 foizga oshdi. Salohiyatli (toifali) pedagoglar ulushi 42,7 foizdan 64,6 foizga yetdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 apreldagi 3651-sonli qaroriga asosan davlat xususiy sherikchilikda 120 o‘rinli nodavlat maktabgacha ta’lim muassasasi qurildi. Binoning jami loyihaning umumiy qiymati 3 mlyard 680 mln so‘mni tashkil etgan. Shundan o‘z hisobidan 670,0 mln so‘m va bank kredit mablag’lari hisobidan 1 mlrd 875 mln so‘m 1 foizlik kredit ATB Turon Bank Navoiy filiali tomonidan tasdiqlangan jadvalga asosan bank krediti shartnoma bo‘yicha ajratilgan. “Porloq kelajak” nodavlat muassasasi xududdagi 120 nafar bola qamrab olindi, MTMda 25 nafar ish o‘rni yaratildi. Navbaxor tumanidagi “Qush qochdi” MFYda joylashgan davlat-xususiy sherikchiligi asosida tashkil etilgan “Maftuna Sarvarbek Orzusi” nodavlat maktabgacha ta’lim muassasasi tajribasini respublikada ommalashtirishga qaror qilindi.

SPORT SOG‘LOMLASHTIRISH MASALASI BOLA HAYOTIDAGI MUHIM KOMPONENT SIFATIDA

A.K Chuliyev-
Navoiy davlat pedagogika instituti
Sport turlarini o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

Kichik maktab yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash nazariyasi bola shaxsining shakllanipsh va jismoniy tarbiyalashning umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi. Bu fan umumiy jismoniy tarbiya nazariyasining g’oyaviy va metodologik asoslaridan kelib chiqadi va uning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya nazariyasi o‘quvchilarda jismoniy barkamollikni, har tomonlama taraqqiy etgan yuksak madaniyat va axloqni tarbiyalash bo‘yicha ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asosda qurishni belgilaydi. Bu amaliy fan o‘qituvchisini boshlang’ich sinf o‘quvchilari jismoniy barkamolligining vositalari, shakllari va usullari to‘g’risidagi bilimlar bilan qurollantiradi, unda maxsus va tegishli harakat ko‘nikmasi hamda malakalarini shakllantiradi.

Shunday qilib, jismoniy tarbiya nazariyasi jismoniy tarbiyaning umumiy nazariyasi bilan yagona mazmunga ega bo‘lib, jismoniy tarbiyalash qonuniyatlarini hamda shunga muvofiq bolaning ta’lim va tarbiya jarayonida rivojlantirishni boshqarishning umumiy qonuniyatlarini maxsus o‘rganadi. SHuningdek, umumiy ma’lumotlar, amaliy va ilg’or tajribalarni umumlashtiradi, tegishli jismoniy tarbiya vazifalarini belgilaydi, jismoniy tarbiya jarayonini uyushtirishning samarali vositalari va uslublarining maqsadga muvofiq shakllarini majmuali ravishda ochib beradi.

Jismoniy tarbiya nazariyasi doimo jismoniy tarbiya amaliyotiga tayangan holda taraqqiy qiladi va takomillashadi. Uning metodologik asosi ana shu amaliy ilmiy tadqiqot natijalarini o‘zlashtirish orqali hamisha boyib boradi. SHuning uchun ham jismoniy tarbiya predmeti qotib qolishi mumkin emas, u rivojlanib va mukammallashib boradi. YOsh avlodni ongli, milliy g’ururli, yuksak madaniyatli qilib, ya’ni sog’lom, baquvvat, chiniqqan, tadbirkor, o‘z xarakatlarini yaxshi boshqara oladigan, badantarbiya va sport mashg’ulotlarini sevadigan, har qanday vaziyatda ham o‘zini tuta biladigan va mustaqil

xarakat qila oladigan, xayotda faol, ijodiy faoliyatga nisbatan qobiliyatli qilib tarbiyalash jismoniy tarbiyaning muhim vazifasi hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya nazariyasi boshlang'ich sinflarda har bir yosh bosqichidagi bolaning yashirin imkoniyatlari qonuniyatlarini o‘rganib va hisobga ola borib, jismoniy tarbiyaning butun ta'lim-tarbiya majmuasi, ilmiy asoslangan dasturi talablarini (harakat, ko‘nikma va malakalar, jismoniy sifatlar, ba'zi sodda bilimlarni) ko‘zda tutadi. Ularni o‘zlashtirish bolalarning kelajakdagi zaruriy harakat faoliyatlarini tez egallash imkoniyatlarini ta'minlaydi[1]. SHu bilan birga, dasturning bolalar tomonidan o‘zlashtirilishida qatiy izchshshikka rioya qilinadi. Bunda bolaning yoshiga nisbatan rivojlanish xususiyatlari va hayotining har bir bosqichidagi imkoniyatlari, organizmning butun tizimlari (suyak-muskul, yuraktomir, nafas olish va boshqalar) va organlari (boshqarish, eshitish, ko‘rish, nutq va boshqalar) hisobga olinadi.

Jismoniy tarbiya shaxsni har tomonlama tarbiyalashda muxim komponent hisoblanadi, ayni paytda u shu jarayonda aqliy va axloqiy, estetik, mehnat tarbiyasi vazifalarini kompleks tarzda hal etadi. O‘quvchilar jismoniy tarbiyasini uyushtirishning turli shakllari (darslar, sinfdan va maktabdan tashqari ishlar, sog'lomlashtirish va badantarbiya tadbirlari, mustaqil xarakat faoliyati va boshqalar) mavjud. O‘qituvchining e'tibori ana shu shakllar orqali, o‘z yosh imkoniyatlariga ko‘ra ongli va faol harakat qiluvchi, o‘zini erkin tuta oladigan, o‘ziga bo‘lgan ishonchni namoyon etuvchi, harakat ko‘nikmalarini muvaffaqiyat bilan o‘zlashtiradigan, hayotda uchraydigan qiyinchiliklardan cho‘chimay, ularni bartaraf qila oladigan, doimo ijodiy izlanishdagi bolani tarbiyalashga yo‘naltirilgandir.

Jismoniy tarbiya nazariyasi jismoniy tarbiya tizimining maqsadi, vazifalari va prinsiplarini o‘rganadi hamda tarbiyaning boshqa turlari (aqliy, axloqiy, estetik va mehnat) bilan jismoniy tarbiyaning qonuniy aloqasini ochib boradi. Jismoniy tarbiya nazariyasi jismoniy tarbiya vositalari va ulardan foydalanish shakllarini o‘rganishga alohida e'tibor beradi. Binobarin, har bir harakatni o‘rganish va bolaning asosiy harakat sifatlarini tarbiyalash prinsiplari hamda uslublarini o‘rganishga jiddiy e'tibor jismoniy tarbiya nazariyasining muhim qismini tashkil etadi.

Bolalarni jismoniy tarbiyalash nazariyasi muttasil rivojlanmoqda va o‘quvchilar ta'lim-tarbiyasining turli tomonlarini qamrab oluvchi tadqiqotlar natijasida olinadigan yangi bilimlar hisobiga boyib borayotir. SHu yoshdagi bolalarni o‘qitish 5 tajribasida sinovdan o‘tgan ilmiy-tadqiqot natijalari: dasturlar, o‘quv rejalari va qo‘llanmalari darsliklarga kiritilmoqda hamda bolalar jismoniy tarbiya amaliyotiga joriy qilinmoqda. Bu esa jamiki ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligiga va taraqqiyotiga yordam beradi. SHuningdek, kichik yoshdagi maktab bolalarini jismoniy tarbiyalash nazariyasi butun jismoniy tarbiya tizimini takomillashtirishga ko‘maklashadi.

Jismoniy tarbiya nazariy va amaliy bo‘ladi, deyilganda jismoniy tarbiyaning bir qismi-ilmni o‘rganishdan, ikkinchi qismi-amaliy ish bilan shug'ullanishdan iborat deb tushunmaslik kerak. Aslida, jismoniy tarbiyaning bu ikkala qismi ham ilmdan boshqa narsa emas. Biroq ulardan biri jismoniy tarbiya qonuniyatlarini bilish, ikkinchisi esa amaliyotda uni qo‘llashdan iboratdir. Bularning birinchisi ilm yoki nazariya, ikkinchisi esa amaliyotdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.Xasanov. "Jismoniy tarbiyani o‘qitish nazariyasi va metodikasi" fani bo‘yicha ma'ruza matnlari to‘plami. Termiz. 2013.

2. Usmonxo‘jayev T.S., Xo‘jayev F. «Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya», o‘quv qo‘llanma. T., «O‘qituvchi», 1996.

ОСОБЕННОСТИ ПРОЦЕССА ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

Мустафаева Дилором НОРБЕКОВНА,
преподаватель кафедры современного русского языка УЗГУМЯ

Последние несколько десятилетий стали свидетелями существенных изменений в области изучения и преподавания иностранных языков. Эмпирические исследования из таких областей, как лингвистика, психолингвистика, когнитивная психология, теория коммуникации и социолингвистика, как нельзя лучше описали сложную природу освоения языка, благодаря этим исследованиям стало очевидно, что лингвистические, психолингвистические и социокультурные факторы играют ключевую роль в этом процессе. В условиях существования современного многоязычного поликультурного сообщества, когда мир постепенно становится «всемирной деревней (сообществом, в котором большие расстояния сократились за счет использования электронных и транспортных средств коммуникации)», преподавание учебного предмета «Иностранный язык» претерпевает решительные изменения. Языковая подготовка в системе высшего профессионального образования должна ставить своей целью не просто овладение знаниями, умениями и навыками, но и способствовать формированию у студентов возможности использовать иностранный язык в качестве инструмента общения в дальнейшей профессиональной деятельности не только в диалоге культур, но и как средство профессионального научно-технического общения. Современная ситуация на мировом рынке труда, возможность выхода на международную арену в будущей профессиональной деятельности, многочисленные контакты с носителями других языков — все это предполагает необходимость свободного общения с представителями других культур. В этих условиях можно предположить, что обучение иностранному языку должно обязательно основываться на формировании и развитии иноязычной коммуникативной компетентности. Именно такой компетентности и должно быть уделено основное внимание в образовательном процессе. Однако если исключить ранние исследования М. Канале и М. Свейн [1; 2], связь между обучением иностранному языку и межкультурной коммуникативной компетентностью до сих пор не рассматривается в трудах преподавателей и методистов. В прикладной лингвистике были сделаны попытки рассмотреть дидактический конструкт коммуникативной компетентности в рамках усвоения любого иностранного языка [3], но попытки построения такой модели не были связаны с диагностикой языкового уровня или с методическими проблемами обучения языку.

Язык используется для самовыражения, творческого мышления, решения проблем, но наиболее значителен язык для коммуникации. Что делает трудным использование языковой системы для коммуникации с другими людьми, так это тот факт, что способность индивида взаимодействовать с другими посредством языка (устное и письменное общение) уникальна для каждого человека и одновременно является универсальным общечеловеческим умением, отличающим человека от животных. Успешное применение языка в целях коммуникации предполагает развитие коммуникативной компетентности пользователей этого языка, которое ограничено социокультурными нормами общества, где этот язык используется. Какие особенные социокультурные нормы должны быть соблюдены при использовании английского языка для международного общения? Или это универсальные

общечеловеческие нормы, преобладающие над отдельными обществами и культурами?

По мнению ряда ученых, «результатом присвоения компетенции является компетентность» . Впервые понятие коммуникативной компетентности ввёл Н. Хомский в 1965 г., разграничив понятия «лингвистическая компетенция», «грамматическая компетенция» и «использование языка в конкретных ситуациях» [4]. Позднее Д. Хаймс определяет коммуникативную компетентность как интегративное образование, в котором обучающийся «…приобретает знания о высказывании не только с точки зрения грамматической, но и с точки зрения уместности данного высказывания. Он должен знать, когда говорить, а когда нет, что говорить, с кем, где и в какой манере. Короче говоря, он становится способным овладеть целым репертуаром речевых актов, принимать участие в речевых ситуациях и оценивать коммуникативную компетентность других…»

В процессе коммуникации происходит обмен сообщениями, то есть осуществляется передача информации от одного участника коммуникативного события к другому. Информация кодируется с помощью определенной символьной системы (языка), передается и затем декодируется или интерпретируется адресатом сообщения в соответствии с наличием или отсутствием у него знаний о культурных особенностях собеседника. Целью преподавания любого иностранного языка является научение умению общаться устно или письменно. Под лингвистической компетенцией неаутентичной языковой личности мы понимаем способность осуществлять коммуникацию, базирующуюся на знаниях лексических единиц и грамматических правил данного языка. Но этого, как выясняется, недостаточно для достижения коммуникативной компетентности. Необходимо сочетание лингвистической компетентности с национально-культурным компонентом и умением адекватного применения языковых средств в ситуациях межкультурного общения, а также с умением использовать культурные фоновые знания для достижения взаимопонимания в ситуациях опосредованного и непосредственного межкультурного общения, диалога.

Таким образом, упрощенное схематизированное представление коммуникативной компетентности, упрощенное отражение реального коммуникативного процесса необходимы как инструмент изучения и управления реальным коммуникативным пространством, как средство проектирования процесса обучения и прогнозирования хода и результатов этого обучения.

Использованная литература

1. Хомский Н. Язык и мышление. М.: Изд-во Моск. ун-та, 1972. 122 с.
2.Макарова Е.А. Схема и фон: интроекция в неоднородном семиотическом пространстве: дис. … д-ра психол. наук. Ростов н/Д, 2007.
3. Выготский Л.С. Мышление и речь // Выготский Л.С. Собрание сочинений: в 6 т. М.: Педагогика, 1982. Т. 2. С. 121.
4. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. М.: Политиздат, 1977.

РОЛЬ ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКОЙ РАБОТЫ НА ЗАНЯТИЯХ ПО ОВЛАДЕНИЮ ЯЗЫКАМИ

Надежда Эмировна ШАКУРБАНОВА,
старший преподаватель кафедры современного русского языка УЗГУМЯ

В сегодняшнем образовательном пространстве владение терминологической составляющей какой-либо специальной лексической системы трудно переоценить. В своей профессиональной деятельности специалист сталкивается с проблемой обилия иноязычной информации, представленной посредством различных источников (книги, журналы, Интернет и т.д.).

Под терминами мы понимаем слова или словосочетания, являющиеся точными обозначениями специальных понятий науки, техники, производства, искусства и др. [1, 15]. Функционируя в научном контексте, термины вступают в сложные семантико-синтаксические отношения с другими словами. Проявляют ограниченные сочетательные возможности, по-иному, нежели слова общего языка, «вживаются» в ткань текста, а все это представляет немалые трудности для обучающихся. Работая над лексическим материалом, преподаватель ставит перед собой цель: студент должен владеть определенным количеством слов. Существует три этапа:

1. Дотекстовый.
2. Текстовый.
3. Послетекстовый.

На первом, дотекстовом, этапе студенты не знают, какой текст они будут читать. Преподаватели отбирают слова и планируют работу с ними. Цель занятия – обогащение речи учащихся новым лексическим материалом. Если к концу урока учащиеся усвоят значение всех новых слов, будут понимать вопросы, в которых использовали и их употребляли в своих ответах – значит, задача этого этапа выполнена: речь учащихся обогатилась новыми словами. Теперь нужно закрепить лексические навыки. Это уже текстовый этап. Усвоенные лексические единицы воспринимаются зрительно в новых контекстах, в новых сочетаниях. Чем чаще встречаются новые слова, тем лучше. Наконец наступает время самостоятельности слов, они не должны употребляться только в привычных ситуациях, например: при пересказе усвоенного текста. Лучше, если они используются в продуктивной речи: при составлении своего высказывания, диалогов, вопросов. Положительные изменения может обеспечить психологическое обоснование учебного процесса по иностранному языку, учет особенностей функционирования психических процессов. Реализация психических свойств, использование психических состояний. При освоении иноязычной лексики все еще остаются невостребованными определенные резервы, такие, как контекстуальное мышление и сопутствующие ему психические процессы памяти, внимания, восприятия[2; 3],. Важно отметить, что в процессе обучения нет четкой границы между активным и пассивным словарем обучающихся. Некоторые лексические единицы могут перейти из пассивного словаря в активное употребление путем выполнения практических заданий по говорению, так же как и, наоборот, при длительном отсутствии практики языка, часть слов переходит из активного словарного запаса в пассивный, а в каких-то случаях могут быть забыты и вовсе. Существует также лексика, освоенная при аудировании, которая имеет 2 возможных варианта пути: при многократном повторении она запоминается и активно используется учениками впоследствии в процессе коммуникации, либо в

условиях отсутствия повторения той или иной лексической единицы, встретившись однократно, она не задерживается в долгосрочной памяти учеников и забывается.

Таким образом, становится очевидно, что для того чтобы вновь приобретенная лексика не просто на время задержалась в пассивном словаре обучающихся, но перешла в долгосрочную память и использовалась как активные лексические единицы, необходима регулярная методичная работа по активизации словарного запаса. Постоянная актуализация недавно заученной лексики и ее частое повторение в различном семантическом окружении является одним из ключевых факторов, который обеспечивает расширение лексического запаса обучающихся.

Следует отметить, что увеличение активного семантического поля проходит гораздо проще и интересней не за счет однообразного механического повторения, но за счет более творческих видов деятельности, окруженных разнообразием контекстов, вместе с этим повышая как образность речи учеников, так и их мотивацию работать на уроке и активировать свой словарный запас[4]. Тем не менее, одного знания иноязычного эквивалента слова родного языка не достаточно для того, чтобы правильно использовать эту лексику в выражении своих собственных мыслей на иностранном языке. Именно поэтому на уроках английского языка должны быть представлены не просто значения слов, но их сочетаемость с другими словами, устойчивые выражения и словосочетания, а также должны быть созданы условия для речемыслительной деятельности в качестве рефлексии материала. Изучаемый материал должен быть выражен единичными примерами лексических единиц, но приобретать конкретный смысл для учащихся и, таким образом, активизировать память и мышление учеников.

Для полноценного запоминания и активизации лексики недостаточно просто услышать новое слово и проговорить его, но включить мыслительную деятельность, задействовать зрительную и ассоциативную память. Крайне важно, чтобы в каждом упражнении была заложена коммуникативная ценность, конечная цель всего комплекса заданий. В этом случае самостоятельное использование вновь приобретенных лексических единиц в устной и письменной формах будет протекать намного плавнее и логичнее. Основной целью обучения лексическому материалу является формирование у учащихся лексических навыков как важнейшего компонента экспрессивных и рецептивных видов речевой деятельности. В номенклатуру задач в процессе обучения студентов иностранному языку (имеются в виду студенты неязыковых специальностей) входит не только формирование и совершенствование навыков чтения оригинальной научной литературы по специальности, газетных, журнальных статей научно-популярного и общественно-политического характера, но и формирование умения принять участие в диалоге на учебно-бытовую, общественно-политическую и профессиональную темы. Студент должен уметь построить собственное высказывание, участвовать в обсуждении различного рода деловых вопросов на собраниях и заседаниях.

Возможности освоения иноязычной лексики могут быть активизированы через реализацию их психологических резервов на основе применения дидактических принципов. [5]. Накопление лексического запаса требует упорной самостоятельной работы, большинству студентов другим путем эту проблему не решить, следовательно, в ходе воспитывающего обучения необходимо формировать соответствующие личностные качества: дисциплинированность, трудолюбие, прилежание, чувство ответственности. При обучении иностранному языку, в частности, иноязычной лексике, часто нарушается принцип доступности обучения.

Необходимо учитывать ограниченные возможности восприятия и запоминания, особенно на фоне умственного утомления при больших учебных нагрузках. Психологически неправильно осуществляется и мотивирование: не учитываются возрастные особенности студентов, ведущий вид их деятельности, в результате чего не формируется мотивационно-потребностный план деятельности, не удовлетворяется коммуникативная и познавательная потребность в освоении иностранного языка и лексики как его составляющей. Вся вышеизложенная информация может способствовать повышению качества управления учебным процессом по обучению иностранному языку и соответственно освоению иноязычной лексики по специальности. Специалист в любой отрасли, легко ориентирующийся в национальных особенностях, нормах профессионального этикета, терминологии, будет готов к продуктивному общению, что является целью при обучении иностранному языку.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Матвеева Т.В. Полный словарь лингвистических терминов / Т.В. Матвеева. – Ростов н/Д: Феникс, 2010. – 562с.
2. Щукин А.Н. Лингводидактический энциклопедический словарь: более 2000 единиц / А.Н. Щукин. – М.: Астрель: АСТ: Хранитель, 2008. – 746с.
3. Стариченок В.Д. Большой лингвистический словарь / В.Д. Стариченок. – Ростов н/Д: Феникс, 2008. – 811с.

ЎЗБЕК ТИЛИНИ ЎРГАТИШДА ЛУҒАТ БИЛАН ИШЛАШ УСТУВОРЛИГИНИНГ АҲАМИЯТИ

Рахимова Феруза ШАВКАТОВНА,
ТДТУ Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси катта ўқитувчиси

Ўзбек тилини ўрганишда асосий мақсадларидан бири ўқувчиларга она тилидаги сўзнинг маъно ва моҳиятини ўргатишдан, сўзни ҳис этишга йўллашдан иборат. Бунда сўз маъноларини ўзлаштириш ва уни нутқда тўғри ва ўринли қўллаш малакасининг ҳосил қилиниши алоҳида ўрин тутади. Бунинг учун ўзбек тили дарсларида луғат устида ишлашга алоҳида эътибор берилади. Луғат устида ишлаш ўзбек тили дарсларадаги оддий машғулот эмас. Мазкур жараёнда: — ўрганувчиларнинг ақлий ва нутқий жиҳатдан ривожланиши кўзда тутилади; — дастурда белгиланган илмий-назарий ҳамда методик вазифалар бажарилади; — ўқувчиларнинг ақлий, ахлоқий-маънавий, бадиий-эстетик тарбияси амалга оширилади; — уларнинг ўзбек тили замирида яширинган сир-у синоатлар, файз-у гўзалликларни илғаб олишига имкон берилади [1]. Шунинг учун ҳам луғат устидаги иш оддий ва тасодифий машғулотлар бўлиб қолмаслиги, балки мунтазам ва қатъий режага таянадиган, узоқ ва олий мақсадларга хизмат қиладиган, узлуксиз тизим тарзида амалга ошиши керак. Луғат устида ишлаганда ҳар бир сўзнинг амалий жиҳатларига, амалий аҳамиятига алоҳида эътибор бериш зарур бўлади. Ҳар бир сўзнинг ўқувчи шахсининг дунёни или шва ўзлаштиришдаги, унинг нутқий фаолиятидаги муайян бир хизматлари бўлишини таъминлаш шарт. Масалан, «элиг» деган сўзнинг қадимда туркий халқлар тилида мамлакат ҳукмдори маъносида қўлланган, унинг оддий сўзлашув тилида ҳам, ўз давридаги адабий тилда ҳам фаол истеъмолда бўлганлигини билиш, ўқувчига фақат она тилп дарслари учун эмас, балки тарих, адабиёт фанларидаги тегишли атама ва тушунчалар моҳиятини ўзлаштиришлари учун ҳам амалий жиҳатдан керак бўлади. Сўзларни танлашда

уларнинг қўлланиш даражаси ҳам эътиборда туриши мақсадга мослиқдир. Айниқса, кам қўлланиладиган, ўқувчининг амалий фаолиятида деярли қўлланмайдиган сўз эмас, балки унинг амалиётида тез-тез учраб турадиган сўзларга кўпроқ эътибор бериб, ўрганувчининг нутқий фаолиятининг силлиқлашишига, бойишига, бу жараённинг тасодифий камчиликлардан холи бўлишига кафолат бўлади. Албатта, бу жараёнда талабаларнинг «юк кўтариш қобилиятлари» ҳеч қачон назардан четда қолмаслиги керак [2]. Бунинг учун фақат ўзбека тили таълимидаги узвийлик ва мутаносиблик кифоя қилмайди, балки имконият доирасида бошқа фанлар билан алоқадорлик назарда тутилгани ҳам ишнинг ютуғига пойдевор бўла олади. Ҳар бир матн, тушунча, атама устида ишлашдан ташқари, ўқувчиларга, талабаларга турли-туман луғатлардан фойдаланишни ўргатиш ҳам тизимли тарзда йўлга қўйилишига эришиш муҳим. Талабалар ўзлаштириши лозим бўлган сўзларнинг умумий миқдори ва ҳажми белгиланган бўлиши, бунинг учун луғат минимумдан тортиб, тегишли сўзларнинг алфавитли тизими ишлаб чиқилиши иш муваффақиятини таъминлйдиган дастлабки омиллардир. Ўқувчилар узвийлик ва узлуксизлик принциплари асосида синонимлар луғати, антонимлар луғати, ўзбек тилининг изоҳли луғати билан таништирилиб борилиши керак [3; 4]. Тилшуносликнинг, ўзбек тилининг турли бўлимларини ўрганишда бу ишнинг ўзига хос имкониятларидан фойдаланиш ўринли бўлади. Бу жараёндаги энг муҳим босқич эса сўз маъноларини ўзлаштириш билан алоқадор. Сўз маънолари устидаги иш мураккаб ва қийиндир. Талабаларда янги, айниқса, маъноси хирароқ сўзларга алоҳида ва жиддий эътибор қаратиш ҳиссини тарбиялашга эришиш осон кечмайди. Аммо мунтазам ва барқарор машқлар тизими бу вазифани бажаришни осонлаштиради. Шунга кўра ҳар доим матн устида ишлаганда янги сўзларга ва сўзларнинг янги маъноларда қўлланганига эътиборни тортиш, ўқувчиларнинг бу соҳадаги кўникма ва малакаларининг шаклланиши ва такомиллашишига имкон беради. Бунинг учун амалиётда қўлланадиган айрим шакл ва усулларни эслатиш мумкин:

1. Янги сўзнинг маъносини изоҳли луғат воситасида ойдинлаштириш.
2. Берилган сўзнинг маънодошларини топиш.
3. Матндаги сўзнинг маъносига зид бўлган бошқа сўзларни келтириш.
4. Сўз ясалишига оид таҳлилни амалга ошириш.
5. Сўзнинг келиб чиқишига оид таҳлил билан шуғулланиш, яъни сўзнинг этимологиясини аниқлаш.
6. Сўзнинг ўз ва кўчма маъноларини, улар орасидаги боғланишларни аниқлаш.
7. Сўз маъносини изоҳлаш ва имкониятга қараб, бошқатилларга таржима қилиш.

Шу тариқа луғат диктанти таркибидаги сўзлар оғзаки шарҳланса ўқувчиларда: — мантиқий тафаккур доираси кенгаяди ва ривожланади; — фикр ифодалаш кўникмаси шаклланади ва ривожланади; — нутқда сўз қўллаш малакаси шаклланади; — сўз туркумлари юзасидан эгалланган билимлар аниқланади, умумлаштирилади, мустаҳкамланади.

АДАБИЁТЛАР:

1.Зиёдова Т.У. «Ҳозирги ўзбек адабий тилини ўрганишда коммуникатив жадваллардан фойдаланиш». Ў қу в-методик қўлланма. Академик лицейлар учун. — Т.: 2002.

2.Маҳмудов Н., Нурмоиов А., Аҳмедов А., Солихўжаева. «Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси». — Т.: «Фан», 1992.

3.Раҳматуллаев Ш. «Ўзбек тилининг янги алифбоси ва имлоси» — Т.: «Университет», 1999.

“SIFAT VA UNING MA’NOVIY GURUHLARI” MAVZUSINI O‘QITISHDA ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARLARDAN FOYDALANISH

Hamroyev Umid MUSTAFOYEVICH,
Navoiy davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyot yo‘nalishi magistaranti, Xalq ta’limi a’lochisi

Ona tili fanini o‘qitishda asosan o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish, ularda kitobxonlik madaniyatini o‘stirish, o‘zgalar fikrini to‘la anglash, o‘z fikrini tog‘ri, aniq, va ravon tarzda bayon qilish, shuningdek, yangicha va kreativ fikrlay olish qobiliyatini rivojlantirish ona tili ta’limining bosh maqsadi sanaladi.

Biz ushbu maqolamiz orqali o‘quvchilarning faqat Grammatik bilimlari emas, balki o‘quvchilarni mustaqil ishlashga, erkin va ravon fikrlashga undaydigan, o‘z fikrlarini o‘zgalarga yetkazishga xizmat qiladigan, shuningdek o‘quvchilarning muomala va nutq madaniyatini o‘stirishga xizmat qiladigan topshiriqlar ustida ishlashda ilg‘or pedagogic texnologiyalardan foydanamiz.

Avvalo, o‘quvchilarning sifatning ma’noviy guruhlari mavzusiga oid bo‘lgan olgan bilimlarni mustahkamlash, rivojlantirish maqsadida “Charxpalak” texnologiyasidan foydalanamiz.

Charxpalak texnologiyasi o‘quvchilarni o‘tilgan mavzularni yodga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to‘g‘ri javob berishga va o‘z-o‘zini baholashga o‘rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan. [1]

Ushbu texnologiyaning asosiy maqsadi: o‘quvchilarning dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o‘z fikrlarni mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o‘zlarini baholash yakka yoki guruhlarda ishlashga, o‘zgalar fikrini hurmat qilishga , bir necha fikrlardan keraklisini tanlab olishga o‘rgatadi.

Mazkur texnologiya o‘quv mashg‘ulot turlarining barcha turlarida dars boshlanganda yoki dars oxirida, yo biror bo‘lim yoki bobning tugallanish chog‘ida o‘quvchilarning o‘zlashtirganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash kabilarni o‘tkazishga mo‘ljallangan.

Sifat yuzasidan o‘tilgan mavzularni mustahkamlashga doir savollar o‘quvchilarga tarqatma sifatida beriladi. Bunda o‘quvchi beilgan ma’lumotni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlashi lozim.

№	Savollar	To‘g‘ri	Noto‘g‘ri
1.	Otga bog‘lanib, uning belgisini bildiradigan va *«qanday*?», *«qanaqa*?» so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlarga *sifat* deyiladi.	+	
2.	Sifatlar tarkibiga ko‘ra sodda tub va sodda yasama sifatlarga bo‘linadi.		+
3.	Tarkibida so‘z yasovchi qo‘shimchalar bo‘lmagan sifatlar *tub sifatlar* sanaladi.	+	
4.	Asosga sifat yasovchi qo‘shimcha qo‘shish yoki so‘zga so‘z qo‘shish yo‘li bilan yasama sifat hosil qilinadi.	+	
5.	*-li, ser-, -dor, -siz, no-, -chan, -ma, -iy(-viy)* kabi qo‘shimchalar sifat yasovchi qo‘shimchalar hisoblanmaydi.		+

6.	*-li, -dor, ba-, ser-, -mand* qo‘shimchalari asosda ifodalangan belgiga egalikni bildiradi.	+	
7.	*no-, -siz, be-* qo‘shimchalari -asosda ifodalangan belgiga ega emaslik ma’nosini bildiradi.	+	
8.	*-li, -dor, ba-, ser-, -mand qo‘shimchalari va no-, -siz, be-qo‘shimchalari o‘zaro zid ma’noli qo‘shimchalar hisoblanadi.*		+
9.	*-gi (-ki, -qi*) qo‘shimchasi payt va o‘rin bildiruvchi otlarga qo‘shilib, payt va o‘ringa xos belgini, *-simon* qo‘shimchasi o‘xshashlik belgisini, *-(v)iy* qo‘shimchasi xoslik belgisini bildiruvchi sifatlar yasaydi.	+	
10.	Ikki va undan ortiq asosdan tarkib topgan sifatlar *qo‘shma sifatlar* hisoblanadi. Qo‘shma sifatlar, asosan, qo‘shib yoziladi, ular yasama sifat hisoblanmaydi.		+
11.	Bir asosning aynan takrorlanishidan hosil bo‘lgan sifat *takroriy sifat* sanaladi. Takroriy sifatlar belgini ta’kidlab, kuchaytirib ifodalaydi. Takroriy sifat qismlari chiziqcha bilan ajratib yoziladi.	+	
12.	*Go‘zal, chiroyli, shirin, oq, aqlli, yuzaki sifatlari nisbiy sifat hisoblanadi.*		+
13.	*Qishki, ko‘chma, derazali, devoriy kabi sifatlar asliy sifat deyiladi.*		+
14.	Belgining ortiq yoki kamlik jihatidan farqlanishi *qiyosiy daraja deyiladi.*		+
15.	Sifatning quyidagi to‘rt xil darajasi mavjud: 1) oddiy daraja; 2) qiyosiy daraja; 3) orttirma daraja; 4) ozaytirma daraja.	+	
16.	Oddiy daraja shaklidagi sifat oldidan *eng, g‘oyat, juda, nihoyatda, bag‘oyat* so‘zlari keltirilib orttirma daraja hosil qilinadi.	+	
17.	Oddiy daraja shaklidagi sifatning birinchi bo‘g‘ini tovush o‘zgarishi bilan takrorlanishidan orttirma daraja sifat hosil qilinadi.	+	
18.	Qiyosiy daraja shakli *–roq* qo‘shimchasi yordamida yasaladi.	+	
19.	Rang-tus bildiruvchi ayrim sifatlardan *-(i)mtir, -ish* qo‘shimchalari yordamida ham ozaytirma daraja shakli yasaladi.	+	
20.	Ozaytirma va qiyosiy daraja shakli sifatning oddiy daraja shakli oldiga *sal, biroz, picha, xiyla, nim* so‘zlarini qo‘shish orqali hosil qilinadi.		+

O‘quvchilar savollarga javobni belgilab bo‘lganlaridan so‘ng, o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning javoblari tekshirib tahlil qilinadi. Javoblar slayd orqali o‘quvchilarga namoyish etiladi. Tez fursatlarda o‘quvchilar o‘z-o‘zini baholab oladilar.

20-17 ta to‘g‘ri javob uchun “a’lo” baho;

16-13 ta to‘g‘ri javob uchun “yaxshi” baho;

12-10 ta to‘g‘ri javob uchun “qoniqarli” baho qo‘yiladi.

O‘qituvchi o‘quvchilarning avvalgi darslarda olgan bilmlarini mustahkamlab olgandan so‘ng, yangi mavzuni tushuntirish uchun zamin hozirlaydi. Bunda o‘qituvchi ***“Ma’noviy guruhimni top”, “Mening o‘rnimni belgilang ”*** kabilardan foydalaniladi.

1-topshiriq. Berilgan sifatlarni ma’nolariga ko‘ra quyidagi jadval bo‘yicha guruhlang. Berilgan so‘zlar sifatning qaysi ma’noviy guruhiga kirishini aniqlang. (+) belgisini qo‘ying. “Konseptual jadval”

Sifatlar	Xususiyat bildiruvchi sifatlar	Rang-tus bildiruvchi sifatlar	Maza-ta’m bildiruvchi sifatlar	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlar	Hid bildiruvchi sifatlar	Makon-zamon belgisini bildiruvchi sifatlar
Shirin			+			
Qizil		+				
Katta				+		
Odobli	+					
Xushfe’l	+					
Behisob				+		
Tonggi						+
Kuzgi						+
Xushbo‘y					+	
Muattar					+	

2-topshiriq. Yuqoridagi sifatlarning qanday so‘roqlarga javob bo‘lishini aniqlang. So‘z birikmalar hosil qiling.

Sifatlar	So‘z (ot, ba’zan fe’lga birikadi)	So‘roqlari
Shirin	Olma	Qanday
Qizil	Koptok	Qanday
Katta	Hovli	Qanday
Odobli	Qiz	Qanday
Xushfe’l	Inson	Qanday
Behisob	Yulduzlar	Qaysi
Tonggi	Shabada	Qaysi
Kuzgi	Xirmon	Qaysi
Xushbo‘y	Non	Qanday
Muattar	Atir	Qanday

Sifatlar qanday belgini ifodalashiga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1) xususiyat sifatlari;

2) rang-tus sifatlari;
3) maza-ta’m sifatlari;
4) hajm-o‘lchov sifat lari;
5) hid bildiruvchi sifatlar;
6) makon-zamon belgisini bildiruvchi sifatlar.[2]

Sifatlarni yuqoridagigek ma’no guruhlariga ajratish nisbiy bo‘lgan o‘rinlar ham mavjud .

Katta hovlida yolg‘iz o‘zi yashaydi .(hajm-o‘lchov)===U o‘g‘lini katta odam qilish istagida edi (xususiyat)

Qovun juda shirin ekan .(maza-ta’m)===Achchiq savol berib , shirin javob kutma . (xususiyat) [3] 281-bet

387-mashq. Matnni o‘qing.

Bir cholning to‘rtta **navqiron** o‘g‘li bor ekan. Bir kuni chol:

— Men qarib qoldim. Ichingizdan kim **aqli** va **davlatman** bo‘lsa, menga merosxo‘r bo‘ladi,— debdi.

Eng katta o‘g‘il qizil yoqut **ko‘zlli** oltin uzugini, ikkinchi o‘g‘il **zarbop** choponini, uchinchisi **bebaho** kamarini ko‘rsatib maqtanibdi.

Chol indamay turgan kenja o‘g‘ilga qarabdi.

— Menda bunday boyliklar yo‘q, lekin **mexnatkash** qo‘lim, botir yuragim, aqlli boshim bor, — debdi u. Uning javobi cholga yoqibdi. Kenja o‘g‘ilga bor merosini qoldirishini aytibdi. (Rivoyat)[3]

1-topshiriq. Matnga sarlavha qo‘ying.

Matnni “Donishmand ota”, “Uch o‘g‘il”, “Ota ibrati” , “Munosib farzand” “Ildiz va yaproqlar” kabi nomlar bilan atash maqsadga muvofiqdir.

2-topshiriq. Imlo qoidasiga muvofiq yozilmagan so‘zni aniqlang. (6 ta so‘z)

Xato yozilgan so‘zlar	To‘g‘ri yozilgan so‘zlar
Aqli	Aqlli
Davlatman	Davlatmand
Maxtanibdi	Maqtanibdi
Ko‘zlli	Ko‘zli
Mexnatkash	Mehnatkash
Zarbop	Zarbof

3-topshiriq. Berilgan matn tarkibidagi sifatlarni aniqlab ularni asliy yoki nisbiy sifat kabi turlarga ajrating.

Asliy sifatlar: navqiron, aqlli, bebaho, qizil, botir.

Nisbiy sifatlar: davlatmand, ko‘zli, zarbof, kenja.

3-topshiriq. Imlo qoidasiga ko‘ra muvofiq yozilmagan so‘zni aniqlang. 6 ta so‘z

Xato yozilgan so‘zlar	To‘g‘ri shakli
Aqli	Aqlli
Davlatman	Davlatmand
Maxtanibdi	Maqtanibdi
Ko‘zlli	Ko‘zli
Mexnatkash	Mehnatkash
Zarbop	Zarbof

4-topshiriq. Matn tarkibidagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarining ma’nolarini toping. Javoblarni moslashtiring.

Aqlli
Davlatmand
Navqiron
Bebaho
Mehnatkash
Ko‘zli
Zarbof

Avji kuchga to‘lgan, qirchillama, yosh.[4] 148-bet
Fikrlash qobiliyati yuqori, aqli butun.[5] 17-bet
Mol-mulk, katta boylikka ega, boy-badavlat.[6] 46-bet
Tengi yo‘q, juda ham qimmatli, biron narsaga tenglashtirib bo‘lmaydigan, qimmatbaho, bahosi yo‘q. [7]26-27-betlar
Zarli mato, yoki zar qo‘shib to‘qilgan, yoki nuqul zardan to‘qilgan mato, kimxob. [8]O‘TIL II jild 135-bet O‘TIL
Ko‘zli –ko‘zga o‘xshagan teshigi, izi yoki o‘rni bor. [9] II jild 448 –bet
Mehnat qilib kun kechiruvchi, juda ko‘p mehnat qilsa-da charchamaydigan, mehnatsevar. [10].

5- topshiriq. Matndagi asosiy g‘oya nima? Bir gap shaklida keltiring.

Ot izini toy bosar.
Hayot –ustoz, xalq-muallim.

6-topshiriq. Sizning xulosangiz 25-30 so‘z orqali ifodalang.

_____
_____
_____
_____
_____
_____
_____
_____
—

Biz tavsiya etgan topshiriqlar orqali o‘quvchining ham grammatik bilimlari , ham matn va lug‘at ustida ishlash orqali ularning mantiqiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi.

ADABIYOTLAR

1. R. Ishmuhammedov, M. Yuldashev. “Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar” . –Toshkent 2016-yil
2. N.Mahmudov, A. Nurmonov, A, Sobirov, D. Nabiyeva. Ona tili 6-sinf uchun darslik, Toshkent “Tasvir” nashriyoti 2017-yil
3. B.Mengliyev, O‘.Xoliyorov, N.Abdurahmonova. “O‘zbek tilidan universal qo‘llanma”– Qayta nashr. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – 512 b.
4. A. Hojiyev, A. Nurmonov, S. Zaynobiddinov va boshq.—Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati T.: «Sharq», 2001.— 336 b.
5. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. 5 jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi DIN, 2006.

КАЛОМ ИЛМИ ТАРИХИДА ДАВЛАТНИНГ СИЁСИЙ-БОШҚАРУВ МАСАЛАСИГА ОИД ҚАРАШЛАР

М.Норқобилов-
НавДПИ Тарих кафедраси доценти в.б., ф.ф.ф.д. (PhD)

Республикамизда маънавият ва маърифат соҳасига алоҳида эътибор қаратилиши натижасида буюк мутафаккирларимизнинг илмий меросини ўрганиш, тадқиқ этиш, хусусан, давлат ҳамда жамият ҳаётида пайдо бўлаётган турли муаммолар ечимида самарали механизм вазифасини бажаради.

Маълумки, давлат томонидан ўрнатилган тартиб-қоидаларга тўғри ва тўлиқ ҳамда мажбуриятни ҳис қилган ҳолда амал қилиш ҳар бир шахснинг фуқаролик бурчи ҳисобланади. Бу масала тарихий давр контекстида сайқалланиб келган ижтимоий воқелик бўлиб, адолатли давлат бошлиғига итоат қилиш, унинг буйруқларини ижросида елкадош бўлишлик Шарқ давлатчилик тенденцияларидан маълум ва машҳурдир. Халқ орасида «Подшо амри вожиб» деган нақл даврлар оша ўз аҳамиятини йўқотмаган объектив мезон ҳисобланади.

Жамият тараққиётида юз берган юқоридаги жиҳатларни ўз даврида ислом маърифати ва юксак рационал тафаккур уйғунлигида асослаб берган буюк мутафаккир Саъдуддин Тафтазонийнинг концептуал ғоялари бугунги кун нуқтаи назаридан жуда аҳамиятлидир.

Тарихий давр контекстида яратилган бўлсада, бугунги кун ижтимоий-сиёсий мавзулардаги масалалар ечимида аҳамиятли бўлган ва шарқона демократия талабларини ўзида жамлаган Тафтазонийнинг илмий ғоялари юксак тараққий этган фуқаролик жамиятини барпо этишда қимматли манбалар қаторида тадқиқ қилинади. Шу жиҳатдан олганда, Абу Хафс Насафийнинг «Ақоид» асари ва мазкур китобнинг шарҳи сифатида дунёга келган Саъдуддин Тафтазонийнинг «Шарҳ ал-ақоид» асари ислом оламида калом илми борасидаги энг машҳур китоблардан бири сифатида эътироф этилади. Ушбу манба структуравий жиҳатдан калом фалсафасига оид бир неча мавзуларни камраб олади.

Абу Хафс Насафийнинг муҳокама қилинаётган ақидавий масала юзасидан фикри тугаллангандан сўнг, Тафтазонийнинг мазкур масала юзасидан шарҳи бошланади.

Юқорида таъкидланган тушунчаларнинг тарихий-фалсафий таҳлили шундан иборатки, нақлий далилдаги биринчи итоат, ўзининг «мен»ини англаб етган ақл-идрокли фуқарода виждон туйғуси шаклланади ва бу туйғу кундалик турмуши давомида моддий ва маънавий эҳтиёжларини қондиришга қодир бўлган ягона зот – Яратувчи эканлигини англайди. Бундай ҳолатда Яратувчига итоат этиш жараёни инсонга мажбурият ҳиссига нисбатан кўпроқ эртанги кунга умид ва ишонч туйғусини бахш этади.

Манбада таъкидлаган дастлабки икки ҳолатдаги итоат тарихий давр контекстида жамият ёки жамоа учун ҳеч қачон салбий оқибат олиб келмаган, аксинча, ҳар иккала ҳолатдаги бўйсунишнинг элементлари бўлган виждон амри, ҳалоллик, поклик, ўзаро ҳурмат, инсонларнинг бир-бирига яхшилик қилиши каби амаллар ижтимоий муҳитда инсонларда позитив кайфият, давлат ва жамиятнинг барча структурасида тараққиётга олиб борувчи омил бўлиб хизмат қилган.

Изоҳланаётган «ишбоши» сўзи, замонавий истилоҳда таҳлил қилинадиган бўлса, жамиятнинг ҳар бир структурасидаги раҳбар ва унинг қўл остида бўлган ходим

ўртасида вужудга келадиган альтруистик тушунчаларни тўғри шакллантирилиши билан боғлиқ ҳолда ўрганилади. Бунда инсоф ва адолат, ҳаллолик ва диёнат, орият, ўзганинг ҳаққига хиёнат қилмаслик, инсонларнинг дардини тинглай билиш каби аҳлоқий фазилатлар ҳар қандай жамоа раҳбарининг асосий қуроли бўлмоғи кераклиги уқтирилган. Мазкур тушунчаларни бугунги кун билан боғлаб таҳлил қилганимизда, раҳбар кадрларда "ҳалол вакцинация" борасидаги фикр-мулоҳазаларнинг шаклланиши ва юксалишида долзарб аҳамият касб этади.

Гуманистик ғояларни тарғиб қилувчи асарларда ҳар бир ишбошининг фаолияти жараёнида бирор масалада ихтилоф пайдо бўлиб низо келиб чиқса, нақлий далилларнинг аввали бўлган Қуръони Каримга ва пайғамбар (с.а.в.) ҳадисларига мурожаат қилишлик адолатнинг энг юксак намунаси эканлиги таъкидланади. Агар бу қоидага риоя этилмаса, муаммони ўзича ҳал қилинишига эрк берилса, жамиятда тартиб-интизом бузилади, ҳар бир инсоннинг ақлий қобилияти ва фикрлаш даражаси турлича бўлганлиги сабабидан турлича кўринишдаги зиддиятлар келиб чиқади. Бу эса жамиятда парокандалик, бошбошдоқликни келтириб чиқаради ва давлатнинг таназзулига олиб келади.

Бошқарувда «ишбоши»ларнинг роли масаласини бугунги кун нуқтаи назаридан таҳлил қилиб, жамият ҳаётига татбиқ қилишни мақсад қилар эканмиз, республикамиз ҳаётида истиқболли раҳбар кадрларни тайёрлаш тизими ҳар кунгидан кўра долзарб тус олганлигини алоҳида таъкидлаш лозим. Бу жараён давлатимиз ички сиёсатининг муҳим масаласига айланди. Жамият ҳаётининг муайян соҳасидаги мавжуд муаммолар ҳамда уларнинг амалий ечимларини топишда Саъдуддин Тафтазоний асарида таърифи келтирилган «ишбоши»лар зиммасига бир қатор бурч ва мажбуриятларни юклайди. Мазкур мажбуриятни адо этиш учун «энг аввало, раҳбардан ақл-идрок талаб этилади. Ақл идрокли бўлиш билан бир қаторда раҳбар одам мустаҳкам иродали, иймони бутун, ориятли бўлиши билан шарт. У бағрикенг, айни замонда талабчан бўлиши шарт»[291],-дея таъкидлаган эди Биринчи Президентимиз Ислом Каримов.

Бугунги кунда ижтимоий-сиёсий ва ҳуқуқий соҳадаги ислоҳотларимизнинг самараси ўлароқ, мамлакатимизда ўзининг шахсий фикри, қарашлари ва соҳага нисбатан креатив ёндашувига эга бўлган замонавий «ишбоши»ларни масъулиятли лавозимларга тайинлаш масаласи давлат сиёсати даражасига кўтарилди. Раҳбар кадрлар онгида мутафаккирлар маънавий мероси ва замонавий билимларни уйғунлаштириш бугунги куннинг объектив заруриятидир. Бу эса сиёсий етакчилик жараёнининг шаклланишига фундаментал аҳамият касб этади. Бу масалада сиёсий етакчи давлатнинг барқарор тараққиётида муҳим аҳамият касб этадиган, давлатнинг сиёсий ҳаётига, нуқтаи назарига салмоқли таъсир кўрсата оладиган ижтимоий ҳаёт идеал образининг маънавий қиёфасини шакллантира оладиган, ҳар томонла етук сиёсатдонлар фаолияти тадқиқотнинг илмий моҳиятини очиб беришда муҳим аҳамият касб этади.

Замонавий «ишбоши»ларнинг ижтимоий-маънавий ва ахлоқий қиёфасини шакллантириш ҳамда бошқарув тизимида адолат тамойилларининг устуворлигини таъминлаш борасида Президентимиз Шавкат Мирзиёев шундай таъкидлайди: «Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар... фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиб қолиши керак»[292].

---

[291] Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2-жилд. –Т: Ўзбекистон, 1996. –Б.123

[292] Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиб қолиши керак. –Т:. Ўзбекистон. 2017. –Б.6.

Юқорида таъкидланган жиҳатларни инобатга олганимизда, «ишбоши»ларда замонавий бошқарув салоҳиятини шакллантиришда ва улар онгига миллий қадриятлар руҳини сингдиришда Саъдуддин Тафтазонийнинг концептуал қарашлари маълум маънода назарий манба вазифасини бажаради.

Тарихий давр тенденциясидаги исломий билимлар ва замонавий қарашларнинг далилларидан келиб чиқадиган умумий хулоса шуки, мутафаккир Тафтазонийнинг илмий меросини чуқур тадқиқ этиш, уни мамлакатимиздаги бугунги демократик ислоҳотлар жараёнига изчил татбиқ қилиш, маънавий мерос синтези асосида ўзлаштирилган билимларни инсоният камолоти учун йўналтириш масаласи тадқиқотчи олим ва файласуфлар олдида турган долзарб вазифалардан бири ҳисобланади. Буюк мутафаккир Тафтазоний сиймосида, бугунги кунда биз қураётган фуқаролик жамиятининг тарихий асосларида унинг ақл-идроки, тафаккур тарзи ва ислом илмлари ҳақидаги қарашлари муҳим аҳамият касб этади.

Таҳлиллар шуни кўрсатадики, Тафтазонийнинг «Шарҳ ал-ақоид» асарида «султонга қарши бош кўтариб чиқилмайди» мавзуси жамиятда пайдо бўладиган муайян масалаларни ҳал қилиш ваколатига эга бўлган шахсларнинг ўз вазифаларига нисбатан адолат ва инсоф билан ёндашуви ҳамда бунинг натижасида жамият аъзолари орасида тинчлик-тотувлик, муросасозлик, бағрикенглик, ўзаро ҳурмат руҳидаги ҳамкорлик каби умуминсоний қадриятларни юксалтиришда назарий манба бўлиб хизмат қилади.

Кези келганда шуни ҳам алоҳида қайд этиш керакки, мамлакатимиз Президенти Ш.Мирзиёевнинг халқ ва давлат манфаати йўлида олиб бораётган прагматик сиёсати алоҳида эътирофга лойиқ. Биргина «халқ давлат идораларига эмас, давлат идоралари халқимизга хизмат қилиш керак»[293] шиори остидаги концептуал тамойили бўйича раҳбарларнинг аҳоли олдида ҳисобот бериш тизимининг жорий этилиши, мутафаккир Тафтазоний асаридаги «ишбоши»ларнинг бошқарув соҳасидаги инсоний ва касбий сифатлари ҳақидаги иқтибосининг амалий намунасидир. Бу эса Тафтазоний асарларининг асрлар оша ўзининг рационал тафаккур бобидаги маърифий аҳамиятини йўқотмаганлигидан далолат беради.

JISMONIY TARBIYA NAZARIYASI FANINING MUHIM JIHATLARI

Mamanazarov Azamat Xasanovich-
NavDPI "Jismoniy madaniyat" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jismoniy tarbiya nazariyasi fanining muhim jihatlari bayon etilgan. Jismoniy tarbiya nazariyasi doimo jismoniy tarbiya amaliyotiga tayangan holda taraqqiy etishi va takomillashtirilishi yoritib berilgan.*

Klyuchevые slova: *jismoniy tarbiya, shaxs, shakllanish, nazariya, metodologiya, sog'lomlashtirish, badantarbiya*.

Kichik maktab yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash nazariyasi bola shaxsining shakllanipsh va jismoniy tarbiyalashning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. Bu fan umumiy jismoniy tarbiya nazariyasining g'oyaviy va metodologik asoslaridan kelib chiqadi va uning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi.'

Jismoniy tarbiya nazariyasi o'quvchilarda jismoniy barkamollikni, har tomonlama taraqqiy etgan yuksak madaniyat va axloqni tarbiyalash bo'yicha ta'lim-tarbiya

[293] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси 2017.22.12.

jarayonlarini ilmiy asosda qurishni belgilaydi. Bu amaliy fan o‘qituvchisini boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jismoniy barkamolligining vositalari, shakllari va usullari to‘g‘risidagi bilimlar bilan qurollantiradi, unda maxsus va tegishli harakat ko‘nikmasi hamda malakalarini shakllantiradi.

SHunday qilib, jismoniy tarbiya nazariyasi jismoniy tarbiyaning umumiy nazariyasi bilan yagona mazmunga ega bo‘lib, jismoniy tarbiyalash qonuniyatlarini hamda shunga muvofiq bolaning ta’lim va tarbiya jarayonida rivojlantirishni boshqarishning umumiy qonuniyatlarini maxsus o‘rganadi. Shuningdek, umumiy ma’lumotlar, amaliy va ilg‘or tajribalarni umumlashtiradi, tegishli jismoniy tarbiya vazifalarini belgilaydi, jismoniy tarbiya jarayonini uyushtirishning samarali vositalari va uslublarining maqsadga muvofiq shakllarini majmuali ravishda ochib beradi.

Jismoniy tarbiya nazariyasi doimo jismoniy tarbiya amaliyotiga tayangan holda taraqqiy qiladi va takomillashadi. Uning metodologik asosi ana shu amaliy ilmiy tadqiqot natijalarini o‘zlashtirish orqali hamisha boyib boradi. SHuning uchun ham jismoniy tarbiya predmeti qotib qolishi mumkin emas, u rivojlanib va mukammallashib boradi. YOsh avlodni ongli, milliy g‘ururli, yuksak madaniyatli qilib, ya’ni sog‘lom, baquvvat, chiniqqan, tadbirkor, o‘z xarakatlarini yaxshi boshqara oladigan, badantarbiya va sport mashg‘ulotlarini sevadigan, har qanday vaziyatda ham o‘zini tuta biladigan va mustaqil xarakat qila oladigan, xayotda faol, ijodiy faoliyatga nisbatan qobiliyatli qilib tarbiyalash jismoniy tarbiyaning muhim vazifasi hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya nazariyasi boshlang‘ich sinflarda har bir yosh bosqichidagi bolaning yashirin imkoniyatlari qonuniyatlarini o‘rganib va hisobga ola borib, jismoniy tarbiyaning butun ta’lim-tarbiya majmuasi, ilmiy asoslangan dasturi talablarini (harakat, ko‘nikma va malakalar, jismoniy sifatlar, ba’zi sodda bilimlarni) ko‘zda tutadi. Ularni o‘zlashtirish bolalarning kelajakdagi zaruriy harakat faoliyatlarini tez egallash imkoniyatlarini ta’minlaydi[1].

SHu bilan birga, dasturning bolalar tomonidan o‘zlashtirilishida qatiy izchshshikka rioya qilinadi. Bunda bolaning yoshiga nisbatan rivojlanish xususiyatlari va hayotining har bir bosqichidagi imkoniyatlari, organizmning butun tizimlari (suyak-muskul, yuraktomir, nafas olish va boshqalar) va organlari (boshqarish, eshitish, ko‘rish, nutq va boshqalar) hisobga olinadi.

Jismoniy tarbiya shaxsni har tomonlama tarbiyalashda muxim komponent hisoblanadi, ayni paytda u shu jarayonda aqliy va axloqiy, estetik, mehnat tarbiyasi vazifalarini kompleks tarzda hal etadi. O‘quvchilar jismoniy tarbiyasini uyushtirishning turli shakllari (darslar, sinfdan va maktabdan tashqari ishlar, sog‘lomlashtirish va badantarbiya tadbirlari, mustaqil xarakat faoliyati va boshqalar) mavjud. O‘qituvchining e’tibori ana shu shakllar orqali, o‘z yosh imkoniyatlariga ko‘ra ongli va faol harakat qiluvchi, o‘zini erkin tuta oladigan, o‘ziga bo‘lgan ishonchni namoyon etuvchi, harakat ko‘nikmalarini muvaffaqiyat bilan o‘zlashtiradigan, hayotda uchraydigan qiyinchiliklardan cho‘chimay, ularni bartaraf qila oladigan, doimo ijodiy izlanishdagi bolani tarbiyalashga yo‘naltirilgandir.

Jismoniy tarbiya nazariyasi jismoniy tarbiya tizimining maqsadi, vazifalari va prinsiplarini o‘rganadi hamda tarbiyaning boshqa turlari (aqliy, axloqiy, estetik va mehnat) bilan jismoniy tarbiyaning qonuniy aloqasini ochib boradi. Jismoniy tarbiya nazariyasi jismoniy tarbiya vositalari va ulardan foydalanish shakllarini o‘rganishga alohida e’tibor beradi. Binobarin, har bir harakatni o‘rganish va bolaning asosiy harakat sifatlarini tarbiyalash prinsiplari hamda uslublarini o‘rganishga jiddiy e’tibor jismoniy tarbiya nazariyasining muhim qismini tashkil etadi.

Jismoniy tarbiya nazariy va amaliy bo‘ladi, deyilganda jismoniy tarbiyaning bir qismi-ilmni o‘rganishdan, ikkinchi qismi-amaliy ish bilan shug‘ullanishdan iborat deb tushunmaslik kerak. Aslida, jismoniy tarbiyaning bu ikkala qismi ham ilmdan boshqa narsa emas. Biroq ulardan biri jismoniy tarbiya qonuniyatlarini bilish, ikkinchisi esa amaliyotda uni qo‘llashdan iboratdir. Bularning birinchisi ilm yoki nazariya, ikkinchisi esa amaliyotdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

2. I.Xasanov. “Jismoniy tarbiyani o‘qitish nazariyasi va metodikasi” fani bo‘yicha ma’ruza matnlari to‘plami. Termiz. 2013.

2. Usmonxo‘jayev T.S., Xo‘jayev F. «Boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya», o‘quv qo‘llanma. T., «O‘qituvchi», 1996.

LINGUOCOGNITIVE STUDY OF METAPHOR

Kobilova Makhfuza Sherali kizi-
Teacher at Profi University
maxfuza.qobilova.98@gmail.com

Abstract

This article aims to conduct metaphorical linguistic cognitive research that investigates the cognitive processes involved in understanding and using metaphors in language. By studying how metaphors shape our thinking and communication, this field aims to deepen our understanding of human cognition and its relationship with language.

Key words : metaphorical linguistic cognitive research, metaphors, human cognition.

Лингвокогнитивное исследование метафоры

Абстрактный

Целью этой статьи является проведение метафорического лингвистического когнитивного исследования, которое исследует когнитивные процессы, связанные с пониманием и использованием метафор в языке. Изучая, как метафоры формируют наше мышление и общение, эта область направлена на углубление нашего понимания человеческого познания и его связи с языком.

Ключевые слова: метафорическое лингвокогнитивное исследование, метафоры, человеческое познание.

Introduction

Metaphorical linguistic cognitive research is a field of study that explores the cognitive processes involved in understanding and using metaphors in language. Metaphors are figures of speech that involve the transfer of meaning from one concept to another, allowing us to understand abstract or complex ideas by relating them to more familiar or concrete concepts. This research investigates how metaphors shape our thinking, perception, and communication. It examines how metaphors influence our understanding of various domains, such as emotions, time, relationships, and abstract concepts like morality or power. By examining the cognitive processes behind metaphor comprehension, researchers aim to shed light on how metaphors impact our thoughts, attitudes, and behavior.

Metaphorical linguistic cognitive research employs various methodologies to investigate these cognitive processes. It involves analyzing language use in everyday conversations, literature, and other forms of communication to identify prevalent metaphors and understand their underlying cognitive mechanisms. Researchers also conduct experiments to examine how people interpret and generate metaphors, measuring factors like reaction times, brain activity, and subjective judgments. This field has significant

implications for fields such as psychology, linguistics, philosophy, and cognitive science. It helps us understand how metaphors shape our perception of the world, influence our decision-making processes, and even affect our social interactions. Metaphorical linguistic cognitive research also provides insights into how metaphors can be used effectively in communication, rhetoric, advertising, and persuasive messaging.

Explanation of Metaphor : Metaphor is figure of language that compares two entities by highlighting similarities between them to create deeper understanding or evoke image and emotion. Metaphor sets scene before our eyes (Aristotle 1954:1410b) . Unlike simile signaled by words “like” or “as “ , metaphor makes direct comparison between things and concepts . For example is "Time is money," which equates the value of time with the value of money, implying that time should be used wisely and efficiently.

Lakoff and Johnsons (1980, 1999) are considered as the first passionate supporters of metaphor , most of their views were conceptual as we think and act metaphorically (Evans and Green, 2006:44). Metaphors are used extensively in everyday language, literature, poetry, and even scientific discourse. They allow us to express complex ideas and emotions by drawing on familiar and concrete concepts. By using metaphors, we can convey abstract or intangible concepts in a more relatable and vivid way.

Understanding metaphors is crucial for effective communication and comprehension. It requires the ability to recognize the figurative meaning behind the literal words used. Metaphor comprehension involves cognitive processes such as conceptual mapping, where we map the source domain (the concept being used metaphorically) onto the target domain (the concept being described). For example, in the metaphor "He's a lion," we map the qualities associated with lions (e.g., strength, courage) onto the person being described. This mapping helps us understand that the person possesses those qualities metaphorically, even though they are not literally a lion. As Cormac (1985:149) agreed, metaphor brings about changes in the way that we comprehend the world and these changes impact on in the way that we act in the world.

Metaphors also shape our thinking and perception by influencing how we conceptualize and interpret the world around us. For instance, if we describe time as a limited resource (e.g., "Time is running out"), it may lead us to prioritize tasks and deadlines more urgently. Metaphors can also shape our emotions, as when we say someone's heart is "broken" or "filled with joy." Overall, the study of metaphor in linguistics and cognitive science provides valuable insights into how our minds process language, think metaphorically, and construct meaning. It helps us understand the intricate relationship between language, cognition, and perception.

Methodologies in Metaphorical linguistic cognitive research

Metaphorical linguistic cognitive research utilizes various methodologies to study role and effect of metaphors in language, cognition as well as perception. The initial method that can be used to determine influence of metaphors on cognitive processes such as memory, decision-making and problem solving is experimental studies in which researchers design controlled experiment. These studies include providing participants with metaphorical stimuli to measure their performance on particular task. In one experiment conducted among students measured reaction time to assess the speed of their responses to metaphorical stimuli compared to literal language. Since it was computer based task students were presented stimuli such as sentences and images and requires to press the button to make responses as quickly as possible. The time between stimulus presentation and participant’s responses was recorded as reaction time .

Furthermore, researchers employ another method called qualitative approach like interview or focus group to get individuals' subjective experiences and comprehension of metaphors. This method helps to identify the nuances and personal meanings regarding metaphors in different cultural , linguistic and social contexts. In order to measure subjective judgement , researchers often use questionnaires or rating scales. Participants are required to give their opinions, preferences and interpretations related to specific metaphors or metaphorical stimuli. For instance, they may rate the comprehensibility, familiarity or emotional valence of various metaphors. Researchers can analyze these ratings to get insights into the participants' subjective experiences and interpretation of metaphors.

Results and implications

Metaphorical linguistic research has profound influence on human cognition and perception. It assists phycologists to understand metaphors and their way of shaping our thinking, reasoning and decision-making processes. The researches conducted can help to understand the role of metaphors in various psychological phenomena such as emotion regulation , problem solving and creativity. From linguistic point of view, the research contributes to the study of language and its underlying structures. It uncovers the way of using metaphors in different languages and cultures by providing precious notions about language variation and meaning constructions which contributes to our understanding of language comprehension and production.

Metaphorical linguistic cognitive research is at the intersection of various disciplines within cognitive science, such as psychology, linguistics, neuroscience, and artificial intelligence. It helps integrate knowledge from these fields to develop comprehensive theories of metaphor processing and its cognitive underpinnings. This research contributes to our understanding of how the mind processes and represents abstract concepts through metaphorical mappings.

Discussion

Metaphorical linguistic cognitive research has essential role in deepening our interpretation of human cognition and language . Researchers get vivid understanding of how we think , perceive and communicate through investigating the use of metaphors in language . Since metaphors are not just limited with poetic or literary devices but they are pervasive in everyday language, Kovecses(1986) presents a demonstration that emotion such as anger, pride and love are conceptualized structure in everyday language. All these studies illustrates cognitive idea of metaphor and metaphor mediates human understanding and world view (Lan, 2005). Moreover, metaphorical linguistic cognitive research helps researchers to understand the cultural and social dimensions of language. Metaphors are deeply embedded in cultural and social contexts representing shared beliefs, values and experiences which allows to uncover cultural variation in how people understand the world. Additionally, metaphorical language has implication for communication and persuasion which shapes our perception and influences our judgements. According to Morgan (1997) the issues regarding metaphors in poetics, rhetoric, aesthetics, epistemology, philosophy of mind and cognitive studies can not be wholly isolated from each other which means political speeches, advertising campaigns, and even scientific discourse often utilize metaphors to evoke specific emotions or frame issues in particular ways. By understanding the cognitive mechanisms behind metaphorical language, we can better analyze and critically evaluate these persuasive techniques

References

1. Aristotle. 1954. Rhetoric. (Trans. by Rhys Roberts). New York: The Modern Library, Random House

2. Chun, Lan. (2005). Cognitive Linguistics and Metaphoric Study. Beijing: Foreign Language Teaching and Research press.
3. Evans, V. & Green, M. 2006. Cognitive Linguistics. An Introduction.Edinburgh: University Press.
4. Kovecses, G. (1986). Metaphors of Anger, Pride and Love. Amstendam:Benjamins
5. Lakoff, G. & Johnson, M. 1980. Metaphors We Live By. Chicago and London: The University of Chicago Press, completed with an Afterword in 2003.
6. Lakoff, G. & Johnson, M. 1999. Philosophy in the Flesh: The Embodied Mind and Its Challenge to Western Thought.New York: Basic Books.
7. Moran, R. 1997. Metaphor. In B. Hale & C. Wright (eds.) A Companion to the Philosophy of Language. Blackwell, 48-268

ONA TILI DARSLARIDA INTEGRATSIYA MAQSADLI XARAJATLAR (HISOB SO‘ZLAR)

Hamroyev Umid MUSTAFOYEVICH,
Shofirkon tumanidagi 22-umumta’lim maktabi
oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, Xalq ta’limi a’lochisi
Hikmatov Umid AVAZ O‘G‘LI,
Shofirkon tumanidag 22-umumta’lim maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Taksonomiya so‘zi grekcha so‘z bo‘lib, tartib bilan joylashtirish ma’nosini bildiradi. obyektlarni ularning o‘zaro bog‘likligiga asoslanib va toifalari murakkablashib boradigan ketma-ketlikda joylashtirib turkumlash va tizimlashtirish taksonomiya deb ataladi.
“Blum” taksonomiyasi – bu o‘qituvchilarga yanada kengroq tarzda belgilangan o‘quv maqsadlarini belgilashga yordam beradigan hamda tanqidiy fikrlarni turkumlaydigan jarayon nomidir.
Amerikalik psixolog va pedagog bo‘lgan Benjamin Blum (1913-1999) bilish va emotsional sohalardagi pedagogik maqsadlarning taksonomiya piramidasini vazifa talab qiladigan tanqidiy fikrlash darajasini aniqlash maqsadida ishlab chiqdi. Blum taksonomiyasi
mavhum tushunchalarni baholashda nimalarga e’tibor qaratish lozim degan savolni yoritishga yordam beradi.
1956 - yilda “Taksonomiya”ning birinchi qismi nashrdan chiqdi. Unda o‘quv maqsadlarini kognitiv (bilish) sohada ifodalanishi bayon etilgan. O‘quv maqsadlarining bu tizimi xalqaro miqyosda mashhur bo‘ldi. Uni o‘qitishni rejalashtirish va natijasini baholashda qo‘llay boshladilar. Taksonomiya fanlarni tajribaviy baholashda asosiy vosita bo‘lib hisoblandi.
Taksonomiyada oltita sath mavjud bo‘lib, ularning har biri abstraksiyaning alohida darajasini ifodalaydi. Pastki
darajaga eng asosiy bilim, eng yuqori darajaga esa eng intellektual va murakkab fikrlar kiradi. Ushbu nazariya
asosidagi g‘oya shundan iboratki, o‘quvchilar birinchi darajali vazifalar zinapoyasini o‘zlashtirmaguncha,
yuqori darajadagi fikrlashni mavzuga tatbiq etishda muvaffaqiyat qozona olmaydilar.
1. Bilish. Taksonomiyaning bu darajasida savollar o‘quvchi o‘rganganlarini eslab qolish-qolmasligini baholash uchun ishlatiladi. Odatda, bo‘sh joyni to‘ldirish, to‘g‘ri noto‘g‘rini aniqlash yoki bir nechta tanlov uslubidagi savollar ko‘rinishida bo‘ladi. Bular yordamida o‘quvchilar adabiy ta’lim jarayonida ijodkorlarni va ularning asarlarini bilishlari, ularga oid

muhim sanalarni yod ayta olishi, o‘rganilayotgan asarning asosiy g‘oyalarini ajrata olish-olmasligi, muhim sanalarni eslay oladimi yoki atamalarni bilish-bilmasligini aniqlashda foydalanish mumkin.

2. Tushunish. Blum taksonomiyasi o‘quvchilarni uzoq o‘tilgan, yaqinda o‘tilgan mavzularni qay darajada bilishlarini aniqlashdan tashqari taqdim etilgan ma’lumotlarni tushunishga undaydi. Tushunish doirasida o‘quvchilar savollar va vazifalarni oladilar, quruq aytib berish o‘rniga izohlaydilar.

3. Qo‘llash. Amaliy savollar o‘quvchilarlardan olgan bilimlari yoki ko‘nikmalarini qo‘llash yoki ulardan foydalanishni so‘raydi. Ulardan muammoning hayotiy yechimini yaratish uchun berilgan ma’lumotlardan foydalanishni taklif qilishi mumkin.

4. Tahlil qilish. Taksonomiyaning tahlil darajasida o‘quvchilar muammolarni hal qilish uchun o‘qilgan badiiy asarlardagi timsollarning fe’l-atvorlarini bilishbilmasliklarini namoyish etadilar. Ular o‘zlarining eng yaxshi fikrlaridan foydalanib, tahlil qilish va xulosaga kelish uchun ijobiy, salbiy, murakkab ma’nolarni ajratadilar. O‘quvchilarning tahlil qobiliyatini baholash maqsadidagi o‘qituvchi berilgan topshiriqdagi vazifalarning harakatlari qanday sabablarga ko‘ra bo‘lganligini so‘rash, tahlil qilish asnosida maqsadga erishishi mumkin. Bu bosqich o‘quvchilardan o‘sha xarakterning
xususiyatlarini tahlil qilishni, ushbu tahlil va o‘zlarining fikrlari kombinatsiyasi asosida xulosa chiqarishni talab qiladi.

5. Baholash. Oldindan sintez deb nomlangan darajani baholashda o‘quvchilar yangi nazariyalar yaratish yoki bashorat qilish uchun berilgan dalillardan foydalanadilar. Buning uchun ular bir vaqtning o‘zida bir nechta mavzular bo‘yicha ko‘nikma va tushunchalarni qo‘llashlari va xulosaga kelishdan oldin ma’lumotlarni sintez qilishlari kerak. Ushbu toifadagi savollar va vazifalar o‘quvchilardan taqdim etilgan ma’lumotlarni tahlil qilish va fikrlarni shakllantirish orqali muallif fikrini yoki hatto o‘rganilayotgan mavzuning hayotiyligini, ta’sirchanligini baholashni talab qilishi mumkin.Ular har doim dalil bilan o‘z fikrlarini asoslashlari kerak.

6. Yaratish. “Blum” taksonomiyasining eng yuqori darajasi yaratish deb nomlanadi. Ijodkorlik qobiliyatini namoyish etayotgan o‘quvchilar qanday xulosalar chiqarishni, savollar berishni va yangi narsalarni ixtiro qilishni, yani esse, maktub, insho, ijodiy matn yaratishni bilishlari kerak. Bu bosqich o‘quvchilardan muammolarni aniqlashni va ular uchun yechimlarni (yangi jarayon, she’riy yoki nasriy asar va boshqalarni) kashf etishni so‘raydi. Ushbu maqolamizning amaliy qismida yuqoridagi vazifa va topshiriqlar orqali tahlil qilamiz:

Hech o‘ylab ko‘rganmisiz? Kundalik hayotingizda qanday harajatlarga duch kelishingizni.Ushbu matnni o‘qing va o‘z fikringizni bildiring. ***(Kundalik turmushimizdagi ehtiyojlar usuli)***

№	Kundalik xarajatlar	Ehtiyojlar asosidagi turi
1	Ushbu tur yashashingiz uchun juda ham muhim bo‘lgan narsalarga sarflaydigan pulingizni anglatadi. Masalan, oziq-ovqat sotib olishga ketadigan xarajat. Un, yog‘, mevalar, kartoshka, piyoz kabi narsalar yashash uchun muhim hisoblanadi, shuning uchun ham bu turdagi xarajatlarni qilmaslikning iloji deyarli yo‘q.	
2	Ushbu tur xarajatlarga ham pul sarflashingiz kerak. Aks holda sizni turli	

	ko‘ngilsizliklar qarshi olishi mumkin. Masalan, yo‘l haqi. Siz biror transport xizma- tidan (avtobus, poyezd, metro, taksi) foydalandingizmi,uning haqini ham to‘lashingiz kerak.	
3	Ushbu tur xarajatlari kundalik emas. Ular uchun pul sarflash ixtiyoriy bo‘ladi. Masalan, bodroq sotib olishga ketadigan xarajat. Siz bodroq sotib olmasangiz ham, yashay olasiz, lekin uning iste’moli sizga rohat bag‘ishlashi mumkin. Demak, bu turdagi xarajatlarsiz yashasa bo‘ladi, ammo ular sizga zavq yoki rohat berishi ham mumkin.	

- Ixtiyoriy
- Zaruriy
- Majburiy

Mosini qo‘yib jadvalni to‘ldiring.

Kundalik turmushimizda duch keladigan xarajatlar nomi keltirilgan so‘zlarni jadvalga joylashtiring.

1. İjara uchun	2. Oziq-ovqat sotib olish uchun	3.Telefon aloqasi uchun
4. Dori-darmon sotib olish uchun	5. İchimlik suv uchun	6. Gaz uchun
7.Bog‘cha uchun	8. konsertga kirish uchun	9.sartarosh yoki salon uchun
10. sayohatga borish uchun	11.gigiyenik vositalar uchun	12.restoranda ovqatlanish uchun
13. muzqaymoq uchun	14. so‘nggi rusumdagi smartfon uchun	15. Kiyim-kechak sotib olish uchun
16. Yo‘l haqi uchun	17. O‘quv kurslari uchun	18. İssiq suv uchun
19. Elektr energiyasi uchun	**Majburiy**	

Yuqoridagi so‘zlarni ehtiyojizdan kelib chiqqan holatda joylashtiring.

Zaruriy	Majburiy	Ixtiyoriy
3, 4, 9, 11, 15, 16,	1, 2, 5, 6, 7, 19,	8,10, 12, 13, 14, 17, 18,

***

Quyida berilgan so‘zlarga qarang va to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtiring. Qanday hisob so‘zlardan foydalanilganiga e’tibor qarating**. “Sherigimni toping ”usuli**

№	Nomi	№	Hisob so‘z

1	Kartoshka	A	Metr-kvadrat
2	Yo‘l haqi	B	Kilowatt
3	Balandlik	D	Soniya
4	Vaqt	E	Metr
5	Elektr energiyasi	F	Kilogramm
6	Yer maydoni	G	So‘m
7	Sut	H	Dollar
8	Pul	I	Litr
9	Tabiiy gaz	J	Kilometr
10	Xonadon	K	Metr-kub
11	Uzunlik	L	Kilogramm
12	Un	M	Kilogramm

“Biz bilishimiz lozim bo‘lgam ma’lumotlar” usuli orqali o‘quvchilarga numerativlar haqida ma’lumot beriladi.

O‘lchov so‘zlar (hisob so‘zlar , numerativlar)

Sanoq son bilan sanaladigan predmetning orasida qo‘llanib , narsalarning o‘lchovini anglatuvchi so‘zlar hisob so‘zlar deyiladi . Hisob so‘zlar o‘zidan oldin qo‘llangan son bilan bitta so‘roqqa javob bo‘ladi va bitta sintaktik vazifa bajaradi . masalan: uch yashik olma , bir payola choy , to‘rt qop un…

Hisob so‘zlar predmetlarning quyidagi o‘lchovlarini ifodalashga xizmat qiladi :

1. Masofa(uzunlik)ni ifodalovchi o‘lchov so‘zlar : metr, qadam, quloch, qarich, gaz, farsax, tirsak, odim, yig‘och, tosh, qarich, chaqirim…

2. Og‘irlik(massa)ni anglatuvchi o‘lchov so‘zlar : kilogramm, paysa, misqol…

3. Qiymatni anglatuvchi o‘lchov so‘zlar : so‘m, dollar, yevro, rubl, chaqa, miri, hemiri, so‘lkavoy, paqir, dinor, dirham, chevron…

4. Vaqtni anglatuvchi o‘lchov so‘zlar : kun, soniya, sutka, yil, oy, hafta, asr…

5. Yoshni anglatuvchi o‘lchov so‘zlar : kunlik, soatlik, yoshli, yashar, haftalik…

6. Juftlikni anglatuvchi o‘lchov so‘zlar : juft, para, par…

7. Predmetlarni to‘dalab ifodalovchi o‘lchov so‘zlar : shoda, dasta, bog‘, quchoq, poda, gala , to‘p, hovush, guruh, qo‘ra, band, atar, suruv, uyur, uyum…

8. Butun predmetning qismini anglatuvchi o‘lchov so‘zlar: karch , tilim, chaqmoq, shingil, burda, par, parcha, qism, luqma, tomchi, chimdim, to‘g‘ram, otim, qultum, tishlam, ho‘plam, qatra...

9. Harakatning miqdorini anglatuvchi o‘lchov so‘zlar : marta, karra, daf’a, safar, qayta, qatla, marotaba, bor, sidra…

10. Narsalarni donalab ifodalaydi o‘lchov so‘zlar : dona, tup, nafar, nusxa, bosh…

11. Sath(yuza)ni anglatuvchi o‘lchov so‘zlar : tanob, gektar, sotix, akr, metr, kvadrat, kilometr, xol…

Hisob so‘zlar gapda son bilan birgalikda bitta gap bo‘lagi vazifasida keladi.

№	**Mahsulot nomi**	**№**	**Ular bilan ishlatiladigan hisob so‘zlar**
1	Kartoshka	**A**	Kilogramm
2	Yo‘l haqi	**B**	So‘m
3	Balandlik	**D**	Metr
4	Vaqt	**E**	Soniya
5	Elektr energiyasi	**F**	Kilo-wat
6	Yer maydoni	**G**	Metrkvadrat

7	Sut	**H**	Litr
8	Pul	**I**	So‘m
9	Tabiiy gaz	**J**	Metrkub
10	Xonadon	**K**	Sotix
11	Uzunlik	**L**	Kilometr
12	Un	**M**	Kilogram

Bilimingizni sinab ko‘ring!!!

TEST SAVOLLARI

To‘g‘ri javobni toping.

1. ‘‘Hisob so‘zlari’’ qaysi atama bilan ma’nodosh emas?

A) Numerativlar B) o‘lchov so‘zlari D) son

Hukmning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.

2.Hisob so‘zlari ot so‘z turkumiga mansub.

A) to‘g‘ri B) noto‘g‘ri

To‘g‘ri javobni toping.

3.“1 kilo un” birikmasida “kilo” qaysi so‘z o‘rnida ishlatilgan?

A) kvadrat B) kilogramm D) gramm

To‘g‘ri javobni toping.

4.Sof hisob so‘zlari haqida to‘g‘ri ma’lumotni toping.

A) Faqatgina o‘lchov birligini bildirmaydi, boshqa ma’nolari ham bo‘ladi.
B) Faqatgina uzunlik va hajm o‘lchov birliklarini o‘z ichiga oladi.
D) Faqatgina o‘lchov birligini bildiradi, boshqa ma’nolari mavjud emas.

To‘g‘ri javobni toping.

5.Quyidagilardan qaysi biri orqali uzunlikni ifodalash mumkin?

A) kilometr B) sentner D) sotix

To‘g‘ri javobni toping.

6.‘‘Eskirgan’’, ‘‘arxaik’’ atamalari qanday so‘zlarga nisbatan ishlatiladi?

A) hozirda ishlatilmaydigan
B) maqollarda qo‘llanadigan
C) qadimda ishlatilmagan

To‘g‘ri javobni toping.

7.Quyidagilardan qaysi bir arxaik o‘lchov birligi hisoblanadi?

A) chaksa B) tiyin D) sotix

To‘g‘ri javobni toping.

8. Hisob so‘zlari ikki xil bo‘ladi: … va vazifadosh

A) sof B) morfologik D) yordamchi

Hukmning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.

9.Predmetni bildirgan ba’zi so‘zlar o‘lchov birligini ham anglatishi mumkin.

A) to‘g‘ri B) noto‘g‘ri

To‘g‘ri javobni toping.

10.Quyidagi qaysi gapda hisob so‘zlar qo‘llangan?

A) Narimon eshikni ochdi-yu bir uy bug‘doyni ko‘rib, qotib qoldi.
B) Naima tushundiki, bir daqiqa ham kutish mumkin emas, ketish kerak.
D) O‘n qadam sanab, mana shu joydan chegara chizish kerakligini aytdi.
E) Berilgan barcha gaplarda hisob so‘z qo‘llangan.

Turmush tarzingizdan kelib chiqqan holda ushbu jadvalni to‘ldiring

Xarajat nomi	O‘lchov	Xarajat turi	Sarflanadigan pul
Yo‘l haqi	So‘m	Majburiy	90 000 so‘m
O‘quv kursi	So‘m	Ixtiyoriy	400 000 so‘m
Elektr energiyasi	Kilo-watt	Zaruriy	40 000 so‘m
Gaz	metrkub	Zaruriy	65 000 so‘m
Un	kilogramm	Majburiy	320 000 so‘m
Piyoz	kilogramm	Majburiy	24 000 so‘m
Ichimlik suvi	litr	Majburiy	27 000 so‘m

Demak, “Blum” taksonomiyasidan foydalanish o‘quvchilarning o‘zini-o‘zi nazorat qilish omillarini kengaytiradi. O‘quvchilarda fanni o‘rganishga qiziqishni oshiradi, badiiy asarni sinchiklab oqishga chorlaydi.

Ijodiy faoliyatni rivojlantirishga e’tiborni qaratish o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirish, his-tuyg‘usini tarbiyalash, badiiy asar mohiyatini, xususiyatlarini anglatishda muhim o‘rin tutadi. Ta’limda o‘quvchining individuallik darajasini oshiradi va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. I. Azimova va boshqalar. Ona tili 6-sinf darslik 2022 yil
2. www.ziyonet.uz sayti

O‘ZBEK TILIDA EGALIK KATEGORIYASINING SEMANTIK IFODALANISHI

Ma’rufjon Azimqulov,
Guliston davlat universiteti filologiya fakulteti magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.d., professor Fazliddin Sharipov

Annotatsiya: Ushbu maqolada egalik qo‘shimchasining ma’nolari turli xil shakllarda tilshunoslik nuqtayi nazaridan izohlangan. Uyushiq gaplarda kelishiga misollar berilgan. Predikativ sintagmaning ma'lum turlarida ega egalik olgan so‘z bilan ifodalanishi ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: qaratqich, izohlovchi, izohlanmish, egalik, predikativlik, elliptik, uyushiq bo‘lak

Аннотация: В данной статье с точки зрения языкознания объясняются значения притяжательного суффикса в разных формах. Примеры даны в составе сложных предложений. Выражение предикативной синтагмы притяжательным словом в определенных типах имеет научное обоснование.

Ключевые слова: указательное, описательное, описательное, притяжательное, предикативное, эллиптическое, союзное предложение.

Abstract: In this article, the meanings of the possessive suffix in different forms are explained from the point of view of linguistics. Examples are given in compound sentences. The expression of predicative syntagma with a possessive word in certain types is scientifically based.

Key words: demonstrative, descriptive, descriptive, possessive, predicative, elliptic, conjunctive clause

Egalik qo‘shimchasining bosh kelishikdagi asos bilan bog‘lanishda ishlatilishi murakkab hodisa bo‘lib, shulardan biri shaklan qaratuvchi-qaralmish qismsiga, mazmunan esa izohlovchi-izohlanmish qismsiga o‘xshab ketadigan sintaktik birliklardir. («Bosh

kelishik» bahsiga qarang): Ro‘za daryosi, «Gulbargi xandonim kelur» ashulasini; targ‘ibot ishlari, komsomol tashkiloti, beton zavodi, nasos staptsiyasi, ko‘klam kezi-agi, ayol toifasi kabi.

Bunday qismlardagi birinchi bo‘lakning izohlovchiga, ikkinchi bo‘lakning qaralmishga o‘xshash ekanidan foydalanib, bu tur birikmani izohlovchi-qaralmish qismsi deb nomlash mumkin. Masalan, ... U mahliyo bulgani holda ustozining ta'rifini yodga oldi: «Madrasaning tog shukuhdi hay'ati ustuxonband mustahkamligidin falak binosidin tinchlikni olgon, yuksaklik jihati bo‘lmish azamatinshon peshtoki og‘irligidin....[294].

Izohlovchi-qaralmish qismsining bu turida faqat III shaxs egalik qo‘shimchasi ishlatiladi, egalik qo‘shimchasini ishlatish odatda zaruriy bo‘ladi, ba'zangina egalik qo‘shimchasi fakulьtativ holat kashf etadi. Masalan, hamza teatra kabi birikmalarda egalik qo‘shimchasini ishlatish zarur, ammo Toshkent shahri deb ham, Toshkent shahar deb ham ishlatish uchraydi (Bugungi adabiy til nuqtai nazaridan norma – Tashkent shahari deb ishlatish).Izohlovchi-qaralmish qismsiga o‘xshab ketadigan, asli ta'kid ma'nosini ifodalashga xizmat qiladigan qismlar ham bor. Bularda ikkinchi bo‘lak egalik qo‘shimchasi olib keladi. Ana shu egalik qo‘shimchasi bosh kelishikdagi birinchi bo‘lakdan anglashiladigan shaxs-son ma'nosiga monand holda qo‘shiladi: Biz hammamiz javobgarmiz, Ular barchasi dalaga chiqib ishlayapti. Siz o‘zngiz o‘ylab ko‘ring-a kabi.

Ko‘rinadiki, bunday qismda birinchi bo‘lak kishi¬lik olmoshi bilan, ikkinchi bo‘lak esa o‘z, barcha, hamma kabi so‘zlar bilan ifodalanadi. Bu tur qismlarda birinchi bo‘lakni qaratqich kelishigida deb o‘ylash xavfi bor: sizning o‘zingiz, ularning barchasi kabi. Bu fikr bun¬day qismda ikkinchi bo‘lakga egalik qo‘shimchasi qaratuvchi vazifasidagi so‘z tufayli qo‘shiladi deb uylash natijasida tug‘iladi. Aslida bunday asosga egalik qo‘shimchasi qaratuvchi vazifasidagi so‘z bo‘lmasa ham qo‘shilaveradi: egalik qo‘shimchasining shaxs-soning belgilab turuvchi asos qaratkich kelishigida bo‘lishi, umuman shunday asosning qatnashuvi shart emas: Uning o‘ziga yaxshi. U o‘ziga yaxshi qilmadi. O‘zing olib ketarsan kabi.

Ikkinchi bo‘lakdan qarashlilik ma'nosi emas, ta'kid ma'nosi anglashilsa, birinchi bo‘lakni bosh kelishikda deb, qarashlilik ma'nosi anglashilsa, qaratqich kelishigida deb hukm chiqarish lozim. Bunda qaratqich kelishigi belgili shaklda bo‘ladi, albatta. Demak, -ning qo‘shilsa, qaratqich kelishigi haqida, qo‘shilmasa, bosh kelishik haqida gapirish kerak: ota-onalarning barchasi – ota-onalar barchasi kabi. Masalan, Hammaga birday, hammaga mehr bilan qaraydigan, uncha-muncha xastalikni o‘zining shirin guftorlari bilan insondan forig‘ qiladigan ayol. [295]

Qaratqichli sintagmani sifatlovchili sintagmaga aylantiri imkoniyati bor: ota-onalarning barchasi–barcha ota-onalar kabi. Izohlovchili sintagmada bu imkoniyat yuq. Hatto boshqa tur izohlovchili sintagmalardagi xususiyat hay – bo‘laklarni o‘rin almashtirish imkoniyati ham yo‘q.: ta'kid ma'nosini ifodalovchi asos ta'kidlanuvchidan keyin joylashadi: siz o‘zingiz, siz hammangiz kabi.

Oldingi paragrafda tasvirlangan qismga –o‘xshash yana bir sintaktik munosabat bor: birinchi bo‘lak bosh kelishikda¬gi ot bilan ifodalanadi, bu ot asli uyushiq bo‘lakning vakili (ellipsga uchragan uyushiq bo‘lak), ikkinchi bo‘lak esa shuning umumlashtiruvchi so‘zi bo‘ladi; keyingisi ko‘pincha jamlovchi son bilan ifodalanadi: Kampir uchovi uzoq gaplashgandan keyin... («Sarob» romani). Kulala ikkovimiz ko‘chaga yugurgan edik (A. Qahhor).

[294] Тоҳир Малик. Тириклик суви. –Тошкент: Davr press, 2019. –Б. 6.
[295] Мўмин Қаюм. Ботмай қолган ой. –Тошкент: Шарқ, 2000. –Б. 27.

Bunday qismda uyushiq bo‘lakning nazarda tutilgan qismini tiklash mumkin: Dadam ikkovi... ko‘chaga chiqadi. (A. Qahhor) –Dadam va u – ikkovi... kabi.

Ellipslanish natijasida uyushiq bo‘lak vakili bilan umumlashtiruvchi so‘z orasidagi pauza o‘zgaradi (shu sababli yozuvda ham tire qo‘yilmaydi), bu qismlar go‘yo izohlovchi-qaralmish holatiga o‘tadi.

Agar tiklanuvchi uyushiq qism yo‘q bo‘lsa, har qancha o‘xshashlikdan qat'i nazar, elliptik uyushik bo‘lak bilan umumlashtiruvchi so‘z munosabati haqida emas, izohlovchi-izohlanmish (izohlovchi-qaralmish) munosabati haqida gapirish lozim. Masalan, Aka-uka ikkovi ham novcha, ozg‘in (Oybek) gapida ikkovi– umumlashtiruvchi so‘z emas, chunki uyushiq bo‘lak yo‘q., biror uyushuvchi qismni tushirilgan deb ham bo‘lmaydi. Agar aka-uka juft so‘z (bitta so‘z) tarzida emas, balki ikkita mustaqil so‘z tarzida (aka, uka kabi) aytilganida va yozilganida edi, bularni o‘zaro uyushiq bo‘lak deb, ikkovi so‘zini esa umumlashtiruvchi so‘z deb qarash mumkin edi. Bunda uyushiq bo‘lak to‘liq ifodalanar, demak, biz tahlil qilayotgan tur qism bo‘lmay qolar edi: Aka, uka – ikkovi ham... kabi. Bu yerda uyushuvchi qismlarning har ikkisidan III shaxs ma'nosi anglashiladi, shu sababli umumlashtiruvchn so‘z ham III shaxs egalik qo‘shimchasi olib keladi: Aka, uka // Ular ikkov + i. Juft so‘z holida olinsa, izohlovchidan III shaxs ma'nosi angla¬shiladi, izohlanmish (qaralmish) ham izohlovchisiga III shaxs egalik qo‘shimchasi olib moslashadi: Aka-uka // Ular ikkov + i.

Elliptik uyushiq qismli qismda manzara boshqacharoq: Kampir //Ular uchov + i, Kulala //Biz ikkov + imiz, Dadam // Ular ikkov + i kabi. Ko‘rinadiki, elliptik uyushiq qism bilan umum¬lashtiruvchi so‘zdan anglashiladigan son ma'nosi zid: birinchisidan birlik, ikkinchisidan ko‘plik anglashiladi. Aka-uka // Ular ikkovi kabi qismda son jihatdan har holda tenglik bor, chunki juft so‘z jamlik ma'nosini ifodalaydi. Aka, uka // Ular ikkovi kabi qismda ham son jihatdan tenglik mavjud, chunki uyushuv ham ko‘plik ma'nosini beradi. Uyushuvchilar ellipslansa, bu tenglik buziladi. Birinchi bo‘lak birlikda bo‘lgani holda ikkinchi bo‘lak ko‘plik egalik qo‘shimchasi olib keladi: Dadam ikkovimiz, dodam ikkovingiz, dadam ik¬kovi (III shaxs egalik qo‘shimchasi son jihatdan neytral ekani avval ta'kidlangan edi). Bundan xulosa shuki, elliptik uyushiq qismli qismda ikkinchi bo‘lakga egalik qo‘shimchasi birinchi bo‘lakga mos xolda emas, balki uyushiq bo‘lakni to‘liq nazarda tO‘tgan xolda qo‘shiladi: dadam [va men) ikkimiz, dadam [va sen) ikkingiz, dadam [va u) ikkisi kabi. Bunda qaysi shaxs-son egalik qo‘shimchasining qo‘shilishi nazarda tutilgan kishilik olmoshi qaysi shaxs-sonniki ekaniga bog‘liq. Natijada bunday qismni uch shaxsga nisbatlash imkoniyati tug‘iladi: Kulala ikkovimiz, Kulala ikkovingiz, Kulala ikkovi kabi.

Uch shaxsga nisbatlash to‘liq ifodalangan uyushiq, bo‘lakli qismda ham mavjud: aka, uka – ikkovimiz; aka, uka – ikkovingiz; aka, uka – ikkovi kabi. Ammo quyidagi tur qism I shaxs egalik qo‘shimchasi olib ishlatilmaydi: Komil, Azim ikko¬vingiz; Komil, Azim ikkovi kabi. Ko‘rinadiki, to‘lik, uyushik, bo‘lak turdosh ot bilan ifodalansa, umumlashtiruvchi so‘z har uch shaxs egalik qo‘shimchasini olib o‘zgaradi, agar bunday uyushiq bo‘lak atoqli ot bilan ifodalansa, umumlashtiruvchi so‘z II, III shaxs egalik qo‘shimchasi bilangina ishlatiladi.[296] Masalan, - Nima dedingiz? Tariqat ahli? - U kishi savol nazari bilan qarab, masxaraomuz kulimsiradi: - Tariqat ahli kimlardir, bilmasmisiz? Ilmdan yuz o‘girgan banda tariqat ahlidan bo‘lmog‘i kulgili hol emasmi? Birovlar borkim, dunyodan yuz o‘girdim, derlar.

[296] Тоҳир Малик. Тириклик суви. –Тошкент: Davr press, 2019. –Б. 7.

Predikativ sintagmaning ma'lum turlarida ega egalik olgan so‘z bilan ifodalanadi, bu egalik kesimdagi tuslovchi bilan muvofiqlashib yuradi. Bu tur predikativ sintagmada ega quyidagi-cha so‘zlar bilan ifodalanadi:

a) o‘z so‘zi bilan ifodalanadi: Yolgiz o‘zim bo‘lay deganning holi xavf-xatardan holi emas. Yaxshisi, o‘zing bir surat solib ko‘yaqol («Mohidil» romani);

b) hamma kabi belgilash olmoshi bilan ifodalanadi, ko‘plik egalik qo‘shimchasini olib keladi: Qaytaga hammamiz bir jon-u bir tan bo‘lib ishlasak deymiz («Mohidil» romani). Qiyos qiling: hammamiz ishlasak, hammangiz ishlasangiz, hammalari ishlasa yoki ishlasalar.

Yuqoridagi ikki punktda tasvirlangan ta'kid izohlovchilari

bosh kelishikda bo‘lgani va bu gapda bosh kelishikdagi boshqa so‘z qatnashmagani sababli, bunday izohlovchi gapning egasi deb talqin qilinadi, ammo bunday vazifa (ega bo‘lib kelish) ikkilamchi ekani eslatilmaydi. Asli bunday tuzilishli gaplarning tadriji (evolyutsiyasi) quyidagicha: Biz ishladik–Biz hammamiz ishladik– hammamiz ishladik.

Demak, izohlovchilarning ba'zi turi qatnashgan gapda kesim bilan bosh kelishikdagi ikkita asos bog‘lanadi, ikkinchi asos (izohlovchi) ta'kid ma'nosini bildiradi (Shu asosda bunday so‘zni ta'kidlovchi deb nomlash mumkin). Asli ega vazifasini ta'kidlanmish bilan ta'kidlovchi birgalikda bajaradi. Bunda egaьbo‘lakning asosi bo‘lib ta'kidlanmish xizmat qiladi, chunki u –etakchi bo‘lak. Ega vazifasidagi bunday birikmada yetakchi bo‘lak qatnashmasa, bu sintaktik vazifada kelish ergash bo‘lak (ta'kidlovchi) ustiga yuklanadi, shu yo‘l bilan ta'kidlovchi ega bo‘lib keladi.[297] Masalan, - Tavbaga ne hojat? - dedi Shamsibek xotirjam ravishda. - Bu hikmatni Umar Hayyom aytganlar. Men gunoh ish qilmog‘imiz ham, savobga kul urmog‘imiz ham Alloh taoloning iznidadir, demoqchi edim, xolos.

Odatda qaralmishdagi egalik shaxs-sonda (yoki shaxsda) qaratuvchi vazifasidagi asos bilan moslashadi: bizning vazifalarimiz kabi. Ma'lum qismlarda esa qaralmishdagi egalik shaxs-sonda qaratuvchi vazifasidagi asos bilan emas, bunday asosga qo‘shiladigan egalik qo‘shimchasi bilan moslashuvini ham ko‘rdik: hammamizning vazifamiz kabi. Demak, keyingi tur birikmalarda shaxs-sonda moslik grammatik formalar asosida, shunda ham ayni bir grammatik kategoriyaning formalari orasida voqe bo‘ladi. O‘zbek tilidagi grammatik moslik deb asli morfemalarning xuddi shunday ishlatilishini ko‘rsatish to‘g‘ri.

Bu punktda grammatik moslikning ikkinchi bir turi tasvirlandi. Bunday grammatik moslik ham egalik qo‘shimchasi ishlatish bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Yuqorida tilga olingan grammatik moslikdan farqi shuki, moslik har xil grammatik kategoriyalar formasi (egalik bilan tuslovchi)orasida bo‘ladi.

B2 DARAJASIDAGI TALABALARNING STRATEGIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA “GAPIRISH” FAOLIYATI

Hodiyeva Yulduz YUNUSOVNA,
NavDPI Ingliz tili va adabiyoti mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Jahon ilm-fan taraqqiyoti kundan kunga gurkirab, rivojlanib bormoqda. Aynan bu ijobiy rivojlanish bizning diyorimizga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Ilm-ma’rifat dunyomizga ilg‘or innovatsion texnologiyalar tadbiq etilmoqda. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa ko‘p tillilik ulkan ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda global madaniyat dunyosini hisobga olgan holda ingliz tilini o‘rganayotgan talabalarning kasbiy va ilmiy sohalarida samarali ishlashlariga imkon berish maqsad qilib olingan.

[297] Тоҳир Малик. Тириклик суви. –Тошкент: Davr press, 2019. –Б. 10.

Mamlakatimizda har yili ilm-fanning bir nechta yo‘nalishi tanlab olinib, alohida e’tibor bilan rivojlantirilmoqda. Xususan, joriy yilda fizika va chet tillari ana shunday ustuvor sohalar etib belgilangan. O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini izchil rivojlantirish, o‘qituvchilarning kasb darajasi va malakasini oshirish, ularni xalqaro talablarga muvofiq qayta tayyorlash, bu yo‘nalishda xalqaro hamkorlikni kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, barcha sohalarda xalqaro hamkorlik kengayib borayotgani xorijiy tillarni bilishga ehtiyojni oshirmoqda. Zotan, mamlakatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev qat`iy talabni qo‘ydi: “Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatbardosh davlat qurishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurti bitiruvchilari kamida ikkita chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat’iy talab har bir ta’lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim”. Prezidentimizning tashabbuslari bilan barcha ta’lim sohasida ingliz tili fani keng o‘rgatilmoqda. Ingliz tilini o‘rganish jarayonida texnologiyalardan foydalanish samarali natijalar bermoqda. “Chet tili” fani haqida gapirganda shuni ta’kidlash kerakki, uni o‘qitish mazmunining asosiy tarkibiy qismi bilim emas, balki ko‘nikma va malakalardir. Ular shakllanganda mustahkamlash kabi o‘rganish usuli birinchi o‘ringa chiqadi. Talabalar o‘z harakatlarining to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini bilmasdan turib, malakaning, demak, mahoratning muvaffaqiyatli shakllanishi mumkin emas. Bunday ma’lumotni tashqaridan, asosan o‘qituvchidan olmagan holda, u o‘z harakatlarini baholaydi, bu ko‘pincha noto‘g‘ri harakatlarni kuchaytiradi va maktab o‘quvchilarida noto‘g‘ri ko‘nikmalarni shakllantiradi. Nutq ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda o‘qituvchi o‘quvchining harakatiga baho berish kerak. Talabalarning harakatlarini baholash – mustahkamlash. Bunda talabalarning qiziqishlari va harakatlari ham inobatga olinadi. Talabalarning darajalarni egallashdagi strategik kompetensiyalarni rivojlantirishda “gapirish”, “o‘qish”, “tinglash”, “yozish” faoliyatlari turli xildagi pedagogik metodlar orqali innovatsion darslar tashkil qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’limning barcha bosqichlarida chet tilini o‘qitishning asosiy maqsadi til o‘rganuvchilarning ko‘p madaniyatli dunyoda kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun chet tilida strategik kompetensiyani rivojlantirishdan iborat.

Strategik kompetensiya chet tili muhitida nutqiy hamda ijtimoiy muloqot tajribasidagi kamchilik va nuqsonlarni ayrim verbal va noverbal vositalar yordamida to‘ldirish, kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo‘lganda takroran so‘rash, uzr so‘rash va hokazolar orqali murakkab vaziyatlardan uddaburonlik bilan chiqib keta olish qobiliyatini nazarda tutadi. Bugungi kunda barcha pedagog kadrlardan fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar, ya’ni “Chet tillar bo‘yicha ta’limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar”da oliy ta’lim muassasalarining ixtisosligi chet tili bo‘lmagan fakultetlari bakalavriat bosqichi talabalari to‘rt yillik tahsillari nihoyasida o‘rgangan chet tili bo‘yicha B2 darajani egallashlari talab qilinmoqda.

Nutq ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning eng adekvat shakli og‘zaki shakl, ya’ni gapirishdir chunki u nutq faoliyatining ushbu turi uchun eng muhim fazilatlarni aniqlashga imkon beradi. Tekshirishning og‘zaki shaklida bayonot hajmini va xatolarni tuzatishda ba’zi qiyinchiliklar paydo bo‘lishi mumkin, bu esa nutqning o‘z-o‘zidan paydo bo‘lishi tufayli tasodifiy bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ovoz yozish vositalaridan

foydalanish maqsadga muvofiqdir. Nutqni nazorat qilish obyekti nutq xarakteridagi yozma asarlar ham bo‘lishi mumkin. Ammo shuni yodda tutish kerakki, talabalar uchun yozma tekshirish shakllari og‘zaki usullardan ko‘ra qiyinroq. Bundan tashqari, bu shakllar og‘zaki nutqning spontanlik darajasi, nutq reaksiyasi va nutq tezligi kabi muhim fazilatlarini qayd etishga imkon bermaydi. Ayrim o‘quvchilarning monolog nutqini bilish darajasini aniqlash uchun nazoratning alohida turlari qo‘llaniladi, masalan:

1) tayanchlar, matn bo‘yicha kommunikativ savollarga javoblar;
2) bir xil tayanchlar bo‘yicha monolog gap.

B2 darajasidagi talabalarning strategik kompetensiyasini rivojlantirishda “gapirish” faoliyati quyidagi xususiyatlar o‘rganib chiqiladi:

- ❖ Dialog nutqida:
- ➢ ta’limdagi hamkori bilan muzokara olib borish;
- ➢ aniq masalalar bo‘yicha axborot olish;
- ➢ uzoq muddatli muzokaralarda til sohibi bilan qatnashish, ularni qo‘llab-quvvatlash, kerak bo‘lsa muzokaralarni boshqarish;
- ➢ kundalik mavzularda bahs-munozara, debatlarda faol qatnashish;
- ➢ ixtisoslik (kasb) bo‘yicha intervyu, suhbatlarda qatnashish;
- ➢ fikrni aniqlashtirish, qaytadan tuzish va bahs-munozara rivojiga o‘z hissasini qo‘shish;
- ➢ muzokaralar olib borish jarayonida muammolarni yechimini ustalik bilan hal etish;
- ➢ vaziyatga qarab savollar berish va javob qaytarish.
- ❖ Monolog nutqida:
- ➢ alohida mavzu bo‘yicha qilingan prezentatsiyalar o‘tkazish;
- ➢ ixtisosligi bo‘yicha barcha predmetlarni aniq va ravshan tasvirlash;
- ➢ alohida mavzu bo‘yicha og‘zaki ma’ruza tuzish;
- ➢ maqola, ma’ruza, bahs-munozaralarni aniq va ravshan qilib umumlashtirish;
- ➢ aniq tizimga asoslangan holda qo‘shimcha yetarli bo‘lishi uchun tanish mavzu bo‘yicha o‘z fikrini bayon qila olish.

“Gapirish” faoliyatini optimal darajada aktivlashtirish uchun talaba chet mamlakatlarda istiqomat qiluvchi mahalliy so‘zlovchilarning dialoglarini tinglash, o‘zining yo‘nalishiga oid kinofilmlar ko‘rish, turli adabiyotlarni o‘qish va so‘z boyligini oshirish hamda uni qo‘llay olishi, grammatik bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi kerak.

Ingliz tili B2 darajasi va unga mos keladigan B2 birinchi sertifikati nomzodi kundalik vaziyatlarda, ishda va tayyorgarlik mashg‘ulotlarida samarali muloqot qilish, fikr bildirish va dalillar keltirish orqali keng doiradagi suhbatni davom ettirish, turli xil nuqtai nazarlarning afzalliklari va kamchiliklarini tushuntirib, o‘z fikrlarini bildiradigan batafsil va tushunarli matnlar tuzish, telefon suhbatlari va yozishmalarini ingliz tilida olib borish, suhbatdoshlarining fikri va munosabatini tushunish kabilarni amalga oshirishi mumkinligini bildiradi.

Ingliz tilini bilish darajasi B2 bo‘lgan talabalar oldingi darajadagi grammatik tuzilmalar va so‘z birikmalarining kerakli hajmini muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan va allaqachon yangi zamon shakllarini qo‘shgan va so‘z boyligini ancha murakkab leksik birliklar bilan to‘ldirgan darajada bo‘ladi. Talabaning faol so‘z boyligi 2500-3200 so‘zdan tashkil topadi va talaba ingliz tilidagi fe’llarning barcha zamon shakllarini taniydi, bu tilda ham rasmiy ham norasmiy uslubda og‘zaki va yozma so‘zlar va jumlalarni tuza oladi. Talaba muloqot maqsadiga mos keladigan oddiy va murakkab jumlalarni ishlatishi mumkin. Talabalar ingliz tilida turli xil mintaqaviy aksentlarni eshitishi mumkin va u talaffuz va

grammatikadagi xatolarni sezadi hamda tushunadi. Ingliz tilida gapirganda odamlar orasida nutqi grammatik jihatdan to‘g‘riligi, ravonligi va so‘zlarni to‘g‘ri tanlashi bilan ajralib turadi. Talaba badiiy adabiyot va turli gazeta va jurnallarni o‘qishi, shuningdek, ona tilida so‘zlashuvchilar bilan ko‘p qiyinchiliksiz yozma muloqot qilishi mumkin.

Bugungi kunda shiddat bilan o‘sib borayotgan talaba yoshlar har xil innovatsion metodlar yordamida mukammal bilim egallamoqda. O‘quv jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish chet tillarni ehtiyojlarga nisbatan o‘rganish jarayonida ta’lim va ta’lim usullarini takomillashtirish bilan bog‘liq.

Fan va texnologiya bugungi kun darajasida rivojlanmagan bir davrda ajdodlarimizning bu borada olib borgan ishlarini ilm-fan taraqqiyoti yo‘lidagi fidoyilik deb atash mumkin. Shu sababli ham buyuk allomalarimizning asarlari Sharq va G‘arbda birdek mashhur bo‘lgan. Shunday ekan bugungi avlod ham buyuk ajdodlarimizning vorislari sifatida chet tillarini o‘rganishga astoydil harakat qilishlari kerak. Dunyo ilm-fanida bo‘layotgan o‘zgarishlar, yangiliklar, yutuqlardan xabardor bo‘lish taraqqiyot garovidir.

FAVQULODDA VAZIYATLARDA EKOLOGIK TARBIYA YUKSALTIRISHNING DOLZARB VAZIFALARI

RAJABOV Omonboy G‘afforovich-
Navoiy viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi

Hozirgi paytda sodir bo‘layotgan ekologik va ijtimoiy vaziyat butun dunyo xalqlarini tahlikaga solmoqda, bu esa, oliy ta’lim muassasalarida tahsil oluvchi bo‘lajak mutaxassislarning ekologik madaniyatini oshirish, ularning ekologik kompetentli bo‘lishini ta’minlash, xavfli hayotiy vaziyatlarda o‘zini oqilona tutishni talab etadi.‘

Dunyoning turli mamlakatlarida sodir bo‘layotgan yirik masshtabdagi tabiiy ofatlar va halokatlar (vulqon otilishi, zilzila, to‘proq ko‘chishi, muzliklarning erishi, sunami, sel va suv toshqini, havo siklonlarining shaddatli o‘tishi va h.k.) oqibatlarini bartaraf etish, ular oqibatlarini yumshatish fuqarolar, ayniqsa yoshlarda ekologik tarbiya mexanizmlaridan xabardor bo‘lishni, favqulodda hodisalarga tayyor bo‘lishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30-oktyabrdagi “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi” to‘g‘risidagi PF-5863 sonli Farmonida “mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilashni ta’minlash sohasida izchil ishlar olib borilmoqda.

SHu bilan birga, bu borada o‘tkazilgan tahlil natijalari atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat funksiyalarini amalga oshirishda kompleks yondashuv va strategik rejalashtirishning mavjud emasligi, shuningdek, qo‘yilgan vazifalarni samarali bajarish uchun tabiatni muhofaza qilish organining vakolatlari yetarli emasligi...” xaqida hamda “... atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari buzilishlari profilaktikasi, ularni aniqlash va oldini olishning samarali mexanizmlarini joriy etish, respublika aholi punktlarining sanitariya va ekologik holati uchun davlat organlari, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar rahbarlari va fuqarolarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish, shuningdek, 2030

yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarga erishishni ta’minlash...” zarurati xaqida ko‘rsatmalar berilgan[1].

Tahlillarga ko‘ra, tinchlik va harbiy davrdagi favqulodda vaziyatlar sharoitida aholining xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ko‘p yillik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, birorta mamlakat yirik ko‘lamdagi tabiiy ofatlar va texnogen halokatlarda aholi va hududlarning tezkor muhofazasini ta’minlash, yetarli miqdorda malakali qutqaruv tuzilmalarni tashkil etish tizimini yaratish va uni to‘liq jangovar holatda ushlab turish imkoniyatiga ega emas. SHu sababli, aholining ziyoli qatlamini, soha mutaxassislarini, oliy ta’lim muassasalari talabalarini ekologik kompetentli qilib rivojlantirish, xavfli va favqulodda vaziyatlarda harakatlanishga shayligini ta’minlash, ta’lim maqsadlari mazmuni, vosita va metodlarini belgilash, valeologik, xavfsizlikka oid bilimlarni kengaytirish, ilmiy asoslangan o‘quv materiallari va qo‘llanmalarni ishlab chiqish va pedagogik amaliyotga joriy etish dolzarb pedagogik muammo bo‘lib hisoblanadi.

Jabrlanganlar sonini kamaytirishning asosiy yo‘llaridan biri aholining barcha toifalarini, shu jumladan talabalarni favqulodda vaziyatlar sharoitida to‘g‘ri harakatlanishga o‘rgatishdan iboratdir. Fikrimizcha bunday tayyorgarlik doimiy, muntazam, uzuluksiz tarzda oilada, mahallalarda, ta’lim muassasalarida xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.

Fikrimizcha, atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan barcha sa’y-harakatlar insonlarning yaxshi yashashiga, yashayotgan muhitiga nisbatan ongli munosabatda bo‘lishga undaydi va ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish ishlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda aholi punktlarini ko‘kalamzorlashtirish, daraxt va butalarni muhofaza qilish hamda yashil maydonlarni kengaytirish borasida tizimli choralar ko‘rilmoqda. Qimmatbaho navli daraxt va butalar kesilishiga moratoriy joriy qilinishi, daraxt kesganlik holatlari uchun jarima va kompensatsiyalar miqdorining oshirilishi shular jumlasidandir.Biroq, mas’ul tashkilotlarning amalga oshirilayotgan ishlarga sustkashlik bilan yondashishi hamda ayrim shaxslarning o‘simlik dunyosi ob’ektlariga bo‘lgan tajovuzkor harakatlari, shu jumladan daraxtlarni noqonuniy kesish bilan bog‘liq holatlar umumekologik vaziyatning yomonlashishiga sabab bo‘lmoqda.

Yuqoridagi me’yoriy huquqiy hujjatlar ijrosini ta’minlash maqsadida, aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining ustuvor yo‘nalishlari belgilandi:

1. Favqulodda vaziyatlarni keltirib chiqaruvchi xavfli tabiiy hodisalar va texnogen jarayonlarni monitoring va bashorat qilishning yagona uslubini hamda ilmiy asosini ishlab chiqish.
2. Zilzila, sel oqimlari, suv toshqinlari, ko‘chki hodisalari, yirik gidroinshootlar avariyalari bilan bog‘liq yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarda aholi va hududlarni muhofaza qilishi masalalarini tadqiq etish.
3. Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda Favqulodda vaziyatlarda ularni oldini olish va harakat qilish davlat tizimida kadrlar tayyorlash, aholini yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilishga tayyorlashning ilmiy asoslarini takomillashtirish va h.k..

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 30-октябрдаги “2030 йилгача бўлган даврда Ўзбекистон Республикасининг атроф-муҳитни муҳофаза қилиш концепцияси” тўғрисидаги ПФ-5863 сонли Фармони/ https://lex.uz/docs/4574008

Xulosa qilib aytganda, fuqarolarining tabiatni seva bilishi, undan to‘g‘ri va ongli ravishda foydalana olishini tarbiyalash ekologik tarbiya va ekologik madaniyatning asosi bo‘lib, har bir fuqaroda tabiat oldida ma’suliyatning anglash hissiyotini xosil kiladi. Aytish mumkinki, inson tafakkurini oliy darajadagi bosqichi bu ekologik tafakkurdir. Zero, inson o‘zini anglashi va uning atrof muhitga bo‘lgan munosabatini ijobiylashtirishi, yani kundalik hayotimizda tabiatga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan har qanday xatti-harakati oqibatini avvaldan anglab yetishi va shunga yarasha faoliyat ko‘rsatishi, tegishli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, har bir fuqaroning tabiatning ajralmas bir bo‘lagi ekanligini anglash lozim.

LINGUISTIC ESSENCE OF DISCURSIVE ANALYSIS (IN THE EXAMPLE OF USMAN AZIM’S POEMS)

Diyora NURIMOVA,
PROFI university Navoiy filiali o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi
E-mail:diyoranurimova887@gmail.com

Abstract. This article discusses the emergence, study and role of discourse analysis in linguistics. It reveals the role of social and pragmatic factors, the essence of discourse analysis. Lyrical discourse and sociopragmatic interpretation of Usman Azim’s poems are described. Pragmatic, semantic and structural aspects of linguistic units used in the poems are discussed.
Key words: discourse, pragmatic, sociopragmatic, linguistic, social, poetry, art, analysis.

Лингвистическая сущность дискурсивного анализа (на примере стихов Усмана Азима)

Аннотация.В данной статье рассматриваютсия вопросы возникновения, изучения и роли анализа дискурса в языкознании. Раскрывает роль социалных и прагматических факторов, суть дискурсивного анализа. Описаны лирический дискурс и социально-прагматическая интерпретация стихов Усмана Азима.обсуждаются прагматические, семантико-структурные аспекты языковых единиц, используемых в стихотворениях поэта.
Ключевые слова: дискурс, прагматический, социопрагматический, лингвистический, социальный, поэзия, искусство, анализ.

Diskursiv tahlilning lingvistik mohiyati

Ushbu maqolada diskurs tahlilning paydo bo‘lishi, o‘rganilishi hamda tilshunoslikda tutgan o‘rni xususida so‘z boradi. Unda sotsial va pragmatik omillarning roli, diskurs tahlil mohiyati ochib beriladi. Usmon Azim she’rlarining lirik diskursi, sotsiopragmatik talqini bayon etiladi. Shoir she’rlarida qo‘llangan lisoniy birliklarning pragmatik, semantik-struktur jihatlari to‘g‘risida fikr yuritiladi.
Kalit so‘zlar: diskurs, pragmatika, sotsiopragmatika, lisoniy, sotsial, she’r, badiiyat, tahlil.
Kirish. Tilshunoslik o‘z ifoda ko‘lamini yillar o‘tgani sayin kengaytirib bormoqda.

Bugungi kunda uning doirasida an’anaviy tilshunoslikka qaraganda keng qamrovli sohalar rivojlanmoqda. Jumladan, matn lingvistikasi, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika. Bu sohalar jahon tilshunosligida o‘tgan asrning o‘rtalarida chuqur tadqiq etilgan, fikr hamda mulohazalar jamlanib, bir nechta monografiya va tadqiqot ishlari olib borilgan. XXI asr boshlaridan buyon esa o‘zbek tilida ham yuqoridagi tilshunoslik yo‘nalishlariga oid ilmiy izlanishlar qilinmoqda. E’tiborli jihati shundaki, tilshunoslik

muammolariga bag‘ishlangan aksariyat ishlarda “diskurs” atamasi ko‘p qo‘llaniladi. Diskurs biror bir masala yuzasidan bahs yoki muloqotdan iborat muhokama shakli hisoblanadi. U turfa fikr, qarash va tushunchalarni o‘z ichiga oladi hamda insonlararo muloqotni shakllantiradi. Diskurs har qanday bahsni emas, balki so‘zlovchi va tinglovchi uchun ma’lum bo‘lgan ayni bir mavzuga oid xususiyatlarni qamraydi.

Diskurs termini faqatgina tilshunoslik emas, balki adabiyotshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik, falsafa, mantiq, psixologiya kabi fan sohalarida ishlatilib kelinayotgan bo‘lsa-da, uning ko‘pchilik tomonidan e’tirof etilgan bitta ta’rifi mavjud emas. V. Xegay “diskurs”ning dastlab “matn” atamasi bilan bir xil konseptni bildirganini, kayinchalik esa, “diskurs” og‘zaki, “matn” termini yozma nutqqa nisbatan ishlatilganligini yozadi [1].

Uning fikrlariga qo‘shimcha qilib diskursni matnning bir qismi sifatida baholash mumkin. Qolaversa, u matnlarning o‘ziga xos jihatlarini tahlil qilish, nashrga tayyorlashda ham juda muhim. Shaxslararo muloqot mahsuli bo‘lgan diskurs og‘zaki yoki yozma bo‘lishidan qat’iy nazar bilimlarni yaratish, o‘quvchiga yetkazish, fikrlarni tarqatish hamda o‘zganishni aks ettirish kabi jarayonlarda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Unga doir nazariya va qarashlar ham jahon va o‘zbek tilshunoslari ishlarida keng yoritilgan bo‘lishiga qaramay yagona bir ta’rif berilmagan. Uni bir ma’noli termin sifatida ham ko‘rish mushkul. Fransuzcha discours – oldinga orqaga yugurish; inglizcha discourse –harakat, aylanish; lotincha discursus –suhbat, muloqot ma’nolarini bildiruvchi bu istilohning uch tilli ekanligi ham ma’no ko‘lami kengligini bildiradi. Amerika tilshunosi Z. Xarrisning 1952- yili nashr etilgan “Diskurs tahlili” maqolasida ilk bor keltirilgan bu termin mohiyati yoritilgan bir qator nazariyalar va fikrlar mavjud. A.A. Kibrik ta’kidlaganidek, an’anaviy tilshunoslikda diskurs odatda til sistemasi bilan uzviy bog‘liq. “Diskurs – bu matnda mavjud bo‘lgan yagona til faoliyati va natijasi jarayonidir. Diskurs matnni tarkibiy qism sifatida o‘z ichiga oladi. Matn – statik obyekt, til faoliyati jarayonida paydo bo‘ladi. U yozma matn grafik belgilardan iborat yoki og‘zaki akustik signallardan iborat bo‘lishi mumkin. shuningdek, diskurs matndan tashqari suhbatlashayotgan paytdagi jarayon shakllanishi hamda anglanilishini bildiradi ” [2].

Kibrikning mulohazalaridan shuni anglash mumkinki, diskurs va matn bir butunlikni tashkil etadi. Yozma yoki og‘zaki til birliklari vositasida matn yaratishda, uni tushunish jarayonida “matn-diskurs” zidlanishi diskursning matndan ustunligini emas, balki uning tarkibiy qismi ekanligini ifodalaydi. Tilshunoslikda diskursiv tahlil bilan rus va yevropa tilshunoslari salmoqli izlanishlar olib borgan. XX asr 70-yillarning o‘rtalaridan boshlab nutqni diskursiv tahlil qilish amaliyoti rus tilshunoslari N.D.Arutyunova, V.E.Chernyavskiy, Yu.S.Stepanov, T.M.Nikolaevoy, V.Z.Demyankova, Yevropa tilshunoslari Buyssans, M.Fuko, A.Greymas olib borgan tadqiqot ishlarda uchraydi.

Matn tilshunosligi va diskursiv tahlil chegarasi an’anaviy tilshunoslikdagi aktual masalalardan biri sanaladi. Lingvistik adabiyotlarda “matn” hamda “diskurs” tushunchalari bir-biriga juda yaqin ekanligi qayd etiladi. Ye.S.Kubryakova ham diskursning hamma uchun umumiy bo‘lgan ta’rifi mavjud emasligini ta’kidlaydi [3].

Kubryakovaning fikrlaridan shuni anglash mumkinki, diskurs bevosita matn bilan bog‘liq bo‘lgan, bir-biri bilan uzviy aloqador tahlil, muhokama ko‘rinishidir. Lingvistik lug‘atlarda esa diskurs atamasiga quyidagicha ta’rif beriladi:

Diskurs - (discourse) yozma yoki og‘zaki aloqa, bahs, muhokama [4].

Ushbu istilohning lingvistik ma’nosidan matn ustidan muhokama sifatida baholash mumkin. Oxirgi o‘n yilliklarda esa diskurs tushunchasi va diskursiv tahlil bilan bog‘liq masalalar tilshunosligimizda ham asosiy tadqiqot obyektlaridan biriga aylanmoqda. Biz uning lingvistik mohiyatini va ma’no ko‘lamini matn lingvistikasi hamda

pragmaligvistikaga oid ishlarda kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, diskursiv tahlil adabiyotshunoslikda ham alohida o‘rin tutadi. Adabiyotshunoslikda diskurs shoir va yozuvchilar ijodidagi o‘ziga xosliklar, ijodkor tili hamda uni o‘quvchiga yetkazish mahorati bilan belgilanadi. Adabiy matnlarning diskursiv tahlilida yozuvchi tili, badiiy matn janri va ijodkorning so‘z qo‘llash mahorati muhim sanaladi.

TIL O‘QITISH JARAYONIDA O‘QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISH ORQALI YUQORI SAMARADORLIKKA ERISHISH

Esonturdiyeva Dilnoza YUSUPOVNA,
Termiz davlat universiteti Lingvistika: o‘zbek tili 1-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.d., dots. Sh.MAHMARAIMOVA

Annotatsiya: *Ushbu maqolada nafaqat til o‘qitish, balki barcha ilm sohalarida yuksalishning poydevori bo‘lib xizmat qiladigan “Reading comprehension”, ya’ni o‘qish savodxonligini oshirish va bu orqali o‘quvchilarda ona tilimizni bilish, tushunish va undan amaliy foydalana olish darajasini oshirish masalalari muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *o‘qish savodxonligi, matn turlari, rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar, PISA, PIRLS.*

Bugun rivojlangan mamlakatlarda yuqori maktab o‘quvchilari xalqaro ta’lim dasturlari asosida har qanday shakldagi ma’lumotlarni tez va ma’noli o‘qish, ularni tahlil qilish va hayotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini allaqachon shakllantirib olgan bir vaqtda, bizning ta’lim tizimimizda bitta o‘quvchining bir soatda o‘rtacha 30 sahifa kitob o‘qishi matnli axborotni o‘zlashtirishiga oid ko‘rsatkichning achinarli ahvolda ekanini isbotlaydi (1-jadval).

1-jadval

Bir soatda	Bir daqiqada	Jami 1 daqiqada
30 sahifa	0.5 sahifa	100 ta so‘z
	15 qator	
	o‘rtacha 6-7 ta so‘z	

1-jadval. **Ta’lim tizimimizda o‘quvchining matnli axborotni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari**

Yuqorida tahlilga olganimiz bu oddiy matnli ko‘rinishdagi axborot edi. Turli grafalar, diagrammalar, rasm, xarita, jadval va sxemalar ko‘rinishidagi axborotlar haqida gapirish esa o‘rinsiz.

Statistik ma’lumotlarga qaraganda dunyoning top universitetlarida talabalar bitta ma’ruza darsi uchun kamida 300 sahifa kitob o‘qib, tayyorlanib kirishi, bizda aksariyat talabalar esa butun o‘quv yili davomida butun boshli bitta fan uchun ba’zan shuncha kitob o‘qimasligi achinarli holat, albatta. Natijada esa biz yana yosh avlod tilimizning imkoniyatlaridan unumli foydalanolmasligi, o‘z fikrini suhbatdoshiga aniq va tushunarli tarzda yetkazib berolmasligidan shikoyat qilamiz. Xo‘sh, nega aynan bu muammolarni muhokamaga olyapmiz? Ularni kim va qanday bartaraf etishi mumkin? Bu muammolarning yechimini nega aynan o‘qish savodxonligini oshirishda deb o‘ylayotganimizning boisi nimada?[4,5]

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan yurtimizda shu kabi muammolarni hal etish bo‘yicha bir qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “PISA” (The Programme for International Student Assessment) o‘quvchilarni baholash xalqaro dasturi reytingida O‘zbekistonni 2022-yilda birinchi 70 talikka, 2025-yilda 60 talikka va 2030-yilga kelib esa, dastlabki 30 ta ilg‘or mamlakatlar qatoriga kiritish ko‘zda tutilgan [1,2].

Shu o‘rinda bir tabiiy savol tug‘iladi. Bu dasturning afzalliklari nimada va O‘zbekiston ta’lim tizimi rivojiga qay darajada hissa qo‘shadi? PISA (The Programme for International Student Assessment) – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan dastur hisoblanadi. Dasturda 15 yosh 2 oylikdan 16 yosh 3 oylikkacha bo‘lgan o‘quvchilarning funksional savodxonligi, jumladan, o‘qish (matnni tushunish), tabiiy va matematik savodxonligi, shuningdek, ushbu yo‘nalishlardagi hayotiy muammolarni hal eta olish ko‘nikmalari baholanadi [3].

Sinovning asosiy bir yo‘nalishi esa o‘qish savodxonligi bo‘lib, bu insonning matn shaklida berilgan ma‘lumotlarni tushuna olish va ularga javob bera olish ko‘nikmasi, jamiyat hayotida faol qatnashish jarayonida o‘qigan ma‘lumotlaridan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalana olish, bilim va imkoniyatlarini oshira olish layoqati. Bu yerda, o‘qish savodxonligi tushunchasi keng ma‘no kasb etadi. Bu yo‘nalishning maqsadi o‘quvchining berilgan badiiy asardan parcha, biografiya, xat, hujjat, gazeta va jurnallardan olingan maqolalar, turli qo‘llanmalar, geografik kartalar kabi rang-barang tematikadagi, tarkibida matnni ochib berishga mo‘ljallangan diagrammalar, rasmlar, kartalar, grafik va jadvallar berilgan matnni tushinishi, mazmuni haqida fikr yurita olish, matn mazmuniga baho berish va o‘qiganlari haqida o‘z fikrini bera olishi kabi kompetensiyalarini aniqlash hisoblanadi. Buning natijasida o‘quvchi turli fan sohasidagi bilimlarni tez va samarali egallash, hamda ularni hayotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Boshlang‘ich sinflar uchun mo‘ljallangan PIRLS xalqaro dasturi ham xuddi shu kabi bolalarda o‘qish savodxonligini oshirishga qaratilgan bo‘lib ma’lumotlarni tez o‘qib tushungan holda turli fikrlashga undovchi topshiriqlarni bajarishga asoslangan. Shubhasiz, o‘quvchi matn va kitoblarni qancha tez o‘qib tushunsa, u qisqa vaqt sarflab shuncha ko‘p ma’lumotlarni o‘qishga muvaffaq bo‘ladi. Ko‘p o‘qigani sari esa uning so‘z va so‘z birikmalari, turli grammatik shakldagi gap qurilmalaridan, rang-barang til uslublari va tildan foydalanishning boshqa ko‘plab imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ravon ishlata olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, biz til ta’limi jarayonida an’anaviy o‘qitish tizimi va metodlaridan chekingan holda, endi bolaning vaqtini grammatik qoidalarni yod olish, turli sodda va faqat grammatikani o‘rganishga qaratilgan mashqlar bilan o‘g‘irlashga chek qo‘yishimiz lozim. Buning o‘rniga bolada tez va samarali o‘qib tushunish kompetensiyasini shakllantirish va tez fikrlash, fikrini qisqa va lo‘nda, tushunarli tarzda og‘zaki yo yozma bayon eta olish ko‘nikmasini rivojlantirishimiz kerak. Darslar jarayonida ham aynan mana shunga qaratilgan topshiriqlar, metodlar va materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Maqsadlarimizga tezroq yetish uchun bu yangi o‘qitish tizimini, innovatsion metodlarni boshqa fanlarni o‘qitishda ham joriy etish, darslik va qo‘llanmalarni shu kabi topshiriqlar va mashqlar bilan boyitishda amaliy yordamimizni ayamaslik biz filologlar, barcha til mutaxassislarining zimmamizdagi sharafli vazifadir.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29- apreldagi PF-5712-sonli Farmoni.

2. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash. – Toshkent: Sharq, 2019. – B. 4- 9.

PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA EMPATIK MUNOSABATLARNI TADQIQ ETISHNING O'ZIGA XOSLIKLARI

OTAQULOVA Dilorom Azimjonovna-
Navoiy davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Empatiya muammosiga bag'ishlangan tadqiqot ishlarida R.Fisher, T.Lipps va E.Titchener kabi olimlarning nomi tilga olib o'tish joizdir, sababi ushbu olimlarning empatik munosabatlar va xususiyatlar uchun olib borgan tadqiqot ishlari beqiyos muhim hisoblanadi. Shuningdek, T.P. Gavrilova so'ngra G. Yahoda tarixiy tahlilga asoslanib, psixologiyada empatiyani o'rgnishda o'ziga xos konsensus mavjudligini ta'kidlaydi. Ular empatiya kabi hodisalar o'rtasidagi farqlar to'g'risida, ularning farqlarining tabiati haqidagi bahslar to'xtamasligini ta'kidlaydi. Bu savolga javob berish uchun, G. Yahoda ta'kidlaganidek, nevrologiya sohasidagi tadqiqotlarni kengaytirish talab etiladi. E'tibor bering, so'nggi tadqiqotlarda simpatiya va empatiya o'rtasidagi farq ularning miya yarim korteksida namoyon bo'lishini tahlil qilish orqali ko'rsatildi

"Empatiya" tushunchasi dastlab R.Fisherning asarlariga borib taqaladi, u empatiya tushunchasini sub'ektning predmet, san'at asari, atrofdagi olam bilan bo'lishi mumkin bo'lgan estetik munosabati bilan bog'liq holda taklif qilgan. (empatiya so'zma-so'z "o'zini ob'ektga o'tkazish" degan ma'noni anglatadi, bu bizni "ichimizda his qilishimizga" majbur qiladi. Sub'ekt, go'yo, o'z his-tuyg'ularini ob'ektga berib, o'zini uning xizmati va holatiga qo'yadi. T.Lipps XX asr boshidagi asarlarida san'atdan vizual illyuziya va shaxslararo tushunishga o'tishni amalga oshirib, empatiya – "O'zgani", shuningdek, butun atrofidagi dunyoni bilish mexanizmidir deya ta'kidlaydi. Lipps uchun empatiya simpatiya tushunchasi kabi edi. Va keyinchalik shu asosda T.Lipps psixologiyaga "hissiyot" tushunchasini kiritdi.

E.Titchener empatiyani tor ma'noda o'zini boshqa shaxsning predmetlari, vaziyatlari, his-tuyg'ulari va holatlarida his qilish, mexanizmi ichki taqlid qilish deb ta'riflashga moyil edi. Bugungi kunga qadar, bir asr o'tib, tadqiqotchilar empatiya tushunchasini kengaytirdilar va chuqurlashtirdilar, bir qator tushuntirish modellari va mexanizmlarini taklif qildilar. B.Kaffa va uning hamkasblarining sharhlash asosidagi maqolasida empatiya tushunchasining sezilarli xilma-xilligi qayd etilgan, xususan, ular empatiyaning 43 ta ta'rifi ro'yxatini taqdim etadilar (ta'riflarni har tomonlama tahlil qilish asosida qirqta ta'rif bilan to'ldiriladi). -to'rtinchidan - ta'riflarning ko'pligi muammosini hal qilmasdan, o'zlarining umumiy xususiyatlarini aks ettiriladi).

B.Kaffa o'z tahlilida ingliz tilida chop etilgan asarlar analiziga urg'u beradi. Bunda 2000 yildan beri nashr etilgan ishlarda 25 ta ta'rif berilgan. Mualliflar ushbu xususiyatlarni tadqiqot va psixoterapevtik jihatdan e'tibor beradi. Ta'riflar ro'yxati bilan bahslashish mumkin (masalan, ro'yxatda zamonaviy ta'riflar bilan bir qatorda A. Smit tomonidan berilgan simpatiya tushunchasi ta'rifi mavjud). Ushbu tadqiqot ishlarida, empatiya ta'riflarini soddalashtirish va ushbu jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirish imkonini beradigan bir qator mezonlar haqida gapirish o'tish mumkin.

1. Empatiyaning kognitiv yoki affektiv tabiati. Tadqiqotchilarning fikricha, ilmiy-adabiy adabiyotda uch xil ta'rif mavjud: empatiyaning kognitiv xususiyatini ta'kidlaydigan ta'riflar, empatiyaning affektiv xususiyatini ta'kidlaydigan hamda ikkala jihatni ham hisobga oladigan ta'rif va tushunchalar mavjud. Bu mezon ko'pchilik ta'riflarda (qirq uchta ta'rifdan o'ttiz birida) o'z aksini topgan. V. Stefan va K.Finlayning fikricha, empatiyani turli xil talqin qilish bilan birga, tadqiqotchilar va nazariyotchilar hamon empatiyaning ikki turini - kognitiv va affektivlikni ajratish mumkinligiga asosiy urg'u berib o'tishgan.

2. Emotsional ko'rinishlarning kongruentlik va nekongruentlik.

3. Empatiya ob’ektining xususiyatlari (B.Kaffa va uning hamkasblari tomonidan berilgan savol empatiya ob’ektining empatiya paydo bo‘lgan vaziyatda mavjudligi yoki yo'qligi kabi parametrlariga taalluqlidir; bunda soda misol qilib haqiqiy yoki xayoliy qahramon, ya’ni adabiy asar yoki film kabi jumlasidan).

4. Empatiyaning sabablarini tushunish (bu yerda empatiya sub’ekti o‘zining holatini tashqi manbadan kelib chiqqanligini bilishi yoki bunday xabardorlik yo'qligi haqida ketmoqda).

5. Empatiyaning shaxsiy (individual) yoki situatsion xarakteri.

6. Empatiya va xulq-atvor o‘rtasidagi bog‘liqlik (tadqiqotchilar ba’zi xatti-harakatlar empatiyaning paydo bo‘lishiga ergashishi kerakmi yoki yo‘qmi degan fikrni bildirib o‘tishadi).

7.Empatiya avtomatik yoki boshqariladigan jarayon sifatida (neyrobiologiya vakillari uchun empatiya boshqa insonning emotsional holatini kuzatishda yuzaga keladigan avtomatik jarayondir. Bu pozitsiyadan farqli o‘laroq, empatiya eng oddiy shaklda boshqaradigan jarayondir va u o‘zgartirilishi yoki o‘zgarishi mumkin, ya’ni kuzatuvchi tomonidan kognitiv harakatlar mavjudligi. Ushbu mezonlarning ba’zilari bir-biriga mos kelishi mumkin; xususan ta’riflarni tasniflashning ba’zi asoslari empatiya jarayoniga, boshqalari empatiya mexanizmlariga, uchinchisi esa sabablarga bog‘liq. Darhaqiqat, ta’kidlab o‘tish joizki, ushbu yetti mezon va M. Devis modeli o‘rtasida parallellikni o‘tkazish mumkinligida ko‘rinadi, unda u empatiyaning dastlabki shartlarini (shaxsiy yoki vaziyatga xos), empatiya jarayonining o‘zini, shuningdek, oqibatlarini farqlashni taklif qiladi (ichki va shaxslararo). Biz alohida e’tibor beradigan mezonlardan biri empatiyaning paydo bo‘lishi munosabati bilan shaxsiy konstruksiyalarga murojaat qilishdir, adabiyotda bu yo‘nalish ustunlik qiladi.

Ko‘plab ilmiy elektron kutubxonalarda mavjud bo‘lgan 2517 ta manbada ("empatiya" kalit so‘zi, qidiruv sohasi psixologik bilimlar doirasidagi jurnal maqolalari, kitoblar va dissertatsiyalar bilan cheklangan) murojaat qilgan holda, muammo vaziyat borligini aytish o‘rinli ko‘rinadi. Empatiya ko‘pincha psixologik bilimlarning turli sohalarida olib boriladigan ishlar bilan ifodalanadi. Mualliflarning ilmiy qiziqishlari bir qator muammolarni o‘rganishga qaratilgan:

"Inson-inson" ruknidagi turli kasblar vakillari, shu jumladan o‘qituvchilar, psixologlar va shifokorlar o‘rtasidagi empatik xususiyatlarni tahlil qilish;

Bolalar va o‘smirlarda empatiya bo‘yicha tadqiqotlar, hamda empatiyani rivojlantirish yo‘llarini o‘rganish;

Muloqot jarayoni bilan bog‘liq holda empatiyani tadbiq etish normal va patologik sharoitlarda empatiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish. Empatiya birinchi navbatda shaxsiy konstrutsiya sifatida va kamdan-kam hollarda ijtimoiy idrok etish mexanizmi sifatida qaraladi, garchi aynan mana shu empatiya tushunchasi mavjud konseptual qarama-qarshiliklarni hal qilishga imkon bersada bunda B.Kaffa ishida keltirilgan empatiyani ko‘rib chiqish tizimi bir qator cheklovlar va kamchiliklarga ega bo‘lsa-da, taklif qilingan tahliliy asosning ahamiyati shubhasizdir va u o‘rganilayotgan hodisaning murakkabligi va ko‘p qirraliligini ko‘rsatadi.

Mualliflarning fikriga ko‘ra, empatiyani tushunishning xilma-xilligi uchta jiddiy muammoga olib keladi: birinchidan, natijalarni sharhlashda tadqiqotchilar aniq nima o‘rganilganligi, o‘rganilayotgan voqelikning tegishli hodisalar bilan bog‘liqligi haqidagi savollarga javob berishlari kerak va shuni qo‘shimcha qilamizki, kontsepiyalar qanday aniq amalda bo‘lganligi haqidagi savolga javob berish talab etiladi. Bu yerda esa empatiya tadqiqoti natijalarini solishtirish ancha qiyin bo‘ladi. Ikkinchidan, tadqiqotchilar va amaliyotchilar o‘rtasidagi empatiyani tushunishdagi nomuvofiqlik olingan empirik faktlar

va aralashuv dasturlari o‘rtasidagi nomuvofiqlikka olib keladi. Va so‘nggisi, empatiyani talqin qilishdagi nomuvofiqliklar terapevtik aralashuv darajasida qiyinchiliklarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Batson D. These things called empathy: eight related but distinct phenomena. In: J. Decety, W. Ickes (eds.). The social neuroscience of empathy. Cambridge, MA: MIT Press. 2009. P. 3—15.
2.Jahoda G. Theodor Lipps and the shift from «sympathy» to «empathy» // Journal of the History of the Behavioral Sciences. 2005. Vol. 41. P. 151—163
Rimé B. Le partage social des émotions. Paris: Presses Universitaires de France, 2015. 420 p.
3.Карягина Т.Д. Эволюция понятия «эмпатия» в психологии: дисс. ... канд. психол. наук. М., 2013. 175 с.
4.Jorland G., Thirioux B. Note sur l’origine de l’empathie // Revue de Métaphysique et de Morale. 2008. No 2. P. 269—280.
5.Cuff B, Brown S. J, Taylor L, Howat D. Empathy: a review of the concept // Emotion review. 2014. Vol. 7. P. 1—10. doi: 10.1177/1754073914558466
Rimé B. Le partage social des émotions. Paris: Presses Universitaires de France, 2015. 420 p.
6.Zhou Q., Valiente C., Eisenberg N. Empathy and its measurement // Positive psychological assessment: A handbook of models and measures / S.J. Lopez, C.R. Snyder (eds.). Washington: American Psychological Association, 2003. P. 269—284
7.Wang, Y-W , Davidson M.M., Yakushko O.F., Savoy H.B., Tan G.A. and Bleier J.K. 2003. The Scale of Ethnocultural Empathy: Development, Validation, and Reliability. Journal of Counseling Psychology. Volume 50 Issue 2: 221-234.

O‘QUVCHILARNING HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

U.M.Utamuradov-
Navoiy davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quvchilarning huquqiy kompetensiyalarini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni va ahamiyati yuzasidan taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Tayanch so‘zlar: struktura, kompetentlilik, huquqiy madaniyat, ommaviy axborot vositalari, kompetensiya, pandemiya, huquqiy ong.

Huquqiy madaniyatni yuksaltirish, o‘z navbatida, davlat va jamiyat hayotini isloh qilish, amaldagi qonun hujjatlarini tanqidiy tahlildan o‘tkazish, davr o‘quvchilaridan kelib chiqib, ularga tegishli o‘zgartirishlar kiritish, eskirgan va taraqqiyotga to‘siq bo‘layotgan meyorlarni bekor qilish bilan bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma’rifiy sohalardagi keng qamrovli islohotlar davridan o‘tayotgan ekan, mamlakat aholisi huquqiy ongi va huquqiy madaniyatidagi o‘zgarishlarni o‘rganib borish va tegishli sotsiologik tadqiqotlarni o‘tkazish mazkur sohalarda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni oldini olish va manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini beradi. Shu jihatdan olganda huquqiy kompetensiyalarga ega bo‘lgan shaxs jamiyatda sodir bo‘layotgan

islohotlarni to‘g‘ri anglaydi, huquqiy normalarni adekvat qabul qiladi. Shu o‘rinda “kompetentlilik”, “kompetensiya” va “kompetentli yondashuv” tushunchalarini tahlil etish o‘quvchi etiladi.

Bugungi kunda “kompetentlilik” va “kompetensiya” terminlari psixologo-pedagogik bilimlar sohasida, iqtisodda, filologiyada, sotsiologiyada qo‘llaniladi, biroq ikki xil variantda tushuntiriladi: yoki bir xil ma’no beriladi - L.N.Bolotov, V.S.Lednev, N.D.Nikandrov, M.V. Rijakov; yoki farqlanadi - A.A.Verbitskiy, I.A.Zimnyaya, Vostroknutov YE.V.) [1].

N.SH.Turdiyev, Y.M.Asadov, S.N.Akbarova, D.SH.Temirovlarning fikriga ko‘ra, «kompetensiya, kompetentlilik tushunchasi «samaradorlik», «moslashuvchanlik», «yutuqlilik», «muvaffaqiyatlilik», «tushunuvchanlik», «natijalilik», «uquvlilik», «xocca», «xususiyat», «sifat», «miqdor» kabi tushunchalar asosida ham tavsiflanadi» [2].

Fishman L.I. ta’kidlaydiki, kompetentlikning turli xil ta’riflari orasida odatda quyidagi holat tushuniladi: kompetentlilik shaxsning murakkab integrallashgan sifati bo‘lib, ayrim kasbiy faoliyatni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Bu yerda alohida bilimlar yoki ko‘nikmalar haqida gap ketayotgani yo‘q, balki gap insonga yaxlit faoliyatni amalga oshirish imkoniyatini beradigan xususiyat haqida ketayapti [3].

E.F. Zeyerning shunga o‘xshash fikriga e’tiborimizni qaratamiz: kompetentlilik shaxsning integrativ sifati bo‘lib, kasbiy faoliyatning ma’lum turini amalga oshirish uchun yetarli bo‘ladigan zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalar tizimini o‘zida mujassamlashtiradi [4].

“Kompetensiya”, “kompetentlik”, “kompetentli yondashuv” kategoriyalari paydo bo‘lishining batafsil tahlili shuni ko‘rsatadiki, biz fanda ularning paydo bo‘lishidan tortib to turli xil kasbiy, ta’limiy, ishlab chiqarish va ilmiy muhitlarda hayotga tatbiq qilish hamda foydalanishgacha bo‘lgan davrda tasavvurlar dinamikasini Zimney I.A. [5], Tutolmin A.V. [6], Kolomiytsa S.M. [7]larning ishlarida kuzatamiz.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, zamonaviy pedagogikada “kompetensiya”, “kompetentlik” tushunchalarining mohiyati, strukturasi va mazmunining yagona ilmiy-nazariy talqini ham, shuningdek, ular orasida farq ham yo‘q. Bu narsa kompetentli yondashuvning ta’lim muassasalarida, pedagogik xodimlarni, shu jumladan, maktab o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutlarida samarali amalga oshirilishini qiyinlashtiradi.

Bizning tahlilimiz shuni ko‘rsatadiki, kompetentli yondashuvni pedagogikada, psixologiyada va boshqa ijtimoiy fanlarda ishlab chiqish, rivojlantirish va hayotga tatbiq etish bosqichma-bosqich, “kompetensiya”, “kompetentlilik” tushunchalarining ta’lim nazariyasi va amaliyotida qo‘llanilishi bilan qariyb bir vaqtda amalga oshiriladi.

Jamiyatning har bir a’zosi o‘z huquq va burchlarini hamda mas’uliyatini puxta bilishi, buni hayotiy ehtiyoj sifatida anglamog‘i lozim. Fuqarolarimizning dunyoqarashi, tafakkuri mamlakat hayotiga, yangilanishlarga mos ravishda o‘zgarib borishi huquqiy kompetensiya tushunchasi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Fuqarolarning huquqiy savodxonligini ta’minlashda ommaviy axborot vositalarining roli juda muhim. Shu bois milliy media makonda huquqiy mavzulardagi ruknlarga e’tiborni yanada kuchaytirish, aholi o‘rtasida ko‘proq ko‘tarilayotgan muammolarni davriy nashrlar sahifalarida, televideniye va radio eshittirishlarida tushuntirib borish zarur.

2021-yilda o‘tkazilgan so‘rovnomalarda “Mamlakatimizda huquq sohasidagi yangiliklardan ko‘proq qaysi vosita orqali xabardor bo‘lasiz?” degan mazmundagi savolga ushbu so‘rovnoma bo‘yicha ishtirok etgan Respondentlarning 46,6% televideniyedan, 33,1% Internetdan, 7,5% ijtimoiy tarmoqlardan, 7,3% “Huquqiy axborot” telegram

kanalidan, 2,8% bosma OAVdan, 2,2% radiodan, 0,6% esa boshqa manbaalardan xabardor bo‘lishi haqida ma’lumot bergan.

Ko‘rinib turibdiki, televideniye orqali huquqiy axborotdan xabardorlik aholi orasida qolgan ko‘rsatkichlarga nisbatan yuqoriligini ko‘rsatgan.

2022-yilda o‘tkazilgan so‘rovlarda ham “Huquq sohasidagi yangiliklardan ko‘proq qaysi vosita orqali xabardor bo‘lasiz?” degan savol qo‘yilgan bo‘lib, respondentlarning 53 % televideniyedan, 26,8% norasmiy internet manbalaridan (ijtimoiy tarmoqlar, saytlar, forumlar), 11,5% Internetdan, 2,9% bosma OAVdan, 2,0% radiodan, 0,8% rasmiy internet manbalari (rasmiy kanallar, saytlar), 0,4% esa boshqa manbaalardan xabardor bo‘lishi haqida ma’lumot bergan.

Yuqoridagi ma’lumotlardan xulosa qilish mumkinki, OAV orqali huquqiy axborotdan xabardorlik aholi orasida yuqori ko‘rsatkichlarni tashkil etib, yildan-yilga oshib bormoqda.

So‘rovnomalarga 2020-yildagi muhim jarayonlar ham hisobga olingan. Masalan, «Pandemiya sharoitlarida mahallangizda 30 kishidan ortiq bo‘lgan to‘y marosimini o‘tkazilganiga guvoh bo‘lsangiz, qanday yo‘l tutasiz?» mazmunidagi savol qo‘yilgan bo‘lib, unga so‘rovnomada ishtirok etgan shaxslarning 34,0% to‘y egalariga pandemiyada yirik tadbir o‘tkazish xavfliligini tushuntirishini, 5,9% to‘y marosimi o‘tkazilayotganligi haqida IIV xodimlariga xabar berishini, 14,6% fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organiga (mahallaga) xabar qilishini, 18,0% bu holatga e’tibor bermasligini, 26,0% esa javob berishi qiyin ekanligini keltirib o‘tishgan.

Mazkur ko‘rsatkichlar koronavirus pandemiyasi dunyo bo‘ylab o‘z salbiy izini qoldirayotganligiga qaramay, O‘zbekiston aholisi huquqiy bilim va ko‘nikmalar muhimligi, shuningdek, qonunga rioya etishning ustuvorligi qadriyatlariga sodiq qolayotganligini ko‘rsatmoqda.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasi dinamik xarakterga ega bo‘lib, har 3-4 yilda ma’lum darajada yangilanish xususiyatiga ega. Shu o‘rinda, bugungi kunda mazkur sohada mavjud ayrim kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlab, bartaraf etib borilsa, nisbatan qisqa muddatlarda mamlakatimizda qonun ustuvorligining yanada mustahkamlanishiga erishish mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, har bir fuqaroga huquqiy savodxonlik nafaqat javobgarlikka duchor bo‘lmaslik uchun, balki, avvalo, o‘z huquqlarini himoya qilish, qonun bilan belgilangan qo‘shimcha afzalliklardan foydalanish yoki jamiyat va davlat oldidagi o‘z majburiyatlarini sidqidildan bajarish uchun ham kerak bo‘ladi. Ya’ni, huquqiy bilimlarni o‘zlashtirish uchun turtki sifatida qonun oldidagi qo‘rquv emas, balki uni bilishdan rag‘bat topish jamiyat va davlat rivoji uchun ko‘proq manfaat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Шарипова, Э.Ф. Компетентностный подход в технологическом образовании: формирование общетехнологической компетенции будущих учителей // Монография. – Челябинск, 2015. – 202 с.

2. Турдиев Н.Ш., Асадов Ю.М., Акбарова С.Н., Темиров Д.Ш. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг компетенцияларини шакллантиришга йўналтирилган таълим технологиялари // Ўқув-услубий қўлланма. –Тошкент, 2015. – 160 б.

3. Фишман, Л. И. Обратные связи в управлении педагогическими система-ми: опыт классификации и конструирования // Монография. – СПб.: ИОВ РАО, Самара: СамГПИ, 1993. – 394 с.

4. Зеер Э. Ф. Компетентностный подход к образованию // Образование и наука. 2005. – № 3. – С. 27-40.

5. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Авторская версия. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – 42 с.

6. Тутолмин А.В. Формирование профессионально-творческой компетентности студента-педагога // Методика ианализ эксперимента. Глазов: Глазовский гос. пед. ин-т им. В.Г. – Короленко, 2006. – 130 с.

7. Коломиец О.М. Профессиональные компетенции преподавателя высшей школы // Монография. – Москва, 2014. – 168 с.

VOYAGA YETMAGANLARDA JINOIY XULQ-ATVOR NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

D.Z.Rahmonova -
Nizomiy nomidagi TDPU mustaqil tadqiqotchisi

Voyaga yetmaganlar jinoyati o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularda jinoyatning darajasi va dinamikasida, jinoyatlarning sabablari, sharoitlari va motivlarida namoyon bo'ladi. Bu xususiyatlar voyaga yetmagan o'smirlarning ayrim shaxsiy xususiyatlari va ularning jamiyatdagi mavqei bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Voyaga yetmagan o'smirlar jinoyati tushunchasi muayyan va aniq yosh chegaralari bilan bog'liq bo'lib, bunda voyaga yetmagan o'smirlarning to'rtta yosh guruhini o'z ichiga oladi: ular quyidagilar 14-15 yosh; 15-16 yosh; 16-17 yosh va 17-18 yosh. Rossiya ilm-fanida voyaga yetmagan o'smirlar o'rtasidagi delikventlik muammolarini tushunish bo'yicha boy tajriba to'plagan. Yuridik psixologiya, kriminologiya sohasidagi tadqiqotlar voyaga yetmagan o'smirlarning guruhiy jinoyatlarni ochish va tergov qilish masalalariga bag'ishlangan. Ya.Gilinskiyning yozishicha, deviant xatti-harakatlar ikkita keng toifa yoki qismga bo'linadi. Birinchisi, bu ochiq yoki yashirin psixopatologiyaning mavjudligini nazarda tutuvchi psixik salomatlik me'yorlaridan chetga chiqadigan xatti-harakatlardir. Ikkinchisi, bu xatti-harakatlar g'ayriijtimoiy yoki antisotsial bo'lib, ba'zi ijtimoiy va madaniy me'yorlarni, ayniqsa huquqiy-qonuniy me'yorlarni buzadi. Bunday xatti-harakatlar yoki aktlar nisbatan unchalik katta bo'lmasada bo'lsa, delikventlik, og'ir va kriminal bo'lsa qonun bilan jazolanishi mumkin bo'lishi, jinoyat deb ataladi. Shunga ko'ra, ular delikvent (noqonuniy) va jinoiy (jinoyat xatti-harakat) aktlar hisoblanadi.

Zamonaviy dunyoda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va sotsial borliqning ijobiy xususiyatlarini saqlab qolish vazifasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Uni hal qilishda jiddiy to'siq - bu deviant xatti-harakatlar hodisasi hisoblanadi. V.D.Ermakovaning fikricha, deviant xulq-atvor "hamisha jamiyatda yoki uning guruhlarida keng tarqalgan xulq-atvor, faol munosabatlarning qadriyatlari, qoidalari (me'yorlari) va stereotiplari bilan inson harakatlari va faoliyati o'rtasidagi qandaydir nomuvofiqlik, ya'ni mos kelmaslik bilan bog'liq. Demak, nafaqat rasmiy (huquqiy) yoki norasmiy (axloq, urf-odatlar, madaniy, moda) me'yorlarning buzilishi, balki deviant turmush tarzini ham ifodalab, ma'lum bir jamiyatda, muhitda qabul qilingan hodisalarga mos kelmaydigan deviant xulq-atvor uslubi bo'lishi mumkin".

I.Ya. Kozachenkoning xulosalariga ko'ra, voyaga yetmaganlarning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi va ularni huquqbuzarlikni sodir etishga chorlovchi, quyidagi omillar farqlanadi: ya'ni bu kriteriyalar bolalarni to'liq bo'lmagan oilada tarbiyalash; oilada sudlangan qarindoshlarning (ota-onalar, aka-uka, opa-singillar, bobo va buvilar) mavjudligi;

oila a’zolari tomonidan spirtli ichimliklarni suiiste’mol qilinishi, janjal, jinsiy zo‘ravonlik; og‘ir moliyaviy ahvol, oilaning yomon turmush sharoiti, oziq-ovqat va kiyim-kechaklarga bo‘lgan ehtiyoj; ota-onalar va boshqa voyaga yetgan oila a’zolarining huquqiy madaniyatining pastligi, huquqiy nigilizm; qo‘pollik, shafqatsizlik, oiladagi zo‘ravonlik, hissiy yetishmaslik sharoitida bolalarni tarbiyalashgan. T.D.Marsinovskayaning ta’kidicha, O‘smirlik uzoq vaqtdan beri portlovchi, zaif, qiyin, inqiroz, o‘tish davri deb ataladi. Bu yoshda voyaga yetmagan o‘smir bolaning jismoniy va ma’naviy rivojlanishi hali to‘liq shakllanmagan bo‘ladi. Bu uning xatti-harakatlari va xulqining tabiatida namoyon bo‘ladi. Ushbu ta’rifga muvofiq, o‘smirlik davrida ijtimoiy rivojlanish intensiv ravishda sodir bo‘ladi, ya’ni bu davrda ma’lum xususiyatlar: dunyoqarash, axloqiy e’tiqodlar, tamoyillar va ideallar, qadriyatlarni baholash tizimi shakllana boshlaydi. O‘smirning noto‘g‘ri muhiti qadriyatlarni singdirishga, o‘z-o‘zini past baholashni shakllantirishga yordam beradi va voyaga yetmaganni g‘ayriijtimoiy harakatlarga jalb qilish jarayonini osonlashtiradi. A.A. Malishevaning so‘zlariga ko‘ra, o‘smirlik davri shaxs shakllanishining so‘nggi, yakuniy bosqichini belgilovchi muhim, sifat jihatidan noyob rivojlanish jarayonlari bilan ajralib turadi. Bu yoshda o‘zini va kelajagini tushunish muammosi juda erta paydo bo‘ladi.

Ingliz olimi E.Fernxem 210 nafar delikvent ingliz o‘smirlari ustida tadqiqot o‘tkazdi. Bunda natijalar quyidagicha edi: taqdimotda delikvent ko‘rsatkichlari psixotizm bilan kuchli bog‘liq bo‘lib, korrelyatsiya koeffitsientlarining kamayish tartibida nevrotizm, anomiya (yoki uzoqlashish) va ekstraversiya bilan bog‘liq. Bundan tashqari, A.K.Markosning izlanishlari ham, amaliy jihatdan e’tiborga loyiq bo‘lib, u delikventlikning barcha shakllari psixotizm omili bilan bog‘liqligini isbotladi. E.V.Zerkinaning aytishicha, voyaga yetmagan o‘smirlarning jinoiy harakatlari o‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy jihatdan o’ziga xos farqlanadi. Shu bilan birga, ko‘pgina mualliflar voyaga yetmagan o‘smirlar delikventlikning sabablarini ikki katta guruhga bo‘ladilar: ijtimoiy tuzumning kamchiliklarini aks ettiruvchi va. voyaga yetmagan o‘smirlarning shaxsiy xususiyatlarini ajratib o‘tishadi. Voyaga yetmagan o‘smirlar va yoshlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning sabablari va shartlarini umumiy sotsial va shaxsiy-mikroekologik toifalarga bo‘lish kerak. I.A.Ershovaga ko’ra, yoshlar o‘rtasidagi sodir etiluvchi jinoyatlarning ichki ijtimoiy sabablariga quyidagilar kiradi:

a) siyosat sohasida - rasmiy ommaviy bolalar va o‘smirlar tashkilotlari va norasmiy tashkilotlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar, o‘tmishda 80-yillarning o‘rtalaridan boshlab oktabr, pioner va komsomol tashkilotlari faoliyatidagi tartibsizlik va rasmiyatchilikda namoyon bo‘ldi; ularning yoshlar va o‘smirlarni faol ijtimoiy hayotga jalb qilish funksiyalarini bajara olmaganligi, 90-yillarning boshlarida eski rasmiy ommaviy yoshlar tashkilotlarining yemirilishi va hozirgi kunga qadar yangisi yo‘q, balki norasmiy yoshlar birlashmalarining ommaviy ravishda paydo bo‘lishi;

b) norasmiy yoshlar uyushmalarining paydo bo‘lish sabablari G. X. Popov N. A. Adjubey bilan suhbatda yoshlarning “o‘z hayotlarini o‘zgartirishning haqiqiy yo‘lini ko‘rmasliklari holatini aytib o‘tgan. Atrofdagi voqelikka ta’sir o‘tkaza oladigan tutqichlar ular uchun mavjud emas edi”, ya’ni biror narsani rasmiy tarzda o‘zgartira olmaslik, o‘zini ifoda eta olmaslik - bu avval aytib o‘tilgan sababdan kelib chiqadi;

v) yoshlarning real hayotida - ularning ijtimoiy mavjudligida va ijtimoiy ongida “pessimizm” kabi qarama-qarshi hodisalarning mavjudligi; infantilizm (bolalik va ijtimoiy yetuklik mabjudligi.

O‘smirlarning ijtimoiy-madaniy xulq-atvoridagi og‘ishlarni o‘rganish da “omadaniyat” va “deviant xulq-atvor” kabi tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi, chunki aynan shu munosabatda hozirgi bosqichda yoshlar madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari va jihatlarini kuzatish mumkin. Xususan,

tadqiqotchi I.A.Epifanov voyaga etmagan o‘smirlarning deviant va delikvent xatti-harakatlarini belgilovchi quyidagi omillarni aniqlaydi:

1. Individual psixologik omillar - ham ijtimoiy, ham psixologik jihatdan belgilanadigan xarakter xususiyatlari;

2. Ijtimoiy-psixologik omillar - yaqin atrof-muhit bilan munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari, sotsializatsiya yoki ijtimoiylashuvning buzilishi;

3. Ijtimoiy omillar - ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va ekologik omillarning salbiy ta’siri;

4. Ijtimoiy-pedagogik omillar - oilada va maktabda travmatik hodisa va voqealar, madaniy jihatdan sust ta’sirlar;

5. Mobbing va bulling - tengdoshlar o‘rtasida, maktabda, oilada pedagogik va psixologik zo‘ravonlikning o‘ziga xos xususiyatlari. Ko‘pincha deviant xulq-atvorning paydo bo‘lishida o‘smirlik davrida shaxsning rivojlanishiga har tomonlama ta’sir ko‘rsatadigan determinantlar guruhi tomonidan yuzaga keladi. Shu sababli ham, xulq-atvordagi og‘ishlar bilan ishlash profilaktikasi choralarini o‘tkazishda ham, shaxs xususiyatlarini va xatti-harakatlarning buzg‘unchi shakllarini psixologik-pedagogik korreksiya qilishda, o‘smirlarning ota-onalariga o‘z vaqtida maslahat berishda, shuningdek, xavf ostida bo‘lgan o‘smir bolalarning ijtimoiy reabilitatsiyasini amalga oshirishda tizimli yondashuvni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Гилинский Я. Девиантность подростков: теория, методология, эмпирическая реальность / Я. Гилинский, И. Гурвич, М. Русакова. – СПб. : Ин-т социологии РАН, 2001. – С.24-25.

2.Ермаков В.Д. Несовершеннолетние преступники в России / В.Д. Ермаков, Н.И. Крюкова. — М. : ИМПЭ, 1999. – С.63-64.

3.Криминология: Учебник / И. Я. Козаченко, К. В. Корсаков. – М.: НОРМА-ИНФРА-М, 2011. – С.58.

4.Возрастная психология: учеб. пособие для студентов учреждений высш. проф. образования / Т.Д. Марцинковская и др.; под редакцией Т. Д. Марцинковской . -М.: Издательский центр "Академия", 2011. – С.25-26.

5.Фернхэм Эдриан Психология. 50 идей, о которых нужно знать / Эдриан Фернхэм. - М.: Фантом Пресс, 2014. – С.63.

6.Marcos A. C, Bahu, S. J. Drug progression model: a social control test Text./ A. Marcos, S. J. Bahu // Int. J. Addict. 1995. - Vol. 30, N 11. -P.1383-1405.

ТУРКИСТОНДА ЖАДИДЧИЛИКНИ БЎЛИНИШИ ВА ТУРКИСТОН, БУХОРО, ХИВА ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИНИ ТАФОВУТЛАРИ

Жураева Гулшаной Турдиевна –
Навоий давлат педагогика институти
Бошланғич таълим кафедраси ўқитувчиси

Жадидчилик ҳаракати намояндалари кўпинча ўзларини тараққийпарварлар, кейинчалик жадидлар деб аташган. Ўша даврнинг илғор тараққийпарвар кучлари, биринчи навбатда, зиёлилар маҳаллий аҳолининг умумжаҳон тараққиётидан орқада қолаётганлигини ҳис этиб, жамиятни ислоҳ қилиш заруриятини тушуниб етгандилар. Жадидчилик моҳиятини эътибори аввало сиёсий ҳаракат эди. Унинг шаклланиш ва мағлубиятга учраш даврлари бўлиб, уларни шартли равишда тўртга бўлиш мумкин.

Туркистон, Бухоро ва Хива ҳудудида бу даврлар 1895–1905; 1906–1916; 1917–1920; 1921–1929 йилларни ўз ичига олади.

Биринчи даврда Туркистонда подшо Россиясининг мустаҳкам ўрнашиб олиши кузатилади. У ўз сиёсий агентлари (вакиллари) ёрдамида маҳаллий хон ва амир ваколатларини чеклабгина қолмай, уларни қўғирчоққа айлантириб, рус ва ғарб сармоядорларининг ишлаши ва яшаши учун шароит яратади, турли компаниялар, акциядорлик жамиятлари манфаатини кўзлайди. Айни чоғда маҳаллий аҳолининг талаб ва эҳтиёжлари назарга олинмай қўйилди, диний эътиқодлари, урф одатлари билан ҳисоблашмаслик, уларни менсимаслик кучайди. Ҳаётий, илмий савияси юқори бўлган қозилар тажрибасиз кишилар билан алмаштирилди, порахўрлик, ижтимоий–сиёсий адолатсизлик авж олди. Мадраса ва мактаблар фаолиятини чеклаш, маҳаллий жой номларини русча атамалар билан алмаштириш, маҳкама жараёнида қозилар бўйнига хоч тақтиришгача борилдики, ерли аҳолини бу хилда таҳқирлаш ҳоллари мустамлакачиларнинг бедодлигини яққол кўрсатарди. Ўша давр аҳволини Муҳаммад Собирўғли (Дукчи эшон) халққа қарата ўз «Хитобнома»си (1898)да яхши баён қилган (яна қ. Андижан қўзғолони).

"Тинчликни" "ўйловчй" тараққийпарвар кучлар халқнинг деярли барча табақалари ҳунарманд, деҳқон, савдогар, мулкдор, уламолар орасида мавжуд эди. Зиёлилар дастлаб чоризмга қарши курашни халқни асрий қолоқликдан уйғотиш сиёсий – маърифий жабҳадан бошлашга қарор қилдилар. Жадидчилик ҳаракати ана шундай тарихий бир шароитда Туркистон минтақасида ривожланиш учун ўзига қулай замин топди. Жадидлар орасидан олимлар, саноат ва зироатчилик соҳаларининг замонавий билимдон мутахассислари, маданият арбоблари етишиб чиқиб, юртни обод ва Ватанни мустақил кўришни орзу қилдилар ва шу йўлда фидойиларча курашдилар. Жадидларнинг Туркистон мустақиллиги учун курашида асосан қуйидаги йўналишлар устувор эди: янги усул мактаблари тармоғини кенгайтириш; қобилиятли ёшларни чет элга ўқишга юбориш; турли маърифий жамиятлар ва театр труппалари тузиш; газета ва журналлар чоп қилиш, халқнинг ижтимоий–сиёсий онгини юксалтириш билан Туркистонда миллий демократик давлат қуриш. Жадид зиёлиларининг кучли партияси ташкил қилинган тақдирдагина бу ишларни амалга ошириш мумкин эди.

Жадид асосий ғоя ва мақсадлари қуйидагилар эди: Туркистонни ўрта аёлларга хос қолоқлик ва диний хурофотдан озод этиш, шариатни ислоҳ қилиш, халққа маърифат тарқатиш, Туркистонда мухторият ҳукуматини барпо этиш учун кураш, Бухоро ва Хивада конституциявий монархия ва парламент, кейинчалик демократик республика тузумини ўрнатиш орқали озод ва фаровон жамият қуриш, барқарор миллий валютани жорий қилиш ва миллий қўшин тузиш. Тошкент, Фарғона, Бухоро, Самарқанд ва Хивада ҳур фикрли ва тараққийпарвар кишиларнинг айрим гуруҳлари томонидан очилган маданий – маърифий йўналишдаги жамият ва уюшмалардан Жадичилик ҳаракати шаклланди.

Туркистонда Жадичилик ҳаракатини вужудга келтирувчилар тепасида Маҳмудхўжа Беҳбудий, Абдуқодир Шукурий (Шукурий), Саидаҳмад Сиддиқий Ажзий (Самарқанд), Мунавварқори Абдурашидхонов, Абдулла Авлоний, Убайдулла Асадуллахўжаев (Убайдулла Хўжаев), Тошпўлатбек Норбўтабеков (Тошкент), Фитрат, Файзулла Хўжаев, Усмонхўжа Пўлатхўжаев, Абдулвоҳид Бурҳонов, Садриддин Айний, Абдулқодир Муҳиддинов (Бухоро), Обиджон Маҳмудов, Ҳамза, Чўлпон, Исҳоқхон Тура Ибрат, Мўҳаммадшариф Сўфизода (Фарғона водийси), Полвонниёз ҳожи Юсупов, Бобоохун Салимов (Хоразм) турарди.

Туркистон минтақасидаги Жадидчилик ҳаракати, тарқалиш жойи ва йўналишига кўра, учга бўлинади: Туркистон, Бухоро ва Хива жадидчилиги, Туркистон жадидлари билан Бухоро ва Хива жадидлари ўртасида бир мунча тафовут бор. Туркистон ўлкасидаги Жадид ижтимоий асосини зиёлилар ташкил қилди.

Бухородаги жадидлар Туркистондагига нисбатан оғир ижтимоий–сиёсий шароитда юзага келди. Унинг таркиби асосан Бухородаги шаҳар аҳолисининг тараққийпарвар қисми: зиёлилар, муллаваччалар, майда дўкондорлар ва маъмурлар, ҳунармандлар, савдогарлардан иборат эди. Жадидларнинг деҳқонлар ва аскарлар ўртасида нуфузи аввалига паст бўлган. Жадидлар иқтисод ва бошқарув соҳасида бир қатор талаблар, чунончи, солиқларни камайтириш талаби билан чиқишди. Улар дастлаб Бухородаги амирлик тузуми доирасида ислоҳотлар жорий қилмоқчи бўлишди. Бухорода вобкентлик деҳқон Жўрабой илк янги усул мактабини очган эди. Бухородаги Жадичилик ҳаракатига айрим жоҳил муллалар, ҳар қандай янгилик ва ислоҳотларнинг душмани бўлган қадимийлар оқими қарши чиқди. 20 аср бошларида Бухоро жамияти 2 гуруҳга: Икром домла раҳбарлигидаги тараққийпарварлар ва Мулла Абдураззоқ бошчилигидаги қадимийларга бўлинган эди. 1908 йил «Бухорои шариф ширкати» тузилиб, дарсликлар нашр этиш ва китоб савдоси билан шуғулланди. Аҳмаджон Ҳамдий (Абусаидов), Усмонхўжа Пўлатхўжаев (Усмон Хўжа), Ҳомидхўжа Меҳрий, Абдулвоҳид Бурҳонов, Абдулқодир Муҳиддинов, Сад–риддин Айний, Абдураҳмон Саъдий ширкатнинг ташкилотчилари эди. “1909 йил декабрда жадидлар Бухорода «Тарбияи атфол» («Болалар тарбияси») махфий жамиятини тузишди (асосчилари: Абдулвоҳид Бурҳонов, Ҳомидхўжа Меҳрий, Аҳмаджон Ҳамдий, Мукаммил Бурҳонов, Ҳожи Рафе). Бу жамият туркистонлик ва бухоролик ёшларни Истанбулдаги «Бухоро таъмими маориф жамияти» бўлимига ўқишга жўнатди. Хориждаги таълим ёшлар дунёқарашида тубдан бурилиш ясади. Жадидчилик ҳаркати Бухоро ва Туркистонда бир вақтда бошланган бўлса ҳам, амирликдаги оғир муҳит унинг тараққиётини тезлаштирди. 1910 йилдан бошлаб Бухорода Жадидчилик ҳаракатида «Тарбияи атфол» махфий жамияти асосида партия ташкил топди (қ. Ёш бухороликлар)”. [298]

20 аср бошларида Хивада шаклланган Жадидлар бир қадар бошқачароқ тарихий шарт – шароитда вужудга келди. У бу ерда асосан иккита оқимдан иборат эди. Унинг ўнг оқими хонликда ривожланаётган савдо – саноат корхоналари эгалари ҳамда йирик бойларнинг вакилларини ўзига бирлаштирган эди. Бу оқимга Хива хони Асфандиёрхоннинг бош вазири Исломхўжа бошчилик қилган. Жадид ўнг оқими ўз олдига мамлакатда хон ҳокимиятини сақлаб қолган ҳолда ижтимоий–иқтисодий ислоҳотлар ўтказиш орқали эркин бозор муносабатларининг ривожланишига кенг йўл очиб беришни мақсад қилиб қўйган эди.

Хивада Жадид сўл оқими эса майда сармоядорлар, ҳунармандлар ва халқнинг турли табақа вакилларини бирлаштирган бўлиб, қозикалон Бобоохун Салимов унинг раҳбари эди. Улар Хива хонлигида янги усул мактаблари ташкил қилиш орқали халқ оммасининг сиёсий фаоллигини ўстириш мақсадини қўйишган эди. 1904 йил «жамияти хайрия» тузилиб, унинг кўмаги билан Хива шаҳрида дастлабки янги усул мактаби очилди (1904 йил 10 нояб.).[299] Хива жадидлари маърифий ишлар билан кифояланиб қолмасдан, хон тузумига қарши кураш ҳам олиб бордилар. Биринщ жаҳон урушигача

[298] ***Шохистахон Ульжаева. Ўзбекистон тарихи. Жадидчилик.***
https://www.facebook.com/groups/246149995752425/posts/882256818808403

[299] Каримов Э. Мустақиллик ва жадидлар ҳаракати.// Мулоқот1998. №4 31-33-б.

Хива жадидларининг ягона маркази ва дастурий ҳужжатлари бўлмаган. Бироқ Жадичилик ҳаракати Хива хонлигида катта ижтимоий–сиёсий кучга айланиб, 1914 йил августида у партия шаклини олган (қ. Ёш хиваликлар).

1904—1905 йиллардаги рус–япон уруши, 1905—1907 йилларда бўлган 1–рус инқилоби, 1905—1911 йиллардаги Эрон инқилоби, 1908 йил Туркияда бўлган. Ёш турклар инқилоби жадидлар дунёқарашига кучли таъсир кўрсатди. Жадидлар ўз газета ва журналлари, янги усул мактаблари, турли кутубхона ва қироатхоналар. ҳаваскор театр группалари теварагида тўпланишар эди. Уларнинг кўпчилиги шу даврнинг кўзга кўринган ижодкорлари шоиру ёзувчилар эди. Улар ўз асарлари билан тарихан янги миллий адабиёт яратдилар. Адабиёт давр воқеаларига ҳамоҳанг борди. 1910–йиллардаёқ маърифат ва озодлик ғоялари унинг марказий мавзуига айланди. Адабиётга «миллат» ва «ватан» тушунчалари кириб келди.

Миллий шеърларга рағбат кучайди. Янги замонавий достончилик майдонга келди, публицистика (Беҳбудий, Фитрат, Мунавварқори, Мирмуҳсин) ривожланди, реалистик проза шаклланди. Шунинг учун ҳам бу давр адабиёти Узбекистон мустақиллигидан кейин ҳақли равишда миллий уйғониш даври узбек адабиёти деб даврлаштирилди. Адабиётдаги бундай уйғониш, айн и вақтда, шу давр маданий ҳаётида ҳам рўй берди. Жадидлар узбек халқи ҳаётига том маънодаги миллий театрни олиб кирди. Миллий матбаанинг вужудга келиши билан китоб босиш иши йўлга қўйила бошланди. Европа кўп овозли мусиқа санъати билан танишган жадидлар Жадичилик ўзбек анъанавий мусиқа услубларини ҳам ислоҳ қилишга даъват этишган. 1919 йилда Тошкентнинг Эски шаҳар қисми (ҳоз. «Турон» кутубхонаси ёнидаги бино)да жадидлар ташаббуси билан Туркистон халқ консерваториясининг миллий (эски шаҳар) бўлими ташкил этилди. Шу тарзда жадидлар санъат воситаси билан миллат қадрини кўтариш, санъатнинг деярли барча турларини юксалтиришга интилдилар.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA YOZMA NUTQNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Karimova Nurxon –
Navoiy viloyati Navoiy shahar 10-umumiy o‘rta ta'lim maktabi
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Respublikamizda ta’lim tizimining boshlang‘ich bo‘g‘ini hisoblangan boshlang‘ich sinflarda o‘quv samarasini oshirish o‘quvchi va o‘qituvchilarning o‘rtasidagi mustahkam ijodiy hamkorlik, pedagoglarning o‘zaro hamkorlik jamoasida ilmiy potensialni kuchaytirish, haqiqiy ijodkorlik va izlanuvchanlik ruhida yo‘g‘rilgan ijobiy muhitni hosil qilish shu kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib turibdi.

Ayniqsa bosh maqsadi yosh avlodni bayonga tayyorlash bo‘lgan boshlang‘ich sinfda mazkur masalaning to‘g‘ri yechilishi, topilishi muhim ahamiyatga ega. Bayon yozish yoki berilgan bayon matni asosida ketma-ketlik va izchillikda reja tuzish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqini takomillashtirishga katta yordam beradi. Bayonga reja tuzish bosqichini sinflar kesimida tahlil qilsak, bu har bir sinfda o‘ziga xos alohida xususiyatlarga ega. Jumladan, 1-sinflarda reja tuzish kichik matnga so‘roq gap tarzida sarlavha qo‘yish tarzida olib borilsa, 2-sinfda bayon mazmunini ochuvchi savollar orqali so‘roq yoki darak gap shaklida olib boriladi. 2-sinf o‘quvchilarining reja bilan ishlashidagi asosiy talab ularning savollarni to‘g‘ri o‘qishi va ularni matn qismlari bilan

bog‘lay olishidir. Reja tuzish 3-sinfda jamoa bo‘lib; 4-sinfda esa mustaqil holda amalga oshirilishi tarzida murakkablashtirilib boriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida bayonga, asosan, matn mazmunini qisqartirib hikoyalash yoki qayta hikoyalash tarzidagi topshiriqlarning berilishi orqali e’tibor qaratiladi. Ona tili darslarida esa matnni qayta hikoyalash bilan bir qatorda, matn mazmunini to‘liq o‘zlashtirishga doir savollarning keltirilishi matnni to‘liq qayta hikoyalash, reja tuzish, sarlavha topish kabi o‘zaro bog‘liqlikdagi topshiriqlarning ham kiritilganligini alohida ta’kidlash zarur.

Ta’kidlash joizki, ona tili darslarida bayon yozishning og‘zaki tarzda olib borilishi o‘quvchilarda fikrni keng ko‘lamda va xilma-xil ravishda bayon eta bilish qobiliyatini o‘stirsa, yozma tarzda olib borilishi esa o‘quvchilarning yozma nutqini o‘stirishga va yozma nutq malakalarini mustahkamlashga katta yordam beradi. E’tibor qilinsa, boshlang‘ich sinf ona tili darsliklarida ta’limiy bayonning, asosan, ijodiy mazmundagi (shaxsini o‘zgartirish, lisoniy topshiriqli, tasvir unsurlarini kiritish, shuningdek, boshlab berish yo‘li bilan yozish) turlarini o‘tkazishga doir topshiriqlarga qaratilgan. **Shaxsni o‘zgartirib qayta hikoyalash, hikoyadagi biror personaj tilidan qayta hikoyalash, matnni ijodiy to‘ldirib qayta hikoyalash, so‘z bilan tasvirlash** kabi topshiriqlar o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga undaydi va ularning tafakkurini kengaytiradi.

Metodistlar orasida bayon matnidagi so‘zlar *hajmi* yuzasidan turlicha qarashlar mavjud. Jumladan, A.Zunnunovning fikricha, “bayon o‘tkazishda so‘zlar hajmini aniq ko‘rsatib, o‘qituvchining erkin harakatini bo‘g‘ib qo‘yish mumkin. Shu sababli bunday ma’lum chegara qo‘yish maqsadga muvofiq emas, deb o‘ylaymiz, chunki bu diktant emas, balki uslub (stil) va fikrlashni o‘stirishga qaratilgan o‘ziga xos yozma ishdir”[300].

Haqiqatan ham, bu masalaning muhim bir jihati. Bizningcha, masalaning boshqa tomoni ham borki, u ham bo‘lsa darsga ajratilgan vaqt, yozma ishga mo‘ljallangan soat, sinfning o‘zlashtirish darajasi, o‘quvchilarning bilish jarayonlari rivoji hamda matnning xususiyatidir. Zero, matn ijodiy fikrlashga yo‘naltiradigan, yozma nutq ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan, shuningdek, axloqiy-estetik tarbiya mezonlarini o‘zida mujassam etgan bo‘lsa-da, undagi so‘zlar hajmi o‘quvchining individual va psixologik xususiyatlariga mos kelmasa kutilgan samarani bermasligi tayin. Yuqori sinf o‘quvchisiga mohiyatan salmoqli, lekin hajman mos kelmaydigan matnning yoki kichik yoshdagi bolalarga yirik hajmdagi, lekin tarbiyaviy sayoz materiallarning berilishi maqsadga muvofiq emasligi yaxshi ma’lum. Matndagi so‘zlar miqdori, albatta, o‘quvchilarning yoshiga qarab tanlanadi. Bu borada K.Qosimova ta’kidlaganidek, “boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozish sur’ati sekin, shunga ko‘ra bayon yozish uchun kichik hajmdagi, kompozitsiyasi sodda, til tomonidan ham mos matn tanlanadi. Bayon matni asta-sekin murakkablashtira boriladi: avval hikoya tarzidagi bir lavhani ifodalovchi matn tanlansa, unga yana lavhalar, tasvir elementlari kiritib boriladi, qatnashuvchilar soni orttiriladi, muhokama elementlari ham qo‘shiladi, keyinroq shaxsini o‘zgartirib bayon yozishga o‘tiladi. Shunday qilib bayon asta-sekin ijodiy tus ola boradi”[301].

So‘nggi yillarda ona tilio‘qitishnimultimedia vositalarihamda elektron o‘qitish (E-learning), aqlli ta’lim (Smart Education) usullaridan foydalanib tashkil etishning o‘ziga xos afzalliklari kuzatilmoqda.Bu jihatlar X.Muhitdinova[302], S.Muhamedova[303], O.Mo‘minova[304],

[300]Зуннунов А., Турдиев Б. Баёнлар тўплами. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 10-б.

[301] Qosimova K. va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. –Toshkent: Noshir, 2009. – 325-b.

[302]Мухитдинова Х. Тил таълимига видеоматериаллар қандай уйғунлашади? //Til va adabiyot ta’limi. –Toshkent, 2015. – № 8. – 15–16-б.

Sh.Yuldasheva[305]larning o‘quv jarayonini elektron muhitda o‘tkazish orqali ona tili ta’limi samaradorligini ta’minlashga oid tavsiyalarida alohida ta’kidlanadi. Shuningdek, M.Isroilova[306], S.Kambarova[307]larning izlanishlarida badiiy matn ustida ishlashda pedagogik dasturiy vositalar imkoniyatlari doirasida virtual laboratoriyalar tashkil etish, veb sayohatlar uyushtirish, panoramik tasvirlar yaratishning samarali jihatlari tadqiq qilingan.

Bugungi kunda an’anaviy “Bayonlar to‘plami”ning elektron variantini yaratish bog‘lanishli nutq va ijodiy tafakkurni o‘stirishda muhim o‘rin tutadi. Elektron “Bayonlar to‘plami” quyidagi mezonlarni e’tiborga olib yaratilishi maqsadga muvofiq:

– materiallarni qisqacha bayon qilishning qulay va uslubiy jihatdan mukammal tuzilishini ta’minlaydigan, giperhavolalar tizimiga ega matnlardan;

– uslubiy jihatdan asoslangan nisbatlarga tasvirlar, ovoz, harakat va boshqa jihatlar bilan boyitilgan matnlardan. Bunday matn materiallarini yaxshiroq o‘zlashtirish o‘qitish jarayonini jonlantirishga yordam beradi;

– qulay boshqara olish tizimi (matn bo‘ylab erkin harakatlanish, bevosita bir kitobning matni bo‘ylab yoki ko‘plab kitoblar va hujjatlar orasidan turli ma’lumotlar, mundarija, alifbo ko‘rsatkichini dastur asosida izlash, matnga turli belgilar kiritish va boshqa imkoniyatlar);

– o‘quv jarayoni modellarining imkoniyatlaridan foydalanishga qaratilgan interfaol elementlar va h.k.

Xulosa qilish mumkinki, boshlang‘ich sinflarda bayon o‘tkazish o‘quvchilarning ona tili fanidan egallangan grammatik bilimlari, nutq madaniyati darajasini namoyon etsa, o‘qish darslarida matnga singdirilgan ma’no-mazmun orqali ma’naviy dunyosi ko‘rkamlashuvi hamda badiiy-estetik tafakkuri yuksalishiga erishiladi. Yozma ishlarga mo‘ljallab yaratiladigan multimediali elektron qo‘llanmalar ta’lim subyektlari o‘rtasidagi dialoglarni muvaffaqiyatli tashkil etishga, axborotlarni audio va vizual tarzda tadqim etishi nuqtai nazaridan samaradorligini ta’kidlash mumkin.

ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ МОҲИЯТИ ВА ТУРЛАРИ

Маъмурова Фарангиз Неъматовна,
Инглиз тили ва адабиёти мутахассислиги магистранти
Навоий давлат педагогика институти

Инглиз тилидан таржима қилинганда “инновация” тушунчаси (“innovation”) “янгилик киритиш” деган маънони англатади. “Инновация” тушунчаси мазмунан аниқ ҳолатни ифодалайди. Инновация – муайян тизимнинг ички тузилишини ўзгартиришга қаратилган фаолият. “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси”да

[303]Муҳамедова С.Х., Юлдашева Ш.Ш. Педагогик дастурий воситалар ва тил таълими / Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент, 2016. – Б. 113–116.

[304]Mo‘minova O. O‘zbek tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish //Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2019. – № 1. – 27–28-b.

[305]Yuldasheva Sh. Interfaoldiktant – savodxonliknibaholashningelektrontizimi//Til va adabiyot ta’limi. –Toshkent, 2019. – № 1. – 35–36-b.

[306]Исроилова М. Лотин тилини ўқитиш жараёнида тиббиёт олий таълим муассасаси талабаларини интеллектуал-маданий ривожлантиришнинг дидактик асосларини такомиллаштириш: Пед. фан. док. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент: 2018. – 17-б.

[307]Камбарова С. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг мустақил мутолаа маданиятини шакллантириш технологияси: Пед. фан. док. (PhD) дисс. – Самарқанд, 2019. – 81–83-б.

кўрсатилишича, инновация қуйидагича мазмун ва тушунчаларга эга: “Инновация (ингл. “innovationas” – киритилган янгилик, ихтиро) – 1) техника ва технология авлодларини алмаштиришни таъминлаш учун иқтисодиётга сарфланган маблағлар; 2) илмий-техника ютуқлари ва илғор тажрибаларга асосланган техника, технология, бошқариш ва меҳнатни ташкил этиш каби соҳалардаги янгиликлар, шунингдек, уларнинг турли соҳалар ва фаолият доираларида қўлланиши”.[308]

А.И.Пригожиннинг фикрига кўра, инновация мақсадга мувофиқ равишда муайян ижтимоий бирлик – ташкилот, аҳоли, жамият, гуруҳга нисбатан муносабатга янгича ёндашиш, бу муносабатни бир қадар турғун элементлар билан бойтиб бориш тушунилиши лозим. Бу ўринда англанадики, муаллифнинг қарашлари бевосита ижтимоий муносабатлар, уларга нисбатан инновацион ёндашиш моҳиятини ифодалайди. Шундан келиб чиққан ҳолда ҳар бир шахс фуқаро, мутахассис, раҳбар, ходим, қолаверса, турли ижтимоий муносабатлар жараёнининг иштирокчиси сифатида ўзига хос инноватор фаолиятни ташкил этади.[309] Америкалик психолог Э.Роджерс ўз тадқиқотларида инновацион характерга эга ижтимоий муносабатларнинг ижтимоий-психологик жиҳатлари, ижтимоий муносабатларга янгилик киритиш, бу жараёнда иштирок этувчи шахсларнинг тоифалари, уларнинг янгиликка бўлган муносабатлари, янгиликни қабул қилиш, моҳиятини англашга бўлган тайёрлик даражаси ҳамда муайян шахслар тоифалари ўртасидаги инновацион характерга эга ижтимоий муносабатларнинг таснифи масалаларини ўрганган. Инновацион таълим (ингл. “innovation” – янгилик киритиш, ихтиро) – таълим олувчида янги ғоя, меъёр, қоидаларни яратиш, ўзга шахслар томонидан яратилган илғор ғоялар, меъёр, қоидаларни табиий қабул қилишга оид сифатлар, малакаларни шакллантириш имкониятини яратадиган таълим. Инновацион таълим жараёнида қўлланиладиган технологиялар инновацион таълим технологиялари ёки таълим инновациялари деб номланади. Таълим инновациялари – таълим соҳаси ёки ўқув жараёнида мавжуд муаммони янгича ёндашув асосида ечиш мақсадида қўлланилиб, аввалгидан анча самарали натижани кафолатлай оладиган шакл, метод ва технологиялар. Таълим инновациялари “инновацион таълим” деб ҳам номланади.

Инновациялар турли кўринишга эга. Қуйидагилар инновацияларнинг асосий кўринишлари саналади:

– янги ғоялар;

– тизим ёки фаолият йўналишини ўзгатиришга қаратилган аниқ мақсадлар;

– ноанъанавий ёндашувлар;

– одатий бўлмаган ташаббуслар;

– илғор иш услублари.

Таълим тизимида ёки ўқув фаолиятида инновацияларни қўллашда сарфланган маблағ ва кучдан имкон қадар энг юқори натижани олиш мақсади кўзланади. Инновацияларнинг ҳар қандай янгиликдан фарқи шундаки, у бошқариш ва назорат қилишга имкон берадиган ўзгарувчан механизмга эга бўлиши зарур. Барча соҳаларда бўлгани каби таълимда ҳам “новация”, “инновация” ҳамда уларнинг моҳиятини ифодаловчи фаолият тўғрисида сўз юритилади.

Агар фаолият қисқа муддатли, яхлит тизим хусусиятига эга бўлиб, фақатгина тизимдаги айрим элементларни ўзгартиришга хизмат қилса у **новация** (янгиланиш)

[308] 2-Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Зебунисо-Конигил / 4-том. Бош таҳрир ҳайъати аъзолари: М.Аминов ва б. – Т.: “Ўзбекистан миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. – 169-бет.

[309] Пригожин А.И. Нововведение: стимулы и перспективы. М.: Политиздат, 1998. – 81 с.

деб юритилади. Борди-ю, фаолият маълум концептуал ёндашув асосида амалга оширилиб, унинг натижаси муайян тизимнинг ривожланишига ёки уни тубдан ўзгартиришга хизмат қилса, у **инновация** (янгилик киритиш) деб аталади.

Илмий адабиётларда “новация” (янгиланиш, янгилик) ҳамда “инновация” (янгилик киритиш) тушунчаларининг бирбиридан фарқланишига алоҳида эътибор қаратилади. Мисол учун, В.И. Загвязинскийнинг эътироф этишича, “янги”, “янгилик” тушунчаси нафақат муайян ғояни, балки ҳали амалиётда фойдаланилмаган ёндашув, метод ҳамда технологияларни ифодалайди. Аммо бунда жараён элементлари яхлит ёки алоҳида олинган элементларан иборат бўлиб, ўзгариб турувчи шароит ва вазиятда таълим ва тарбия вазифаларини самарали ҳал этиш ғояларини ўзида акс эттиради. Дарҳақиқат, янгилик – восита саналиб, у аксарият ҳолатларда янги метод, методика, технология ва б. кўринишида намоён бўлади. Моҳиятига кўра новация ва инновация ўртасида муайян фарқлар мавжуд.

И.П.Подласыйнинг фикрига кўра, таълим инновационлари қуйидаги ўзгаришларга олиб келади:

- педагогик тизимнинг тамомила ўзгариши;
- ўқув жараёнининг ўзгариши;
- педагогик назариянинг ўзгариши;
- ўқитувчи фаолиятининг ўзгариши;
- талаба (талаба) фаолиятининг янгиланиши;
- педагогик технологиянинг ўзгариши;
- таълим мазмунининг янгиланиши;
- ўқитиш шакл, метод ва воситаларининг ўзгариши;
- таълим тизими бошқарувнинг ўзгариши;
- таълим мақсади ва натижаларнинг ўзгариши

Педагогик инновацион жараён моҳияти.[310]

Замонавий таълимга хос муҳим жиҳатлардан бири – педагог фаолиятининг инновацион характер касб этишига эришиш саналади. Ривожланган хорижий мамлакатларда педагог фаолиятининг инновацион характер касб этишига эришиш масаласи ўтган асрнинг 60-йилларидан бошлаб жиддий ўрганила бошлаган. Хусусан, Х.Барнет, Ж.Бассет, Д.Гамильтон, Н.Гросс, Р.Карлсон, М. Майлз, А.Хейвлок, Д.Чен, Р.Эдем, Ф.Н. Гоноболин, С.М. Годнин, В.И.Загвязинский, В.А.Кан-Калик, Н.В.Кузьмина ҳамда В.А.Сластенин каби тадқиқотчилар томонидан олиб борилган ишларда инновацион фаолият, педагогик фаолиятга инновацион ёндашиш, инновацион ғояларни асослаш ва уларни амалиётга самарали тадбиқ этиш, хорижий мамлакатлар ҳамда республикада яратилган педагогик инновациялардан хабарор билиш орқали педагог фаолиятида улардан фаол фойдаланиш борасидаги амалий ҳаракатлар мазмунини ёритилган.

Моҳиятига кўра инновациялар муносабат ёки жараёнга янгилик киритишнинг динамик тизими саналади. Ўз-ўзидан тизим сифатида янгилик киритириш муносабат ёки жараённинг, биринчидан, ички мантиғини, иккинчидан, киритилаётган янгиликнинг муайян вақт оралиғида изчил ривожланиши ва атроф-муҳитга кўрсатадиган ўзаро таъсирини ифодалайди.

В.А.Сластенин инновацияни янгилик яратиш, кенг ёйиш ва фойдаланишга қаратилган мақсадга мувофиқ, йўналтирилган жараёни мажмуи деб билади. Муаллифнинг фикрига кўра ҳар қандай инновация янги воситалар ёрдамида

---

[310] *Подласый И.П. Педагогика: 100 вопросов - 100 ответов: учеб. пособие для вузов/ И. П. Подласый* - М.: ВЛАДОС-пресс, 2004. - 365 с.

ижтимоий субъектларнинг эҳтиёжини қондириш ва интилишларини рағбатлантириш мақсадини кўзлайди.[311]

Ҳар қандай инновацияда “янги”, “янгилик” тушунчалари муҳим аҳамиятга эга. Турли муносабат ва жараёнларга киритилаётган янгилик мазмунан хусусий, субъектив, маҳаллий ва шартли ғоялар тарзида намоён бўлади.

Хусусий янгилик муносабат, объект ёки жараёнга тегишли элементлардан бирини ўзгартириш, янгилашни назарида тутади.

Субъектив янгилик маълум объектнинг ўзини янгилаш заруриятни ифодалайди.

Маҳаллий янгилик алоҳида олинган объект учун киритилаётган янгиликнинг амалий аҳамиятини тавсифлаш учун хизмат қилади.

Шартли янгилик эса муносабат, объект ёки жараёнда мураккаб, прогрессив янгиланишнинг содир этилишини таъминловчи маълум элементларнинг йиғиндисини ёритишга хизмат қилади.

Р.Н.Юсуфбекова инновацияларни педагогик нуқтаи назардан кўриб чиқишга эътиборни қаратади. Хусусан, педагогик инновациялар муаллиф томонидан таълим ва тарбия жараёнида аввал маълум бўлмаган, қайд қилинмаган ҳолат ёки натижага олиб борувчи педагогик ҳодисанинг ўзгариб туриши мумкин бўлган мазмуни эканлиги таъкидланади. Россиялик олимлар – А.И.Пригожин, Б.В.Сазонов, В.С.Толстой, Н.П.Степанов ва б. эса инновацион жараён ҳамда унинг таркибий қисмларини ўрганишга эътиборни қаратган. Бу ўринда улар инновацион жараённинг ташкил этилишига нисбатан қуйидаги икки ёндашув мавжуд эканлигини эътироф этади: 1) янгиликнинг индивидуал микро даражаси (унга кўра қандайир янги ғояга амалиётга жорий этилади); 2) алоҳида-алоҳида киритилган янгиликларнинг ўзаро таъсирини ифодаловчи микро даража (бу ўринда алоҳида-алоҳида киритилган янгиликларнинг ўзаро таъсирланиши, бирлиги, рақобати ва бирининг ўрнини иккинчиси томонидан эгалланиши аҳамиятли саналади). А.И.Пригожин, Б.В.Сазонов ва В.С.Толстойлар ўз тадқиқотларида янгилик киритишнинг тизимли концепцияни асослашга уринган. Бу ўринда муаллифлар инновацион жараёнларнинг қуйидаги икки муҳим босқичини бир-биридан ажратиб кўрсатишади: 1. Янгилик сифатида намоён бўладиган ғояларни ишлаб чиқиш (м: корхона, ташкилот томонидан муайян турдаги маҳсулотни ишлаб чиқишнинг режалаштирилиши). 2. Янгилик (муайян маҳсулот)ни кенг кўламда ишлаб чиқиш.

АДАБИЁТЛАР

1. Завлин П.Н., Васильев А.В. Оценка эффективности инноваций. – СПб.: Изд. дом «Бизнес-пресса», 1998 – 23 с.

2 Инновацион таълим технологиялари / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Ҳ., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Т.: “Сано стандарт” нашриёти, 2015. – 150 б.

3. Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С. Илғор педагогик технологиялар. – Т.: Ўқитувчи, 2004.

4. Пригожин А.И. Нововведение: стимулы и перспективы. М.: Политиздат, 1998. – 81 с.

5. Рўзиева Д., Усмонбоева М., Ҳолиқова З. Интерфаол методлар: моҳияти ва қўлланилиши / Мет.қўлл. – Т.: Низомий номли ДТПУ, 2013. – 115 б.

6. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг тадбиқий асослари – Т.: 2006. – 260 б.

[311] *Сластенин В.А. и др. Педагогика: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / В. А. Сластенин, И. Ф. Исаев, Е. Н. Шиянов; Под ред. В.А. Сластенина. -- М.: Издательский центр "Академия", 2002. - 576 с.*

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA QO‘LLANILADIGAN DIDAKTIK METODLARNING O‘QUVCHILAR HAYOTIDAGI O‘RNI

Axmedova Shahlo RAHMATOVNA,
Navoiy shahar12-IDUM
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Dars berish oddiy ish emas, lekin bu ish qiziqarli va katta mahorat talab etadi, chunki u o‘quvchilarni yangi, yashirin, qiziqarli narsalar bilan tanishtiradi; So‘nggi yillarda "ishtiyoq bilan o‘rganish" tushunchasi paydo bo‘lganligi bejiz emas. O‘yinda bola katta qiziqish va ishtiyoq bilan unga juda qiyin va qiziqmas tuyulgan narsani bajaradi. V.A. Suxomlinskiy bu haqda aytganda, bola - bu dunyoni o‘rganadigan, o‘yin orqali yangi kashfiyotlar qiladigan tadqiqotchi.

O‘yin jarayoni har doim o‘quv dasturining muayyan mavzusi bilan bog‘liq bo‘lgan didaktik vazifani hal qilishga bo‘ysunadi. O‘yin maqsadini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni o‘zlashtirish zarurligini ta’minlaydi. O‘yinda tarbiyaviy vazifa to‘g‘ridan-to‘g‘ri bolalarning zimmasiga yuklanmaydi, shuning uchun o‘quv materialini bexosdan o‘zlashtirishda o‘yinning "ikkitomonlama tabiati" yuzaga keladi - ta’lim yo‘nalishi va o‘yin shakli - muayyan o‘quv materialini mohirona rag‘batlantirishga imkon beradi. Darslarning bir xilligi va stereotiplari o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni kamaytiradi, o‘quv jarayonini zerikarli va murosasiz qiladi. Va maktabda bunday dars odatda qabul qilinishi mumkin emas. Quyida ona tili fanida qo‘llanilishi mumkin bo‘lagan bir necha xil didaktik o‘yinlarga misol keltiraman.

“Kriptograflar”

Maqsad: tovushlarni avtomatlashtirish, fonetik-fonemik idrok etish, tahlil va sintez jarayonlarini rivojlantirish, tovush va harflarning semantik farqlarini tushunish, o‘quvchining so‘z boyligini boyitish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.

Tartibi: Ular juft-juft bo‘lib o‘ynashadi: biri “kriptograf”, boshqasi “taxminchi” sifatida.Kriptograf mavzuga tegishli bir so‘zni o‘ylab topadi va uni shifrlaydi. O‘yinchilar jumlalarni to‘g‘rilab uning ta’rifini to‘liq izohlashi kerak.

Masalan: Yordamchi so‘zlar turkumini mustahkamlashda qo‘llab ko‘ramiz. “kriptograf” o‘quvchi yordamchi so‘z turkumlarini yozib ularga bittadan misol yozadi. Keyin ularni bo‘g‘inlarga ajratgan holda harflar joyini alamashtiradi. “Taxminchi” o‘quvchi so‘zlarni to‘grilab uni qaysi so‘z turkumiga kirishini topadi va uni izohlaydi.

singari	rigasin	Ko‘makchi	makchiko‘
chunki	kichun	Bog‘lovchi	lovchibog‘
nahotki	kihotna	yuklama	malayuk

Bu usulni hamma mavzuda qo‘llasa bo‘ladi. O‘quvchilar o‘zlari atama yoki tushunchalarni shifrlab undan topshiriq tuzishadi va o‘zaro almashib ishlashadi.

"Besh nega" va bitta "Nega" usuli. Darsda Toyota texnikasidan foydalish

Beshta nega metodologiyani darslarda qo‘llash

Sakichi Toyoda tomonidan tasvirlangan texnologiya darslarda va bolalar va ota-onalar bilan individual ishlashda muvaffaqiyatli ishlatilishi mumkin. Metodologiyaning mazmuni bir xil vaziyatning kengroq tahlil qilish uchun nima uchun savolini 5 marta beriladi

Bu yerda adabiyot darsida texnologiyalardan foydalanish misollari keltirilgan.

Nima uchun? - U o‘z qilmishini jazoga loyiq deb bildi.

Nima uchun? - Onegin do‘stini o‘ldirdi va sababsiz.

Nima uchun? - U o‘zi nafratlangan qo‘shnilarning hukmidan qo‘rqardi.

O‘quvchilar muammolar doirasida o‘ylay olishlari, barchasini tushunishlari va qarama-qarshiliklar va hodisalarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlay olishlari, vaziyatga adolatli baho berishlari, tezroq to‘g‘ri yechimlarni topishlari, ko‘proq xotiralar va ijodiy tasavvurlarga ega bo‘lishlari, nutqni yaxshiroq tushunishlari mumkin. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, o‘quvchi-bola o‘qimaydigan bolaga nisbatan funktsional savodxonlikning asosini tashkil etadigan asosiy kompetentsiyalarni shakllantirishning yuqori darajasiga ega.

O‘qish savodxonligi matnlardan qiziqarli va foydali ma’lumotlarni olish, matnni tushunish va izohlash, matn haqida baho berish va xulosa chiqarish, shuningdek turli xil hayotiy vaziyatlarda o‘qilgan kitoblarning tajribasidan foydalanish qobiliyatini nazarda tutadi. O‘qish savodxonligini shakllantirishning strategik maqsadi maktabning o‘quv maydonida bolalar va yoshlar o‘qishini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish tizimini yaratishdir. Shaxsning shaxsini shakllantirish va rivojlantirishda kitoblarning alohida o‘rni borligini hisobga olgan holda, o‘qituvchilarning sa’y-harakatlari maktab yoshidagi o‘qish faoliyatining asoslarini yaratishga, o‘smirlarga uni faollashtirish va takomillashtirishga rahbarlik qilishga yo‘naltirilishi kerak.

Taksonomiyaga asoslanib quyidagicha savollar tuzib darsda foydalanish mumkin:

Bilim	**G‘azal mulkining sultoni kim?**
Tushunish	Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” asarining tub mohiyatini tushuntiring.
Qo‘llash	Alisher Navoiyning qanday fazilatlarini o‘zingizda bo‘lishini istaysiz?
Tahlil	Alisher Navoiydan tashqari “Xamsa” yozgan shoirlar bor. Alisher Navoiyning ulardan farqi nima? fikringizni izohlang.
Sizntezlash	“Alisher Navoiy - g‘azal mulkining sultoni” mavzusida insho yozing
Baholash	Alisher Navoiyning “Hamsa” asari hayotimizda qanday muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunda o‘quvchining bilimini tabaqalashtirilgan topshiriqlar 6 xil murakkablik darajasi asosida tekshiriladi.

MOHIR PEDAGOG SIFATLI DARS KAFOLATI

Sharopova Sitora ZAVQIDDIN QIZI,
Navoiy viloyat Navoiy shahar 12-sonli MFCHO‘IDUM ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta’lim va tarbiyaning asosi, poydevori bo‘lmish maktabning ahamiyati va hozirgi kundagi ta’lim tarbiya jarayonlarining mazmun mohiyati, o‘qituvchilar pedagogik mahorati keltirib o‘tilgan. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda zamonaviy, ilmli, malakali kadrlar tayyorlash yoshlarni yuksak ma’naviyat egalari sifatida tarbiyalash masalalarining mazmuni ham o‘rin olgan.*

Kalit so‘zlar: *moddiy texnika, metodika, ta’lim, tarbiya, malaka, ilmiy-falsaviy va dinamistik dunyoqarash, boshqaruv.*

O‘sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik va millatparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu esa oilada, o‘quv dargohlarida ta’lim va tarbiyaga kuchaytirishni taqozo etadi. Bugungi kunda mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismonan sog‘lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarninng faol ishtirokchasiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, maktabgacha ta’limning zamonaviy tizimi, 11 yillik umumiy o‘rta ta’lim muassasalari hamda nufuzli xorijiy universitetlarning filliallari tashkil etilmoqda. Hozirgi zamon odamlari yashayotgan ijtimoiy muhitda asosan ikki yo‘nalishdagi ilmiy-falsaviy va dinamistik dunyoqarash ilmiy-falsafiy yo‘nalishda bo‘lishi, diniy dunyoqarash esa Respublikada dunyoviy davlat qurish manfaatlari doirasida rivojlanishi kerak. Har bir iqtidor va qobiliyatni yuzaga chiqarish o‘quvchilarning intilishiga munosib yo‘l ko‘rsatishda maktabning ahamiyati benihoya katta. So‘nggi yillarda maktablarning moddiy texnika bazasini rivojlantirish, o‘qituvchilar metodikasini yanada rivojlantirish borasida juda ko‘p ishlar amalga oshirildi va hozir ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Maktabni o‘zgartirmasdan turib insonni, jamiyatni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Ta’lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu maktab hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda zamonaviy, ilmli, malakali kadrlar tayorlash, yoshlarni yuksak ma’naviyat egalari sifatida tarbiyalash masalalariga alohida e’tibor qaratgan edilar. Mana shunday davlatni yuksak davlatlar qatoriga chiqarish uchun harakat qilayotgan bir paytda, davlatni orqaga tortib turadigan faqat o‘z manfatlarini o‘ylaydigan, davrimda mazza qilib yashab qolay qobilida ish ko‘radigan insonlar oramizda afsuski yo‘q emas. Masalan maktablarda ishlayotgan xodimlar darsga kechikib kelsa, boshqa ishi yuzasidan maktabga kelmasa, dars berish metodikasi yo‘q bo‘lsa ta’limning shaffof oynasiga darz ketadi.

“Ta’lim texnologiyasi” tushunchasi keng qo‘llanilishiga qaramay, juda shartli. Zagvyazinskiy ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalarning turlarini “o‘quv yoki pedagogik emas, balki o‘qitish deb atash to‘g‘riroqdir” deya ta’kidlaydi. Texnologiya albatta, ta’limda shartli ravishda qo‘llaniladi. Va ta’lim texnologiyasining o‘zi ijtimoiy trxnologiyaning bir turi sifatida qattiq belgilab qo‘yilgan emas. Texnologiya va metodologiyani farqlash hali ham juda munozarali. Ba’zi olimlar texnologiyani “metodologiyani amalga oshirish shakli” deb hisoblashadi, yan ba’zilari esa texnologiya tushunchasi metodologiyadan kengroq deb hisoblashadi. Ukrainalik pedagog va yozuvchi Anton Makarenko pedagogik jarayonni maxsus tashkil etilgan “pedagogik ishlab chiqarish” deb atadi, “Pedagogik texnologiya”ni ishlab chiqish muammolarini qo‘ydi. Shunday ta’kidlagan: “Bizning pedagogik ishlab chiqarishimiz hech qachon texnologik mantiq bo‘yicha qurilgan emas, balki har doim axloqiy targ‘ibot mantiqi asosida qurilgan… ”[312]

Bu kabi muammolarning yechimi esa mohir pedagoglar va ta’lim boshqaruvi vakillari qo‘lida. Barcha fan va yo‘nalishlarga to‘g‘ri keladigan shunday metodlar borki, ular o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi hamkorlikni ko‘rsatadi. Zamonaviy tilda “SMS-CHAT” deb nomlanuvchi ushbu texnologiya, ayniqsa darsni xulosalash va baholashda asqotadi. Darsning tashkiliy qismida chat ko‘rinishidagi tarqatmalar tarqatiladi. Ulardan qanday foydalanishni dars so‘ngida aytilishi, buning uchun faollik talab qilinishi haqida ogohlantiriladilar.. O‘quvchilarga dars so‘ngida “Siz uchun darsdagi eng faol o‘quvchi kim?” savolini qo‘yasiz va o‘quvchilar esa o‘zlari uchun kimni eng faol deb hisoblasalar, ismini yozadilar. Bu orqali o‘quvchilar butun jarayonda sergak o‘tiradilar. SMS-CHAT dan

[312] Ivanova A.P. Tanlangan asarlar. – Novosibirsk, VO “Nauka”, 1994

foydalanish darsning ta’limiy, tarbiyaviy maqsadlarini ochib beradi. O‘quvchilar o‘zini-o‘zi baholash, do‘stlik, shaffoflik tuyg‘ulariga munosabat bildiradilar. Pedagog dunyqarashi, salohiyati, iqtidori, tajribasi, xayolot dunyosidan kelib chiqqan holda turli xil metodlardan unumli foydalanishi mumkin. Shaxsan “Tun va kun”, “Poezd bekati”, “Juft yoki toq” kabi metodlardan keng foydalanaman. Shuningdek, metodik o‘yinlarning barchasini qo‘llash ham kutilgan samarani bermaydi. To‘g‘ri tanlangan metod bolaning darsni o‘zlashtirish, kerakli xulosani chiqarib olish, shaxsiy fikrga ega bo‘lish, o‘zi uchun “yangi bilim”ni kashf qilishiga yordam beradi.

Kadrlar malakasini oshirish, o‘qitish tizimida bir qancha yutuqlarga erishish maqsadida mamlakatimizda so‘nggi yillarda amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Yurtboshimiz ta’kidlagandek: “Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo‘lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko‘plab ijtimoiy muommolarni yechish imkonini beradi. Yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desak, o‘ylaymizki butun xalqimiz bu fikrni qo‘llab quvvatlaydi”[313].

Davlatimiz rahbarining Janubiy Koreya, Angliya, Yaponiya, Xitoy, Rossiya, Finlandiya boshqa mamlakatlarning nufuzli mutaxassislarini ta’lim jarayoniga jalb qilishi yangi tamaddunga beshik bo‘lmoqda. Ayniqsa, Finlandiya ta’lim sohasidagi ijobiy tajribasini O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimiga hamda Dasturga joriy qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Finlandiya maktablarida matematika o‘qitish metodikasi eng yuqori darajada bo‘lib,dunyodagi eng yaxshi tizim ekanligi tan olingan. Yo bo‘lmasam, 2020-yildan buyon amalga oshib kelayotgan “Klass!” loyihasi doirasida qator rossiyalik mutaxassislar mamlakatimizga kelib, mahalliy o‘qituvchilarga o‘qituvchilik mahoratini oshirishda yordam beryapti. Ayniqsa, viloyatlar va olis tumanlardagi o‘zbek maktablarida rus tilini o‘qitishni yaxshilashga e’tibor qaratildi.

Xulosa qilib aytganda, davlatimiz rahbarining ta’lim va tarbiya sohasidagi tub islohatlarini yuksak bosqichga ko‘tarish, mamlakatimizning taqdiri va kelajagi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan yangi avlod kadrlarni voyaga yetkazishga qaratilgan ishlarni izchil davom etish hammamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas burchimiz bo‘lishi kerak.

ADABIYOT DARSLARINING SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA “FIKRLARNI QABUL QILISH SAVATI” USULIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Nilufar SUNNATOVA, Navoiy shahar 12-IDUM o‘qituvchisi

Bugungi kunda yangilangan ta’limda o‘quvchining yuragidagi cho‘g‘ni alanga oldirish, uni har tomonlama rivojlantirib, bilimdan-bilimga yetaklab olib chiqish uchun zamonaviy darslar zarurdir.

O‘quvchilarga darsning maqsadlarini mustaqil ravishda aniqlashga yordam berish juda muhimdir. Odatda o‘qituvchi o‘z oldiga maqsadlarni qo‘yadi va shu maqsadlarga erishish uchun iloji boricha darsni mazmunli o‘tkazish uchun harakat qiladi.

Ammo psixologlar va didaktik olimlar ta’kidlashicha, agar o‘quvchining o‘zi mashg‘ulotning maqsadi va yoki darsning maqsadini aniqlansa, o‘quv jarayoni ancha

[313] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, 30-sentabr 2020-yil

samarali boʻladi. Bu yerda kognitiv funktsiyadan tashqari, motivatsiya ham ishlaydi: men bilishni xohlayman, qiziqaman.
"Fikrlar savati" usuli boshqa tomondan qaralganda barcha oʻquvchilarni aqliy mehnatga jalb qilishdir. Doimiy darsda bilimlarni yangilash bosqichi har doim ham sinfdagi barcha oʻquvchilarga faol ishtirok etish imkonini bermaydi. Koʻpchilik oʻquvchilar passiv ravishda oʻtirishadi. "Fikrlar savati" individual ishning bosqichini oʻz ichiga oladi, bu hatto eng passiv oʻquvchilarni ham ishlashga majbur qiladi.

Uchinchi muhim nuqta: yozuvlarni yaratishda hamma ishtirok etadi - oxir-oqibat, shartlardan biri: atamalar va taklif qilingan gʻoyalar takrorlanmasligi kerak. Ya'ni, har bir oʻquvchi nafaqat boshqalarning takliflarini diqqat bilan tinglaydi, balki yoʻl davomida uning bilimlarini ham tahlil qiladi, u ham bilgan va bilmagan narsalarini ta'kidlaydi. Boʻshliqlarni tuzatib, oʻquvchilar xatolarini toʻgʻrilashga e'tibor berishda davom etadilar.

"Fikrlar savati" texnikasi bilan ishlash algoritmi

"Fikrlar savati" oʻz mazmunida "Aqliy hujum" va "Klaster" kabi taniqli usullarga oʻxshaydi. Klaster mantiqiy zanjirlarni yaxshiroq koʻrishga yordam beradi, "gʻoyalar savati" esa faqat "qiziqish doirasini" belgilaydi. U dars davomida muhokama qilinadi va tahlil qilinadi. "Fikrlar savati" bilan ishlash algoritmi:

- Dars mavzusi e'lon qilinadi.
- **Shaxsiy ishlash.** Har bir oʻquvchi mavzu doirasida bilgan narsalarini daftarga yozadi. Ushbu bosqich uzoq davom etmaydi - 2-3 daqiqa.
- **Juftlikda yoki guruhlarda ishlash**. Oʻquvchilar oʻzlarining fikrlari bir-biriga mos va farqlari nimada ekanligini bilib, ma'lumot almashadilar. Vaqt - 3 daqiqa.
- **Sinf bilan ishlash**. Ushbu bosqichda har bir guruh mavzu boʻyicha oʻz fikrlarini bildiradi, bilimlarini olib boradi yoki ushbu masala boʻyicha fikr bildiradi. Bundan tashqari, javoblar takrorlanmasligi kerak. Oʻqituvchi doskadagi barcha gaplarni qisqacha yozadi.

Dars mavzusi bilan bogʻliq boʻlgan barcha narsalar "savatga" tashlanadi: gʻoyalar, ismlar, sana, faktlar, taxminlar, atamalar va boshqalar.
Muhimi! Takliflar, taxminlar va gʻoyalar tanqid qilinmaydi yoki baholanmaydi. Ushbu bosqichda bu shunchaki ma'lumot toʻplashdir.
Odatda oʻqituvchilar uchun neytral tinglovchi sifatida harakat qilish qiyin: biz xatolarni tuzatishga, koʻrsatishga odatlanamiz.

- Barcha fikrlar va takliflar darsning keyingi qismida oʻrganilib tahlil qilinadi. Asta-sekin, barcha xato yoki notoʻgʻri ma'lumotlar "savat" dan yoʻq boʻlib ketishi kerak va toʻgʻri boʻlganlarning savatda qolishi kerak.
- siz darsni umumlashtirish uchun yana "Fikrlar savatiga" murojaat qilishingiz mumkin.

"Fikrlar savati" dan foydalanish uchun namuna

- "Fikrlar savati" usulidan katta hajmdagi yangi ma'lumotni qabul qilishga tayyorgarlik koʻrish va dars jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun ham foydalanish mumkin.
- Oʻquvchilar oʻz fikrlari va taxminlarini bildirganda, toʻliq javoblarni talab qilishga harakat qiling.Shunday qilib, usul ogʻzaki nutq va mantiqiy taqdimot koʻnikmalarini rivojlantirish uchun ishlaydi.
- Oʻqituvchining gʻoyalari va fikrlarini yozib olish bosqichida hamma narsa yozib olinadi, hatto xato va notoʻgʻi ma'lumotlar ham. Tanqid qilish tavsiya qilinmaydi! Sizning maqsadingiz: dars davomida oʻquvchilarni oʻzlari xatolarini tahlil qilishga jalb qiling.
- Agar dars mavzusi toʻliq noma'lum boʻlsa, unda siz oʻquvchilardan oʻz taxminlari va takliflarini ifoda etishlarini soʻrashingiz mumkin - ular nimani anglatadi va bugungi kunda nimani oʻrganmoqchi.

"Fikrlar savati" usuli oʻtgan mavzuni takrorlash bosqichida taklif etiladi. Ya'ni, oʻtgan mavzu boʻyicha bilimlarni takrorlash jarayoni sodir boʻlganda - koʻrsatilgan mavzu bilan bogʻliq

bo‘lgan barcha narsalar o‘quvchilar xotirasidan "esga olinadi", to‘plangan tajribani umumlashtirish va yangi materialni qabul qilishga tayyorgarlik bo‘ladi

Namuna:

Dars mavzusi: Janni Rodarining hayoti va ijodi

Birinchi bosqichda o‘quvchilar mavzu haqida barcha bilganlarini qisqacha daftarga yozib olishadi. Unda to‘g‘ri mulohazalar ham xatosi ham bo‘lishi mumkin. Xato yoki to‘g‘ri yozilgan fikrlarni kim yozgani aytilmaydi.

Doskada savat chizilgan (yoki savat rasmi ilinadi).

- *Janni Rodari fransuz bolalar yozuvchisi*
- *Janni Rodari 1920-1980 yillarda yashagan*
- *Janni Rodari bolalar adabiyoti bo‘yicha Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan*
- *Rodari — shoir, Rodari — jurnalist, Rodari — o‘qituvchi.*

Ikkinchi bosqichda o‘quvchilar sheriklari bilan muhokama qilishadi va savatga fikrlarni qog‘ozga yozib tashlashadi.

Uchinchi bosqichda o‘quvchilar va o‘qituvchi birgalikda savatdagi fikrlarni xato va to‘g‘riga ajratishadi.

X *Janni Rodari fransuz bolalar yozuvchisi*

X *Janni Rodari bolalar adabiyoti bo‘yicha Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan*

✓ *Janni Rodari 1920-1980 yillarda yashagan*

✓ *Rodari — shoir, Rodari — jurnalist, Rodari — o‘qituvchi.*

MUNDARIJA:

SO‘ZBOSHI		**3**
Bahodir Boypulatovich Sobirov		**4**
BIRINCHI SHO‘BA O‘ZBEK TILI NUFUZINI OSHIRISHNING NAZARIY MASALALARI		
1.	**Н.Муродова** Лингвистик география: лингвистик атласларнинг яратилиши	**6**
2.	**М.Равшанов, И.Эргашев** Ўзбек тили лексикаси тараққиётида динамик омил	**10**
3.	**М.Равшанов, Ф.Нажмиддинов** Ўзлашма қатлам лексик бирликлари динамикасида тарихийлик тамойиллари	**14**
4.	**A.Tursunov** Hozirgi va tarixiy so‘z yasalish usullari va ularning munosabati	**17**
5.	**N.Musayeva** O‘zbek tilshunosligida bolalar nutqini o‘rganishning nazariy muammolari	**19**
6.	**Д.Шарапова** Художественное пространство текста	**23**
7.	**Ж.Самандаров** Ўзбек тилшунослиги ва замонавий жамиятда ахборот хавфсизлиги	**25**
8.	**S.Nurmanova** Ijodkor idiostilini o‘rganishning nazariy asoslari	**26**
9.	**F.Namozova** Zamonaviy tilshunoslikning yangi yo‘nalishlari: psixolingvistika	**29**
10.	**O.Ro‘zimorodova** Boburning lingvistik qarashlari	**31**
IKKINCHI SHO‘BA O‘ZBEK TILI NUFUZINI OSHIRISHNING AMALIY MASALALARI		
11.	**П.Бакиров** Сопоставление в пословицах узбекского языка (на примере бессоюзных сложных предложений)	**34**
12.	**R.Yusubova** Intertekstual tahlil metodi va muallif individualligi	**36**
13.	**O‘.Oripov, S.Xudjanazarova** Navoiy viloyati onomastik birliklarining tarkibi va tahliliga doir ayrim mulohazalar	**38**

14.	**F.Nurmanov** Fonetik hodisalarning til fonetik sistemasini o‘rganishdagi o‘rni	**41**
15.	**O‘.Oripov, S.Axmedov** Nurota etnotoponimlari haqida ayrim mulohazalar	**43**
16.	**O‘.Oripov, S.Axmedov** Nurota tumanidagi ayrim etnonimlarining ma’no xususiyatlari	**46**
17.	**О.Юсупова** Усмон Азим шеъриятида синтактик такрор	**54**
18.	**Р.Шаропова** Терминологик луғатлар типологиясига оид	**58**
19.	**Г.Эрназарова** Минералогия терминларида омонимия	**61**
20.	**Ф.Юлдашев** Лингвомаънавиятшунослик ва унинг истиқболлари	**65**
21.	**N.Yarashova** Nutqi buzilgan bolalarda kognitiv funksiyalarni rivojlantiruvchi omillar	**67**
22.	**У.Рашидова** Соматик фразеологизмларнинг услубий имкониятлари (“қўл” компонентли иборалар мисолида)	**70**
23.	**Х.Йўлдашева** Бадиий матнда ижтимоий дейксисга ишора қилувчи лексик бирликлар	**73**
24.	**О.Шукуров** Сўз ўзлаштириш ва унинг тадрижий тараққиёти	**75**
25.	**Д.Исламова** Лисоний репрезентация – оламнинг бадиий манзарасининг аосий мехнизми сифатида	**78**
26.	**S.Turdimurodov** Evfemik ma’nodoshlik qatorida darajalanish	**82**
27.	**D.Mamirova** Reklama matnlarida deyktik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari	**84**
28.	**Н.Ғаниев** Қизилтепа тумани топонимларининг ареал ва тарихий таҳлили тавсифи	**87**
29.	**Ж.Ибрагимов** Нутқий сўз бирикмалари ва уларнинг тавсифига доир	**91**
30.	**Ш.Турдиқулов** Ўзбек тилида топонимлар экстралингвистик манба сифатида	**95**
31.	**M.Safarova** “Nur” toponimining ma’no xususiyatlari	**98**
32.	**Ш.Избасарова** Бадиий матн қамровида лексик-семантик воситалар талқини	**105**

33.	**А.Ҳасанов** Садриддин Айнийнинг “Судхўрнинг ўлими” қиссасида қўлланилган йилқичилик ва чорвачилик терминлари таҳлили	**107**
34.	**B.Raxmanov** Surxondaryo shevalariga xos ba’zi dialektal-etnografizmlarning qadimgi turkiy til va eski o‘zbek adabiy tili bilan munosabati	**110**
35.	**Sh.Musayeva** Nosir Fozilov ijodida so‘z qo‘llash mahorati izohli lug‘at misolida	**112**
36.	**Х.Ахмедов** Алпомиш достонида бошқа тиллардан маъновий ёки шаклий ўзлаштирилган фразеологик бирликлар	**114**
37.	**D.Yo‘ldosheva** Rus tilshunosligida tavtologiyaning o‘rganilishi	**117**
38.	**M.Suvonova** Etnografizmlar leksik birlik sifatida	**119**
39.	**M.Kazakova** The importance of uzbek language in teaching english	**122**
40.	**G.Bekboyeva** Matn mazmunining kognitiv asoslari	**124**
41.	**R.Mardonova** Epitet va badiiy matn	**125**
42.	**А.Мавлонов** Алишер Навоийнинг “Садди искандарий” достонида қўлланган ботаник терминлар таҳлили	**127**
43.	**O.Anorqulova** Ayrim tarixiy asarlarda “ota” konseptining kognitiv talqini (“Devonu lug‘otit turk” va “Qutadg‘u bilig” asarlari matni asosida)	**130**
44.	**Г.Эшниёзова** Бадиий матнда шакл-маъно-вазифа диалектикаси	**132**
45.	**S.Ulug‘murodova** Kichik nasriy asarlarda ona konseptining ifodalanishi	**136**
46.	**O.Hazratkulova** O‘zbek tilida kechirim so‘rashning eng muhim vazifasi pragmatik afv mazmunli birliklar	**139**
47.	**G.Bozorova** Modern she’riyatda metaforik obrazlilik	**142**
48.	**R.Davlatova** Tilshunoslikda ma’no kuchaytirish vositalari	**144**
49.	**U.G‘aybulloyeva** O‘zbek lingvokulturologiyasiga xos o‘xshatishlar va ularning tarjimasi haqida (Badiiy asarlar misolida)	**146**
50.	**D.Rasulova** O‘zbek xalq maqollarida ma’naviyat mavzusining aks ettirilishi	**149**

51.	**D.Azimova** “Poklik” leksemasining semantik xususiyati	**151**
52.	**B.G‘aniev** Abdulla Oripov she’riyatida so‘z va uning ifoda tarzi	**153**
53.	**M.Tojiboyeva** O‘zbek tilida “tarbiya” umumiy ma’noli guruhlar	**155**
54.	**И.Шодиева** Неполные предложения в синтаксической системе современного русского языка	**158**
55.	**Д.Каххорова** Творческие задания для закрепления темы «наклонение глагола»	**161**
56.	**D.Yandashova** Badiiy asarlarda konseptning lingvokognitiv va lingvomadaniy xususiyatlari	**164**
57.	**G.Abdullayeva** «Kognitiv muqobillik» tamoyilining lingvistik asoslari	**167**
58.	**G.Ibrohimova** Dunyo tillarda so‘z yasash usullarining o‘ziga xos jihatlari	**169**
59.	**F.Boboqulova** Odil Yoqubovning “Ko‘hna dunyo” asarida istorizmlarning qo‘llanilishi	**171**
60.	**R.Muslixiddinova** Sadriddin Ayniyning asarlarida qo‘llanilgan maqollarning leksik-semantik xususiyatlari	**173**
61.	**X.Ramazonova** Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asari va unda berilgan maqol va matallarning tarixiy va hozirgi talqini	**176**
62.	**M.Mustafoyeva** “Mehrobdan chayon” romanida qo‘llanilgan antroponimlarning lisoniy tahlili	**180**
63.	**G.Berdibekova** O‘zbek va qozoq tillaridagi ayrim qo‘shimchalarning qiyosiy tahlili (kelishik, egalik, shaxs-son qo‘shimchalari misolida)	**184**
64.	**Sh.Mansurova** Ulug‘bek Hamdam nazmida metaforalar talqini	**186**
65.	**I.Bahronova** Tohir Malikning “Saodat saroyining kaliti” asarida sinonimlar uslubiy vosita sifatida	**188**
66.	**F.Sayfullayeva** “Jannatga yo‘l” dostonida ma’naviyat umumiy semali birliklarning semantik xususiyatlari	**190**
67.	**F.Abdimurodova** No- affiksining ijtimoiy-siyosiy terminlar hosil qilishdagi o‘rni	**192**

68.	**N.Sanoyeva** Badiiy matnda *biz* olmoshining stilistik xususiyati	**194**
69.	**G.Turobova** Nutq odobi va madaniyatiga oid fikrlar tarixidan	**195**
70.	**N.Ro‘ziboyeva** Alisher Navoiyning “Muhokamatul lug‘atayn” asari xususida mulohazalar	**196**
	UCHINCHI SHO‘BA **TIL VA MA’NAVIYAT: ADABIYOT, FALSAFA, TARIX**	
71.	**А.Холмуродов** Тил тараққиётида бадиий адабиётнинг ўрни	**198**
72.	**Т.Хўжаев** Сўздаги жозиба	**200**
73.	**Н.Турсунова** Ўзбек маросимлари ва ирим-сирмлар хусусида	**203**
74.	**G.Boltayeva, N.Ernazarova** Alisher Navoiy muxammaslarining o‘ziga xos jihatlari	**205**
75.	**М.Ризоева** Эътиқодлар билан боғлиқ маросимлар хусусида	**208**
76.	**Г.Норова** Ўз она тилини билмайдиган онанинг фарзанди учун она тили қайси тил бўлади?	**213**
77.	**Н.Шарипова** “Хамса” поэтик структурасида басмаланинг ўрни	**215**
78.	**Н.Шарипова** “Ҳайрат ул-аброр” достонида наът	**219**
79.	**F.Nizomov** Luqmon Bo‘rixon qissalarida xarakter	**222**
80.	**Д.Акбарова** Она тили – аклий тарбиянинг мухим омили	**225**
81.	**Х.Арзиқулова** Андромаха	**227**
82.	**А.Гафурова** Генезис и типология развития экфрасиса	**230**
83.	**K.Sultonova** Alisher Navoiyning fors tilidagi ijodiga bir nazar	**232**
84.	**F.Ravshanova** Alisher Navoiy va Bobur ruboiylarida tasavvufiy qarashlar	**236**
85.	**M.Ochilova** Alisher Navoiy falsafiy qarashlarida tilga doir mulohazalar	**237**
86.	**D.Ergasheva**	**240**

	Qadring baland bo‘lsin, ona tilim!	
87.	**S.Omonova** “Sen tilni sharafla, el uchun nomus bil”	**241**
88.	**G.Bahriddinova** Globallashuv sharoitida til ma’naviyati	**243**
89.	**M.Yunusova** O‘zbek tilida tasavvufiy atamalar	**244**
	TO‘RTINCHI SHO‘BA **TIL TA’LIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUV**	
90.	**X.Qurbonova** Ona tili ta’limini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar	**247**
91.	**M.Qayumova, Sh.O‘tkirova** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tili kompetensiyalarini shakllantirishda o‘quv adabiyotlarining ahamiyati	**248**
92.	**Ф.Жумаева** Анализ раздела «Словообразование» в школьных учебниках	**251**
93.	**M.Sanoyeva** Ta’lim texnologiyalari – sifatli ta’lim poydevori	**255**
94.	**Sh.Hamidova** Rostgo‘ylikning bola tarbiyasidagi o‘rni// Bolaga doim rost so‘zlang	**257**
95.	**M.Eshniyazova** Sohada o‘zbek tilini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash samaradorligi	**259**
96.	**N.Sharipova** Xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida bo‘lajak pedagoglarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash	**263**
97.	**M.Atamuratova** Productive ways of teaching english language to non-linguistic students	**265**
98.	**Y.Qurbonova** Sodda gaplarni o‘qitishda interfaol usullardan foydalanish	**267**
99.	**Г.Фефелова** Электронные средства обучения как главный компонент современного урока русского языка	**270**
100.	**С.И. Хамраева** Ўзбекистонда тиббиёт соҳасини рақамлаштириш (Навоий вилояти мисолида)	**273**
101.	**F.I.Shirinova** Navoiy viloyatida maktabgacha ta’lim tizimi islohotlari: jahon tajribasi va amaliy natijalar	**275**
102.	**A.K Chuliyev** Sport sog’lomlashtirish masalasi bola hayotidagi muhim komponent sifatida	**277**

103.	**Д.Мустафаева** Особенности процесса формирования коммуникативной компетенции	**279**
104.	**Н.Шакурбанова** Роль терминологической работы на занятиях по овладению языками	**281**
105.	**Ф.Рахимова** Ўзбек тилини ўргатишда луғат билан ишлаш устуворлигининг аҳамияти	**283**
106.	**U.Hamroyev** “Sifat va uning ma’noviy guruhlari” mavzusini o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarlardan foydalanish	**285**
107.	**М.Норқобилов** Калом илми тарихида давлатнинг сиёсий-бошқарув масаласига оид қарашлар	**290**
108.	**Mamanazarov A.** Jismoniy tarbiya nazariyasi fanining muhim jihatlari	**292**
109.	**Kobilova M.** Linguocognitive study of metaphor	**293**
110.	**U.Hamroyev, U.Hikmatov** Ona tili darslarida integratsiya maqsadli xarajatlar (hisob so‘zlar)	**297**
111.	**Ma’rufjon Azimqulov, Fazliddin Sharipov** O‘zbek tilida egalik kategoriyasining semantik ifodalanishi	**302**
112.	**Y.Hodiyeva** B2 darajasidagi talabalarning strategik kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha “gapirish” faoliyati	**305**
113.	**O.G‘.Rajabov,** Favqulodda vaziyatlarda ekologik tarbiya yuksaltirishning dolzarb vazifalari	**308**
114.	**Diyora Nurimova,** Linguistic essence of discursive analysis (In the example of Usman Azim’s poems)	**310**
115.	**D.Esonturdiyeva** Til o‘qitish jarayonida o‘qish savodxonligini oshirish orqali yuqori samaradorlikka erishish	**312**
116.	**D.A. Otaqulova** Psixologik tadqiqotlarda empatik munosabatlarni tadqiq etishning o’ziga xosliklari	**314**
117.	**U.M.Utamuradov** O‘quvchilarning huquqiy kompetensiyalarini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni va ahamiyati	**316**
118.	**D.Z.Rahmonova.** Voyaga yetmaganlarda jinoiy xulq-atvor namoyon bo’lishining psixologik xususiyatlari	**319**

119.	**Г.Т. Жураева** Туркистонда жадидчиликни бўлиниши ва Туркистон, Бухоро, Хива жадидчилик ҳаракатини тафовутлари	**321**
120.	**N.Karimova** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yozma nutqni shakllantirish masalalari	**324**
121.	**Ф.Маъмурова** Инновацион таълим технологияларининг моҳияти ва турлари	**326**
122.	**Sh.Axmedova** Ona tili va adabiyot darslarida qo‘llaniladigan didaktik metodlarning o‘quvchilar hayotidagi o‘rni	**330**
123.	**S.Sharopova** Mohir pedagog sifatli dars kafolati	**331**
124.	**N.Sunnatova** Adabiyot darslarining sifat samaradorligini oshirishda “fikrlarni qabul qilish savati” usulidan foydalanish metodikasi	**333**

“GLOBALLASHUV SHAROITIDA O‘ZBEK TILI NUFUZINI

OSHIRISHNING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI:

muammo, yechim, istiqbollar”
mavzusidagi
ilmiy-amaliy konferensiyasi
M A T E R I A L L A R I

Hajmi 12,6. 1/16 bosma taboq. Adadi 50 nusxa.
NavDPI bosmaxonasida chop etildi.
Navoiy shahri Ibn Sino-45.